84(50)-5
A 61

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ALISHER NAVOIY

6

Б4(50)-5
А 51

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ALISHER NAVOIY

6

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5
A 51

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Mirzo Kenjabek

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8722-3-3
© **“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022**

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi...

Shavkat Mirziyoyev

TURKIY ADABIYOT SULTONI

(Alisher Navoiyning ijod olami)

Jahonshumul tashabbus

"Turkiy adabiyot durdonalari" turkumining mazkur 6-jildi hazrat Alisher Navoiy she'riyati namunalarini o'zida mujassam etgan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kitob — tinchlik, sulh va ezgulik elchisi ekanini ta'kidlagan holda, jahon siyosati madaniyatiga yangi bir an'anani olib kirdi. Bu turli davlatlarning rahbarlariga kitob hadya etish tashabbusidir.

O'zbekiston davlati rahbari ilk marta Rossiyaga qilgan rasmiy safari vaqtida Rossiya Prezidenti Vladimir Putinga ulug' olim va san'at arbobi **Igor Vitalyevich Savitskiyning** (1915–1984) faoliyati jamlangan ulkan kitobni hadya qilgan edi. Turkmaniston Prezidenti bilan bo'lgan ilk rasmiy muloqot vaqtida esa **buyuk valiy shoir, barcha turkiy xalqlaring sevimli adibi Maxtumquli** saylanmasini sovg'a qilgan va o'shanda kitob eng yaxshi tuhfa ekani ta'kidlab o'tilgan edi. Tojikistonga qilgan rasmiy safarida esa O'zbekiston rahbari Tojikiston Prezidentiga ulug' mutafakkir shoir va alloma hazrati **Aburahmon Jomiyning "Muhabbat maxzani"** kitobini hadya qildi.

Nihoyat, Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand shahrida o'tkazilgan birinchi sammitida turli davlatlarning rahbarlariga o'zbek tilida nashr etilgan va **yuz jilddan iborat bo'lgan "Turkiy adabiyot durdonalari" turkum xazinasi** hadya qilindi.

TerDU ARM
426 501

Mazkur adabiy-ma'rifiy xazina faqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo miqyosida emas, balki butun dunyo miqyosidagi turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor amalga oshirilgan ulkan adabiy loyihaning amaliy ifodasi, Yangi O'zbekistonning yangi siyosiy tashabbusi, o'zbek xalqi va O'zbekiston davlatining qardosh xalqlarga va ularning so'z xazinasiga bo'lgan hurmat-ehtiromning oliy ko'rinishidir.

Turkiy xalqlar va sharq xalqlari hayotida kitob hadya qilishdek qutlug' an'ana hazrati Alisher Navoiy davridan boshlangan. Chunonchi, Alisher Navoiy aytadilar:

Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig'a bir devon yibordim.

"Qaysi mamlakatga — qaysi yurtga bir farmon yuborgan bo'lsam, uni zabt etish uchun, uning yaxshilik bilan amalga oshmog'ini ta'minlash uchun bir devon yubordim!"

Bu go'zal baytdan ma'lum bo'ladki, kitob — yaxshilik va pok niyat, do'stlik va tinchlik, samimiyat va hamkorlik elchisidir. Xususan, Navoiy devoni barcha turkiy xalqlarni birlashtiruvchi ma'naviy ganjinadir.

Alisher Navoiyning jahon adabiyotida tutgan mavqeyi

Umumjahon adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraganda, Alisher Navoiy dunyo adabiyotida benazir shaxs, tengsiz shoir, orif adib va qomusiy alloma sifatida namoyon bo'ladi. She'riyatdagi mavqeyi: to'rt buyuk devon sohibi, "Xamsa" ("Besh doston") an'anasining jahondagi to'rtinchi tashabbuskori, jahon adabiyotidagi ikki buyuk tazkira — "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" muallifi; Qur'oni Karimda nomlari zikr qilingan va hazrati Odam alayhissalomdan boshlab to hazrati Muhammad sollallohu alayhi va sallamgacha bo'lgan payg'ambarlar tarixi, rumo va yunon hakimlari manoqibi va hikmatlari bayon qilingan "Tarixi anbiyo va

hukamo" ("Payg'amabarlar va hakim zotlar") tarixiy asari sohibi. Yana maqomot va manoqib janrida ham naziri yo'q asarlar ijod etgan.

Alisher Navoiy — tengsiz mutasavvif olim va shoir, tasavvuf ta'limoti borasida bitgan "Nasoyim ul-muhabbat" hamda "Lison ut-tayr" asarlari jahon ma'naviyatining durdonalaridir. U zot jahon adabiyoti tarixida birinchi Islom fiqhini she'riy bayon etib, "Siroj ul-muslimiyn" asarini bitganlar. "Mahbub ul-qulub" — hayot dasturi, ma'rifatli jamiyat ko'zgusi, fuqaro va sultonlar uchun abadiy qo'llanmadir.

Xuroson davlatining vaziri sifatida ne-ne buyuk tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, xususan, hazrati Husayn Voiz Koshifiyning Qur'oni Karim sharhiga oid "Tafsiri Husayniy" kitobi va Mavlono Jomiyning bir qancha asarlari tashabbuskori bo'lgan siyosat va davlat arbobidir!

Dunyo adabiyotida maktubnavislik janri u kishining zakovati sababli tarixda qoldi. U zot hazrati Abdurahmon Jomiyning o'zlariga yozgan maktublarini jamlab, maxsus albom tuzdilar. Bu maktublar — maktubnavislik san'ati va madaniyatining namunasi, tarixiy davr ko'zgusi, XV asr insoniy va vijdoniy yashash manzarasini aks ettiruvchi ma'naviy-adabiy hujjatdir.

Bir so'z bilan aytganda, jahon adabiyotida hazrati Navoiy qamragan xilma-xil mavzularni qalamga olgan boshqa biror adib yo'q. Shuning uchun hazrat Navoiyni "Jahon adabiyotining sultoni" deb atash zinhor bir mubolag'a va bo'rttirma emas, balki ayni haqiqatdir.

Alisher Navoiyning turkiy adabiyotdagi mavqeyi

Hazrat Alisher Navoiy zikr qilgan Huloguxon (XIII asr) zamonidan Sulton Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon zamonigacha, u zotning zamonidan farzandi xalafi Shohruh Sulton zamonining oxirigacha (XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asrning birinchi yarmi) — yana hazrat Navoiyning o'zlaridan to bugungi kungacha yashab

o‘tgan shoirlar silsilasi buyuk she’riyat qo‘rg‘onini tashkil etadi. Bu buyuk turkiy she’riyatning ibtido tarixi Xoja Ahmad Yassaviy (XII asr), Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy, Mavlono Lutfiy nomlari bilan bog‘lanadi (XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asrning birinchi yarmi). Shubhasiz, turkiy tilda benazir “Xamsa” yozgan zot turkiy she’riyatning ham sultonidir.

Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa” asarini yozib tugatganlarida bu xabar yashin tezligida olamga yoyilgan. Turkiy tilda besh ma’rifiy doston yozilishi jahon muhabbat va ma’rifat ahlining qalbiga quvonch olib kirib, barcha millat ijodkorlarining hayratiga sabab bo‘lgan.

“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asari bilan hazrat Navoiy turkiy tilga e’tiborsiz qaraydigan shaxslarga olimona va odilona javob berdi va turkiy tilni o‘z ma’naviy saltanatining muhofazasiga oldi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasiga necha yuzlab turkiy shayx va avliyolarning manoqiblarini jamladi.

Turk nazmida bayroq ko‘tarib...

Hazrat Navoiyning hayotda ham, ijodda ham naqadar kamatarin, naqadar xokisor, naqadar tavozukor shaxs ekani olam ahliga ma’lum. Lekin Qur’oni Karimda “**Rabbingizning ne’mati haqida esa** (hamisha) **so‘zlang”** deb marhamat qilinadi. Shunga ko‘ra, Alisher Navoiy shunchalik tavozukorligi bilan o‘zidagi iste’dod va tasarrufidagi qalam ne’mati haqida so‘zlaydi. Chunonchi, “Lison ut-tayr” dostonida aytadi:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
To‘rt devon birla nazmi panj ganj,
Dast berdi chekmayin anduh-u ranj.
Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,
Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos.

“Men turk she’riyatida bayroq ko‘tarib, ul turkiy mamlakatni ishg‘ol etdim va birlashtirdim. To‘rt devon bilan besh xazina — “Xamsa” dostonlari qayg‘u-ranj chekmasimdan qo‘limga kirdi. Nazm va nasrdagi asarlarimni taxminshunos bir kotib yozsa, yuz ming bayt deb qiyos qilgan bo‘lar edi”.

Yana “Xamsa”ning “Farhod va Shirin” dostonida aytadi:

Nizomiy olsa Barda’ birla Ganja,
Qadam Rum ahlig‘a ham qilsa ranja,
Chekib Xusrav dag‘i tig‘i zabonni,
Yurub fath aylasa Hindustonni,
Yana Jomiy ajamda ursa navbat,
Arabda dog‘i cholsa ko‘si shavkat,
Agar bir qavm, gar yuz,
yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur.
Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko‘ngul bermish so‘zumga turk, jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig‘a bir devon yibordim.

Mazur baytlarda hazrat Navoiy shukrona maqomida: “Agar hazrat Nizomiy Ganjaviy Arran hokimiyatining qadimiy poytaxti bo‘lmish Barda’, keyingi poytaxt bo‘lmish Ganja shaharlarida va Rum diyorida mashhur bo‘lsa, hazrat Xusrav Dehlaviy Hindistonda shuhrat qozonib, Mavlono Jomiy esa Ajam va Arabda dong taratgan bo‘lsa, butun turkiy xalqlar meniki bo‘ldi, men faqat Xitoydan Xurosongacha bo‘lgan yerlarnigina emas, balki Sheroz-u Tabriz, hatto turkmon ellarini ham lashkarsiz, harbsiz holda o‘z asarlarim bilan zabt etdim”, demoqda.

Basirati ravshan Navoiy bu faxriya va shukrona so‘zlaridan keyin yana o‘z xushyorligi va xokisorligiga qaytib: “Ey Navoiy, qancha vaqt behuda, puch so‘zlarni aytasan, bu behuda so‘zlarni qo‘y, yagona Allohga qaytgin!” — deya o‘z orifona qalbiga xos so‘zni aytadi:

Navoiy necha degung so‘zni hazyon,
Bu hazyonlarni qo‘y, bir Tengriga yon.

Hazrat Navoiyning mangu falsafasi va hikmatlari xulosasi ravshan: “Jahon ahlida kimki inson bo‘lsa, uning insonligi belgisi, hujjati — imonidir!”

Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki, nishoni anga imon erur.

Zahiriddin Muhammad Bobur ta’biri bilan aytganda, jahon adabiyotida hech kim u zotchalik ko‘p va xo‘b aytgan (yozgan) emasdir! Jahon turkiy adabiyotining sultoni, butun turkiy olamni qalam bilan birlashtirgan zot — hazrat Alisher Navoiyning ijodiy xazinasi dunyo turguncha turadigan abadiy va o‘lmas xazinadir!

Devon adabiyoti va “Devon” istilohining ma’nosi

Davr arboblari Alisher Navoiy hazratlarini: “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” — deb ta’riflaganlar.

Hazrati Amir Nizomiddin Alisher Navoiy ijodida ma’rifat va mav’iza, insoniy muhabbat va ilohiy ishq, majoz va haqiqat mavzulari tarannumi boshqa hech bir devonda misli ko‘rilmagan darajada orifona va san’atkorona darj etilgandir.

Ey Navoiy, oltin-u shingarf-u zangor istama,
Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

"Devon", "G'iyos ul-lug'ot"ga ko'ra, ajamiy so'z bo'lib, bir qancha ma'nolarni anglatadi. Jumladan, arabiy harflar asosida tartib berilgan, aruz vaznida bitilgan, bir shoirga oid bo'lgan g'azallar hamda (masnaviy va qasidalardan boshqa) barcha she'rlar majmuasidir. "Devoni Navoiy", "Devoni Xoja Hofiz", "Devoni Fuzuliy" kabi asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Devon tuzishga muvaffaq bo'lgan shoirlar "sohibi devon" deb ulug'lanadi.

Ba'zi mamlakatlarda devon an'anasiga asoslangan she'riyat "devon adabiyoti" deb yuritiladi.

Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta'sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur'oni Karim va hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot "majoz haqiqatning ko'prigidir" degan hikmatga asoslanadi.

Majoz va uning mohiyati

Majoz — 1) yo'l; 2) o'tish joyi; 3) haqiqatning ziddi; 4) so'zning o'z haqiqiy ma'nosidan boshqa (ko'chma) ma'noda iste'mol qilinadigan ma'nosidir. Majoz san'atida so'zning haqiqiy ma'nosi tark etilgan bo'lishi mumkin emas, balki o'sha mavzuda va boshqa mavzuda unga mushobahat yoki zarifiyat, yoki sababiyat, yo undan boshqa aloqasi mutahaqqiq bo'lishi shart.

"G'iyos ul-lug'ot" musannifi Muhammad G'iyosuddin Rompuriy fikricha, majoz san'atining asosi aslida Qur'ondadir. Zarifiyat aloqasiga misol: Havoriylar Iso alayhissalomga: **"Alloh taolo bizga osmondan bir moida (dasturxon) tushirsin"**, dedilar ("Moida" surasi, 112–114-oyatlar). Dasturxondan murod esa taom, yeguliklardir. Sababiyat aloqasiga misol: shams (quyosh)ning itloqi (taalluqi) "ziyo" ifodasida, kull (butun)ning itloqi juzvda (qismda) namoyon bo'ldi.

Basirati ravshan Navoiy bu faxriya va shukrona so‘zlaridan keyin yana o‘z xushyorligi va xokisorligiga qaytib: “Ey Navoiy, qancha vaqt behuda, puch so‘zlarni aytasan, bu behuda so‘zlarni qo‘y, yagona Allohga qaytgin!” — deya o‘z orifona qalbiga xos so‘zni aytadi:

Navoiy necha degung so‘zni hazyon,
Bu hazyonlarni qo‘y, bir Tengriga yon.

Hazrat Navoiyning mangu falsafasi va hikmatlari xulosasi ravshan: “Jahon ahlida kimki inson bo‘lsa, uning insonligi belgisi, hujjati — imonidir!”

Kimki jahon ahlida inson erur,
Balki, nishoni anga imon erur.

Zahiriddin Muhammad Bobur ta’biri bilan aytganda, jahon adabiyotida hech kim u zotchalik ko‘p va xo‘b aytgan (yozgan) emasdir! Jahon turkiy adabiyotining sultoni, butun turkiy olamni qalam bilan birlashtirgan zot — hazrat Alisher Navoiyning ijodiy xazinasi dunyo turguncha turadigan abadiy va o‘lmas xazinadir!

Devon adabiyoti va “Devon” istilohining ma’nosi

Davr arboblari Alisher Navoiy hazratlarini: “Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” — deb ta’riflaganlar.

Hazrati Amir Nizomiddin Alisher Navoiy ijodida ma’rifat va mav’iza, insoniy muhabbat va ilohiy ishq, majoz va haqiqat mavzulari tarannumi boshqa hech bir devonda misli ko‘rilmagan darajada orifona va san’atkorona darj etilgandir.

Ey Navoiy, oltin-u shingarf-u zangor istama,
Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

"Devon", "G'iyos ul-lug'ot"ga ko'ra, ajamiy so'z bo'lib, bir qancha ma'nolarni anglatadi. Jumladan, arabiy harflar asosida tartib berilgan, aruz vaznida bitilgan, bir shoirga oid bo'lgan g'azallar hamda (masnaviy va qasidalardan boshqa) barcha she'rlar majmuasidir. "Devoni Navoiy", "Devoni Xoja Hofiz", "Devoni Fuzuliy" kabi asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Devon tuzishga muvaffaq bo'lgan shoirlar "sohibi devon" deb ulug'lanadi.

Ba'zi mamlakatlarda devon an'anasiga asoslangan she'riyat "devon adabiyoti" deb yuritiladi.

Devon adabiyoti XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davrida boshlangan, islomiy madaniyatdan bahra olgan, shu sababdan arab va fors adabiyotlaridan ta'sir topgan islomiy adabiyotdir. Qur'oni Karim va hadisi sharif ma'nolarini o'ziga singdirgan bu mumtoz adabiyot "majoz haqiqatning ko'prigidir" degan hikmatga asoslanadi.

Majoz va uning mohiyati

Majoz — 1) yo'l; 2) o'tish joyi; 3) haqiqatning ziddi; 4) so'zning o'z haqiqiy ma'nosidan boshqa (ko'chma) ma'noda iste'mol qilinadigan ma'nosidir. Majoz san'atida so'zning haqiqiy ma'nosi tark etilgan bo'lishi mumkin emas, balki o'sha mavzuda va boshqa mavzuda unga mushobahat yoki zarifiyat, yoki sababiyat, yo undan boshqa aloqasi mutahaqqiq bo'lishi shart.

"G'iyos ul-lug'ot" musannifi Muhammad G'iyosuddin Rompuriy fikricha, majoz san'atining asosi aslida Qur'ondadir. Zarifiyat aloqasiga misol: Havoriylar Iso alayhissalomga: **"Alloh taolo bizga osmondan bir moida (dasturxon) tushirsin"**, dedilar ("Moida" surasi, 112–114-oyatlar). Dasturxondan murod esa taom, yeguliklardir. Sababiyat aloqasiga misol: shams (quyosh)ning itloqi (taalluqi) "ziyo" ifodasida, kull (butun)ning itloqi juzvda (qismda) namoyon bo'ldi.

Masalan, “anomil”ni “osobi’” deyildi, ya’ni barmoqlarning uchlari barmoqlar deyildi: **“Yaj’aluna osobi’ahum fiy ozonihim”, ya’ni: “Ular chaqmoqlardan o‘lish qo‘rquvi bilan barmoqlarini quloqlariga tiqurlar”** (“Baqara” surasi, 19-oyat). Barmoqlardan murod, albatta, barmoqlarning uchlaridir. Chunki barmoqlar butun holda quloqlarga sig‘maydi. Butunning qismdagi itiloqiga misol: “Fotiha” surasining tamomi “Al-hamd” deyildi. Biror asbob vositasida bajariladigan ishlar o‘sha olat nomi bilan atalishiga misol: harflar va yozuv qalam deyildi (yozuvchi qalamkash deyildi). So‘z til deyildi. Uzumning suvi sharob deyildi.

Hazrati Imom Muhammad ibn Imoil al-Buxoriyning “al-Jomi as-sahih” asari, “Ro‘za kitobi”da Qur’oni Karimdagi “oq ip” va “qora ip” lafzlari haqida ushbu hadisi sharif vorid bo‘lgan; Adiy ibn Hotim (roziyallohu anhu) bayon qildilar: **“Oq ipni qora ipdan ajratadigan bo‘lguncha yeb-ichingizlar”** degan oyati karima (“Baqara”, 187-oyat) nozil bo‘lganda bir qatim oq va bir qatim qora ipni olib, yostig‘im ostiga qo‘yib, (yostig‘imni qiya qilib ko‘tarib) qaray boshladim, har qancha tikilib qaramayin, qaysi biri oq va qaysi biri qora ekanligini sira ajrata olmadim. So‘ng kunduzi Rasulullоh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga borib, bo‘lgan voqeani aytib berdim. Janobi Rasulullоh: “Bundan maqsad tun qorong‘isi va kunduz yorug‘idir”, dedilar. Ya’ni subhi sodiqdir. Yana sahl ibn Sa’ddan qilingan rivoyatda: “Bundan odamlar bildilarki, oq ip va qora ipdan maqsad kecha va kunduz ekan”, deyiladi.

Majoz haqida hadisi shariflardan ham ko‘p misol keltirish mumkin. Masalan, hazrati Payg‘ambarimiz alayhissalom ayollar jamoasiga: “Tuyalaringizni sug‘oringlar”, degan xitob bilan: “Erlaringizni rozi qilinglar” degan ma’noni ifoda qilganlar. Yoki bir mutoyibalarida: “Kampir jannatga kirmaydi”, degan majoz bilan: “Haq taolo yoshartirib jannatga kiritadi”, degan ma’noni ifodalaganlar. Abu Hurayra roziyallohu anhudan bayon qilingan hadisda ul zot: “Ha, men hazil qilurman, lekin haqiqatdan boshqa bir so‘zni so‘zlamasman”, deganlar.

Ana shu sabablarga ko‘ra, mumtoz she’riyatda, devon adabiyotida majozning ortida haqiqat bo‘lishi shart qilingan.

Hazrati Alisher Navoiy devonining ilk g‘azalidayoq she’riyat muxlisining e’tiqodini isloh qilishga kirishadi, nazarini to‘g‘rilashga undaydi, uning e’tiborini majozlar ortidagi haqiqatlarga qaratadi:

Vahdate bo‘lg‘ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg‘ay ado.

Ya’ni: “Jom-u may istilohlari ichida kishiga vahdat — Haq taoloning yakka-yu yagonaligi shavqi va ilmi muyassar bo‘ladi, she’riyatda “jom” va “may” so‘zlarini ishlatgan kishi vahdat ta’limotini bir nom bilan ifodayladi, xolos”.

Shundan so‘ng shoir fikrini yanada aniqlashtirib, “bu majoziy ifodalarni qo‘llovchi ishq va tavhid ahlini bilmasdan inkor qilaverma”, deydi:

Sen gumon qilg‘ondin o‘zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

Yana boshqa baytlarida oshiq shoirning g‘amini dunyo g‘ami deb, boda ifodasini uzum bodasi deb gumon qilmang, chunki zohir ahliga bu ma’no shunday ko‘rinadi, deydi:

Jahon g‘ami-yu uzum bodasi gumon qilmang
Ki, zohir ahlig‘a bu ma’ni etti bo‘yla zuhur.

Lekin haqiqat ahliga may vahdatdir — Haq taoloning yakka-yu yagonaligi fikri va zavqidir, g‘am ko‘ngilga keladigan ushbu ko‘plik fikridir:

Va lek ahli haqiqatqa may erur vahdat,
G‘am ushbu kasrat erurkim, qilur ko‘ngilga xutur.

Navoiy she’riyatning zohiriy jihatlariga pok nazar bilan qarash zarurligini, shunda kishi majoz ortidagi haqiqatni anglashini bunday bildiradi:

Gar Navoiy yig'lasa, ishqing majoziydur demang
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdur majoz.

Yana bir baytida: "Vujudingni Haq taolo sir xazinasi qildi, bu xazina haqiqat durr-u la'lidan iboratdir, majoz emasdir", deydi va mavzuning haqiqati muhim ekanligini ta'kidlaydi:

Vujudingni chun qildi Haq ganji roz,
Haqiqat durr-u la'lidin, yo'q majoz.

Yana bir baytida majoz va haqiqatning mohiyatini bayon etib, darhaqiqat, ishqning siri uchun majozga zaruriyat yo'qligini bildiradi:

Bo'ylaki,
Haq nuri zohirdur yuzungda, bo'lmag'ay
Filhaqiqat, sirri ishqingga xayol etmak majoz.

Shunga qaramay, majoz devon qo'rg'onining tashqi ko'rinishidir, ishqi ilohiy bayoni uchun mustahkam sinch, yemirilmas ma'naviy imoratga sabab va vositadir.

Qatrada ummon:
bir qit'aning mohiyati

Hazrat Navoiy bir qit'a tepasiga "Majozi ishqdin murodi haqiqat ekanlarning moni'larig'a moni' bo'lmoq va nosihlarig'a nosih" deb sarlavha qo'yadi.

Buning ma'nosi: "Ishqning majozidan murodi haqiqat bo'lgan shaxslarning moni'lariga mone' — to'sqinlik qiluvchilariga to'sqin bo'lish va ularga nasihat qilib, ishqdan qaytarmoqchi bo'lganlarga "Oshiqlarni ishq yo'lidan qaytarmanglar" — deb nasihat qilishdir".

Bu qit'ada hazrat Navoiy majoz va haqiqat mohiyatini go'zal tarzda ochib beradi. Bamisoli tomchida ummon aks etganidek, mo'jaz she'rda dengizdek ma'no aks etadi.

Ko'rmasa husni majoziy ichra juz Haq sun'ini,
Oshiqyekim, bo'lsa ishq atvori ichra pokboz,
Zohido, bu ishqdin man' aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang,
ayni haqiqatdur majoz.

"Oshiq kishi husni majoziyda — majoziy go'zallikda Haq taoloning san'ati, masnu'otidan boshqa narsani ko'rmasa, balki faqatgina Haqning sun'ini, san'atini, qudrati nishonalarini ko'rsa, bir oshiq ilohiy ishq tavrlarida pokboz bo'lsa — ilohiy muhabbat shaydosi va fidoyisi bo'lsa, ey zohid, ey zuhd qilib, o'zini taqvoli ko'rsatuvchi zohirbin shaxs, sen unday oshiqni bu ishqdan qaytarma, uni o'z holiga qo'y! Agar sen idrok aylasang, anglasang, fikr yuritib, tushunsang, u holda majoz ayni haqiqatdir!"

Navoiyning tafsir va hadisga o'chligi

Hazrati Alisher Navoiyning ilm-u ma'rifatga, tafsir va hadisga naqadar harisligi, bu ulug' ne'matlardan bahravorligi barcha asarlarida, jumladan, devonida ham ravshan bilinib turadi. Chunonchi, baytlarida necha-necha oyati karimalar va hadisi shariflar mazmuniga ishorat qilishi yoki ularning ma'nosini bayon etib o'tishi uning g'azaliyotiga ruh va boqiylik baxsh etgandir.

"Nazm ul-javohir" asari muqaddimasida Navoiy vaqt topdim deguncha Qur'oni Karim va uning tafsiri hamda hadisi shariflar mutolaasiga mashg'ul bo'lganini ta'kidlab, aytadi: **"...lojaramkim, ko'prak avqotim (vaqtlarim) Kalomulloh ishtig'oli va aning tafosiri (tafsirlari) qiyl-u qoli bila o'tar edi, to ahodis (hadislar) daryosig'a g'avs qilur (cho'mar) erdim va andin garonmoya (qimmatbaho) gavharlar ilikka kivirur (qo'lga kiritar) erdim..."**

Navoiy devonidagi Qur'on oyatlari va hadisi shariflar mazmuni darj etilgan satrlar, shubhasiz, alohida tadqiqot manbaidir.

Navoiy devonining fazilatlari

Alisher Navoiy avval "Badoyi ul-bidoya", keyin "Navodir un-nihoya" devonlarini tuzib, so'ng umr bo'yi yozgan g'azal, muxammas, musaddas, tarji'band, ruboiy va (dostonlardan boshqa) barcha she'riy asarlarini jamlab, "Xazoin ul-ma'oniy" devonini tuzgan, bu esa umrning to'rt faslini ifoda etuvchi to'rt devondan iborat ekanligi she'riyat muhiblariga ma'lum.

Ilk devon debochasida Navoiy o'z devonining xususiyatlarini go'zal bayon qilgan. Bu xosliklar devonining fazilatlari, boshqa devonlardan ustunligi bo'lib, quyidagilardan iborat:

birinchidan, ilgarigi devonlarning sohiblari xalq iborati va kitobatida (forsiy va turkiy imloga ko'ra) voqe bo'lgan 32 harfdan to'rttasini (sod, zod, itqi, izg'i yoki pe, chim, gof va lomalif harflarini) tark etgan bo'lsalar, Navoiy o'sha to'rt harf gavharlarini ham boshqa harflar javohiri ipiga tizib, g'azaliyotni o'ttiz ikki harf tartibi bilan murattab qilganlar;

ikkinchidan, Navoiy har bir harfga oid g'azaliyotning birinchi g'azali bilan o'zga g'azallar orasidagi uslub xususiyati jihatidan bo'ladigan farqlarga rioyat qilib, har bir harf g'azalini Allohning hamdi, Rasulullohning na'ti yoki bu ikki ishga dalolat qiladigan g'azallar bilan yoki bir mav'iza bilan boshlagan. Navoiy bu ishlardan g'aflatda qolmaslik yaxshi ekanini ta'kidlab, aytadi: "Muqarrardirki, har (bir) amrda (ishda) bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo Rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'lik avlodurur";

uchinchidan, Navoiy aytadiki, go'yo ba'zi kishilar ash'or tahsilidan va devon takmilidan maqsad majoziy husn-u jamol deb biladilar, zohiriy xatt-u xol ta'rifidan boshqa narsani anglamaydilar. Holbuki, ma'rifatomuz bir g'azal topilmaydigan devon va mav'izatangiz bir bayti bo'lmagan g'azal bo'lmasligi kerak. Busiz bir devon bitilsa, aslida ko'p behuda zahmat chekilgan va zoye mashaqqat tortilgan bo'ladi.

Shu sababdan Navoiy hamd, na't va mav'izadan tashqari, har bir g'azalda bittadan-ikkitadan nasihatoro va mav'izaoso bayt kiritib ketgan, toki sohibi devonning mehnati va g'azalxonning vaqti zoye ketmasin;

to'rtinchidan, Navoiy fikricha, matla' — ilk bayt maxsus nav'da voqe bo'lgan bo'lsa, g'azalga o'sha matla' uslubida tamomlik sarposini kiygizish va tugallik kiyimini kiydirish kerak. Afsuski, oldingi ko'p devon sohiblari bir baytda visol bahoridan gullar ochtirsa, boshqa baytda firoq xazonidan qayg'-u chekkanlar. Ulardan farqli o'laroq, Navoiy o'z devonida g'azalning matla'si — ilk bayti qaysi mazmunda voqe bo'lsa, mazmun to maqta'gacha — so'nggi baytgacha shakl jihatidan muvofiq va ma'no jihatidan mutobiq bo'lishiga sa'y-harakat qilgan;

beshinchidan, Navoiy o'z devonida masnaviy (dostonlar) va qasidalardan boshqa barcha she'r nav'larini jamlagan: g'azal, musaddas, ruboiyot, mustazod, fardlar, nomiy muammolar, lug'zlar, tarji'bandlar, tuyuqlar kabi she'riy janrlarning har biri kitobxon uchun foydali, manfaatli bo'lishiga uringan.

Navoiy: "Qaysi bir sultonki, mustahkam, himoyalangan bino qurdirsa va baland bir ayvon bunyod ettirsa, u binoning ravoqida va u ayvonining toqida o'z ismini yozdirgan, toki u ayvon toqi bor ekan, u ism unda boqiy bo'ladi", deydi va bu devon qasriga Sulton Husayn Boyqaroning ismi yozilishi loyiq ekanini ta'kidlaydi. Devon so'ngidagi she'riy iltijolaridan birida bunday deydi:

Yo Rab, chekibon ko'p raqam, jurm-u gunoh,
Nomamni qaro qildim-u umrimni taboh.
Rahmat suyidin yuvmasang ul nomani, oh,
Mahshar kuni netkamen meni nomasiyoh?!

Bu hazrati Navoiyga xos bo'lgan tavozu, xokisorlik, xavf va umidvorlikdir.

Navoiy nazmida hadis va hikmat

Amir Nizomiddin Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniy" devonida "Hadis" radifli ikki g'azal bor. Ularni sharhlashdan oldin Navoiy ijodida hadis va hikmat, hadis ilmi va istilohining tutgan o'rni borasida biroz so'z yuritamiz.

Navoiy bolalikdan islomiy ilmlarni o'rganishga kirishib, qoriyi Qur'on bo'lib kamol topgan. "Lison ut-tayr" dostonidagi "Bolalar saboq ozoridan yoki Kalomullohning — Qur'oni Karimning takroridan qiynalgan vaqtlarida ustoz Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asaridan o'qitar, men esa "Mantiq ut-tayr" asarini o'qitishini iltimos qilar edim" degan ma'nodagi baytlar bunga dalildir.

Hazrat Navoiy ijodidagi hadis namunalaridan ma'lum bo'lishicha, hadis ilmini ham puxta egallaganlar. Ayniqsa, gurkiragan yoshlik chog'ida, Samarqandda, hazrati Faqih Abullays Samarqandiyning avlodlaridan va Samarqandning ulug' allomalaridan bo'lmish Xoja Fazlulloh Abul-Laysiy huzurida ilm tahsilini kamolga yetkazganlar. U zotni esa fiqhda, hazrat Imom A'zamga qiyosan Abu Xanifayi Soniy, ya'ni ikkinchi Abu Xanifa deb atashardi. Xojaning Navoiyga shu qadar iltifoti bo'lganki, hatto u kishini "farzandim" deb atagan.

Demak, Navoiy bu faqih zot dargohida hadis ilmini ham teran o'zlashtirganlar.

Qirq hadis xosiyati

Albatta, Navoiy ijodida hadisga oid eng mo'tabar asar "Arba'in"dir. Unda hazrati Imom al-Buxoriy va Imom Muslim kitoblarida rivoyat qilingan qirqta eng sahih hadisi sharif turkiy tilda nazm yo'lida bayon etilgan. "Arba'in" naqshbandiya tariqatining murshidi komili, Navoiyning ustozi hazrati Abdurrahmon Jomiyning forsiyda nazm qilingan "Chihil Hadis"i kabi bo'lib, bu qirq hadis ma'nosidan Navoiy turkiy xalqlarni ham bahramand aylaganlar.

Qirq raqami va "Arba'in" an'anasining hikmati shuki, janob Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: "**Kimki mening qirqta hadisimni yod olsa, qiyomat kunida olim zot bo'lib tiriladi**" deb xushxabar berganlar. Yana sayyidi koinot janobimiz: "Kimki qirq kun xolis Alloh uchun ibodat qilsa, uning dilidan tiliga hikmat (bulog'i) toshib chiqadi" deb iltifot etganlar.

"Arba'in"dan namunalar

Tabarrukan, "Arba'in"dan ba'zi namunalar keltiramiz.

Hadis: "**La yu'minu ahadukum, hatto yuhibbu li axiyhi mo yuhibbu li nafsihi**". Ma'nosi: "**Sizlardan hech biringiz toki o'ziga ravo ko'rgan narsani o'z birodariga ham ravo ko'rmagunicha, chin mo'min bo'la olmaydi**".

Bu hadis Navoiy nazmida:

Mo'min ermastur ulki, imondin
Ro'zgorida yuz safo ko'rgay,
Toki qardoshig'a ravo ko'rmas —
Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Yana hadis: "Ad-dunya mal'unatun va mal'unun ma fiyho, illa zikrillohi taolo". Ma'nosi: "Dunyo mal'undir va Alloh taolonig zikridan boshqa dunyodagi foydasiz narsalar ham la'natga giriftordir".

Bu hadisi sharif Navoiy nazmida:

Dunyo-vu har neki andadur mavjud,
Bo'ldi Haq la'nati giriftori.
G'ayri Haq zikrikim, erur zokir
Tangrining rahmati sazovori.

"Dunyo" arabcha bo'lib, muannas, ya'ni ayol jinsiga oid so'zdir. Uning asliy va istilohiy ma'nolari bor: 1. Dunyo — bu jahon, inson va boshqa maxluqot yashaydigan olam. 2. Asliy ma'nosiga ko'ra, dunyo — ko'p yaqinlashuvchi xotin, degani. 3. "Dunuv"dan

TerDU ARM
№ 426 501

olingan bo‘lib, “yaqin” degani. Chunki dunyo oxiratga nisbatan insonga yaqin: inson dunyoning ichida yashaydi, u insonning ko‘z o‘ngida turadi. 4. Dunyo — qattiq, xasis va nokas xotin, degani. Bu holda u “adno”, ya’ni “nokas”, “zalil” degan muzakkar, ya’ni erkak jinsiga oid so‘zning ziddi, muannasidir. “G‘iyos ul-lug‘ot”da shu ma’nolar bildirilgan.

Yana ulamolar “dunyo”ning ushbu ma’nolarini sharhlaydilar: 1. Dunyo — birinchi osmonga yaqin joy, pastlik. 2. Dunyo — oxiratga yaqin manzil; chunki juda qisqa: bo‘ldik — o‘ldik! “Dunyo”ning ayol jinsiga oid so‘z ekanligi hadisi sharifda “mal’unatun” so‘zi bilan ifodalangan.

Imom G‘azzoliy hazratlari esa: “dunyo” hijobdagi chiroyli kelinchak kabidir. Ammo qiyomat kuni hijobi ochilganda uning g‘oyat xunuk yoqimsiz qari xotin ekanligi ma’lum bo‘ladi” deb bayon etganlar.

Dunyo hayoti — imkonlar maydoni

Bular dunyoning ma’no, mohiyatiga doir sharhlardir. Shu bilan birga, dunyo hayoti inson uchun berilgan bir ne’mat, oxirat saodatiga erishish uchun imkonlar maydoni, sinov va imtihon dargohidir. Navoiy “la’nat”ga “rahmat” so‘zini zidlab, hadis ma’nosini ham sharhlab o‘tgan. Hazrati Payg‘ambarimiz sollallohi alayhi va sallam boshqa hadisi sharifda “haqiqiy musulmon bu dunyoni deb oxiratini tashlamaydi, u dunyo deb bu dunyosini qo‘ldan bermaydi” deb uqtirganlar.

Yaratgan Rabbimiz esa muqaddas Qur’oni Karimda: **“Robbana atina fiddunya hasanatan va fil axirati hasanatan va qino azobannor”**, ya’ni **“Ey Rabbimiz, bizlarga dunyoda ham yaxshilik ato ayla, oxiratda ham yaxshilik ato ayla va bizlarni do‘zax azobidan O‘zing asra!”** degan qutlug‘ duoni biz bandalarga ta’lim qildi. Ne baxt bu!

Hadisdagi “illo zikrillohi taolo” iborasini Navoiy “G‘ayri Haq zikrikim, erur zokir Tengrining rahmati sazovori” deb o‘girib, hikmatdan yana bir hikmat chiqargan.

"Har kishikim ulusqa rahm etmas..."

Tag'in bir hadisi sharif: **"Man lam yarhaminnosa lo yarhamhullohu".**

Ma'nosi: **"Insonlarga rahm qilmagan kishiga Alloh ham rahm qilmaydi".**

Bu hadis Navoiy nazmida:

Tengridin rahm agar tama' qilsang,
Avval o'lmoq keraksen elga rahiym.
Har kishikim ulusqa rahm etmas,
Anga rahm aylamas Rahimi kariym.

Navoiy hadis ma'nosini ochib, "Agar Allohning rahmatidan umidvor bo'lsang, avval xalqqa rahmli bo'lishing kerak. Xalqqa rahm etmagan kishiga Alloh ham rahm qilmaydi", deydi.

Hikmat xazinasi
(Hazrati Ali roziyallohu anhu hikmatlari)

Navoiyning hikmat-hadisga oid mo'tabar asarlaridan yana biri "Nazm ul-javohir"dir. Unda Navoiy Hazrati Ali (roziyallohu anhu)ning 255 hadisini nazmga tizib, ruboiy shaklida turkiy ulusga taqdim etgan. Asar muqaddimasida shoir Hazrati Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamning ushbu muborak hadislarini keltiradi:

"Ana madiynat ul-ilmi va Aliyyu bobiho". Ma'nosi **"Men bir ilm shahridirman va Hazrati Ali bu ilm shahrining eshigidir".**

Muqaddimada kelgan ikkinchi ruboiyda ushbu hadisi sharif zikr qilinadi: **"Inna minka, anta minniy".** Ya'ni Hazrati Payg'ambarimiz Hazrati Aliga xitob qilib aytayaptilarki: **"Albatta, men sendandirman va sen mendandirsan".** Ya'ni ikkimiz bir jon, bir tanmiz, dunyo-yu oxiratda birgamiz.

Yana shoir ushbu hikmatni keltiradi: **"Kalom un-nosi 'alo 'uqulihim".** Ya'ni: **"Insonlarning so'zlari o'z aqllariga yarasha bo'ladi".**

Bu xabarni ba'zi olimlar: **"Kalimin-nosa 'alo 'uqulihim"**, ya'ni: **"Insonlarning aqliga yarasha so'z so'zlang"** degan ma'noda ta'vil qilganlar.

Nazm ipiga tizilgan javohir

Shundan so'ng Navoiy so'z martabalarini bayon qilib, Alloh taologa hamd-u sanolar aytib, Hazrati Rasulullohga salot-u salomlar keltirib, so'ng "Ruboiyya"ga kirishadi. Tabarrukan, nazm ipiga tizilgan bu javohirdan ham ba'zi namunalar keltirsak.

Hikmat: **"Imonu mar'i yu'rifu bi aymanihi".**

Ma'nosi: **"Kishining imoni uning rostgo'yligi (ahdiga vafo qilishi)dan bilinadi".**

Bu hadis Navoiy nazmida:

Imoni aningki kufriga sotir erur,
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur.
Har kimsaki imon ishida mohir erur,
Imonini bilki, otidin zohir erur.

Hadis atroflicha sharhlanib, nazm qilingan. Ya'ni kimningki imoni uning kufriga to'siq bo'lsa, kimki kufrdan pok bo'lsa, unday kishi rost gapirishga qodir bo'ladi. Har kimki imon ishida mohir, epchil bo'lsa, uning imonli ekanligini bilavergin, chunki imoni uning nomidan ma'lumdir.

"O'lmaydigan zot buyukdir"

Yana bir hikmat: **"Jalla man la yamutu".** Ma'nosi: **"O'lmaydigan zot buyukdir",** ya'ni asl buyuk zot o'lmaydigan Zotdir. Bu hikmat Navoiy nazmida:

Gardunki, xaloyiqqa vafosi yo'q aning,
Javr ichra kichik-uluqqa posi yo'q aning,
Har kimki kichik bo'lsa, baqosi yo'q aning,
Sen Oni ulug' bilki, fanosi yo'q Aning!

Bu hadis ham ruboiyda atroflicha sharhlangan. Ya'ni bu dunyoning insonlarga vafosi yo'q, bas, shunday bo'lgach, javr qilishda uning katta-yu kichikka parvosi ham yo'q. Kimki mayda bo'lsa, u aslo boqiy emas. Sen shunday Zotni ulug' deb bilginki, u aslo foniy bo'lmaydi, abadiy tirikdir! Bunda Alloh taoloning Zoti ulug'langan. Chunki oyati karimada: **"Allohning zotidan boshqa hamma narsa halok bo'lguvchidir",** deb marhamat qilinadi ("Al-qasas" surasi, 88-oyat).

"Qarzdan og'irroq yukni ko'rmadim..."
(Luqmoni Hakim alayhissalom hikmatlari)

"Barcha yukni ko'tardim, qarzdan og'irroq yukni ko'rmadim; barcha lazzatni totdim, ofiyatdin (sog'lik-salomatlik, tinchlik-xotirjamlikdan) shirinroq sharbatni totmadim".

"Yaxshi axloq begonalarga yaqinlikdir, yomon axloq yaqinlarga begonalikdir".

Undan so'radilar: "Foydasi barcha xaloyiqqa tegadigan narsa nimadir?" Dediki: "Yomonlarning yo'qligidir".

"Kishi o'zini maqtasa, rost bo'lsa ham, nopisanddir..."
(Fishog'urs (Pifagor) hakim hikmatlari)

"Kishi o'zini madh etsa — maqtasa, garchi rost bo'lsa ham, nopisanddir (e'tiborga loyiq emasdir)".

"O'tganlar bilan qasam ichmoq yolg'onning nishonasidir".

"Musibatga sabr qilmoq shamotat ahlining — birovning musibatidan quvonadigan kishining musibatidir".

"Umr qisqadir, ish uzundir..."
(Pifagorning shogirdi — Buqrot hakim hikmati)

"Umr qisqadir, ish uzundir. Oqil uldirki, bu qisqa umrni eng zarur bo'lgan narsaga sarf qilg'ay, bu esa oxirat hozirligi va Alloh taoloning rizosidir".

“Yaxshi so‘z ko‘ngilni yoritadi...”
(Buqrotus hakim hikmati)

“Tarixi anbiyo va hukamo” (“Payg‘ambar va hakim zotlar tarixi”) asarida Navoiy Buqrotus hakimning ushbu hikmatlarini keltiradi: “Sharafli ilm ko‘ngilda qaror tutmaydi, maxsus narsalar esa ko‘ngildan chiqmaydi” (sharhda hikmatlar sodda tilda berilmoqda).

“Yaxshi so‘z ko‘ngilni yoritadi va yaxshi yozuv ko‘zning ne’mati arusidirki, bu kelinchakning mahri shukr qilmoqdir”.

“Nodonga iltifot qilmoq...”
(Suqrot hakim hikmati)

Yana Suqrot hakimning ushbu hikmatini keltiradi: “Nodonga tavozu qilmoq hanzalga suv bermoqdurkim, qancha ko‘p ichsa, shuncha achchiq bo‘ladi”. Hanzal deb itqovunni yoki abujahl tarvuzini aytiladi.

“Podshoh ulug‘ daryoga o‘xshaydi...”
(Aristotolis hakim hikmati)

Aristotolis hakimning hikmati: “Podshoh ulug‘ daryoga o‘xshaydi va unga ergashuvchilar ariqlar kabidir. Bu ariqlar daryodan ayrilganda, o‘sha daryoning suvida qanday hol yuz bersa, ariqlarda ham shu hol sodir bo‘ladi: u shirin bo‘lsa, bular — shirin, u achchiq bo‘lsa, bular ham achchiq. U sof bo‘lsa, bular ham sof, u loyqa bo‘lsa, bular ham loyqa. Bas, g‘oyat hikmat va mo‘tadillik bilan yashamoq podshohga vojibdir, toki xos kishilari va yaqinlari unga ergashsinlar”.

So‘zning e’tibor qozonmog‘i sababi

Navoiy bir baytda bejiz aytmaganki:

Ulusni tutdi Navoiy so‘zi aning birla,
Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis.

"Navoiy so'zi butun xalqqa yoyildi, el-yurt e'tiborini qozondi. Sababi shuki, Hazrati Rasulullоh sallollohi alayhi va sallam hadis aytdilar va men (Navoiy) u zotdan hikmat terdim..."

Navoiy va tasavvuf
(Navoiy ijodida "jon" va "jonon" istilohlarining ma'nolari)

Mumtoz she'riyatdan har kim o'z idroki, ma'rifati darajasida bahra topadi. Har kim o'z ko'zasiga yarasha undan suv oladi. Amir Nizomiddin Alisher Navoiy o'z devonini bekorga "Xazoin ul-ma'oniy" ("Ma'nolar xazinasi") deb atagan emas. Uning g'azallarida shu qadar teran irfoniy ma'nolar, xos tasavvufiy istiloh va iboralar, majozlarga burkangan haqiqatlar, ishqi ilohiyga dalolat qiluvchi quyma timsollar borki, bular, haqiqatan, ma'nolar xazinasidir. Bu ma'nolardan faqat tasavvufiy istilohlarni anglash yo'li bilangina to'liq bahramand bo'lish mumkin. G'azallarning tashqi ma'nolari, majoziy tasvirlari kishiga qanchalik hayrat, zavq, surur baxsh etadi. Bas, jonga huzur-halovat, qalbga nur va zarofat, ongga ma'no va hayrat yetmog'i uchun mohiyatdan — ichki, haqiqiy ma'nolardan xabardor bo'lmoq lozim.

Alisher Navoiyning xush ohang, yashirin rang va turfa ma'nolarni o'zida mujassam etgan asarlaridan biri "Jon va jonon" g'azalidir. G'azalni shartli ravishda shunday nomlaymiz. Zero unda jon bilan jonon sirlari pinhondir. Tan bilan jon, jon bilan jonon bir-birlariga qanday payvasta bo'lsa, g'azalda majoz va haqiqat ana shunday bir-biriga bog'langan.

Jonbaxsh lab haqiqati

Har labing o'lganni tirguzmakda, jono, jon erur,
Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur.

Ey jon! (Ey jonim-sevgilim!) Har bir labing o'likni tiriltirishda bir jondir. Bu jihatdan ikki labing bir-biri bilan jonajondir, ajralmas do'stdir.

Matla'ni va umuman, g'azalni yaxshi tushunish uchun "lab", "jon", "jonon" istilohlarining irfoniy-tasavvufiy ma'nolarini bilmoq lozim. Sayyid Ja'far Sajjodiyning "Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy" ("Ma'rifiy istiloh va iboralar lug'ati"), Sayyid Sodiq Guhariyning "Sharhi istilohoti tasavvuf" ("Tasavvuf istilohlari sharhi"), Sulaymon Uludog'ning "Tasavvuf terimleri so'zlugu" ("Tasavvuf atamalari lug'ati") asarlarida muhim istilohlar batafsil izohlangan. Muhammad G'iyosuddin ibn Jaloluddin ibn Sharafuddin Rompuriy — Mustafoobodiyning mashhur "G'iyos ul-lug'ot"ida ham ba'zi lug'aviy sharhlar bor.

"Lab — ma'lum a'zo, dudoq. Oriflar tilida — kalom, so'z" (Faxruddin Iroqiy). Ba'zilar "lab"ni "nafasi rahmoniy", ya'ni ilohiy tajlliylarga ishoradir, deganlar.

Turli irfoniy ma'nolar taqozosi bilan "lab" deganda "jon", "jon" deganda "jonon" istilohlari bir-biriga ergashib kelaveradi.

"Har labing o'lganni tirgizmakda, jono, jon erur..." Matlada "lab" "jon"ni ergashtirib keldi, ikkinchi baytda "jon" "jonon"ni ergashtirib keladi. Ilk baytda "jon" so'z va o'zak sifatida uch bor uch ma'noda qo'llangan: 1) jon-o — ey jon, ey mening jonim bo'lgan sevgilim; 2) jon — jasaddagi ruh, hayot; 3) jonojon — jonni jonga bog'lagan ajralmas do'st. Bu ishtiqoq — o'zakdosh so'zlarni qo'llash san'atidir.

Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi boshqa bir g'azalida aytadi:

Barmog'i hayrat bilakim la'li xandon ichradur,
Ul alif yanglig'durkim, filmasal jon ichradur.

Ul mahbubaning barmog'i hayratdan xandon la'li labining orasidadir, bamisoli alif jon ichida bo'lganidek.

Baytda lab, ya'ni la'li xandon yana "jon"ni paydo qildi. Odatda, qizlar hayratdan barmoq tishlaydi. Go'zalning la'ldek xandon lablari orasidagi hayrat barmog'i xuddi jon orasidagi alif kabidir. Baytning majoziy va irfoniy ma'nosidan tashqari yana "imloviy" ma'nosi ham bor: "jon" so'zi arabchada alif ishtirokida yoziladi va alif harfi jim bilan nunning orasida bo'ladi.

"Tasavvuf atamalari lug'ati"da "Labdagi namlik obi hayotga, ishq va muhabbat chashmasiga o'xshatiladi", deyilgan. Nega baytda "la'li lab" zikr qilinganda darhol "jon" eslandi? Chunki "lab" deganda insonga jon, ruh, hayot baxsh etuvchi manba — ishq va muhabbat bulog'i tushuniladi. Bu jonbaxsh, hayotbaxsh lab mumtoz she'riyatda ***labi shakariy, labi shirin; labi la'l*** yoki qisqacha ***la'l*** kabi iboralar bilan tavsiflanadi. Bu ta'birlardan har birining yana o'z tasavvufiy ma'nolari bor:

Labi shakariy — shakar lab, shakar dudoq: payg'ambarlarga farishta Jabroil alayhissalom vositasida Allohdan nozil qilingan kalom, so'z, ya'ni ilohiy kalom, muqaddas so'z; avliyolarga esa qalb tasfiyasi, ya'ni qalbni poklash, musaffo qilish natijasida ilhom qilinadigan so'z, kalomdir (Faxruddin Iroqiy).

Labi shirin — shirin lab, chuchuk dudoq: 1) idrok qilinmasdan va his etilmasdan bevosita kelgan kalom, so'z; 2) ma'shuq so'zi; 3) sevgili, ma'shuq; sevgili labi (Faxruddin Iroqiy, Taxonaviy).

Labi la'l — qizil lab, ol dudoq: 1) so'zning botini, ichi, mohiyati, ya'ni ma'shuqning kalomi, so'zi; 2) ruhning nafasi, jon kirituvchi, tiriltiruvchi nafas. Va yana "labi jonbaxsh"dan murod borliq soyasidagi yo'qlikdir, deganlar. Ya'ni nafasi rahmoniyga — ilohiy nafas, ilohiy tajalliylarga ishora bo'lgan labning nishona-belgilari va lavozimi — taqozosidan vujudning vujubi ihotasidagi yo'qlik imkonining namoyishidir. Chunonchi, Navoiy mazkur matla bilan boshlangan g'azalida aytadi:

La'li bir so'z birla yuz yillik o'lukni Xizr etar,
Go'yoyiyo Ruhulloh ushbu obi hayvon ichradur...

Sevgilining labi bir so'z bilan yuz yillik o'likni tiriltiradi, ya'ni Xizr alayhissalom hayot suvini ichib, abadiy hayot topganidek, bu lab yuz yil o'lib yotgan jasadga boqiy hayot baxsh etadi. Go'yoki Ruhulloh, ya'ni Iso alayhissalom bu hayot suvini topishda vosita bo'lgandek.

Mazkur baytda yuqoridagi ma'nolarning hammasi mavjud: ma'shuq so'zi ham, bevosita ilohiy kalom ham, ilohiy tajalliylar ham, Ruhulloh, ya'ni Iso alayhissalom ham, muqaddas kalom ham.

Qur'oni Karim, haqiqatan, insonga ruh bag'ishlaydi, xastaga shifo, zaifga quvvat, damsizga dam, ochga ozuqa, adashganga hidoyat, baxtsizga baxt, o'lik dilga hayot bo'ladi. Bu ma'nolar tasavvufiy she'riyatning rangin gulzoridir. Fuzuliy aytadi:

Men labing mushtoqiyam, zuhhod — Kavsar tolibi,
Nechakim, masta may ichmoq xush gelar, hushyora suv...

"Men labing mushtoqiman, zohidlar esa Kavsarga talabgordirlar. Nechunkim, mastga may ichmoq xush keladi, hushyorga esa suv ichmoq".

Bundagi mastlik ilohiy ishqqa mazharlik va zikr ila yana ishq talab qilishdir.

"Lab" majozining asl-asosini bayon etishdan oldin "jon" va "jonon" istilohlarining ma'nolarini kuzataylik.

"Jon"ning boshqa ma'rifiy ma'nolari

Jonim andoq to'ldi jonondinki, bo'lmas fahmkim,
Jon erur jonon emas; yo jon emas, jonon erur...

Jonim jonon bilan shunchalik to'ldiki, tanamdagi hayot yo jonon emas, jondir, yoki jon emas, jonondir — buni fahm etib bo'lmaydi.

Sajjodiy "jon"ning tasavvufiy ma'nolarini bunday bayon etadi:

Jon — 1) insonning ruhi; 2) nafasi rahmoniy, ya'ni ilohiy (rahmoniy) nafas; 3) Haqning tajalliyoti. Shu uch ma'no Navoiy qo'llagan "jon" so'ziga yetarli ta'rifdir. Biroq yana go'zal sharhlari bor.

Sulaymon Uludog' aytadi: "Jon — Mavlaviya (Mavlono Jaloliddin Rumiy) tariqatlarida darvesh, murid ma'nosidadir".

Faxruddin Iroqiy aytadi: "Joniy degani — ruhiy degani (ya'ni ruhga, jonga oid sifat). Bu hech qachon foniy bo'lmaydigan (yo'q bo'lmaydigan) va abadiyan boqiy bo'lgan sifat".

Imom G'azzoliy aytadi: "Haqiqatda odamning joni o'z zoti bilan qoimdir. Va uning xos sifoti qolipdan mustag'niydir (ya'ni jon qolipdan behojatdir, u jasad qolipiga muhtoj emas, jasad esa

jonga muhtoj, jon bo‘lmasa, jasadning hayoti tugaydi, tuproqqa aylanadi. Jon esa jasadsiz ham o‘z zoti bilan turguvchidir).

O‘limning ma’nosi jonning yo‘q bo‘lishi emas, balki buning ma’nosi jonning tasarrufi qolipdan (jasaddan) uzilishidir.

Hashr, nashr, ba’s va iodaning ma’nosi (ya’ni qiyomat kuni o‘lganlarning qayta tirilishi, mahshargohda to‘planishi, o‘likni tirgizish va qaytarish tushunchalarining ma’nosi) jonni yo‘qdan vujudga keltirish emas, balki unga qolip kiygizilmog‘idir (ya’ni jonning jasadga qayta kiritilmog‘idir)”.

Tirgizish mo‘jizasining asoslari

Mumtoz adabiyotda “o‘likni tirgizish” ifodasi hazrati Iso alayhissalomning mo‘jizalariga asoslanadi. “Lab”, “nafas”, “anfos”, “tirguzmoq” so‘zlari hamisha Iso Masih zikri bilan yonma-yon keladi. “Jon va jonon” g‘azali matla’sida bu nom uchramasa ham, satr zamirida mavjud. Iso Masih u zotning Qur’oni Karimda ta’kidlangan nomlari. Bu ululazm payg‘ambar o‘z nafaslari bilan o‘liklarni tirgizganlari bois she’riyatda majozan sevgili labi jonbaxshlik jihatidan Iso Masih va u zotning nafaslariga qiyos qilinadi. “Masihonafas”, “Masihoanfos”, “Masihodam”, “Masihvash”, “Iysiyi jon” tavsiflarining qo‘llanishi shundandir. Masalan, Navoiy yozadi:

Sarig‘ libos aro ul no‘shlabki, xandondur,
Erur Masihki, xurshid ichinda pinhondur...

“Sarig‘ libos ichida ul shirinlab sevgili xandon turgan cho-g‘ida xuddi quyosh ichida yashiringan Iso Masih kabi o‘likka jon bag‘ishlaydi”. “Quyosh ichida yashiringanlik” esa Iso alay-hissalom aslo o‘ldirilmasdan, aslo chormix qilinmasdan, yuksakka ko‘tarilganlariga ishora. Bu ilohiy haqiqatdir. Chunonchi, Qur’oni Karimda Alloh taolo: “Aniqki, uni o‘ldirmadilar. Balki Alloh uni o‘z huzuriga ko‘tardi” (“Niso” surasi, 157–158-oyatlar) deydi. Faqih Abul-Lays Samarqandiy bu oyatni sharhlab: “Alloh taolo Iso alayhissalomni O‘zidan boshqasining hukmi joriy bo‘lmaydigan

bir maqomga yuksaltirdi. Hukm va hikmat egasi tanho Udir", deydi. "Xurshid ichinda pinhon" deganda Navoiy ana shu yuksak maqomga ishora qiladi.

Yana bir misol:

Ul Masih anfosi jonbaxsh-u labi — hayvon suyi,
Alloh-Alloh, necha jonim notavon bo'lg'usidir!..

"Ul Masihning nafasi jon bag'ishlovchi, labi esa hayot suvidir, Alloh-Alloh, yana mening jonim nechun bunchalik notavon bo'ladi?.."

Yana bir misol:

La'lidin tiguzmak etsam orzu, ayb etmangiz
Kim, kishi o'lturmoq etmaydur Masihodin tama!..

"Ma'shuqning la'li labidan meni tiriltirishini orzu qilsam, ayb qilmangizlar. Axir, kishi Iso Masihdan o'ldirishni umid qilmaydi-ku!"

Mumtoz she'riyatdagi irfoniy istilohlarning mantiqiy quvvati shundaki, Iso Masih alayhissalomning o'z nafaslari bilan o'likni tirgizish mo'jizalari aslo rivoyat yoki afsona emas, balki ilohiy kalom bilan sobit tarixiy haqiqatdir. Chunonchi, Alloh taolo Qur'oni Karimda Iso alayhissalomning bani Isroilga aytgan ushbu so'zlarini ilohiy lafz ila bayon etadi: **"Men sizlarga (o'zimning haq payg'ambar ekanligim haqida) Parvardigoringizdan oyat-dalil keltirdim. Men sizlarga loydan qush timsolini yasab, unga puflasam, u Allohning izn-irodasi bilan haqiqiy qush bo'ladi. Va yana ko'r, pes kasallarini tuzata olaman va Allohning izni bilan o'liklarni tiriltiraman va uylaringizda saqlaydigan narsalaringizni aytib berishga qodirman. Agar mo'min bo'lsalaringiz, albatta, bu ishlarda sizlar uchun aniq oyat-dalillar bordir"** ("Oli Imron" surasi, 48–49-oyatlardan).

Yana Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday deydi: "Eslang, Alloh aytgan edi: **"Ey Iso ibn Maryam! Senga va onangga bergan ne'matimni yodingga ol, qaysiki, seni Ruhul-Qudus (Jabroil**

farishta) bilan quvvatladim, odamlarga beshikda va voyaga yetganingda gapirding. Senga yozuvni, hikmatni, Tavrot va Injilni ta'lim berdim. Mening iznim bilan loydan qush shaklini yasading. So'ngra unga dam urganingda, u Mening iznim bilan (chinakam tirik) qushga aylandi. Mening iznim bilan ko'r va pesni tuzatding. Mening iznim bilan o'liklarni (qabrlaridan tirik holda) chiqarding..." ("Moida" surasi, 110-oyatdan).

Binobarin, tasavvufiy adabiyotning suyangan tog'i, avvalo, Qur'oni Karimdir. O'likni tiriltirish haqidagi majozning haqiqati ham Qur'oni Karimdadir. Tavrot, Injil, Zaburning asl nusxalari va Qur'oni Karimni esa "inson tafakkurining mahsuli" deyish aslo joiz emas, ular haqiqiy ilohiy kalom, Allohning muqaddas so'zidir.

Alloh barcha payg'ambarlarni muayyan mo'jizalar bilan quvvatlagan va Iso alayhissalomga besh mo'jiza ato etgan. Diqqat qilsak, oldingi oyatda "Allohning izni bilan" degan ibora va keyingi oyatda "Mening iznim bilan" degan ilohiy so'z qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Bedavo kasallarni tuzatish va o'likni tiriltirish ishlarini zohirda Iso alayhissalom bajardilar, lekin mohiyatda esa bu faqatgina Allohning izn-irodasi bilan voqe bo'ldi. Bu Allohning qudrati, Allohning tajalliyotidir. O'likni tiriltiruvchi nafas Iso alayhissalomniki, ammo bu nafasni ato etgan zot Allohdir. Binobarin, mumtoz she'riyatdan, ayniqsa, Navoiydek muvahhid zotning majozlaridan e'tiqodiy nuqson izlash insofdan emas.

Chanqoqlik ustiga chanqoqlik

Mavlono Jaloliddin Rumiy aytadilar: "Boyazidning chanqog'i bir jur'a bilan qondi, seroblikdan dam urdi, idrokining ko'zasi shu bilan to'ldi va ul nur (ma'rifat nuri) uning uyining ravzanasi xurdida (tuynugida) edi! Ammo Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning hollari ulug' va chanqoqlik va suvsizlik ustiga suvsizlik edi! Va muborak ko'ksi: "Alam nashroh laka sodrok?" — "Biz sening ko'ksingni keng — munavvar qilib qo'ymadikmi?" (oyatining) sharhi bilan "Va arzullohi vosi'atun" — "Va Allohning yeri kengdur" (oyati) bo'lgan edi! Shuning uchun (ichgan sari

tobora) tashnalikdan dam urdilar va har kuni qurbat (Allohga yaqinlik) istid'osida (iltijosida) bo'ldilar!..

Bas, orif-oshiqlarning ishq ila to'lg'unligi o'z ma'rifati ko'zasiga munosib bo'ladi. Shu bilan birga, Navoiy so'zi ham shunchaki san'at yoki da'vo emas, balki, haqiqatan, botin olamidan darak beruvchi hol jilosidir. Bu martabani Navoiy tariqatdan, murshidi komillarning tavajjuhi va himmatidan topgan.

"Jonon" "jon" so'zining ko'pligi emas, fors tilida jonli narsalarga — on, qisqa unli bilan tugagan bo'lsa, -gon, cho'ziq unli bilan tugagan so'z bo'lsa, -jon qo'shimchalari qo'shilib, ko'plik shakli yasaladi. Masalan: mard — mardon, (kishi — kishilar); dono — donoyon (bilag'on — bilag'onlar); tashna — tashnagon (chanqoq — chanqoqlar). Ikki jon birikib, "jonlar"ni tashkil etgandek ko'rinsa-da, ammo "jonon" "jonlar" degani emas, balki jonning azizi, ma'shuq, jonning joni deganidir.

Jonning jonon bilan to'lgani ilohiy muhabbatga dalolat qiladi. Muhabbatning ta'rifini esa Muhammad G'azzoliy bunday keltiradilar: "Bandaning Allohni sevmog'i Alloh bandasini sevmog'ining alomatidir... Sevgi — tomirlari sog'lom, shoxlari osmonlarga qarab yuksalgan muazzam bir daraxt kabidir. Bu muhabbat daraxtining mevalari ko'ngillarda, til va a'zolarda ma'rifat va zikr shaklida vujudga keladi. Bundan esa amal tug'iladi. Shunday qilib, xuddi tutun olovga, meva daraxtga dalolat qilganidek, til va a'zolarda vujudga kelgan ma'rifat, zikr va amal muhabbatga dalolat qiladi".

Abadiyat sababi

Jon va jonon mumtoz she'riyatning jonajon istilohlaridandir. "Jonafzo" kalimasi jonni nash'alantiruvchi, jonni jonga qo'shuvchi, degan ma'noni bildiradi, ammo tasavvufiy anglamda: Haq taoloning baqo sifatidir (Iroqiy). Solikni fanodan uzoqlashtirib, uni boqiy va abadiy qiluvchi sifat bu. Shu boisdan mumtoz adabiyotni har kim o'z idroki, ma'rifati darajasida anglaydi. Bas, jon va jonon g'azalining joni bo'lgan o'ta muhim xulosani oshkor etish vaqti yetdi. Bunday murod ham ruhi

insoniydir. Zero, har kimki bejondir, u bilishdan mahrumdir. Bilish tiriklik belgisidir. Bilish — jonga xos xususiyat!.. Jononni bilmoq uchun jasadga jon kerak, chunki jonga jonon kerak. Hadisi qudsiyda Alloh aytadi: "Men yashirin ganj edim. O'zimni oshkor qilishni sevdim!" Bas, jon ham, jahon ham jonon bilan yorug' va go'zal! Jonon jon bilan birga bo'lmasa, jahon nursiz, qorong'u zindon bo'ladi. Bu — jaholat, nursizlik, ishqsizlik, ma'rifatsizlik, bexabarlik, g'aflat zindonidir. Jon bilan jononning birligidan maqsad ma'rifatdir, ma'rifatullohdir, jonning egasi bo'lmish Xoliqi zul-jalol va zul-kamolni tanimoqdir. Ana shundan ishq tug'iladi. Jahon nur va ma'no bilan to'ladi. Adabiyotdagi irofniy istilohlardan murod ana shudir. Shuning uchun Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviy "Irfon" so'zini sharhlab: "Alloh taoloni va Uning sifatlarini bilmoq ilmlarning eng yuksagi, eng ulug'i, eng foydalisi, eng mukammali, eng sharaflisi, eng porlog'i, ruhga eng ko'p ta'sir etadiganidir. Aqli salim egasi bo'lgan musulmon kishi avlo tarzda bu ilmni tahsil olmog'i farzdir. Bu ilm butun ilmlarning asl-asosi, hamma narsaning mag'zi, butun saodatlarning manbai, barcha go'zal, yaxshi xislatlarning boshlang'ichi, dunyo va oxirat saodatining asosidir. Bu ilmni yaxshi bilgan inson o'z e'tiqodini shubha qorong'uligidan, shayton va nafsning hiylalaridan qutqargan bo'ladi!.." deydi ("Jomi ul-mutun", 27-sahifa).

"Jonim andoq to'ldi jonondin", "Jon manga jonon uchundir", "Xushturur jon-u jahon jonon bila" kabi ifodalar irfon alomati, jonning egasiga muhabbat izhoridir...

Tasavuf istilohining she'riy ifodasi

Alisher Navoiy tasavvuf istilohini g'azalda bunday ifodalaydi:

Birovga musallam tariqi tasavvuf
Ki, zotida mavjud emastur taxalluf.

Tasavvuf zotida ixtilof mavjud bo'lmagan kishilar inkor va qarshilik qilmay, taslim bo'lib qabul etadigan yo'ldir.

Tasavvuf rizo ahldin yaxshi axloq,
Erur istilohoti zeb-u takalluf.

Tasavvuf — rizo ahlidan, rizo maqomiga erishgan kishilardan yaxshi axloqni namoyon etishdir, bu yaxshi axloqning istilohoti — xos atamalari go'zallik va o'zini kulfat-mashaqqatlarga solib, bandalik qilishdir.

Tasavvuf emas zuhd-u taqvi-yu toat
Ki, anda riyo yo'l topar betavvaqquf.
Erur mahz taqvo va lekin riyosiz,
Ubudiyat sarf-u ayni talattuf.

Tasavvuf to'xtovsiz riyo yo'l topadigan zuhd-u taqvo-yu toat emasdir. Balki tasavvuf sof, xolis, riyosiz taqvodir, insonlarga foyda yetkazib, bandalik qilish, asl iltifot: lutf va yumshoqlik manbaidir.

Ne el qavl-u fe'lig'a andin taaddiy,
Ne Haq amr-u nahyig'a andin tasarruf.

Na xalqning so'zi-yu fe'li — ish-amaliga undan zulm va tajovuz bor, na Haq taoloning buyruq va qaytariqlariga hukmdorlik qilish — na ularni o'zgartirish bor.

Bu so'z ahli sunnat val-jamoat e'tiqodining quyidagi qoidasiga muvofiqdir. Muhammad Zohid Qo'tqu ibn Ibrohim al-Bursaviy aytadilar:

58-masala. **Hech bir sevgi va muhabbatulloh Alloh taoloning amrlarini soqit qila olmaydi.**

Muhabbatullohni iddao etgan kishida ushbu to'rt narsa bo'lishi shart:

1. Haq taoloning hech bir amrida kamchilikka yo'l qo'ymasligi.

2. Haq taoloning hech bir nahiyyida — qaytarig'ida kamchilikka yo'l qo'ymaslik.

3. Haq taoloning butun hukmlariga rozi bo'lishi.

4. Haq taoloning barcha maxluqotiga nisbatan shafqatli va marhamatli bo‘lishi.

“Kimda muhabbatulloh — Alloh muhabbati hosil bo‘lsa, endi unga namozni tark qilish zarar yetkazmaganidek, maosiy (gunohlar) ham zarar bermaydi”, deyish botil gapdir. Bundaylar marduddir.

Axir, Hazrati Payg‘ambarimizdan ham ko‘ra Allohni ko‘p sevgan kim bor? Alloh o‘z Arshi va kursisini kezdirdi, me’roj qildirdi, Allohni mushohada etib, Alloh bilan so‘zlashdilar! Alloh taolo Hazrati Payg‘ambarimiz xotirlari uchun oyni ikkiga bo‘lib, yana birlashtirdi, muborak barmoqlari orasidan suvlar oqizdi, toshlar va daraxtlar u zotga salomlar berdi, hayvonlar ul zotning huzurlarida tilga kirib, kalimayi shahodatni aytdi! Sabrlari tufayli butun dushmanlarini tinchitib, Islomni qisqa bir fursatda Sharq bilan g‘arb orasida yoydilar... Axir, ana shundoq payg‘ambar umrlarida biron marta biron vaqt namozni tark etmadilar-ku! Buning ustiga, kechalari namozlar o‘qib, shu qadar berilib ibodat qilar edilarki, hatto muborak oyoqlari shishib ketar edi...”

Imom Nasafiyning “Bahr ul-kalom” asaridan ma’rifat, imon, Islom va din istilohlariga doir ushbu iqtiboslar keltiriladi:

“1. Ma’rifat, Alloh taoloning zotida va sifatlarida bir ekanligini bilmoq, mislsiz va sheriksiz ekanligiga ishonmoqdir.

2. Imon, Allohning birligini va Hazrat Muhammad (s.a.v.)ning payg‘ambarligini til bilan iqror qilib, qalb bilan tasdiq etmoqdir.

3. Islom esa Allohning vahdoniyatiga (yakka-yu yagonaligiga) imon keltirish bilan birga, ibodat vazifalarini ado etmoqdir.

4. Din esa shu xislatlar ustida to o‘lguncha sabot ko‘rsatmoqdir”. (“Jomi ul-mutun”, 40-sahifa).

O‘zin o‘yla beixtiyor anglabonkim,
Ne qolib taraddud anga, ne taassuf.

Tasavvufda inson o‘zini shunday ixtiyorsiz holga keltiradi, o‘zini shunday Haq taolo ixtiyoriga topshiradiki, na unda biror ikkilanish, na afsuslanishga o‘rin qoladi.

Qilib Haq vujudida mahv o'z vujudin,
Navoiy, muni bil tariqi tasavvuf[1].

Unda inson Haq borlig'ida o'z borlig'ini mahv etadi — mahviyat: o'z nafsini "o'ldirish" maqomiga yetadi. Ey Navoiy, ana shuni tasavvuf yo'li deb bilgil".

Inson tasavvuf vazifalarini bajara borib, nihoyat, oliy ma'naviy nuqtaga yetadi: Allohga yetishib, fano maqomiga erishadi.

"Nasoyim ul-muhabbat" kitobida Navoiy yozadi: "Boyazid quddisa sirrahuning shogirdi Abu Muso dedikim, Boyazid dediki: "Alloh taoloni tush ko'rdum, so'rdumki: "Bor Xudoyo, yo'l senga ne nav'dur?" Dedikim: "O'zungdinkim o'ttung, Menga yetting!"

"Baqara" surasi, 54-oyat (ma'nosi): **Eslanglar, Muso o'z qavmiga: "Ey qavmim! Sizlar buzoqni** (iloh) **tutish bilan o'z jonlaringizga zulm qildingizlar. Darhol Yaratguvchi Egangizga tavba qilinglar, nafslaringizni o'ldiringlar. Ana shunday qilmog'ingiz Yaratguvchi Egangiz nazdida sizlar uchun yaxshiroqdir", dedi. Toki** (Alloh) **tavbalaringizni qabul etsin. Chunki U tavbalarni ko'p qabul etguvchidir, benihoyat rahmlidir.**

Tafsirlarda oyati karimadagi "nafslaringizni o'ldiringlar" amri ikki ma'noda ifodalangan: 1) "nafslaringizni (jonlaringizni, o'zlaringizni) o'ldiringlar" (Bayzoviy, Marog'iy, I, 20); 2) "nafslaringizni (isloh etish yo'sinida) o'ldiringlar" (Bayzoviy). Chunki oyatda nafsga qarshi mujodala qilish, yomon tuyg'ularni o'ldirish lozimligiga ham ishorat bor.

Qisqa qilib aytganda, inson ruhoniy bir hayotga — tavba-tazarruga, o'z-o'zini mahv etishga, o'z vujudidagi barcha yaramas tuyg'u va istaklarni tark etishga erishmog'i lozim. Oxir-oqibat fanofilloh maqomiga erishadi.

Turkiy adabiyotda hazrat Navoiy mutlaq birinchilik va rahnamolik maqomiga egadir va bu maydonda u zotning "panjasiga

---

[1] *Alisher Navoiy.* Baqo guli. O'zbek, rus, ukrain, belorus, qozoq, ozarbayjon, moldavan, qirg'iz, tojik, turkman, eston, boshqird, tatar, chuvash, qoraqalpoq, qrim tatar, saxa (yoqut), uyg'ur tillaridagi saylanma. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

panja uradigan" biror ijodkor yo'q. Chunki Navoiyni buyuk shoir deb qarasangiz, buyuk olim sifatida namoyon bo'ladi, buyuk olim deb qarasangiz, ilohiy ishq bilan yongan buyuk oshiq sifatida namoyon bo'ladi, buyuk oshiq desangiz, buyuk davlat arbobi sifatida namoyon bo'ladi, buyuk davlat arobobi desangiz, buyuk valiy sifatida namoyon bo'ladi. Qisqa umrda u zotning yozgan asarlari jahon ahlini hayratga solgulik xazinadir.

Mirzo Kenjabek,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi
bo'lim boshlig'i, Respublikada xizmat
ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Bismillohir-rohmonir-rohiym

DEBOCHA

Shukr-u sipos ul Qodirg‘akim, chun adam osoyishgohidin vujud oroyishgohlarig‘a jilva berdi, insonni soyir maxluqotdin nutq sharafi bila mumtoz qildi.

Ruboiya:
Ulkim, chu jahon xilqatin og‘oz etti,
Sun’ kilkini naqshpardoz etti.
Inson xaylin nutq ila mumtoz etti,
Nutq ahlini nazm ila sarafroz etti.

Va hamdi behadd-u qiyos ul Soni’g‘akim, chun iborat javohirin nazm silkiga tortdi, ul gulshani Eramoyinni nazm ahli xomayi gavharafshoni bila rashki nigorxonayi Chin va g‘ayrati Xuldi barin yasadi.

Ruboiya:
Chun xayli basharg‘a nutq komin berdi,
Ul nutq ila nazm ehtiromin berdi.
Nazm ichra balog‘at intizomin berdi,
Tarkibida e’joz maqomin berdi.

Jallat olouhu va ammat nu’amouhu va lo iloha g‘ayruhu[1].

Va durudi noma’dud ul anbiyo halqasining xotimig‘akim: **“Inna-sh-she’ra lahikmatun va innal-bayona lasihrun”**[2] nuktasi

---

[1] Uning (Allohning) sha’n-shavkati, atolari va ehsonlari ulug‘, ne’matlari barchaga keng yoyiqdir va Undan boshqa iloh yo‘qdir *(duo va e’tirof so‘zi — M. Kenjabek)*.

[2] “Albatta, she’rda hikmat bordir va bayonda sehr bordir” *(hadisi sharif — M. Kenjabek)*.

bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti.

Ruboiya:
Ulkim chu balog‘at etti da’vo a’rob
Ko‘rguzdilar ul da’vo aro ko‘p itnob.
Chun nuktasida qildi ayon gavhari nob,
Da’vogari gavharlari bo‘ldi siymob.

Va sollallohu alayhi va ’alo olihi va as’hobihi va sallam.

Ammo ba’d, so‘z bayt ul-haramining bodiyapaymoyi va nazm shohbaytining zevaroroyi al-faqir ul-haqir Alisher al-mutaxallis bin-Navoiy satara uyubahu va g‘ofara zunubahu andoq arz qilurkim, bu xoksori parishonro‘zgor kichik yoshdin o‘zumni she’rning parishon savdosig‘a giriftor bo‘lg‘animni-yu tufuliyat zamonidin ko‘nglumni nazmning parokanda vasvosig‘a mash’uf-u sheftavor bo‘lg‘anin va motaqaddam shuarosi malik ul-kalomlari dasturi bila jam’-u tartibida sa’y qilg‘animni-yu necha martaba aning tadvinida murattablar irtikob qilib, har sinf she’rg‘a zeb-u tazyin va oroyish-u oyin berganimning kayfiyatin burung‘i devonim fihrastidakim, “Badoyi ul-bidoya”g‘a mavsumdur, sharh bila arz qilib erdim. Andin so‘ngra dag‘i ul jam’-u tartibdin boshqa yana har taqrib bila har nav’ abyotkim, aytilib erdi-yu har nav’ g‘azaliyotkim, yig‘ilib erdi, ul xayol shabistonining duraxshon axtarlarinu ul ko‘ngul maxzanining duraxshon gavharlarin dag‘i ikkinchi devonimda kim, “Navodir un-nihoya”g‘a mashhurdur, rabt-u tartib berib, debochasinda sharh bila aizzayi as’hob-u ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim. Andin so‘ngra xayolimg‘a kelur erdi-yu ko‘nglumga evrulur erdikim, —

Ruboiya:
Shoirlig‘ ila shuhra qilib otimni,
Zoyi qildim she’r ila avqotimni.
Emdi tuzayin Tengriga to’otimni,
Ko‘p elga mushavvash etmay abyotimni.

Ruboiya:
Chunkim qaridim, umrni barbod etmay,
Ko‘nglumni yigitlar g‘amidin shod etmay.
Har lahza birov ishqida faryod etmay,
Holim sharhin nazm ila bunyod etmay!

Ruboiya:
Ellik bila oltmishqa yetti qadamim,
Ne ma’nekim, bo‘lmadi erkin raqamim.
Ne turfaki, sabt etmadi erkin qalamim,
Kim, yo‘q biridin xotir aro juz alamim, —

agarchi bu nigorish topqan ikki devon tartibida va guzorishqa kirgan ikki daftar tadvinida ham bu faqiri nomurod-u haqiri noshodg‘a hech ixtiyor yo‘q erdi, nechunki barchasi sultoniy hukmlar-u ehson-u tahsinlar va xoqoniy amrlar-u ta’lim-u talqinlar bila erdi. Andin so‘ngra xud xotirg‘a kelmas erdikim, bir g‘azal husn bahori g‘azolalari ta’rifida yo ishq otashkadasi sharoralari tavsifida tugatgaymen, balki bir bayt bir sho‘xning jamoli dilfuruzi bobida yo o‘z ko‘nglumning dard-u so‘zi sharhida nazm silkiga kiyura olg‘aymen yo xayolimg‘a kechura olg‘aymen.

Ruboiya:
Komin qilur ermish odamizod xayol,
Naqsh aylar emish ko‘ngliga yuz fikri mahol.
Mundin g‘ofil qolibki, Hayyi Muta’ol
Kelturgusi tongla aning ollig‘a ne hol.

Ruboiya:
Ham demagida yo‘q e’tibore kishiga,
Ham qilmog‘ida yo‘q ixtiyore kishiga.
Taqdir aro chun yo‘q iqtidore kishiga,
Ne qilg‘anig‘a ne erk bore kishiga.

Yana ro‘zgor havodisidin ul fikrlar barcha ko‘nglumdin bordi va ishqi ojizkush zulm-u bedodi ul xayollarni xotirimdin chiqardi.

Ollimg‘a oncha dushvorlig‘lar yuzlandi-yu tegramga oncha sa’b giriftorlig‘lar aylandi va sipehr boshimg‘a oncha balo toshi otti-yu ishq sipohining lagadko‘bi zaif paykarim bila so‘ngaklarimni oncha oyoq ostida ushottikim, ne so‘zumdin xabarim-u ne o‘zlugumdin asarim qoldi. Ishqim oshubi tug‘yonida har suubatkim yuzlanur erdi, chun bir hamdard rafiqim yo‘q erdikim, dardimdin shammaye izhor qilg‘aymen, biror bayt birla ul hol mazmunin nazm qilib ko‘nglumni xoli qilur erdim va jununum shiddati g‘alayonida har oshubkim, ollimg‘a kelur erdi, chun hamzabon mushfiqim yo‘q erdiki, maxfiy o‘tumni oshkoro etgaymen, biror matla’ bila ul ma’noni ado qilib, qattig‘ holimni sharh etar erdim. Bu vosita bila ko‘nglum o‘tig‘a orome va ishqim bedodi no-hamvorlig‘ig‘a andome hosil bo‘lur erdi.

Bu nav’ bila oz vaqtda ko‘p she’r aytildi-yu har nav’ nazm tegramga yig‘ildi. Ishqim sho‘r-u g‘avg‘osi vaqtida va jununum taroj-u yag‘mosi fursatida xud qayda oncha taskin-u somonim bor erdikim, aytilg‘an parishon abyotqa jam’-u tartib bera olg‘aymen va yig‘ilg‘an parokanda sharhi holotqa rabt-u qoida qo‘ya olg‘aymen? Chun ul tarixdin muddate o‘tti-yu ul vaqtdin fursate arog‘a kirdi, falak havodisining ul qattig‘ esadurg‘on sarsari taskin tobti va ul sarsar oshubidin ashkim daryosining anjum yuziga taponchalar urodurg‘on ko‘loki orom tutdi. Ul ranj-u tashvirdin yillar ranjurluq tortqan tandek, balki jonidin mahjur qolg‘an badandek chiqtim, nabzimg‘a harakat ma’dum-u nafasimning kirar-chiqari noma’lum, tanim o‘n qatla andin zaifroqkim nol va ko‘nglum bir zamon o‘z holida bo‘lsa, yana o‘n soat behol.

Va ikki murattab bo‘lg‘an devonlardin yangi aytilg‘an abyot adadi aksar va har bayti lafz-u ma’no bila darjlig‘ gavhar demaykim shu’lalig‘ ozar. Xotirg‘a kelur erdikim, agar bu avroqqa rabt-u tartib berilmasa, bir havodis tundbodi eskach, har safhasin bir yon sovurg‘ay va agar bu gulbarglarni zeb-u oyin bila bir guldasta bog‘lanmasa, bir navoyib nasimi yetkach, har varaqin bir yon uchurg‘ay. Va agar rabt-u tartibini havas qilsam, havasimg‘a qayda ul quvvatki, ikki baytni bir-biriga marbut bog‘lashtura olg‘ay va xayolimda qayda ul jamiyat-u holatki ikki lafzin bir-biriga irashtura olg‘ay. Bu ajzdin xomam tili lol-u bu zabunluqdin o‘z tilim

shikastamaqol erdikim, nogah inoyat nasimi hidoyat gulshani royihasin yetkura kirishti va saodat munhiysi davlat ravzasi mujdasin keltura boshladi, ya'ni hukmi qazojarayon-u farmoni vojib ul-iz'on bu banda otig'a ul Sultoni sohibqirondin yetishtikim, qullari hukmidin azim ush-sha'n salotin bosh torta olmaslar va bandalari farmonidin nofizi farmon xavoqin bo'yun to'lg'ay olmaslar.

Ruboiya:
Shoheki, falakka yetsa farmoni aning,
Topmoqqa sukun sur'ati davroni aning.
Gar hashrg'a tegru bo'lsa poyoni aning,
Qilmoq harakat bo'lmag'ay imkoni aning.

Ruboiya:
Ming bandasi xoqon bila qaysar yanglig',
Yuz chokari Doro-vu Sikandar yanglig'.
Ham taxtig'a poya charxi axzar yanglig',
Ham tojig'a qubba mehri anvar yanglig'.

Ruboiya:
Mavrusiy qul jinsi bani Odam anga,
Meros ila mulk jumlayi olam anga.
Hayron karam-u jud ishida Hotam anga,
No'shirvon adl ichinda tobe ham anga.

Ruboiya:
Fa'oli qazo hukmig'a anboz kelib,
G'addori qadar amrig'a damsoz kelib,
Bazmi aro Zuhra nag'mapardoz kelib,
Anjomi zamon davrig'a og'oz kelib.

Ruboiya:
Haq ko'nglin aning bilikka maxzan aylab,
Har fanda arig' zotini yakfan aylab,
Johi taxtin[i] charxi musamman aylab,
Tufroqdek ul o'zin furutan aylab.

Ruboiya:
Iqbol anga davlat mayi payvast tutub,
Bu boda bila jonin aning mast tutub.
Haq ani sipehrdin zabardast tutub,
Tufrog'din ul vale o'zin past tutub.

Ruboiya:
Ham qiblayi iqbol harimi johi,
Ham Ka'bayi omol biyik dargohi.
Shahlarning dardmandi-yu ogohi,
Bu turfaki, dardmandlarning shohi.

As-sulton-u ibn us-sultoni val-xoqon-u ibn ul-xoqoni, muizzis-saltanati vad-dunyo vad-din Abulg'ozi Sulton Husayn Bahodurxon xalladallohu taolo mulkahu va sultonahu va afoza alal-olamina birrahu va ihsonahu.

Ruboiya:
Bo'lg'ancha sipehr davri komi bo'lsun,
Aflok uza bazm ihtishomi bo'lsun.
Ham dargahi shohlar maqomi bo'lsun,
Yilda bir alarg'a bori omi bo'lsun.

Ruboiya:
Har lahza qil anga yuz inoyat, yo Rab,
Ollig'a yorut sham'i hidoyat, yo Rab,
Ham umrini ayla benihoyat, yo Rab,
Ham davlatig'a yeturma g'oyat, yo Rab.

Bu yanglig' falaktazyin dargohdin-u bu nav' Arshoyin borgohdin xitobi sadmatomiz-u hukmi hayratangiz yetishti. Mazmuni bukim, ey qadimiy bandayi xos-u ey boyri xodimi zaviy ul-ixtisos, burung'i ikki devonkim, bizning hukm-u xitobimiz bila murattab qilding va kulliyot-u juzviyotin bizning mashvarat-u ta'lim-u istisvobimiz bila tuzattingkim, birining ishqomiz abyotidin bu eski dayrning rafi' toqida ushshoqning sho'r-u g'avg'osidur va yana

birining shavqangiz g‘azaliyotidin bu qadimiy mani’ gunbad ravoqida muhabbat ahlining ho‘y-u alolosi. Andin so‘ngra yig‘ilg‘an ash’orning-u nazm rishtasig‘a tortilg‘an durri shahvorning adadi burung‘i devonlardin ortqan chog‘lig‘durur va bu latofatsifot xo‘blar va malohatsimot mahbublar bila yana ikki devon tartib bersa bo‘lurdek ma’lum bo‘ladur. Netgungdurkim, bu ishdin dilbandroq bo‘lg‘ay-u ne qilg‘ungdurkim, bu shug‘ldin sudmandroq bo‘lg‘ay. Emdi avlo budurkim, bu g‘arib ishga ko‘ngul kelturgaysen, balki hukm bu erurkim, bu ajib amrg‘a xoma surgaysen-u tafakkur xilvatgohida xayol sho‘x-u ra’nolari bila bazm tuzgaysen va to falak gardish qilur bashar jinsining xayolig‘a kelmagan a’jubani elga ko‘rguzgaysen. O‘zung bilursenkim, nazm harimining xoslari-yu she’r bahrining g‘avvoslarikim, ruhparvar navolig‘ anfoslaridin zamona bazmi to‘lubtur va xayol daryosidin chiqarg‘on qiymatiy gavharlaridin davron libosi javohir bila murassa’ bo‘lubtur, hech qaysi so‘z olamining rub’i maskunin ola olmaydur va to‘rt gavhardin murakkab bo‘lg‘an bashar xaylining hech qaysidin to‘rt devon yodgor qolmaydur. Bir o‘z asrida ganji ma’naviy Amir Xusrav Dehlaviyni derlarkim, sulton Malikshoh Alp Arslon otig‘a to‘rt devon murattab qilmish bo‘lg‘ay-u xotimasini aning oti bila muzayyal etmish bo‘lg‘ay va bu ishi ul zamonning yaxshi-yomoni qulog‘iga yetmish bo‘lg‘ay, agarchi bu so‘z mazkurdur, ammo ul devonlar ma’dumdur va ul ma’dumlarning agarchi asomiysi mavjuddur, ammo vujudi noma’lumdur. Xayolig‘a o‘tkarib, varaqqa nigorish qilmag‘anmu erkin, yo tiliga kechurub, tartib yuzidin nasaqqa guzorish bermaganmu erkinkim, “Xamsa”si-yu soyir manzum kutub-u rasoili o‘z holi bila mavjuddur, bu to‘rt devoni zamon ahlidin mehr-u vafo va insof-u muruvvatdek nobud. Chun senga tavfiq madad qiliptur-u bu maqsudning hech kimga yig‘ilmag‘an moddasi yig‘iliptur, tilarbizkim, fursatni g‘animat bilgaysen-u bu muddao husulig‘a rag‘bat qilg‘aysen.

Bu hukm chun qulog‘img‘a yetishti, ajz-u zabunluq o‘tining dudi ko‘nglumdin dimog‘img‘a yetishtikim, hukm qaviy erdi-yu mahkum zaif va amr bag‘oyat kulliy erdi-yu ma’mur asr-u nahif va ra’sha paykarimg‘a tazalzul soldi-yu havos-u xayolim xayli bir-biridin qo‘zg‘aldi. Ne uzr ayturg‘a zahra-vu jur’atim va ne

qabul qilurg‘a havsala-vu quvvatim, agarchi uzr dilpazir emas erdi, ammo o‘z ajzi holimni arzg‘a yetkurmakdin ham guzir emas erdi.

Ruboiya:
Dedimki, bu ishdakim, bo‘lubmen ma’mur,
Har nechakim tutmasam o‘zumni ma’zur,
Lek ishtaki, ajdahog‘a kelturgay zo‘r,
Zo‘r etkay o‘ziga, istasa qilmoq mo‘r.

Ul humoyun zamirning oyinayi getiynamoyida ravshan-u paydodur va ul pokiza ko‘ngulning jomi jahonoroyida mubarhan-u huvaydokim, bu bandayi faqirg‘a ne notavonlig‘lar shikast berdi-yu bu zarrayi haqirg‘a ne sargardonlig‘lar dast berdi. Agarchi marazimg‘a sihhat umidi paydo bo‘luptur, ammo hanuz g‘izo bila sharbatkim, ichilur-yeyilur, misqol tarozusi bila tortilur va tongdin aqshomg‘acha soat shishasig‘a ko‘z tikilur va agarchi za’fimg‘a quvvat imkoni zohir bo‘lubtur, ammo hanuz buzug‘ koshonamdin chiqarg‘a qo‘pmoq tilasam, osilg‘an idbori ankabut torlari dastgirim bo‘lub madad yetkurmaguncha, tebranmakka tob-u tavon va harakatqa maqdur, balki imkon yo‘qtur; pashsha yuz pili damon torta olmag‘an yukni nechuk tortqay, bataxsiskim, majruh-u ranjur dag‘i bo‘lg‘ay, mo‘rchaning sheri jayon qila olmag‘an ishni nechuk qila olg‘ay, xususankim, bemor-u sihhat tariqidin mahjur dag‘i bo‘lg‘ay.

Ruboiya:
Avval ikki devong‘a chu qildim rag‘bat,
Ham erdi yigitlik madadim, ham sihhat.
Bo‘ldum chu qari-yu xasta, yo‘q ul quvvat
Ko‘rguzgali andoq nimalarga jur’at.

Kulliyragi bukim, ul davovin tartibida Sultoni sohibqironning oliy ta’bining isloh-u ihtimomi behad va har juzviy nuktada tag‘yir-u ta’limi molo kalomi beadad erkan jihatdin ul ish saranjom suratin paydo qildi va iftitohidin ixtitomig‘a deguncha tartib raqami

chekildi. Bu za'f-u notavonlig'im zamonida bu ajz-u zabunluq-u besomonlig'im tug'yonida Sultoni sohibqironning ra'yi olamoroyi-yu zamiri xurshid ta'siri go'yokim ba'zi avqotda olam kishvari fathig'a azmsoz-u ba'zi holotda kishvar ahli obodonlig'ig'a sehrpardoz va ba'zi zamonda aysh-u nishot bila iligi zarposh-u ba'zi avonda toat-u ibodat bila ko'zi guharposhliqka mutaammil-u mushtag'il uchun bu xoshok daryodek ko'ngliga kirmasu bu zarra quyoshdek zamirig'a paydo ermas. Va Sultoni sohibqironning himmat yuzidin ihtimomi-yu sa'yi g'oyatidin ta'limi bardavomi bo'lmasa, mundoq dushvor ish ilgari bormog'i mutaassir, balki xayolimg'a kechurmag'i mutaazzirdur.

Mundoq hukm bo'lg'andin so'ngra gah-gohi holimdin ogoh bo'lmasa netkaymen-u lahza-lahza ahvolimdin xabar tutmasa neta olg'aymen? Qumursqa Sulaymonning xotirig'a kelmasa, ne mahalli taajjub-u tahayyur?! Va Suho charxi gardon sathida ko'runmasa, ne mahalli hayrat-u taazzur?! Bu xokisor chun bu dardi dillarimni izhor-u nomurodlig'larimni oshkor qildim va mazallat tufrog'ig'a tazallum bila yiqildim, inoyat borgohidin sado keldi-yu hidoyat korgohidin nido yetishtikim, ko'nglungni solma va bu nav' savdo-vu vasvos xayolig'a qolmakim, biz hech holda sening holingdin g'ofil emas erkandurbiz, ammo bu holdin sen g'ofil-u ko'nglumizdin hargiz yoding zoyil ermas erkandur va bu ma'no sening ko'nglungdin zoyil. Andoqki burung'i ikki devoning takmilida rioyatdin hech nav' tag'oful voqi' bo'lmadi va rahnamolig'-u inoyatdin hech turlug takosul surat bog'lamadi, emdi dag'i hamul dastur bila, balki andin ham ortug'roq, munda ham hamul qonun bila, balki andin ham afzunroq, ahvolingdin xabar tutulg'usidur va biroz vaqtda sarvaqtingg'a yetilgusidur.

Chun za'fi holing bizga zohir-u paydodur, shafqat va bandanavozlig'lar bila ne yerda qolsang o'tkarilgusidurur va chun shikasti ahvoling bizga ravshan-u huvaydodur, marhamat-u navosozlig'lar bila har mushkiling bo'lsa hal qiling'usidurur.

Ruboiya:

Shahdin chu bu nav' lutf-u ehson toptim,
Ummid dag'i behad-u poyon toptim.

Zulmat aro erdim, obi hayvon toptim,
Yo‘q-yo‘qki, o‘lub erdim, yangi jon toptim.

Ko‘nglumga o‘zga quvvat kirdi va ta’bimg‘a o‘zga javdat-u jalodat hosil bo‘ldikim, kilkim jardayi tezgomig‘a o‘zga ravonlig‘-u xayolim sahobi barqxiromig‘a o‘zga gavharafshonlig‘ yuzlandi. Qabuli barmog‘in ko‘zumga-vu minnat iligin ko‘ksumga-vu jonparvar so‘zumga qo‘ydum va zamir xilvatgohini xavotir g‘avg‘osidin muarro-vu ko‘ngul zistgohini vasovis hujumidin mubarro qildim. Xoma uchin tez ettimu ta’b obi hayotin otashangiz. Va o‘tgan ayyomda aytilg‘an matla’lar subhi bidoyatin maqta’lar shomi nihoyatig‘a payvasta-vu kechkan hangomda bitilgan parishon abyot gavharlarin takmil rishtasig‘a tortmoq bila pirosta qila boshladim.

Ruboiya:
Kun bor erdikim bir g‘azal-u ikki g‘azal,
Bal uch g‘azal-u to‘rt g‘azal ba’zi mahal.
Mahvashlardek bori latofatda masal,
Bog‘lab kiyibon yuzga hulla to‘ng‘a hulal.

Bu nazohat shabistonining pardanishinlari yuz ming zeb-u ziynat bila ta’b xilvatxonasidin jilvayi noz qilib chiqib, soyir abnoyi jins silkiga kirarlar erdi va bu malohat nigoristonining nozaninlari ming tuman oroyish-u namoyish bila xayol xilvatxonasidin xiromi dilnavoz bila harakat ko‘rguzub, yana abkori fitnaosorg‘a qo‘shulurlar erdi. Chun bu mavzun harakatlik dilkashlar-u bu matbu’ sifatlik sho‘xvashlar ellik, oltmish yo yuzga yaqin bo‘lsalar erdi, bu faqir savdoyi bir tojirdekkim, malik ut-tujjor desa bo‘lg‘ay.

Ruboiya:
Yuz hur sifat barchasining noz-u fani,
Kashmiri-yu rumi-yu xito-u xo‘tani
Kim, bir shah uchun keturgay ul toyifani,
Tojir o‘zin aylarga baho birla g‘ani, —

kashmiriysi sehrsozlig‘da dilrabo-vu dilkash va rumiysi turktozliqda kofiroyin-u farangiyvash va xitoyisi xunrezlig‘da novakzan-u shershikor va xo‘taniysi fitnaangizlig‘da sherafkan-u g‘izolakirdor, bu shamoyil-u oyin bila va bu zebolig‘-u tazyin bila Sultoni sohibqironning haramsaroyig‘a kiyurur erdim va birin-birin ul hazratning kimyoasar nazarig‘a yetkurur erdim.

Va ul hazrat inoyat ko‘zi bila ul ra’nolarni ko‘rub va iltifot nazarin har biriga yetkurub, qaysi birining harir-u hullasida qusure ko‘runsa yo ul hulla-vu harirni murassa’ qilg‘an javohirda adami munosabat sababidin future zohir bo‘lsa, ul liboslarni chiqarib, xizonayi xosdin munosib ranglig xaz-u debo liboslar barcha qiymatiy gavharlar bila tarsi’ qilg‘on kelturub ul sho‘xlarg‘a kiydurur erdi va har qaysini o‘z munosabatig‘a ko‘ra tartib bila o‘z oliy majlisida o‘lturtur erdi, ya’ni aytilg‘an abyot barcha latoyifosor va sabt bo‘lg‘an ash’or barcha zaroyifshiorkim, ellik, oltmish yo yuz g‘azalg‘a yaqin yig‘ilsa erdi, hazrati Sultoni sohibqironning firdavsoso suhbatida-vu sipehrfarso hazratida hozir qilib arzg‘a yetkurur erdim va ul hazrat alarg‘a shafqat yuzidin boqib, qaysi ma’no sho‘xiningkim tarkibi xil’atida va alfozi kisvatida betakallufluq ko‘rsa, o‘z ganjinayi zamiri xizonasidin munosib alfoz bila ul liboslarg‘a tag‘yir berib va ul alfoz kisvatida sanoyi’ javohiridin nomunosiblig‘ ma’lum qilsa, o‘z xizonayi xotiri ganjxonasidin yoqut-u la’li rangin va gavhar-u durri samin bila ul zeb-u ziynatqa tabdil yetkurub, har g‘azalni tartib yuzidin o‘z o‘rnig‘a raqam qilur erdi.

Va bu faqiri bebizoat-u bu faqiri beistitoat ul ta’limlarni o‘zumga dastur qilib hamul dastur bila ul zabt-u tartibg‘a shuru’ qilur erdim. Mundin boshqa dag‘i ul hazratning ko‘p xossa ma’nolari xayolotin-u g‘arib mazmunlari maqolotin va dilpazir tashbihlari nazokatin-u benazir tanbihlari jazolatin burung‘i ikki devonim debochasida sharh bila mazkur qilib erdim-u tafsil bila mastur etib erdim, bu devonlarda dag‘i hamul dastur bila maoniy javohiri shohvoridin va alfoz naqsh-u nigoridin va tarkib salosat-u latofatidin va choshniy holat-u haroratidin hech juzve juz’iyotdin yo‘qturkim, ul hazratning muborak ta’bining anda kulliy daxli bo‘lmamish bo‘lg‘ay. Balki asli

xayol ul hazratning bo‘lub, bu banda ham ul hazratning buyrug‘i va ta’limi bila anda juzviy daxle qilmish bo‘lg‘aymen. Bu jihatdin bo‘la olg‘ayki, bu devonlar ul hazratning adilsiz ta’bidek benazir-u har shohbayti o‘z humoyun zotidek olamgir bo‘lg‘ay. Chun bu ma’no gavharlari barcha ul hazratning ta’bi bahridin-u zehni konidin hosil bo‘ldi va alfoz-u iborat xazoyini hamul ma’nolar gavharidin to‘ldi, bu ma’nodin aning otin “Xazoyin ul-maoniy” qo‘yuldi.

Ruboiya:
Yo Rab, bu xazoyinki, men ettim ma’mur
Kim, xozini jannat anga xushtur ganjur.
Chun keldi futurluq ko‘ngullarga surur,
Berma andin ko‘ngul sururig‘a futur.

Ruboiya:
Bu bahrki, ganji lomakoniy dedilar,
Har qatrasin obi zindagoniy dedilar.
Shah maxzani ta’bidin nishoni dedilar
Kim, ani “Xazoyin ul-maoniy” dedilar.

Agarchi xurshidi olamtobning falakni bir davra qilg‘an zamonig‘a yil ot qo‘yupturlar va yilkim, iborat to‘rt fasldindur, har faslg‘a dag‘i bir ot ta’yin qilibdurlar. Bu nayyiri a’zam falakni bir davra qilg‘anining monandikim, bahri-yu koni-yu naboti-yu hayvoniyning natoyiji anda zohir bo‘lur, munda dag‘i jami’ ul natoyijdin dalil-u asar topsa bo‘lur. To‘rt faslining muqobalasidakim, to‘rt devon voqi’ bo‘luptur, har qaysig‘a bir munosib ot darboyist edi, ul sababdin avvalg‘i devonnikim, tufuliyyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzorining bog‘chasining g‘arib chechaklari bila orosta bo‘lub erdi, “G‘aroyib us-sig‘ar” deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yigitlik-u oshuftalig‘ va shabob-u oluftalig‘ yozi-yu dashtida yuzlangan nodir vaqoyi’ bila pirosta bo‘lub erdi, “Navodir ush-shabob” ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat-ul — hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badi’

nishotlar kayfiyatin yozilib erdi "Badoyi ul-vasat" ot qo'yuldi. Va to'rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dard-u ranji foyidalarikim, jonso'z oh urmoq-u jon topshurmoqdurkim, anda sabt bo'lubtur, "Favoyid ul-kibar" laqab berildi.

Umid ulkim, bu to'rt devonkim, Sultoni sohibqiron oti bila muzayyaldururu alqobi bila mutarraz, ham aning otidek rub'i maskunda to'lg'a-yu ham aning alqobidek to'rtunchi ko'kka degincha muntashir bo'lg'ay. Shukrkim, bu banda nazm vasilasi-yu she'r vositasi bila tamom umrumni ul hazratning madhi bila kechurdum va barcha hayotimni aning duosi bila o'tkardim.

Tufuliyyat avonikim, yetti-sekkiz yoshdin yigirmi yoshqacha chinasa bo'lg'aykim, umr fusulining navbahori va hayot gulshaninig shukufa-vu gulzoridur, aning madhida "G'aroyib us-sig'ar" bila sarf qildim.

Shabob zamonikim, yigirmidin o'ttuz beshgacha desa bo'lg'aykim, ham bu fusulning yozidururkim, yigitlik chashmasorining hayotbaxshlig'ining og'ozidur, aning vasfida "Navodir ush-shabob" bila kechurdim.

Va kuhulat ayyomikim, o'ttuz beshdin qirq beshga degincha qiyos qilsa bo'lg'aykim, bu fusulning xazonidurkim, tiriklik bog'ining bargrezining nishonidur, aning ta'rifida "Badoyi ul-vasat" bila o'tkardim.

Va qirq beshdin oltmish yaqinig'achakim ta'yin qilsa bo'lg'aykim, bu fusulning qishidurkim, kishining xam qad bila adam yo'lig'a kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidur, aning duosida "Favoyid ul-kibar" bila nihoyatqa yetkurdum.

Ruboiya:
Sarf ettim anga umr bahorin dag'i,
Bo'stoni hayot-u lolazorin dag'i,
Ollida xazoni zarnisorin dag'i,
Kofurfishon qish bila qorin dag'i.

Va bu avqot mobaynida har miqdorkim, fursat toptim, xoh "Xamsa" nazmidin-u xoh "Nazm ul-javohir" va "Majolis un-na-

foyis"u "Zubdat ut-tavorix" va soyir tasniflar ishtig'olidin ham ul hazrat duoyi davlatig'a avqotimni sarf qildim. Va bihamdilloh andoq murodlar kasb ettimkim, mening abnoyi jinsimning yuzidin biriga muyassar bo'lmaydur va andoq maqsudlarg'a yettimkim, alarkim, mendek yuz, balki ming qullari bor erdi, birining sog'ari orzusi menga nishot yetkurgan may bila to'lmaydur. Bihamdillohi taoloki, bu avqotdakim umr vodiysining ko'pragin aning davlatidin murodlar bila qat' etibmen va hayotning nihoyatig'a komlar, balki komronlig'lar bila yetibmen, hech turluk armon xotirimda qolmaydur-u hech nav' orzu ko'nglumda sig'ing'anin xayolim topa olmaydur. Har ne dunyo murodi-yu zohir komronlig'idur surubmen va so'zumning siyt-u sadosin aning madhida yetti falakka yetkurubmen. Ulcha orzu haysiyyatidin-u armon jinsidin qoliptur, oxirat yo'lining suhulat va osonlig'i va botin mulkining iyolat-u komronlig'idur. Va ul vobastadur Haq subhonahu va taoloning tavfiqi bila amri itoatig'a va Rasul sollallohu alayhi va sallam shariatining mutobaatig'a. Umidim uldurkim, ul hazrat davlatidin bu iqbolg'a dag'i sarbaland-u bu saodatqa dag'i bahramand bo'lg'aymen.

Bu bobda bir necha so'z o'z arzi holimni tilarmenkim, zohir qilg'aymen-u ul nishotim guli ochilg'andin men ham nishotdin g'unchadek ochilg'aymen va ul arzadoshtim savodin bu debocha zaylida sabt etkaymen-u bitkuchilarga ham bu fihrastdin bu arzadoshtni ayirmasqa vasiyat etkaymen, to kun so'ngi bu debochani o'qug'an elga bu arzadoshtim bila bu muddaomg'a yetkanim nishonaye bo'lg'ay vozih-u dalile bo'lg'ay loyih. Bu jihatdan to olam inqirozi bo'lg'usidur Sultoni sohibqiron davlatig'a duo qilg'aylar va shafqat-u bandaparvarlig'ig'a sano degaylar.

Qulluq arzadosht ulkim, bu bandag'a yosh ulg'ayg'an chog'da za'fe yuzlandi va ul za'f rishtasi rishtadek za'flig' paykarimg'a andoq chirmandikim, ul quyoshdek zamirg'a ravshandur. Holo mizojim istiqomatdin munharif-u badanimda necha marazi muxtalifdur va atibbo ilojimdin ojiz-u ma'zul va ahibbo mizojimdin mutaajjibu malul. Dimog'im parishonlig'idin so'zum nomarbut-u xayolim oshuftalig'idin holim nomazbut. Bag'rim qizig'onidin jismimda

hummoyi lozim va ko‘nglum ozg‘onidin boshim aylanmog‘i-yu ko‘zum qorarmog‘i doyim. Ne tongdin aqshomg‘acha o‘zumga bir dam g‘izodin kom, ne aqshomdin tongg‘acha **“torfat ul-ayn”**e[1] ko‘zumga uyqudin orom. Xotirim savdoomiz xayollardin mushavvash, besar-u dilliqdin har necha dilkash so‘z bo‘lsa ko‘nglumga noxush. Me’damning hazm qilur g‘izosi zamona ahlining izosi, ko‘nglumning nishot bazmida mayi nobi falak tiyg‘i oqizg‘an bag‘ir xunobi. Notavonekim, yuqori mazkur bo‘lg‘andek g‘izo qilur, oshi misqol toshi bila bo‘lg‘ay, agar gohi zaif xotiri sharbat mayli qilg‘ay, ul dag‘i bu tosh tarozusi bila tortilg‘ay, kishi qo‘ldamayin yeridin qo‘parida ko‘p ozor bo‘lg‘a-yu aso madadi bo‘lmag‘uncha yerdin qadam ko‘tarmagi dushvor, sayr havosin qilsa iki insong‘a otlandurur-tushururida hammolvashliq-u otlang‘andin so‘ngra paykari yukidin bir hayvonga murdakashlik, tushkandin so‘ngra bu sayr ko‘ftidin a’zosi nokor, bu ozurdalig‘din yana bir kecha-kunduz tebrana olmay, andoqki bir yilliq bemor, issig‘ nafaslaridin hayotining guli pajmurda-vu nafasining og‘ir kirar-chiqaridin zaif tani ozurda.

Ruboiya:
Har shom-u saharg‘a tegru ingranmoq ishi,
Bu yonidin ul yonig‘a aylanmoq ishi.
Gah-gah isitma o‘tidin yonmoq ishi,
Gah to‘ngdururidin yana chirmanmoq ishi.

Ruboiy:
Ne jismida tob-u ne tanida quvvat,
Ne ko‘nglida xushluq, ne o‘zida sihhat.
Mundoq kishining munosibidur uzlat,
Vayronasidin chiqmoq anga ne nisbat.

Sultoni sohibqironning in’omi beg‘oyatidin va ehsoni benihoyatidin umrin bu davlatlig‘ dargohda-vu hayotin bu saodatlig‘ borgohda yuqori o‘tkan sharh bila sarf etkan bandaning iltimo-

[1] **“Torfat ul-ayn”** — ko‘z ochib yumguncha muddat.

si budurkim, mazkur bo‘lg‘an taraddud-u mashaqqatlardin ozod bo‘lg‘ay va g‘amgin ko‘ngli bu nav’ za’f ayyomida nisbatsiz qayg‘ulardin shod, mundoq umrdakim, bukun — tonglalig‘ ma’lum ermas.

Misra:
Ish Tengriga tavbayi inobat bo‘lg‘ay, —

va o‘tkan umr ma’siyat bila uzr taqsirida toat-u nadomat. Bu holatda dag‘i avqotning pokizasida ul hazratning duosig‘a mash’uf bo‘lg‘usidur va duo-vu niyozi naqdining xulosasi aning farxunda ro‘zgorig‘a masruf.

Umid ulkim, ul hazrat davlatidin andoqkim dunyo iqbol-u komidin mustafid bo‘ldum, oxirat kom-u iqbolidin ham noumid bo‘lmag‘aymen. Ul ostonning qullarining bu qul bila yorlig‘ nishoni uldirkim, Sultoni sohibqiron inoyatidin bir yorlig‘ nishoni bitilgay va bu bandani sultoniy imoratning bayt ul-mag‘firasida soyir jorubkashlaridin birining o‘rnig‘a mansub-u sarafroz etilgaykim, bu uftodalig‘ ayyomida bore ul ostonada yiqilg‘aymen.

Quvvatim bo‘lg‘anda supurgu olib, ilgim bila va quvvatim bo‘lmag‘anda supurgu o‘rnig‘a kirpigim bila ul ostonani supurur bahonasi bila ko‘zumni ul munavvar ravza tufrog‘idin yorutg‘aymen va ul ostonani bu supurgu birla arig‘-u bu uyni ul surma bila yorug‘ tutqaymen va bu xidmatni dunyo-vu oxiratim sharafi bilgaymen.

So‘zum uzaldi-yu ado qiladurg‘an maqsudum yiroq qoldi. Agarchi xomamning gavharafshonlig‘ig‘a nihoyat yiroqdur va lekin duo gavharfishonlig‘i bila ixtisor qilmoq yaxshiroq.

Ruboiya:
To dahr uza bu gunbadi davvor o‘lg‘ay,
Ul gunbad uza sobit-u sayyor o‘lg‘ay.
To sobit-u sayyorg‘a osor o‘lg‘ay,
Tengri bori holingda nigahdor o‘lg‘ay.

Ruboiya:
Taxting bo‘lsun sipehri axzar chog‘lig‘,
Chatring rif’atda mehri anvar chog‘lig‘.
Mulkung baru bahr aro Sikandar chog‘lig‘,
Lekin umrung Nuh payambar chog‘lig‘.

Ruboiya:
Ham dargahing iqbol makoni, yo Rab,
Ham boshing uza toji Kayoniy, yo Rab.
Jomingda ziloli zindagoniy, yo Rab,
Andin sanga umri jovidoniy, yo Rab.

G‘AZALLAR

“ALIF” HARFINING OFATLARINING IBTIDOSI “G‘AROYIB”DIN

1

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvor ul-hudo[1],
“Yor aksin mayda ko‘r” deb jomdin chiqti sado.

G‘ayr naqshidin ko‘ngul jomida bo‘lsa zangi g‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g‘amzudo.

Ey, xush ul maykim, anga zarf o‘lsa bir sing‘an safol,
Jom o‘lur getiynamo, Jamshid — ani ichkan gado.

Jom-u may gar bo‘yladur, ul jom uchun qilmoq bo‘lur
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr aro hush ahli rasvo bo‘lg‘ali, ey mug‘bacha,
Jomi may tutsang, meni devonadin qil ibtido.

Toki ul maydin ko‘ngul jomida bo‘lg‘ach jilvagar,
Chehrayi maqsudi mahv o‘lg‘ay hamul dam moado.

Vahdate bo‘lg‘ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg‘ay ado.

Sen gumon qilg‘andin o‘zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohido.

---

[1] Ushbu “Ashraqat” g‘azali “Xazoyin ul-maoniy” devonining ochqich va tasavvuf lug‘atini izohlovchi qalovuz g‘azali bo‘lib, shundan to “Iloho, Podshoho, Kirdigoro” g‘azaligacha hamd, ya’ni Alloh taoloning masnu’oti, san’ati, qudrati nishonalarini izhor etuvchi maqtov va shukr g‘azallaridir *(M. Kenjabek)*.

Tashnalab o‘lma Navoiy, chun azal soqiysidin
“Ishrabu, yo ayyuhal-atshon”[1] kelur har dam nido.

2

Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g‘avg‘o.

Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig‘ osonkim,
Erur paydolig‘ing pinhon, vale pinhonlig‘ing paydo.

Chaman otashgahiga otashin guldin chu o‘t solding,
Samandardek ul o‘tdin kulga botti bulbuli shaydo.

Ne ishga bo‘ldi beorom ko‘zgu aksidek Majnun,
Yuzi ko‘zgusida aksini gar ko‘rguzmadi Laylo?

Quyoshqa gah qizarmoq, gohi sarg‘armoq erur andin
Ki, sun’ung bog‘ida bor ul sifat yuz ming guli ra’no.

Nedin yuz gul ochar ishq o‘tidin bulbul kibi Vomiq
Yuzingdin gar uzori bog‘ida gul ochmadi Uzro?

Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar
Nedin bas la’l o‘lur Farhodning qon yoshidin xoro?

---

[1] “Ishrabu, yo ayyuhal-atshon” — “Ey chanqoqlar, marhamat, ichinglar”. Qur’oni karimning quyidagi oyati karimalariga ishora:

“Soffat” surasi, 45–46–47-oyatlari ma’nosi: **“Ularga oppoq, ichguvchilarga lazzat beruvchi chashmadan limmo-lim qadahlar aylantirib turilur. Unda** (ichishdan bo‘ladigan) **hech bir gangitish** (bosh og‘rig‘i va qiynalish) **yo‘qdir va undan mast ham bo‘lmaslar”.**

“Inson” surasi, 5-oyat ma’nosi: **“Darhaqiqat, yaxshilar** (jannatda) **aralashmasi Kofur chashmasidan bo‘lgan** (to‘la) **qadahdan** (sharob) **ichurlar”.**

“Inson” surasi, 17-oyat ma’nosi: **“U yerda** (jannatda) **aralashmasi zanjabil bo‘lgan** (to‘la) **qadahlarda** (jannat sharobi) **ichirilur”.**

“Inson” surasi, 21-oyat ma’nosi: **“Ustlarida yashil ipakdan yupqa va qalin liboslar bordir;** (jannat ahli) **kumush bilakuzuklar bilan ziynatlangandirlar. Rabbilari ularga behad pok bir** (oxirat) **sharob(i)ni ichirur”.**

Jamoling partavidin sham' o'ti gar gulsiton ermas,
Nedin parvona o't ichra o'zin solur Xaliloso?

Malohat birla tuzdung sarvqadlar qomatin, ya'ni
Ki, mundoq zeb birla ul alifni aylading zebo.

Qanoatning dalilin inzivo qilding yana bir ham
Dalil ushbuki qoni' harfidin xalq aylading anqo.

Navoiy qaysi til birla sening hamding bayon qilsun,
Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo.

3

Ey, safhayi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro.

Zarrot aro har zarraki bor, zikringa zokir,
Amtor aro har qatraki, bor, hamdinga go'yo.

Mashshotayi sun'ungdurur ulkim, nafas ichra
Kun ko'zgusin aqshom kulidin qildi mujallo.

Kun shakli yuzing sajdasidin bo'ldi mushakkal,
Tun turrasi qahring yelidin bo'ldi mutarro.

Sun'ung qilibon subhni ul nav' musha'bid
Kim, mehr o'tin og'zidin etar har nafas ifsho.

Go'yoki kuyar og'zi ul o't hirqatidinkim,
Anjumdin o'lur obilalar girdida paydo.

Muhtoj sening dargahinga xusrav-u darvesh,
Parvarda sening ne'matinga johil-u dono.

Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham' o'tida parvona sening husnunga shaydo.

Ushshoq aro, yo Rabki, Navoiyg‘a maqome
Bergilki, sening hamdinga bo‘lsun tili go‘yo.

4

Ey, hamd o‘lub mahol fasohat bilan sanga,
Andoqki, qurb taqvo-vu toat bilan sanga.

Topmoq ajib fikr-u taxayyul bila seni,
Yetmak mahol aql-u farosat bilan sanga.

Chun koinot zubdasi ojiz ko‘rub o‘zin,
Hamd ayta olmas oncha balog‘at bilan sanga.

Izhori ajz bizdin adab tarkidur base,
Yuz ming qusur-u nuqsu kasofat bilan sanga.

Har tiyra ro‘zgorki, vaslingg‘a yo‘l topib
Sendin yetib charog‘i hidoyat bilan sanga.

Lutfung rafiqim o‘lmasa ne hadki yetkamen
Boshdin ayog‘ gunoh-u zalolat bilan sanga.

Lutf aylagilki, mumkin emas qilmasang qabul,
Yetmak tamomi umr ibodat bilan sanga.

Chun sendin o‘zga yo‘q panahim qochmayin netay
Jurm-u gunahdin oh-u nadomat bilan sanga.

Isyoni ko‘p Navoiyning-u yo‘q uyotikim,
Istar yetishsa muncha xijolat bilan sanga.

5

Iloho, podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug‘ nihon-u oshkoro.

Sabur ismi bila qilsang tajalli,
Qilib Namrudg‘a yuz ming mudoro.

Qachonkim zohir etsang **“tanzi’ ul-mulk”**[1],
Sikandarning bo‘lub mag‘lubi Doro.

Yo‘lung muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro.

Suho bo‘lsa shabistoningda toli’,
Bo‘lub nuri quyoshdek olamoro.

Navoiy nafs zulmotig‘a qolmish,
Sen o‘lmay Xizri rah, chiqmoq ne yoro?!

Qiyomatda gunohin afv etarga
Rasulingni shafi’ et, Kirdigoro.

6

Ey, nubuvvat xaylig‘a xotam bani Odam aro[2],
Gar alar xotam, sen ul otkim, erur xotam aro.

Yuz eshiging tufrog‘ig‘a surta olg‘aymenmu deb,
Charx qasridin quyosh har kun tushar olam aro.

Anjum ichra orazing me’roj shomi o‘ylakim,
Tushsa durri shabcharog‘e har taraf shabnam aro.

---

[1] **“Tanzi’ ul-mulk”** — “Podshohlikni, (hukmdorlikni) tortib olursan”. Qur’oni karimning “Oli Imron” surasi, 26-oyatidan olingan. Oyat ma’nosi: “(Ey Rasulim!) **Ayting: “Ey mulk-podshohlik egasi bo‘lgan Allohim! Sen mulkni** (podshohlikni) **xohlagan bandangga berursan, xohlagan bandangdan mulkni** (podshohlikni) **tortib olursan, xohlagan bandangni aziz qilursan, xohlagan bandangni xor qilursan,** (har turli) **xayr-yaxshilik** (yolg‘iz) **Sening qo‘lingdadir. Albatta, Sen hamma narsaga qodirsan”** *(“Faz ul-Furqon”, Hasan Tahsin; M. Kenjabek tarjimasi).*

[2] Bu va keyingi g‘azal na’t, ya’ni sevikli Payg‘ambarimiz hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning vasflari bayon etilgan durud g‘azallaridir *(M. Kenjabek).*

Ne uchun kiymish qaro har yon solib jaybig‘a chok,
Furqatingdin Ka’ba gar qolmaydurur motam aro?

Sof ko‘nglida yuzung mehrini go‘yo asramish,
Tush chog‘i har kun quyosh aksi emas Zamzam aro.

Mash’ale bo‘lmish malak ilgida ravzang boshig‘a,
Oy charog‘i kechalar bu nilgun toram aro.

Qum emas Batxodakim, mehri jamoling hajridin
Zarra-zarra jismi bir-birdin to‘kuldi g‘am aro.

Yo‘l emas, Yasribda yirtibdur yuzin tirnog‘ ila
Maqdaming to yetmadi ul vodiyi xurram aro.

Itlaring maxsus-u mahzundur Navoiy, koshki
Kirsa bu mahrum ham ul zumrayi mahram aro.

7

Zihi javlongahing aflok uza maydoni **“av adno”**[1],
Buroqingg‘a to‘quz gunbad bu to‘qquz gunbadi xazro.

Qilib chun xay gulobi mayl na’layning, bo‘lub ondin
Malak ra’nolarining jabhasig‘a charx sandalso.

Esib rahmat nasimi chun damo-dam sunbulung sori,
Bo‘lub ruhoniylar jaybi labo-lab anbari soro.

Falak qolib Buroqingdin, emas vasfi falaksur’at,
Qamar yorub jamolingdin, emas na’ting qamarsiymo.

[1] “Av adno” — “yanada yaqinroq”; Qur’oni Karim, “Hajm” surasi, 9-oyatidan; 9–10-oyatlar ma’nosi: **“O‘rtadagi masofa ikki yoy miqdoricha, hatto yanada yaqinroq bo‘ldi, shu asnoda** (Alloh) **vahiy etgan narsani** (Jabroil orqali) **bandasiga vahiy qildi”.** Yoki: **“Alloh bandasiga Jabroil orqali vahiy qilgan narsani vahiy qildi”** degan ikki xil qarash bor *(Mavlaviy, VI, 17. M. Kenjabek).*

Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh nur iktisob aylab
Aningdekkim, quyoshdin oy-u oydin qiyrgun g‘abro.

Falak vodiylari qat’ig‘a azming chun surub markab,
Xirad paykiga ham avval qadamda ranj o‘lub paydo.

Rafiqing toyir andoqkim Sulaymon ollida hudhud,
Buroqing soyir anjum shohi ustinda sipehroso.

Qilib bu sayr aro ma’shuq vasli ko‘yida manzil,
Tilab sargashta ushshoqig‘a ham rahmat uyin ma’vo.

Navoiy xush ko‘rar olamni oting zikridin, yo‘qsa,
Anga do‘zax aro o‘tdekdurur dunyo-vu mo fiho[1].

8

Har gadokim, bo‘ryoyi faqr erur kisvat anga,
Saltanat zarbaftidin hojat emas xil’at anga.

Kim, fano tufrog‘ig‘a yotib qo‘yar tosh uzra bosh,
Taxt uza ermas muzahhab muttako hojat anga.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar,
Ham o‘zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga?

Har ne shah maqsudidur, darveshning mardudidur,
Ko‘r ne himmatdur munga, ne nav’ erur holat anga.

Faqr ko‘yi tufrog‘in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk ko‘rkim, teng emas tufrog‘ ila qiymat anga.

Shah sipah cheksa, faqir ahvolig‘a yetmas futur,
Bu vale chekkach nafas, barbod o‘lur hashmat anga.

[1] **Dunyo-vu mo fiho** — dunyo va undagi hamma narsalar.

Shah emastur bir nafas osuda do‘zax vahmidin,
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Shahg‘a sidq ahli damidin mash’ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi ochar tal’at anga.

Shohg‘a shahlig‘ musallamdur, agar bo‘lg‘ay mudom,
Shohlig‘ tarkin qilib, darvesh o‘lur niyat anga.

Mumkin ermas shahlar ichra bo‘yla niyatlig‘, magar
Shoh G‘oziykim, muyassar bo‘ldi bu davlat anga.

Shohlar darveshi-yu darveshlar shohiki, bor
Shohlig‘ surat anga, darveshlik siyrat anga.

To shah-u darvesh bo‘lg‘ay aylagil, yo Rab, ayon,
Shohdin xidmat munga, darveshdin himmat anga.

Gar Navoiy so‘z uzatti faqrdin ermas demang,
Bo‘lmag‘uncha hukm shahdin qayda bu jur’at anga?!

9

Ul parivashkim, bo‘lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqidin olam menga hayron-u men hayron anga.

O‘qlaringdin dam-badam taskin topar ko‘nglum o‘ti,
Bordurur bir qatra su go‘yoki har paykon anga.

Bir dilovardur ko‘ngulkim, g‘am sipohi qalbida,
Ohi novak, toza dog‘idur qizil qalqon anga.

Novakining parr-u paykonida rangin tus erur
Yoki ko‘nglumdin chu parron o‘tti yuqmish qon anga,

Nomayi shavqum ne nav’ ul oyg‘a yetkay, chunki men
El otin o‘qur hasaddin yozmadim unvon anga.

Xizri xattingning ajab yo‘q sabz-u xurram bo‘lmog‘i,
Lab-balab chunkim berur su chashmayi hayvon anga.

Ey xusho, mug‘ ko‘yikim, rif’at bila ziynatda bor
Mehr anga bir shamsa-vu ko‘k toqidur ayvon anga.

Istamish bulbul vafo guldin, magarkim joladin
Bag‘ri qotmish g‘unchaning, baskim erur xandon anga.

Qilmamish jonin fido jonong‘a yetmas der emish,
Ey Navoiy, ushbu so‘z birla fido yuz jon anga.

10

Sinsa ko‘nglumda o‘qung surtub isig‘ qondin anga,
Pay masallik chirmag‘aymen rishtayi jondin anga.

Bodayi la’ling mizoji ruhparvardur base,
Go‘yiyo mamzuj etibsen obi hayvondin anga.

O‘qi ko‘nglum shu’lasin gah sokin etti, goh tez,
Gah o‘tun bo‘ldi, gahe su urdu paykondin anga.

Dard-u g‘am bo‘stonining tovusidur ko‘nglum qushi,
Gul bo‘lub jismimda keskan na’l har yondin anga.

Ne kabutar yeta olur ul quyoshqa, ne nasim,
Ey ko‘ngul, holingni e’lom ayla afg‘ondin anga.

Ko‘zga to kirmish xayoling sovug‘ ohim vahmidin,
Bog‘lamishmen qo‘re har sori mujgondin anga.

Ey Navoiy, yig‘lamoq ohimg‘a taskin bermadi,
Vah, bu ne o‘tdurki, yo‘q ta’sir to‘fondin anga?

11

Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o‘lmak manga,
Goh nihon tutsam dag‘i jon xavfidur beshak manga.

Kelgan ermish ul Masih o‘lganlarin tirguzgali,
Men tirik, vah, yaxshiroq bu umrdin o‘lmak manga.

Juzv-juzvumni, fig‘onkim, munfak etti tiyg‘i hajr,
Har biridin, lek o‘zidur juzvi loyanfak manga.

Ko‘nglum o‘tidin yig‘och kuldur, bashoq bir qatra su,
Nogah ul sho‘xi jafokesh otsa bir novak manga.

Oltun ezilib, erib kuygan soyi xolis bo‘lur,
Ne ajab sarg‘arsa yuz, yetkan soyi emgak manga

Chok aylarmen yoqa ul qoshi yoni ko‘rgach-o‘q
Kim, xadangin otsa hoyil bo‘lmag‘ay ko‘nglak manga.

Boda hajridin oqarmish ko‘zlarim, ey piri dayr,
Aylagil may shishasidin sindurub aynak manga.

Sarsari hijron, vujudum xirmanin andoq sovur
Kim, fano yo‘lida sarsar bo‘lmasun hamtak manga.

Ey Navoiy, gar manga ko‘prak emas ummidi vasl,
Bas nag‘-u ushshoqidin javri erur ko‘prak manga?

12

Garchi hajringdin erur yuz g‘am-u ozor manga,
G‘am emas vaslingga ummid agar bor manga.

Bir buzug‘ uzra junun qushlari qo‘ng‘an kibidur,
Toshkim, yog‘durur ul sho‘xi sitamkor manga.

Zohid uchmog‘ni etar vasf-u men ul oy ko‘yin,
Gulshani Xuld anga, ul guli ruxsor manga.

Telba andog‘ki pari jilvasidin oldarag‘ay,
O‘t solur har taraf ul turfa namudor manga.

Baski qonimni yalarlar, adadi ko‘p yaradin,
Itlarin qildi muloyim tani afgor manga.

Ko‘nglum istar yana maqsud jamoli aksin,
Soqiyo, tut qadahi oyinakirdor manga?

Subha torini yig‘, ey shayxki, bir lahza burun
Taqtilar mug‘bachalar rishtayi zunnor manga.

Solg‘il, ey ishq, vujudumg‘a fano o‘tinikim,
Yopti maqsud yuzin pardayi pindor manga.

Chun vafo ahli zamon zotida yo‘qtur, ne ajab,
Har zamon qilsa jafo ul buti ayyor manga?

G‘arazim bir necha kun shohid-u maydur, yo‘q esa,
Ey Navoiy, bu fano dayrida ne bor manga?

13

Ul malohat ganji hajrida buzug‘ maskan manga,
O‘yladurkim, jondin ayru yuz yaralig‘ tan manga.

Mehr ila mah partavidin ko‘zni ravshan qilmadim,
Bo‘lg‘ali mehri ruxung mohiyati ravshan manga.

Bo‘ldi ravzan-ravzan ul qotil xadangidin ko‘ngul,
Jon qushi chiqmoqqa bir yo‘l angla har ravzan manga.

Men o‘larmen g‘amdin-u, yig‘lab kuyub boshimda sham’,
Dudidin chirmab qaro har tun tutar shevan manga.

Rahm etib holimg‘a dushman do‘st bo‘lmoq, vah ne sud,
Do‘st chun rahm aylamay bo‘lmishturur dushman manga.

G‘am tuni zulmida xandon bo‘lmadi holimg‘a subh,
Subhdek ne tongki, bo‘lg‘ay chok pirohan manga.

Ey Navoiy, ishq mushkil deb nechuk tarkin tutay,
Elga gar bu ish hunar bo‘lsa, bo‘luptur fan manga.

14

Shahr bir oy furqatidin bayt ul-ahzondur manga,
Bir guli ra’no g‘amidin bog‘ zindondur manga.

Bazmi ishrat ichra siz may no‘sh eting, ey do‘stlar
Kim, nasib ul la’llab hijronidin qondur manga.

Chiqti aql-u fahm ila sabr-u ko‘ngul tan mulkidin,
Chiqmayin har lahza zahmat berguchi jondur manga.

O‘qi baskim tandadur, tegmas tanimg‘a o‘zga zaxm,
Ulki o‘q deb nola qildim, emdi qalqondur manga.

O‘yla rasvomenki, ko‘y-u ko‘chada holim ko‘rub,
Ba’zi el giryon-u ba’zi xalq xandondur manga.

Hajridin bag‘rim sudur, ul su aro bolig‘ kibi,
Dard-u mehnat o‘qidin bir necha paykondur manga.

Hur mujgonin agar surtay desa qilman qabul
Kim, ayog‘da orzu xori mug‘ilondur manga.

May ichib toatni favt etmangki, ul o‘t tobidin,
Necha boqsam bahra holo dog‘i hirmondur manga.

Ey Navoiy, xalq der: jon ber-u yo kech ishqidin,
Garchi bu dushvor erur, lekin ul osondur manga.

15

Menmudurmenkim sening vasling muyassardur manga?
Baxti gumrahdin qachon bu qissa bovardur manga?!

Haq tanuqturkim, tiriklikdin manga sensen murod,
Yo‘qsa olamning yo‘q-u bori barobardur manga.

Ey ko‘ngul, g‘avvosi bahri vasl o‘lubmen, ne ajab,
Gar nasib emdi o‘shul pokiza gavhardur manga.

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,
Ko‘zi-yu og‘zi bugun bodom-u shakkardur manga.

Oy-u xurshidingni yig‘, ey charxi gardunkim, bu dam
Hamdam ul oy chehralig‘ xurshidpaykardur manga.

Sarvni o‘rtab, sumanni yelga ber, ey bog‘bon
Kim, bugun hamsuhbat ul sarvi sumanbardur manga.

Qo‘rqaram hirmon sahobin yopmag‘ay fahm etsa charx
Kim, shabiston mehr sham’idin munavvardur manga.

Ey Navoiy, hech bilmonkim topibmen vaslini,
Yo magarkim jumlayi olam musaxxardur manga?

16

Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga,
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.

Har necha dedimki kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo‘ldum sanga.

Men qachon dedim vafo qilg‘il, manga zulm aylading,
Sen qachon deding fido bo‘lg‘il manga, bo‘ldum sanga.

Qay pari paykarg‘a, dersen, telba bo‘ldung bu sifat?
Ey pari paykar, ne qilsang qil mango, bo‘ldum sanga.

Ey ko‘ngul, tarki nasihat ayladim avvora bo‘l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo‘ldum sanga.

G‘ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo‘ldum sanga.

17

Qahring o‘lsa, barcha ishimdin malolatdur sanga,
Lutfung o‘lsa, yuz meningdekdin farog‘atdur sanga.

Ey meni sargashtadin gah forig‘-u gohi malul,
Qahring ul, lutfung bu, yo Rabkim, ne odatdur sanga?!

Lutfung ozi jon olur, qahring ko‘pi ham o‘lturur,
Bul ajab holedurur, oyo ne holatdur sanga?

Pand eshitmay sevding oni, ey ko‘ngul, chek dard-u ranj,
Ozdurur har lahza gar yuz muncha ofatdur sanga.

Vahm et ohim o‘tidin, ey gulki, davron bog‘ida
Ko‘z yoshimdin bu qadar lutf-u tarovatdur sanga.

Ey quyosh, mehr ahlini kuydurma bu vodiydakim,
Garmravlar ohidin muncha haroratdur sanga.

Ey Navoiy, istama vasl ul quyoshdin zarradek,
Chun necha ul qilsa istig‘no, haqoratdur sanga.

18

Ey alifdek qomating mayli buzulg‘an jon aro,
Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro.

Kulmaging ichra malohat o‘yladurkim, sho‘xlar
O‘ynamoqdin yuz yoshururlar guli xandon aro.

Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib,
Ayb qilmakim, g‘alat gohe tushar Qur’on aro[1].

O‘qlaringdin jon toparmen, go‘yiyo paykonlari
Su icharda g‘o‘ta topmish chashmayi hayvon aro.

Xasta ko‘nglum ohi ko‘nglungga dedim qilg‘ay asar,
Qayda o‘ltursun vale bemor o‘qi sandon aro.

Boshta gavhar go‘yining fikridin ortar dardi sar
Kimki, kechti boshidin go‘y urdi bu maydon aro.

Uyki, adno tebranur sokinga xotir jam’ emas,
Ne ajab, gar amn yo‘qtur gunbadi gardon aro.

La’ling olg‘an ko‘nglum ahvolin munajjim chun ko‘rar,
Aytur ul avvora bo‘lg‘an g‘oyibingdur qon aro.

Ey Navoiy, ishq dardi ko‘rgan el ko‘nglin buzar,
Har xaroshekim, unung zohir qilur afg‘on aro.

[1] Ya’ni “kishi Qur’onni o‘qiganda va tilovat qilganda ba’zan xato o‘qib qo‘yadi” deyilmoqchi. Bu misrani zinhor “Qur’onda xato bor ekan” deb tushunmaslik kerak. Qur’on Alloh taoloning muqaddas va muborak so‘zi, oliy kalomi, mukammal, benuqson. Uning biror harfi yoki nuqtasi to qiyomat kunigacha aslo o‘zgarmaydi. Xato insonning qiroatida uchrab qolishi mumkin *(M. Kenjabek)*.

19

Kimki ko‘rsa mushki nob ul sunbuli serob aro,
Bir qaro tufrog‘ degaykim tushti mushki nob aro.

Qoshing ichra rishtayi jonimg‘a chirmang‘an ko‘ngul,
Ankabutedurki, aylabdur vatan mehrob aro.

Ul quyoshdin ayru ashkim yomg‘urining barqidur,
O‘t tutashqan rishta yanglig‘ jismi pech-u tob aro.

Ul labi unnobgun ko‘nglumga ekkan tuxmi mehr,
Ko‘nglum ichra yoshurundur donadek unnob aro.

Uyqu saydi qasdig‘a otqan toshingdindur nishon,
Ko‘z qarosi demagil bu diydayi bexob aro.

Charxi doyir bahridin el tutmasun sohil umid,
Kim, qutulmas har kishikim, tushti bu girdob aro.

Gar Navoiy yodini qilmoq habib imkon emas,
Basdurur mazkur ham bo‘lsa gahe ahbob aro.

20

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayxun aro,
Axtari sa’de hilol ichra kezar gardun aro.

Anglamon Jayxunda ul oy kema birla sayr etar
Yo hilol-u mehr aksin el ko‘rar Jayxun aro.

Kemadin har dam chiqib rangin su ko‘zum qonidek,
Anda yor andoqki mardum diydayi purxun aro.

Borg‘il, ey Majnunki, ul oy zavraqidek tez emas,
Jungkim Laylo amoriysin chekar homun aro.

Olma xum girdobidin bir lahza sog‘ar zavraqin,
Bahri g‘amdin istasang maxlas bu dahri dun aro.

Bahr mavjidin mushavvash bo‘lmasun deb xotiring,
Mavj urar yuz bahri g‘am bu xotiri mahzun aro.

Dur bo‘lur bahr ichra pinhon, nazmidin shah madhida
Bahr yoshurmish Navoiy har duri maknun aro.

21

Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,
Bu tanni hajr tashladi yuz ming tikan aro.

Lek ul tikanlar ichra xayoling bila ko‘ngul
O‘ynar magar gul uzra-yu ag‘nar suman aro.

Jism uyidin ko‘ngul tilar ul ko‘yni, va lek
G‘urbat suubatin kishi bilmas vatan aro.

Ermas uchug‘ labingdaki ul yuz Suhaylidin
Rang olmadi bu qatra aqiqi Yaman aro.

Jonim labing shahidi ekanga tonug‘ durur
Har ol rishta qong‘a bo‘yalg‘an kafan aro.

Bulbul ne kuymasunki, bir o‘t yoqti qasdig‘a
Har otashin gul ushbu vafosiz chaman aro.

Ko‘rdung Navoiy ul sari zulf uzra yuz shikan,
Ko‘r emdi yuz shikasta ko‘ngul har shikan aro.

22

Ikki barmog‘ birla tuttum la’lin ul ruxsor aro,
O‘ylakim bulbul tutar gul yafrog‘in minqor aro.

Xatda ruxsoring su erkinmu yoshung‘an sabzada,
Yo‘qsa ko‘zgudurki, qolmish bir taraf zangor aro.

Ko‘hi g‘am tortarg‘a xasdek jism ila bel bog‘ladim,
Ostig‘a qolmishmen andog‘kim samon devor aro.

May dema, qushlar qanotining yelidin bo‘lg‘usi
Naxli qadding moyil o‘lmoq har taraf raftor aro.

Shakkari la’li xayolidin sarosar mo‘rdurur,
Sochida ermas tugun uzra tugun har tor aro.

Kofiri ishq o‘lg‘an avlo demasa imon so‘zin,
Xo‘b emas tasbih tori rishtayi zunnor aro.

Vusma uzra zarvaraqliq ikki qoshing yuz uza,
Jilvagar bo‘lg‘an iki tovus erur gulzor aro.

Qomatim gullar ochilgan bir tikan shoxi durur,
To‘lg‘ali paykonlaring qonlig‘ tani afgor aro.

Gulshan ichra chun butar gul, sho‘ra yerdin sho‘razor,
G‘ayri g‘adr ahli ne bo‘lg‘ay olami g‘addor aro.

Davr eli bedodidin gar maxlas istarsen, mudom
Kup ayog‘idin bosh olma kulbayi xammor aro.

Haq tilar bo‘lsang, Navoiy, silk dunyodin etak,
Ishqing o‘lsa pok, o‘zni qo‘yma bu murdor aro.

23

Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a parvo aylasa,
Har ko‘ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o‘lay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.

O‘zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko‘zum,
O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamosho aylasa.

G‘ayr zikrin oshkora qilsa lol o‘lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Rashkdin jonimg‘a har nargis ko‘zi bir shu’ladur,
Bog‘ aro nogah xirom ul sarvi ra’no aylasa.

Yo‘q og‘izdin nukta aytur mahvashimdek bo‘lmag‘ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

Ofiyat jonimg‘a yetti, ey xush ul mug‘kim, meni
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Kelturung daf’i junununumg‘a parixon, yo‘q tabib
Kim, ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.

Subhdek bir damda gardun qo‘ymag‘ay osorini,
Nogah ahli sidq ko‘ngli mehrin ifsho aylasa.

Dahr sho‘xig‘a, Navoiy, sayd bo‘lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

24

Erur ishq ahli go‘ristoni-yu yuz ming mazor anda,
Fano shahri-yu lavh-u mildin toq-u manor anda.

Ajab shahreki uy go‘r o‘lg‘a-yu sukkoni jonsiz tan,
Muoshir motamiylar, navha ahli nag‘makor anda.

Ko‘ngullar toza-toza dog‘ ila qon ichra aylang‘an,
Ko‘rarsen loladin gah-gah guzar qilsang bahor anda.

Giyoh ermaski ishq ahli shahidi bag‘rig‘a qong‘on,
Bo‘luptur barcha zahrolud nishtar oshkor anda.

Magar tavsan minib, sanchib etak, tortib qilich har dam,
Ulus qatlig‘a javlon qilmish ul chobuksuvor anda.

Bu o‘lganlarga umri Xizr bergay, gar yana nogah,
Masihim obi hayvon yanglig‘ etsa bir guzor anda.

Ko‘runglar ishq dashtinkim, nasim-u loladin har yon,
Gahe jonbaxsh salqindur, gahe muhlik sharor anda.

Erur ishq oyatekim, nuqtasining donasin ko‘rgach,
Tushar arvohi qudsiy[1] qushlari beixtiyor anda.

Navoiy, dayr aro kir, gar fano jomi tilar ko‘nglung,
Riyodur xonaqah ahlida, borma zinhor anda!

25

Dog‘larkim, qo‘ydum ul oy furqati ozorida,
Dudi har birning erur dog‘e falak ruxsorida.

Za’fim ichra qasri tomig‘a tayang‘andekdurur,
Har samon ko‘rsang yopushqan ko‘yining devorida.

Bir musulmong‘a erur din qasdi etkandin hisob
Har tugunkim, ko‘rsang ul kofir sochi zunnorida.

Gulshan ichra ko‘p binafshangdin dema, ey bog‘bon,
Nil ila, ko‘r, xollar har yon yuzi gulzorida.

Qo‘ydi gulgun muhrlar jon pardasida qon ila,
Vahki, solur muhri yo gulmu ekin dastorida?

---

[1] **Arvohi qudsiy** — qudsiy ruhlar, muqaddaslikka daxlor ruhlar. Satrda shahidlarning ruhlari yashil qushlar vujudida bo‘lishi haqidagi hadisga ishorat qilinmoqda. Hadis: *“Sunani Termiziy”da hazrati Ka’b ibn Molik otalari hazrati Molik (roziyallohu anhumo)dan rivoyat qiladilar;* Janob Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam dedilar: **“Shahidlarning ruhlari yashil qushlar ichidadir: ular jannat mevalaridan yoki jannat daraxtlaridan (mevalarni) tanovul qiladilar”.** Bu hadis hasan-sahihdir *(13-bob, 1641-hadis. M. Kenjabek).*

Tang‘a jon kirgan kibi jononni yetkur, ey tabib,
Emdikim, jondin ramaq zohir emas bemorida.

Vahki, bir qotilg‘a oshiqmenki jonning biymi bor,
Ishqining jon ichra ham ixfosi ham izhorida.

Topmasang davr ahlidin mehr-u vafo, ayb etmakim,
Butmamish bu meva davron bog‘ining ashjorida.

Ey Navoiy, aql-u din yag‘mo qilur davron mayi,
Chiq ravon bu bazmdin filjumla hushung borida.

26

Ey ko‘ngul, gar kimsa ahvolim demas yor ollida,
Xotirim kimdin malul o‘lsun, kimim bor ollida?!

Ul ko‘z ollida halokim desalar, yo‘q bok hech,
Garchi o‘lmakdin demak yo‘q shart bemor ollida.

Ne jafokashmen ko‘rungkim, bor anga qilmoq jafo,
So‘z vafodin zohir etsam ul jafokor ollida.

Ollig‘a gullarki, sanchibdur, mushobihdur anga
Kim, tushar gohe mulavvan muhr dastor ollida.

Ko‘zlaring qonim g‘izo qilsun agar yolg‘on desam,
Bir qoshuq qonim bihil ul ikki xunxor ollida.

May berur bo‘lsang manga dayr ichra ber, ey mug‘bacha
Kim, qo‘yay boshimni qo‘ysam piri xammor ollida

Ey Navoiy, er esang dunyo arusin qil taloq,
Bir yo‘li bo‘lma zabun bu zoli makkor ollida.

27

Dahr elidin naf' agar yo'qtur, zarar ham bo'lmasa,
Marham ar yo'qtur, ko'ngulga nishtar ham bo'lmasa.

Olam ahlidin agar yo'qtur jigargun sog'are,
Koshki yuz ming qadah xuni jigar ham bo'lmasa,

Mahvashekim bo'lmag'ay vaslidin ummidi hayot,
Xushtururkim jong'a hajridin xatar ham bo'lmasa.

Bedilekim, bexabar tushkay biron hijronig'a,
Ne balodur gah-gahe andin xabar ham bo'lmasa.

Soqiyo, netkay meni ul nav' qilsang mastkim,
Aql-u hushumdin nishon, balkim asar ham bo'lmasa

Kim, tuzay mastona Shohi G'oziy avsofida savt,
Bu ko'ngul gar bo'lsa o'z holida, gar ham bo'lmasa,

Ey Navoiy, sen chekarsen oh, lekin yaxshidur
Ul parining zulfi bu yel birla darham bo'lmasa.

28

Ne xush bo'lg'ay ikovlan mast bo'lsaq vasl bog'inda,
Qo'lum bo'lsa aning bo'ynida-vu og'zim qulog'inda.

Dame vasl ichra volalig' bila ruxsorim egnida,
Yana bir dam niyoz-u ajz ila boshim ayog'inda.

Tutub gohe zanaxdonin mukarrar aylasam bot-bot,
Ko'rub gullar ochilg'an bodadin ruxsori bog'inda.

Shimib yutsam gahi hayvon suyidek zavqdin ko'rgach,
Tarashshuh bodadin gul yafrog'i yanglig' dudog'inda.

Gahi ko‘z surtarimda, yo‘qsa har yon shodlig‘ ashkim,
Gul uzra qatra shabnamlar kibi siymin saqog‘inda.

Gahi bexudlug‘umdin seskanib tutsam adab rasmi,
Beliga chirmashurda shavqning ifroti chog‘inda.

Ne kelsa tongla kelsun, bir tun usruk yotsa ham xushtur
Kishi gul chog‘i bir gul xirmanin tortib quchog‘inda.

Qachon davron manga bir bo‘yla ishratni ravo ko‘rgay
Ki, o‘rgatmish meni o‘rtarga hijron dard-u dog‘inda.

Navoiy, sen kim-u ishrat mayi?! Bilmasmusenkim, it
Agar qon ichsa ham boshi keraktur o‘z yalog‘inda!

29

Yer tutar ko‘nglumda gardundin judo bo‘lg‘an balo,
Jondadur devona ko‘nglumdin xato bo‘lgan balo.

Istamankim, ishq mendin o‘zgani qilg‘ay asir,
Hech kishiga bo‘lmasun, yo Rab, manga bo‘lg‘an balo.

Shod yuzlanmang balolar bizgakim bo‘lmas xalos,
Bu ko‘ngul zindoni ichra mubtalo bo‘lg‘an balo.

Vaslida rashk o‘lturur, hajrida — g‘am, vahkim, manga
Vasl aro bo‘lg‘an balodur, hajr aro bo‘lg‘an balo.

O‘ltururlar hamdaming bo‘lsam, o‘larmen, bo‘lmasam,
Bo‘lmag‘an, jono, sening birla balo, bo‘lg‘an balo.

Nosiho, oshiqlig‘imni man’ qilding, bilmading
Kim, nasihat birla daf’ o‘lmas qazo bo‘lg‘an balo.

Chun balosiz kom yo‘q topmas baqo komin magar
Kimki, oni o‘rtamas oti fano bo‘lg‘an balo.

Ey Navoiy, toki bordi yor, bildim hajr emish
Shiddat ichra har baliyatdin sivo bo‘lg‘an balo.

30

Xil’atin aylabmudur ul sho‘xi siyminbar qaro,
Tun savodi birla kiygandek mahi anvar qaro.

Ul pari hindusimen men telbakim, uryon tanim
Tifllar toshidin iynak bo‘ldi sartosar qaro.

Ashkdek oqti qaro su ko‘zlarimdin hajrida,
Tong yo‘q idborim chu bo‘lmishdur manga axtar qaro.

Kosh o‘yub yoqsang qaro bo‘lg‘an ko‘zumning mardumin,
Xoli maygunungni qilg‘ancha qo‘yub anbar qaro.

Ishq raf’ o‘lg‘ach ko‘ngulga yo‘qturur juz tiyralik,
Ul sifatkim shu’lasi o‘chkach bo‘lur axgar qaro.

G‘ayrdin qilg‘il zamiring safhasin pok, ey faqih,
Tobakay qilmoq fireb-u makr ila daftar qaro.

Dudi ohidin qaro ermas Navoiy kulbasi
Kim, qiliptur xonumonin bir paripaykar qaro.

31

Ham ramad teggan ko‘zungga chashmi bedorim fido,
Ham uchuq chiqqan labingg‘a joni afgorim fido.

Ashkkim, andin tomar, giryon ko‘z oning sadqasi,
Qong‘akim mundin chiqar bu chashmi xunborim fido.

Ul ko‘z-u bu labg‘a umrum bog‘-u gulzorindag‘i
Nargis-u gul bargi yo‘qkim, bog‘-u gulzorim fido.

Ko‘z-u og‘zingdin ketarga bor-u yo‘q oshub-u ranj
Sabr-u ishqim sadqa, ya’nikim yo‘q-u borim fido.

Gar ko‘ngul oh-u ko‘zung ollida loyiq bo‘lmasa,
Itlaringga bo‘lsun, ey sho‘xi sitamgorim, fido.

Jon agar shirin labingg‘a o‘lgali darxo‘r emas,
Aylay alfozing uchun, ey talx guftorim, fido.

O‘zlugumning qaydidin bir may bila qilding xalos,
Vah ne dey, ey mug‘, sanga but birla zunnorim fido.

Boda mir’otida shohid aksi zohir bo‘lmadi,
Boda-vu shohidqa bo‘lmay naqd pindorim fido.

Ey Navoiy, demakim, jon-u ko‘ngulni naylading?
Ayladim javlon qilib chiqqanda dildorim fido.

32

Davr el sog‘arini qildi mayi nob to‘la,
Juz mening eski safolimniki, xunob to‘la.

Jomi maydek to‘la qon bo‘ldi ichim, bermay dast,
Yor bazmi aro bir jomi mayi nob to‘la.

Vahki, har kirpigi bir nishtar erur zahrolud,
Garchi bor ul ikki nargisda shakarxob to‘la.

Jolalar tushtimu gul bargi aro, yoxud erur,
Huqqayi la’ling ichinda duri serob to‘la?

Orazing aksi durur ko‘zdagi yosh evruladur,
Bog‘i jannat gulidin bo‘ldi bu girdob to‘la.

Men-u mug‘ dayri aro mug‘bacha boshida g‘ulu,
Sen-u zuhd ahli bila masjid-u mehrob to‘la.

Ey Navoiy, necha oz-ozg‘ina may madrasada,
Dayr aro kirki, ichar shayx to‘la, shob to‘la.

33

Oncha davron birla ko‘rdum ahli davrondin jafo
Kim, ko‘zumga to‘tiyodek bo‘ldi jonondin jafo.

Bu jafo daf’in ne yanglig‘ aylagaymenkim, yetar
Aylasam kimdin jafo man’in tama’, ondin jafo.

Ming jafo har lahza ko‘rsam, bir taraf, ul bir taraf
Kim, yetar jonon uchun jonimg‘a hijrondin jafo.

Sayddekkim, chargada yuzlansa har yon kelgay o‘q,
Ahli davrondin kelur ko‘nglumga har yondin jafo.

Gar ko‘ngul ul zulfdin ko‘rsa jafo, vah ne ajab,
Chun ko‘rar ushbu siyahro‘zi parishondin jafo.

Angla, jonokim, jafo qilmoqqa topqung yo‘q kishi,
Men jafokashga nedinkim o‘tti imkondin jafo.

Kechalar ul oy jafosidinki afg‘on tortaram,
Ul xud ortuqroq chekar har tun bu afg‘ondin jafo.

Ne musulmonlig‘ bo‘lur ushbuki, davron boshima
Yetkurur har dam yana bir nomusulmondin jafo.

Ey Navoiy, borg‘ali jonon sari jonim, yetar
Jong‘a jonondin jafo, men xastag‘a jondin jafo.

34

Gul uzra xatti mushkin birla to qilding raqam paydo,
Manga jon safhasida bo‘ldi yuz xatti alam paydo.

Tuganlar ko‘nglum ichra lazzati dardingni bildurdi,
Tana’um dast bermas kimsaga, bo‘lmay diram paydo.

Shafaqgun yuz hiloliy qosh ila to jilvagar bo‘ldung,
Ko‘zumda bo‘ldi qon zohir, qadimda bo‘ldi xam paydo.

Samad qilg‘ach zuhur ul nav’kim asnom o‘lur ma’dum,
Bo‘lur butlar bari mabhut, bo‘lg‘ach ul sanam paydo.

Chu aylar jilvayi husn ul pari ushshoq aro, netgay
Yuzin yoshurmasa bo‘lg‘an zamon men telba ham paydo.

Ne muhlik vodiy ermish ishq dashtikim, kishi anda
Qadam urg‘an dam-o‘q ko‘zga bo‘lur mulki adam paydo.

Qo‘yung, yig‘layki, ko‘nglumning g‘ubori pastroq bo‘lsun,
Ki, man’i gard etar nogah havoda bo‘lsa nam paydo.

Oqizg‘il boda selobini, ey soqiyki, hijrondin
Ko‘ngul dashtida bo‘lmish korvoni dard-u g‘am paydo.

Navoiyni chu so‘rdung, ey pari, bir dam tavaqquf qil
Ki, ul majnun bo‘lur sahro yuzidin dam-badam paydo.

35

Bo‘lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo,
Ul su ne taraf borsa, ochilg‘ay guli ra’no.

Zulfung g‘ami ko‘nglumni beling fikriga soldi,
Ko‘rkim, ne taxayyulg‘a soliptur ani savdo.

G‘avg‘o qilur el mahvashlar ko‘yida, lekin
Mahvashlar ishi qilmoq aning ko‘yida g‘avg‘o.

Ahvolima Farhod ila Majnung‘a taajjub,
Ishq etti xirad ahli qoshida meni rasvo.

Har sori tamoshog‘akim, ul sho‘x qilur azm,
Yo‘q anga tamoshoki, erur elga tamosho.

Davron sanga zulm etsa, qadahlar to‘la may ich,
Qon yutsang ayog‘lar to‘la davrong‘a ne parvo?

Ul sho‘xki maydon aro ko‘rganga solur tiyg‘,
Ko‘rmasga solur, yetsa Navoiy sari amdo.

36

May birla yuzung tim-tim ahmarmu ekin oyo,
Yo shu’la aro bir-bir axgarmu ekin oyo?

Bir sari qulog‘ingda gavharmu ekin yoxud
Bir jonibida oyning axtarmu ekin oyo?

Ruxsoring uza xaydin yuz qatraki ko‘rguzdung,
Gul bargida shabnamdin gavharmu ekin oyo?

G‘uncha ichida davron muhkam tikan urg‘andek,
Ko‘nglum aro g‘amzangdin xanjarmu ekin oyo?

Ko‘nglum qushikim qolmish zulfung aro sargardon,
Savdo tunida soyir shabparmu ekin oyo?

Zulf ichra yuzi yanglig‘ ofoqni kuydurgan,
Ohim tutuni ichra ozarmu ekin oyo?

Hijrondamu ul mahvash ag‘yorg‘a moyildur
Yo zahri firoq ichra nishtarmu ekin oyo?

Jon pardasida har yonkim, yangi tuganlardur,
Qatlimg‘a falak tuzgan mahzarmu ekin oyo?

El desa Navoiynikim, javr ila tark etti
Ishqingni, sanga bu so‘z bovarmu ekin oyo?

37

Zor jismimg‘a xadanging zaxmidin ortar navo
Sozdekkim, teshsalar ani fuzun aylar sado.

Qaddi hajrinda g‘amim sham’ini har devorg‘a,
Kim, tayabmen sarv andomi bila bo‘lmish qaro.

G‘unchang anfosi nasimi zavraqi jon qasdig‘a
Yetkurur har dam adam daryosidin mavji fano

Orzuyi vaslidin ranjur erur munglug‘ ko‘ngul,
Qut uchun tazvir ila bemor bo‘lg‘andek gado.

Nega yig‘lab anbarin zulfin kesar hijron tuni,
O‘lmagimni anglabon gar sham’ tutmaydur azo?

Hajr dardin ko‘ngluma kam qildi xoling oqibat,
Dog‘ emish dardi shaloyin xastag‘a oxir davo.

Ruhparvardur Navoiy ohi ul yuz shavqidin
Ul sifatkim, lola-yu gul yuzidin kelgay sabo.

38

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum shakkaristondin judo.

Ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen falakni o‘rtagay
Har sharorekim, bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig‘on-u nola ko‘p,
Jism aylarmu fig‘on bo‘lg‘an nafas jondin judo?

Hajr o‘lumdin talx emish, mundin so‘ng, ey gardun, meni
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.

Bo‘lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag‘il
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Vasl aro parvona o‘rtandi hamono bildikim,
Qilg‘udekdur subh ani sham’i shabistondin judo.

Bir eyasiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun, yo Rabki, hargiz banda sultondin judo.

39

Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano,
Chorakim, qolmadi sabrim g‘ami hajringda yano.

Axtari sa’d seningdekki tug‘uptur go‘yiyo
Kim, quyosh erdi ato-vu to‘lun oy erdi ano.

Gar falak sayridur istar seni aylab tak-u dav,
V-ar malak zikrin eshitsang sanga der madh-u sano.

O‘yla ishqing mayi labtashnasimenkim, ichman
Oz debon, bodam uchun bo‘lsa falak jomi ino.

Ishq mehnatlari tarkini buyurmang mangakim,
Mujibi sihhat-u quvvatdurur ul ranj-u ano.

Xonaqoh ichra erur shayx-u o‘zin ko‘rsatmak,
Ey xusho, mug‘bachalar jilvasi-yu dayri fano.

Juz Navoiy borig‘a jomi karomat tuttung,
Ayyuhas-soqiy, min-al-ka’si fano aynal-ano?[1]

[1] **“Ayyuhas-soqiy, mina-l-ka’si fano ayna-l-ano?”** — “Ey soqiy! Fano may kosasidan, sharob qadahidan mashaqqat, azob-u uqubat qayda?” Tasavvufiy ma’nosi: “Ey Piri komil! Ey shayxi tariqat! O‘zini Haq taologa bag‘ishlab, fano bo‘lgan kishiga ilohiy ishqdan kulfat-mashaqqat, azob-u uqubat yetarmidi? Aslo yetmaydi!” *(M. Kenjabek).*

"BE" HARFINING BALOLARINING BIDOYATI "G'AROYIB"DIN

40

Zihi visolingga tolib tutub o'zin matlub[1],
Muhabbatidin otingni habib atab mahbub.

Urujung aqshomi bo'lmay to'quz sipehr hijob,
Yuzung xijolatidin mehr o'lub vale mahjub.

O't ichra tushsa bo'lur nisbati samandardek,
Kishiki ishqing o'tig'a o'zin qilib mansub.

Iting hisobig'a kirgan hisob vaqtida,
Agarchi jurmi erur behisob, emas mahsub[2].

Kitobat etmaganingdin qalamda nol ermas
Ki, tushti ko'ngli aro tob o'ylakim maktub.

Libosi motam aro qoldi to abad soya
Ki, mehridin nega yoningda bo'lmadi mas'hub?

Muti'i amring agar podshoh, agar soyil,
Gadoyi xoning agar hushmand, agar majzub.

---

[1] Bu g'azal hazrat Navoiy devonidagi eng go'zal na't g'azallaridandir. Unda sevikli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning oliy sifatlari, xislat va mo'jizalari ifodalangan *(M.K.)*.

[2] Bu devonlarida bu baytning quyidagicha shakli ham bor:

Oting janobig'a kirgan hisob vaqtida,
Agarchi jurmi erur behisob, emas mahsub.

Ma'nosi: "Yo Rasulalloh! Ey Allohning Payg'ambari! Sizning nomingiz panogiga kirgan, sizning muborak otingiz bilan (Muhammad deb) atalgan (va shunga munosib imon va yaxshi amallar bilan yashagan) kishi qiyomat kunidagi hisob-kitob vaqtida, garchi gunohlari behisob bo'lsa ham, hisob-kitob qilinmaydi, balki so'roq-savob qilinmay, Allohning rahmatiga, jannatiga erishadi!" *(M. Kenjabek)*.

Ajab yo‘q olsa ko‘ngul hushin ul iki gesu,
Bu bo‘lsa silsila, ko‘p telbani qilur mag‘lub.

Tilasa ravzani zohid, Navoiy-u ko‘yung
Ki, har kishi ani istarki, bor anga marg‘ub.

41

Ikki o‘tlug‘ nargisingkim, qildilar bag‘rim kabob,
Biridur ayni xumor ichinda, biri masti xob.

Tiyg‘ tortib dam ola olmay yetishting boshima,
Go‘yiyo xurshid yanglig‘ yo‘lda ko‘rguzdung shitob.

Ofarinish baski ahvolimg‘a yig‘lar har kecha,
Ashk daryosi erur gardun-u kavkablar — hubob.

Tolpinurmen ashk aro har damki tishlar la’lini
Kim, tengizga tushsa, jon vahmidin aylar iztirob.

Ranj-u za’fim bo‘lmish andoqkim so‘rar kelgan ulus,
Holim aylarlar suol, ammo eshitmaslar javob.

Necha tasbihing hisobi, zohido, ich bodakim,
Sen-u mendeklarga xud bu korgahda ne hisob?!

Gar karam daryosining mavji budurkim, chog‘ladim,
Qoni o‘z bo‘ynig‘a, kim ishratdin etsa ijtinob.

Ich, Navoiy, mayki fahm ettuk tabibi ishqdin,
G‘ussa-vu g‘am zahrig‘a taryok emish yoquti nob.

Xossa bazmikim quyosh jomin shafaq rohi bila
Elga tutqay xusravi anjumsipohi Jamjanob.

42

Qosh-u yuzungni munajjim chunki ko‘rdi beniqob,
Dedi: ko‘rkim qavs burjidin tug‘uptur oftob.

Bir labing jon oldi andoqkim, birisi bilmadi,
Emdikim bildi arolarida bordur shakkarob.

Gar falak qoshing bila bahse hilolidin qilur,
Bir desa payvasta, jono, eshitur ikki javob.

Gul kibi yuzungda ter fard etti hushumdin meni,
Garchi behush elga hush uchun muqavviydur gulob.

Kim, sirishkim ko‘rdi ma’lum etti ishqim hosilin,
Dona birla o‘ylakim el naqdini aylar hisob.

Ne chamandur buki hasrat suyi-yu dard o‘tidin
Parvarish topmish qayu bir guldakim, bor ob-u tob.

Gar Navoiyning kuyuk bag‘rida qondur, ne ajab,
Xomso‘z o‘lur yolin uzra tushub kuygan kabob.

43

Chobukekim, har taraf maydon aro aylar shitob,
Barqi lomi’dur samandi, gardi andoqkim sahob.

O‘qi rashkidin erur ko‘ksum aro ko‘nglum qushi,
Ul kabutarkim, qabaq ichinda qilg‘ay iztirob.

Otsa o‘q ul qoshi yo yuz pech urar jon rishtasi
Kim, manga hirmon-u aning o‘qig‘a yetkay tanob.

Nogahon otqaymu deb bir o‘q qabaq shakli bila
Boshi ustiga kelur maydonda har kun oftob.

Ul quyoshtin boshqa kim otqay qabaq, vah ko‘rmaduk
Axtari sa’deki, har dam zohir etkay bir shihob.

Jon berurmen qayrilur chog‘da ko‘rub belida pech,
O‘lsa tong yo‘q ulki, joni rishtasig‘a tushsa tob.

Kimki sarkashrak, havodis o‘qig‘a ko‘prak hadaf,
Ushbu holatni qabaq ahvolidin qilg‘il hisob.

Ey Navoiy, chun o‘qi har dam falak mayli qilur,
Sen oti gardiga qoni’ bo‘lki, bordursen turob.

44

Havo xush erdi-yu ollimda bir qadah mayi nob,
Ichar edim vale g‘amdin qadah-qadah xunob

Ki, hozir erdi o‘shul sarvi nargisi maxmur,
Va lek rag‘mima qilmas edi qadahg‘a shitob.

Manga ne zahrayi ulkim, desamki, bir qadah ich,
Ne onsiz ichkali may, ne qarori toqat-u tob.

Bu g‘ussa birla ichim qon bo‘lub nechukki qadah,
Ko‘zumga har nafas ashk evrulur misoli hubob.

Chu angladiki borur ixtiyor ilgimdin,
Kulub qadah kibi lutf ayladi-yu qo‘ydi itob.

Qadahni ichti-yu yuz loba birla tutti manga
Ki, aning ichkani-o‘q qildi meni masti xarob.

Chu soqiy etti qadah ko‘zgusida jilvayi husn,
Ne ayb oshiqi mayxora ko‘ngli bo‘lsa yabob.

Navoiy, vasl bihishtida shukr qil bu nafas
Ki, yana chekmagasen hajr do‘zaxida azob.

45

Yuz so‘zumdin biriga bermas javob ul no‘shlab,
Og‘zini yo‘qtur desam voqi’ki, hech ermas ajab.

Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,
Nuqta chun ostin bo‘lur har qaydakim yozilsa lab?

Vasl ne yanglig‘ muyassar bo‘lg‘usidur, chun erur
Dilbarim nozuk mizoj-u, men bag‘oyat beadab.

Gar quyosh derlar yuzungni garm bo‘lub chekma tiyg‘,
Elga jurme yo‘q, inar chun osmondin har laqab.

La’ling olsa choklik bemor ko‘nglumni ne tong,
Ey malohat naxli, chunkim xastasiz bo‘lmas rutab.

Zindadil Majnunning o‘lmish ko‘ngli chun Laylog‘a hay,
Bas ne osig‘ oni haydin qovlamog‘lig‘, ey arab.

Tolib ulkim topmasang dag‘i bu baskim, aylamas
Bir nafas g‘ofil seni matlub yodidin talab.

Qahr barqi birla rahmat yomg‘uri gar bo‘yladur,
Emin ermas Bul’alo[1], navmid emastur Bu’ lahab[2].

Gar navo topsa Navoiy lablaringning zikridin,
Tong emastur, chun mudom afzun bo‘lur maydin tarab.

46

Subhi davlat yuzung, ey tavsani gardun sanga ashhab,
Boshing ustidagi dur o‘ylaki tong boshida kavkab.

---

[1] **Bul’alo (asli Abul’alo)** — Islomda yaxshilik bilan nom chiqargan kishi.

[2] **Bulahab** — asli Abu Lahab; Islom dinini qabul qilmay, hazrati Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam)ga qarshilik ko‘rsatgan, Islomda yomonotlig‘ bo‘lgan kishi.

Poymol etkan uchun markabi javlonda boshimni
Uzr uchun qildim aning na'lini yuz birla muzahhab.

Mehr turkin qilibon past, falak raxshidin o'tti,
Alloh-Alloh, bu ne rokibdurur-u, vah, bu ne markab?!

Ne qatig' holki, hajring kechasi ting'ali qo'ymas,
Yer elin ashk ila anduh, ko'k elin na'rayi yo Rab.

Iti mehmonlig' uchun emdi qadam qo'ysa bo'lurkim,
Ko'ngul o't qildi muhayyo-vu bag'ir tu'ma murattab.

Har kishi bo'ldi qulung, ul kishidur olam aro shoh,
Qullaring qurbini kim topsa erur shahg'a muqarrab.

Yuzi vasfida kerak safha, vale lavhayi xurshid,
Sochi vasfini yozar vaqtda tun dudi murakkab.

Yor chun barcha zamon nozir erur holinga, bo'lg'il
Bori holatda mushohid, bori el birla muaddab.

Telbarab ko'ngli Navoiyning agar arbada aylar,
Daf'ig'a silsilayi zulf ila basdur chahi g'abg'ab.

47

Necha bo'lg'ay manga hajr ichra tazallum, yo Rab?
Ayla bu zulm aro holimg'a tarahhum, yo Rab.

Va'dayi qatl qilib va'dag'a qilg'uncha vafo,
Nega men xastani o'lturdi tavahhum, yo Rab?

Lablarining kalimotiki, berur jismg'a ruh,
Obi hayvon unidur, yo'qsa takallum, yo Rab.

Xoni vaslida o'kush ne'mat arodur ag'yor,
Ro'ziy et bizga ham ul nav' tana'um, yo Rab.

Vahki, ko‘nglumni shikof etti kulumsub og‘zi,
G‘unchalarni netib ochti bu tabassum, yo Rab?

Umr chun foniy emish, gar kishi olam shahidur,
Chun o‘lar, nevchun etar muncha taazzum, yo Rab?

Yor qatl etkali ushshoqini yig‘durg‘an emish,
Ber bu bazm ichra Navoiyg‘a taqaddum, yo Rab.

48

Ey, sanga yuz xo‘b-u lab xo‘b-u labingdin kulgu xo‘b,
Har nekim voqe’ bo‘lur sendin, ko‘zumga asr-u xo‘b.

Deding ul oy vasfin, ey roviy, yana so‘z demagil
Xo‘blardinkim, so‘zung erdi bu yerga tegru xo‘b.

Xo‘blar qul bo‘ldilar, lekin parilar qochtilar,
Olam ichra odamiy bir sencha bor erkinmu xo‘b?!

Xo‘blarni arz qildim qilmadi ko‘nglum pisand,
Ani ko‘rgach ixtiyori qolmayin dedi: bu xo‘b.

Vaslida jonimg‘a hajridin ne kelganni deman
Kim, farah bazmida zikr etmak emastur qayg‘-u xo‘b.

Javr-u lutf-u kibr-u noz andin ko‘ngulga xo‘b erur,
Haq azalda zotini oning yaratibdur chu xo‘b.

Sof qil xotirki, solg‘ay aks ul yuz yaxshikim,
Ko‘rguzur yuzni, qachonkim ravshan o‘ldi ko‘zgu xo‘b.

Ey ko‘ngul, borsang ul oy nazzorasig‘a zinhor
Ashk birla ko‘zlaringdin g‘ayrning naqshin yuv xo‘b.

Xo‘blarni ko‘rmasa sensiz Navoiy qilma ayb
Kim, ko‘runmaydur ko‘ziga kimsa sendin ayru xo‘b.

49

Sen labing so‘rg‘an soyi men qon yutarmen, ey habib,
Sen may ichkilkim, manga xuni jigar bo‘lmish nasib.

Dedilar, ahbob dardig‘a habib aylar davo,
Vahki, men kuydum muhabbattin, emas voqif habib.

Ko‘yungga kirgach, ko‘ngul qoshingg‘a mayl aylar bale,
Go‘shayi mehrob etar payvasta manzilgah g‘arib.

Chehra sarg‘arg‘an soyi ortar ko‘ngulning nolasi,
Bor ajab voqi’ xazon faslida nolon andalib.

Hoshalillah, sharbatimni zahri qotil birla ez,
Chun ish andin o‘ttikim, kelgay Masihim, ey tabib.

Necha ul oy mehridin shaydo ko‘ngulni ovutay,
Telbaga yolg‘on hikoyat birla bergandek fireb.

Mayg‘a rahn o‘lmay fano dayrida tasbih-u rido,
Piri dayr etmas havola elga zunnor-u salib.

Nafsing etsa sho‘xlug‘, charx emgagidin qil adab,
Tiflni andoqki zajr aylar falaq birla adib.

Ey Navoiy, zulmidin dermenki ishqin tark etay,
To nazardin g‘oyib o‘ldi, yo‘q yana sabr-u shikeb.

50

Ishqdin yonsa tanim so‘rma sabab,
Kuysa xoshok yolindin ne ajab?

Sekridi, chunki samanding dedi aql:
— Barq bo‘lmish bu quyoshqa markab.

Xo‘blar maktab aro xayli nujum,
Ul quyosh o‘rtada mohi maktab.

Zaqaning choh-u aning ostida xol,
Chohning nuqtasi, ey no‘shin lab.

Husn aro ishva-yu noz el ko‘nglin
Oncha olmaski hayo birla adab.

Nega matlub tilarsen, chunkim
Ne talabdur sanga, ne dard talab.

Hajr aro xasta Navoiy-u — fig‘on,
Ey visol ahli, sizu — lahn-u tarab.

51

Og‘zining sirri manga ma’lum agar ermas ne ayb,
Hech kimga zarraye chun bermamish Haq ilmi g‘ayb.

Oshiq-u shaydolig‘imni man’ etar zohid, ko‘rung
Kim, hunar ham bor emish nodon kishi ollida ayb.

Yoshurun qolg‘aymu ko‘ksum jaybidek chok o‘lg‘ani
Xossakim, hajr ilgidin ko‘ksum kibi chok erdi jayb.

Ko‘zlaring birla labing andog‘ki urdi din yo‘lin,
Ne balolardin Bilol o‘tkay, ne sahbodin Suhayb.

Zarrag‘a sadyak esa og‘zing manga yo‘q hech shak,
Chehrang o‘lg‘andek quyoshning dah sadi yo‘q hech rayb.

Pirsiz kezma bu vodiy ichrakim, topmas Kalim[1]
Tiyra shomin ravshan amr etmay anga xidmat Shuayb[2].

[1] **Kalim** — ulul-azm payg‘ambarlardan hazrati Muso alayhissalomning laqablari. Alloh taolo bilan so‘zlashganlari sababli bu nomga ega bo‘lganlar.

[2] **Payg‘ambar hazrati Shuayb alayhissalom** — Madyanda yashab o‘tgan payg‘ambarlardan, keyinchalik Muso alayhissalomning qaynotalari bo‘lganlar. Hazrati Muso alayhissalom sakkiz yil-o‘n yil u zotning xizmatini qilib, keyin payg‘ambarlik rutbasiga erishganlar. Hazrat Navoiy aytmoqdalarki: “Ey inson! Bu hayot vodiysida pirsiz kezmagin, chunki Kalimga, ya’ni hazrati Muso

Ey Navoiy, sendek etkan zoyi' ayyomi shabob,
Sudi yo'q anjum kibi ashki nadomat shomi shayb.

52

Bovujudikim adam bo'ldum g'amidin qayg'urub,
Hech og'zining so'rog'in la'lidin topman so'rub.

Jonki, qat-qat qon bo'luptur, dog'i ishqing ketmagay,
Lola bargidek ani bir-bir sovursang kuydurub.

Novaking ko'nglumda qilmish xona bovar qilmasang,
Ko'ksuma ilgingni kelturkim, turuptur bilgurub.

Ishqidur jon pardasida ravshan ettim, do'stlar,
Necha kuygaymen harir ichinda o'tni yoshurub.

Barqdek po'yamni ayb etmang, salomat ahlikim,
Mundog' o'tekim, tutashibdur manga bo'lmas turub.

Istama tahsinki, shokirmen ne kelsa ollima,
Shukr qilmay naylay olursen qazoni yozg'urub?

Chun Navoiy jonig'a marham erur paykonlaring,
Kosh, yoqsa marhame o'qung yonimg'a o'lturub.

53

Xoki poyi bo'ldi joni xoksorim qon yutub,
Kim, chiqib la'lini o'pkay rishtayi zulfin tutub.

---

alayhissalomga hazrati Shuayb alayhissalom xizmat buyurmagunicha, o'z qorong'u kechasini (qorong'u hayotini) yorug' holda topa olmagan". Bu bayt Qur'oni Karimning "Qasos" surasi, 22–29-oyatlariga asoslangan. Jumladan, 27-oyat ma'nosi: "(Qizlarning otasi Shuayb Musoga:) **"Menga sakkiz yil ishlab berishing sharti bilan shu ikki qizimdan birini senga nikohlab bermoqchiman. Agar o'n** (yil)**ni tamomlasang, bu sening ixtiyoring**(dagi bir iltifot)**dir. Men senga mashaqqat berishni-da istamasman. Inshoolloh, meni**(ng) **solihlardan** (ekanimni) **topursan" dedi"** *(M. Kenjabek).*

Zulfin ochqanda zanax chohig‘a tushkay ming ko‘ngul,
Qo‘ymasa ul choh uza ruxsori sham’in yorutub.

Ishq muhriq dashtini qat’ aylamak dushvor erur,
Kirmasam, ohim yeli birla havosin sovutub.

Kuygali rozimenu hajrig‘a yo‘q, vahkim, meni
Ayladi rozi isitmoqqa o‘lumdin qo‘rqutub.

Deb emish bir kun kelib ko‘ngli yarosin butkaray,
Kelsa butkil, ey ko‘ngul, bu so‘zga xud bo‘lmas butub.

Dahr bo‘stonida qilmoq sayr aylab hoy-u huy
Harza kezmakdur hayoting qushlarini urkutub.

Jomi vaslingdinki, elni tirguzursen, bil yaqin
Kim, Navoiy o‘lgusi xunobayi hijron yutub.

54

Vah, ne qotildur kelur oyini qatl-u kin solib,
Oshiq o‘lturmak uchun har qoshig‘a yuz chin solib.

Chun o‘tub ishq ahlidin oshubi sabr-u fahm o‘lub,
Chun yetib zuhd ahlig‘a taroji aql-u din solib.

El sarikim yuzlanib qindin chiqarib tiyg‘i kin,
Chun manga markab surub boshimg‘a tiyg‘i kin solib.

Bu sarig‘ ruxsora birla qon yoshimdin yod qil,
Ichsang oltun jom ichinda bodayi rangin solib.

Sensizin, ey umr, chun mumkin emas orom-u sabr,
Borma hardam bizni mundog‘ bedil-u g‘amgin solib.

Har tarafkim, gom urub yuz porso yo‘lin urub,
Har qayonkim, ko‘z solib yag‘mov-u qatl oyin solib.

Bog‘i husnungkim gul ochti rang-rang, ey mug‘bacha,
Go‘yi ichting mayg‘a bargi lola-yu nasrin solib.

Shar’siz xoshok aro xashxoshdekdur, ey hakim,
Ko‘kka chiqsang jaybing ichra subhayi Parvin solib.

Dard-u g‘am qolib, Navoiy joni chiqti oqibat,
Hajr elindin xonumonin bordi ul miskin solib.

55

Xanjaring jonimg‘a yetti ko‘kragimga sanchilib,
Novaking yonimg‘a o‘lturdi iyodatqa kelib.

Qirib o‘tgan o‘qlaring jon pardasin resh etgali,
Safhadekturkim qirilg‘ay sahv xatlar yozilib.

Yugurur har kirpikimga ortilib bir qatra yosh,
Sho‘x yoshlardekki o‘ynarlar chubuq markab qilib.

Ushbu hijron kechasin tush ko‘rsam erdi nogahon,
O‘lgay erdim vahmdin, albatta, zahram yorilib.

Na’lim ichra dog‘ uchun qo‘yg‘an fatila dud ila,
Dard o‘chog‘inda tutaydur anda o‘ti yoqilib.

Ul quyosh birla borur el soyadek, men xoksor,
Vahki, qolurmen izining tufrog‘idek ayrilib?

Sirri vahdat chun fano dayrida sig‘mas lafz aro,
Nevchun oyo xonaqah ichra tuganmas aytilib?

Nuktayi tavhidni bilgan qila olmas bayon
Kim, bayon qildim desa bilgilki qilmaydur bilib.

Ey Navoiy, mayda soqiy la’lidin ermish furug‘,
Kayfiyatni chunki fahm etting netarsen oyilib?

56

So‘zi hajring ichra har dam za’flig‘ jismim yonib,
O‘tqa tushgan qil masalliq o‘rtanurmen to‘lg‘anib.

Ochqil o‘tlug‘ orazing, ey sham’kim, parvonadek
O‘rtanay boshing uza bir necha qatla aylanib.

Solg‘asen olamg‘a o‘t, gar gul sovug‘i tobidin
G‘unchadek gulshang‘a chiqsang hullalarg‘a chirmanib.

Biym erurkim, ofarinishdin chiqarg‘aysen damor,
Bazmdin usruk chiqib maydong‘a chopsang otlanib.

Yor ila xo‘y aylagan ko‘nglum erur ul nav’ qush
Kim, kishidin ayrila olmas kichikdin o‘rganib.

Moldin umrungg‘a osoyish agar yetmas ne sud,
Nuh umrin hosil etsang, ganji Qorun qozg‘anib?

Qabrim uzra qo‘yg‘asiz tosheki, za’f ayyomida
Ul pari ko‘yida yotmishmen boshimg‘a yastanib.

Ey Navoiy, tushta gar ko‘rmak ani mumkin esa,
Barcha gar xud so‘ngg‘i uyqudur, netarsen uyg‘anib.

57

Xasta jonim za’fin angla, ko‘nglum afg‘onin ko‘rub,
So‘rma ko‘nglum yorasin, fahm et ko‘zum qonin ko‘rub.

Vaslida la’li uza xolin ko‘rub kuygan kibi,
O‘rtanurmen jonda emdi dog‘i hijronin ko‘rub.

Vodiyi sabrimdag‘i xor-u xasak qildim gumon,
Ko‘nglum atrofida har yon no‘gi paykonin ko‘rub.

Angladim qilmish ko‘zi olg‘an ko‘ngul saydig‘a qasd,
Har tarafdin charga tuzgan xayli mujgonin ko‘rub.

Yer-u ko‘kta istabon paydo emas Xizr-u Masih,
Qochtilar go‘yo dudog‘ing obi hayvonin ko‘rub.

Jism bog‘ida ravon shakle tasavvur qildi aql,
Bo‘stoni husn aro sarvi xiromonin ko‘rub.

Shabnam ermas, nargis ashkidur nedin qon yig‘lamas,
Ko‘z yumub ochquncha gulshan umri poyonin ko‘rub.

Charxdin sidq ahli motam ichradur, fahm aylagil,
Har sahargah subhning choki giribonin ko‘rub.

Nomasin, vah kim, ochib solmoq nazar mumkin emas,
Chun Navoiy hushi zoyil bo‘ldi unvonin ko‘rub.

58

Ko‘z yoshim bo‘ldi ravon bir nargisi jodu ko‘rub,
Tifl yanglig‘kim yugurgay har taraf oh-u ko‘rub.

Qoldi hayron zohid ashkimda ko‘rub har yon hubob
Rustoyidekki, hayrat aylagay o‘rdu ko‘rub.

Jon aro tiyg‘ing ko‘rub ko‘nglum qushi tuzdi navo,
To‘tiyedekkim, takallum aylagay ko‘zgu ko‘rub.

Vodiyi ishqing makon qildi ko‘ngul ko‘rgach yuzung,
El biyobon ichra manzil aylagandek su ko‘rub.

Jonda o‘z dog‘in ko‘rub oshiqlig‘imni angladi,
Ul kishidekkim, tanig‘ay o‘z qulin belgu ko‘rub.

Boda tutqach, dema bexud bo‘ldikim ul ko‘zgudin,
Bordi hushum yor husni jilvasin o‘tru ko‘rub.

Ey Navoiy, daf' o'lur xolin ko'rub ko'hi g'amim
Fil yanglig'kim, hazimat aylagay hind-u ko'rub.

59

O'lukni tirguzur la'ling Masihoso kalom aylab,
Takallum choshniysin sharbati **"yuhyil-izom"**[1] aylab.

Azalda la'linga sayd etkali ko'nglum qushin go'yo
Qazo sayyodi jonlar rishtasidin yoydi dom aylab.

Chamanda tozalig'din har quruq shoxe erur Xizre,
Magarkim andin o'tmish obi hayvonim xirom aylab.

Agar harf o'lsa mudg'am, vahki, xoling nuqta idg'omin
Ayon qildi ko'zumning mardumi ichra maqom aylab.

Ne bo'lg'ay tiyra bo'lmay ro'zgorimkim, ochib gesu
Qaro shomimni muhlik aylading, subhumni shom aylab.

G'araz ul yuzni mastur asramoqdurkim, Hakimi sun'
Ulusqa oh etar qismat ani oyinafom aylab.

Chu Haq dargohidin mardud etar naylarsen, ey zohid,
Qabuli xalq uchun ortuqsi toat iltizom aylab?

Yoshingni dona, bag'ringni su qilkim, tutti faqr ahli
Hidoyat qushlarin bu dona-vu su birla rom aylab.

Navoiy kunda chun bir qursi maqsum ortmas, ne sud
Falakdek bo'lmog'ing sargashta tun-kun ehtimom aylab?

---

[1] **"Yuhyil-izom"** — suyaklarni tiriltiradi; Qur'oni Karim, "Yosin" surasi, 78-oyatidan; 78–79-oyatlar ma'nosi: **"U** (inson) **o'z asli — yaratilishini unutib, Bizga misol keltirishga o'tdi: "Shu chirib ketgan suyaklarni kim tiriltiradi?!" — dedi.** (Ey Rasulim!) **ayting: "Ularni ilk marta yaratgan Zot tiriltiradi! U har turli yaratishni bilguvchidir!"** *(M. Kenjabek).*

60

Qon yoshim yo‘lungda tommaydur ko‘zum giryon bo‘lub
Kim, oyog‘ingg‘a tushubtur ko‘z qorasi qon bo‘lub.

G‘unchadek ko‘nglum chekar un, g‘arq o‘lub xunob aro
So‘z deganda og‘zing ikki la’l aro pinhon bo‘lub.

So‘rsa Majnun ishq dashtida meni, ayt, ey rafiq
Kim, quyundek itti bu vodiyda sargardon bo‘lub.

Hajri ko‘nglumni buzub, g‘am seli hamvor etti, voy
Kim, asar ham yo‘qtur ul ma’muradin vayron bo‘lub.

Tig‘i xud o‘tti suubat ko‘rki muhlik yarasi,
Bu zamon boshimg‘a qoliptur baloyi jon bo‘lub.

Har zamon og‘zing xayoli sanchilur ko‘nglum aro,
Go‘yiyo bu g‘uncha oni zaxm etar paykon bo‘lub.

Charx ushshoq ohi o‘qidin magar vahm ettikim,
Qubba qildi mehrini o‘z hay’ati qalqon bo‘lub.

Hashr xurshidig‘a moni’ fikr qilmassen, ne sud,
Atlasi gardun saropardangg‘a shodurvon bo‘lub?

Ey Navoiy, foniy o‘l yor istasangkim, xo‘b emas,
Jonni sevmaklik bahona o‘rtada jonon bo‘lub.

61

Kimsa yori birla xushtur g‘am deyishib mungrashib,
Yotsa gohe chirmashib, o‘ltursa gohe yondashib.

Zulfi el ko‘nglin parishon aylamakka jam’ o‘lub,
Turfaroq bukim, ko‘ngullarni yig‘arg‘a tarqashib.

Mumkin ermas tortmoq paykonlarinkim, jism aro
Har biri maskan tutupturlar so‘ngakka o‘rnashib.

Chiqti zulfin solg‘ach ul chohi zanaxdondin ko‘ngul,
Ankabut ul nav’kim, torig‘a chiqqay yormashib.

Hajr xayli ko‘nglum ichra mo‘rdek aylab hujum,
Garchi vasl ummidi yetkanda chibindek butrashib.

Kuydumu ul zulf tobi rishtayi jonimdadur,
Sham’ toridekki kul bo‘lg‘anda turmish chirmashib.

Soqiyo, qilsang himoyat g‘olib o‘lg‘um bo‘ylakim,
G‘am bila ko‘nglum taloshurlar ikavlon qarmashib.

Qil havola durdkashlar jonibi, ey mayfurush,
May chu har soat to‘kulgay jo‘sh urub kuptin toshib.

Oshurub haddin Navoiy ham niyoz-u ajzini,
Yor istig‘no-vu nozi har necha haddin oshib.

62

Kezarmen ko‘yida yillar nazar holimg‘a solg‘ay deb,
Agar o‘ltursa qonim rangi tufrog‘ida qolg‘ay deb.

Ko‘ngulga yuz tuman nish ursa hijron, aylaman nola,
Visoling no‘shidin ul zaxmlar bir kun o‘ngolg‘ay deb.

Ko‘ngulga novaking to kirdi behad hifzin aylarmen
Ki, bu shisha ichinda ul dag‘i nogah usholg‘ay deb.

Ko‘ngulni ko‘yida yuz ranj ila mehnatqa topshurdum
Ki, gar ko‘rsa bu surat birla shoyad ko‘nglum olg‘ay deb.

Sirishkim qoni qildi ko‘yining tufrog‘in og‘ushta,
Itiga shoyad ul balchig‘ bila bir uy yasolg‘ay deb.

Haram vaslin tilarsen po‘ya ur mardona, ey solik,
Qadam ohista chekma, bag‘ring ul yelmakda tolg‘ay deb.

Navoiy benavolig‘ birla doyim may ichar, bir kun
Navo naqshini davron mutribi bazmida cholg‘ay deb.

63

Dam-badam jomi tarab g‘ayr ila ul moh chekib,
Men yiroqtin boqibon, qon yutub-u oh chekib.

Ne g‘amim it kibi o‘lmakdin, agar eltur esa
Bo‘ynuma ip solibon ko‘yiga ul moh chekib.

G‘arazim buki, unutturmag‘amen o‘zni anga,
Ko‘yiga kirmagim afg‘on gah-u begoh chekib.

Ko‘ngluma hajr agar dard o‘qi yog‘dursa, ne tong,
Gar chiqarur esa paykonini dilxoh chekib.

Men adam yo‘lig‘a borman, meni lekin eltur
Og‘zi shavqida ko‘ngul o‘ziga hamroh chekib.

Mayi asfarki to‘kulmish qo‘yubon yuz ichsam,
Kahraboni ko‘runguz, jilva qilur koh chekib.

Jur’asin bersa Navoiyg‘a erur o‘lgucha bas,
Bazmi aysh ichra tarab sog‘arin ul shoh chekib.

64

Ne maxlasim bor aning ishqidin kanora qilib,
Ne to‘ymog‘im bor aning husnig‘a nazzora qilib.

O‘charga ishq o‘ti chora qil deding, ey shayx,
Bo‘lurmu qismatim o‘lg‘an balog‘a chora qilib?

Boshimda tiyg‘i yarasin necha, debon so‘rmang,
Kishi bo‘lurmu boshining tukin shumora qilib?

Ko‘ngulki itti qilib tiyra xonumonimni,
Qovay agar yana kelsa, yuzini qora qilib.

Ko‘ngulni yara qilib ulki tikti ko‘ksumni,
Yoqamni tikmak erur ko‘kragimni pora qilib.

Dedimki, maykadadin xonaqah yo‘lin tutayin,
Netayki, ul sari yo‘l bermas istixora qilib.

Navoiy etti nihon ishqin, ey fig‘on bila ashk,
Aning bu aybini naylarsiz oshkora qilib?!

65

Ul oy qasdima tiyg‘i burron chekib,
Men ollida shukronag‘a jon chekib.

Masihim chu faryodima yetmadi,
Necha o‘lturay o‘zni afg‘on chekib?

Hamono yomon ko‘zga mayl aylading,
Alif nil ila yuzga har yon chekib.

Labing no‘shdorusidin ne osig‘,
Men o‘ldum chu xunobi hijron chekib?

Ketur, soqiyo, davr ayog‘in to‘la
Ki, jon qolmadi ranji davron chekib.

Agar vasli boqiy kerak, istagil,
Fano ko‘yiga raxti hirmon chekib.

Navoiy berib jon o‘qi shavqidin,
Aning zaxmidin yor paykon chekib.

66

Chobukum raxsh uza hijron yo‘lida po‘ya qilib,
Men aning keynicha gohe yugurub, gah yiqilib.

Yiqilib yona qo‘pub, chunki urub yo‘lg‘a qadam,
Vahki, yuz nishtari hijron ayog‘img‘a tikilib.

Tobonim dard-u balo xoralaridin o‘yulub,
Yuragim ranj-u ano xorlaridin teshilib.

Turfa, ko‘rgilki inon tortmay ul sho‘x dame,
So‘ngicha bo‘yla qatiqliq bila holimni bilib.

Ishq dardig‘a juz o‘lmak yo‘q emish hech iloj,
Bosh qo‘yung ollig‘a oningki bu ma’noni bilib.

Istaram o‘zni xarobot ichida loya’qil,
Hush chun boisi ranj o‘ldi, netarmen oyilib?

Gar Navoiyg‘a yog‘in ashk edi-yu ra’d fig‘on,
Hajr chun koj urubon ko‘zlariga o‘t chaqilib.

“PE” HARFINING PARIVASHLARINING PARVOZI “G‘AROYIB”DIN

67

Mendin ul chobukning, ey payki sabo, maydonin o‘p,
Go‘yiga boshim niyozin yetkurub, chavgonin o‘p.

Bodpoyi sayrig‘a hamtaklik aylay olmasang,
Yerga mendin yuz qo‘yub ko‘rgan soyu javlonin o‘p.

Kulsa la’li, vahki, qolmas menda bir o‘pkuncha hush,
Hashv erur, ko‘nglumki, aytursen labi xandonin o‘p.

Pok etak istar esang, bir pok etaklik istabon,
Xoki na'laynig'a yuz qo'y, go'shayi domonin o'p.

Gar ayog'in raxshining o'pmak muyassar bo'lmasa,
Ko'z solib har yerdakim, ko'rsang ayog' bosqonin o'p.

Qoshi yosi g'amza o'qin otsa, vah, men xastadin,
Ko'zlaringga surtubon suforini paykonin o'p.

Ey Navoiy, ka'bayi maqsud vaslin istasang,
Shohi G'oziy qasrining dargohi oliyshonin o'p.

68

Zulf-u yuzdin sunbulungni gul uza tarqatma ko'p,
Dahr bog'ida gul-u sunbul isin butratma ko'p.

Ko'zlaringkim, masti xobolud erur ko'p ovlama,
Har sari uyqug'a borg'an fitnani uyg'atma ko'p.

Zulfig'a, ey mushk, istarsen qarimchi bandalig',
Yo'q hading, kechkil bu savdodin o'zungni sotma ko'p.

O'ynay-o'ynay o'lturur bir-bir ulusni ko'zlaring,
Sho'x qotillarni jonlar qasdig'a o'ynatma ko'p.

Tiyradur Majnunki, mendek debsen ani, ey xirad,
Aql-u hush ahlini bu devonag'a o'xshatma ko'p.

Eyki, mujgondin yasol tuzdung ko'ngullar saydig'a,
Ko'z yumub ochquncha ushbu xaylni qo'zg'atma ko'p.

El bila har dam qadah yanglig' kulub, ey mug'bacha,
Qon yoshim sochib surohiydek meni yig'latma ko'p.

Safhayi xotirda, ey orif, keraktur yor-u bas,
Sofiyi vahdatqa xoshoki xavotir qotma ko'p.

Chun Navoiy qismati jomi may o‘lmish, ey faqih,
Sarzanish aylab anga sangi malomat otma ko‘p.

“TE” HARFINING TAROJGARLARINING TAMOSHOSI “G‘AROYIB”DIN

69

Qasri johingg‘a sipehr avjida ayvon bo‘ldi tut,
Ham sipehr osibidin yer birla yakson bo‘ldi tut.

La’li rummoniy tilarsen dam-badam ziynat uchun,
Qatra-qatra bag‘ring andin nordek qon bo‘ldi tut.

Naf’ chun kuymaktin o‘zga ko‘rmaduk parvonadek,
Bir quyosh har tun sanga sham’i shabiston bo‘ldi tut.

Dayr qasdi qilmag‘il har lahza oshiq bo‘lg‘ali,
Qasdi dining qilg‘uchi bir nomusulmon bo‘ldi tut.

Istading dunyo arusin tushtagi mahbubdek,
Topmas ergach kom la’lidin, pushaymon bo‘ldi tut.

Sho‘xlar qoshin tilarsen, lek andoqkim hilol,
Jong‘a yetganda ko‘rungach ko‘zga pinhon bo‘ldi tut.

Bir mug‘anniydin navo topmoq tilarsen, changdek
Egri qad birla ishing faryod-u afg‘on bo‘ldi tut.

Ko‘si shavkat yetti do‘zaxqa eshik qoqmoqdurur,
Bas yeti iqlim mulki uzra sulton bo‘ldi tut.

Ey Navoiy, o‘zni jam’ et, yo‘qsa olam maxzanin
Qon yutub jam’ aylabon, o‘lgach parishon bo‘ldi tut.

70

Ey ko‘ngul, ul ahdi yolg‘on mehr shartin qildi tut,
Ahdini poyonig‘a yetkurmayin ayrildi tut.

Xanjari hijron bila oxir kesar jon rishtasin,
Mehr torin rishtayi joningg‘a mahkam qildi tut.

Chun mayi vasl o‘zgalar ichmakka bois bo‘lg‘usi,
Har nafas xunobi hijron yutmog‘ingni bildi tut.

Yo eshitmas, yo eshitkach zulmin aylar birga yuz,
Holing ul zolimg‘a yuz ming qatla besh aytildi tut.

Dema, sanchib nishi hijron yetkuray no‘shi visol,
Chun bu no‘shung o‘lturur, ul nish ham sanchildi tut.

Motam ashki durri chun tufrog‘inga sochilg‘usi,
Gavhari anjum falakdin boshinga sochildi tut.

Ey Navoiy, kisvati faqr ista, yo‘qsa charxning
Atlasin kiyding, gumon et oqibat eskildi tut.

71

Kelgil, ey qurbon ko‘ngul, ul qoshi yo mehrin unut,
Chun vafodin tortilur, sen ham borib bir go‘sha tut.

Chunki ul bizni unutmog‘ni sog‘indi yaxshi ish,
Sen dag‘i kel bir nafas oni sog‘inmog‘ni unut.

Ul quyosh har dam bo‘lur bir zarra birla garmmehr,
Mehr sham’in sen dag‘i bir o‘zga oy birla yorut.

Hayf erur har sho‘xi ra’no yuziga chun pok ishq,
Shavq o‘tin kel sen dag‘i bu ishvagarlardin sovut.

Ey pari, bir telba gar ovvora bo‘ldi g‘am yema,
Odamiyvashlar bila nozuk mizojingni ovut.

Gar ko‘zum yoshig‘a ul gul multafit bo‘lmas ne g‘am,
Gul bulutdin tozadur, serob emas guldin bulut.

Dahr bog‘ida giyohi mehr hargiz butmadi,
Gar desangkim ko‘rmayin bemehrlik bu so‘zga but.

Shahdi ayshing zahr etar gardun, sen ushbu jomdin,
Xoh komingni achit, xohi mazoqingni chuchut.

Tark qil, sen ham Navoiydek havosin, ey ko‘ngul,
Yoki har dam bir taraf maylin ko‘rub, xunoba yut.

72

Ohkim, ul oshno begona bo‘ldi oqibat,
Hajridin bexudlug‘um afsona bo‘ldi oqibat.

Aql-u donish lofini urg‘an ko‘ngul yig‘lay yuruy,
Ul parivash hajrida devona bo‘ldi oqibat.

Qatra-qatra shodlig‘ ashkinki sochtim vaslida,
Barcha hijron qushlarig‘a dona bo‘ldi oqibat.

Borg‘ali ul husn ganji g‘am buzug‘ ko‘nglumdadur,
Ajdaho uyi bizing vayrona bo‘ldi oqibat.

Soqiyo, may tutki, hajr anduhidin men telbani
Forig‘ etkan sog‘ar-u paymona bo‘ldi oqibat.

Chekma un, ohim ko‘r, ey Majnunki, bulbul ko‘p fig‘on
Chekti, o‘rtangan vale parvona bo‘ldi oqibat.

Butqa gar bosh qo‘ymadim ko‘rgilki, dinim tuhfasi
Dayr piri ollida jurmona bo‘ldi oqibat.

Deding avvalkim, Navoiy, seni gah-gah tirguzay,
Hech bilmankim sanga, jono, na bo‘ldi oqibat?

73

Jahdim andoqdur yetishgaymenmu deb vaslingg‘a bot
Kim, qabul etman og‘ir deb chiqsa egnimdin qanot.

Sabr tog‘i birla qilmoq po‘ya bo‘lmas, ey ko‘ngul,
Tashla ul yukni yetishmak istasang vaslig‘a bot.

Shahsuvorimning buroqi po‘yasidin qoldi barq
Kim, aning fe’li shitob ermish, munung rasmi sabot.

Ko‘p Masihodin dam urma, qil hayotingni tufayl
Angakim, topmish Masih oning tufaylidin hayot.

Mehr yuz ko‘rmay o‘chashdi pardadin chiqqach yuzung,
Olg‘ali qo‘ymas sarig‘ yuzin qora yerdin uyot.

Chun yudi ko‘zlar savodin ashk yorut yuz ochib
Kim, diramsiz elga boy el farzdur bermak zakot.

Ey Navoiy, xoki poyi vasfida shirin so‘zung
Bor biaynih to‘tiyo ichinda solg‘andek nabot.

74

Tiyra kulbamga kirib, jono, o‘lumdin ber najot,
Zulmat ichra Xizrg‘a ul nav’kim obi hayot.

Soda ko‘nglum ichra la’lingning xayoli tushgali,
Shishayedurkim, aning ichiga solmishlar nabot.

Orazing mehrida og‘zingdur gadolig‘ qilg‘anim,
Haq seni xurshid qilmish, zarraye bergil zakot.

To ko‘nguldin bosh chiqarmish har taraf paykonlaring,
Qush bolasidek bo‘lubturkim, bo‘lur temurqanot.

Vasl ummidig‘a tilarmen umr, lekin voykim,
Sensizin ko‘rsam, tirikmen, o‘lturur meni uyot.

Istasangkim, ul quyosh chiqqach sanga qilg‘ay tulu’,
Ey ko‘ngul, g‘am seli yetkach, tog‘dek tutqil sabot.

Ishqing o‘tin gar Navoiy desakim aylay raqam,
So‘zidin kuyar qalam, qurur qora, erir davot.

75

Ko‘zum ucharki, humoyun yuzungni ko‘rgay bot,
Biaynihi anga kirpiklar o‘lmish ikki qanot.

Bezansa dard-u balo shohidi halokim uchun,
Mijam tarog‘durur, eski tuganlarim mir’ot.

Labing xayolida ashkim erur hayot suyi,
Firoqing ichra qorarg‘an ko‘zum anga zulmot.

Zakot o‘lur edi yuzung jamoli naqdig‘a mehr,
Tajammul ahlig‘a yuzdin bir o‘lsa erdi zakot.

Desangki, jonima o‘t solmag‘aysen, ey soqiy,
Takallum etma mayolud lab bila hayhot!

Qolurlar og‘zin ochib ishq ahli po‘yamdin,
Sog‘ elga kulgu erur telba aylagan harakot.

Labingki, jon beradur ahli dard qoni uchun,
Navoiy qonig‘a gar mayl etar mumiddi hayot.

76

Ey ko‘ngul, yor o‘zgalar domig‘a bo‘ldi poybast,
Senga mushkil holat-u bizga qatiq ish berdi dast.

Vasl torin chekti ul, men dag‘i chektim, ohkim,
Rishtani uzdi-yu bo‘ldum hajr tufrog‘ig‘a past.

Necha bosh qo‘ydum yo‘lida, vahki, qildi poymol,
Za’flig‘ jismimg‘a zulfi toridek solib shikast.

Zahra yo‘q, mujib so‘rarg‘a bo‘lmasun, yo Rab, kishi
Muflis-u oshiq, sevar dildori — mustag‘ni-yu mast.

Soqiyo, bu ishga bexudlug‘din o‘zga yo‘q iloj,
Mujda mug‘ ko‘yiga yetkurgilki, bo‘ldum mayparast,

G‘arq o‘lay may bahri ichra rost ul g‘oyatqacha
Kim, solib bo‘g‘zum aro chekkay ajal qullobi shast.

Ey Navoiy, jurm uzri dashtida qil po‘yakim,
Yaxshi ermas zuhd zanjirig‘a bo‘lmoq poybast.

77

Subh erur soqiy-u men maxmurmen, sen mayparast,
Tut quyoshdek jomni, moni’ nedur bo‘lmoqqa mast?

Tiyra shomi hajr aro, vah, asr-u ko‘p chektuk xumor,
Mast o‘lali bu nafaskim, vasl subhi berdi dast.

Kun biyik chiqquncha ho‘y-u nolani past etmali,
Ko‘p biyik chiqqay bu kunkim bo‘lg‘abiz biz yerga past.

Anjuman ahli yuzin gulgul qilali may bila,
Mehrdin topquncha anjum gullari bir-bir shikast.

Charx motam yetkurur, biz dog‘i oncha yig‘lali
Kim, kuhan g‘amxonasi ul seldin qilsun nishast.

Gar shafoatqa maloyik kelsa, nomahram debon,
Mehr shaklidin falak yo‘lin qilali xorbast.

Tong emas bo‘lsa Navoiy mast to shomi abad
Kim, azal subhida bo‘lmish qismati jomi-Alast”[1].

78

Junun toshi urub har yon yangi dog‘imni afgor et,
Ichimdin loladek, ishq ichra toshimni namudor et.

Chu majnun qilding emdi, ey mug‘anniy, go‘shatobingni,
Ko‘ngul savdosi taskini uchun bo‘ynumg‘a tumor et.

Desang, ko‘nglum qushi aylab havo, chekkay navoyi ishq,
Xadangingning parin aylab qanot, paykonni minqor et.

Soching kufrida o‘lsam qabrim uzra qo‘yma xirqamni,
Chekib har torini bir barhaman beliga zunnor et.

Ko‘ngul ayvonida ohim yelidin pardayi ishqing
Desangkim, uchmasun, mujgondin atrofig‘a mismor et.

Desang og‘zin ko‘ray, ey aql, markaz nuqtasin ista,
Vale shart ushbukim, avval quyosh davrini pargor et.

---

[1] **Jomi “Alast”** — “alast” so‘zi bilan bog‘liq she’rlarning hammasida Qur’oni Karimdagi “Alastu birobbikum?” (“Men emasmanmi Sizlarning Rabbingiz?”) oyati nazarda tutiladi. “A’rof” surasi, 172-oyati ma’nosi: “(Ey Rasulim!) **Raqtida Rabbingiz Odam farzandlarining pushti kamarlaridan** (o‘tgan va bo‘lajak) **zurriyotlarini** (zarralar holida) **chiqardi va ularni o‘z-o‘zlariga guvoh qildi: “Men sizlarning Rabbingiz emasmanmi?”** (dedi). **Ular: “Ha,** (Sen Rabbimizsan)**! Biz guvoh bo‘ldik” dedilar.** (Bu esa dunyoda kufrga ketib) **qiyomat kunida: “Biz bundan bexabar edik” demasliklaringiz uchundir”** *(M. Kenjabek).*

Imorat tarhidur na'l-u alifdin har taraf ko'ksum,
Vafo qasrin qo'parsang, bu binolar uzra devor et.

Erur maqsad yiroq, vodiy — uzun,
tun — tiyra, yo'l — burtoq,
Bu yo'lda salb etib o'zluk yukin, o'zni sabukbor et.

Navoiy o'lsa tirguzgil, yuziga yuz qo'yub, ya'ni
Yuziga su urib ul uyqusidin ani bedor et.

79

Vujudum o'rtading, ey ishq, emdi tarkim tut,
Xudoy uchunki, meni qayda ko'rdung anda unut.

Ko'ngulni vasl charog'i bila, deding, yorutay,
Tutashti chun bizning uy emdi o'zga uyni yorut.

Chu vasl kuymak ila hosil o'lmadi, ey ko'z,
Tahassur ashki bila shu'lalig' ko'ngulni sovut.

Jununi daf'ig'a ko'nglumni dog' etay debsen,
Bu dog' sahldurur, hajr dog'idin qo'rqut.

Buxori ohim erur loyiq, anglagil, ey ashk,
Bahori husnig'a nogah keraklik o'lsa bulut.

Ne voqi' o'lsa chu taqdirdin emas xorij,
Bas o'ktadur qiluridin kishiga bermak o'gut.

Navoiyo, bu o'tar olam ichra besh kun qil
O'zungni may bila mashg'ul-u ishq birla ovut.

80

Ko'nglum oldi bir paripaykar malaksiymo yigit
Kim, bani odamda andoq bo'lmamish paydo yigit.

Oti sarkash, to‘ni zarkash, husni dilkash, nutqi xush,
Ko‘rmaduk bu nav’ mahvash chobuk-u ra’no yigit.

Ishqida ko‘z-u ko‘ngulning bir-biridin rashki bor,
Alloh-Alloh, bo‘lur ermish muncha ham zebo yigit.

Zorlig‘lar birla o‘lmay topmag‘umdur xud visol,
Ne uchunkim men qari quldurmen, ul mirzo yigit.

Yo‘lida yuz ming kuhanpir o‘lsa, qilmas iltifot,
Kimsa ko‘rganmu ekin bu nav’ beparvo yigit?

Yo‘lung uzra ham gadomen, ham qari, ham xasta hol,
Bir boqib o‘t holima husnung zakoti, o yigit.

Dayr piri mazhabin tutmay, musulmonlar, netay,
Olg‘an o‘lsa naqdi imonimni bir tarso yigit?

Bosh oqardi, sabza xatlar tarki tutsam yaxshiroq
Kim, xush ermastur yigitlar bazmida, illo yigit.

Ey Navoiy, qarib o‘zni solmakim, aylar seni
Bir qadah may birla ul sho‘xi qadahpaymo yigit.

81

Mast chiqti yana ul qotili bebok yigit,
Chok aylarga ko‘ngullar yoqasi chok yigit.

Aql pirini fano dayrida rasvo qildi
Kim, ko‘rubtur bu sifat zolim-u bebok yigit.

Yetti iqlimda ofat yigitimcha ermas,
Quyoshidin yasasa bu yetti aflok yigit.

Gah qilur zulm-u gahe qatl havas, kim ko‘rmish
Qotil-u zolim aro bo‘yla havasnok yigit?

Poklik pardasida tutsun ani Ezidi pok
Kim, erur asr-u yuzi pok-u o‘zi pok yigit.

Qariding, o‘zni qorilar sari solkim, yarashur
Kirsa cholok yigit bazmig‘a cholok yigit.

Ey Navoiy, yigiting nazminga mayl etti, sevun
Kim, nasib o‘ldi sanga sohibi idrok yigit.

82

Yana soldi hajr ham tan, ham ko‘ngul, ham jong‘a o‘t,
Soldi o‘t hijron manga, yo Rabki, sol hijrong‘a o‘t.

Aytqay kiymish junun mulki shahi zarkash libos
Ko‘rgan el, bu nav’kim tushmish meni uryong‘a o‘t.

Go‘yiyo bo‘ldi quyun g‘am dashtida eskan samum,
Yo‘qsa tushti men kibi majnuni sargardong‘a o‘t.

Manziling erdi ko‘z-u ko‘nglum, vale sen borg‘ali
Muni su qildi xarob-u tushti ul vayrong‘a o‘t.

Men dag‘i kuymay qutulmoq, ey ko‘ngul, mumkin emas,
Bo‘ylakim soldi damim g‘am dashtida har yong‘a o‘t.

Dudi ohim dosh dudidekmu ravzandin chiqar,
Yo solibtur furqating bu kulbayi ahzong‘a o‘t.

Gar manga o‘t soldi davron hajridin, bas ayb emas,
Men dag‘i solsam damo-dam oh ila davrong‘a o‘t.

Ne uchun ashjordin yig‘mish o‘tun, ey bog‘bon,
Otashin guldin agar urmas falak bo‘stong‘a o‘t.

Ey Navoiy, tan qolib jonimni olib bordi yor,
Soldi ul borg‘ang‘a o‘t, hijron vale qolg‘ong‘a o‘t.

83

Vahki, hajrinda jahon bo‘ldi ko‘zumga zulumot,
Kim, borur yoyqalib-u qaytmas ul obi hayot.

Zulfi ollinda binafshaki, boshin soldi quyi,
Ani ko‘rmakka hamono munga moni’dur uyot.

Harakat qilsa labing tuz to‘kulub, shahd oqar,
Tuzluq el ko‘p, biri yo‘q sen kibi shirinharakot.

Terlagan la’li gulob ichramudur gul bargi
Yo‘qsa usruk ko‘zimu soldi araq ichra nabot.

Ko‘nglum ul gulga qilib mayl, fig‘onkim, bulbul
Oriyat istadimu bermadi bir lahza qanot.

Bu chaman ichra xazon sarsaridin sarv kibi,
G‘ami yo‘q tuzluk ila kimki shior etti sabot.

Ko‘r Navoiyniki ko‘ngli uyidur butlar ila
O‘yla butxonaki, anda to‘ladur Lot-u Manot.

84

Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg‘a ayt.

Buki la’li hasratidin qon yutarmen dam-badam,
Bazmi aysh ichra labo-lab bodaoshomimg‘a ayt.

Kom talx-u boda zahr-u ashk rangin bo‘lg‘anin,
La’li shirin, lafzi rangin, sho‘xi xudkomimg‘a ayt.

Shomi hijron ro‘zgoring tiyra nevchun qildi deb,
So‘rmag‘il mendin bu so‘zni, subhi yo‘q shomimg‘a ayt.

Ul pari hajrida nang-u nomkim, tark ayladim,
Ko‘ngul otlig‘ hajr vodiysida badnomimg‘a ayt.

Ey karomatgo‘y, ishim og‘ozi xud isyon edi,
Sham’i rahmat partavi yetkaymu anjomimg‘a, ayt?

Yo‘q Navoiy bedil oromi g‘am ichra, ey rafiq,
Holini zinhorkim, ko‘rsang diloromimg‘a ayt.

85

Xirmani ruxsorig‘a solmish mayi gulnori o‘t,
O‘ylakim, gul xirmanig‘a otashin ruxsori o‘t.

Hajr shomi g‘am sipohin, ko‘rki, ko‘nglum dashtida
Nay yoqibdurlar cherik tushgan kibi har sori o‘t.

O‘t agar itsa jahondin, ohim o‘lsa, g‘am emas,
Yetkuray bir damda yuz avvalg‘i o‘t miqdori o‘t.

Gar harorat mujibi ermas chuchukluk, bas nedur
Har zamon jonimg‘a solmoq la’li shirinkori o‘t.

Fo‘tayi zarbaft emas ul sho‘xi ra’no boshida
Kim, ayon qildi uzori tobidin dastori o‘t.

May batining ko‘r nishotafzolig‘in huzn ahlig‘a
Kim, sochar suhbatni garm aylar uchun minqori o‘t.

Gar Navoiy o‘xshatur ko‘kni tutunga, ayb emas,
Chun bulutqa urmish aning ohi otashbori o‘t.

86

Lolazor ermaski, ohimdin jahong‘a tushti o‘t,
Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmong‘a tushti o‘t.

Dedilar: el xonumonin o‘rtar ul ruxsor o‘ti,
Bu so‘z eshitkach, meni bexonumong‘a tushti o‘t.

Orazingning lam’asi kuydurdi sabrim xaylini,
Barqi ofat choqilib ul korvong‘a tushti o‘t.

O‘qlaring ko‘nglumga tushkach kuydi ham ko‘z, ham badan
Kim, kuyar o‘l-u qurug‘ chun naysitong‘a tushti o‘t.

Sovurub gul xonumoninmu quyun rangin ekin,
Yo falak bedodidin sarvi ravong‘a tushti o‘t?

Kuydum ul damkim, yuz ochding xalqni kuydurgali,
Elga o‘t solding vale, men notavong‘a tushti o‘t.

Ey Navoiy, bilki ohe chekmisham beixtiyor,
Desalarkim, beshayi Mozandarong‘a tushti o‘t!

87

Voykim, dushmandek o‘ldi ahdidin begona do‘st,
Dushmanim o‘ltursa, ahd ettimki, tutmay yona do‘st.

Sog‘arimda zahr-u sahro uzra po‘yam shiddatin
Bilmas ulkim, bor anga hamkosa-vu hamxona do‘st.

Jon qushi o‘rtandi sevgach yorning o‘tlug‘ yuzin,
Naylagay kuymay, chu bo‘lg‘ay sham’ ila parvona do‘st.

Vodiyi hijronda ag‘yorig‘a yor o‘ldum, ne tong
Gar bo‘lur g‘uli biyoboniy bila devona do‘st.

Do‘stluq jonondin istarmen, manga olam eli
Dushmani jon bo‘lsa bo‘lsun, bor esa jonona do‘st.

Ahli din paymonshikandur, qilsa bo‘lmas do‘stluq,
Bas manga mug‘ dayrida ulkim, tutar paymona, do‘st.

Zulfig‘a tushsa Navoiy xoli shavqidin ne tong,
Domdin yo‘q chorasi har qushki, bo‘lg‘ay donado‘st.

88

Bosh qo‘yarmen kup ayog‘inda may ichsam payvast,
Qani mug‘ dayrida mendek yona bir bodaparast?!

Hajridin toki ko‘ngul sindi, oqar turmay qon,
Shishadekkim, to‘kulur bodasi chun topti shikast.

Din havas aylasam, o‘lturmangiz, ey mug‘bachalar
Kim, burun tavba ushatqan kuni bo‘lmishmen mast.

Men-u mayxonaki, soqiy-u mug‘anniy qilmish
Chang zulfi-yu tarab sog‘ari birla pobast.

Joh bazmi aro sarkashlik ila topma g‘urur
Kim, bo‘lur bo‘yla biyiklar yana bir jom ila past.

Yo‘q harifeki, fano dashtida qo‘llar tutushub,
Bo‘lsa yo‘l qat’ida hampoy manga-vu hamdast.

Meni usruk ko‘rubon jomim ushatma, ey shayx
Kim, bu yanglig‘ meni mast etgan erur jomi alast.

Seldin tomg‘a nishast o‘lg‘onidek, dayr ichra
Boda selobidin o‘ldi meni vayrong‘a nishast.

G‘arqi may bo‘ldi Navoiy-u erur o‘yla zaif
Kim, surohiy qilidin solsa bo‘lur bo‘g‘zig‘a shast.

"SE" HARFINING SAMIN GAVHARLARINING SAMARASI "G'AROYIB"DIN

89

Qachonki ul buti shirin kalom qildi hadis,
Xavosi sharbati **"yuhyil-izom"**[1] qildi hadis.

Masih dam ura olmas anga uruj tuni,
Magar bizing mahi ulviyxirom qildi hadis.

Qayonki yozdi hadis, o'ldi sayd el go'yo
Nuqtani dona, xututini dom qildi hadis.

Labidin ayru tushub so'g uchun kitobatdin,
Ne tong, libosin agar mushkfom qildi hadis.

Chibinni shahd nechukkim yig'ar, takallumdin
Ramidalarni nafas ichra rom qildi hadis.

Zihi takallumi mu'jiznizomkim, kelgach,
Arab fasihlarig'a harom qildi hadis.

Ulusni tutti Navoiy so'zi aning birla,
Magar Rasuli alayhissalom qildi hadis.

90

Nutqi jon bermak qilur ul la'li xandon birla bahs,
Rost Iysodekki qilg'ay obi hayvon birla bahs.

Yor derkim, bahs qil ernim bilakim, ne uchun
Ko'nglung olib qasdi jon etti qilay jon birla bahs.

---

[1] **"Yuhyil-izom"** — suyaklarni tiriltiradi; Qur'oni Karim, "Yosin" surasi, 78-oyatidan; 78–79-oyatlar ma'nosi: "U (inson) **o'z asli — yaratilishini unutib, Bizga misol keltirishga o'tdi: "Shu chirib ketgan suyaklarni kim tiriltiradi?!" – dedi.** (Ey Rasulim!) **ayting: "Ularni ilk marta yaratgan Zot tiriltiradi! U har turli yaratishni bilguvchidir!"** *(M. Kenjabek.)*

Ey ko‘ngul, gar aql etar man’i junonim ne jadal,
Ayb erurkim, ahli donish qilsa nodon birla bahs.

Jonni jonon gar tilar, billahki, minnat jong‘adur,
Har nechuk hukm etsa, tegmas jong‘a jonon birla bahs.

Nosiho, qilma jadal, ayril kiyiklardin debon,
Olimi shahr etmagay g‘uli biyobon birla bahs.

Faqr ko‘yida musallam tut ne qilsang istimo’,
Orif ermas har kishikim qilsa irfon birla bahs.

Ey Navoiy, har nechuk zulm etsa, chek, dam urmag‘il,
Kim, gado haddi emas hech ishda sulton birla bahs.

91

Mening junununa gar ul pari erur bois,
Halokima qad ila paykari erur bois.

Dema, nedin kuyasenkim, aning yuz-u labidin
Bu ishga shu’la bila axgari erur bois.

Ko‘ngul qushi tun-u kun mulki boxtar sari
Havo qilurg‘a mahi xovari erur bois.

Mangaki, g‘amzasidin o‘lmisham, hayoti abad —
Xayolig‘a labi jonparvari erur bois.

Chamanda bulbul etar shavq nuktasin takror,
Ki, gul varaqlarining daftari erur bois.

Ul oy firoqida ashkim oqarg‘a shom-u sahar,
Tulu’yi Zuhra bila Mushtariy erur bois.

Ko‘ngulni chok-u bag‘irni shikof istarima
Aning qilichi bila xanjari erur bois.

Hamesha dayr ichida bo‘lmog‘img‘a mug‘bachalar
Karashmasi-yu fano sog‘ari erur bois.

Navoiy o‘lmasig‘a ozimi Iroq-u Hijoz
Magar nazohati mulki Hiriy erur bois.

“JIM” HARFINING JAMILALARINING JILVASI “G‘AROYIB”DIN

92

Buzug‘ ko‘ngulga fano bo‘lsa kom, cheksun ranj
Ki, ranj chekmasa hargiz muyassar o‘lmas ganj.

Agar kishiga chekib ranj, ganj bo‘ldi nasib,
Desa bu ganjni asray, yo‘q andin ortuq ranj.

Kishiki naqdini vazn aylabon qilur madfun,
Bu g‘ussasanjdur, olg‘an kishi–farog‘atsanj.

Yilon kibi, ne ajab, ganj asrag‘an kishining
Hamesha komida gar zahr erur, tanida shikanj.

Zamona johi uchun har g‘ululayi tashvish
Ki, kelsa ko‘nglung uyini anga qilursen xanj.

Desangki, fard o‘lay eldin ko‘ngulni xoliy tut
Ki, toq derlar agar xanj sari otsang lanj.

Boshi quyidurur ozoda savsan ollinda,
Chu nargis o‘ldi chaman maxzanida naqd-ul-fanj.

Tariq kibi so‘yulur talxkomliq birla,
Tarig‘-tarig‘ki, yig‘ishturdi oltunin noranj.

Itur ko‘ngul haramidin xavotir asnomin,
Navoiy, o‘lsa maqoming Madina, gar Afranj.

93

Ey gadoyingning gadoyi barcha ahli taxt-u toj,
Kim, gadoyingdur, anga yo‘q taxt ila toj ehtiyoj.

Ko‘zlaring oz jurm uchun qilsa itob ermas ajab,
Bor muayyankim, bo‘lur bemorlar nozuk mizoj.

Gar sanavbar tuzmamish sarving xilofin ko‘nglida,
Yel chinor ilgi bila nevchun urar yuziga koj.

Eyki, ko‘nglumni buzub, dersen, xayolimni chiqar,
Hech kim vayronadin ganj istamas hargiz xiroj.

Sen jafo qilg‘ach, ko‘ngul jon birla tarkim tuttilar,
Bo‘lsa shah zolim, el ichra zulmg‘a ermish rivoj.

Hajrdin dod istadim, deding, sabur o‘l, voykim,
Toza dog‘img‘a yonar o‘t birla aylarsen iloj.

Chun fano gardi yopar, ne sud, taxti johinga,
Ko‘kning anjumdin mukallal atlasin qilsang duvoj.

To gadoyingdur Navoiy taxt ila toj istamas,
Ey gadoyingning gadoyi barcha ahli taxt-u toj.

94

Charx izing gardiga qildi kavkabi sayyor xarj,
Javhar olmoqg‘a g‘aniy qilg‘an kibi dinor xarj.

Soyir-u sobit nisoring qilsa tong yo‘qkim, bo‘lur
Kechqurun shoh o‘lsa mehmon, kimsaga bisyor xarj.

Naqdi rahmat xarjing etsa Haq, ne tong, ulkim topar
Sen kibi mahbubi vaslin, aylagay nochor xarj.

Fosh etib naqdi shafoat qilding ummatni xalos,
Aylagandek naqdini topqan qiziq bozor xarj.

Bahri rahmatdinki, topting, xalq uza bir qatra bas.
Garchi teng avlodur etmak daxl ila izhor xarj.

Mag'firat ganji sanga tamlik erur, moni' emas,
Aylasang isyoni ko'p ummatqa har miqdor xarj.

Sen kim-u na'tin demak, til asrag'il ko'p nuktadin,
Ey Navoiy, ma'rifatni qilma har ne bor xarj.

95

Mayi la'ling erur jon birla mamzuj,
Yo'q ersa obi hayvon birla mamzuj.

Jigargundur sirishkim, negakim bor
Bag'ir bu ashki g'alton birla mamzuj.

Jahonni buzdi ashkim oh ilankim,
Erur sarsar bu to'fon birla mamzuj.

Qo'shuldi ko'zlarimning ashki vahm et
Ki, Qulzum bo'ldi Ummon birla mamzuj.

Ko'ngul qon bo'ldi-yu ishqing o'tidin
Bu qon mahlul paykon birla mamzuj.

Yuziga tushti zulf, aylang nazzora
Ki, bo'ldi kufr imon birla mamzuj.

Manga har mayki, tutti soqiyi davr,
Burun qildi ani qon birla mamzuj.

Mayi vasl istama ko'p, ey ko'ngulkim,
Erur ul zahri hijron birla mamzuj.

Navoiy suri motam bo'ldikim, bor
Surudi ayshi afg'on birla mamzuj.

“CHIM” HARFINING CHOBUKLARINING CHEHRAKUSHOYLIG‘I “G‘AROYIB”DIN

96

Ko‘ngullar nolasi zulfung kamandin nogahon ko‘rgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon ko‘rgach.

Ko‘ngul chokin ko‘zumda ashki rangin elga fosh etti,
Balig‘ zaxmini fahm aylarlar el daryoda qon ko‘rgach.

Ko‘zum qon yosh to‘kar, netib ko‘ngul zaxmin yashuraykim,
Toparlar yerda zaxmin sayd qonidin nishon ko‘rgach.

Bo‘yolg‘an qon aro jon pardasi yetkach g‘ami hajring,
Ko‘ngul bog‘ida bargedurki, ol o‘lmish, xazon ko‘rgach.

Xadanging zaxmi ichindin balolarni yug‘an yoshim,
Erur tifleki, olg‘ay qush bolasin oshyon ko‘rgach.

Ko‘ngullar naqdini taroj etarga yopmog‘ing burqa’
Aningdekdurki, yuz bog‘lar qaraqchi korvon ko‘rgach.

Yuzin zulf ichra to ko‘rdum o‘lub vaslig‘a yetmasmen,
G‘alat ermish yuz urmoq, kecha o‘tni har qayon ko‘rgach.

Erur chun olam ichra joh foniy, yaxshi ot boqiy,
Bas el komin ravo ayla o‘zungni komron ko‘rgach.

Navoiy, xurdayi nazmingni andoq aylading tahrir
Ki, sochqay xurda boshing uzra shohi xurdadon ko‘rgach.

97

Jamolin vasf etarmen hamdamim ul gul’uzor o‘lg‘ach,
Quruq shox o‘ylakim zohir qilur gullar, bahor o‘lg‘ach.

Qoshin ko‘rgach hasaddin istaram el ko‘zi bog‘lang‘ay,
Nechukkim ko‘z tutarlar el yangi oy oshkor o‘lg‘ach.

Junun ermas kiyiklar suhbati dermen manga shoyad,
Bir o‘q teggay g‘alat, ul qoshi yo garmi shikor o‘lg‘ach.

Havas ishq aylagan ozoda, kechkil bu xayolingdin
Ki, chiqmas bu tikan ko‘nglungda nogah ustuvor o‘lg‘ach.

Deyolmas dard ila ittim, vale bilgilki, chekmishmen,
Bir ohe barcha olam g‘ussa dudi birla tor o‘lg‘ach.

Qilib man’i jununum ul pari ko‘yiga yuzlangan
So‘zi hashv erkanin fahm aylagay, beixtiyor o‘lg‘ach.

Qani Hotam, qani Qorun, qani Jamshid-u Afridun?
Bas ehson qil sanga gardundin adno e’tibor o‘lg‘ach.

G‘ururi jahl jomi birla mast o‘lmaki, o‘lmakdur,
Maozallah, bu mayg‘a charx davridin xumor o‘lg‘ach.

Navoiy sham’dek yig‘lab, kuyub holimni sharh aylay,
Ul oy bazmida bir tun rost oshiqlarg‘a bor o‘lg‘ach.

98

Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham’ ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.

Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzungga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?

Tiyg‘ ila paykonlaring yetti ko‘ngul bo‘lg‘och xarob,
Suv qo‘yub tuxm ekting, ul kishvarni vayron aylagach.

Qon emaskim, yopti gulgun hulla jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.

Oshkor aylab yuzin ko‘zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko‘ngul ko‘zumni hayron aylagach.

Jong‘a qo‘yg‘ach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok,
O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.

Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglungni majruh etmadi,
Bas nedurkim, qon kelur og‘zingdin afg‘on aylagach?!

99

Yetishsa ishq aro yuz mehnat-u balo, qadah ich,
Nafas-nafas quyubon may to‘la-to‘la qadah ich.

Mukaddar o‘lsa zamiring zamona mehnatidin,
Agar desang, beray ul ko‘zguga jilo, qadah ich.

Nishot bazmida soqiyi mohvash sarxush
Bosh ursa dag‘i ayog‘ tutsa, qo‘l sola qadah ich.

Jahon ishida boqib xalq ibtilolarig‘a,
Alardek istamasang o‘zni mubtalo, qadah ich.

Desang xalo-u maloda bo‘lay nishot bila,
Agar malo, qadah ichkil, vagar xalo, qadah ich.

Riyo ichinda nekim hosil etting, ey zohid,
Desang xalos o‘lay, et rahn-u hosilo, qadah ich.

Sangaki dayr elining shohisen, Navoiy, agar
Yo‘luqsa dayrda maxmur, urub salo, qadah ich.

100

Faqr ahlig‘a podsho muhtoj,
O‘ylakim shohg‘a gado muhtoj.

Yorg‘a bilgach ehtiyojimni,
Bo‘lmadim kimsaga yana muhtoj.

Ishtiyoqim ko‘p, ehtiyojim ham,
Anga mushtoqmen vayo muhtoj.

Yo‘q gadolig‘da ixtiyorimkim,
Tengri qilmish meni sanga muhtoj.

Ko‘yiga kirganimda tavsan edim,
Lek bo‘ldum tura-tura muhtoj.

Tengri razzoq keldi, ro‘zi uchun
Aylama o‘zni xalq aro muhtoj.

Benavodur Navoiy ollingda,
Tong emas, bo‘lsa benavo muhtoj.

“HE” HARFINING HAROMIYLARI HUSNOROYLIG‘I “G‘AROYIB”DIN

101

Zihi tiling ana afsah takallumida fasih,
Sen amlah o‘ldung, agar dilrabolar o‘ldi malih.

Tulu’yi subhi saodat yuzung sabohatidin,
Zihi kamoli sabohat, zihi jamoli sabih.

Xamiri moyayi jismingdin ortqanni qazo,
Iki badanda qilib ruh atadi Xizr-u Masih.

Falakni chok qilib o‘tganingda gar ba’zi
Tavahhum ayladi, shaqqul-qamarda bo‘ldi sarih.

Qadam quyosh uza qo‘ydung uruj shomi ne tong,
Kafingni gar yadi bayzog‘a qilsalar tarjih.

Erur kalomekim, anda hurufi illat yo‘q,
Qayu hadiski, sendin bayong‘a keldi sahih.

Emas Navoiy-u madhing demakka had, basdur
Anga bu qadrki, modihlaringg‘a bo‘lsa madih.

102

Badang‘a kelmadi to azmi ko‘yung ayladi ruh
Ki, ruh shaxsini ul g‘amza ayladi majruh.

Hayotbaxsh esa ul hur aksidin boda,
Mahalli hayrat emas, hur aksidindur ruh.

Qizardi lola-vu sarg‘ardi subh xijlatdin,
Bu lolalarki, uzoringda ochti jomi sabuh.

Vafog‘a va’da qiliptur deb o‘tma, ey qosid,
Xudoy uchun manga kayfiyatin degil mashruh.

Hayot yor visolidur, ey ko‘ngul, yo‘q esa,
Seni firoqda farz aylayinki, bo‘ldung Ruh.

Buyurma tavba yana, nosihoki, mug‘bachalar
Havosi qildi meni tavba tavbasida Nasuh.

Fig‘onki, tiyra ko‘ngul kunjida nihon rozim
Piyola sha’shasidin el ichra topti vuzuh.

Baso kishiki, ishi masjid ichra band o‘ldi,
Chu ochti dayri fano eshigin yetishti futuh.

Navoiyo, nedin ul g‘amza tiyg‘ tortibdur,
Gar istamaski, ko‘ngul saydin aylagay mazbuh.

103

Ko‘ngulni mug‘bacha oldi mug‘ona tut aqdoh
Ki, yo‘q saloh ila bo‘lmog‘liq emdi bizga saloh.

Bir oy firoqida bexudlug‘ istaram to‘la tut,
Agar qilib esang aflok jirmidin aqdoh.

Halol bo‘ldi xaroboti ishq ahlig‘a may,
Tutarbiz ahli vara’, kimki ani tutsa muboh.

Hayotbaxsh labing ruh emishtuk, ey soqiy,
Magarki vovini i’lol etib qilibsen roh.

Yo‘q ersa jismda ul hosil aylagan qondin,
Hakim ne uchun ajzosini dedi arvoh.

Saboh maykada bog‘lig‘dur-u xumorim tund,
Taajjub etmang, agar zikrim o‘lsa, yo Fattoh.

Ne erdi maykada g‘avg‘osi, raz qizin go‘yo
Bu shom qildi Navoiyg‘a piri dayr nikoh.

104

Nega, ko‘rguzdi sovug‘ oh-u sarig‘ ruxsor subh,
Gar nihoniy mehrdin mendek emas bemor subh?

Gar havoyi bo‘lmasa men telba yanglig‘, bas nedur,
Ko‘nglakin chok aylabon tog‘ uzra Majnunvor subh?

Mehrdin mendek nihoniy toza dog‘i bo‘lmasa,
Yuzda nevchun kavkabi ashkin qilur izhor subh?

Dema shingarfiy bulut har yon erur qonlig‘ momuq,
Toza dog‘idin erur mendek magar xunbor subh?

G‘am tuni ohim sharoridin tutashti ko‘kka o‘t
Kim, aning otin qo‘yuptur gunbadi davvor subh.

Kun shuoiy xatlari ermaski tutmish motamim,
Yuzni anjum tirnog‘i birla qilib afgor subh.

Soqiyo, tutqil sabuhiy bodakim, bu dayrdin,
Biz ketib bu nav’ toli’ bo‘lg‘usi bisyor subh.

Ey Navoiy, istasang barg-u navo bu bog‘ aro,
Guldek o‘l roki’ kecha, bulbul kibi bedor subh.

105

Ro‘za-u gul yetti-yu ichmas ul oy gulgun qadah,
Ne ko‘ngul xushluq bila tortay meni mahzun qadah?

Yo meni mahrumg‘a xunobayi hijron berib,
O‘zga mahramlar bila ul oy chekar gulgun qadah.

Bore har taqdir ilakim, bor meni labtashnag‘a
Tutmas ermish zahri g‘amdin o‘zga dahri dun qadah.

Soqiyo, bu g‘ussa daf’i mast-u bexudlug‘durur,
Tut shafaqgun may to‘la gar xud erur gardun qadah.

Ro‘za oyin ko‘rmay ilgingdin qadahni solmag‘il,
Lek ol bayram hiloli ham ko‘rungan tun qadah.

Jom erur men telbaga qonlig‘ ko‘zumning kosasi,
Lolalar sahroda bas, gar istasa Majnun qadah.

Chun fano dayrig‘a kirdim boda tut, ey piri dayr,
Zarf xoh eski safol o‘lsun, vagar oltun qadah.

Yuz qadah qilg‘il murassa’kim chekarsen jomi marg,
Hech kim xud topmadi Jamshiddin afzun qadah.

Ey Navoiy, bizni yod etkaymu barqandon kuni
Ichsa jomi Jam tilab soniyi Afridun qadah?

106

Ey manga jonbaxsh gulbargi taringdin toza ruh,
Toza-toza har biri shavqin solib ovoza ruh.

Ruhi mahz ul toza-vu tar sarvi ra'nodek qading,
Ne ajab bo'lsa ravon bo'lg'anda elga toza ruh.

Ko'yi gardidin o'luk jon topsa tong yo'q, negakim
Tufrog' o'ldi ko'yida behadd-u beandoza ruh.

Bo'lg'usi jonon kibi bo'lsa mujassam surati,
Hulla kiysa surtubon jannat gulidin g'oza ruh.

Chiqti jondin paykar aylab noz-u husn izhor etib,
Zor ul paykarga jon, vola bu husn-u noza ruh.

Shavq tiyg'i birla solik aylasa ko'nglini chok,
Fayz shahristoni sayrig'a topar darvoza ruh.

Ey Navoiy, shukrkim, yo'l topti jonon ko'yiga
Hajr shomi zulmatida yo'lni oza-oza ruh.

"XE" HARFINING XO'BLARINING XIROMI "G'AROYIB"DIN

107

Gadoyi faqr ila so'z ayta olmas podsho gustox,
Shah ollinda nechukkim, dam ura olmas gado gustox.

Ne quvvat birla shah gustox so'zlashgay aning birla
Ki, vahm etgay boshig'a soya solmoqtin humo gustox?

Uruj istar esang bu dayr ichinda foniy o'lg'ilkim,
Malak uzra qadam bosib o'tar ahli fano gustox.

Balo ichra dalir urma qadam to oshiq o‘lmaysen,
Samandar bo‘lmag‘uncha kirsa bo‘lmas o‘t aro gustox.

Ne muhriq vodiy ermish ishq ko‘yi dashtikim, ul yon
O‘ta olmas samum o‘lmoq harosidin sabo gustox.

Shujoat birla kirmak kulbayi faqr ichra bo‘lmaskim,
Bu vayronni qila olmas vatan har ajdaho gustox.

Chu topmas har nekim taqdirdur, bu dayr aro tag‘yir,
Adab ermasdurur qilmoq har ishni muddao gustox.

Ne nozuk xo‘yi bor ul dilraboningkim, niyoz ahli,
Shikoyatqa ne yetgaykim, deyolmaslar duo gustox.

Navoiy ishq istig‘nosini to angladi, vahkim,
Qila olmas fig‘on forig‘, cheka olmas navo gustox.

108

Bahor sensiz o‘luptur manga ajab do‘zax,
Qizil gul anda o‘t-u oq shukufalardur yax.

Bahor sensiz agar do‘zax o‘lsa tong ermas,
Bihisht ichinda liqo bo‘lmasa erur do‘zax.

Xayoli xayli ko‘zumga kelurgadur go‘yo,
Yuzumki yo‘l-yo‘l o‘luptur sirishkdin rax-rax.

G‘arib kelmadi shirin labingg‘a achchig‘ so‘z,
Emas g‘arib chuchuk meva bo‘lsa xastag‘a talx.

Ko‘ngul fano kuchidin zo‘rboz-u istarkim,
Vujud panjasini anglamish bag‘oyat shax.

Navoiy egni yalangdur demangki, bordur anga
Fano hasiri, balo xorasi nasij ila nax.

Magar shah ashhabi ollinda payk bo‘ldi sipehr
Ki, qilmish o‘n kechalik oyni egnida nochax.

109

Tong emastur, bo‘lsa har sarvi pariruxsor sho‘x,
Lek erur sarvi pariro‘yum mening bisyor sho‘x.

Gar mening sho‘xi sitamkorim parizod o‘lmasa,
Mumkin ermas odamiy bo‘lmog‘lig‘ ul miqdor sho‘x.

Turmasa qon bu kecha ko‘ksum shikofidin ne tong
Kim, erur ko‘nglumga kirgan chobuki ayyor sho‘x.

Vah, ne tong har lahza betoqatlig‘imkim, dilbarim
Bovujudi husn, ham shirin erur, ham bor sho‘x.

To yetishgay jong‘a yetkurgan ko‘ngulga yuz balo,
Shukr etarmenkim, nasib o‘lmish manga dildor sho‘x.

Sho‘xlardin tuz qadam qo‘ymoq chu kelmas, voqif o‘l
Kim, sitamgar chobukedur charxi kajraftor sho‘x.

Gar desangkim jong‘a yetmay har zamon bir javridin,
Ey Navoiy, pand eshit, yor istama bisyor sho‘x.

110

Vahki, hijron sharbatidin bizga bo‘ldi kom talx,
Har kishi zahr ichsa bo‘lg‘ay kom anga nokom talx.

Hajr yetsa may bila dedim ovung‘aymen, va lek
Yorsiz bor ermish ichmak bodayi gulfom talx.

Shomi hajrimdin ne ogah ulki hijron tunlari
Tongg‘a tegru to‘kmadi sho‘robani bir shom talx.

Sharbati sabr otini tutmangki, bir oy hajridin,
Og‘zima hayvon zulolin aylamish ayyom talx.

Og‘zidin achchig‘ so‘z aytib zohir etsa zahrchashm,
Ayb emastur pista sho‘r-u tong emas bodom talx.

Jomi hijron chekkali bildimki, javring sa’b emas,
May necha talx o‘lsa, ko‘rmas oni zahroshom talx.

Nosabur o‘lmas ko‘ngulga yetsa xunobi firoq,
Ne uchunkim talx may ichkandin o‘lmas jom talx,

Umr shahdi bas chuchukdur, lekin oxir qilmasa
Marg zahri birla oni dahri nofarjom talx.

Vasl jomidin, Navoiy, elga bo‘ldi bahra no‘sh,
Vahki, hijron sharbatidin bizga bo‘ldi kom talx.

111

Soldi bir oydin ayru meni ibtilog‘a charx,
Qoldik o‘z oyi hajrida mendek balog‘a charx.

Gar xonumonim istamas erdi qaro, nedin
Qildi asir ul ko‘zi, qoshi qarog‘a charx?

Farhod birla Vomiq-u Majnun chiqib edi,
Soldi meni alar avazi deb arog‘a charx.

Ul ne quyoshdururki bajuz sadqa aylamak,
Topmas anga o‘zin necha qilsa marog‘a charx.

Ne rev-u makr erurki, kirib ishq yo‘lidin,
Bechora qildi saltanat ahlin gadog‘a charx.

G‘am shomi bordi ul quyosh andoqki, gardini
Topmas tilab o‘kush ko‘z ila to‘tiyog‘a charx.

May tutki, foniy o‘ldi falakdin base bino,
Hargiz xalal yeturmadi dayri fanog‘a charx.

Ahli vafo yo‘q ersa, ne tong, charx javfida
Hargiz chu mayl qilmadi rasmi vafog‘a charx.

Taqdirdin ne kelsa, Navoiy, itoat et
Kim, sen kibi zabun erur amri qazog‘a charx.

112

Xonaqahda halqayi zikr ichra g‘avg‘o qildi shayx,
Ahli dillar naqdi avqotini yag‘mo qildi shayx.

Ul biri dom erdi, bu bir dona el saydi uchun,
Har qachonkim azmi tasbih-u musallo qildi shayx.

Yo xayoli bang yoxud xonaqah fikri edi,
Har karomot-u maqomoteki ifsho qildi shayx.

Kaf sochib, faryod etib, sekrib, parivashlarni sayd
Qilg‘ali, devonalig‘lar oshkoro qildi shayx.

To‘q chiqib xilvatdin, o‘zni ro‘za deb, juhholdin
Asru ko‘p nodonni o‘z tavrig‘a shaydo qildi shayx.

Bovujudi masx-u nodonlig‘ murid aylar uchun
Ko‘p o‘zidin masx-u nodonrog‘ni paydo qildi shayx.

Dayr pirining muridimenki fayzi om erur,
Xonaqahda fayzi om eldin tamanno qildi shayx.

Dayr aro tindi qulog‘im, rohibo, zikring baxayr
Kim, sahar zikr ayturida ko‘p alolo qildi shayx.

Ey Navoiy, xirqasin berdi, karomat ayladi
Kim, manga tartib vajhi rahni sahbo qildi shayx.

113

Sochingki har taraf ayirdi bir muanbar shox,
Hayot gulshanining sunbulidurur har shox.

Boshingdin ayrilibon shox-shox kim ko‘rmish
Bu nav’ sunbuli tar bo‘lg‘anin sarosar shox.

Yashil to‘n-u iki yeng birla qomating ul sarv
Ki, ikki yonidin ayrilmish ikki axzar shox.

Qading xiromida ilging jafosi o‘ksumadi,
G‘arib naxlki, doyim anga berur bar shox.

Labingki, bodayi la’l andin oqti mast o‘lg‘ach,
Erur mushobihi marjon-u anda ahmar shox.

Qadi hayotim erur, ursa tosh-u tortsa tiyg‘,
Bu naxldin xush erur gar samardurur, gar shox.

Chu yog‘di toshi Navoiyg‘a ko‘p shikast o‘ldi,
Quruq yig‘ochqa yog‘ib jola sindi aksar shox.

“DOL” HARFINING DILOROMLARINING DAVRONI “G‘AROYIB”DIN

114

Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,
Suratda sanga volid, ma’noda sanga farzand.

Yusufki, jamol ichra ma’dum edi monandi,
Topmadi malohatda husnini sanga monand.

Iso damidin o‘lgankim, ruh topar erdi,
Bilgachki, topar dining, jon topti bo‘lub xursand.

Davron chamanidin sen ul lahzaki, chiqding, gul
Tirnog‘lar ila qildi ruxsorini yuz parkand.

Shahlarg‘a gado andoqkim keldi bukun muhtoj,
Tongla bo‘lubon shahlar ehsoniga hojatmand.

Gesu sanga bo‘lmishdur chun silsilayi maqsud,
Majnunung erur jonlar, qil silsila birlan band.

Shakkarga azubatda nutqung ne ajab kulsa
Kim, erninga esh bo‘lmish axloq aro shakkarxand.

Yo‘q bo‘ldi kalomingdin asfori samo barcha
Asfori samoviydin bo‘lg‘an kibi yo‘q “Pojand”.

Ne kelsa Navoiyg‘a sendin yuz evurmaskim,
Ul zarra durur, sen — mehr, ul banda-vu sen — xovand.

115

Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.

Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla
Qilay payvand bore, qilmag‘il noahl ila payvand.

Ko‘ngul komini qo‘y, gar xud mening devona ko‘nglumni
Toparsen, ayla yuz parkand-u sol har itga bir parkand.

Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,
Qila olsang, eshitgil pand. Sen kim, elga bermak pand?!

Bu foniy dayr aro gar shohlig‘ istar esang, bo‘lg‘il
Gadolig‘ nonig‘a xursand-u bo‘lma shahg‘a hojatmand.

Bo‘lub nafsingg‘a tobi’, band etarsen tushsa dushmanni,
Senga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.

Shakarlablar tabassum qilg‘anin ko‘rgach ko‘ngul berma
Ki, bedillarni achchig‘ yig‘latur oxir bu shakkarxand.

Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen, lek bandingdur,
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qayd-u qand erur monand.

Ko‘nguldin jahl ranji dofii gar istasang bordur,
Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

116

Yop ul yuz oyinasin cheksam ohi dardolud,
Bu vajhdinki, qilur mayl xo‘blar sari dud.

Jahonki, ohim ila tiyradur emas mumkin,
Bu shom daf’i yuzung subhi bo‘lmayin mavjud.

Yuzungda har saridin egma qosh erur yoxud
But ollida iki hindug‘a voqi’ o‘ldi sujud.

May ichti deb meni yozg‘urmang, ey musulmonlar
Ki, rahmatidin emas noumid gabr-u juhud.

Qadahki, dayrda istarmen ushbu ko‘zgudin,
Bilingki, mug‘bacha aksi erur manga maqsud.

Qovarlar itlari ul ko‘y aro fig‘onimdin,
Ne itki, ko‘p ulusa, el aro bo‘lur mardud.

Dedimki: sud qilay jon berib visoli uchun,
Navoiyo, chu firoqida umr kechti, ne sud?!

117

Qoshing mehrobini vasl ahli etmish qiblayi maqsud,
Boshim yuz qatla ursam yerga hajringdin manga ne sud?!

Ichimda ishqdin yuz barq-u dam urmoqqa zahram yo‘q,
Uy ichra o‘t solib, vah, mushkil ermish asramog‘lig‘ dud.

Yada toshig‘a qon yetgach yog‘in yog‘qondek, ey soqiy,
Yog‘ar yomg‘urdek ashkim chun bo‘lur la’ling sharobolud.

Chu qo‘ydung dog‘ tindurdung ko‘ngulni darding istardin,
Diram birla gadoni o‘ylakim, qilg‘ay kishi xushnud.

Junun bu bo‘lsakim, yog‘di parivash tifllar toshi,
Munosibdur bu toshlar aql eshigin qilg‘ali masdud.

To‘kuldi gul, fig‘on bas qildi bulbul, shukrkim, bore
Sening husnung, mening ishqimda nuqson bo‘lmadi mavjud.

Tun-u anjum dema, davrong‘a rohat qilmasun deb mayl,
Qazo gulmixlar qoqti qilib gardunni qiyrandud.

Xarobot-u munojot ahlining matlubi sendursen,
Manga ko‘rsatmasang yo‘l, naylayin qay soridur behbud.

Navoiy, Ka’ba zikrin qo‘yki, biz dayri fano istab
Zahabno vodiyal-maqsad, vajadno mo huval-maqsud.

118

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,
Bulbul kibi hajringda ishim nola-vu faryod.

Sayd o‘ldi ko‘ngul ko‘zlaringa, vah, qutulurmu
Bir qushki, aning qasdida bo‘lg‘ay iki sayyod?

Ul maktab arokim o‘qudung noz rumuzin,
Go‘yoki, vafo ilmin unutmish edi ustod.

Ashkimni ko‘rub tez bo‘lur ko‘ngli jafog‘a,
Ore, itimas chunki suyi bo‘lmasa fo‘lod.

Mingdin bir emas o‘z yuragi zaxmlaridin,
Har nechaki tog‘ bag‘rini zaxm ayladi Farhod.

O‘lugni kishi dafn eta olmas, vale har kun
Yuz tiyg‘ qilur dafn ko‘zung bo‘lg‘ali jallod.

Gul yafrog‘i tirnog‘lar erur bu chaman ichra,
Bulbul par-u bolini yulub bergali barbod.

Ne ayb, Navoiy kibi devonalig‘ etsa,
Har odamiykim, bo‘lsa aning yori parizod.

119

Aylamas har nav’ bo‘lsam ul buti ra’no pisand,
Bo‘lmag‘an ko‘p yaxshiroq olamda mendek nopisand.

Umr o‘tub bir xidmatim ul oy pisandi tushmadi,
Vah, ne umr erkin, ne qilsam aylagay oyo pisand?

Yor agar mushkilpisand o‘lmish ko‘rung mushkilki, bor
Menda yuz mushkil ish, ul qilmas birin ammo pisand.

Ishqida qildim jahondin qat’-u jondin ham, ne sud,
Chunki ul jon-u jahonim aylamas qat’o pisand.

Ey ko‘ngul, kuydur tama’ tuxmin, tamanno mazrain,
Bu ekinni chunki hargiz qilmadi dono pisand.

Davlati faqr istagil, nevchunki bor, ul ko‘y aro
Sidq ila kirgach, agar a’lo-vu gar adno pisand.

Chun fano sholini kiydim atlasing yig‘, ey sipehr
Kim, bu bozor ichra ermas hargiz ul kolo pisand.

Soqiyo, ber o‘tki, kul qilg‘ay vujudum xirmanin,
Aylaman hayvon suyinkim, aylagay ihyo, pisand.

Bu ne aql-u zuhd bo‘lg‘ay, zohidokim, qilmag‘ay,
Men kibi olamda bir devonayi rasvo pisand.

Kech bu bog‘-u gullaridin ham Navoiykim, emas
Ahli tahqiq oldida dunyo-vu mofiho pisand.

120

Topqali xokiy tanimg‘a novaki ishqing kushod,
Ko‘nglum aytur xayra maqdam, jonim aytur xayrbod.

Xatmudur yoxud bayozida yuzining kilki sun’
Xo‘blug‘ tug‘rosini zangor ila qildi savod.

Xattining vasfin yozarmen kirpik-u xoli bila,
Xat yozarda chun zaruratdur qalam birla midod.

Ta’n qilmangkim, bo‘lub oshiq murode topmading
Kim, erur bizga bu ishtin nomurod o‘lmoq murod.

Kirdi gar shaydo ko‘ngul, ey ishq, nosih pandig‘a,
G‘am yema devonalar xo‘yig‘a bo‘lmas e’timod.

Bu nafaskim o‘lgali yetmishbiz aning yodidin
Ul Masiho bir iyodat birla qilmas bizni yod.

Ey Navoiy, g‘am yema boshingg‘a bo‘lsun mustadom
Ulki, bordur vorisi taxti Jam-u toji Qubod.

121

Orazing mushtoqidur bu ko‘zki, bo‘lmish dardmand,
Garchi bordur dardlig‘ ko‘zga yorug‘luqtin gazand.

Dard o‘tin yoqti ko‘zumga hajr, chun ko‘rdum yuzin,
Kuydurur, albatta, har doruki, bo‘lg‘ay sudmand.

Bu qizarg‘an ko‘z aro mardum emaskim, el ko‘zi
Tegmasun husnungg‘a deb o‘t uzra solibmen sipand.

Tokim ul bemor ko‘z oshuftasi bo‘lmish ko‘zum,
Istabon jinsiyat og‘riq shevasin qilmish pisand.

Ko‘zlarim la’lig‘a hamrang o‘ldi, vah, ne hol ekin
Kim, bu achchig‘ yig‘lag‘an soyi ul aylar no‘shxand?

Ko‘zni bir iz tufrog‘idin ravshan etkim, sud emas
Shofi kofuriy chekib, osmoq anga mushkin parand.

Ul quyosh hajrinda bilmankim, Navoiy ko‘ziga
Barcha olam tiyradur yo bog‘lamishdur chashmband?

122

Chekar un ko‘nglum ursang tiyg‘i bedod,
Ne tong, su quyg‘ach etmak shu’la faryod?

Ko‘ngul sensiz topar g‘am shodlig‘din,
G‘aming yetgach, vale aylar ani shod.

Ne tong majnunlug‘umkim, jilva aylar
Ko‘zumga lahza-lahza bir parizod.

Ko‘ngulni, soqiyo, maydin qilib xush,
Buzug‘ni sel ila aylarsen obod.

Meni shod aylagil bir jur’a birla
Ki, g‘amdin jong‘a yetti joni noshod.

Sanam ollida maydin bosh ko‘tarman
Ki, qildi dayr piri mundoq irshod.

Sening yoding bila o‘ldi Navoiy,
Tirig bo‘l, garchi oni qilmading yod.

123

Jilvada husn ahli ichra ko‘rmisham bisyor qad,
Qomatingdek zohir etkan ko‘rmadim raftor qad.

Ko‘yiga borurg‘a yo‘l berdi alifdek fol aro
Chunki men qildim tafa’ul, zohir etti yor qad.

Ne sanavbar qoldi o‘z holida, ne gul bog‘ aro,
Gul kibi yuz birla ko‘rguzdung sanavbarvor qad.

Yuz ko‘ngul birla sanavbar bedil o‘lg‘ay qaddig‘a,
Jilva bersa, zorlar ko‘nglin olib dildor qad.

Sun’ kilki bir alif chekmish qadinkim, o‘xshamas
Bir anga husn ahli tortib mashq uchun bisyor qad.

Ozimi mayxonamenkim, nogah ul jonib manga
Ko‘rguzub qildi nihon ul mahvashi xammor qad.

Ey Navoiy, ul quyosh vaslin gadolig‘ qilg‘ali,
Zohir aylabmen sarig‘lig‘ dalq-u gardunvor qad.

124

Mendin el har so‘z desa, bovar qilur ul sarvqad,
Yo‘q manga so‘z derga had, har ne desam ham barcha rad.

Chun desa maqbullar ko‘p nukta, men mardudmen,
Menki qavlum barcha rad, so‘z derga topqaymenmu had?

Bevafo ahbobdin bir ham manga bo‘lmay mumid,
Turfa ko‘rkim, barcha aylar muddaiy sori madad.

Turfaroq budurkim, ulkim jon anga qildim fido,
Bovar aylab holima har neki, deb ahli hasad.

Dahr elidin go‘sha tutmoq bo‘ldi avlo o‘ylakim,
Tutmag‘ay ul qavm otin, topsa kishi umri abad.

Soqiyo, behushdor-u ez, dag‘i tut bodakim,
Andin o‘lsun hushdor-u o‘yla zoyilkim xirad.

Rindlar sarxayli mendurmen bugun dayr ahlig‘a,
Maykada tufrog‘idin masnad manga basdur sanad.

Ishq vodiysinda maqsad ichradur avval qadam,
O‘zlugung ko‘hi balosi bo‘lmasa ollingg‘a sad.

Ey Navoiy, qil fano hosilki, istar chog‘da do‘st
Belga rust aylab etak tebrarga bo‘lg‘aysen muad.

125

Yo‘qki ohimdin qilibdur tiyra bu vayronni dud
Kim, qorong‘u aylamish vayronayi davronni dud.

Dudi ohimkim, chiqar uy tunglukidin butrabon,
Doshxona aylamish bu kulbayi ahzonni dud.

Oh dudim-u ekin yo ishq uyumga soldi o‘t,
Buki tutmish hujra-vu gunbadni dud, ayvonni dud.

Hajr zindoni siyahchol o‘ldi ohim dudidin,
Emdi zindon etti ishq ahlig‘a bu zindonni dud.

Oh vaqti chun oqar ashkim qaro hijron tuni
Muhraye aylar shaba har bir duri g‘altonni dud.

Tiyra ohim har dam andoq to‘lg‘ashur bo‘g‘zumg‘akim,
Chiqqali qo‘ymas ko‘nguldin nola-vu afg‘onni dud.

Kecha ul oy ko‘yi davrida chekibmen o‘tlug‘ oh,
Xayli anjumni sharar bil, gunbadi gardonni dud.

Charx motam kisvati bermish manga yo ohdin
Pardayi shabgun bila yopmish meni uryonni dud?

Boda sham'i birla, ey soqiy, yorut ko'nglumnikim,
Ohdin qilmish qaro bu kulbayi vayronni dud.

Olam ahlining vafosizlig'laridin cheksam oh,
Sunbuliston aylagay yuz gulshan-u bo'stonni dud.

Ey Navoiy, asr-u ravshan erdi hajrim shomikim,
Tiyra ohimdin qoraroq ham qilur hijronni dud.

126

Unutmag'ilki to hajr etti bedod,
Meni bir noma birla qilmading yod.

Ko'ngul yod etmasingdin bo'lsa g'amgin,
Vale ruhum erur yoding bila shod.

Buzug' jismim uyin yiqti firoqing,
Bu uyda ko'p buzug'lug' qildi bunyod.

Qul o'ldi sarv to gulgasht etarga
Qading bazmi tarabdin qo'pti ozod.

Meni gah dasht-u gah tog' uzra ko'rgan
Tirilmish sog'inur Majnun-u Farhod.

Ko'ngulni may bila ma'mur qilkim,
Xumori davr ani qo'ymas obod.

Navoiy telba bo'lg'an chog'da ko'rdi,
Pari birla ani sog'indi hamzod.

127

Vahki, har soat bo‘lurmen vaslidin yetkach navid,
Yordin ummidvor, ammo o‘zumdin noumid.

Dedi, mehmoning bo‘lub yuz javr ila aylay halok.
Vahki, bor ul sho‘xning har va’dasinda yuz vaid.

Qatlim etting, aylasunlar eltibon ko‘yungda dafn
Kim, borur jannatqa zulmung tiyg‘idin bo‘lg‘an shahid.

Tikti ko‘ksum chokinu tiyg‘in tanimda qildi gum,
El eshikni qufl etib tufroqqa ko‘mgandek kalid.

Islaram ko‘yung itining nechasin, ne ishkakim
Oncha osoyish dimog‘img‘a yeturmas mushkbid.

Do‘st chun jon ichradur, qo‘y **“naxnu aqrab”**[1] so‘zini,
Tut bo‘yun baskim, yaqinroq keldi **“min hablil-varid”**[2].

Ey Navoiy, shah xayolin asra ko‘z mulki aro
Kim, erur ham Bog‘i Zog‘on anda, ham Bog‘i Safid.

128

Ish manga qilmoqdurur ul sho‘xi beparvoni yod,
Ul unutmish anikim, qilg‘ay meni shaydoni yod.

Xuld aro bo‘lsam aning ko‘yin sog‘ing‘um, vah, ne tong
G‘urbat ichra aylamak el manzil-u ma’voni yod.

---

[1] **“Naxnu aqrab”** — “Biz yaqinroqmiz”. Qur’oni Karimning “Qof” surasi, 16-oyatidan *(keyingi izohga qaralsin)*.

[2] **“Min hablil-varid”** — Qur’oni Karimning “Qof” surasi, 16-oyatidan; (ikki misrada kelgan oyat jumlasining to‘liq shakli: **“Nahnu aqrobu ilayhi min hablil-varid”);** ma’nosi: **“Biz unga** (insonga) **jon tomiridan** (o‘z-o‘zidan) **ham ko‘ra yaqinmiz”.**

Bo‘ylakim la’ling mayining shavqidin mast o‘lmisham,
Bodadek qonim to‘k, etsam bodayi hamroni yod.

La’li elni tirguzurda o‘zgalarni yod etar,
O‘ltururda g‘amzasi aylar meni rasvoni yod.

Rashkdin bexud tilarmen xalqnikim, qilmag‘ay
Jinsi odam ul paripaykar malaksiymoni yod.

Ko‘r munikim andin o‘zga kimsa bormu yodima,
Eyki dersen, qilmag‘il ul chobuki zeboni yod.

Dayr piri ilgidin zunnor etarmen orzu,
Har qachonkim, aylasam ul dilbari tarsoni yod.

Do‘st yodidin ko‘ngulni o‘yla istarmen to‘la
Kim, ul aylay olmag‘ay dunyo-vu mo fihoni yod.

Chunki tufrog‘ o‘ldi yodingdin Navoiy sen dag‘i,
Netti quysang jur’aye tufroqqa, aylab oni yod.

“ZOL” HARFINING ZAVIY UL-HAYOTLARINING ZUFUNUNLUG‘I “G‘AROYIB”DIN

129

Zuhd-u toat shahdini ahli zamon ko‘rmas laziz,
Har ne nofi’dur, marizi notavon ko‘rmas laziz.

Zulmat ahli g‘aflat istarlarki, olam komini
Uyqucha shabgir qilg‘an korvon ko‘rmas laziz.

Quti botin istakim, zohir g‘izosi birla tab’
Bir zamon gar topsa lazzat, bir zamon ko‘rmas laziz.

Or etar pashminadin ablah tilab zarrishtani
Kim, eshak halvoni andoqkim somon ko‘rmas laziz.

Har ne eldin qutqarur lazzatlig‘ uldurkim, faqir
Mehr qursin o‘ylakim bir pora non ko‘rmas laziz.

Yutmayin xunoba yetmas vasli aning, ahli ishq
Topsa kavsar sharbati, andog‘ki qon ko‘rmas laziz.

Topmayin lazzat Navoiy soldi ko‘zdin ashkdek,
Bodani to xusravi sohibqiron ko‘rmas laziz.

130

Emas g‘amimni yozar xatqa zarfishon kog‘az
Ki, shu’la chekti damimdin bitir zamon kog‘az.

Sipehr davri bu sargashta ohidin bo‘lmish,
Magar bu oh tutun bo‘lmish, osmon–kog‘az.

Tirilmisham bitigingdin qilurda muhr, magar
Labingg‘a tegdi-yu kelturdi tuhfa jon kog‘az.

Uzor-u la’li labing vasfini qachon yozdim,
Oqib ko‘zum yoshi gulrang bo‘ldi qon kog‘az.

Ochildi xasta ko‘ngul ruq’asin yaramg‘a yopib,
Yorug‘ bo‘lur emish uy, bo‘lsa tobdon kog‘az.

Yozar farishta quyosh safhasig‘a vasfingni,
Magarkim ul falakiy topmas obdon kog‘az.

Ko‘ngul shikofig‘a kog‘az aro erur marham,
G‘amim so‘rarg‘a raqam qilsa dilsiton kog‘az.

Ko‘ngul sahifasin asra xutur bahridin,
Ki, sug‘a zoyi’ o‘lur tushsa nogahon kog‘az.

Xumor daf’ig‘a qulluq xatin tilar soqiy,
Navoiyo, dema hujjat ketur ravon kog‘az.

131

Demagil, ko‘yini benom-u nishonlarg‘a maloz
Kim, erur tojdeh-u mulksitonlarg‘a maloz.

Ochsalar la’li mayi shavqi bila mayxona,
Sohati bo‘lg‘ay alam daf’ig‘a jonlarg‘a maloz.

El yog‘indin panah istar kibi ko‘yung yodi
Vodiyi furqat aro ashkfishonlarg‘a maloz.

Dayr piri qulidurmenkim, aning dargohi
Yaxshilarg‘a panoh o‘ldi-yu yomonlarg‘a maloz.

Habbazo, ishqki kiryosi fazosidur aning
Barcha bemanzil-u ma’vo-vu makonlarg‘a maloz.

Kir fano mulkiga forig‘ki, erur ul kishvar
Ohi so‘zonlar ila ashki ravonlarg‘a maloz.

Shohi G‘oziy eshigin Tengri base tutsunkim,
Notavonlarg‘a panoh o‘ldi-yu xonlarg‘a maloz.

“RE” HARFINING RA’NOLARINING RUSTOXEZI “G‘AROYIB”DIN

132

Ey zotinga har necha qilib aql tafakkur,
Ul fikrga bo‘lmay samare g‘ayri tahayyur.

Yuz mehrga netsun chu erur mujibi hayrat
Har zarraki, tahqiqida aql etsa tafakkur.

Idroki kamolingni xirad haddi sog‘ingan
Bir qatra aro ayladi yuz bahr tasavvur.

Kavnayn adam bo‘lsa, vujudungg‘a ne tag‘yir,
Gar mavj sukun topsa, tengizga ne tag‘ayyur.

Qahring yo‘q etar xalqnikim turg‘ali bo‘lmas,
Sarsar yo‘lida pashsha guruhig‘a tahavvur.

Bu turfaki, daf’ini yarim pashshag‘a qo‘ydung,
Har pilnihodeki sanga qildi takabbur.

Hajring tunida sham’ kibi qoldi Navoiy,
Har tun ne ajab kuysa to‘kub ashki tahassur.

133

Parim bo‘lsa, uchub qochsam ulustin to qanotim bor,
Qanotim kuysa uchmoqdin, yugursam to hayotim bor.

Chiqib bu dayrdin Iysog‘a nevchun hamnafas bo‘lmay?
Bihamdillah, tajarrud birla himmatdin qanotim bor.

Xaloyiq suhbatidin ming g‘amim bordurki, muft o‘lg‘ay,
Agar ming jon berib bilsamki, bir g‘amdin najotim bor.

Chekib ag‘yordin yuz javr-u tortib yordin ming g‘am,
Ne o‘zga xalqdin g‘ayrat, ne o‘zumdin uyotim bor.

Kechib ko‘zdin yozay bir xatki, dahr ahlig‘a ko‘z solmay
Bu damkim, ko‘z savodidin qora, ko‘zdin davotim bor.

Tilar ko‘nglum qushi anqodin o‘tsam nari yuz vodiy,
Munungdek sayr etarga Qofdin ortuq sabotim bor.

Navoiy, bilki shah ko‘ngli manga qayd o‘lmasa, billah,
Agar, kavnayng‘a xoshok chog‘lig‘ iltifotim bor.

134

Kema og‘zi demakim, ishqingda ko‘ksum chokidur,
Bahr mavji yo‘qki, ashkim selining ko‘lokidur.

Suda ermas mehr aksi, balki daryo jonig‘a
Solg‘an o‘tlar xasta jonim ohi otashnokidur.

Xas emas girdob arokim, boshinga evrulgali,
Su uza sargashta oshiq jismining xoshokidur.

Vahki, ul kishtida daryokash, manga xud yo‘q hayot
El degandinkim, falonning kofiri bebokidur.

Ul balig‘ tutqanda solib shastu aning rashkidin,
Sudin ayrilg‘an balig‘ yanglig‘ ko‘ngul topokidur.

Ko‘rma faqr ahli sirishki bahrida har yon hubob
Kim, fano kavkablari, balkim balo aflokidur.

Ey Navoiy, kema tiyri ko‘ksum ichra hajr o‘qi,
Kema og‘zi go‘yiyo ishqida ko‘ksum chokidur.

135

Og‘zim achitqon dam-badam ul la’li shakkarxand erur,
Vah-vah, tuz ermish ulki, men qildim gumonkim, qand erur.

O‘tsang g‘amim sahrosidin, qonlig‘ ko‘ngul ajzosidin,
Har lola bargin anglakim, bir dog‘lig‘ parkand erur.

Ko‘yungda munglug‘ jong‘a tan yuz zaxm iladur xirqaye
Marham bila qo‘yg‘an momuq har yon anga payvand erur.

Majnun ko‘ngul qilmas havo har yon o‘qungdin go‘yiyo
Kim, bu temur birla yig‘och habsig‘a aning band erur.

Boqqach quyosh ruxsorig‘a andin qilurmen ko‘z yoshi
Kim, ul musofir oyima husn ichra bas monand erur.

G‘am barqi-yu mehnat tuni zoyanda bo‘lsa ishqdin
Tong yo‘qki, o‘tqa gah sharar, gohi tutun farzand erur.

Dunyo arusi zulfini tutqan ne ogah faqrdin,
Ganj istamas ulkim, yilon tutmoq bila xursand erur.

Ming nola tortib ko‘rmay ul gul vaslin oxir o‘lganim,
Bu bog‘ning bulbullari gar bilsalar, xush pand erur.

Ko‘z uchi birla boqting-u qiyding Navoiy ko‘nglini,
Bilding onikim, bir qiyo boqmoqqa hojatmand erur.

136

El tilidin jonima gar yuz balo mavjud erur,
G‘am yeman, gar ul qizil til tiyg‘i xunolud erur.

Yuz uza siymin zanaxdoningda xatti mushkbo‘y,
O‘tqa qo‘yg‘an olmadin go‘yoki chiqqan dud erur.

Jon berib oldim junun-u ishq to bo‘ldum fano,
Alloh-Alloh, ul ne xush savdo, bu ne xush sud erur.

Hajr bedodidin ul yuz shavqi ortar har necha
Kim, xazon osibidin gul yafrog‘i nobud erur.

Kisvatedur xilqatim ishq ofati shaxsig‘akim,
Rishtayi jon anda tor-u tori jismim pud erur.

Qilmading ahdingda bir ahdeki qilg‘aysen vafo,
Bevafolar ahdi mundoq go‘yiyo ma’hud erur.

Mehr isi bu mijmari feruzadin ko‘z tutmakim,
Barcha qad shamshodi bu mijmar ichinda dud erur.

Eyki, qadding bo‘ldi xam, olam bila qil xayrbod
Kim, xam etmak qad hamesha lozimi padrud erur.

Ey Navoiy, ermas ul zolim ko‘zi uyqudakim,
Zulm eshigi Shohi G‘oziy[1] adlidin masdud erur.

137

Yig‘lasam ko‘nglumga ishim ohi dardolud erur,
O‘tqakim yog‘mur yog‘ar, aning nishoni dud erur.

La’li shavqidin ko‘ngul xursand erur xunob ichib,
Telbaga rangin su bersang, may debon xushnud erur.

Yuz ayog‘i tufrog‘idin olman ushbu vajh ila
Kim, necha tufrog‘ ichinda tursa oltun sud erur.

Chiqmas ohim shiddatidin ul mahi xirgahnishin,
Sham’g‘a fonus yeldin asramoq maqsud erur.

Vaslin istab ko‘p enaldim, qovdi ko‘yidin meni,
Bo‘lsa mubrimsheva, albatta, gado mardud erur.

Talx maydin, soqiyo, topti chuchuk jonim hayot,
Ey baso makruhkim, zimnida bir behbud erur.

Telba itdekdur Navoiy ul parivashsiz ne tong,
Og‘zidin gar o‘t sochib a’zosi gardolud erur.

138

Ulki yuz mehnatqa jonim ishqidin pomol erur,
Anga rahm-u manga toqat yo‘q, ajoyib hol erur.

---

[1] **Shoh G‘oziy** — Xuroson podshohi Sulton Husayn Boyqaro. *(Qaysi g‘azalda Shoh G‘oziy ismi kelsa, bundan murod Sulton Husayn Boyqarodir. — M.K.)*

Zeb erur husn ahlig‘a ahli nazar nazzorasi,
Ko‘zki, bulbul tikti gul ruxsori uzra xol erur.

Xatti shavqidin to‘kuldi jismim ul yanglig‘ qurub
Kim, so‘ngaklarda qalam ko‘rgan sog‘ing‘ay nol erur.

La’lidin kom olmag‘uncha bilmadim shirinlig‘in,
Bargi gul zambur komi ichra kirgach bol erur.

Gulxaniy majnundek ohim chiqqach, oqqan yoshlarim
Telba keynidin yugurgan go‘yiyo atfol erur.

Bu chaman gulbargi xushrang o‘lsa, mayl etmangki, ul
G‘oza bulbul qonidin surtarki, rangi ol erur.

Ey Navoiy, kimgakim bir jur’a chekti jomi vasl,
So‘ngra hijron zahridin yuz jomi molomol erur.

139

Yo‘q ajab, la’lingdin ar bexudlug‘um oyin erur,
Chunki usrukrak bo‘lur har mayki, labshirin erur.

Raz qizi to pardadarliq aylagay talbis uchun,
Shisha mi’jardur anga-vu mavji aning chin erur.

Qon yoshim ta’siridin sarig‘ yuzumning safhasi
Kog‘azedurkim, xino suyi bila rangin erur.

Muhlik o‘tumni damingdin tez qilma, ey Masih
Kim, bu o‘tqa motam ashki suyidin taskin erur.

Ul pari ishqida ashkim lahv tuxmidur demang
Kim, malak tasbihig‘a bu donadin tazyin erur.

Olmayin yerdin qadam sayri maqomot aylamak
Chang piridin bu bazm ahlig‘a ko‘p talqin erur.

Sizu — vasl, ey aysh ahlikim, Navoiy jonig‘a
Anda hijroni azal devonidin ta’yin erur.

140

To labing shavqida jismim g‘arqayi xunob erur,
Har junun toshi angakim, tegdi la’li nob erur.

Gar asir o‘ldum, tong ermaskim, ko‘ngulning lomidek,
Mubtalo ko‘nglumda zulfi toridin qullob erur.

Qaddi yodeklarni zor etmish hiloli jom uchun
Egma qoshingkim, o‘zi roki’, o‘zi mehrob erur.

Ko‘z qarosin yub, sarig‘ orazni beqadr etti ashk,
Go‘yiyo har vajh ila ayn ofati simob erur.

G‘am tuni gar tobsiz jismim kuyar, vah ne ajab,
Kuydururlar kecha ko‘prak rishtakim, betob erur.

Har taraf na’l-u alif jismimda, go‘yo ishq aro
Xatti idborimni vozih qilg‘ali e’rob erur.

Sendadur maqsud ganji, lek jismingdur tilism
Vahki, bu ganj ul tilism ichra ajab noyob erur.

Ey Navoiy, jism aro jon rishtasin tutqil aziz
Kim, bori lo‘livashim la’bi uchun asbob erur.

141

Ul pari ko‘ngli uchun ruhum asir-u zor erur,
Bul-ajab toshi qanotsiz qushqa bodraftor erur.

Har kecha qon birla jismim safhayi taqvimdek,
Go‘yi anjum tirnog‘idin sarbasar afgor erur.

Kofiri mastedur ul ko‘zkim, kamandi zulf anga
Yeshibon yonida qo‘yg‘an rishtayi zunnor erur.

Baxtim uyqusidin afg‘onlar chekardin go‘yiyo,
Har kecha ko‘z yummay anjum to sahar bedor erur.

Yangla ko‘nglum vasl topti rahm qil, ey ohkim,
Tund yeldin yangi butkan yorag‘a ozor erur.

Qatlima ul ko‘z savodi hay’atidin bag‘rig‘a
Bir qora tosh bog‘lag‘an qon qilg‘uchi xunxor erur.

O‘qusam nomangni pech-u toblig‘ bexud tanim
Go‘yiyokim nomani chirmab yuborgan tor erur.

Chun quyoshdek yerga kirgung, ne osig‘, gar yuz quyosh,
Masnading toqida har yon shamsayi devor erur.

Tirguzub, debsen, Navoiy jonig‘a minnat qo‘yay,
Gar sen o‘ltursangki ul jon birla minnatdor erur.

142

Ko‘ngulki, ishqida dersen balo ne bo‘lg‘usidur?
Nekim bo‘lur, sango bo‘lg‘ay, mango ne bo‘lg‘usidur?!

Ul oy jamolig‘a ishqim xud ortadur har dam,
Bu ishta oqibatim, vahki, to ne bo‘lg‘usidur?

Dema, ne bo‘lg‘usi ul zulf qaydida ko‘nglung?
Asir-u vola-vu shaydo, yano ne bo‘lg‘usidur?

Firoq dardig‘a dersen davo ne bo‘lg‘ay ekin?
Bu dardg‘a ham o‘zung de, davo ne bo‘lg‘usidur?

Behisht mehnat emas, bo‘lsa va’dayi diydor,
Visol umidi bor ersa, jafo ne bo‘lg‘usidur?

Bu yo‘l musofirining holi, ohkim, mutlaq,
Bilinmadiki, ne nav’ o‘ldi yo ne bo‘lg‘usidur?!

Navoiyo, dema foniy bo‘lub visolg‘a yet,
Mangaki, hajr chekibmen, fano ne bo‘lg‘usidur?

143

Jafo qilur bari gulchehralar, vafo qilako‘r,
Vafo ham elga qilursen, vale mango qilako‘r.

Ne telbaniki, muqayyad tilarsen, ey gardun,
Aning salosili zulfig‘a mubtalo qilako‘r.

Desang hijobni olg‘aylar, ey ko‘z, ollingdin,
Ne gard aning yo‘lidin qo‘psa to‘tiyo qilako‘r.

Tajalliy istasang ul yuzdin o‘rtabon jisming,
Kuli bila ko‘ngul oyinasin jilo qilako‘r.

Umidi vasl ila ko‘yungga bordi xasta ko‘ngul,
Yigitliging haqi, ul hojatin ravo qilako‘r.

Biyik nishiman erur, ey ko‘ngul, visol avji,
Talab qanoti bila ul taraf havo qilako‘r.

Navoiyo, chu alamsiz murod mumkin emas,
Desangki, vasl topay, hajr o‘tig‘a yoqilako‘r.

144

Jonim oromi uchun qosidki, jonondin kelur,
Go‘yi jonparvar nasime obi hayvondin kelur.

Noma qosid ilgidin, qosid habibim ollidin,
Mujdayi jon yeldin-u yel mohi Kan’ondin kelur.

Va'dayi vasliki jonondin kelur hijron kuni,
Tindurur ko'nglumni so'z yanglig'kim, ul jondin kelur.

Gavharedekdurki, chiqmish xomasining no'gidin
Noma uzra shodlig' ashkimki, mujgondin kelur.

Shodlig'din jon nisor etsam, ne tongkim, bu xabar
Ham ko'nguldin, filmasal, ham ko'nglum olg'ondin kelur.

Vahki, mazmunidur ahli dard sargardonlig'i,
Har balo maktubikim, bu charxi gardondin kelur.

Deb emish nomamg'a qilmaydur Navoiy jon nisor,
Anda jon bo'lsa qachon bu nav' ish ondin kelur?

145

Tutulmish erdi g'azabdin ulusni qildi asir,
Quyosh tutulsa, bale, fitnadur anga ta'sir.

Agarchi yoda girih bo'lsa, o'qi tuz chiqmas,
Qoshi girih bila zulm o'qin etmadi taqsir.

Ko'ngulni ko'zlaring oldi, ne tong, iki bo'lmak
Bir ahli dinni iki mast kofir etsa asir.

Ko'rub yuzida g'azab zulfi sari qochti ko'ngul,
Ko'ngulga soya kerak itik o'lsa mehri munir.

Xadangging o'tti ko'ngul pardasig'a yetmish ekach,
Ne haddi man' xususan qazo o'qig'a harir.

G'am o'lsa, solma girihlar qoshingg'akim, qilmas
G'aliz o'lub bu qora man'i xomayi taqdir.

Navoiyo, sanga bu so'zda shubhaye bo'lsa,
Qadah keturki, xututida ko'rguzay bir-bir.

146

Parivashim qora bo‘rkinki, bir yon egri qilibdur,
Magarki sham’i jamoli fatilasi egilibdur.

Xat ermas ulki, chiqarib suyini mehrgiyahning
Quyosh sahifasida rahmat oyati bitilibdur.

Ne nav’ singramayin hajr aroki, bag‘rim-u ko‘nglum
Firoq ignalaridin o‘ta-o‘ta teshilibdur.

Dalil erurki, ko‘ngullarni qilmish o‘lg‘asen ozod,
Bukim salosili zulfung tugunlari yeshilibdur.

Masih ignasi Maryam igirgon ip bila go‘yo
Chigilib, egniga jonbaxshlig‘ to‘ni tikilibdur.

Agar Masih duosi o‘lukni tirgizur erdi,
Ne nutq erurki, so‘kunchung bila o‘lug tirilibdur.

To‘la qadah kerak ichsam, ko‘ngulni qilg‘ali xoli
Ki, anda davr elidin dard-u g‘ussa ko‘p yig‘ilibdur.

Falak daqoyiqidin kimsa bosh chiqarmadi hargiz
Kim, ushbu rishtaning asr-u tugunlari chigilibdur.

Ko‘p etma va’da Navoiyg‘a vasl-u qilma tamasxur
Ki, bu mahol ish erkanni ul ham emdi bilibdur.

147

Ko‘zi ul yuz o‘tidin xalq ichini dog‘ etadur,
Yoxud iki qoshining yolarini chog‘ etadur.

Ishq ko‘nglumni shiyor aylab-u ko‘zdin sug‘arib,
Magar ul gul yuzining hasratidin bog‘ etadur.

La'lidin mast o'lubon bordi xumorim marazi,
Turfa maydur buki, ham usruk-u ham sog' etadur.

Suvang ul oy evining tomini balchig' yasabon
Paykarimning evini, hajrki tufrog' etadur.

Hajri ashkim tengiz-u jismim etib ko'hi balo,
Olami ishq aro bahr bila tog' etadur.

G'am tuni mehrsiz o'ldiki, sipehr anjumidin
Mehr ruxsorini resh etkali tirnog' etadur.

Bu balog'a ne davodurki, Navoiyni ul oy
Nechaki ko'rsa, muni ishq anga amrog' etadur.

148

Kunduz ul xurshidi raxshondin ko'zumga yosh erur,
Kecha holim zulfi savdosi bila chirmosh erur.

Olmag'an din naqdi birla yiqmag'an mehrob yo'q,
Ey musulmonlar, ne kofir ko'z, mufattin qosh erur?!

Chok ko'ksumdin ichimga solib ul oy ko'nglidek
Asraramkim, hamul oy boshimg'a otqan tosh erur.

Rahm emas berahmliqdur surmasang boshimg'a raxsh
Kim, bu ko'p qatla aning pomoli bo'lg'an bosh erur.

Ishq sirrin necha ko'nglum ichra pinhon asrasam
Ham, ko'ngul o'ti zabona chekkach, elga fosh erur.

Qaysi gul bazminki sug'a, yo'qsa yelga bermadi,
Bu chamanda to bulut saqqo, sabo farrosh erur.

Benavolar ollida umri abaddin yaxshiroq
Kim, Navoiy dayr ichinda doxili avbosh erur.

149

Telbarab itkan ko‘ngul yodimg‘a kirsa gohlar,
Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar.

O‘tti xo‘blar oy kibi, yo‘qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko‘rman o‘tadur mohlar.

Xo‘blar zulf-u zanaxdonig‘a bording, ey ko‘ngul,
Hozir o‘l, tundur qorong‘u, yo‘lda bordur chohlar.

Gar musavvir sizsa devor uzra ul gul xirmanin,
Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.

Ey ko‘ngul, Farhod ila Vomiq dog‘i Majnun qani?!
Bo‘lmag‘il g‘ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.

To‘kti qon gulgun libosin kiygach ul xo‘blar shahi,
Qon to‘kar ermish, qizil to‘n kiysa beshak shohlar.

Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini
Kerak, albatta, xazon yelin sog‘insang gohlar.

150

Yuz tuman mehnat o‘qi anduhlug‘ jonimdadur,
To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.

Hojatim budur, Xudoyokim, karomat qilg‘asen
Notavon jonimg‘a har zahmatki, jononimdadur.

Dard menda sendin ortuq bo‘lsa, jono, ne ajab
Kim, sening jismingdadur zahmat, mening jonimdadur.

So‘rdum, og‘zi ta’mi talx ermish, ajab yo‘q o‘lmagim
Menki, bu yanglig‘ achig‘ ta’m obi hayvonimdadur.

149

Telbarab itkan ko‘ngul yodimg‘a kirsa gohlar,
Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar.

O‘tti xo‘blar oy kibi, yo‘qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko‘rman o‘tadur mohlar.

Xo‘blar zulf-u zanaxdonig‘a bording, ey ko‘ngul,
Hozir o‘l, tundur qorong‘u, yo‘lda bordur chohlar.

Gar musavvir sizsa devor uzra ul gul xirmanin,
Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.

Ey ko‘ngul, Farhod ila Vomiq dog‘i Majnun qani?!
Bo‘lmag‘il g‘ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.

To‘kti qon gulgun libosin kiygach ul xo‘blar shahi,
Qon to‘kar ermish, qizil to‘n kiysa beshak shohlar.

Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini
Kerak, albatta, xazon yelin sog‘insang gohlar.

150

Yuz tuman mehnat o‘qi anduhlug‘ jonimdadur,
To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.

Hojatim budur, Xudoyokim, karomat qilg‘asen
Notavon jonimg‘a har zahmatki, jononimdadur.

Dard menda sendin ortuq bo‘lsa, jono, ne ajab
Kim, sening jismingdadur zahmat, mening jonimdadur.

So‘rdum, og‘zi ta’mi talx ermish, ajab yo‘q o‘lmagim
Menki, bu yanglig‘ achig‘ ta’m obi hayvonimdadur.

Ey Masiho, subhi ayshim tiyra bo‘lmish go‘yiyo,
Zarrayi betoblig‘ xurshidi tobonimdadur.

Dahr bog‘i ichra barbod o‘lmag‘an gul chiqmadi,
Yo‘q ajab, gar yeldin osibe gulistonimdadur.

Ey Navoiy, so‘rmading dersen malul o‘lg‘anda yor,
Sog‘inursen go‘yiyokim baxt farmonimdadur?!

151

Kirdi siymobiy libos ichra yana ul gul’uzor,
Ul quyoshdekkim, anga moni’ bo‘lur abri bahor.

Ul bulut yanglig‘ libos uzra sizilg‘an xatlari
Bor aningdekkim, yog‘in tushkay bulutdin tor-tor.

Bu libosi siymgun ichra sening nozuk taning
Ul kumushdekdurkim, ul siymob aro tutqay qaror.

Mehri ruxsoring libosi siymgundin mutlaqo
Ul quyoshdurkim, qilur ko‘zguda aksin oshkor.

Bo‘ldi siymobiy libosing rangi baskim, ayladim
Ko‘z sahobidin boshingg‘a ashk siymobin nisor.

Tanni chun siymob etar bu charxi axzar oqibat,
To‘n agar siymobiy o‘lsun, gar yashil, bir hukmi bor.

Ey Navoiy, kisvati gar obgundur, ne ajab,
Bu yaqindurkim, erur su ichra durri shohvor.

152

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

149

Telbarab itkan ko‘ngul yodimg‘a kirsa gohlar,
Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar.

O‘tti xo‘blar oy kibi, yo‘qtur aroda ul quyosh,
Vahki, ul badmehrni ko‘rman o‘tadur mohlar.

Xo‘blar zulf-u zanaxdonig‘a bording, ey ko‘ngul,
Hozir o‘l, tundur qorong‘u, yo‘lda bordur chohlar.

Gar musavvir sizsa devor uzra ul gul xirmanin,
Jav-bajav mendin nishon bergusi bir-bir kohlar.

Ey ko‘ngul, Farhod ila Vomiq dog‘i Majnun qani?!
Bo‘lmag‘il g‘ofilki, bir-bir bordilar hamrohlar.

To‘kti qon gulgun libosin kiygach ul xo‘blar shahi,
Qon to‘kar ermish, qizil to‘n kiysa beshak shohlar.

Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini
Kerak, albatta, xazon yelin sog‘insang gohlar.

150

Yuz tuman mehnat o‘qi anduhlug‘ jonimdadur,
To havodin sarzanish sarvi xiromonimdadur.

Hojatim budur, Xudoyokim, karomat qilg‘asen
Notavon jonimg‘a har zahmatki, jononimdadur.

Dard menda sendin ortuq bo‘lsa, jono, ne ajab
Kim, sening jismingdadur zahmat, mening jonimdadur.

So‘rdum, og‘zi ta’mi talx ermish, ajab yo‘q o‘lmagim
Menki, bu yanglig‘ achig‘ ta’m obi hayvonimdadur.

Ey Masiho, subhi ayshim tiyra bo‘lmish go‘yiyo,
Zarrayi betoblig‘ xurshidi tobonimdadur.

Dahr bog‘i ichra barbod o‘lmag‘an gul chiqmadi,
Yo‘q ajab, gar yeldin osibe gulistonimdadur.

Ey Navoiy, so‘rmading dersen malul o‘lg‘anda yor,
Sog‘inursen go‘yiyokim baxt farmonimdadur?!

151

Kirdi siymobiy libos ichra yana ul gul’uzor,
Ul quyoshdekkim, anga moni’ bo‘lur abri bahor.

Ul bulut yanglig‘ libos uzra sizilg‘an xatlari
Bor aningdekkim, yog‘in tushkay bulutdin tor-tor.

Bu libosi siymgun ichra sening nozuk taning
Ul kumushdekdurkim, ul siymob aro tutqay qaror.

Mehri ruxsoring libosi siymgundin mutlaqo
Ul quyoshdurkim, qilur ko‘zguda aksin oshkor.

Bo‘ldi siymobiy libosing rangi baskim, ayladim
Ko‘z sahobidin boshingg‘a ashk siymobin nisor.

Tanni chun siymob etar bu charxi axzar oqibat,
To‘n agar siymobiy o‘lsun, gar yashil, bir hukmi bor.

Ey Navoiy, kisvati gar obgundur, ne ajab,
Bu yaqindurkim, erur su ichra durri shohvor.

152

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar desam,
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur jolalar.

Bargi gul uzra yopishibdur shakar har saridin,
Yo magar la'ling uza qaynabdurur tabxolalar.

Tola-tola nay o'qung ko'ksumda go'yo sindikim,
Tevruluptur notavon ko'nglumda bir-bir tolalar.

Fitnalik to'qquz falak girdingda, jono, turfadur
Kim, ko'ruptur bir quyosh davrinda mundoq holalar.

Bordilar ahbob-u men yig'larmen o'z ahvolima,
Korvondin qolg'an it yanglig'ki, qilg'ay nolalar.

Ko'hi g'am bo'ldi Navoiy, lolalar — gulgun sirishk
Tog' agar budur, bale ashk o'lg'usidur lolalar.

153

Ul malohat sham'idin mundog'ki jismim yonadur,
Har bir uchqun g'am shabistonida bir parvonadur.

Shomi hajrim sharhin el afsona qildi, ohkim,
Uyqug'a solg'an qaro baxtimni bu afsonadur.

G'ayrkim, mahv o'ldi-yu sensen buzug' ko'nglum aro,
Chug'z itib, tovus yer tutmish ajab vayronadur.

Ko'ksum ichrakim g'amingdin nordek bo'ldi shikof,
Go'yiyo har bir bag'ir pargolasi bir donadur.

Ko'yida so'rsang ko'ngullarni unutma, ey sabo,
Mening avvoramnikim, ham xasta, ham devonadur.

Charx shabgardig'a go'yo naqdi umrungdur g'araz,
Tegranga har tunki ikki bukrayib aylonadur.

So‘rma hajringda Navoiy yorinu sarmanzilin,
Yor anga darding, vatan bir kunji mehnatxonadur.

154

To xayoling gah ko‘ngul, gah ko‘z aro mehmon erur,
Ko‘z bila ko‘nglum arosida hasaddin qon erur.

Ko‘ngluma paykonlaringdin qatra-qatra su emas,
Holima ko‘zdek biaynih ul dag‘i giryon erur.

G‘arqamen ashk ichrakim, ishqing tanimni o‘rtamas,
Yo‘qsa o‘t kim ko‘rdikim, xoshok aro pinhon erur?

Hajr o‘qidinkim erur bag‘rim aro yuz ming teshuk,
Har teshuk bir ko‘zdururkim, holima hayron erur.

Husn maydonida ul ko‘z chobukedurkim, anga
Xoli mushkin go‘y-u zulfung anbarin chavgon erur.

Dahr bo‘stonida bosh chekkan nihol atrofida,
Shox emas, novak degil, yafrog‘ emas, paykon erur.

Tiyg‘ ila dushvor aylabsen Navoiy qatlini,
Chehradin burqa’ni olg‘ilkim, base oson erur.

155

G‘unchayi xandon bila husnung guli xurram bahor,
Xatting andoq sabzakim, bo‘lg‘ay anga hamdam bahor.

Yuz uza terdin xating gar bosh chekar, ey gul, ne tong,
Sabzag‘a boisdurur, chun bo‘ldi ersa nam bahor.

Shodlig‘din gulshani vaslingda yig‘lab cheksam oh,
Yopma, yuzkim, gulga bo‘lmas yel-yog‘indin g‘am bahor.

Orazim aksi yuzung oyina tushkan turfadur
Kim, ko‘ruptur ham xazon bir oyda bo‘lmoq, ham bahor?

Voykim, bir gul xazong‘a soldi ayshim gulbunin,
Ushbu fasl ichraki topmish jumlayi olam bahor.

Ra’d-u sel ermas, fig‘on-u ashk erur bukim, har il
Gul yuzung ko‘rgach tutar o‘z holig‘a motam bahor.

Qasdi bulbul ko‘ngli qaydi bo‘lmasa, nevchun solur
Bog‘ sho‘xi sunbuli zulfig‘a pech-u xam bahor?

Gul emas, bu bog‘ tarojig‘a iynak la’ldin
Ayladi oviza muhri davrig‘a xotam bahor.

Ey Navoiy, chin bahor erkin bu, yoxud ko‘rguzur
Bog‘i xulqidin ulusqa Dovari a’zam[1] bahor.

156

Vahki, ko‘nglum g‘ussasi har lahza qasdi jon qilur,
Hajrim anduhi buzug‘ sabrim uyin vayron qilur.

Ko‘p madaddur hajr anduhida sovug‘ ohlar
Kim, singursa men kibi o‘ziga qasdi jon qilur.

Necha yilliq mehnatim ishq ichra bilgay oshiqe
Kim, hadisin yor ila ag‘yordin pinhon qilur.

Jonni istarmen chiqarsam, uyidin ko‘zlarni ham
Ko‘nglum ul damkim, xayolin lahzaye mehmon qilur.

Asradim jon ichra mehrin, bilmadim oxir nafas
Ul Masiho o‘lmagim anglab o‘zin nodon qilur.

[1] **Dovari a’zam** — buyuk Podshoh, eng ulug‘ Shahanshoh. Buyuk Yaratguchi nazarda tutilgan.

Faqr yo‘linda irik pashminadin or etmakim,
Har taharrukdin taayyun bandini suhon qilur.

Soqiyo, holimni bilding, emdi tutqil bodakim,
Bu suubatlarni bexudlug‘ manga oson qilur.

Rostlarg‘a charx agar har lahza qilmas sarzanish,
Sham’ bas har tun nedin yig‘lab kuyub afg‘on qilur?

Daf’ etar dardin Navoiyning o‘shul maykim mudom
Xusravi Kisronishon soqiylari ehson qilur.

157

Tararda uqdalig‘ zulfin musalsal ayladi chinlar,
Girih “mim”, ikki zulfi ikki “lom”, iynak tarog‘ “sin”lar.

Girihlar zulfida go‘yo hisob aylaptur ul kofir
Olurda zuhd-u taqvo ahlidin taroj etib dinlar.

Osib nevchun fig‘ona soldi zulfidin ko‘ngullarni,
Qaror-u sabr naqdin olg‘ali gar aylamas qinlar?

Ne yuzdur, Alloh-Alloh, boda tobidinki, har soat,
Ochar nasrinlar uzra gul, sochar gul uzra nasrinlar.

Kelur ul sarvkim gullar mulavvan qildi gulshanni,
Kirarda shah nechukkim mulk eli bog‘larlar oyinlar.

Desam husn ahlini ko‘rmangki, zolimdurlar-u qotil,
Ko‘ngul aytur ko‘ray, shoyadki mundoq ermas erkinlar.

Erur mahzun ko‘ngullar zulmati zulfida zor andoq,
Ki, shomi hajrida ishq ahlidin har sari g‘amginlar.

Ne yellanmaqdur, ey shah, mo‘r xaylidek cherigdinkim,
Sulaymondek bu vodiy ichra barbod o‘ldi chandinlar.

Navoiy, bo‘lmayin zor-u zaif o‘lmas navo topmoq,
Bu ermish piri chang avtoridin dayr ichra talqinlar.

158

Ollim ul oy sajdasidin resh erur, holim budur,
Toati maqbulum uldur, dog‘i iqbolim budur.

O‘qlaridin qushdek o‘ldum jong‘a ul ko‘y orzu,
Uchmoq istarmen, vale ko‘rkim, par-u bolim budur.

Bas, g‘aniymen ko‘hi g‘am birla junun toshi aro,
Iynak-iynak taxti johim uldur-u molim budur.

Yor shavqidin o‘lar holatdadurmen, ey tabib,
Ne ilojing bor mening xud za’fi ahvolim budur.

Cho‘mg‘ali qo‘ymas quruq naydek so‘ngaklar ashk aro,
Turfa ko‘rkim, bahri bepoyon aro solim budur.

Topmayin dunyoda kome, dinni barbod ayladim,
Hayf do‘zax ham manga, billah, gar a’molim budur.

Ey Navoiy, gar o‘larda jon talashsam qilma ayb,
Dermen ul oyni ko‘rub, jon bersam ihmolim budur.

159

Tirguzur har dam raqiblarni-yu meni o‘lturur,
O‘t yoqib el jonig‘a mening ichimni kuydurur.

Ko‘nglum ahvolin sabodin so‘rdum ersa dedikim:
Telbalardek bir pari ko‘yida sargardon yurur.

Ul quyosh yuziga boqqan soyi ortar ko‘z yoshim,
Mehr tobidin agarchi har nekim, o‘ldur, qurur.

Qon yoshim rangi yoshurdi xotami la'l og'zini,
O'ynamoqda yoshlar andoqkim uzukni yoshurur.

Senki yo'qsen mohruxlar jilva aylarlar va lek,
Kecha ishnar qurt nuri mehr chiqqach bilgurur.

Ul quyosh hijronida har tun iki munglug' ko'zum,
Tongg'a tegru subhidam yo'lig'a boqib telmurur.

Tuzluk aylab sham'dek, vah, bilmadimkim, bu nihol
Mehnat o'ti gul ochar, yosh qatrasi bar kelturur.

Bul-ajablig'lar bahori ishq aro ko'rkim, meni
Gah bulutdek yig'latur, gohe choqindek kuldurur.

Zuhd ohangin Navoiy har nechakim soz etar,
Bir navo birla mug'anniy yona yo'ldin ozg'urur.

160

Yana sensizin munisim g'am bo'luptur,
Ko'zumga yurak qoni hamdam bo'luptur.

Qarorib ko'zum dam-badam zor yig'lar,
Anga shomi hajringda motam bo'luptur.

Yaramdin chekarga o'qin sa'y qilmang
Ki, paykon so'ngak ichra muhkam bo'luptur.

Ichimdin nechuk tortqaylar o'qinkim,
Ko'ngul qo'ymas-u jon madad ham bo'luptur.

Ko'ngulga yoqar kirpikingning xayoli,
Mening zaxmima nish marham bo'luptur.

G'uborin tilab yig'lama har dam, ey ko'z
Ki, ashkingdin-o'q Yer yuzi nam bo'luptur.

Bu gulshan aro barg to‘tilarig‘a
Xazon tifli bas boisi ram bo‘luptur.

Vafo shaxsining farqini charx tiyg‘i
Iki bo‘ldi, vahkim, biri kam bo‘luptur.

Emas g‘am yukidinki, qoshingni ko‘rgach,
Navoiy sujud etkali xam bo‘luptur.

161

Ko‘zung ne balo qaro bo‘luptur
Kim, jong‘a qora balo bo‘luptur.

Majmuyi davoni dard qildi
Dardingki, manga davo bo‘luptur.

Ishq ichra aning fidosi yuz jon
Har jonki, sanga fido bo‘luptur.

Begona bo‘luptur oshnodin
Begonag‘a oshno bo‘luptur.

To qildi yuzung havosi jonim,
Yuz sori anga havo bo‘luptur.

Baqo topar ulki, bo‘ldi foniy,
Rahravg‘a baqo fano bo‘luptur.

To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli aro navo bo‘luptur.

162

Ko‘k g‘azoli chunki kofur uzra mushkafshon bo‘lur,
Kavkabafshon ko‘zlarimdin ul quyosh pinhon bo‘lur.

Mungrayib andoq sinuq ko‘nglum buzulurkim, sipehr
Bul-ajab holimg‘a yuz ming ko‘z bila hayron bo‘lur.

Gah yurub, gah o‘lturub, bir lahza tutmasmen qaror
G‘ussa bandidin bari olam manga zindon bo‘lur.

Gah ko‘ngul o‘ti urar ko‘ksum shikofidin alam,
Gah bag‘ir pargolasi ko‘z yo‘lidin g‘alton bo‘lur.

O‘lturur uy saqfig‘a ohim tafidin qatralar
Yo mening holimg‘adurkim, tom-u tosh giryon bo‘lur.

Eyki, istarsen salomat, ishq ko‘yin so‘rmag‘il
Kim, bu yo‘lg‘a har kishikim tushti, sargardon bo‘lur.

Istaganga do‘st komin, istabon kuymak ne tong,
Gar tutun sunbul, o‘tun ashjor-u o‘t rayhon bo‘lur.

Ichni uryon qilki toshing zebi man’i faqr emas,
Faqr emastur, gar iching mamlu, toshing uryon bo‘lur.

Ey Navoiy, ishq man’in elga irshod aylading,
Alloh-Alloh, bu ne makr-u hiyla-vu daston bo‘lur.

163

Vahki, maydon azmig‘a sekretti ul chobuksuvor,
Kimdururkim, asrag‘ay emdi inoni ixtiyor?!

Qosh-u yuzungdin agar ortar jununum ne ajab,
Telbalikka ham yangi oydur madad, ham navbahor.

Chok eting ko‘ksumki, chiqsun o‘tlug‘ ohim shu’lasi,
Bir nafas bo‘lg‘ayki, bu anduh o‘ti topqay qaror.

Aql-u fahm oshuftahol o‘ldi yigit joning uchun
Kim, yana uydin munungdek chiqmag‘il oluftavor.

Soqiyo, chun ichkumizdur oqibat jomi ajal,
Boda tut andin burunkim, bizni o‘lturgay xumor.

Bir zamonlig‘ hajr chun ming yilcha bor, o‘lsam ne tong,
Chunki bo‘lmas hech kishining umri ming yil poydor.

Ey Navoiy, shukrkim, maydong‘a ul shah qo‘ydi yuz
Kim, yo‘lida qolmadi navmid joni xoksor.

164

Vahy nozil bo‘ldi yoxud yorning payg‘omidur
Kim, g‘amim taskini g‘amgin xotirim oromidur.

Safhayi kofur uza mushkin raqamkim aylamish,
Go‘yiyo subhi saodat uzra davlat shomidur.

Hajridin jonim arosig‘a agar xud kirmadi,
Nega shakli jon aro kirgan alif andomidur?

Kirdi jon jismimg‘a xatti safhasin ko‘rgach, magar
Elga jon bermakka mehr uzra Masih arqomidur.

Va’dayi vasl erdi mazmun, gah o‘lukmen, gah tirik,
Anglaman qotilmudur bu mujda, ruhafzomidur?

Vodiyi hayratda qolg‘anlarg‘a jon hirzi uchun
Ruq’ayi maqsud komil nutqi yo i’lomidur.

Ey Navoiy, nega surtub ko‘zga solmay jong‘akim,
Ham ko‘zumning nuri, ham ozurda jonim komidur.

165

Barmog‘i hayrat bilakim la’li xandon ichradur,
Ul alif yanglig‘dururkim, filmasal jon ichradur.

Xoni husni zavqini bilmakka yoxud barmog‘i
La’li xandon ichra ermaskim, namakdon ichradur.

La’li bir so‘z birla yuz yilliq o‘lugni Xizr etar,
Go‘yiyo Ruhullah ushbu obi hayvon ichradur.

Munfaildur yuz-u zulfidinki tebrangay nasim,
Jilvagar tovuskim, firdavsi rizvon ichradur.

Orazing hajrinda har qonlig‘ ko‘zumdur lolaye,
Dog‘lar ko‘zning qarosin anglakim, qon ichradur.

Tutma ulfat bog‘ arokim sarsari daydin durur,
Emin ul qushkim, aning ma’vosi vayron ichradur.

Ey Navoiy, birga yuz jomi balo turmish to‘la,
Har nechakim sog‘ari ishrat bu davron ichradur.

166

Qoshing ko‘zdin nihon, andin nihonroq xoli mushkindur,
Bu aning nuqtasidur, go‘yiyo ul “nun”i tanvindur[1].

Ko‘ngul zulfung g‘amidin toza-toza dog‘ ila go‘yo
Ki, nisfi qon-u nisfi mushk bo‘lg‘an nofayi chindur.

Itingning goh izi, gah panjasidindur dimog‘im xush,
Bu birdur mushkbid, ul bir anga go‘yoki nasrindur.

Nedin bilman yuzum sarg‘ardi muhriq ishq tobidin,
Yuzi o‘tqa yaqinroq bo‘lg‘an elning chunki rangindur.

Ichimda andoq o‘tdurkim, tugan jismimda kuydursam,
Anga bu o‘tdin andoqkim, sudin bu o‘tqa taskindur.

[1] **Tanvin** — 1) “nun”lashtirib (“N”lashtirib) o‘qish (ayrim arabcha otlar oxirini “n” bilan aytish.

Yuzungga boqsa bo‘lg‘ay oy-u kuncha, nuri o‘ksulsa,
Yaqin ermas bu ham, astag‘firulloh, balki taxmindur.

Qizil to‘n birla chiqti, lolaruxlar ne ko‘rungay, vah,
Bu guldin xil’at etkan sarv, alar har yon rayohindur.

Jahon makkorasi dilkashdur, ammo kimki aqd etsa,
Ipak jon rishtasi, yormoq anga din naqdi kobindur.

Qoshing mehrobig‘a, ey mug‘bacha, yuz qo‘yg‘ali qo‘ykim,
Bu toat dayr piridin manga ishq ichra talqindur.

Yuzung ko‘rmak tilab tinmas Navoiy ko‘ngli solmoqtin
Xudoy uchun olib burqa’ni oning ko‘nglini tindur.

167

Nuqtayi xolingki ko‘zdin doimo ma’dum erur,
Nuqtayi xol ermas ulkim, nuqtayi mavhum erur.

Tong emas ul nuqta gar ko‘zdin nihondur, vah, ne tong,
Mardumin ko‘rmakligidin ko‘z agar mahrum erur.

Baski xoli ko‘zdadur bo‘lmish jahon bir safhakim,
Raml mashqi yanglig‘ anda nuqta-o‘q marqum erur.

Axtari baxtimdurur ul xol, yo‘qsa ko‘rmaduk
Kavkab andoq tiyrakim, xurshid uza ma’lum erur.

Xoli ruxsorin kumush masnadda Hinduston shahi
Ollida saf tortibon xat, tobi’-u mahkum erur.

Eyki maydin xoli ermas, deb meni ta’n aylading,
Bore ko‘rguz onikim, bu dayr aro ma’sum erur.

Dog‘i pinhondur Navoiy ko‘nglida, ey lolarux,
Nuqtayi xolingki, ko‘zdin doimo ma’dum erur.

168

Har labing o‘lganni tirguzmakda, jono, jon erur
Bu jihatdin bir-birisi birla jonojon erur.

Jonim andoq to‘ldi jonondinki, bo‘lmas fahmkim
Jon erur jonon emas yo jon emas, jonon erur.

Bo‘lsa jonon bordurur jon ham, chu jonon qildi azm,
Jon ketib jonon bila jondin manga hijron erur.

Jon manga jonon uchundur, yo‘qki jonon jon uchun,
Umr jononsiz qatiq, jonsiz vale oson erur.

Borsa jon, jonon yitar, gar borsa jonon, jon ketar,
Kimsaga jonon-u jonsiz umr ne imkon erur.

Xushturur jon-u jahon jonon bila, jonon agar
Bo‘lmasa jon o‘ylakim, o‘lmas jahon, zindon erur.

Jonim ol, ey hajr-u jononsiz manga ranj istama,
Chunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon erur.

169

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur,
Mavjlug‘ daryo kibi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘alur.

Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilg‘a chiqmas kema deb
Kim, yoshing daryosidur har sarikim el ko‘z solur.

Titrabon siymobdek ko‘nglum, yetar jon og‘zima
Tund yel tahrikidin har damki, daryo chayqalur.

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib telmurub ko‘z, mungrayib jonim qolur.

Dam tutulg‘andin o‘lar eldek yetibmen o‘lgali,
Surmasun deb kemasin baskim nafaslar asralur.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin istab sudkim,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘alur.

G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.

170

Jon berur elga agarchi labidin qon tomadur,
Vah, dema qon tomadur, balki chuchuk jon tomadur.

Noz o‘qi birla ko‘zum mardumin etding majruh,
Ashki gulgun dema zaxmidin aning qon tomadur.

Vah, yaram ichra ne qondur buki devona ko‘ngul
Topsa taskin turadur, aylasa afg‘on tomadur.

Go‘yiyo fitna sahobidin erur seli balo,
Raxshidin qatraki, javlon aro har yon tomadur.

Tomchidek ashkim emas, ko‘nglum o‘ti daf’i uchun
Gah badan kulbasini qilg‘ali vayron tomadur.

Vahki, gul sham’in o‘churmaklik uchundur gar xud
Qatra o‘rnig‘a bulutdin durri g‘alton tomadur.

La’li vasfida Navoiy so‘zidin obi hayot
Qilsa paydo, oqadur, aylasa pinhon, tomadur.

171

Xol-u xating xayolidin, ey sarvi gul’uzor,
Gohe ko‘zumga xol tushuptur, gahe g‘ubor.

Yuzungda xol safhada tomg‘an kibi qaro,
Xoling malohati tuz erurkim, qaroda bor.

Jonimni o‘rtagan yuz-u xolingni bilmasang,
O‘t shu’lasida ayla gumon bir o‘chuk sharor.

Bilman ko‘ngulda xollaringning xayolidur,
Yo kirpiging tikanlarin aylabsen ustuvor?

Har dam ko‘ngul halok-u ko‘zum tiyra bo‘lmag‘in
Bilgay birovki, yori erur sho‘x-u xoldor.

Mashshotayi qazo bezamish xol-u xattini,
Beixtiyorliqda manga bormu ixtiyor?

Miskin Navoiy xoli labing ko‘rsa jon berur,
Boqsang ne bo‘ldi surati holig‘a, ey nigor.

172

Chiqti ov azmig‘a javlon aylab ul chobuksuvor,
Jon nisor ul sayd uchunkim, jon anga qilg‘ay nisor.

Bu edi qasdimki bir kun saydi fitrok aylagay,
Qilg‘anim umre kiyiklar birla suhbat ixtiyor.

Chun kiyik qatlini istar, koshki ruhum uchub,
Bir qatil etgan kiyik jismi aro tutqay qaror.

Toki yetkursam rikobig‘a boshimni, koshki
Qilsa shaxsimni qazo it shakli birla oshkor.

Qomati hajrida har yon yoradin qonlig‘ ko‘ngul
Bir kiyikdekdurki, o‘q zaxmi bila bo‘lmish figor.

Go‘r uchun ochmoq nedur har lahza Bahromiy kamand,
Chun seni Bahromdek aylar ajal go‘ri shikor.

Ey Navoiy, ul quyoshning soyasida ko‘r itin,
Komronu yo‘q sanga ollida itcha e’tibor.

173

Bargi gul yuzinda la’ling rashkidin xunoblar,
G‘uncha ko‘ngli ichra og‘zing hasratidin toblar.

Safhayedur orazim debocha ishq avroqig‘a
Qon yoshimning xatlari shingarf birla boblar.

Ashkim artilg‘an uchun xam bo‘lmamish kirpiklarim,
Kim, yasabdur ko‘z xayolin chekkali qulloblar.

Hajridin ko‘zlargakim ashk evrulur, ul ashk emas
Kim, erur dard-u balo daryosig‘a girdoblar.

Aybim etmang bosh ko‘tarmaydur debon xumxonadin,
Qilmayinmu sajda topsam bu sifat mehroblar?!

Hajr aro ikki ko‘zum ichra belingning naqshidur,
O‘tkarur tunni xayol aylab kecha bexoblar.

Ro‘zgorin qildi mazlum ohining dudi qaro,
Ko‘rma zolim xilvatining ko‘rkasin sinjoblar.

Terga botqan garmravlardin magar daf’ aylamish,
O‘zlugi chirkin taharrukdin irik moshoblar.

Do‘stlar, miskin Navoiy tiyra shomin yod eting,
Yor ila jomi hiloliy cheksangiz mahtoblar.

174

Telba ko‘nglum, vahki, har soat birov sori borur,
Man’ qildim ersa, bag‘rim og‘rig‘udek yolborur.

Qo‘ydum ersa, kelturur munglug‘ boshimg‘a yuz balo,
Qo‘ymasam, jong‘a zarar yetgudek o‘zidin borur.

Qo‘ymasam bu, qo‘ysam ul, vah, bo‘lsa yuz jonim fido
Ul kishigakim, hazin jonimni andin qutqorur

Aql vasvosini qo‘ysam avlo ulkim, men dag‘i
Boshim olib ketkamen har sarikim, ul boshqorur.

Soqiyo, bir nav’ men labtashna yo‘qkim og‘zima,
Har yaram og‘zig‘a quysang bir qadahni sipqorur.

Ikki yuzluk bo‘lmakim, bu bog‘ning ra’no guli
Gar qizarur bir yuzi, lekin yana bir sorg‘orur.

Kulda pinhon o‘t kibi topmas Navoiy ko‘nglini,
Har nechakim ishq kul qilg‘an vujudin axtorur.

175

Ul oyki, jafo nardini xo‘blardin utuptur,
Yo Rab, ne balo, mehr-u vafoni unutuptur.

Og‘zi bila pista o‘chashur puchlug‘idin,
Bilmanki, o‘shul og‘zi ochuq qayda butuptur.

Har dam qiziq ohim tafidin muztar o‘lurmen,
O‘tlug‘ nafas, ey voyki, og‘zim qurutuptur.

Yillar labi la’ling g‘amidin joni hazinim
Hasrat suyini xuni jigar birla yutuptur.

Aksini ko‘ngul ko‘zgusida ko‘rdum-u o‘ldum
Kim, g‘ayrin aning eviga nevchun yovutuptur?

Hijron kuni ishq ahlini o‘rtarga magar charx
Otashkadasida shafaq o‘tin yorutuptur.

Bulbul kibi xushgo‘y Navoiyni qilib xor,
Ul gulni ko‘rung jonibi badgo‘y tutuptur.

176

Barcha xo‘blarning qad-u ruxsoru xatt-u xoli bor,
Lek ulkim bizni behol aylar, o‘zga holi bor.

Yuzum oltundekdurur bu vajhdinkim, holiyo
Siymbarlar ul kishiningdurkim aning moli bor.

Kirgali ko‘nglum aro bir-bir o‘qung bo‘lmish tanim
Ul qalamdekkim, aning ichida tuz-tuz noli bor.

Sunbulung tushsa oyog‘ing ostida ne aybkim,
Gul bila xurshidning ostida lom-u doli bor.

Ul sababdin, zohido, mashg‘ul emasmen zuhd ila
Kim, ko‘ngulning mutrib-u may birla ko‘p ashg‘oli bor.

Odam o‘lmishmenki, ishq ahli manga avlod erur,
Yo‘qsa yoshdin mencha kimning yuz sari atfoli bor?

Gavhari maqsud chun vobastayi tavfiq erur,
Desa bo‘lmaskim, munung sa’yi, aning ehmoli bor.

Ey Navoiy, topmasang kome labi jonbaxshidin,
Sening uchun bo‘lsun aning g‘amzayi qattoli bor.

177

Chorayi kor istabon bechoralig‘ ko‘nglum tilar,
Xonumon tarkin qilib, avvoralig‘ ko‘nglum tilar.

Istaram ollingda qilsam sajda-u o‘psam labing,
But parastish aylabon, mayxoralig‘ ko‘nglum tilar.

Bag‘rim-u ko‘ksum bila ko‘nglumni qilding yoralig‘,
Jonni ham bu hol birla yoralig‘ ko‘nglum tilar.

Oshiq ishi chun savod-ul-vajhi f-id-dorayn erur,
Bu malomat ko‘yida yuz qoralig‘ ko‘nglum tilar.

Qasdima har yondin ul ko‘y itlarin qo‘y, ey raqib
Kim, salomat pardasin yuz poralig‘ ko‘nglum tilar.

Tan g‘uborin jon yuzidin raf’ qil, ey dardkim,
Ko‘zni ul yon gah-gahe nazzoralig‘ ko‘nglum tilar.

Ey Navoiy, nechakim ko‘nglumga tushkan dard uchun
Chora istarmen, vale bechoralig‘ ko‘nglum tilar.

178

Har o‘qi ul qoshi yoning jonnikim, qurbon qilur,
Rost bir o‘qdurki, qurbon ko‘nglum ichra sanchilur.

Istasa vaslin ko‘ngul ko‘z rashkdin qon yosh to‘kar,
Ko‘z yuzin ko‘rgach, ko‘ngul yuz nola g‘ayratdin qilur.

Tiyg‘i ko‘ksum chok etib, ko‘nglumni ochsa ne ajab
Kim, ravon sudin hamesha xalq ko‘ngli ochilur.

Garm o‘lub har yon ul otashporakim novak otar,
Rost o‘tdekdurki, girdidin shararlar ayrilur.

Yuzni o‘n tirnoq ilakim g‘ussadin qildim shiyor,
Dona erkin ko‘z yoshimkim, har dam anda sochilur.

Boda ichkim, charx jomi sirrini Jam bilmadi,
Garchi ul yuz Jam kibi mayxoraning davrin bilur.

Oh o‘tidin shikva gar aylar Navoiy ayb emas,
Telbalarning har nekim, og‘zig‘a kelsa, aytilur.

179

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,
So‘ngra degil ko‘ngul otlig‘ notavonimdin xabar.

Chun manga berding xabar, lutf aylab ul yon dag‘i elt,
Xotiri majruh ila ozurda jonimdin xabar.

Gar bular ko‘ngliga ta’sir aylamasdek bo‘lsa, ayt
Yor yuzin g‘arq aylagan ashki ravonimdin xabar.

V-ar munga ham qilmasa parvo, degil aflok elin
Kecha-kunduz jong‘a yetkurgan fig‘onimdin xabar.

Qilsa istig‘no kerakkim, aylagay, albatta, rahm,
Gar desang jonim aro dog‘i nihonimdin xabar.

Aytkim, tutqil xabar mendin yo‘q ersa, topmag‘ung
Olam ichra istabon nom-u nishonimdin xabar.

Arz qil tadrij ilakim, shodlig‘din o‘lmayin,
Ey Navoiy, kelsa nogah dilsitonimdin xabar.

180

Yo Rab, bu ne guldurkim, boshig‘a chechak sanchar,
Gah egri qo‘yar bo‘rkin, gah belga etak sanchar.

Ko‘nglumga chekib novak, oj ayladi payvandin,
Har zaxmki ul teshti el anga so‘ngak sanchar.

Boshimda havas la’ling, olamg‘a vido ettim,
Chiqsa kishi majlisdin, boshig‘a gazak sanchar.

G‘am kulbasida, jono, ul xastag‘a rahm etkim,
Tebransa bag‘ir og‘rir, dam ursa yurak sanchar.

Qullobi muhabbatdur sargashta ko‘ngullarga,
Chun qush solib ul chobuk, boshig‘a kajak sanchar.

Har kavkab uchin gardun nish etti shuoidin,
G‘am shomi vafo ahlin har nav’ kerak sanchar.

Sanchilg‘an ajal xori ishq uchrasa bilgaysen
Kim, jong‘a balo nishin hajr o‘zgacharak sanchar.

Jismin chu Navoiyning paykoni temur qildi,
Bilmanki, sinon emdi bag‘rig‘a netak sanchar?!

181

G‘aming o‘qiki ko‘ngullar uyin nishona qilur,
Mening chu xokiy tanim ichra yetti, xona qilur.

Labing bahonasiz el qonini to‘kar har dam,
Manga chu yetti ish, albatta, bir bahona qilur.

Ko‘ngul berurda fusunlug‘ ko‘ziga bilmas edim
Ki, el ichinda meni oqibat fasona qilur.

Ko‘ngulda javhari paykoniniki yig‘mish jon
Ajab emaski, bu vayronani xizona qilur.

Desaki, mehr giyohin ko‘kartayin gardun,
Zamona ahli vafo ko‘z yoshini dona qilur.

Halok domi yoyar subhxez qushlar uchun
Sahar yeliki, chaman sunbulini shona qilur.

Nasib bulbul uchun xori g‘amdurur, ul ham
Navoiy nag‘masi birla magar tarona qilur.

182

To bo‘ldi ko‘ngul ul ko‘zi usrukka giriftor,
El ko‘ziga sog‘men, vale o‘z-o‘zuma bemor.

Tongdin tanim oqshomg‘acha tosh zaxmi bila resh,
Tundin badanim tongg‘acha tish zaxmidin afgor.

Kulbamning emas xishtlari darziki, ochmish
Holimg‘a fig‘on qilg‘ali og‘zin dar-u devor.

Xalq ichra ko‘ngul ishqini fosh ayladi ohim,
Uy ichida o‘t bor ekanin dud etar izhor.

Ul but g‘amidin kofiri ishq o‘lg‘ali ko‘nglum
Jon rishtalarin jam’ qilib bog‘ladi zunnor.

Xush gulshan erur dahr budur aybiki, anda
Payvasta xazon yelidin ozurdadur ashjor.

Yor ollida gar bor yo‘q ersa ajab ermas,
Ag‘yor chu bor anda, Navoiy sanga ne bor?!

183

Fig‘onki, yor vafo ahlig‘a sitam qiladur,
Niyoz-u ajz gunohig‘a muttaham qiladur.

Naimi vaslig‘a xo‘y aylagan ko‘ngullarni,
Asiri hajr etibon mubtaloyi g‘am qiladur.

Raqib behuda taqriri birla yuz taqsir,
Zaif g‘amzadalar otig‘a raqam qiladur.

Ne hukm qilsa vafo ahli jurmida g‘am emas,
Bu zulm erurki, jafo ahlini hakam qiladur.

O‘z ilgi birla gar o‘ltursa bok yo‘q, vahkim,
Raqib ollida aftoda-vu dijam qiladur.

Muhabbat ahlini, vo hasratoki, ko‘p o‘rtab,
Alarning ohi o‘tidin haros kam qiladur.

Chu gul vafosiz erur, necha asrasam, vahkim,
Ko‘ngul qushi bu gulistondin emdi ram qiladur.

Zamona o‘q kibi tuzlarni sindurub, “yo”dek
Alarki egridurur shahg‘a muhtaram qiladur.

Navoiy o‘lgay edi bo‘lmasa ummidi visol,
Bu qasdlarki, anga hajr dam-badam qiladur.

184

Ulki, onsiz xasta ko‘nglumning yuz oh-u voyi bor,
Hajridin yuz ming meningdek o‘lsa, ne parvoyi bor?!

Charx tong otquncha yig‘lar mehrin eldin yoshurub,
Go‘yiyo ul sargashtaning ham bir musofir oyi bor.

Ganji husnung yanglig‘ o‘lmish maxzani mehrim mening
Kim, necha isrof birla xarj qilg‘an soyi bor.

Zahri hijronkim chekarmen, ta’mini bilgay magar
Bedilekim, bir vafosiz kofiri xudroyi bor.

Ishq mulkidin xabarlar topsa Laylo tong emas
Kim, aning Majnun kibi payki jahonpaymoyi bor.

Mehrning ko‘rma shafaq ichra shuoiy xatlarin
Kim, sipehr osibidin mujgoni xunpoloyi bor.

Hajr aro qildi Navoiy qoshlaring ko‘nglida naqsh,
Razm elidek ish kuni qurbonda ikki yoyi bor.

185

Voy, yuz ming voykim, tarki muhabbat qildi yor,
Bilmayin qoldim men-u qilmay xabar ayrildi yor.

Bordi o‘qdek tezu “yo”dek qomatim yod etmadi,
Ishq aro go‘yo mening egriligimni bildi yor.

Chun gadolar birla shahlar qilmas ermish yorlig‘,
Men gadoni ko‘zga bas nevchun burundin ildi yor.

Pand eshitib, do‘stlar, hech kim bila yor o‘lmangiz
Kim, mening bag‘rimni tiyg‘i hajr birla tildi yor.

Mendin ayrilg‘an balo-vu dard uchunmu yig‘layin
Yo angakim, boribon ag‘yor ila qotildi yor.

Yig‘lashib g‘am shomi zohir aylasunlar dard o‘tin,
Kimgakim bayt ul-hazanda sham’dek topildi yor.

Ey Navoiy, yor uchun tortar eding g‘urbatda ranj,
Yo‘lg‘a tush, emdi ravonroq bo‘l, azimat qildi yor.

186

Har qayon boqsam ko‘zumga ul quyoshdin nur erur,
Har sari qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.

Chun masal bo‘ldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud,
Mushk isin yashursa bo‘lmas, bu masal mashhur erur.

Telbarabmen to ani ko‘rman, ajoyibdur bukim,
Ul pari devona ko‘zidin dag‘i mastur erur.

Chun mudom erning mayi qoshindadur kofir ko‘zung,
Nedin erkinkim, dame usruk, dame maxmur erur.

Dilrabolar dog‘i jonim safhasida go‘yiyo
Dard eli ishqim uchun muhr aylagan manshur erur.

Par urub boshingg‘a tutma avjkim, har necha mo‘r
Kim, qanotlang‘ay qachon uchmoq anga maqdur erur.

Gar Navoiy siymbarlar vasfin aylab ko‘rsa ranj,
Yo‘q ajab nevchunki xom etkan tama’ ranjur erur.

187

Yor bordi-yu ko‘nglumda aning nozi qoliptur,
Andoqki qulog‘im to‘la ovozi qoliptur.

Ko‘z xonasini qildi barandoxta bu ashk,
Ko‘z bordi vale xonabarandozi qoliptur.

Ko‘nglum qushi to sunbulunguz domig‘a tushti,
Bulbul kibi har gul sori parvozi qoliptur.

Ul qush safar aylab ne tarab gulbunin ochqay
Kim, bog‘ aro bir sarvi sarafrozi qoliptur.

Men ishq rumuzin demay o‘ldum, safar etkim,
Farhod ila Majnunning o‘kush rozi qoliptur.

Taqlid qilib ko‘ngluma ishq ahli chekar oh,
Ul bordi-yu el ichra sarovozi qoliptur.

Hijron-u visolin ko‘p-u oz dema Navoiy,
Yuz shukr dekim, ko‘pi borib, ozi qoliptur.

188

Ul malaksiymo parikim, xalq aning hayronidur,
Jonlar oshubi, vale oshufta jonim jonidur.

Tifl avroq ichra bir-bir bargi gul tergan kibi,
Nomayi hijron aro tim-tim sirishkim qonidur.

Ko‘rsa jon zaxmida qonlig‘ marhamin aylar gumon
Kim, buzulg‘an ko‘nglum o‘tidin qiziq paykonidur.

Yuzunga may gullari yuz fitna qildi go‘yiyo
Fitna har gulkim, ochar, yuzung aning bo‘stonidur.

Bormudur ko‘nglumda keskan ham alif, ham na’l-u dog‘,
Yo bu mir’ot ichra solg‘an aks husnung onidur.

Dahr taroji qilur uryon chaman ra’nolarin
Yoldin un chekmas yig‘ochlarkim, chaman afg‘onidur.

Ey Navoiy, bilki tong otquncha yig‘lar har kecha
Charxdek har kimki, bir badmehr sargardonidur.

189

Shahsuvorim har qachon javlon qilur,
Mahv o‘lub bilman o‘zumni, Haq bilur.

Anga har ko‘zkim tushar, kirpiklari
Xasta ko‘nglumga tikandek sanchilur.

Ochilur ko‘nglum samandi sayridin,
G‘uncha yanglig‘kim sabodin ochilur.

Ayrilur go‘yo quyoshdin bir shihob
Oti na’lidin har o‘tkim, ayrilur.

Oh tortarda magar jon pech urar,
O‘q otarda har qachonkim qayrilur.

Tavsani gardunni markab qilmakim,
Yer bila rokibni oxir teng qilur.

Tez etar tiyg‘ing Navoiy ishqini,
Garchi o‘t o‘char, agar su sochilur.

190

Qaysi bir ko‘kning yuzingdek mehri olamtobi bor?!
Qaysi gulshanning jamolingdek guli serobi bor?!

Zulfidin, ey zaxmliq ko‘nglum, qutulg‘ung yo‘qturur
Kim, sening har halqayi zulfungda bir qullobi bor.

Zulf-u yuzidin dam urmang, tun bila kun chashmasi
Kim, bu sunbul birla gulning o‘zga ob-u tobi bor.

Ne uchun har dam sarig‘raqtur yuzumning oltuni,
Bovujudikim yuzida ashkdin siymobi bor.

Sajda gar aylar malak, ne tongkim ul oy qasrining
Kungiri shaklidin atrofida ko‘p mehrobi bor.

Davlati zohirki, mahbub aylading, tark aylakim,
Qaydinga zulfini “dol”-u “lom”idin asbobi bor.

Yuz-u la’lingdin Navoiy bexud o‘lsa so‘rmag‘il,
Bir itingdurkim, sahar vaqtida shakkarxobi bor.

191

Ulki yuz mendek jahonda vola-vu shaydosi bor,
Nechakim bordur niyozim, noz-u istig‘nosi bor.

Dam-badam ko‘nglum berib jon naqdi istar vaslini,
Alloh-Alloh, telba ko‘nglumning ajab savdosi bor.

Ko‘nglakim qonlig‘ tuganlar o‘rnidin gulgul erur,
Ul katondekkim, yuzida har taraf tamg‘osi bor.

To o‘qung yomg‘ur kibi keldi, ko‘zum bo‘lmish sadaf,
Bovujudi ulki durdin yuz sari daryosi bor.

Jon berib, darding olib ko‘ksumda asrarmen, ne ayb,
Asrasa sanduq aro ulkim samin kolosi bor.

Bo‘lma emin charx davridin muraqqa’po‘sh deb,
Kim, quyoshdin bu muraqqa’ ichra o‘tlug‘ tosi bor.

Itlaring bo‘lmish Navoiy ko‘ngli uchun mehmon,
Bu kecha ul ko‘y aro ko‘rkim, ajab g‘avg‘osi bor.

192

Yana g‘arib gule jonima jafo qiladur,
Yana ajab tikane ko‘nglum ichra sanchiladur.

Yana bir o‘zgacha ishq ikki ilgi zo‘ridin
Bag‘ir bila yuragim bir-biridin ayriladur.

Qaladi, vahki, o‘tundek so‘ngaklarimni sipehr,
Bu yangi o‘tqaki tan kulbasida yoqiladur.

Firoq kojlari birla, vahki, ne o‘tlar
Bulutdek ashkfishon ko‘zlarimga choqiladur.

Sirishk ayladi xokiy tanimni andog‘kim,
Qadam qo‘yay desa uyqu ko‘zumga, toyiladur.

Qochar bu telba ko‘ngul, yana voqif o‘l, ey aql
Ki, tolpinur ko‘p-u ko‘ksum shikofi ochiladur.

G‘arib qissa erur ishqkim tuganmadi hech,
Agarchi bo‘lg‘ali olam binosi aytiladur.

Navoiy, ahli junun qaydi yor zulfi emish,
Xirad tanobini uz, band agar bu silsiladur.

193

Maydin ayru gul emas go‘yo erur gulgun harir
Kim, kesib gul hay’ati birla sepipturlar abir.

Sham’ emas bog‘ ichra maysizkim, hunarvar ilgidin
Bo‘ldi rangin mum har qolab bila hay’atpazir.

To qizitmaydur qulog‘ni may guli yakson erur
Bulbul og‘zidin safir-u bog‘ eshigidin sarir.

Soqiyo, jonimg‘a yettim tavbadin, joning uchun
Bo‘l manga bir lab-balab paymona birla dastgir.

Bodayekim, yetgach og‘zimg‘a, chiqarg‘ay nash’asi
Taqvo-yu islom-u aql-u zuhd jonidin nafir.

To bo‘lub rasvo yana bir jom uchun mug‘ ko‘yida
Har zamon o‘zumni kofirlarg‘a qilg‘aymen asir.

Ey Navoiy, ma’siyat uzrida o‘lsang yaxshiroq,
Zuhd ujbidin mukaddar bo‘lg‘ucha lavhi zamir.

194

Soqiyo, day shiddatidin aql-u his betob erur,
Chorasi jomi bilurin ichra la’li nob erur.

Tiyin-u qoqumni rokib sho‘xlar o‘z egnidin
Tob birla yuzga chekkandin ko‘ngul betob erur.

Ishqdin yo‘qkim, sovug‘din otashin gul istabon
Topmag‘andin bulbul a’zosida par sinjob erur.

Siym o‘tdin suv bo‘lur, yeldin ajoyibdur bukim,
Titramakdin siymbarlar jismi chun siymob erur.

To‘lun oy ermas, tun oqshomkim quyoshning chashmasi
Muz to‘ngubturkim, ziyosi tiyra chun mahtob erur.

Siymdin bahman chaman Qofini to zol ayladi,
Qushlar ul siym ostida Simurg‘dek noyob erur.

Ey xush ulkim, la’lgun may ich debon taklif uchun
Ilgi bir zarrin kamarning bo‘ynig‘a qullob erur.

Kishu o‘rmak qaydidin o‘t, ayshni favt etmakim,
Kish qaroroq tulku, o‘rmak yupqaroq moshob erur.

Ey Navoiy, gar muhayyo topmasang asbobi aysh,
G‘am yema, shah qullug‘i yuz aysh uchun asbob erur.

Ul sarafrozeki, oliy dargahining hay’ati
Barcha sarkashlarga bosh qo‘ymoq uchun mehrob erur.

195

Orazing xurshid-u og‘zing zarradin timsol erur,
Zarra uzra nuqta yanglig‘ og‘zing uzra xol erur.

Kokulungdur mushk-u ustida gireh mushk uzra “mim”,
Qomating shamshod-u zulf ostida tushgan dol erur.

Qosh-u qadd-u zulfidin payvasta to na’l-u alif
Tanda kestim, noladin ozurda jismim nol erur.

Chun dedim: xoling bila ko‘z mardumining holi bor,
Dedi ulkim: xol deysen, nuqtasiz ham hol erur.

Nukta der holatda tor og‘zingni ko‘rguzgan labing,
Go‘yiyo zanbur nishidin teshilgan bol erur.

Durdkashmen piri dayr ollida maqbul o‘lg‘ali,
Davlat ahlining qabuli ko‘rki, ne iqbol erur.

Soqiyo, gar davr ta'jilin ko'rub qon yig'lamas,
Bas Navoiydek surohiy ashki nevchun ol erur?

196

Orazing ko'zgusimu ter kasratidin sudadur
Yoxud ul oraz suyining aksimu ko'zgudadur?

Dema ayni nozdin ul ko'z ochilmaydurki, bor
Kofirekim mastlig' ifrotidin uyqudadur.

Topmog'im o'zni mahol o'lmish firoqing shomikim,
Tab arodur xasta jism-u tob ul gesudadur.

Sen otarsen novak-u ko'ksum shikofidin ko'ngul
Ko'rgali kelmish, xato qilmaki, xush qobudadur.

Sajda qilmoq ne tafovut Ka'ba yoxud butqakim,
Qoshi mehrobi, qayon qilsam sujud, o'trudadur.

O'lmagimdin zulfunga go'yo parishonlig' yetib,
Motam ahlidek quyi solib boshin qayg'udadur.

Nuh umri-yu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo[1],
Ich, Navoiy, bodakim olam g'ami behudadur.

---

[1] *Satr ma'nosi:* "Hazrati payg'ambar Nuh alayhissalom salkam ming yil yashagan bo'lsalar ham, umrlari abadiy emas, hazrati payg'ambar Sulaymon alayhissalomning saltanati hech kimga muyassar bo'lmaydigan buyuk saltanat bo'lsa ham, mangu emasdir — o'tkinchidir". Qur'oni Karimning "Ankabut" surasi, 14-oyatiga ishora; oyat ma'nosi: **"Muhaqqaq, Biz Nuhni qavmiga** (payg'ambar qilib) **yubordik. Bas, u ularning orasida ellik yili kam ming yil** (950 yil) **turdi".** Yana "Sod" surasi, 35-oyatiga ishora; oyat ma'nosi: "(Sulaymon) **dedi: "Yo Rabbim! Meni mag'firat qil va menga o'zimdan keyin hech kimga muyassar bo'lmaydigan bir mulkni** (va podshohlikni) **ehson ayla! Darhaqiqat, Sen ko'p lutf-u ehson qilguvchisan!"**

197

Orazing ko‘zgusida xat sabzadurkim, suda bor,
Yo magar zangor su ta’siridin ko‘zguda bor.

O‘qlaring paykon bila har yon quruq jismimdadur,
Shoxlar uzra ko‘ngullardekki ul nojuda bor.

Zahri hajring qildi daf’ ul ko‘z qorasi, vah, bu nav’,
Qayda bergay xosiyat pozahrkim, ohuda bor.

Bordurur mehrob turg‘ach butqa qilg‘andek sujud,
Sajda qilsam qiblag‘a to qoshlaring qarshuda bor.

Zulf aro xoling agar din qasdi aylar ne ajab,
Muncha kofirlig‘ ragi, vah, qaysi bir hinduda bor.

Ishq vodiysin xatardur ilm ila qat’ aylamak,
Solik ersang tashla ma’lumungni-yu osuda bor.

Yuzin istarsen, Navoiy, qochma zulfi fikridin
Kim, sen istar ayshning ummidi bu qayg‘uda bor.

198

Yuzungda zarvaraq har yonki lutfi benihoyatdur,
Jamoling mus’hafida har biri go‘yo bir oyatdur.

Sochingda zarfishon chehrang zalolat shomida har yon
Tajalliy mash’alidin yorug‘an sham’i hidoyatdur.

Yuzungda nil xoli ravza ichra nilufar shibhi,
Binafsha gulshan ichra yuzda nilingdin kinoyatdur.

Ko‘ngul saydig‘a ochma sunbulung domin, yuz ochqilkim,
Gul-o‘q ochilsa qayd etmakka bulbulni kifoyatdur.

El ichra ko‘pturur afsona Laylo husnidin, lekin
Sening husnungg‘a tashbih etmak oni ne hikoyatdur?!

Ko‘ngul qonin ko‘p ul xunxora ko‘z ichti, emas go‘iyo
Yuzung gulgunadin gulgunkim, ul qondin siroyatdur.

Dema, tush vaqti ul yuz kundin ortuqtur, muni ko‘rgil
Kim, ul yondin nihoyat bo‘lsa, bu yondin bidoyatdur.

Erur bedod, borinda tarahhum, do‘stdin yuz hayf
Angakim, shukr borinda ishi doim shikoyatdur.

Navoiyg‘a ko‘ngul berdingki, jonin olg‘asen bir kun,
Erur o‘z naf’i, shahdin gar raiyatqa rioyatdur.

“ZE” HARFINING ZEBOLARINING ZIYNATI “G‘AROYIB”DIN

199

Jahoni buqalamun ichra tushmish elga gudoz,
Magarki tosig‘a o‘t yoqti charxi shu’badaboz.

Bu turfaroqki, munungdek tamug‘ aro tushmish,
Samur-u qoqum uchun olam ahlig‘a tak-u toz.

Ne ko‘kka chiqmoq erur dolbo-yu o‘tag‘a bila
Ki, bol-u par bu esa, mumkin ermas ul parvoz.

Ne garmlig‘ni qo‘yar, ne fusurdalig‘ni bashar,
Nechaki kuyub erir o‘t-u muz kibi qish-u yoz.

Falak arusida yo‘q mehr-u dilrabolig‘ ko‘p,
Nechukki husn-u jamol ahlig‘a vafo bila noz.

Egilib o‘psa yer ahli g‘urur hurmat uchun,
Shabih erur anga mutlaqki mast qilsa namoz.

Xush ul jaridaki, bir nav' qilsa sayr-u suluk
Ki, soya hamqadam o'lsa anga, kamar hamroz.

Navo agar tilasang, tut qiroqki, egri bami
Ne ko'p taponcha yer-u ne biyik chekar ovoz.

Navoiy, yor ila bo'lkim, budur haram vasli,
Maqoming o'lsa Ajam yo Iroq yoki Hijoz.

200

Rafiqlar, meni mahzun nechuk bo'lay g'amsiz
Ki, ko'nglum ermas alamsiz, ko'zum emas namsiz.

Sinuq ko'ngulda chu yo'q shodlig', sog'inurmen
Ki, yo'qturur bori olamda bir ko'ngul g'amsiz.

Demangki, hajrda may hamdam o'lsa g'am kam o'lur
Ki, samdurur, dam emas, boda yor-u hamdamsiz.

Xush ulki, yor firoqi-yu yo ko'ngul g'amidin
Tamom umrida bir lahza erdi motamsiz.

Ko'ngul g'amini deb ahbob, rahm qildi habib,
Mening jarohatim erdiki, qoldi marhamsiz.

Ko'zumdin etmagil, ey sarv, hech jonib mayl
Ki, yaxshiroq ko'runur sarvkim, bo'lur xamsiz.

Navoiyni vara'-u zuhd qaydi o'zlugidin
Xalos qilmadi, ey ishq-u may, magar ham siz.

201

Tirguzur har xastani bir noz ila ul dilnavoz,
Chun yetar men xastag'a navbat, qilur yuz nav' noz.

Zohido, har dam demakim mazhabingda bor qusur,
Qaysi masjidda qilib erdim sening birla namoz?!

Ishq aro ko‘nglumni ul yuz mehridin man’ aylamang
Kim, emas mumkin samandar o‘tdin etmak ehtiroz.

Bir kun ohimdin o‘shul badmehr ko‘ngli yumshag‘ay,
Nechakim po‘lod erur qattiq topar o‘tdin gudoz.

Yo Rab, oxir netgamen ul sho‘xi badxo‘ birlakim,
Zulm etar, qilsam tazallum, noz etar, qilsam niyoz.

Charxi minoyi xati sirrig‘a hamroz istama
Kim, bu xat mazmunidin dam urmay o‘tmish ahli roz.

Ey Navoiy, sen base oludadomansen, magar
Ishq ul pok ila o‘ynarsenki, derlar, pokboz.

202

Ramida ko‘nglum erur ishq mubtalosi hanuz,
Boshimda bordurur ul sarvqad havosi hanuz.

Yuzung firoqida har bir ko‘zum mening bir dog‘
Qo‘yupturur, vale tushmaydurur qarosi hanuz.

Faqih qildi duo “Ishqdin qutulg‘il” deb,
Qabul qurbida ermas emish duosi hanuz.

Nechuk tama’ qilayin mehr ila vafosinkim,
Haqir jonima darxo‘rd emas jafosi hanuz.

Halok o‘qi ko‘zung urmish ko‘ngulga tonmaki, bor
Yonida kirpik-u qoshingdin o‘q-u yosi hanuz.

Haloking o‘lg‘ali jon ko‘z qorardi, vah, yuz ochib,
Qarodin ani chiqarg‘ilki, bor azosi hanuz.

Sipehr zulmidin ul nav' motamidur subh
Ki, umrlar o'tubon chok erur yaqosi hanuz.

Navoiy jon berur, ul muddaiyni mahram etar,
Bu ishcha yuz ming emastur aning sazosi hanuz.

203

Jamoateki, junun man'ini manga qilasiz,
Tosh otibon ne uchun telbalarga qotilasiz?

Keting, ko'ngul bila jonkim, vidoyingiz qildim,
Firoq, agar budurur, erta kunni kech qilasiz.

Firoq vaqtidur, ey ko'zlar, emdi qon yig'lang,
Bilurmusizki, bukun ne kishidin ayrilasiz?

Ko'zum haqini bihil qildim, ey javohiri ashk
Ki, bore ham aning-o'q maqdamig'a sochilasiz.

Firoq nishlari, vahki, yana rahm etmay,
Nafas-nafas nega majruh ichimga sonchilasiz?

Ko'ngul fasonalari, sizni, vah, netib yashuray,
Bu nav'kim, yuz uza qon yosh ila yozilasiz.

Navoiy hajrg'a qoldi, qiling visolda shukr
Jamoateki, sevar yoringiz bila bilasiz.

204

Navbahor ayyomi bo'lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o'lg'andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag'masoz,
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruxsorsiz.

Tong emastur gar diyor-u yorsiz ozurdamen
Kim, emas bulbul gul-u gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori o‘tundur, gullari jonimg‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bo‘lmog‘lig‘ dame dildorsiz.

May chu berding zulf ila band et meni, ey mug‘bacha
Kim, xush ermas mug‘ bila ichmak qadah zunnorsiz.

Topmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog‘bon,
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Ahli zuhd ichra Navoiy topmadi maqsadqa yo‘l,
Vaqtingizni xush tutung, ey jam’kim, xummorsiz.

205

O‘zga bo‘ldi yor-u mehri menda boqiydur hanuz,
Notavon ko‘nglumda ul oy ishtiyoqidur hanuz.

Garchi o‘zga yor istar xotirim, bordur va lek
Jon anga manzil, ko‘ngul aning visoqidur hanuz.

G‘ayr ishqi ko‘nglum uyinda nechuk qilg‘ay nuzul
Kim, xayoli maskani ko‘zum ravoqidur hanuz.

Ishq ila may tarkin, ey nosih, ne nav’ aylay qabul
Kim, ko‘ngulga orzu ul turfa soqiydur hanuz.

Furqat o‘ti dofii dog‘ o‘rtamakdur demakim,
O‘rtagan jonim ul oy dog‘i firoqidur hanuz.

Charx yolg‘iz qilmadi Farhod qonin lolazor,
Lola qonin to‘kkuchi oning nifoqidur hanuz.

Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,
O‘zga bo‘ldi yor-u mehri menda boqiydur hanuz.

206

Xurram o‘ldi bog‘-u bir guldin ichimda g‘am hanuz,
Kuldi har yon g‘uncha-vu ko‘nglum ishi motam hanuz.

Bulbul o‘ldi gul harimi xirmanining mahrami,
Gul uzorim ko‘yida men telba nomahram hanuz.

Chiqti tuz har naxl uza bir ishqpechon chirmashib,
Vahki, bir qad ishqidin jismimda pech-u xam hanuz.

Ochti savdo daf’ig‘a sunbul musalsal turrasin,
Ohkim, bo‘ynumda zanjiri junun muhkam hanuz.

Soqiyo, rahmeki tortib lola sog‘ar dam-badam,
Lolagun sog‘arg‘a men bo‘lmay dame hamdam hanuz.

Faqr naxlidin guli maqsud uzmak istama,
Yotmay anda oh-u ashkingdin havo-vu nam hanuz.

Bir so‘zin istab Navoiy o‘ldi, vahkim, yetmamish
Huqqayi yoqutidin ko‘nglumga ul marham hanuz.

207

Sel un chekti-yu savdo menda bepoyon hanuz,
Dasht sarsabz o‘ldi-yu men telba sargardon hanuz.

Gunbadin qildi imorat g‘unchaning yoz yomg‘uri,
Telba ko‘nglum uyi savdo selidin vayron hanuz.

Har qurug‘ shox o‘ldi dasht uzra sabodin hullapo‘sh,
Tinmag‘ur jismim junun vodiysida uryon hanuz.

Tong nasimi birla nayson yomg‘uri ne sudkim,
Oh-u ashkim dahr aro har dam solur to‘fon hanuz.

Yong‘il, ey Iysodamim, husnung bahori haqqikim,
Bordurur muhlik jununumg‘a davo imkon hanuz.

Ne osig‘ har oq gul o‘lsa marham uchun bir momuq,
Chunki chiqmaydur yaramdin g‘unchadek paykon hanuz,

Dasht hayvoni qocharlar suhbatimdin ram qilib,
Aqli yo‘q nosih gumon aylar meni inson hanuz.

Kom yetkurmak g‘animat angla hojat ahlig‘a,
Ey g‘aniy, bu damki koming birladur davron hanuz.

Shayx man’ aylar junun har dam Navoiyg‘a, ko‘rung
Kim, bahor ayyomida oqildur ul nodon hanuz.

208

Ko‘yung borida qilman jannatqa guzar hargiz,
Qadding qoshida solman tubiyg‘a nazar hargiz.

O‘qungg‘a ko‘ngul moyil, mujib nedur, ey qotil
Kim, o‘tkanidin bo‘lmas ko‘nglumga xabar hargiz.

Bu jismi nizor ichra ko‘nglumni gumon qilmang,
Shoxeki qurur, anda kim ko‘rdi samar hargiz?!

La’lingda malohatdin jon komidadur lazzat,
Bu ta’m qachon bergay tuz birla shakar hargiz.

Ko‘ngliga fig‘onimdin rahm o‘lmasa, ey bulbul,
Gul g‘unchasig‘a bormu nolangdin asar hargiz.

Pil o‘lsa sening xasming, desangki zarar topmay,
Bir pashshag‘a olamda yetkurma zarar hargiz.

Maxlas tilasang g‘amdin dahr ichra Navoiydek,
Qo‘ymag‘asen ilgingdin sog‘arni magar hargiz.

209

Zamone garchi yodim qilmas ul nomehribon hargiz,
Fig‘onkim, yodi chiqmas xotirimdin bir zamon hargiz.

Oti og‘zim aro mazkur, o‘larmen ohkim, bo‘lmay
Otim og‘zig‘a bir mazkur o‘lurg‘a komron hargiz.

Ko‘ngul to vodiyi ishqig‘a tushti, qilmadi bir ham
Vatanni yod ul ovorayi bexonumon hargiz.

Labidinkim, ko‘zum yoshi jahonni la’lgun qildi,
Bag‘ir juzvidin ayru topmadi bir qatra qon hargiz.

Iti faryodini toqmang mangakim, xo‘yidin umre,
Ulug‘roq tinmadim, ne nav’ chekkaymen fig‘on hargiz.

Yorib ko‘ksum junun ta’vizidek jon pardasin ochma
Ki, fosh o‘lmaydur ul qonlig‘ necha dog‘i nihon hargiz.

G‘am-u anduh ya’jujig‘a har devor saddedur,
Fano mayxonasidek topmaduq dorul-amon hargiz.

Bu damni tut g‘animatkim, kelur damdin asar yo‘qtur,
Ne damkim o‘tti, xud andin kishi topmas nishon hargiz,

Kiron qilding, Navoiy, nazm arokim iltifot etmas,
So‘zungdin o‘zga so‘zga xusravi sohibqiron hargiz.

210

Har necha ko‘nglumni chok etsang qilur ishqing sitez
Ul sifatkim, o‘tni yorg‘an soyi bo‘lur shu’la tez.

Sabr ila ishqim xusumat boshlab o‘rtarlar meni,
O‘t bo‘lur zoyanda, tosh etsa temur birla sitez.

G‘am tuni rihlat sahobi jolasidur yo erur
Motamimg‘a charx anjum javharidin ashkrez.

Vasl aro ashkim qilur tug‘yon o‘shul yuz tobidin,
Yoz faslida quyosh tez o‘lsa, bo‘lur selxez.

Sarv-u g‘unchang jilvasi kuydurdi elni, ohkim,
Dahr aro tubi-yu kavsar birla solding rustaxez.

Ko‘z uyidin ul pari ram qildi, mardum ashkidin
Bo‘ldi chun hamxona tardoman erur avlo gurez.

Chun Navoiy vasl topti, emdi birdur, ey tabib,
Sharbatin gar zahr yoxud obi hayvon birla ez.

211

Mehnat o‘tidin yoruqtur har taraf koshonamiz,
Bo‘ldi go‘yo ajdaho komi bizing vayronamiz.

Toyiri vasl uchti ashkim donasidin vahm etib,
Qushqa, vahkim, ram berur toli’ yo‘qidin donamiz.

Ul charog‘i husn vayron kulbani yorutqali
Mehr sham’in yorutuptur har kuyuk parvonamiz.

Bo‘ldi oshiq aql ila hazl aylabon vola ko‘ngul,
O‘tqa tushti o‘ynay-o‘ynay kul bila devonamiz.

El tilidin uyqu o‘chmishtur ko‘zumdin go‘yiyo
Kim, erur baxt uyqusining boisi afsonamiz.

O‘lturay bir may bila deb, tirguzursen, soqiyo,
Obi hayvon birla go‘yokim to‘lar paymonamiz.

Murshidekim, qilsa irshodi fano, billah anga
Bu vujudi orazidin o‘zga yo‘q shukronamiz.

Ko‘yida ko‘nglum ko‘ngullar ichra ko‘rdum, turfa ko‘r,
Turfaroqkim, oshnolig‘ bermadi begonamiz.

212

Bo‘lmasa ul but qoshi mehrobim ichra jilvasoz,
Qiblag‘a, kofirmen, ar bosh indurub qilsam namoz.

Qon yoshimdin la’lgun kirpik bila aytur ko‘zum
Orazing nazzorasin aylarda yuz til birla roz.

Qaddi vaslin istasam ra’nolig‘ aylar noz ila,
Husn bo‘stonida ul sarkash qad ermish sarvinoz.

Odamiylig‘din qochib yettim junun o‘tin sochib,
Ey salomat ahli, aylang telba itdin ehtiroz.

Chehra och ko‘nglumni desang kuyduray, hijronni qo‘y,
O‘t ne hojat, mum topsa mehr tobidin gudoz.

Rishtayi ashkin tutub tufrog‘ sori tortar fano,
Ul sababdin egma qad zohir qilur ahli niyoz.

Ey Navoiy, g‘ayr naqshin pok yub jon lavhidin,
Yor uchun jon o‘ynasang, ul lahza borsen pokboz.

213

Jilvamu qildi sarig‘ bo‘rkin kiyib ul sarvinoz,
Yoki chekti shu’la axzar jism ila sham’i Tiroz.

Kuysa majnun ko‘nglum ul yuz lam’asidin tong emas.
Ne uchunkim aylamas devona o‘tdin ehtiroz.

Ulki ermas ishqi pok-u sajda aylar ko‘rsa husn,
Uyladurkim, aylagay fosiq tahoratsiz namoz.

Rozi ishqing derga paykoning erur ko‘nglumga til,
Lol til birla qilur ermish takallum ahli roz.

Sekritib chiqti yana maydon sari ul turk mast,
To yana qaysi ko‘ngul mulkiga qilg‘ay turktoz.

Ishq agar komildurur, oshiq qilur ma’shuqni,
Yo‘qsa nevchun ayladi Mahmudqa qulluq Ayoz.

Har maqom ichraki bo‘lsang ayru bo‘lma yordin,
Ey Navoiy, hojat ermas qilmoq ohangi Hijoz.

214

Tufrog‘imdin koshki jisme murattab qilsangiz,
Bir it o‘lsa ko‘yida ruhig‘a qolab qilsangiz.

Yetmagay chobuksuvorim gardig‘a, ey ahli ishq,
Mehrni rokib qilib, gardunni markab qilsangiz.

Bodano‘shum bazmi g‘avg‘osidin, ey jon-u ko‘ngul,
Sam’ig‘a yetmas necha faryod-u yo Rab, qilsangiz.

Olami ishq uzra bas loyiqdurur, ey dard-u shavq,
Dudi ohimni sipehr, ashkimni kavkab qilsangiz.

Markabi na’lin mujallo qilguchilar zeb uchun,
Orazimg‘a surtung ul damkim, muzahhab qilsangiz.

G‘ayri no‘shono‘sh azal soqiysidin kelmas xitob,
Bizni bas may jurmidin bo‘lmas muxotab qilsangiz.

To Navoiy, qismat o‘lg‘an mayni ichmas chora yo‘q,
Do‘stlar, avlo bukim, jomin labo-lab qilsangiz.

215

Yuzung firoqida har oh o‘tinki chektim tez,
Ul o‘t sharoralari bo‘ldi har taraf gulrez.

Qazo musavviri go‘yo hal etti la’liy rang
Labing aqiqini aylar mahalda rangomez.

Labing malohati g‘avg‘o qo‘pardi olamdin,
Shakarni bo‘yla kishi qayda ko‘rdi sho‘rangez.

Itingki sher zabundur anga, topa olman,
Desam ko‘ray ani boshimdin o‘zga dastovez.

Chu keldi xastalig‘im so‘rg‘ali qadahno‘shum,
Ketur piyolaki, o‘lsam ham aylaman parhez.

Desang zamona sitezini har zamon ko‘rmay,
Zamonni xush tut-u, qilma zamona birla sitez.

Guli saboh yuzin ko‘rmagaysen, ey bulbul,
Bu gulshan ichra Navoiydek o‘lmasang shabxez.

216

Yordin ayrilg‘ali shaydo ko‘ngul bexob ko‘z,
Har zamon zohir qilur savdo ko‘ngul, xunob ko‘z,

Ko‘z-u ko‘nglum bahr-u bar sayr ettilar yor istabon,
Bu safarda toptilar yag‘mo ko‘ngul, g‘arqob ko‘z.

Ko‘z-u ko‘nglumdin biri kuyub, birisin buzdi sel,
Yo‘qsa nevchun bo‘ldi nopaydo ko‘ngul, noyob ko‘z.

Deb emish hajrimda mendek ko‘z-u ko‘nglin asrasun,
Voykim, yo‘qtur manga xoro ko‘ngul, qassob ko‘z.

Vah, ne kun bo‘lg‘ayki, yetkay vaslig‘a ko‘z-u ko‘ngul,
Tortibon faryod-u vovaylo ko‘ngul, yig‘lab ko‘z.

Ko‘rmayin deb ko‘rdi ko‘z, ko‘rgach ko‘ngul qildi havo,
Bo‘ldi zor etkan meni rasvo ko‘ngul, qallob ko‘z.

Do‘st ko‘zla, xasmdin uzgil ko‘ngulkim, tushsa ish,
Bermas-u olmas emish a’do ko‘ngul, ahbob ko‘z.

Ey Navoiy, go‘yiyokim yor mehmon bo‘lg‘usi
Kim, murattab aylamish ma’vo ko‘ngul, abvob ko‘z.

217

Tiyradur o‘ylakim, yorug‘lug‘ anga qo‘ymas yuz,
Shomi hajrimda agar bo‘lsa quyosh har yulduz.

O‘tti hijron kechasi ranjida umrum, yo Rab,
Bir kun o‘lg‘aymuki, ushbu kecha bo‘lg‘ay kunduz.

Xo‘blar anjumani ichra naziring yo‘qtur,
Mehrni anjum ichida desa bo‘lur yolg‘uz.

Egriliklar esa zulfung harakoti ne ajab
Kim, yilonni harakat qilg‘anida ko‘rmish tuz?

Sendin ayru emas, ey do‘st, o‘lug-u tirigim,
Qahr-u lutfung bila gar o‘ltur, agar xud tirguz.

Gulda yo‘q sarv qadi, sarvda gul ruxsori,
Sarvi gulro‘yum erur husn tariqida to‘kuz.

Soqiyo, may to‘lakim arbada istar ko‘nglum,
Ey qalandar, chola boshla o‘kurur ko‘kta qo‘buz.

G‘am g‘izosi orasinda qani turkona ayog‘,
To‘ra oyini bila tomsa to‘quz, oqsa o‘tuz.

Ey Navoiy, tilasang yor ila topmoq payvand,
G‘ayridin sa’y qilib rishtayi payvandni uz.

218

Yo‘qki ul ko‘z qoradur husnung aro, ey qorako‘z
Kim, qoshing dag‘i erur asr-u qaro, ey qorako‘z.

Gar ko‘ngullarni jaloyi vatan istar bo‘lsang,
Yosh tugunlarni-yu zulfungni taro, ey qorako‘z.

Qora nargis ko‘z-u gul yuz bila gar sen kibi yo‘q,
Bulbule men kibi yo‘q nag‘masaro, ey qorako‘z.

Ko‘zlaring zaxm agar qilmadi har kirpik ila,
Bas, nedur ko‘ngluma yuz yerda yaro, ey qorako‘z?!

Menmenu bir yaramas ko‘nglum, aning qatli uchun
Ko‘z qora qilma, bir ishimga yaro, ey qorako‘z?!

Goh faqr ahlig‘a ham rahm ko‘zi birlan boq
Kim, duogo‘yung erurlar fuqaro, ey qorako‘z.

Sen Navoiyg‘a vafo aylamasang, bor o‘lsun
Shoh Abulg‘oziy ibni Boyqaro, ey qorako‘z,

219

Manga ul ko‘zi qora dedi chuchuk chandin so‘z,
Ne ajab ani qorako‘z desam-u shirin so‘z.

Labi yuz va’dani andoq manga yolg‘on qildi
Ki, dey olmas kishi yuz yilda bir andoq chin so‘z.

Hajring afsonasidin so‘z der esam vasl tuni,
Topmag‘ay tongg‘acha tun yilcha esa taskin so‘z.

Beli-yu la'li labi ollida lol o'ldi xirad
Kim, erur biri daqiq-u biri bas rangin so'z.

Har fasohatki, labing qildi, Masiho eshitib,
Jon topib, kelmadi og'zi aro juz tahsin so'z.

Husni vasfida so'zum tutti bari olamni
Murshidi ishq manga aylagali talqin so'z.

Bazmi aysh ichra Navoiy, ne ajab urmasa dam,
Ayta olmas chu nishot ahli aro g'amgin so'z.

220

Nuktasi mafhum o'lur, bo'lmas vale mafhum og'iz,
Tong emastur hech mafhum ulmasa ma'dum og'iz.

Alloh-Alloh, turfadur bukim iki jonbaxsh lab,
Ikki yon ma'lum-u, ermas o'rtada ma'lum og'iz.

Vahmni yuz ming gumon ichra solur mundinki bor
Xatti mavhum ul bel, ammo nuqtayi mavhum og'iz.

Ul alifdek qad latofat ichra bo'ldi birga o'n,
Sifrdek to bo'ldi aning zimnida marqum og'iz.

Dol angakim ishq kitmoni kerak ishq ahlig'a,
Ishqing asrorida sirredur ajab maktum og'iz.

Vahki, ul yuz-u og'iz shavqidin o'ldum, lek bor
Yuzidin yuz noumid-u og'zidin mahrum og'iz.

Zahri hajr og'zim to'la naylab qilay o'pmak xayol,
Hayfdurkim, yetkay og'zi no'shig'a masmum og'iz.

Pok lafz ayturg'a og'zing pok qilkim hayfdur
Yaxshi so'z borinda surgay nuktayi mazmum og'iz.

Ey Navoiy, maxlas istar bo‘lsang el til, og‘zidin
Nazmdin ham tilni tiyg‘il, nasrdin ham yum og‘iz.

221

Ul pari ko‘yida men devonani band aylangiz,
Band-bandim zulfi zanjirig‘a payvand aylangiz.

Xalq tarki ishqi aylarga meni dilxastani,
O‘lturub olam eliga mujibi pand aylangiz.

Telba ko‘nglum topsangiz, ey yor ko‘yi itlari,
To‘sh-to‘shidin tishlabon parkand-parkand aylangiz.

Bodayi ishq asr-u mast etmish meni, ey do‘stlar,
Jomima afyun ezib bir dam xiradmand aylangiz.

Yig‘lasam achchig‘ malul o‘lmoq nedur, ey xo‘blar,
Hazl uchun gohe boqib, siz ham shakarxand aylangiz.

Ishq bahrida duri vasl istamang, ey ahli dard,
Ko‘nglunguz ul naqd yodi birla xursand aylangiz.

Qilsangiz tasviri Laylo husnin ul oydek sizing,
Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz.

222

G‘am yuki qilmaydurur yolg‘uz meni mahzunni ko‘j.
Ham bu yuk qilmish edi Farhod ila Majnunni ko‘j.

Qildi chun Farhod ila Majnun qadin xam, ne ajab,
Yuz alarcha za’f ila gar qilsa bu mahzunni ko‘j.

Yuk agar budur ne Farhod-u ne Majnun-u ne men,
Rost, gar dersen bu yuk aylab turur gardunni ko‘j.

Vah ne yukdur buki, gardun qomatin ko‘j ayladi,
O‘ylakim gardunning ostida ko‘rarsen “nun”ni ko‘j.

Yuzi mahtobida mushkin qoshi nevchun ko‘j erur,
O‘g‘riliq gar qilmadi ul hinduyi mavzunni ko‘j.

Egrilikka shuhra bo‘lmoq istamassen, aylama
Ahli isyon xizmatida qaddi beqonunni ko‘j.

Gar Navoiy ko‘j erur shah xizmatida ne ajab,
Chunki qilmish qullug‘i Jamshid-u Afridunni ko‘j.

“SIN” HARFINING SIYMINBARLARINING SAVDOSI “G‘AROYIB”DIN

223

Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,
Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas.

Uy bino aylab ajabtur elni mehmon aylamak,
Ulki bu uy ichra besh kun mehmone besh emas.

Qo‘y tavonolig‘ so‘zin, yod et ajal xorinki, bil
Pashshalar nishi qoshinda notavone besh emas.

Kir fano dayridakim, har shayx-u yuz savdo anga,
Ulki otin xonaqah qo‘ymish, do‘kone besh emas.

Eyki, bo‘lmish xil’ating zarbaft bori bilkim, ul
Ma’no ahlin kuldururga za’farone besh emas.

Mehr toj-u charx taxting bo‘lsa g‘ofil bo‘lmakim,
Mehr bemehr-u falak nomehribone besh emas.

Shahg‘a ish el fikrini qilmoqdur. Ul kim, zeb kim?!
Bir suruk qo‘ydur raoyo, ul shubone besh emas.

Gar Navoiy istadi avvoralig‘, ey ahli hush,
G‘am yemang devonayi bexonumone besh emas.

Avji davlat uzra bo‘lsun doimo Bilqisi ahd
Kim, Zuhal qasrida har tun posbone besh emas.

224

Ne ajab gar nuql tuxmi g‘am qushin rom aylamas,
Mast chun bir dam ovuch qoqmoqdin orom aylamas.

Tun quyoshqa yovuy olmasdekdur ulkim, may sari
Tiyralik shaxsi azimat bir-iki gom aylamas.

Fikr-u g‘am qochmoqqa maydin istasang ravshan dalil,
Shayx yo zohid nedurkim boda oshom aylamas.

Ayni noz-u shevadin kofir ko‘zung, ey mug‘bacha,
“Torfat ul-ayn”e[1] emaskim, qasdi islom aylamas.

Jism aro paykonlaring su qildi ko‘nglum oh ila,
Bodayi shavqin ajabkim, ichkali jom aylamas.

Voizo, aylab tama’ qon yutmag‘ilkim, piri dayr
Bodadin o‘zga savol ahlig‘a in’om aylamas.

[1] “Torfat ul-ayn” — ko‘z yumib ochguncha (muddat), bir kiprik qoqquncha (muddat). “To”ni zamma bilan (“turfat ul-ayn” deb) o‘qish butkul xatodir (“G‘iyos ul-lug‘ot”, 2-jild, 25-bet). Bu ibora Qur’on va hadisda keladi; hadisi sharifdan: “Fa lo takilniy nafsiy torfata ’aynin”; ma’nosi: “Bir ko‘z ochib yumguncha muddatda ham meni o‘z nafsimga tashlab qo‘yma!”. Qur’oni Karimda “torfuhum” (ko‘zlari, nigohlari), “torfuka” (ko‘zing) shaklida, “nigoh”, “bir ko‘z tashlash” ma’nosida ham keladi; “Soffat” surasi, 48-oyatida **“Va ’indahum qosirot ut-torfi ’iynun”** (**“Yonlarida nigohlarini** (o‘z juftlaridan boshqadan) **saqlovchi shahlo ko‘zli (hur)lar bordir”** degan ma’noda keladi.

Dema, ishq o‘ynab Navoiy oqibat ne bo‘lg‘usi
Kim, bu ish og‘oz qilg‘an fikri anjom aylamas.

225

Kiyik charmi zaif egnimga majnunlug‘ nishoni bas,
Junun toshi sinuq boshim uza qush oshyoni bas.

Damingni asra, ey Iysoki, ranjim daf’ig‘a har kun
G‘izo ul oy qilichi zaxmining bir qatra qoni bas.

Sen-u hayvon suyi, ey Xizr, tutqil tarki jonimkim,
Manga yor ollida o‘lmak hayoti jovidoni bas.

Shah-u — izzat saririkim, agar budur jahon johi,
Manga idbor ko‘yida mazallat xokdoni bas.

G‘ani-yu ko‘nglida pinhon diram fikri-yu, ishq o‘ti
Mening ko‘nglumda kuydurgan necha dog‘i nihoni bas.

Sanga Kavsar[1] suyi-yu lahni Dovudiyki[2], dayr ichra
Mug‘anniy nag‘masi birla manga jomi mug‘oni bas.

Havodis daf’ig‘a shah ko‘k hisori uzra gar chiqsun
Ki, faqr ahli uchun dayri fano dor ul-amoni bas.

Fig‘onkim, lutf-u qahrig‘a tafovut yuqni ham anglab,
Fano ahlig‘a javrin qilmadi bu dayri foni bas.

---

[1] **Kavsar** — Qur’oni Karimning “Kavsar” surasida zikr qilingan va e’tiqod masalasiga kirgan Havzi Kavsar, janob Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) ato qilingan ne’mat; oyat ma’nosi: “(Ey Rasulim!) **Shubhasizki, Biz sizga Kavsarni ato etdik**”. *Izoh.* “Yoki: “Ko‘p yaxshilikni va ne’matni ato etdik”. Hazrati Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam me’rojda o‘zlariga oxiratda ato etiladigan Kavsar anhori ko‘rsatilganini aytganlar *(Zabidiy, XI, Hadis: 1761–1762 — “Fayzul-Furqon”).*

[2] **Lahni Dovudiy** — payg‘ambar Dovud alayhissalomga xos ohang; Qur’oni Karimning “Anbiyo” surasi, 79-oyatiga ishora; oyatning bir qismi ma’nosi: “**... Dovud bilan birga** (Allohga) **tasbih aytsinlar deya tog‘larni va qushlarni** (unga) **bo‘ysundirib qo‘ydik”.**

Navoiydek o‘lar holimda demang hur-u jannatdin,
Sizing barchaga–bu, ovorag‘a bir ko‘rmak oni bas.

226

Nafis kiyguluk o‘lsa yalang tanimg‘a havas,
Hasir naqshi hasiriy libos o‘rnig‘a bas.

Sirishk yo‘lini xas birla tuttilar, yoxud
Ko‘zumni yo‘lig‘a surtarda muncha to‘lmish xas,

Bir o‘t dimog‘ima hajr urdikim, nafas andin
Chiqar samum o‘lub, ar xud bo‘lay Masihnafas.

Azim aningdek erur ishq mahmilikim, anga
Qazo falakni ikki bo‘lsa bo‘lg‘ay ikki jaras.

Tanimg‘a choklar ochti, ne ayb agar o‘lsam
Ki, ruh bulbulining loyiqi emas bu qafas.

Ko‘ngulki, kofiri ishq o‘ldi or erur zunnor,
Nedinki mug‘bacha-zulfin beliga qildi maras.

Fano havas qil-u, faqr et havo Navoiydek,
Vale havo-vu havas, qilmag‘il havo-vu havas.

227

Dame ermaski, la’lingdin ko‘ngul yuz laxt qon ermas,
Dag‘i har laxt qon yoshim bila ko‘zdin ravon ermas.

Yuzung mehri ichinda ko‘z solib og‘zingni ko‘rmasmen,
Agarchi zarra xurshid ollida ko‘zdin nihon ermas.

Ushalg‘an har so‘ngak jismimda go‘yo ka’bataynedur,
Nihoniy dog‘i zoid nuqtasidurkim ayon ermas.

Erur dardimg‘a taskin bu kecha, lekin to‘shuk ko‘ksum,
Ajab gar novaki ko‘nglumga kirgandin nishon ermas.

Meni o‘lturgali g‘amzang o‘qi umredurur, lekin
Tirik la’ling xayoli birlamen, jismimda jon ermas.

Lahad kunjin vatan aylab tiniptur umridin Majnun,
Ne bo‘lsa, men kibi ovorayi bexonumon ermas.

Bu davr ichra qachon jomi farog‘e yetgay, ey soqiy,
Chu bir dam dard-u mehnat zahri chekmakdin amon ermas.

Agarchi qon yutar bulbul, vale ne g‘am anga chunkim
Navola g‘unchadin ayru-yu guldin o‘zga xon ermas.

Navoiy o‘ldi, gar parvona kuydi, bulbul un chekti,
Bular gar yaxshidurlar, ishq aro ul ham yomon ermas.

228

Sunbulin Laylo ochiptur, yel abiroso emas,
Dog‘ini Majnun qonatmish, lolayi humro emas.

Nastaran ko‘zgusida bir sori men, bir sori yor
Chehra aksin ko‘rguzupturbiz, guli ra’no emas.

Gulni o‘xshatqan uchun yorimg‘a go‘yo bog‘ aro,
Muztarib ko‘nglum qushidur, bulbuli shaydo emas.

Sunbul ustidin nasim eskach, nigorim turrasin
Yod qildimkim, dimog‘ oshuftadur, savdo emas.

Nargis oltun jomining ollida kofuriy harir
Pardayi jonimdurur marhun, qadahpolo emas.

Dema, afg‘onimda bulbul nolasidek yo‘q nishot,
Bu ham anduhzo emas, gar ul nishotafzo emas.

Gulni sarv uzra xayol ettim ko‘ngul bo‘stonida,
Rost aytay: sarvi gulro‘yum kibi zebo emas.

Bo‘lmangiz mag‘ruri husn, ey sho‘xlarkim, bog‘ aro
Siz kibi bilturg‘i gullardin biri paydo emas.

Manga gulrux soqi-yu bulbulg‘a gul tutti qadah,
Mast erur ul ham, Navoiydek vale rasvo emas.

229

Demakim, no‘shi labidin quti jon qildim havas,
Obi hayvondin hayoti jovidon qildim havas.

La’li no‘shidin gar o‘lsam ham emastur aybkim,
Hazm eta olmas g‘izo men notavon qildim havas.

Tosh yebon atfol komi birla jon bersam ne tong
Kim, pari vaslig‘a jonni komron qildim havas.

Ostoning istadim bosh qo‘ysam ermas aybkim,
Saltanat taxtin meni bexonumon qildim havas.

Har fatila zaxm arokim, erdi chektim jon aro,
Ko‘ngluma qo‘ymoq necha dog‘i nihon qildim havas.

Zuhd ila yo‘l topmadim maqsadg‘a may tut, piri dayr
Kim, o‘zumni emdi rasvoyi jahon qildim havas.

Ey Navoiy, tog‘-u vodiy tutmog‘im ayb etmakim,
Yoshurun dardim demak tortib fig‘on qildim havas.

230

Bas nedur ko‘z gar xayoling xaylig‘a manzil emas,
Har qaro bir o‘t yeri, davrinda kirpik — xor-u xas.

Jannat ahlig‘a erur har lahza ko‘yung orzu,
Do‘zax ahli uylakim jannatni qilg‘aylar havas.

Novaking paykonini to chektilar, nolon ko‘ngul —
Aylamas afg‘on ko‘ngulsizlikdin andoqkim jaras.

Dema men majnung‘a, ey nosihki, bas qil ohni
Kim, manga ish ul pari ishqida bo‘lmish oh-u bas.

Za’fdin bexud ko‘rub, og‘zimga ul yuz ko‘zgusin
Qo‘ysang ul dam urmag‘aymen, billah ar o‘lsam, nafas.

Dayr piri xidmatig‘a chekmayinmu belni chust
Kim, necha zunnordin tongmish belimga bir maras.

Soqiyo, davron agar budur, Navoiy har zamon,
Jomig‘a behushdor-u qotmog‘ aylar multamas.

231

Oh o‘qin jon ichra asrab, ko‘nglum izhor aylamas,
Yo‘qsa bir dam bormukim, yuz jonni afgor aylamas.

Vah, ne yuzdur ulki taqlidin qilib naqqoshi Chin
Cheksa yuz surat, birin yuzdin namudor aylamas.

Ishqdin chun munkir o‘lmish ko‘nglum, o‘lturmak ne sud,
Hajrdin to ani qo‘rqutmassen iqror aylamas.

Qo‘ydung, ey aql, ochqali yuz pora ko‘nglum zulfini,
Har biri bir rishtasin qandinki zunnor aylamas.

Jon fido qilg‘umdurur, la’ling qabul etsun desam
Derki: Ruhullah bu nav’ ishlarga begor aylamas.

Ne osig‘ har zarrag‘a ohim quyoshdek solsa o‘t,
Ul quyosh ko‘ngliga chunkim zarraye kor aylamas.

Soqiyo, davr ichra ul yuz aksi ko‘rguzgan qadah,
Fitna aylarkim, sipehr-u mehri sayyor aylamas.

Foniy o‘l, gar istar ersang mehrkim qilmas nasib
Kimni bir davlatqakim Tengri sazovor aylamas.

Demangizkim, barxabar bo‘l telba ko‘nglumdin, chu ul
Qaydakim borsa Navoiyni xabardor aylamas.

232

Zulfidin ayru jununumg‘a desam tadbir emas,
Telba itka chora derkim, qatl erur zanjir emas.

Orazin ko‘rsam nedur deb so‘rma ko‘nglum holatin,
Chehra tag‘yiridin angla hojati taqrir emas.

Har tun anjumdin mening holimg‘a gardun ashki bil,
Charx uza ohim buxori tafidin ta’sir emas.

Zulfi pech-u tobig‘a borib kelur shaydo ko‘ngul,
Bovujudi tiyralik, ko‘rgilki ko‘p dilgir emas.

Istasang qatlim chiqarg‘il tiyg‘-u ihmol etmakim,
Ne desang mendin bo‘yunsunmoqda xud taqsir emas.

Dayr aro usruk ko‘rub, zohid meni ayb aylamish,
Bilmamish miskinki, hech ish xoriji taqdir emas.

Ul pari qilmish meni majnun-u rasvo shahr aro,
Ey Navoiy, go‘sha tutkim, hojati tashhir emas.

233

Dam-badam la’ling xayolidin ichim qonmu emas,
Qatra-qatra ko‘z yo‘lidin yuzga g‘altonmu emas?!

Gah o‘lub, gohi tirilsam, tong emas, vah, g‘amzasi
Qotil ermasturmu yo no‘shi labi jonmu emas?!

Ne ajab, ishq ofatidin chiqsa jon tan mulkidin,
Shahna zolimmu emas, yo mulk vayronmu emas?!

Novaki zulm urmog‘ingdin tonmag‘il, ey qoshi yo,
Tanda zaxm ermasmu, yo ko‘nglumda paykonmu emas?!

Telba ko‘nglumni dema ko‘p vola ermas ishq aro,
Shuhrayi ofoq, yo rasvoyi davronmu emas?!

Dahr sho‘xig‘a ko‘ngul gar bermadim, ayb etmangiz,
Ishvasi chinmu emas, yo ahdi yolg‘onmu emas?!

Dasht aro ko‘rsang Navoiyni emas majnun dema
Toshmu urmas ko‘ksiga, yo jismi uryonmu emas?!

234

Chok bo‘lg‘an ko‘ngluma qilmoq iloj oson emas,
G‘unchakim ochildi, butkarmak ani imkon emas.

Ko‘nglum ichra gulbuni dard uzra har yon g‘unchadur,
Ey muolij, daf’ig‘a sa’y etmakim, paykon emas.

Mehrim o‘tin hush-u sabr-u aql-u his yoshurmadi,
Mehri lomi’ to‘rt burqa’ keynidin pinhon emas.

Otashin la’ling g‘amidin ko‘nglum erur pistaye,
Kim, kuyubon chok o‘luptur, g‘unchayi xandon emas.

Zohido, man’ aylading ko‘nglumni maydin, bilmading,
Kim, samandarg‘a yolindin sud erur, nuqson emas.

Yongsa dayr ichra meni hayrat ne tong, ey mug‘bacha,
Kimdurur bu korgah vaz’ig‘akim hayron emas.

Dardi hajringdin Navoiy ko‘ksi uzra dog‘-u na’l,
Tan harimig‘a ajab gar shamsa-vu ayvon emas.

235

Xasta ko‘yungda yotmisham bekas,
Tutquchim, qopquchim itingdur bas.

Ashk aro o‘rtadi tanimni g‘aming,
Garchi kuymas su ichra tushkan xas.

Jon-u nolon ko‘ngul bila ne ajab
Posboning kecha yurutsa jaras.

O‘qlaringdin ichimda istasa ishq
Yasay olur ko‘ngul qushig‘a qafas.

Xoni husn ichra xoling-u og‘zing
Keldi xashxoshning yonida adas.

Tori ummid aro harisni bil,
Rishtayi ankabut ichinda magas.

Iting o‘ldi Navoiy, ey chobuk,
Bo‘ynig‘a mahkam ayla halqa maras.

236

Bizga olam bog‘idin ul sarvi gulruxsor bas,
Goh andin jilva, gohe davlati diydor bas.

Yog‘lig‘in zaxmimg‘a bog‘larg‘a ne haddim istamak,
Qilsa lutf andin muni tikmak uchun bir tor bas.

Men kim-u zulfung tamannosi?! Agar kufr istasam,
Itlaring bo‘yni tanobidin manga zunnor bas.

Hajr o‘tidin sindi ko‘nglum, istaman qasring panoh,
Soya bir ko‘ngli buzulg‘ang‘a buzug‘ devor bas.

Ko‘zda bir uyquni ko‘rsam, uyquda ko‘rsam seni,
To ajal uyqusi ushbu davlati diydor bas.

Voizo, men osiy erman hur-u jannat loyiqi,
Mug‘bacha soqiy, maqomim kulbayi xammor bas.

O‘zlugungdin o‘zni salb etsang g‘araz bir gomdur,
Ey Navoiy, qilmag‘il bu shevani zinhor bas.

237

Manzilekim, ul paripaykarni ko‘rdum bir nafas,
Gar ani topman, hamul manzilni qilsam tavf, bas.

Rangsiz xoli yuzining zebidur, vah, kim, degay:
Husni xonig‘a keraklik muncha bo‘lg‘ay bir adas.

Bandi zulfung bo‘ynuma tushkach halok etti meni,
Itka, jono, hech kim o‘lturgali taqmas maras.

Ishqing ichra bulhavas gar desalar, yo‘qtur g‘amim,
Bok yo‘q bu ta’ndin bo‘lsa manga vasling havas.

Ashk bahrinda agar jismim g‘ariq ermas, ne tong,
Yo‘q anga ul vaznkim cho‘mg‘ay tengizga tushsa xas.

Bu chamanning gullariga yo‘qtur, ey bulbul, vafo,
Avlo ulkim, aylasang gulbong chekmaklikni bas.

Chora ne bo‘lg‘ay Navoiyg‘a firoqing shomida,
Gar xayoling bo‘lmasa bechoralarg‘a choraras.

238

Fig‘onkim, ko‘nglum olg‘an dilbarim dildorlig‘ bilmas,
Bilur oshiqni g‘amgin qilmoq-u g‘amxorlig‘ bilmas.

Nechuk dey yor emas, dushman demak bo‘lmas,
xud aytaykim,
Erur xud yor ul, ammo tariqi yorlig‘ bilmas.

Ko‘ngulda zorlig‘ birla fig‘on ko‘yungda ayb etma,
Gadoyi xastayedur juz fig‘on-u zorlig‘ bilmas.

Og‘irroqdur firoqim tog‘idin baxtimning uyqusi
Ki, nolam bo‘ldi rustoxez-u ul bedorlig‘ bilmas.

Bo‘lub majnun paridek itmisham,
nevchunki yorim ham
Paripaykardur, ammo g‘ayri majnunvorlig‘ bilmas.

Ketur, ey soqiyi mahvash, manga bir sog‘ari dilkash
Ki, davron yorlig‘, aflok juz g‘addorlig‘ bilmas.

Qazo ilgi tilarmen yer bila hamvor qilg‘aykim,
Zamon ahli zamondek g‘ayri nohamvorlig‘ bilmas.

Mening yorimda onedurki, ondin o‘rtanur jonim
Ki, oni har quyosh yuzlug shakarguftorlig‘ bilmas.

Navoiy ko‘zlarining mardumidin javri qon to‘kti,
Darig‘, ul sho‘xi mardumkushki,
mardumdorlig‘ bilmas.

239

Chok etib ko‘nglumni ochilsun demak imkon emas,
G‘unchani umdan ochib, gul aylamak oson emas.

Dema zohidkim, nedin hayronsen ul ruxsorg‘a,
Olam ichra bir kishi topkim anga hayron emas.

Qatra sulardur ko‘ngul o‘tig‘a taskin bergali
Kim, ul oy yog‘durdi qoshi qavsidin paykon emas.

Hajr dashtida quyundekmen, vale ul men kibi
Xoksor-u bodapaymo dog‘i sargardon emas.

Garchi husnung ko‘zgudin kirdi temur qo‘rg‘on aro,
Mehrdek oyinagun, aflokdin pinhon emas.

Gul vafosizlig‘larini sharh etar ming daston,
El gumon qilg‘an kibi bulbulda ming daston emas.

Ey Navoiy, ul paridin odamiylig‘ ko‘rmasang,
Ayb emas, ul hurdur yoxud malak, inson emas.

240

Xo‘blarg‘a meng ul oyning toza qulluq dog‘i bas,
Ko‘zlariga surma ko‘yining qaro tufrog‘i bas.

Besutun sayrini naylaykim, manga egnimdagi
Ko‘k ravoqig‘a sutun bo‘lg‘an malomat tog‘i bas.

Chun tanim zog‘-u zag‘ang‘a tu’ma bo‘ldi, ey sipehr,
Yuz balo qullobin olg‘ilkim, alar tirnog‘i bas.

Shoh-u — toj-u xil’atikim, men tamosho qilg‘ali
O‘zbagim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas.

Go‘shayi mayxonadin gulshang‘a bormankim, manga
Gul uza nasrin — mayi gulrang uza kup yog‘i bas.

Yoshing ellik bo‘ldi, yuz qo‘yg‘il fano tufrog‘ig‘a
Kim, shabob ayyomi aysh-u beadablig‘ chog‘i bas.

Gar Navoiy holig‘a ul sho‘x boqmas rahm ila,
Goh ibrat birla ham ul yon nazar solmog‘i bas.

241

Sendeg-u kiygan shabandarro‘z hullangdek emas,
Kecha-vu kunduz libosin kiysalar oy-u kunas.

Ishq sargardonlari boshimg‘a evrulmak ne tong
Kim, bu vodiyda quyunmen, ul jamoat — xor-u xas.

Ishq eli ko‘nglum fig‘onidin topar maqsadg‘a yo‘l,
Dasht aro har yon oziqqanlarni charlar bu jaras.

Zulf aro xoling ko‘ngullar xaylini taroj etar
Qalb shabravlar libosin kecha olg‘andek asas.

Oq uyidin hech jonib ul pari qilmas havo,
Ne ajoyib, qushqa, ko‘rkim, ne munosibdur qafas.

Sidq ahli ohidin, ey husn sham’i, vahm qil
Kim, kavokib sham’in etti tiyra subh urg‘ach nafas.

Dayr piri mast etib, ko‘nglumni oldi mug‘bacha,
Qilmang, ey ahbob, mug‘ dayri tamoshosin havas.

Bosh oqarib yuz qarolig‘dur yana tarki adab,
Do‘st g‘ayrat aylamasdin burna qil isyonni bas.

Taq Navoiy bo‘ynig‘a desam tanobi zulf, der:
Qo‘y iti bo‘ynig‘a kim taqqandurur mushkin maras.

“SHIN” HARFINING SHO‘XLARINING SHAMOYILI “G‘AROYIB”DIN

242

Zihi kamol ila kavnayn naqshig‘a naqqosh,
Mukavvanot vujudin vujudung aylab fosh.

Vujudung ayladi mavjud ulusnikim, bo‘lmas
Vujud zarrag‘a mavjud bo‘lmag‘uncha quyosh.

Sanga yetishmasa tong yo‘q bu aqli zulmoniy
Ki, mehr sham’ig‘a parvona bo‘lmadi xuffosh.

Qayu parig‘aki qilding yuzin quyosh, berding
Ko‘ngul jununi uchun anbarin hilol ila qosh.

Angaki, bo‘ldi junun ishq ichinda yog‘durdung
Xirad qushini uchurmoqqa tifllardin tosh.

Aningki, ko‘nglida ishq axgarini yoshurdung,
Nihoniy o‘tin ulug‘ tinmog‘idin etting fosh.

Muvasviseki, maoshini aql ila tuzdung,
Fano yo‘lida ayading berurga aqli maosh.

Hakimi qudrating ollinda charx ila anjum,
Muhaqqar o‘ylaki xashxosh-u donayi xashxosh.

Yo‘lungda o‘ldi Navoiy-u bo‘ldi tufrog‘ ham,
Yopushsa erdi bu ko‘y itlari ayog‘ig‘a kosh.

243

Meni sargashta jismin dog‘ ila qon lolazor etmish,
Quyun yoxud to‘kulgan lolazor ichra guzor etmish.

Tanimdin qon chiqorg‘an har taraf paykonlaring go‘yo
Erur yomg‘urki, tufrog‘din chechaklar oshkor etmish.

Ko‘ngul birla so‘ngak manqal aro o‘t-u o‘tundekdur,
Malomat toshlarin to ishq tegramda hisor etmish.

Yuzin may gulgul etkandin xarosh ermas unum, balkim
Ko‘ngulda xorxori nolam andomin figor etmish.

Labing jonimg‘a solg‘an shu’lalar ichra qazo go‘yo
Ulug‘roq la’ldin axgar, kichikrakdin sharor etmish.

Bo‘la olsam ulusqa ul quyoshni ko‘rgali moni’,
Ne g‘amdur gar yo‘lida charx jismimni g‘ubor etmish.

Halokim bilgay ulkim, bordur ul yanglig‘ jafokori
Ki, tavrin husn beparvolig‘i oluftavor etmish.

Kabutar qasr burjida emas shah shastidin emin,
Xusho, ul chug‘zkim vayrona kunjin ixtiyor etmish.

Maof ermish qayon gom ursa rahrav noqayi jismi,
Nafas torin qazo chun burnig‘a aning mahor etmish.

Mug‘anniy nag‘masi jon bersa bazm ahlig‘a tong yo‘qkim,
Navoiy rishtayi jonin eshib changiga tor etmish.

244

Ko‘ngulkim zarnishon paykonlaringdin notavon bo‘lmish,
Magar bu bog‘ aro ul barglar birla xazon bo‘lmish.

Guli ra’no kibi kog‘az uza nomingni yozmay men
Sarig‘ erdi yuzi, xunobi ashkim birla qon bo‘lmish.

Yuzumni ashkmu yo‘llar qiliptur yo nazar payki
Seni istarga ko‘p har yon yugurmakdin nishon bo‘lmish.

Qurug‘ shoxedurur jismimki, ko‘z davrida kirpikdin
Xayoling qushlarig‘a anda ikki oshyon bo‘lmish.

Ko‘zum xunob aro bo‘lmish biaynih o‘ylakim ko‘nglum,
Qarosi qon aro ko‘nglumdagi dog‘i nihon bo‘lmish.

Sirishk ollida mujgon shoxi sanchib bog‘layin dermen,
Yo‘lin bu selningkim, elga andin ko‘p ziyon bo‘lmish.

Yuzung hajrida bilkim, qon yoshim oqmish chaman ichra,
Qachon ko‘rsangki, har bir shox uza gul arg‘uvon bo‘lmish.

Murassa’ qilma chatring lojuvardiy atlasin, ey shah,
Gado ollidakim, bu nav’ chatri osmon bo‘lmish.

Navoiyg‘a demang, ul tifl ishqin asrag‘il maxfiy,
Bu damkim holi shahr atfoli ichra doston bo‘lmish.

245

Chiqti yorim kecha yo‘l azmin qilib ul bag‘ritosh,
Bas, ajoyibdur qorong‘u kecha chiqmog‘lig‘ quyosh.

Gar quyoshqa el nazar qilsa ko‘ziga yosh to‘lar,
Ul quyosh borg‘ach nazardin, ko‘zlarimga to‘ldi yosh.

Zaxmidin ko‘p qon borurdin qoldi chok o‘lg‘an ko‘ngul,
Zangdek afg‘on chekib, xaylida bo‘lg‘ay erdi kosh.

Furqatingdin yig‘labon Haqdin visoling istaram,
Gah socharmen boshqa tufrog‘, gah qo‘yarmen yerga bosh.

Qatra qonlarkim tomar ko‘ksumga urg‘an toshdin,
Zaxmdindur demakim, qon yig‘lar ahvolimg‘a tosh.

Chun to‘sharlar oqibat ustungga xoro birla farsh,
Ne osig‘ ostingda gar charx atlasidindur firosh.

Fosh etar mehrin Navoiyning sarig‘ ruxsorasi,
Subhdekkim sarg‘arib ruxsori aylar mehr fosh.

246

Qatiq dardim zuloli ashk etar fosh,
Suzuk su ichra qolmas yashurun tosh.

Halokim vasl aro mingdin bir etting
Ki, bergay Tengri bir yoshingg‘a ming yosh.

Demakka fitna ta’limin bo‘lub xam,
Qulog‘ing sari bosh eltiptur ul qosh.

Magar sochingni tiyding fitnadinkim,
Parishonhol ayog‘ingg‘a qo‘yar bosh.

Yasar chog‘da labing rangini go‘yo
Eziptur obi hayvon birla naqqosh.

Qadah, ey mug‘ki, jon aylay nisoring,
Necha bo‘lsam xarobot ichra qallosh.

Navoiy joni sensiz dardisardur,
Borurda oni ham olg‘ay eding kosh.

247

Chu bildi sham’kim, g‘am shomi ko‘nglumni halok etmish,
Tanin ashk etmadi yo‘lkim, yoqa holimg‘a chok etmish.

Chamanda yo‘qki bulbul, zog‘ ham un cheksa za’f aylar
Hazin ko‘nglumni ko‘rkim, furqating ne dardnok etmish.

Ko‘nguldin g‘ayr yodi chiqti yetkach tiyrboroning,
Kudurat naqshidin yomg‘ur suyi bu uyni pok etmish.

Quyun yanglig‘ guzar ko‘yiga qilmog‘ gar erur mumkin,
G‘am ermas, vodiyi hijroni gar jismimni xok etmish.

Su ichmay ko‘ngli zuhdumdin agar ketmish edi soqiy,
Vuz-u ibriqida maydur to‘la, kelsun ne pok etmish.

Falak paykoni zulmi, vahki, teshmish xasta ko‘nglumni
Nechukkim, tomchi bir yer uzra ko‘p tomib mag‘ok etmish.

Qadah tutkim, qizartay chehra, ey soqiyki, hijroning
Yuzumni asfar andog‘kim, xazoniy bargi tok etmish.

Balodur nafs shirki faqr yo‘lida, xush ul foniy
Ki, bir rahravg‘a jismi tufrog‘in gardi shirok etmish.

Navoiyni dedingkim, bir jafo birla halok aylay,
Vafo qil emdikim, bu orzu oni halok etmish.

248

Ko‘z ko‘tarman ul quyoshdin gar ko‘zum qilmoqqa resh,
Pashshalar yanglig‘ havo uzra chekar har zarra nesh.

Telbalik bog‘i gul-u nilufari erkin bukim,
Ham ko‘kardi xalq toshidin tanim, ham bo‘ldi resh.

Xushturur ko‘nglumda zulf-u qaddidin na’l-u alif,
Kim, bu qurbondek topilmas andoq o‘q-u yog‘a kesh.

Beli tori hajridin jismim bo‘luptur tordek,
Ey falak! Rahm et, bu ikki rishtani bir-birga esh.

Turfa ko‘rkim, ko‘ngluma ishqing kirarga yo‘l bo‘lur,
Nechakim, ishqimni tark etkil, debon ko‘ksumni tesh.

Istasang dayri fano tavfin belingdin, ey faqih,
Qayd zunnorin uzub, zunnor qaydin dog‘i yesh.

Ta'n qilmangkim, Navoiy bekas-u beyor emish,
Kim, anga olamda oshiqliq ish o'lmish, ishq esh.

249

Orazin yopqach ko'zumdin sochilur har lahza yosh,
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Qut bir bodom-u yerim go'shayi mehrob edi,
G'orati din etti nogah bir balolig' ko'z-u qosh.

Bu damo-dam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.

"Bo'saye qilmas muruvvat, asr-u qattiqdur labing"
Desam, og'zi ichra aytur: "La'l ham bor nav'i tosh".

Novaking ko'nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin
Kim, qilur paykonini ko'nglum bila jonim talosh.

Umri jovid istasang fard o'lki, bo'ston Xizridur —
Sarvkim, da'b ayladi ozodalig' birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh.

250

Sarig' gul demakim, chun sarvinozim bog' aro bormish,
Yuzin ko'rgach qizil gul za'f etib, ul nav' sorg'ormish.

Ko'ngul atrofida ochqan uchun hijron o'qi yo'llar,
Balo xaylini ishqing shahnasi ul sori boshqarmish.

G'aming minnat qo'yub jon oldi, vah, jonimg'a yuz minnat
Ki, xud bori tiriglik minnatidin jonni qutqarmish.

Kaloming gavharidek topmamish, garchi sabo ilgi
Yaqosin g‘unchaning yirtib nechakim qo‘ynin axtarmish.

Ko‘ngulni chok-chok etkach, yetishti o‘qi har yondin,
O‘tun qo‘ymoqqa go‘yokim bu o‘tning
to‘sh-to‘shin yormish.

Nechakim qad chekar, sarkashlik aylar anbarin zulfi,
Agarchi kun biyik chiqqanda doim soya qisqarmish.

Ilik bo‘g‘zig‘a eltib shisha to‘kmish qon yoshin mendek,
Magar soqiy ayog‘in o‘pkali ul dag‘i yolbormish.

Yugurma rizq uchun, ne yetsa Haqdin anglakim, komil
Ne kelturgil demish, ne g‘aybdin kelganni qaytarmish.

Firoq-u zuhd daf’ig‘a Navoiy ishq sahbosin
Magar to‘qquz tutub, to‘qquz falak jomini sipqarmish.

251

Porsovash dilsitonim bo‘lg‘an ermish bodano‘sh,
To boshim bo‘lg‘ay — ayog‘ing bo‘lg‘usi, ey mayfurush.

Ichganin ko‘rgan zamon-o‘q mast bo‘lg‘ungdur, demang
Kim, eshitgan lahza mendin zoyil o‘lmish aql-u hush.

Bazmi vaslidin yiroq og‘zimda xumdek muhr erur,
Tong emas qonimg‘a maydek shavq o‘tidin tushsa jo‘sh.

Jon-u ko‘nglum qon yutub afg‘on chekarlar hajridin,
Ishrat ahli may ichib bazmida qilg‘ondek xurush.

Chok ko‘nglak birla to usruk chiqibsen, ohkim,
Kisvatin mayxona rahni aylamish yuz xirqapo‘sh.

Subhidam ul but sabuhi bazmin ettim orzu,
Chiqmag‘il dayri fanodin, deb, nido qildi surush.

Ey Navoiy, qoru ermas bo‘lsa yuz ming jon fido,
Gar qadahno‘shum iki la’li mayidin tutsa qo‘sh.

252

Seni ko‘rgach der edim, bir mehribonim bor emish,
Alloh-Alloh, ne balo botil gumonim bor emish.

Orazing mohiyyat-u og‘zing so‘zin sharh aylaram,
Vah, ne ta’bi pok-u zehni xurdadonim bor emish.

Chok qil ko‘ksumni, ey badmehr, tokim bilgasen,
Tiyg‘i hajringdin ne nav’ ozurda jonim bor emish.

Ne hayot erdi, o‘lar holimdakim, ko‘rgach meni,
Noz ila dedi: “Hanuz ul notavonim bor emish”.

Javhari ishqin olurg‘a xalq maxfiy naqdidek
Jon ichinda bir necha dog‘i nihonim bor emish.

Yuz g‘amim bor erdi, mug‘ ko‘yiga kirgach bo‘ldi daf’,
Vahki, men g‘ofil ajab dor-ul-amonim bor emish.

Derki, yolqibmen Navoiy unidin, vah, yaxshidur
Kim, tiriglikdin nishondek bir fig‘onim bor emish.

253

Vusma birla qoshin ul mahvashki rangin aylamish,
Ko‘zi jallodi qilichig‘a yashil qin aylamish.

Ko‘nglum o‘tin demakim, tortar zabona zulfidin,
Kim, ul af’i til chiqarmog‘lig‘ni oyin aylamish.

Sunbulung af’isidin zaxme yemish go‘yo tarog‘,
Yo‘qsa nevchun orazin boshtin-oyoq chin aylamish.

Titraguchdin qilmish ul kirpik yasolig‘a alam,
Vah, yana to ne ko‘ngul yag‘mosig‘a kin aylamish.

O‘yladurkim, ilgini xino uza qilmish nigor,
Ulki gulgun ko‘nglak uzra to‘nin epkin aylamish.

Raz qizidin, soqiyo, birdam meni shod aylakim,
Charx zoli g‘ussasi ko‘nglumni g‘amgin aylamish.

Gar Navoiyg‘a Sulaymon mulkicha bordur ne tong,
Buki Bilqisi zamon nazmini tahsin aylamish.

254

Ne abrashdurki, sekritmish yana maydong‘a ul mahvash,
Qizil, oq gul bila yeldin magar xalq o‘ldi ul abrash.

Jahon maydonida to sho‘x chobuklar qilur javlon,
Kishi ko‘rmaydur andoq abrash uzra ul sifat mahvash.

Emas abrash, sipehredur shafaqdin ko‘rguzub anjum,
Quyosh turki anga rokib, tong ermas gar erur sarkash.

Nechuk o‘lmay, ul abrash uzra ul mahvashni ko‘rgachkim,
Hamul abrash erur sarkash, hamul mahvash erur sarxush.

Meni majnun yiqilsam ko‘rgach-o‘q, hayrat yeri ermas
Ki, aqli kulga har soat erur nazzorasidin g‘ash.

Parivash raxsh uza sarxush, pari javlon qilur, netsun
Junun jomig‘a qilmay bodapolo ahli taqvo fash.

Quyun yanglig‘ egarsa abrashin ul sho‘x, dam urman
Navoiydek, nedinkim ushbu so‘z bor asr-u ko‘p chirmash.

255

Ul sarv uzori guli serobdek ermish,
La'li labi gul uzra mayi nobdek ermish.

Ko'rdum qoshi aksini ko'ngul ko'zgusi ichra,
Bu qiblanamo, ul munga mehrobdek ermish.

Ko'rdum ko'ngul ahvolini ko'ksum to'shugidin,
La'ling g'amidin qatrayi xunobdek ermish.

Husn anjumani ichra yuzin ko'rmamish erdim,
Anjum aro xurshidi jahontobdek ermish.

Devona ko'ngul qaydi junundin ne qutulsun
Kim, har xami zulfung anga qullobdek ermish.

Tut faqr etagin, atlasi zarbaft so'zin qo'y
Kim, ul dag'i tan hifzida moshobdek ermish.

Bir yo'li Navoiyni yiroq solma nazardin
Kim, ul dag'i bir kun sanga ahbobdek ermish.

256

Ne ajab gar bor esam devonavashlig' birla xush
Kim, ko'ngul olg'an pariro'yum erur devonavash.

Man' etarsiz hushi yo'q ko'nglumga la'li bodasin,
Ayting, ey hush ahli, kelgaymu bu so'z usrukka xush.

Sofi vasli bo'lmasa gar barcha zahri hajridur,
Soqiyo, bir jur'a tutkim, oldi jonimni atash.

Soldi ko'nglumni g'ami hijron gudozi ichra yor,
Go'iyokim ishq aro ul qalbda bor erdi g'ash.

Vah, ne yanglig‘ sog‘ o‘lay men telba bu holatdakim,
Ul pari ham bordurur devonavash, ham jur’akash.

Shayx boshig‘a balo erkandurur dastorkim,
Ishq asrorin eshitmaklikka moni’ bo‘ldi fash.

Demakim, bir yaxshi so‘z birla Navoiy jonini
Olsam, ul bo‘lg‘aymu rozi, yaxshi so‘zga ne kengash?!

257

To ko‘z bila ko‘nglumni ul g‘amza maqom etmish,
Qonimni halol anglab, uyqumni harom etmish.

Sarv o‘lmadi bog‘ ichra ohim yeli birlan xam,
Boq ko‘z uchi birlankim, qaddingg‘a salom etmish.

Hayvon suyidur shudrun, Iso damidur salqin,
Bo‘ston sari jononim go‘yoki xirom etmish.

Hajr o‘qlari zaxmidin jismim bila ashkimni
Tutmoqqa balo saydin, g‘am dona-vu dom etmish.

To oshiq-u shaydomen qatlim qilur ul ko‘zlar,
Majnung‘a kiyiklarni ishq ulfati rom etmish.

Ma’shuq qilur jilva, har kimki aning ko‘nglin
Dard o‘ti kuli birla ishq oyinafom etmish.

Iskandaru Jamliqdur ishqingda Navoiyg‘a
Kim, raxshing iz-u na’lin ko‘zgu bila jom etmish.

258

Borg‘oningdin jon talashmoq erdi men mahzung‘a ish,
Kelding-u jonimni olding, ul borishqa bu kelish.

Vasl oshiq jonidur, men jon talashtim hajr aro,
Hajr borib vasl yetkach — o‘lmak, erur bu turfa ish.

Tiyg‘i to ko‘ksumni yordi nola qilman za’fdin
Rost andoqkim, qo‘yar afg‘onni chok o‘lg‘an qamish.

Kiymamish ul sarv gulgun to‘nki, tong ermas bu rang,
Naxlkim, ko‘z bog‘ida qon birla topti parvarish.

E’tidoledur havoyi ishq arokim, xush kechar
Sovug‘ ohim birla yoz-u ko‘nglum o‘ti birla qish.

Jismim uzra bor yangi butgan ko‘kumtul dog‘dek
So‘zi hajringdinki urdum g‘ussadin har yerga tish.

Kishu sinjobin ne tong gar kiysa muziy bozgun,
Kim, chiqarmishtur kishilikdin ani sinjob-u kish.

Tuz bo‘l o‘qtek, gar tilarsen avj, yokim egridur,
Davr har bir go‘shadin bo‘g‘zig‘a soliptur kerish.

Ey Navoiy, har dam ul oy mehri ortar ko‘ngluma,
Garchi yillardurkim, ul tarki muhabbat aylamish.

259

Orazin ko‘rdum nihon, ashk ayladi sirrimni fosh,
Yoshurun qolmas o‘g‘urluq uy arokim bo‘lsa yosh.

Zulfi sarkashlik qilur har necha ul oy cheksa qad,
Soya garchi qisqarur doyim biyik bo‘lg‘ach quyosh.

Har sari mo‘ ul pari hijronida bir yoradur,
Baski atfoli junun boshim uza yog‘durdi tosh.

Aylagil nolam xaroshidin hazar, ey siymbar,
Kim, bu suhon birla nogah topmag‘ay siyming xarosh.

Ka'badur ko'nglum uyi aylang tavof, ey dard-u shavq,
Anda mehrob o'rnig'a yer tutqali ul egma qosh.

Dahr bog'i ichra chun bir gulga yo'q bo'yi vafo,
Qilmag'ay erdi havo ko'nglum qushi ul gulga kosh.

Ey Navoiy, dayr aro tutsa ayog' ul mug'bacha,
No'sh etib olma ayog'idin aning o'lguncha bosh.

260

Har kun oqshomg'acha hajringda manga zorlig' ish,
Kecha tong otqucha anduh ila bedorlig' ish.

Ish vafo qilmoq erur, gar qila olsangki, emas,
Ey vafosiz, bu jahon ichra jafokorlig' ish.

Ishq aro qochma ko'ngul xor-u zabunlug'dinkim,
Oshiq o'lg'ang'a zabunluq bo'lur-u xorlig' ish.

Lutf-u diljo'lug' erur xo'b parivashlarg'a,
Ey pari, bilki, emas javr-u dilozorlig' ish.

Taqvo ahlig'a bilinsa edi charx avzo'yi,
Aylagaylar edi bu dayrda xammorlig' ish.

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

Xasta ko'nglini Navoiyning olib asraki, bor
Sanga dildorlig' ish, bizga dilafgorlig' ish.

261

Yorkim yog'lig' bila ko'ksum yarosin bog'lamish,
Anda o't tushmush, ko'nguldin qon tarashshuh qilmamish.

Buki pora-poradur kuygan bag‘ir birla ko‘ngul,
Itlari ollida ul kofir hamono to‘g‘ramish.

Rishtayi zulfungdakim, tushmish girihlar behisob,
Go‘yiyo qatl aylagan elning hisobin asramish.

Bir kishi savdoyi o‘lmay qolmag‘ay bu nav’kim,
Olam ichra sunbuli zulfung nasimi butramish.

Boshima tig‘ urdi, ko‘ksum chok-u bag‘rim qildi zaxm,
Masti bebokim dedim qahr etmish, ul xud o‘ynamish.

Har sari bir zaxmliq uzvum uzulg‘an topmish el
Notavon jismimnikim, ko‘yida itlar sudramish.

Olam ahli ichra bildik mug‘tanam har kimsakim,
Har vafog‘a ming jafo aylar kishiga uchramish.

Qo‘zg‘ama bulbulni ko‘p, ey gulki, davron bog‘ida
Qolmamish qo‘zg‘almayin ulkim, birovni qo‘zg‘amish.

Iztirobidin Navoiy ko‘ngli bir dam to‘qtamas,
Sensizin, sog‘inmakim, g‘urbatda ko‘ngli to‘qtamish.

262

Ko‘ngluma kelmas xazoniy bog‘ aro noranj xush,
Kim, xazoni hajr aro bo‘ldi yuzum noranjvash.

Chehra noranji-yu men noranj yanglig‘ talxkom,
Qayda kelgay kimsaga bul hol aro noranj xush.

Sho‘xi noranjiylibose hajri ko‘nglum o‘rtadi,
Sharbati noranj eta olmas manga daf’i atash.

Bo‘lmasa oltun piyola, bo‘lmasun, kel, ey rafiq,
Jom etib noranj nisfidin bo‘lali jur’akash.

Ul pari ishqida otim bo‘ldi Majnunluqqa fosh,
Andin ortuq kim burun mundin manga erdi adash?

Shayx dastorin chu may vajhi yo‘q erdi sirmadim,
Mayg‘a marhun qilg‘ali ul yaxshi, may suzmakka — fash.

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini
Kim, berur ko‘nglumga holo molish ul sho‘xi malash.

263

Sendin ayru tanda ko‘nglum yo‘qtur-u ko‘nglumda hush,
Bedil-u behushlardek ne ajab qilsam xurush.

Bodayi vaslim olur hushungni deb qo‘rqutmakim,
Vahm bu so‘zdin birov qilg‘ayki, bo‘lg‘ay anga hush.

Hajrdin maxlas tilab, no‘sh aylaram zahr ul sifat
Kim, yetishsa zahrdin achchig‘durur og‘zimda no‘sh.

Ishqda g‘ayrat tilimni lol etibdur, ey rafiq,
Hajr zulmidin, emasturmen so‘zum yo‘qtin xamush.

Barcha jismim hajr o‘tidin resh-u marhamliq momuq
Ittisolidin meni uryonni derlar xirqapo‘sh.

Hajrdin jon yetti og‘zimg‘a olib jon naqdini,
Quyki, kup og‘zini og‘zimga qo‘yay, ey mayfurush.

Ey Navoiy, har ne olam ichra bo‘lg‘ay, sahl tut,
Lek matlubung tamannosida bo‘lg‘il saxtko‘sh.

264

Surma bilanmu ul oy ko‘zni qaro aylamish,
Yo‘qsa Xo‘tan jayrani mushk ichida ag‘namish?

Ko‘yida men za’fdin o‘ylaki, har yon meni
It demayin, balki mo‘r tu’ma uchun sudramish.

G‘amzang o‘qi kasrati ko‘nglum aromu ekin,
Yo‘qsa bu qush parlarin hajring o‘ti churkamish?

Hullayi zarbaftdin qildim-u ul oy sepech,
Yo‘qsa shuoyi xatin boshqa quyosh chirmamish.

Olam aro bir kishi telbaramay qolmag‘ay,
Bo‘ylaki yetkach nasim zulfung aro butramish.

Vodiyi hajr ichrakim bo‘ldi so‘ngak ahli ishq,
Budur o‘tunkim, ani g‘am sipahi o‘rtamish.

Lam’ayi ruxsor ila o‘rtadi ushshoqini,
G‘ayrati husni magar zorlarin tergamish.

Tegmasa bazmingda may, basdurur ul su manga
Kim, sen ichar jomni suchi olib yoyqamish.

Naylagamen bog‘lamay mug‘bacha zunnorini
Kim, bu kuhan dayr aro Iso ani bog‘lamish.

Mehr-u vafo aybidin pokdur abnoyi dahr,
Pok nazardur kim ul sori nazar solmamish.

Tutti, Navoiy, aziz ko‘yida ul toshnikim,
Goh ani boshig‘a, goh boshin anga yastamish.

265

La’li ishq ahlidin oncha g‘orati jon aylamish,
Kim, o‘lukka jon berur oyinin oson aylamish.

Ko‘yida atfol ushshoq o‘lturur bedod ila,
Shah magar shahr ichra it qatlig‘a farmon aylamish.

Subhi ayshim istamish g‘am shomig‘a bo‘lmoq badal,
Yo‘qsa nevchun yuz uza zulfin parishon aylamish.

Yo Rab, ul tunni yorutma mehr birla to abad
Kim, g‘aribe mehribon yorini mehmon aylamish.

Ahli davron ko‘nglum oshubin netib man’ aylagay
Kim, ani oshufta bir oshubi davron aylamish.

Gul kibi soch xurdakim, yel yirtibon taroj etar
G‘unchakim, o‘z naqdini og‘zida pinhon aylamish.

Ey Navoiy, demakim, bag‘rim eritmish ishq o‘ti
Kim, ani hijron kunining anduhi qon aylamish.

266

Ul gulekim, bazmida zog‘-u zag‘an qilg‘ay xurush,
Avlo ulkim, bulbul uchqay, uchmasa bo‘lg‘ay xamush.

Gar Sulaymon majmaida bo‘lmag‘ay juz Ahraman,
Kimga ul majma’ aro, yo Rab, nido qilg‘ay surush?

Yorg‘a ag‘yor xayli bo‘ldi matbu’, ey ko‘ngul,
Emdi g‘am xumxonasida ya’s jomin ayla no‘sh.

Shoh bazmidur dag‘i mahkumlug‘, vah, dayr aro
Hokim aylar bir qadah birla gadoni mayfurush.

Hushmand el sari bu dayr ichra boqmas mug‘bacha,
Bir qadah lutf etsa piri dayr etarmen tarki hush.

Saxtko‘sh elga dema, oxir falakdur saxtgir,
Arzimas olamda hech ish xud bo‘lurg‘a saxtko‘sh.

Ikki dunyodin agar kechsa Navoiy ayb emas,
Har qachonkim ul buti xammor elidin ichsa qo‘sh.

Qilg‘ali kiygan libosin ul buti zebo binafsh,
Vahki, yoqmas xotirimg‘a hech rang illo binafsh.

Sarvi ra’no hullam-u kiymish binafsha bargidin,
Yo libosin aylamish ul chobuki ra’no binafsh?

Xushturur gar xil’atin qilsa qaro yo savsaniy
Kim, quyosh mushkin bulutdin xush ko‘runur yo binafsh.

Ezdi jannat gullaridin rang naqqoshi qazo,
Sen kiyardek chunki bo‘lmas dahr aro paydo binafsh.

To binafsh etmish to‘nin ul gul, borurmen hushdin,
Bog‘ aro har gulnikim ko‘rsam meni shaydo binafsh.

Gul binafshazor aro tushgan kibi ul sho‘xning
Ko‘nglaki volo binafsh-u to‘ni ham kimxo binafsh.

Sabzada savsan yarashqandek muloyimdur base,
Sho‘xi sabzoranglarning rangiga debo binafsh.

Juz binafsha bog‘ aro gul ekmagil, ey bog‘bon
Kim, libosi rangini istar bizing Mirzo binafsh.

Bo‘ylakim, soqiy to‘nin qilmish binafsh ermas ajab,
Aksidin bo‘lsa bulurin sog‘ari sahbo binafsh.

Charx rangomiz erur, ko‘rma tafovut zinhor
Ranglarkim, ko‘rguzur ko‘k-u yashildin to binafsh.

Ey Navoiy, ul binafshapo‘sh gulning vasfida
Bo‘lmasun har ne yozarsen kog‘azi illo binafsh.

268

Tuzmagay erdi qazo bu jismi vayronimni kosh,
Chunki tuzdi, solmag‘ay erdi anga jonimni kosh.

Tan uyiga jonni solg‘ach, qilmag‘ay erdi muqim,
Ul uy ichra ko‘ngul otlig‘ zori hayronimni kosh.

Bo‘ldi chun jon-u ko‘ngul bori, nazar sham’i bila
Qilmag‘ay erdi munavvar chashmi giryonimni kosh.

Chun adam sahrosidin keldim vujud ayvonig‘a,
Buzg‘ay erdi marg selobi ul ayvonimni kosh.

Chun tuzaldi tan uyi, qovg‘ay edi andin ravon,
Yo‘q ko‘ngul, devonayi rasvoyi nodonimni kosh.

Chun ani ham qovmadi, ko‘r etsa erdi tig‘ ila
Ko‘z degan qon yosh ila oludadomonimni kosh.

Chun bu dag‘i bo‘lmadi, qilmasa erdi jonima,
Muncha zebo-vu malih-u sho‘x jononimni kosh.

Chun bu yanglig‘ bo‘ldi jonon, qo‘ysa erdi marhame,
Gah-gahe ko‘rgach ko‘ngulda dog‘i hijronimni kosh.

Ishq ichinda chora o‘lmakdin Navoiy dema, Haq
Ro‘ziy etkay la’li jonbaxsh obi hayvonimni kosh.

269

Dedim, ul paykonni la’l etkan yurak qoni emish,
G‘unchang armonida ul xud la’li paykoni emish.

Pardayi jon ichra tim-tim qon sarosar loladek,
Furqatingdin toza-toza dog‘i pinhoni emish.

Lablarin tuzluq takallum birla fahm ettim so‘rub,
La’ldin xoni jamolining namakdoni emish.

Bir jaza’ solmish maloyik xayli ichra rustaxez,
Emdikim fahm aylamishlar ko‘nglum afg‘oni emish.

G‘am tuni, dedim, bulutning pardasidin chiqti oy,
Zulfdin chiqqan jamoling mehri raxshoni emish.

Davr ayog‘in, soqiyo, qo‘yma yigit joning uchun
Kim, yigitlik ro‘zgori aysh davroni emish.

Ey Navoiy, chok bo‘lg‘an ko‘nglunga qildim nazar,
Yor boqiy anda, boqiy o‘zgalar foniy emish.

270

Ilgiga moviy katon ul sho‘x nevchun chirmamish,
Go‘yiyo ko‘p tiyg‘i zulm urmoqtin og‘rib bog‘lamish.

O‘ltururda kosh ul yog‘lig‘ bilan-o‘q bog‘lasa
Ko‘zlarimnikim, ani ilgiga holo chirmamish.

Ko‘rguzur erdi yadi bayzo urarda tiyg‘i qatl,
Bog‘lamish chun ilgin, el ko‘zin qorong‘u aylamish.

Anglag‘uncha ko‘ngluma yuz dog‘i anduh o‘rtadi,
Ulki ko‘rgach panjasin bog‘lig‘, dedim, dog‘ o‘rtamish.

Kosh jonim rishtasidin bo‘lsa erdi yog‘lig‘i
Kim, ul oyning dastbo‘si davlatig‘a uchramish.

Soqiyo, maykim, aning ilgida yog‘lig‘ toridek
Dard-u g‘am xayli buzulg‘an xotirimni qopsamish.

O‘lturur ilgida gar tiyg‘ o‘lsa aning, gar harir,
Hech bilmonkim, Navoiy ne balog‘a uchramish.

"SOD" HARFINING SANAMLARINING SIYTI "G'AROYIB"DIN

271

Dema, ne sud erur o'lmoq fano harimig'a xos,
Yana ne sud kerak o'zlugungdin etsa xalos.

Avomdin, demakim, o'zni qutqaray, er esang
O'zungdin o'zni qutulmoqqa jahd qilg'il xos.

Ko'ngul alil esa, forig' emas xavotirdin,
Jarohat uzra yig'ilmoq durur chibinga xos.

Ajab emastur agar topti gavhari maqsud
Birovki, bo'ldi fano ashki bahrida g'avvos.

Ovuch qoqarmen o'z ahvolima tahayyurdin,
Ramida ko'nglum erur bu usul ila raqqos.

Desang, bu yo'lda o'lay, nafsni burun o'ltur
Ki, ishq shar'ida go'yo bu nav' keldi qisos.

Rizo yo'lida Navoiy borur qayon cheksang,
Chu ishq bog'ladi bo'ynig'a rishtayi ixlos.

272

Gulruxum yodi bila ko'nglum erur gulga haris
Kim, berur Yusuf isi qon aro yuz pora qamis.

Lutf vaqtida ul oy ollida eldur maxsus,
Vahki, bedod qilurda meni aylar taxsis.

Ey ajal, kelmak emish boshima ul umr manga
Rahm qil joning uchun berma zamone tanqis.

Boda ko‘nglumni xalos ayladi davron g‘amidin,
Go‘yiyo ul o‘t bila bu qalbg‘a bo‘ldi taxlis.

Ishqim aylar seni qon to‘kkali har dam targ‘ib,
Husnung aylar meni jon bergali har dam tahris.

Band etiptur jadal ahli ishin ashkol andoq
Kim, ne “Miftoh” anga sud qilur, ne “Talxis”.

Vasl hirmoni Navoiyg‘a emas hech ajab,
Chunki mahrum bo‘lur har kishikim, bo‘lsa haris.

273

Jon yetib og‘zimg‘a topmon dardi hijrondin xalos,
Jonni hijrondin xalos et yo meni jondin xalos.

Andoq ochti sunbulin gul uzra yelkim, bo‘lmag‘ay
Bir ko‘ngul olamda ul zulfi parishondin xalos.

Dema, nolangdin o‘char har shom eldin uyqukim,
Tunning avval boshida ham ermas afg‘ondin xalos.

Garchi yer topting ko‘ngulda vahm et oh-u ashkdin
Kim, kirib vayrong‘a bo‘lmas kimsa to‘fondin xalos.

Yog‘sa majnun ko‘nglum uzra sho‘xlar dardi, ne tong,
Telba atfol ichra bo‘lmas sangborondin xalos.

Istamas bir-birni sensiz jon-u tan, Tengri uchun
Kim, ani mundin xalos etgil, muni ondin xalos.

Hajr uyi ichra qobolmish yor hajridin ko‘ngul,
Vah, qachon bo‘lg‘ay bizing tutqun bu zindondin xalos?

Jom davridin xalos o‘lmoqni zinhor istama,
Eyki, bo‘lmoq istading anduhi davrondin xalos.

Bandi zulfungdin Navoiyni xalos etkil desam,
Derki, bo‘lmas, bo‘lmag‘uncha hukm sultondin, xalos.

274

Boda meni ayladi zuhdi riyodin xalos,
Zuhdi riyo yo‘qki, ming ranj-u anodin xalos.

O‘zluguma o‘t solib, berdi manga ishq dame
Zuhd-u vara’din farog‘, dard-u balodin xalos.

Jonni xalos ayladi jomi fano zuhddin,
Yo Rab, ani aylama jomi fanodin xalos.

Yor ila ag‘yordin bir nafas ayrilmasun,
Kimki tilar bo‘lmag‘ay noz-u jafodin xalos.

Ko‘ngluma yog‘durdi o‘q charx firoqing tuni,
Mumkin emas bo‘lmog‘i muncha yarodin xalos.

Husnunga tokim nazar bo‘lg‘usi nazzoragar
Bo‘lmag‘ung aylab jafo ahli vafodin xalos.

O‘zni Navoiy xalos istamas o‘z yoridin,
Yo Rab, ani qilma ul mohliqodin xalos.

275

Ey, sening xanjari hajring yarasi jonima xos,
Har junun toshiki otsang, tani uryonima xos.

Shoh qasrida tilang aysh-u tarab xoslarin
Kim, erur xayli balo kulbay vayronima xos.

Uyqu xos o‘ldi mening baxti garonxobimg‘a,
Uyqusizliq nechakim diydayi giryonima xos.

Tortmoq zulm-u sitam jonima xos o'lg'andek,
Qilmoq ul ikkini Haq ayladi jononima xos.

Ey ajal, hajr tuni jonima qasd aylama ko'p
Kim, halok etmak erur mehnati hijronima xos.

Xo'blar nozidin o'lmish mutanaffir ko'nglum,
Negakim bo'ldi bu oyin ko'ngul olg'onima xos.

Istama bog'da bulbul unidin ishq asari,
Ey Navoiy, kim erur bu sifat afg'onima xos.

"ZOD" HARFINING ZAMIRONBO'YLARINING ZIYOSI "G'AROYIB"DIN

276

Birovki amr xilofidin aylagay e'roz,
Agar ulus shahidur yo'q aning kibi murtoz.

Riyo-vu ujb-u hasad daf'in et fano bilakim,
Ketar bu doru ila muncha muxtalif amroz.

Amalg'a boqmaki bebahri fazl erur yakson
Fuzayli Barmakiy[1] o'lsun, vagar Fuzayli Iyoz[2].

Zamona ahlini bu korgoh aro bilgil,
Zurufkim to'ladur anda muxtalif ag'roz.

Haloki nafs vali nutqi bilki, rishtayi kufr
Kesar ishiga Ali zulfiqoridur miqroz.

---

[1] **Fuzayl Barmakiy** — Barmak nomli avval o'tparast bo'lib, keyin musulmon bo'lgan shaxsning avlodlaridan; ba'zisi Abbosiylar davlatida vazir bo'lgan, Fuzayl Barmakiy ulkan davlatga erishgan shaxs bo'lgan.

[2] **Fuzayl Iyoz** — ulug' avliyolardan, xislat va karomatlari "Tazkirat ul-avliyo", "Nasoyim ul-muhabbat" kitoblarida bayon qilingan.

Zamona mushkungga kofur qotti, ko‘z ochqil
Ki, chun ko‘z ollidadur bo‘lmas aylamak ig‘moz.

Savodi jahlni yub, vaqt erurki uyg‘onsang
Ki, umr shomig‘a subhi ajal keturdi bayoz.

Faqir yashurun ohig‘a boqmakim, o‘rtar
Jahonni garchi erur bu choqin ishi iymoz.

Bo‘lur o‘lukka Navoiy hadisi jon bersa,
Nedinki, fayz eshigin bog‘lamaydurur Fayyoz.

277

Ichib ul sho‘x gulgul qildi la’li nob ila oraz,
Meni mahzun nechukkim dam-badam xunob ila oraz.

Magar siymobi ashkim qilg‘ali shingarfgun ul sho‘x
Qilur shingarfdin gulguna, yub siymob ila oraz.

Hamul kun mehri iqbolimni shomi g‘am nihon qildi
Kim, ul gul qildi pinhon sunbuli serob ila oraz.

Quyoshning partavi birla agar ul yuzni teng tutsa,
Erur andoqki teng tutqay quyosh mahtob ila oraz.

Magar zanjiri zulfung shomida motam nasibimdur
Ki, har soat xarosh aylarmen ul qullob ila oraz.

Qoshi birla ishorat sajdaga aylar xush ul davlat
Ki, aylab sajda ravshan qilsam ul mehrob ila oraz.

Dema, qish sovug‘ ohimdin dururkim, chekti ul chobuk
Qoshi ustida kish bo‘rkin, yopib sinjob ila oraz.

Talab yo‘linda yuz qo‘y har eshik tufrog‘ig‘a, ya’ni
Bir ahli din oyog‘ig‘a yetur har bob ila oraz.

Navoiy orazi sarg‘ardi g‘am yeb bexud o‘lmog‘din,
Nechuk sarg‘armag‘ay bu nav’ xo‘rd-u xob ila oraz?

278

Jong‘a zulfung tobidin ul la’li xandondur g‘araz,
Xizrg‘a zulmat tilardin obi hayvondur g‘araz.

Shavq o‘tig‘a urmasam su, kuydurur ko‘nglumni pok,
Istagandin o‘qlaring ko‘nglumga paykondur g‘araz.

Nevchun, ey hijron, azob aylarsen onsiz jonima,
Istagilkim, topshuray gar xud sanga jondur g‘araz.

Yuz tugan qo‘ydum, emas qoni’, keting, jon-u ko‘ngul,
Go‘yiyo ul bevafog‘a dog‘i hijrondir g‘araz.

Ol etar bo‘lsang kafingni dahshat etma, tiyg‘ sur,
Men bihilmen gar sanga bu bir ovuch qondur g‘araz.

Olam-u odam fidong o‘lsunki borsen, ey habib,
Sen g‘araz insondin, ar olamdin insondur g‘araz.

Ey Navoiy, voqif o‘l holingg‘akim yor ollida
Bas farovondur g‘arazgo‘, asr-u parrondur g‘araz.

279

Ey sabo, jonim halokin ayla jononimg‘a arz,
Yo‘qki, jismi notavon ahvolin et jonimg‘a arz.

Oh dudin, ashk qonin, nola maddin aylagil
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi xiromonimg‘a arz.

Kufri zulfi, din-u imonimni barbod aylabon,
Qilg‘anin jon qasdi, etkil nomusulmonimg‘a arz.

Va'dayi vaslig'a yetmay o'lganimni, ey rafiq,
Qilg'asen har yerda ko'rsang ahdi yolg'onimg'a arz.

Oshiq o'lturmakka chiqmish mast, vah, ishqim so'zin,
Ey raqib, etsang ne ul beboki nodonimg'a arz.

Vasl shavqi g'olib-u men gungmenkim, aylamak
Hojat ermas koshifi asrori pinhonimg'a arz.

Ey Navoiy, hajr zindonida jonning xavfi bor,
Qilg'asen topsang mahal, albatta, sultonimg'a arz.

"TE" HARFINING TANNOZLARINING TAROVATI "G'AROYIB"DIN

280

Nafs qutto'-ut-tariqi manzilidur bu rabot,
Naqdi din hifzig'a qil o'tkuncha andin ehtiyot.

Manzil etsang bu rabot ichra iqomat qilmakim,
Har kun o'zga korvon oromgohidur bu rabot.

Ne to'sharsen taxti johing farshin oltun xisht ila
Kim, seningdek shohni ko'p o'tkariptur bu bisot.

Tavqi la'nat desalar bo'yninda tasbihin ne tong,
Makr-u hiylat birla shayx el birla qilsa ixtilot.

Shayxi johil bo'lmoq o'z asrori birla munbasit,
G'aflat ahli bang ila qilg'an kibidur inbisot.

Zarq jomi birla vajd etgan erur ul tiflkim,
May debon rangin suni qilg'ay ichib amdo nishot.

Faqr ko'yi itlaridin kimki kam ko'rdi o'zin,
Topsang ani, itlari silkida topqil inxirot.

Vaslg‘a yo‘l hajrdin faqr o‘ldi, ko‘rgil turfakim,
Birdin uchmog‘dur xijil, birdin tomug‘, birdin Sirot.

Ey Navoiy, ishq aro berabt agar sursam hadis,
Anda mazmun bil g‘araz, maqsud ko‘rma irtibot.

281

Yuzda xolingdurmu yo tahrir etar holatda xat,
Tomdi qudrat kilkidin kun safhasig‘a bir nuqat.

Sabzayi xatting ko‘zumni yorutur boqqan soyi,
Ko‘p nazar qilsa, agarchi tiyra aylar ko‘zni xat.

Oyni ruxsoring dedim, go‘yo qorong‘u erdi tun
Kim, manga asr-u yiroqtin voqi’ o‘lmish bu g‘alat.

Jon arosig‘a kirar har dam xiromon qomating,
Garchi sokindur alifkim, jong‘a bo‘lmishdur vasat.

Turki anjum shomi hajrimni yorutmas, go‘yiyo
Novaki ohimdin o‘lmish tavsani gardun saqat.

Maskaning may o‘tidin, ey mug‘, erur otashkada,
Anda bir o‘tlug‘ samandar may to‘la har sari bat.

Zohid o‘ldum deb, Navoiy ishqni tark etmakim,
Bo‘lmasa ul sho‘r, tuzsiz luqmadur zuhdi faqat.

282

Qilsa bo‘lmas oh-u afg‘ondin meni shaydoni zabt,
O‘ylakim, javr-u jafodin ul buti tarsoni zabt.

Har dam el qonin to‘kar usruk chiqib bedod etib,
Kimdururkim, qilg‘ay ul sho‘xi qadahpaymoni zabt.

Sho‘xliqdin zulm qilmoqqa erur beixtiyor,
Mumkin ermas qilmoq ul huri malaksiymoni zabt.

Zulfi zanjirig‘a ahli ishq ko‘nglin tortibon,
Yaxshi qildi bir suruk devonayi rasvoni zabt.

Telba ko‘nglum dashtni qilsa masohat aybi yo‘q,
Omilar Majnundurur qilg‘ay magar sahroni zabt.

G‘unchalar ochilsa, o‘lganlar tirilsa ne ajab,
Aylay olmas kulgudin chun la’li ruhafzoni zabt.

Zabt aylay olmas ahli ishq ko‘ngli kishvarin,
Xusravekim aylay olg‘ay sarbasar dunyoni zabt.

Ashk mavjin man’ etarsiz, menda ham yo‘q ixtiyor
Kim, qiliptur xossa chayqalg‘an zamon daryoni zabt.

Davr eli zulmin xayol etmak bila bo‘ldum halok,
Tindi ulkim, qildi bir vasvos ila savdoni zabt.

Dayr piri bandasidurmenki nofiz hukm ila
Aylamish yuz ming juhud-u gabr ila tarsoni zabt.

Ey Navoiy, sen dag‘i devonasen, ko‘nglung dag‘i,
Gar seni zabt etsalar, kim aylay olg‘ay oni zabt.

283

Ruxsor ila labingdin etar ko‘nglum inbisot
Kim, gul chog‘ida boda erur mujibi nishot.

Ey oy, sipehr arsasida o‘zni sotma ko‘p,
Shohim ruhin unutmaki, xoli emas bisot.

Qilmang nazora og‘zig‘a ko‘pkim, topilmag‘ay
Xurshid ichinda zarrani ko‘p aylab ehtiyot.

Ul sho‘x necha g‘ayr bila bo‘lsa muxtalit,
Men g‘ayri birla mumkin emas qilmoq ixtilot.

Shahlar, demanki, qullug‘uma bo‘ldi munxarit,
Gar qullaringning o‘rtasida topsam inxirot.

Qo‘yma ko‘ngulni dahrning eski rabotig‘a,
Soyirg‘a chun mahalli iqomat emas rabot.

Oshufta bo‘lsa nazm Navoiyg‘a, ey pari,
Devonalar so‘zida tama’ qilma irtibot.

“ZE” HARFINING ZARIFLARINING ZUHURI “G‘AROYIB”DIN

284

Tariqi ishqdin bo‘lmish manga balo malhuz,
Nechukki faqr tilardin erur fano malhuz.

Agarchi dardsiz o‘lmas davo va lek mening
Bu dard istaganimdin emas davo malhuz.

Oyoqqa kirsa ne bushqay balo mug‘iloni,
Gar o‘lsa bodiyadin Ka’bayi safo malhuz.

Erur mulohazam ul oy rizosi ishq ichra,
Agarchi elga visol o‘ldi ishq aro malhuz.

Fireb berma manga intihodin, ey zohid
Ki, bordur ahli haqiqatqa ibtido malhuz.

Niyozing o‘lsa, yetar dayr piridin qadahe,
Yo‘q ersa bazmida ermas shah-u gado malhuz.

May ichki, xalq gunohin yumoqqa abri karam
Yog‘ar mahalda emas rind-u porso malhuz.

Ajabki, fayz charog‘i ishiga solg‘ay nur,
Birovki, bo‘lg‘ay aning zuhdidin riyo malhuz.

Navoiy, emdi qadah sham’ini yorutqilkim,
Yorug‘lug‘ o‘lmadi taqvo bila mango malhuz.

285

Rishta — diqqatdur, kalomingda duri shahvor — lafz,
Rishtag‘a durlar chekarsen chun topar takror lafz.

La’li jonbaxshing erur go‘yoki Ruhullohkim[1],
Sochilur jon har taraf qilg‘an soyi izhor lafz.

Go‘yiyo hayvon suyidin qatra sekrir har sari,
Chun takallum vaqti la’lingdin chiqar durbor lafz.

Gar o‘lukni tirgizur, vahkim, tirigni o‘lturur
La’lidin qilg‘ach ayon ul sho‘xi shirinkor lafz.

Dema lafzinkim tili evrulmagondindur sinuq
Kim, topar tor og‘zidin chiqquncha ko‘p ozor lafz.

Sirri ishqimni tilarmen sharh qilmay anglasang
Kim, emas ishq oyatig‘a mahrami asror lafz.

Ey Navoiy, chun guhar beqadr erur shoh ollida,
Ne ajab gar bo‘lsa nazmingdin qoshida xor lafz.

286

Masihoyin agar minbarda zohir qilsa dam voiz,
Nabiy o‘rnig‘a urmoq behayolig‘dur qadam voiz.

---

[1] **Ruhulloh** — hazrati payg‘ambar Iso alayhissalomning laqablari, Qur’oni Karim oyatiga ishoratan qo‘llangan.

Aning bu jur'atig'a bo'lmag'an bo'lsa junun bois,
Nedin solib oyog'-ilgin, chekar un dam-badam voiz.

Oyog' minbarg'a qoqib, aylamak dastorin oshufta,
Nedur gar zarqi mahz ermasdurur sar to qadam voiz?

Agar jomi g'urur ichmakka majlis tutmamish, nevchun
Nazoyirxon ila o'z lahnin aylar zer-u bam voiz?

Maloda qichqirib may man'in elga aylamak ne sud,
Erur chun xilvat ichra may icharga muttaham voiz.

Karam targ'ibi aylar majlis ahlig'a fig'on aylab,
Ribo vajhini eldin olmasa, aylar karam voiz.

Magarkim osmonning zinasi o'ldi anga minbar
Ki, anda chiqqoch o'z g'ayrin gumon aylar adam voiz.

Qadah ol dayr piridinki, bu dayri fano ichra
Qilurlar zarq, yaxshi anglasang, ham shayx-u ham voiz.

Navoiy tong emas bu va'zdin mayxonag'a borsa
Ki, shod etkay o'zinkim, ko'p anga yetkurdi g'am voiz.

287

Bu nag'ma erdim-u yo'q ersa ofat, ey hofiz
Ki, bazm ahlig'a solding qiyomat, ey hofiz.

Ulustin oldi unung hush, sen salomat bo'l,
Gar itti elga tariqi salomat, ey hofiz.

Nechaki nag'mang erur mustaqim-u lahning tuz,
Va lek eldin olur istiqomat, ey hofiz.

Ne hush mulkida topqay iqomat ulki dame,
O'qurda topsa yoningda iqomat, ey hofiz.

Magar Masih ila Dovudsen nafas bilakim,
Hayot-u mavt erur ul alomat, ey hofiz.

Qilib tilovat islom eliga qasd etma
Ki, Tengri ollida topqung nadomat, ey hofiz.

Magarki Hofizi Sheroz senki, bir sog‘ar
Tutub Navoiyg‘a qilding karomat, ey hofiz.

“AYN” HARFINING IYORLARINING ALOMATI “G‘AROYIB”DIN

288

Istasangkim urg‘asen davrong‘a tiyg‘i inqito’,
Ul vido’ etkuncha sen qilg‘il burunrog‘ alvido’.

Jon berib shirin-u muhlik joh uchun ilgingda tiyg‘,
Naz’ vaqti sharbati marg istab aylaysen nizo’.

Asrading katton kafan qilmoq uchun, ne sudkim
Hashr bozorida beqiymatdurur mundoq mato’.

Maskaning oxir chu tufrog‘dur, ne o‘tkarmakdurur
Madfaning ayvonig‘a ko‘k gunbazidin irtifo’.

Sandaloyin ev yasab, eldin ko‘rarsen sarzanish
Kim, bu yanglig‘ ko‘rdi sandalniki, yetkurgay sudo’.

Yer o‘parsen rizq uchun minnat yukidin xam bo‘lub,
Tengri yoringkim, qilibsen xush namoze ixtiro’.

Dur qulog‘ingda momuqdin bir chigitdur, el so‘zin
Bu momuq birla chigitdin aylamassen istimo’.

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,
Nafs itin qilsang zabun olamda yo‘q sendek shujo’.

Ey Navoiy, Tengri asrorig'a til mahram emas,
Chok ko'nglung ichra tutkim "**jovaz-al-isnayni sho'**"[1].

289

Jismi vaslin qildim ul zulfi sumansodin tama',
Ul kishi yanglig'ki, qilg'ay siym savdodin tama'.

La'lidin tirguzmak etsam orzu ayb etmangiz
Kim, kishi o'lturmak etmaydur Masihodin tama'.

Zarrani xurshidcha ravshan tama' qilg'ancha bor,
Zarracha mehr etmak ul xurshidsiymodin tama'.

Ne ajab qilsam tama' ovora ko'nglumdin junun,
Qilsa bo'lmas aql xud majnuni shaydodin tama'.

Dog' etib ko'nglum tavaqqu' qildi sabrim naqdini,
Ahli zulm andoqki qilg'ay naqd tamg'odin tama'.

Gulxaniydin gulxan olotin tama' qilmoqdurur,
Har kishi dunyolik etsa ahli dunyodin tama'.

Sarv-u guldin ko'p demang so'zkim, Navoiy aylamish,
Bargi guldin xil'at etgan sarvi ozodin tama'.

290

Ko'zumni toki qilmish ul saodat axtari matla',
Qarog' ermaski, shabgun hulladin qildim anga burqa'.

Labing hajrinda qon yoshim kelur bag'rim shikofidin,
Ajab ermas bu yanglig' sug'a bo'lsa ul sifat manba'.

---

[1] "**Jovaz-al-isnayni sho'**" — hadisi sharifning bir bo'lagi; to'liq shakli: "Kulli sirrin jovazal-isnayni — sho'" *("Har qanday sir ikki tish orasidan o'tdimi, bas, u yoyiladi" (M. Kenjabek)).*

Qilurlar qasdi jonim kelturub bir-birga bosh, go‘yo
Bukim paykonlaring ko‘nglum harimin qildilar majma’.

Bu ne rokibdur-u markabki, javlon vaqti bordurlar
Quyoshdin poyada a’lo, falakdin po‘yada asra’.

Tushar ko‘nglumga ul yuz partavi ko‘ksum shikofidin,
Bu ravzanni ne bo‘lg‘ay qilsang, ey tiyg‘i qazo, avsa’.

Ne tong har kun agar bar bersa yuz ofatki, anjumdin
Sochiptur yuz muxolif xosiyatlig‘ tuxm bu mazra’.

Navoiy voqif o‘l gardun arusidinki, qasdingg‘a
Ochar gah shomdin gesu, kiyar gah subhdin miqna’.

291

Uchuq ermaski chun bo‘ldi Suhayli orazing toli’,
Aqiqing rang olurda bo‘ldi xoling soyasi moni’.

Guliston demakim, chehrang ocharda sun’ naqqoshi
Qilurg‘a imtihon ul ranglarni ayladi zoyi’.

Chu har yon tig‘ solding ul hasaddin yig‘ladim, lekin
Netaykim, barq o‘tig‘a bo‘lmadi yomg‘ur suyi dofi’.

Ko‘ngul qasdig‘a yolg‘uz tiyrboron qilmadi g‘amzang,
Balo-vu fitna xayli kelgali ham ayladi shori’.

Halokim qasdi voqi’ bo‘lmadi ul g‘amzadin, lekin
Labingdin elni tirguzmak meni o‘lturdi filvoqi’.

Chu tiyg‘ing kirdi qonimg‘a farah bo‘ldi manga afzun,
Nechukkim mayg‘a su mamzuj o‘lur ko‘prak bo‘lur nofi’.

Labingg‘a jon bo‘lur moyil, tanim xoki rahing bo‘lsa,
Ajab ermas bo‘lur chun barcha ashyo aslig‘a roji’.

Nechuk zunnor bog‘lab boda ichmay, ey musulmonlar
Ki, piri dayr har ishkim qilur bormen anga tobi’.

Navoiy, faqr ko‘yida taalluq kufri mahz ermish,
Bir Alloh do‘stdin nekim nasibing bo‘lsa, bo‘l qoni’.

292

Dog‘ uza dog‘din ovora ko‘nguldur zoyi’,
Ne qaro kunlar anga voqi’ erur filvoqi’.

Tiyrboroni g‘aming qildi zirih jismimni,
Gar zirih bu esa ko‘p bo‘lg‘usi o‘qdin moni’.

Hajr o‘ti dudi ko‘zumdin ne ajab to‘ksa sirishk,
Chunki, tun xaylig‘a anjum sipahidur tobi’.

La’li shavqida sarig‘ yuzni yashurdi qon yosh,
Garchi safrog‘a chuchuk sharbat emastur dofi’.

O‘rtanur ishqida parvona, chekar un bulbul,
Ul guli sham’jabin ishqida menmen zoyi’.

El nasibi chu azal qismatida topti raqam,
Senki sa’y ortuq etarsen nechuk o‘lg‘ay nofi’.

Ul quyosh har kishiga toli’ erur, vah netayin
Kim, Navoiyg‘a bu nav’ o‘lmadi bir kun toli’.

293

Vasl shomi xilvatimda yoqsalar nogoh sham’,
Rashkdin jonimni gohe soya o‘rtar, goh sham’.

Ravshan etsa uyni dilxohim, yorutmang sham’kim,
Sham’i bazmim bo‘ldi chun dilxoh, emas dilxoh sham’.

Urmasun ko‘p lof kuymakdinki, hijron tunlari
To‘zmas erdi ollida tortay desam bir oh sham’.

Rishtayi joni kuyar ashki oqib, jismi erib,
Tiyra shomim zulmidin bo‘lmish magar ogoh sham’.

Ohim andoq tiyra qildi ko‘knikim, topmas o‘zin,
Gar quyoshdin yoqmasa Isoyi Ruhulloh sham’.

Topsa hirmon zulmati ichra ne tong hayvon suyin,
Kimgakim bo‘lsa hidoyat nuridin hamroh sham’.

Hajr aro istar jamoling ham Navoiy, ham ko‘ngul
Kim, tilarlar tiyra tunlarda gado-vu shoh sham’.

294

Yuziga ko‘zguni har dam qilur ul siymbar moni’,
Aningdekkim quyosh ruxsorig‘a bo‘lg‘ay qamar moni’.

Jahonni ul quyoshning barqi husni o‘rtagay erdi,
Karonsiz bahri ashkim bo‘lmasa erdi agar moni’.

Quruq jismimni g‘am tiyg‘idin asrar dard ila shavqung,
Yig‘ochqa kesmagidin o‘ylakim bo‘lg‘ay samar moni’.

Qabul etman qanot egnim uza chiqsa og‘ir debkim,
Yo‘lungda barqdek po‘yamg‘a bo‘lg‘ay bol-u par moni’.

Ko‘zum uzra hubobi ashk ul yuz moni’i ermas,
Biaynih shishadekkim, bo‘lmas aylarga nazar moni’.

Dema zohidki, taqvog‘a ne moni’durki, bordurlar
Shabob-u bodav-u ishq-u junun sar-basar moni’.

Og‘iz birla qad-u qosh-u ko‘zung zuhdumg‘a qo‘ymaslar,
Nechuk qilg‘ay kishi bir ishki, bo‘lg‘ay bu qadar moni’.

Ko‘ngul bayt ul-haromi tavfig‘a moni’ xavotirdur,
Safarg‘a Ka’ba sari o‘ylakim bo‘lg‘ay xatar moni’.

Navoiy jonig‘a tan gardi ermish moni’i maqsud,
Nasimi vasl eskach fayz bog‘idin ketar moni’.

“G‘AYN” HARFINING G‘IZOLALARINING G‘AVG‘OSI “G‘AROYIB”DIN

295

Mehrsizlikdin falak el qatlin aylar bedarig‘,
Yo‘qsa nevchun dafn etar har kun quyoshtin yerga tiyg‘.

Tiyg‘i zulmi zaxmidin har shom andoqkim shafaq
Qon-u tufrog‘ ichradur xurshidorazlar, darig‘!

Kun emas, olam ko‘ziga muntashir aylar bayoz,
Tun emas, balkim chekar xurshid ruxsorig‘a mig‘.

Kimgakim, do‘lob charxidek solur sargashtalik,
Bo‘g‘zin ip birla bo‘g‘ar qilg‘an soyi faryod-u jig‘.

Nechakim yig‘sa o‘zin, shahlar boshi uzra chekar,
Chatrdek kimni sarafroz aylamaklik qilsa big‘.

Go‘yiyo oni sabab qildi musabbib ne uchun
Kim, anga bu qilmog‘idin ne ziyondur, ne osig‘.

Ey Navoiy, bil nekim bo‘lg‘anni Haq taqdiridin,
Mundin o‘zga amrdin ko‘ngulni uz, ilgingni yig‘.

296

Zaif tanda g‘amingdin yuz eski bo‘lg‘an dog‘,
Har eski dog‘ bu shox uzra bir quruq yafrog‘.

Yuzungga husn fuzun bo‘ldi nil ziynatidin,
Magarki yorudi go‘gird o‘tidin bu charog‘.

Qading chu ayladi gulgasht, sarv-u gul demakim,
Bo‘yaldi qong‘a aliflar kesib g‘amingdin bog‘.

Sochi asirimen, o‘pmay hanuz xolin, vah
Ki, donag‘a og‘iz urmay nasibim o‘ldi tuzog‘.

Iloj silsilayi zulfidur jununumg‘a,
Agarchi mushk isidin emganur zaif dimog‘.

Chu bo‘lsa g‘ayr hujumi visol mumkin emas,
Shuhud o‘lurmu xavotirdin o‘lmag‘uncha farog‘.

Agar Navoiy iki nargising xayoli bila
Mariz-u mast jahondin o‘tar, sen o‘lg‘il sog‘.

297

Soqiyo, hajr ilgidin ko‘p tortadurmen zorlig‘,
May keturkim, maslahat ermas manga hushyorlig‘.

Qasdim etmish hajr-u bexudlug‘ ilojimdur, dame
Mayg‘a afyun yor qil, gar aylar ersang yorlig‘.

Mast qil andoqki, bosh qo‘ysam magar bo‘lg‘ay manga
Mahshar ahli yo Rab-u g‘avg‘osidin bedorlig‘.

Chorasi yo bodadur, yo vasl, yo marg, ey tabib,
Har kishikim topsa hijron dardidin bemorlig‘.

Bar yegil, yo Rab, hayoting bog‘idin, ey mug‘bacha
Kim, mayi la’lingdin o‘ldi bizga barxurdorlig‘.

Zuhd, ey soqiy, balo ermish, xush ul mayxorakim,
Ichkali jomi balo bo‘lmish ishi xammorlig‘.

Ey Navoiy, zuhddin yuz qatla ortuq, darbadar
Bir safol ilgimda mug‘ ko‘yida qilsam zorlig‘.

298

Ul sumanbar qaddining sarvig‘a ko‘nglum bo‘ldi bog‘,
Otashin gullar anga har yangi qonlig‘ toza dog‘.

Hajr aro ul sho‘x ko‘nglum sayd etar ruxsor ochib,
Tifl oqshom qush tutarg‘a ravshan etkandek charog‘.

Mujibi ko‘p yig‘lamoq ermish nazar pok o‘lmog‘i,
O‘ylakim aylar suyin afzun oritmog‘din bulog‘.

Ey hakim, olg‘il surohiy lo‘lasidin paxtakim,
Sud erur qonin necha daf’ etsa mahrur dimog‘.

G‘unchadin to chiqti gul, mast o‘ldi bulbul, soqiyo,
May surohiydinki chiqmas, dahrdin topman farog‘.

Xatt-u xoli nuqtasi yuz choklik ko‘nglumdadur,
Bir qafasda turfadur, vah-vah, ko‘rung to‘ti-yu zog‘.

Necha rangin ashk to‘ksam ko‘zda ul yuz naqshidur,
Loladin o‘zga ne gul bergay, suyi qon bo‘lsa, bog‘.

Yog‘mag‘uncha ashk daf’ o‘lmas ko‘nguldin tiyralik,
Bu yog‘inni go‘yiyo deptur qazo ul o‘tqa yog‘.

Faqr yo‘linda Navoiy aylagil boshtin qadam
Kim, bu yo‘l qat’ida bosh qo‘ymoqdurur qo‘ymoq ayog‘.

299

O‘rtanurmen kechalar hajringda andoqkim charog‘,
Ravshan ayla rishta jismimdur, ko‘ngul — o‘t, ashk — yog‘.

Sarv-u sunbul loladek qad, zulf-u yuzung hajridin,
Ham alif, ham na'l kestim kuydurub yuz yerda dog'.

Bir ko'zumga sarv o'qdur, bir ko'zumga gul tikan,
Sensizin, ey sarvi gulrux, nogah etsam gashti bog'.

Jonim ichra o'tdurur bir la'li maygun hajridin,
Soqiyo, navbat manga yetkach labo-lab tut ayog'.

Sog' bo'l, devona etsang meni bir may birlakim,
Hajrdin devonamen, bo'ldum esa bir lahza sog'.

Istaram og'zin, qilib la'l-u xat-u xolini vasf,
Xalq g'oyibdin nishonlar aytib etkandek so'rog'.

Ul farog'-u bu taraddud itti maqsud o'rtada,
Gum bo'lub maqsud, o'tti ham taraddud, ham farog'.

Ro'zgori tiyra, nutqi lol bulbuldur magar
Kim, xazon faslida aylarlar tasavvur ani zog'.

Telba deb qilma Navoiyning ilojin, ey hakim
Kim, mushavvashdur anga bir o'zga savdodin dimog'.

300

Garchi men hajringdin o'ldum tortibon ko'p zorlig',
Sen hayotingdin top, ey badmehr, barxurdorlig'.

Xasta erdim ko'zidin yetkurdi la'lin og'zima,
Tengri jon berdi, vale chektim base bemorlig'.

Kechayekim tushka kirgay ul saodat axtari,
Bermagil, yo Rab, manga ul uyqudin bedorlig'.

Bodayi la'ling bila mundoqki usrukmen mudom,
Kofiri ishq o'lg'amen, gar istasam hushyorlig'.

Bu ko‘ngul ozoridin bezormen, bor muddate
Bo‘lg‘ali bizlar aro ozorlig‘, bezorlig‘.

Ne bino erkin bukim, bir pora koshi tushmadi,
Qilg‘ali bu toqni sun’ ilgi miynokorlig‘.

Ey Navoiy, suhbatingdin qilsa or ul ko‘rkaboy,
Yo‘q ajab nevchunki sensen bir gado, ul — borlig‘.

301

Necha, ey oromi jon, hajringda beoromlig‘,
Do‘stlug‘ ko‘rguzki, haddin oshti dushmankomlig‘.

Shukr sham’in yoqmadim vaslingda, yetti dog‘i hajr,
Bizni bu o‘tlarg‘a kuydurgan erur ul xomlig‘.

Ermas o‘tlug‘ ko‘nglum, og‘zing naqshidur ko‘ksum aro,
Qatrayi qon otashin gul g‘unchasi andomlig‘.

Deb emishsen, tark etib ishq-u muhabbat shevasin,
Ot chiqarmishsen saloh ichra, zihi badnomlig‘.

La’lidin za’f etti qon bo‘lg‘an ko‘ngul, vah, bodadin
Naf’ topmas ermish ulkim, qilsa xunoshomlig‘.

Ko‘z yoshimdin nam topibdur, garchi me’mori qazo,
Bog‘ladi ko‘k gunbadi toqini istehkomlig‘.

Zulfida dard-u balo istar Navoiy ishqidin,
Ul gadodekkim, tilar ahli karamdin shomlig‘.

302

Lolagun bo‘lmish surarda qatlima dildor tiyg‘,
Yo balo tog‘idin etmish lolazor izhor tiyg‘?

Gul tani yuz chok o‘lub bukim bo‘yalmish qon aro,
Tegdi g‘amzang xaylidin go‘yo anga bisyor tiyg‘.

Tiyg‘ tortib yetkach-o‘q qildim fidosi jonnikim,
Bo‘lmag‘ay ozurda qotil, ko‘rmagay ozor tiyg‘.

Jism paykoning bila to‘ldi-yu jondur g‘amdakim,
Aylasang qatlimg‘a rag‘bat bo‘lmag‘ay nokor tiyg‘.

Ishq dashti sabzasidin lola har yon sochilur,
Ya’ni ul sahro giyohi bor emish xunbor tiyg‘.

Olam ahli qatlini bir damda qilsang orzu,
Yuzdin ol burqa’ni, qindin chekmagil zinhor tiyg‘.

Nazm mulkin til chekib olmish Navoiy o‘ylakim,
Cheksa olamni olur shohi falakmiqdor tiyg‘.

“FE” HARFINING FITNALARINING FUSUNI “G‘AROYIB”DIN

303

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u pushaymonlig‘da hayf.

Jong‘a bir dushvorlig‘ qo‘ymay riyozat ranjidin,
Sarf bo‘ldi naqdi avqotim tanosonlig‘da hayf.

Bog‘ladim paymonadin paymon, fig‘onkim, aql-u din
Bo‘ldi bu paymona-vu ul sustpaymonlig‘da hayf.

Ey musulmonlar, bilingkim, bo‘ldi umrum hosili
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig‘da hayf.

Hayfkim, naf’ aylamas har nechakim tortib ilik,
Desam o‘z ahvolima bu nav’ hayronlig‘da hayf.

Andoq ish qilkim, pushaymon bo‘lmag‘aysenkim, emas
Hech osig‘ chun ish xato bo‘ldi pushaymonlig‘da hayf.

Har ne o‘tkan so‘zlarim chindur desam yolg‘on erur,
Chin budurkim, degamen umr o‘tti yolg‘onlig‘da hayf.

Chun yengilrakdur hisob o‘lg‘anda sultondin gado,
Hayfkim, bo‘lg‘ay gado avqoti sultonlig‘da hayf.

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening
Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf!

304

Zor jismimda qiliching zaxmi har yon muxtalif,
Har biridur sarv qadding hasratidan bir alif.

Tol niholida emas yafrog‘ki, tillar tortibon,
Sarvi ozodim uchun qulluqqa bo‘lmish mu’tarif.

Qosh-u ko‘zin ko‘rgali, ey shayx, bildim, makri bor
Har siyahpo‘sheki mehrob ichra bo‘lg‘ay mu’takif.

Anbarin xat birla ul yuz bo‘ldi olam ofati,
Olam ofatsiz emas xurshid bo‘lg‘ach munkasif.

Soqiyo, ul kavsaroso bodadin bir jur’a tut
Kim, meni hayrong‘a bo‘lg‘ay kashf sirri lav kushif.

Bodayi maqsud jomi zavqidin ta’bim yuzin,
Vah, necha doyim xumori jahl tutqay munxasif.

Jon berib olsang, Navoiy, bok emas ul bodadin
Kim, erur **“yuhyil-izom”**[1] avsofi birla muttasif.

---

[1] **“Yuhyil-izom”** — suyaklarni tiriltiradi; Qur’oni Karim, “Yosin” surasi, 78-oyatidan; 78–79-oyatlar ma’nosi: **“U** (inson) **o‘z asli — yaratilishini unutib, Bizga misol keltirishga o‘tdi: “Shu chirib ketgan suyaklarni kim tiriltiradi?!” — dedi.** (Ey Rasulim!) **ayting: “Ularni ilk marta yaratgan Zot tiriltiradi! U har turli yaratishni bilguvchidir!”** *(M. Kenjabek).*

305

Yoshurun g‘amzang qilichikim qilur ko‘ksum shikof,
Buki, maxfiydur, anga go‘yo qoshing bo‘lmish g‘ilof.

Qoshlaring ne saf chekib bo‘lmish qorovul kirpiking
Kim, ko‘ngul sultoni xaylig‘a emas hojat masof.

Mehr anglab oshiq o‘ldum, so‘ngra yetsa ko‘hi g‘am,
Ne ajab ishq ibtidosi “ayn” erur, poyoni “qof”.

Qoshi ko‘nglum o‘g‘risidur roki’ o‘lmog‘lig‘ ne sud,
O‘g‘ri bosh solg‘ach quyi bordur dalili e’tirof.

Ishq aro Majnunni der ba’zi fuzun, ba’zi meni,
Lek holim anglag‘an topmas mahalli ixtilof.

Bo‘l safo ahlig‘a hamdam, yor vaslin istasang,
Aksini solg‘aymu soqiy bo‘lmag‘uncha boda sof?

Ey Navoiy, gar qilur ko‘nglung Haram tavfini qasd,
Qat’ etib dashti fano maqsad harimin qil tavof.

306

Ko‘rguzur hijron hurufi nuqtasin jon har taraf,
Sensizin ya’niki qo‘ymish dog‘i hijron har taraf.

O‘yla shiddat birla charx aylar meni sargashtakim,
Zaxmi ko‘p tandin yog‘ar shudrun kibi qon har taraf.

Ko‘nglum ahvolin ne deykim, sharhig‘a bir tildurur
Ko‘kragimdin bosh chiqarg‘an no‘gi paykon har taraf.

Tashladim yetkach junun xayli tuganlar taxtasin,
Ya’ni ochtim mehmonlar ollida xon har taraf.

Ashk qonlig‘ ko‘zni eltur o‘ylakim, su lolani,
Bo‘lmasa yo‘linda moni’ xori mujgon har taraf.

Rashkdin ko‘p muztaribroqdur ko‘ngul ul go‘ydin
Kim, kesib boshimni ul sho‘x ursa chavgon har taraf.

Qo‘y basharni, gar maloyik domi ermas yaxshidur,
Ul pari mundoqki, zulf etmish parishon har taraf.

Netib o‘lmaykim, yana ul sho‘x usruk otlanib,
Ter suvi markab yelidin soldi to‘fon har taraf.

Ko‘r, ne hayratdur mangakim, bordurur bu dayr aro
Donishi yuz menchalar, yuz mencha hayron har taraf.

Shishadek ko‘nglumni paydo o‘rtadi soqiy va lek,
Dog‘in etti may hubob ostida pinhon har taraf.

Ey Navoiy, navhayi hijron tuzub, un chekma ko‘p
Kim, kishi qolmas tirik yetkach bu afg‘on har taraf.

307

Boda xushtur gar harifim bo‘lsa bir yori zarif,
May harifi gar zarif ermas, anga erman harif.

Ul sifat zoting latofat aynidin jonbaxshdur
Kim, hamono ani mazhar ayladi ism-ul-latif.

Za’fdin gar dardi ishqingdin shikoyat ayladim,
Ishq shar’i ichra ermas mo‘tabar qavli zaif.

Xoki poyingni maloyik qildilar toji sharaf,
Alloh-Alloh, kim ko‘ruptur bu sifat zoti sharif.

Za’fim andoqdurki dam ursam erur biymi halok,
Ne uchunkim ul taharrukdur anga behad anif.

Davr ranjidin tilarmen mayg‘a tushmak o‘ylakim,
Mayg‘a tushgan qil kibi g‘arq o‘lsa bu jismi nahif.

Ey Navoiy, qilg‘ali ta’b ahli jinsi she’r nazm,
Nazming o‘ldi barchasig‘a qofiya, balkim radif.

308

Bazm aro gar yo‘q may bila daf,
Ham yomon ermas un bila kaf.

Soqiyi gulrux, boda ketur
Kim, manga haddin oshti shaaf.

Davr ila dayr aro may chekkali,
Chekmak necha masjid aro saf.

Bodag‘a bersam jon naqdi,
Bo‘lmoq uchundur naqd talaf.

Kel berikim, yo‘q sanga vubol,
Lekin erur ko‘p bizga sharaf.

Shayxi riyoyiy foniy ermas,
Ul taraf o‘lsun yo bu taraf.

O‘qung uchun xasta Navoiy,
Ko‘zi qarosin qildi hadaf.

“QOF” HARFINING QIYOMATLARINING QIRONI “G‘AROYIB”DIN

309

Zihe azalda karam aylabon sanga Xalloq,
Karim xilqat ichinda makorimi axloq.

Sipehr gunbadini ravshan etkali zoting,
Charog‘ o‘lub, anga qandil arsayi ofoq.

Nujum ko‘zlarini gardi markabing yorutub,
Gaheki sekritibon charx sohatida Buroq.

Rikobing o‘pmagining orzusida oy-u kun
Berib Buroqing uchun o‘zlariga shakli chanoq.

Hilol-u mehr-u shihob o‘ldi na’l-u dog‘-u alif,
Falakka bo‘lg‘ali sendin nasib dardi firoq.

Sipehr har kecha yuz ming ko‘zin nedin yummas,
Visolingga yana bir kecha gar emas mushtoq.

Maqominga yetayin deb Navoiy aylar sayr,
Gahe Ajam bila Nerez, gahe Hijoz-u Iroq.

310

Yordin ayru ko‘ngul — mulkedurur sultoni yo‘q,
Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufrog‘dekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qaro tufrog‘kim, yo‘qtur gul-u rayhon anga,
Ul qarong‘u kechadekdurkim, mahi toboni yo‘q.

Ul qarong‘u kechakim yo‘qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni yo‘q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo‘lmag‘ay
Do‘zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo‘q.

Do‘zaxekim ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig‘ imkoni yo‘q.

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo‘q.

311

Bo‘lmas ermish dilrabolar ahdi mahkam, ey rafiq,
Gar kishi derkim, bo‘lur, tutma musallam, ey rafiq!

Har parizodeki o‘z majnunig‘a qilmish vafo,
Bilki, andindurki, ermas nasli odam, ey rafiq!

Mohvashlar shomi zulfi ne uchun oshuftadur,
Tutmamish bo‘lsa vafo ahlig‘a motam, ey rafiq!

Dard muhlik umrning ta’jili ko‘p, joning uchun
Kim, Masihimni ketur boshimg‘a bir dam, ey rafiq!

Qo‘ydi bir o‘tlug‘ fatila dog‘ uchun har g‘unchadin,
Charx to gulshanni ko‘rdi sabz-u xurram, ey rafiq!

Gul emas, gulbunda qonlig‘ dog‘ erurkim, nastaran
Tevruk aylaptur momuq qo‘ymoqg‘a marham, ey rafiq!

Bu munaqqash saqf tarixi yozig‘liq chun emas,
Ko‘p mashaqqat chektim, ammo qoldi mubham, ey rafiq!

Men xud ettim azm mug‘ ko‘yida rasvo bo‘lg‘ali,
So‘z eshit, albatta, mendin qolma sen ham, ey rafiq!

Ich, dag‘i tutqil Navoiyg‘a qadahkim, arzimas
Bir nafas hushyor bo‘lmog‘lig‘qa olam, ey rafiq!

312

Sanga ish javlon qilib maydonda chavgon o‘ynamoq,
Manga ollingda boshimni go‘y etib jon o‘ynamoq.

Bosh ovuchlab egma qomat birla qolman raxshidin,
To tilar chobuksuvorim ko‘ngli chavgon o‘ynamoq.

Ko‘z qarosin o‘ynatur har lahza ul mardumni ko‘r,
Hinduyedekkim erur oyini qolqon o‘ynamoq.

O‘ynay-o‘ynay aylading kufr ila dinimni badal,
Alloh-Alloh, bumudur, ey nomusulmon, o‘ynamoq?

Javr toshin ul pari o‘ynab otay der el sari,
Vahki, bu devonag‘a yetkach ne imkon o‘ynamoq?

Har sari ashkim yugurmoq ne ajabkim, ayb emas,
Tiyra uydin chiqqach-o‘q yoshlarg‘a har yon o‘ynamoq.

Charx o‘yun birla olur din naqdin eldin, voqif o‘l,
Bu musha’bid birla bo‘lmas ahli irfon o‘ynamoq.

Va’da ko‘p qilding Navoiyg‘a va lekin o‘ynabon,
Muncha bo‘lg‘ay el bila, ey ahdi yolg‘on, o‘ynamoq.

313

Ohkim, g‘am tiyg‘idin ko‘ksumni qildi chok ishq,
Dudi ohimdin ko‘zumni ayladi namnok ishq.

Dard kirmak birla jon chiqmoqqa gar yo‘l qilmadi,
Ne uchun g‘am tiyg‘idin ko‘ksumni qildi chok ishq?

Ul pari ko‘yidakim har lahza yuz ming bosh borur,
Sudrabon eltur meni devonani bebok ishq.

Ko‘zuma har dam yorug‘roqdur yuzungnung ko‘zgusi,
Xosiyat mundoq emish har kimda bo‘lsa pok ishq.

Oshiq o‘ldi xasta jon ko‘rgach ul otashporani,
Alloh-Alloh, barq ila o‘ynaydurur xoshok ishq.

Ishq vodiysig‘a kirgan, yonki andin har quyun
Kim, chiqar sargashtayedurkim qilibdur xok ishq.

Ey Navoiy, oshiqekim, sen kibi istar farog‘,
Gar erur majnunki, ul qilmaydurur idrok ishq.

314

Vah, necha jismimni g‘amdin notavon etkay firoq,
Notavon jismimg‘a har dam qasdi jon etkay firoq.

Jismim aylab notavon jonimg‘a qasd aylab nihon
Qasd qilg‘an jonni rasvoyi jahon etkay firoq.

Jonni rasvo aylagandin so‘ng qanoat qilmayin
Yuz g‘am-u anduh xadangiga nishon etkay firoq.

Emdikim anduh-u mehnat o‘qig‘a qildi nishon,
Har jarohat uzra yuz dog‘i nihon etkay firoq.

Ey ko‘ngul, solma o‘zungni dard ila, mardona bo‘l,
Bizni, shoyadkim, bu yanglig‘ imtihon etkay firoq.

Vaslidin dam urmayin, qilsaq firoq ichra basar,
Shoyad o‘zin bizga bir kun mehribon etkay firoq.

Kuydi jonim vaslida el rashkidin, to yetti hajr,
Vasl munglug‘ jonima o‘t soldi to netkay firoq.

Do‘stdin istar rizo zinhor ani ko‘rmakim,
Vasl qilg‘ay komron yo notavon etkay firoq.

Ich, Navoiy, may bag‘ir qonideg-u bexud yiqil,
Necha vasl ummididin bag‘ringni qon etkay firoq.

315

Qon yoshim sorig‘ yuz uzra oshkor etti firoq,
Za’faronzorimni g‘amdin lolazor etti firoq.

To firoq uyiga kirdim, vahki, ashkimdin edi,
Garchi yuz gavhar, ayog‘img‘a nisor etti firoq.

Dam-badam ohim chekarga sabr ila toqatni aql
Ixtiyor etti, vale beixtiyor etti firoq.

Jon taloshur elni marg andoqki aylar muztarib
Lablaring istar ko‘ngulni beqaror etti firoq.

Deb eduk ishq anduhidin har dam afg‘on qilmali,
Vahki, bu da’voda bizni sharmsor etti firoq.

Ket, farahkim, g‘amni, mehnat toshin olib, ko‘ngluma
Yuz tuman mismor birla ustuvor etti firoq.

Ey Navoiy, vasl aro bo‘lg‘ayki, boqib kulgamen
Dog‘larnikim ko‘ngulga yodgor etti firoq.

Demangiz, netti firoq oxirki bo‘ldung dushmani?
Man’i vasli xusravi Jamiqtidor etti firoq.

316

Junun toshi xarobot ichra har dam ko‘ksuma urmoq,
Erur taqvo-yu donish butlarin tosh birla sindurmoq.

Quyoshkim zarra qo‘zg‘ab kirsa vayronimg‘a hajringda,
Ko‘zumga kul sovurmoq, bil ani, ko‘nglumga o‘t urmoq.

Chu piri dayr taqvo xirqasin kuydur, dedi, gar xud,
Aning har toridur jon rishtasi bo‘lmas boqib turmoq.

Labing hajrinda xokiy tan aro ko‘nglumni habs ettim,
Nechukkim jonsiz elni rasm erur tufroqqa topshurmoq.

Dema, ul dilrabog‘a ne uchun ko‘nglungni oldurdung,
O‘z erki birla ne mumkin kishi o‘z ko‘nglin oldurmoq?

Agar ohimdin aylab jilva yog‘durdi jafo toshin,
Ne tong gulbun sabo tahrikidin gul bargi yog‘durmoq.

Binafsha solxo‘rd eldekki bosh soldi quyi, go‘yo
Yaqin anglab jazoni umr anga da’b o‘ldi qayg‘urmoq.

Qadah ichmak yozuq deb asr-u mardud etmagil, ey shayx,
Bu qism ersa azaldin, bejihatdur bizni yozg‘urmoq.

Qarog‘lardin pulak, jon rishtasidin chillavor etkil,
Qoshing yosin Navoiy qasdig‘a gar istasang qurmoq.

317

Yor chun istarki, bo‘lg‘aymen mudom andin yiroq,
Ul jihatdin barcha vasl istar, meni mahzun firoq.

Yaxshilarg‘a bas yomondur holkim, yor ollida
Tengdurur yaxshi-yomon, balkim yomonroq yaxshiroq.

Shah yonin farzin kibi kajlar maqom etmish, ne tong,
Rostravlar arsadin gar tutsalar ruhdek qiroq.

Toza har yon dog‘ emas, jismimda ul yuz ishqidin
Kim, bu kavkablarg‘a bo‘lmish ul quyoshdin ehtiroq.

Bu yiroqliqdin yaqindur o‘lgamen, vah, yorning
Istabon royin bo‘lupturmen yaqinliqdin yiroq.

Mahjabinlardin siyahdillik ne tong, oykim aning
Botinin ko‘rsang qarodur, gar ko‘runur zohir — oq.

Ko‘p Hijoz ohangi tuzma, yor ila bo‘l barcha vaqt,
Ey Navoiy, gar Ajam bo‘lsun maqoming, gar Iroq.

318

Chiqsa jonim, ayb qilma, jismi bemorimg‘a boq,
Kuysa jonim, hayrat etma, nolayi zorimg‘a boq.

Hajr dashtining guli gar lola bo‘lsa, seli qon,
Qilmag‘il, ey gul, taajjub chashmi xunborimg‘a boq.

Eyki, ko‘rmaysen quruq shoxe bezalgan gul bila,
Hajr toshidin sarosar jismi afgorimg‘a boq.

Zulfin ochti ul sanam, ey shayx, bovar qilmasang
Kim, asiri kufrmen but birla zunnorimg‘a boq.

Yer bila teng qildi xoki tan uyin ashkim suyi,
Ishq saylidin yiqilg‘an eski devorimg‘a boq.

Qilmasang tavbamni sindurg‘anni bovar, ey faqih,
Xirqayi chokimni ko‘r, oshufta dastorimg‘a boq.

Bosh ko‘tarmay maydin ektim jurm tuxmi barcha umr,
Ey Navoiy, umr etib zoyi’ sar-u korimg‘a boq.

319

G‘amim ko‘p ayta olmasmen ne tong ko‘nglum
halok o‘lmoq,
Ichimda yuz qilich, ne ayb ko‘ksum chok-chok o‘lmoq.

O‘lar deb shod o‘lur, ko‘p ko‘rsa dardim muddaiy, bilmas
Ki, ishq ichra hayotim boisidur dardnok o‘lmoq.

Agarchi husn ichinda sencha pok o‘lmoq emas mumkin,
Ani ham ko‘rki ishq ichra bo‘lurmu mencha pok o‘lmoq?

Agar zahr ichsam ilgingdin taajjub qilma, ey soqiy
Ki, bo‘lmish mast-u oshiq shevasi bevahm-u bok o‘lmoq.

Chu men bir jom uchun dehqon asirimen, ajab ermas
Libosim tok bargi, rishta bel bog‘larga tok o‘lmoq.

Jahondin silkinib chiqqan etak topib yopishmog‘liq
Muyassar bo‘lsa, ne ishdur talab yo‘linda xok o‘lmoq.

Navoiy ko‘ksida ishq etmas o‘lsa dafn g‘am naqdin,
O‘yulub toza dog‘i har taraf nedur mag‘ok o‘lmoq?

320

Demangiz ahbobkim, qilmasmusen bas yig‘lamoq
Kim, manga Tengri nasib etmish tuganmas yig‘lamoq.

Asray olmon o‘zni, ashkim tutti dasht-u tog‘ni,
Nechakim Farhod-u Majnun dedilar: “Bas yig‘lamoq!”

Mast-u oshiqmen, dag‘i ko‘nglumda ayrilg‘an kishim,
Ey musulmonlar, ne tong men zori bekas yig‘lamoq.

Tong emas jismim oqizg‘uncha ko‘zum gar to‘kti ashk,
Ne ajab abri bahoriy oqqucha xas yig‘lamoq.

Tiyra hajring shomida gar jon talashman tongg‘acha,
Boshima sham’-u surohiy nedurur bas yig‘lamoq?

Dahr bog‘idin vafosizlig‘ agar fahm etmadi,
Nega shabnam ashkidin fan qildi nargis yig‘lamoq?!

Ey Navoiy, toqini men dag‘i ashkimdin yiqay,
Chun manga qism etti bu charxi muqavvas yig‘lamoq.

321

Kimga, vasli ichra yoqsang sham'i ulfat, ey rafiq,
Ko'z tut ul sham' o'tidin-o'q dog'i furqat, ey rafiq.

Vasl sofi mumkin ermas chunki bedard-u firoq,
Zinhor ul boda sari qilma rag'bat, ey rafiq.

Vasl yo'qkim, ishq lafzin tilga mazkur etmagil,
Har nafas ko'rmay desang yuz nav' shiddat, ey rafiq.

Kuyma har bemehr o'tig'a, gar desang har dam seni
Qilmag'ay kul shu'layi anduh-u g'ayrat, ey rafiq.

Sho'x chobuklar g'ubori tavsanig'a solma ko'z,
Yuzda istar bo'lmasang gardi mazallat, ey rafiq.

Boqma guldek yuz uza xay shabnaminkim, buzmasun
Aql ila sabring binosin sayli ofat, ey rafiq.

Gar solib yuz ming balog'a mendek o'zni bo'lmasa
Ishqsiz bir dam sanga ham sabr-u toqat, ey rafiq.

Toki mumkindur, kezib bir mehribon yor istagil,
Bag'ri toshlarni sevarga qilma jur'at, ey rafiq.

Gar Navoiydek boshingg'a tushsa bir qotil g'ami,
Anda dog'i ko'rgasen ne bo'lsa qismat, ey rafiq.

"KOF" HARFINING KOFIRLARINING KAMOLI "G'AROYIB"DIN

322

Ey, deb sifotingda ahli idrok:
"Lav loka lamo xolaqtul-aflok"[1].

[1] **"Lav loka lamo xolaqtul-aflok"** — ko'plab tariqat arboblarining so'zlari va tasavvuf shoirlarining she'rlarida kelgan hadisi qudsiy. Ma'nosi: "(Ey Rasulullohim!) Agar siz bo'lmasangiz, Men falaklarni (koinot va butun borliqni) aslo yaratmagan bo'lar edim".

Aflok nechukki xoki rohing
Ul yo‘ldaki, ojiz o‘ldi idrok.

Desam aflok erur tufayling,
Basdur guvahim hadisi **“Lav lok”**[1].

Tubiy bila shoxi sidra keldi,
Qadring chamanida ikki xoshok.

Kim, tutsa shafoating umidi,
Bebokligidin anga ne bok.

Chun shomi uruj qaytting bot,
Subh etti yoqani g‘ussadin chok.

Vasfingda ne aytqay Navoiy,
Juz ajz ila uzri **“Mo arafnok”**[2].

323

Vah, nedur maydonda har yon azmi javlon aylamak,
Bizga yetkach o‘zga yon ohangi maydon aylamak.

Zulfdin chavgon chekib el boshini go‘y etkali,
Ko‘z yoshimni go‘ydek har sari g‘alton aylamak.

Qon aro jismim bo‘yab, dersenki, ishqim tarkin et,
Bu ekin olamda kofirni musulmon aylamak.

Tan g‘uborinda yoshurdum dog‘i ishqinkim, emas
Ayb muflisdin diram tufroqqa pinhon aylamak.

---

[1] Yuqoridagi izohda bayon qilingan hadisga ishora.

[2] **“Mo arafnok”** — hadisi sharifdan: “taniy olmadim”. To‘liq shakli “Mo arafnoka haqqo ma’rifatika” — “Yo Rabbim! Men Seni ma’rifating haqqiga loyiq holda to‘liq taniy olmadim”.

Ko‘kta gar anjum emas ohim o‘qining yarasi
Shomlar nedur shafaqdin ko‘nglakin qon aylamak?

Charx sidq ahlin g‘amin istarki, bo‘lmish subh ishi
Ashkdin kavkab sochib choki giribon aylamak.

Gar Navoiy jismini ishq istamas toshdin figor,
Bas nedur ani junun ko‘yida uryon aylamak?

324

Ishq aro vasling tilab hajringda bo‘ldum dardnok
Xasta yanglig‘kim, hayot ummididin bo‘lg‘ay halok.

Yo‘q ajab gar ul quyosh navhangg‘a boqmas, ey ko‘ngul,
O‘tqa ne g‘am garchi kuygan nola aylar dardnok.

Tikkanin yetkach ochar paykoni ko‘ksum chokining,
Ul kalid o‘lmish, ajal darvozasi go‘yo bu chok.

Aylar erduk pok ishq o‘tig‘a kuymak orzu,
Shukrilillah, oqibat kuydurdi ishqing bizni pok.

Soldi may ul hur shavqin ko‘ngluma, ey bog‘bon,
Berding o‘xshar parvarish kavsar ziloli birla tok.

Ishq aro do‘zaxdin, ey nosih, meni qo‘rqutmakim,
Hajr o‘tin ko‘rgan samandarg‘a sharardin qayda bok?

To taning avji hayot ustidadur sen xok bo‘l,
Istasangkim avj tutqaysen taning bo‘lg‘anda xok.

Ey Navoiy, shomi g‘amdin ayru yo‘qtur subhi vasl,
Oq erur, lekin qorartur har neni rang etsa zok.

325

Kelgusi ul sarvi siyminbar guli serobdek
Kim, tanimda har zamon titrar ko‘ngul siymobdek.

Vah, ne yanglig‘ axtari sa’d erdikim qilg‘ach tulu’
Tun kecha ko‘zum yorutti mehri olamtobdek.

Quchqamen belin kamar zanjir ilan deb bo‘ldi xam,
Notavon jismim mutallo aylagan qullobdek.

Sajda ul chobuksuvor ollinda andin aylaram
Kim, oyog‘i uzra naqshe ko‘rmisham mehrobdek.

Aql sarrofi labing rangin-u nozuk so‘z bila
Topti gulgun rishta o‘tkargan aqiqi nobdek.

Silk etak zarrishta birla gul to‘qulg‘an jinsdin
Kim, emas tori chubo‘lg‘an vuslalig‘ moshobdek.

Ko‘r Navoiy masnadin ishq ichrakim, gulxan aro
Shu’la oltoyiu kullardur anga sinjobdek.

326

Turfa ruxsoringki, husn ichra erur gulzordek,
Turfaroq budurki, gulzor ermas ul ruxsordek.

Sarvnozim boshida turna parin ko‘rkim, erur
Sham’ning boshida kul bo‘lg‘an parishon tordek.

Bir tun ul oy hajridin kuydum, ulus ko‘rdi meni
Tonglasi bir yil takassur tortqan bemordek.

Toshlarkim urdi ul sho‘x, ipga bog‘lab osmisham
Bo‘ynuma ko‘nglum g‘ami taskiniga tumordek.

Za'fdin ko'yida qo'ydum boshim ostig'a kesak,
Soya ham gar istasam yo'qtur buzug' devordek.

Ul quyosh mast o'ldi, go'yokim qilib egri xirom
Yuz jafo jonimg'a aylar charxi kajraftordek.

Telba ko'nglungni, Navoiy, zabt aylay olmading,
Emdi chek andin ilig har sori borsa bordik.

327

Ne nav' bordi ekin uyga kecha ul chobuk
Ki, tun qorong'u edi, raxshi tund, o'zi usruk.

Nechukki yeldin o'lur har taraf niholg'a mayl,
Samand uza egilur erdi ul qadi nozuk.

Agarchi kayfiyat ichra ko'runubon bir nav'
Va lek kayfiyat andin ko'ngulga yuz turluk.

Gaheki ko'z ochibon kirpigi otib novak,
Tushub qayonki etib jon-u ko'nglum ichra to'shuk.

Agarchi o'lturubon yuz tirigni g'amzasidin,
Va lek jon topibon nuktasi bila yuz o'luk.

Netib o'z ilgida qolg'ay inoni hush-u xirad
Ki, boda kuchlugu raxshi inoni ham kuchluk.

Navoiyo bu balolar sangaki yuzlandi,
Xayoli ofiyat etsang, o'zungga bor o'truk.

328

Menki chektim la'li shavqi birla jonondin ilik,
Go'yiyo hayvon suyi birla yudum jondin ilik.

Chun meni hayron anga zor-u oqar ashkim ne tong
Ul paripaykar yusa men zori hayrondin ilik.

Ilgi hinodinmu rangindurki, men qurbon anga,
Yo qilurda qatl, anga rang o'ldi qurbondin ilik.

Lutf ishida ko'rguzur har dam yadi bayzo ul oy
Ne ajab gar eltsa Musoyi Imrondin ilik.

Jon chiqar holatda bas topsam itidin poybo's,
Ne hadim o'pmak uchun istarga jonondin ilik.

Dayr aro chun mug'bacha el yori bo'ldi, ey ko'ngul,
Yu mug'ona may bila ul nomusulmondin ilik.

Rahm etib holimg'a solsa ko'z yoshimg'a bir nazar,
Vah, yumay netkaymen ul dam aql-u imondin ilik.

Bersa yuz oshub davrondin ilik men xastag'a
Chekmagumdur hargiz ul oshubi davrondin ilik.

Sayddek o'qtin qatil o'ldi Navoiy ko'nglikim
Sundi oylar tiyg' ila kesmakka har yondin ilik.

329

Mahvashimda za'f-u men bu g'ussadin har dam halok
Kim, ne ya'ni men tirik bo'lg'aymen-u, ul dardnok.

Nogah, ey ahbob, davron qilmag'ay beboklik,
Yo'qsa bizdek yuz tuman jonon uchun o'lsak, ne bok?

Pok jonin, yo Rab, olma poklar ko'ngli uchun,
Bo'lmasa ma'shuqi, pok, oxir ne osig', ishqi pok?

Ko'nglakin chok aylamish anduhdin gul, chun yoqa
Chok qilsa naylasun bulbulning o'lmay ko'ksi chok?

Gar bo‘lur yuz joni pok aning fidosi ozdurur,
Men ne had birla bo‘lay, chunkim erurmen tiyra xok.

Chun ajal jomin sumurmay chiqmas el bu bog‘din,
Xurram ulkim, bosh ko‘tarmas bodadin andoqki tok.

Ey Navoiy, yor dardi ne balo muhlik emish
Kim, arang za’f etkani ushshoqni aylar halok.

330

Sud qilmas etagingni iligimdin chekmak
Kim, qiyomatqa degincha bu iligdur, ul etak.

Qonima qo‘l shimal-u tiyg‘ni chekmaki, qilur
Qatl po‘lod qilichdin burun ul siym bilak.

Qayd qilmangki, junun silsilasi qaydidamen
Kim, kesa olmas ani qilsalar olmos egak.

Tirguzurda nafasing yuzni qochurmoq ne edi,
Mayl qilmas xud o‘luk kimsadin olmoqqa muchak.

Ishqdin maxlasima aylabon ahbob duo
Mustajob o‘lmas aning meni mahzung‘a tilak.

Janda birla kishi darvish emas, bo‘lsa fano
Tengdurur xoh palos o‘lsa to‘nung, xoh ipak.

Ko‘yida o‘ldi Navoiy bu sifatkim, bor edi
Takya xoro-vu hasiri yoni ostida to‘shak.

331

Ko‘nglaking bargi gul-u ustida gulrang yelak
Gul kibi jisming uza uylaki gulgun ko‘nglak.

Qalag‘ay sahfada ruq’angni ko‘rub oqti yoshim,
Tifldekkim yugurur ko‘rsa mulavvan ko‘palak.

Ko‘yining tufrog‘idin qo‘pmas esam tong ermas,
G‘am toshidin chu butun qolmadi jismimda so‘ngak.

Bukun ul nav’ki mendin bosh erur, sendin tiyg‘,
Tongla ham bo‘lg‘usidur mendin ilig, sendin etak.

Yuragim itlaring andoq yedilar tishlashibon
Kim, yana yo‘qtur alar ollig‘a bormoqqa yurak.

Meni bir mug‘bacha oshufta-vu volih qilmish,
Naylay islom aro gar ko‘p esa mirzo-vu mirak.

Tishlabon, dayr ichida jomi hiloliy cheksam,
Qursi limusi kavokibning agar bo‘lsa gazak.

Saltanat xil’atidin ortuq erur dayrda mast,
Sudrasam boda gadolig‘ida yirtuq kapanak.

O‘zlugung qaydini kesmakka Navoiy bilkim,
Yo‘qturur dahr irikliklaridin yaxshi egak.

332

Kimga bir majlisda oh-u dard ila so‘ze kerak,
Mundog‘ o‘t yoqmoqqa avval majlisafro‘ze kerak.

Majlisafro‘ze agar ham bo‘lsa majlis ahlining
Bag‘rini kuydurgali ohi jigarso‘ze kerak.

Subhi vasling ichra tirguz xayli ushshoqingnikim,
Shomi hajr o‘lturgali mendek siyahro‘ze kerak.

Ko‘yunga har kun borib har dam ko‘ray dermen seni,
Menga har kun bayram-u har lahza navro‘ze kerak.

Yaxshi asra g‘am tuni ohim o‘qin, ey charxkim,
Sen evaz otmoqqa ham chun tiyri dildo‘ze kerak.

Bir Xizrvash himmatin berma ilikdin, negakim
Dashti hirmon qat’iga oxir qulovuze kerak.

Ishq ta’limin Navoiydin olurlar ahli dard,
O‘yla dars ahlig‘a mundoq donishomuze kerak.

333

Kimki oshiq bo‘lsa zor-u xastahol o‘lmoq kerak,
Rashkdin olam eliga badxayol o‘lmoq kerak.

Vasl topmog‘lig‘ki ishq ahlig‘a amredur mahol,
Kecha-vu kunduz ishi fikri muhol o‘lmoq kerak.

Shavq aro gah mo‘yadin bo‘lmoq kerak, andoqki mo‘y,
Hajr aro gah noladin andoqki nol o‘lmoq kerak.

Vasl mumkin yo‘q, vale hijronda har dam yuz balo
Mundoq ofat mubtalosi moh-u sol o‘lmoq kerak.

Ishq ko‘yida zuloli vasl ichmaydur kishi,
Dayr sori tolibi jomi zulol o‘lmoq kerak.

Zulm ko‘rkim charx etib ikki sipahni kinavar,
Mo‘rlar xayli aroda poymol o‘lmoq kerak.

Ey Navoiy, istasang maxlas kuduratdin, sanga
Xonaqahdin dayr sari intiqol o‘lmoq kerak.

334

Yor bo‘lmish o‘rtag‘a hijron tariqin solg‘udek,
Aql-u hush-u jon-u ko‘nglum xayli ham qo‘zg‘olg‘udek.

Yor borib aql-u hush-u jon-u ko‘nglum qo‘zg‘alib,
Tan yotib, ko‘z bul-ajab holimg‘a boqib qolg‘udek.

Boshni holokim, erur fursat, solayin ollig‘a,
Tundlug‘din garchi ermas oni yerdin olg‘udek.

Soqiyo, may tut, mug‘anniy, navha ohangini chol,
Kim, sipohi umrum o‘lmish ko‘si rihlat cholg‘udek.

Hajr aro, ey Xizri farruxpay, qo‘lum tutkim, erur
Po‘ya urmoqtin bu vodiy ichra bag‘rim tolg‘udek.

Hulla gul bargidin etting, pardayi jonimdin et,
Bo‘lsa oning ostida nogah taning tovshalg‘udek.

Ey ko‘ngul, naqdi hayoting qil fano yo‘lida sarf,
Hayf erur gar bo‘lsa umri Nuh uchun sayfolg‘udek.

Bir zamondur umr azmi dasht etib osuda bo‘l,
Bo‘lsang abnoyi zamon bedodidin qiynolg‘udek.

Ey Navoiy, zarvaraqi jisming ne tong bo‘lsa g‘ariq,
Bahri ashk o‘lmish chu har dam ohdin chayqolg‘udek.

335

Ey, ko‘ngulda shahdi la’ling hasratidin yuz teshuk,
Har teshukdur shahd zanburi uyi yanglig‘ chuchuk.

Gar teri birla so‘ngakmen to‘ma ham qilmas iting
Kim, teri asr-u qatiq bo‘lmish, so‘ngak asr-u churuk.

Ne labingdin kom toptim, ne ko‘zungdin javr o‘qi,
Bu sifat mahrumluqtin ne tirikmen, ne o‘luk.

O‘yla zanjiri junun rasvosimenkim, har zamon
Tegrama Farhod-u Majnundek yig‘ilmish bir suruk.

Ishq o‘tidin qullug‘ung dog‘ini qo‘ydum ko‘ksuma,
O‘zni bu nav’ ayladim ishq ahli ichra belguluk.

Faqr vodiysinda o‘zluk necha kamrak yaxshiroq,
Yo‘lni oson qat’ etar solik yengilrak bo‘lsa yuk.

Elga o‘t solding, vale kuydi Navoiy g‘ussadin,
O‘xshamas o‘t birla kuydurganga bu yanglig‘ kuyuk.

336

Junun sahrosida boye yo‘q erkandur bu mahzundek
Ki, bo‘lg‘ay vahshiy xaylin kutkali cho‘pone Majnundek.

Ne tong gar olami kubro esam har qatra ashkim chun
Tengizdekdur, ichimda yuz tugan har qaysi gardundek.

Shafaq ko‘k zarfin etkay la’liy, ammo la’li hajrinda
Qizarta olmag‘ay olamni bu ashki shafaqgundek.

Manga atfol otqan tosh-u sabrim kishvarin ko‘rkim,
Meni devonag‘a ul tog‘dek bo‘lmish, bu — homundek.

Soching savdosidin aytur parishon so‘zlarim bordur,
Fusungar san’at aylarda yilong‘a qilg‘an afsundek.

Firoqing poymoli qomatimkim, halqadek bo‘lmish,
Nazar qilkim, biaynih bo‘ldi hijron ostida “nun”dek.

Qo‘yub Farhod-u Majnun qissasin, ko‘r daftari ishqim
Ki, bir-ikki xatinda topilur ul ikki mazmundek.

Chu ko‘mdung yerga Qorun ganji hukmi tutti, ey mun’im,
Tutaykim naqd ila bo‘ldi xizonang ganji Qorundek.

Vafo aylab, vafo ko‘z tutma olam dunlaridinkim,
Vafosiz keldi olam dunlari ham olami dundek.

Manga dayri fano sing‘an safoli jomi Jamdekdur,
Kamin soyillari eski palosi xazz-u iksundek.

Navoiy nazmig‘a solsa quloq shah, ne ajabkim, bor
Aning har lafzida shohona la’l-u durri maknundek.

337

Labingki, sayli sirishkimni oqizur qondek,
Erur bu qondek, emas ul va lek qong‘ondek.

Tomug‘ o‘ti bila ahli azob jonig‘a dog‘
Emas firoq o‘ti birla dog‘i hijrondek.

Firoq dashtida ko‘nglumni qildi xori xasak
Tikanki, har yonidin bosh chiqardi paykondek.

Bihisht-u bo‘ynuma havro salosili zulfi
Chu sensiz o‘lsa gumon ayla band-u zindondek.

Ko‘ngulki tushti junun dashtig‘a borib, gohe,
Quyundek ohim aning tegrasida aylandik.

Vafog‘a garchi falak davri ojiz ersa, hanuz
Bu sheva ichra emas erkin ahli davrondek.

Qadah tubida ko‘rung boda durdini maxfiy,
G‘am ichra qon to‘la ko‘nglumda dog‘i pinhondek.

Navoiy asr-u buzug‘, lek Vomiq-u Majnun
Emaslar ikkisi ul xonumoni vayrondek.

338

Hajr tobi ichra kim ko‘rmish bu jismi zordek
Kim, topibdur barq shakli o‘tqa tushgan tordek.

Ey kabutar, tavq paydo aylagung to‘ti kibi,
So‘zluq nomamni ossam bo‘ynunga tumordek.

Bo‘ldi yuz ming pora jismimda so‘ngak, qon qolmadi,
Molishi hajringdin o‘lmishmen siqilg‘an nordek.

Vah, ne hijrondurki, ham avval tunining tonglasi
Bo‘lmisham yillar malolat tortqan bemordek.

Ey ko‘ngul, dayr ichra ul kofirni sevdung bilki yo‘q
Rishtaye o‘zni anga bog‘lar uchun zunnordek.

Yor agar hampo-vu pobarjo esa bu davr aro,
Boshig‘a har lahza evrulmak bo‘lur pargordek.

Har so‘ngak yonimda bo‘lmish bir teshuk g‘am bazmida,
Har birida o‘zga yanglig‘ nola musiqordek.

Boda ichmakka maqome istar ersang, ey rafiq,
Ma’mane bu ishga yo‘qtur kulbayi xammordek.

Har dam ul oy hajrida ovoralig‘ istar ko‘ngul,
Ey Navoiy, qo‘y ani har qayda borsa bordik.

339

Ey to‘quz torami, axzar bo‘lubon jilvagahing,
Xayli anjum — sipahing, nuri g‘ubori — siyahing.

Mujdayi vasl ila topmay dame orom, magar
Maqsadi sidq bo‘lub bir nafas oromgahing.

Charx yuz ming ko‘zi go‘yo yorudi, tortilibon
Surmagun tun ichida surmasifat gardi rahing.

So‘fiyi olami qudsiy sen-u as’hob rusul,
Arshi a’lo kelib ul xayl uchun xonaqahing.

Tah-batah bu to‘quz aflokdin o‘tganda edi
Yuqori Xoliq o‘lub, moxalaqalloh tahing.

El ko‘zin nuri shafoat bila yorutqaningga
Tortqan surmayi mozog‘ ikki ko‘zdur guvahing.

Ey Navoiy, chu shafi’ing ul erur, bo‘ldi gunoh
Ul malaklargaki, yozmoq tilagaylar gunahing.

340

Qoradur xol-u xatt-u ko‘z-u qoshing,
Magar borini kuydurmish quyoshing.

Yoshim torin uzattingkim, sening ham
Uzalg‘ay aysh ila, yo Rabki, yoshing.

Boshimg‘a toshlar yog‘durmakim, bor
Murassa’ tojdin ozurda boshing.

Xaroshida ko‘nguldin chiqting, ey oh
Ki, el ko‘nglin xarosh etti xaroshing.

Nechuk sen zulfi ichra, ey ko‘ngulkim,
O‘tar bas tiyralik birla maoshing.

Palosi huznu — men, ey atlasi charx,
Manga loyiq emas volo qumoshing.

Navoiy foniy o‘ldi, ey g‘am-u dard,
Aning raxtin fano ko‘yiga toshing.

341

Ey chuchuk jonim sening shirin labing,
Mevayi jonim turunji g‘abg‘abing.

Men kim-u o‘pmak yuzung ko‘zgusini,
Bas muyassar bo‘lsa na’li markabing.

Necha elni kecha, yo Rab, ey ko‘ngul,
Qo‘ymag‘ay uyqug‘a “yo Rab-yo Rab”ing.

Tezlikda gardiga yetmas shihob,
Ey quyosh, javlong‘a kirsa ashhabing.

Yuzida ter qatrasin ko‘r, ey sipehr,
Oy uza mundoq ko‘runmas kavkabing.

Shurbdin nuqson emas, ey porso,
Faqr ila bo‘lsa muvofiq mashrabing.

G‘amzang o‘ltursa Navoiyni ne bok,
So‘z bila chun tirguza olur labing.

342

Kulmading, to ko‘zlarimni kavkabafshon qilmading,
To‘kmading qonimni, to bag‘rim to‘la qon qilmading.

Tifldekkim, g‘uncha ochqay, qilmading, ey bag‘ri tosh,
Xotiringni jam’ to ko‘nglum parishon qilmading.

Elga aytur zahra yo‘q, vah, yo‘qsa qay bir turktoz
Ayladingkim yuz ko‘ngul mulkini vayron qilmading?

To quyoshdek jilva qilding, qo‘ymading bir zarrakim,
Ofarinish ichra ruxsoringg‘a hayron qilmading.

Yuz balo toshini ishq atfolidin yog‘durmading,
To junun tarojidin jismimni uryon qilmading.

Ey falak, qaysi quyosh yuzlukni bir kun charx uza
Jilvagar qildingki, oqshom yerga pinhon qilmading?

Demakim, qo‘ydum Navoiy jonig‘a dog‘i ajal,
Shukri Boriy mubtaloyi dog‘i hijron qilmading.

343

Ey, mening jonim olib yaxshilig‘ing,
Beribon jon yana yaxshi qilig‘ing.

Qahr ila bodaki tuttung, o‘ldum,
Zahrdek o‘lturur elni achig‘ing.

Husndin mehr g‘arazdur, ey ishq,
Bu masaldur: silig‘ingdin ilig‘ing.

Asradim seni ko‘z ichra, ey yosh,
Qonima erdi tanug‘lug‘ osig‘ing.

Mast ul kofiri bebok kelur,
Aql-u din ahli o‘zunguzni yig‘ing.

G‘ayr gardi borur ul pok sari,
Qani, ey ko‘z, bu mahalda arig‘ing?

Ey Navoiy, necha solg‘ay oshub,
Ul pari ko‘yida devonalig‘ing.

344

Iki g‘unchang ermas, ey gulchehra, teng,
Og‘zing asr-u tor-u ko‘nglung asr-u keng.

Og‘zingga tegmas uzoring birla so‘z,
Bo‘lmadi xurshid birla zarra teng.

Lolaning dog‘i bo‘lur chun o‘rtada,
Nega tushmish orazing yonida meng.

Bo‘ldi ilgim dog‘-u ko‘ksum zaxmi fosh
Kim, tanimda to‘n yo‘q-u ilgimda yeng.

Solg‘ucha olamg‘a o‘t orazni och
Kim, jahonni kuydurur ul o‘tlug‘ eng.

Husn da’vosig‘a qo‘l yengdin chiqar,
Yuz yadi bayzo chiqarg‘ondekni yeng.

Dang qilmishtur Navoiyni xumor,
Anga tutsun bir qadah, soqiyg‘a deng.

345

Shoh bo‘ldi ishq ichinda sohibasrorim mening,
Ishq manshurida tug‘rodur bu shahkorim mening.

La’li yodidin tirikmen, yo‘qsa o‘lgum za’fdin,
Qonki har yondin to‘kar bu jismi afgorim mening.

Men junun sahrosida yittim, gar anda har kishi
Ko‘rsa Majnunni erur, bildeg, namudorim mening.

Og‘zidin andoq adam ko‘yida foniy bo‘lmisham
Kim, vujud iqlimida topmaslar osorim mening.

Bulajab holim junun ichra gar elni kuldurur,
Vahki, yig‘latur yuz oncha nola-yu zorim mening.

Ko‘nglum o‘z holida yo‘q, voqif bo‘lung, ahbobkim,
Hajr dardidin erur hol uzra bemorim mening.

Kofiri ishq o‘ldum ul but ollida, vah, yaxshidur
Dayr aro bog‘lanmasa bo‘ynumg‘a zunnorim mening.

Sen dag‘i ko‘rguzma makr-u sho‘xluq, ey zoli charx
Kim, bilur sendin ko‘p ortuq sho‘xi makkorim mening.

Xotirim — ham davr-u ham davr ahlidin ozurdadur,
Ey Navoiy, istama pand aytib ozorim mening.

346

Mutribo, g‘am bazmida to navha ohang aylading,
Za’flig‘ jismimni tor-u qomatim chang aylading.

Bo‘ldi bo‘stoni uzoring bodadin afro‘xta,
Mayni go‘yo bo‘stonafro‘z ila rang aylading.

Chok etib el ko‘nglin, etting g‘unchadek ko‘nglum girih,
Ochting el ko‘nglin agarchi bizni diltang aylading.

Buki tashbih etting, ey ko‘z, xoki poyin surmag‘a,
Bilki javharni qaro tufroqqa hamsang aylading.

Ishq sirri mahmilin ko‘k pili chekmas, ey qazo,
Gar hilolidin kajak, xurshididin zang aylading.

Ne qatiq vodiy ekin, yo Rab, sanga ey ishqkim,
Aql sarkash tavsanin qo‘yg‘ach qadam lang aylading.

Qil Navoiyni vujudi nangidin, yo Rab, xalos,
Chun vujudin barcha olam ahlig‘a nang aylading.

347

Orazing subhidin el ayshini jovid aylading,
Subhi vaslingdin mening shomimni navmid aylading.

La’li serobin tila, qo‘y Iyso-yu hayvon suyin,
Ey ko‘ngulkim, orzuyi umri jovid aylading.

Qosh-u yuzi aksi ko‘k jomig‘a tushgach, ey qazo,
Bu birin qilding hilol, ul birni xurshid aylading.

Ey mug‘anniy, Zuhrasidin ko‘kni qilg‘ung munfail,
Senki har ter qatrasin bir turfa Nohid aylading.

Ey ko‘ngul, oxir qilichi hattig‘a qo‘ydum bo‘yun,
Vahki, sayfi hirzini bo‘ynumg‘a ta’vid aylading.

Vasl sarkash qaddidin qilding tamanno, ey ko‘ngul,
Ul alifkim, ya’s arodur naxli ummid aylading.

Itlari sing‘an safoli ichra chekting durdi shavq,
Ey Navoiy, oni jom, o‘zungni Jamshid aylading.

348

Ishqim ortar xatti zohir bo‘lg‘ali jononaning,
Sham’ dudi shu’lasin afzun qilur parvonaning.

Har dam ashkim kelturur yuz ta’n majnun ko‘ngluma,
Qismi yoshlardin hamesha tosh erur devonaning.

Orazingning naqshidin butxonadur ko‘nglum uyi,
Ishq bo‘lmish barhaman ichinda ul butxonaning.

Shomi hajrim sharhi elni bexud etsa ne ajab,
Uyqu kelturmakdurur xosiyyati afsonaning.

Sudurur bag‘rimki, paykoni ko‘nguldin chekti bosh
Nam havoda sabza chiqqandek uchidin donaning.

Yiqmadi ko‘k gunbadin yog‘ib havodis yomg‘uri
Kim, suvar erkin chiqib tomini bu koshonaning?

O‘qlaring chok ettilar har yon Navoiy ko‘nglini,
Yo‘llar etgandek yog‘in devorini vayronaning.

349

Tong nasimin soyir etkan gul uzorimdur mening,
Sekritib maydong‘a kirgan shahsuvorimdur mening.

Gard emas, gardinda, balkim, ko‘rmasun deb el ko‘zi,
Volih-u sargashta joni xoksorimdur mening.

Markabining na’lidin har dam choqilg‘an o‘t emas
Kim, ko‘ngul otlig‘ zaifi beqarorimdur mening.

Baski, telmurdi ko‘zum kirgaymu deb maydon aro,
Ko‘z qarosi yo‘qki, dog‘i intizorimdur mening.

Ul bahori husn mingan qatraafshon bodpoy
Gulshani aysh ochqali abri bahorimdur mening.

Chobuki mehr o‘ldi bemehr-u harun ko‘k tavsani,
Tutmang otinkim, eshitmak ani orimdur mening.

Yo‘lida aylay fido ko‘z gavharin, jon javharin,
Ey Navoiy, yetsa ul chobuk, nisorimdur mening.

350

Kog‘az uza qalamni fusunsoz qilmading,
Bir ruq’a birla bizni sarafroz qilmading.

Jonsiz tanim hayoti uchun noma yozmading,
Kilking uchini mo‘jizapardoz qilmading.

Vasling kuni-yu shomi firoqing bayonida
Kofur birla mushkni hamroz qilmading.

Bir mehr nomasi bila sargashta zarrani
Kundek jahonda mujibi e’zoz qilmading.

To ro‘zgorim aylamading duddek qaro,
Bir nomaning savodini og‘oz qilmading.

Ey ko‘k dabiri, kimsaga bir noma yozmading
Kim, xoma yanglig‘ ani sarandoz qilmading.

Rahmat, Navoiyo, sangakim yor har necha
Zulmin ko‘p etti, mehr-u vafo oz qilmading.

351

G‘am xazonin zohir etmish chehrayi zardim mening,
Borg‘ali yeldek bahori nozparvardim mening.

Telbalardek so‘zlashurmen o‘z-o‘zum birla mudom,
Chun o‘zumdin o‘zga yo‘q olamda hamdardim mening.

Tufrog‘ o‘lsam ko‘yida, ey abri rahmat yomg‘uri,
Qil madad onchakim, andin chiqmag‘ay gardim mening.

Chiqti jon bilmay maqomin, mujdaye ber, ey Masih
Kim, qayu manzildadur mehri jahon gardim mening?

Har necha ko‘nglum sovug‘ ohidin aytur, ohkim,
Yorg‘a yoqmas nekim, aytur bu damsardim mening.

Rizq chun maqsum erur, bir qurs uchun har kun nedur,
Charxdek sargashtalik ko‘yida novardim mening?

Ey Navoiy, toki urdi mehr naqshin tosi charx,
Bu bisot ichra ajab shashdardadur nardim mening.

352

Har ko‘ngul oromi chun bo‘lmish diloromim mening,
Ul sababdin yo‘qturur ko‘nglumda oromim mening.

Dudi ohim sarvdek chiqti-yu gulgun bo‘ldi ashk,
Qilg‘ali tarki vafo sarvi gulandomim mening.

Nega ko‘rguzdi shafaqdin shu’la, kavkabdin sharor,
Gar emas g‘am do‘zaxi bu subhi yo‘q shomim mening?

Dilrabolar ahdig‘a hech etmasunlar e’timod,
Ey sabo, ishq ahlig‘a yetkur bu payg‘omim mening.

Oshiq otig‘a kiriptur ko‘nglum-u topmas visol,
Fosiqi mahrumtek bo‘lmish bu badnomim mening.

Donayi tasbih mayli aylamas ko‘nglum qushi,
Rishtayi zunnori zulfung bo‘lg‘ali domim mening.

Ey Navoiy, mendek ul but ko‘yi sori kirmakim,
Kufr ila bo‘ldi badal bu yo‘lda islomim mening.

353

Ne lutf ediki, meni noma birla yod etting,
Ne noma erdiki, g‘amgin ko‘ngulni shod etting.

Tilim qalam tilidek shukrdin erur ojiz,
Bu noma birlaki bu notavonni yod etting.

O‘qurda oqti yoshim ixtiyorsiz, go‘yiyo
Ki, hajr dudasidin nomag‘a midod etting.

Yeturdi jismima ruh, ey quyosh, magarki Masih
Muallim erdi damekim ani savod etting.

Javohireki yibording bu nomuroding uchun,
Ko‘ngul xarobasini maxzani murod etting.

Ne sud, bo‘lsa amal nomasi qora, gar xud
Oting nishon uza Jamshid yo Qubod etting?

Navoiy, jisminga ruh ul quyosh hadisi emish,
Masih nutqig‘a yo‘q yerda e’tiqod etting.

354

Ey ishq, yana furqat o‘tin jonima urdung,
Jismimni kul aylab, kulini ko‘kka sovurdung.

Anjum dema, go‘yoki maloyikka tutashti,
Ohim o‘ti uchqunlarikim, ko‘kka yeturdung.

Qayd etmading-u bas xami zulfungni ko‘ngulga
Kim, g‘ayr xayolin ham aning birla supurdung.

Pobo‘sini istab magar, ey shodlig‘ ashki,
Bu zor ila dilbar ko‘rushur chog‘da yugurdung.

Furqat kuni bas tiyradur, ey ishq, hamono
Kim, sarsari ohim bila ko‘k sham’in o‘churdung.

Hijron tuni, ey charx, musha’bid gar emassen,
Ne nav’ quyosh tosini xirqangda yashurdung?

Tark etmadi bosh qo‘ymoq eshigingda Navoiy,
Bu ko‘ydin it deb ani har nechaki surdung.

355

Necha javrin tortayin ul sarvi hurizodning,
Yo‘qmudur poyoni oyo zulm ila bedodning?

Aql der, sol ko‘nglunga zuhd-u vara’ bunyodini,
Ishq aytur, yo‘qturur bunyodi ul bunyodning.

Tosh eritti, vahki, Xusrav ko‘ngliga kor etmadi,
Shu’lalarkim, teshasidin sekridi Farhodning.

Ko‘ngli mehr aylar ayon, ko‘rgach raqibi yuzini,
Ko‘rmaguncha zok, chiqmas javhari po‘lodning.

Toki saydingmen, ishing nevchun g‘azabdur chun mudom
Qush giriftor o‘lsa ko‘ngli xush bo‘lur sayyodning.

O‘lmagimni boqma hijroningda, ey sultoni husn,
Qatl hukmi qilsa shah ne erki bor jallodning.

Roki’ erdim, chang uni keldi sahargah, ohkim,
Bordi mutrib nag‘masig‘a hosili avrodning.

Yo‘l qorong‘udur, talab noqis, qadam ne nav’ uray,
Yorumay komil damidin mash’ali irshodning.

Ey Navoiy, necha bulbuldek fig‘on ul gul uchun?
Yo‘q anga ta’siri chun bu nola-vu faryodning.

356

Ko‘ngullar quti shirin dostoning,
Bag‘irlar qoni la’li durfishoning.

Nihon-u oshkoro men sanga yor,
Sening ag‘yor ila rozi nihoning.

Muhiblar birla har tun, bizdin ayru
Qadahlarkim, chekarsen, no‘shi joning.

Vale vahm ayla andinkim, chekib voy,
Damo-dam qon yutar bir notavoning.

Ajab la’lesen, ey ashki jigargun,
Ajab yo‘qkim, erur g‘am tog‘i koning.

Kular, ey bog‘bon, har g‘uncha go‘yo
Ki, g‘ofildur xazondin gulsitoning.

Navoiy ishq vodiysig‘a kirdi,
Xatarliq yo‘ldur, ey ahbob, yoning!

357

Rafiqlarni borin yor-u mu’tamad qilding,
Aroda tek meni, mardud edimki, rad qilding.

Falak jafosi, o‘lus ta’ni-yu firoqing o‘ti,
Bas ermas erdiki, sen ham yana madad qilding.

Kechib jahon ila jondin Seni dedim, jono,
Magarki qatlima bu jurmni sanad qilding?

G‘araz chu o‘lmagim erdi, bas erdi lutfung ham,
G‘azab ne erdiki, ey sho‘xi sarvqad, qilding?

G‘amingni chekkali yolg‘uz ko‘ngul edi ojiz
Ki, tiyg‘i furqat ila ani yuz adad qilding.

Chu baxt axtari sa’d o‘lmadi ne sud, eykim,
Sipehr zijini hal qilg‘ali rasad qilding.

Navoiy, yor ne javr etsa, jong‘a minnat qo‘y,
Azalda chunki bu da’voni to abad qilding.

358

Istab ul butni xirad belida zunnorin ko‘rung,
Bir kaloba ip bila Yusuf xaridorin ko‘rung.

La’l-u xoli naqshi jonda, tanda qon-u toza dog‘,
Zohirimda botin ahvoli namudorin ko‘rung.

Zor jismim chirmashur ul oyg‘a yozg‘an nomag‘a,
Vasl umididin bitikka chirmag‘an torin ko‘rung.

Za'flig' jismim egildi kasrati paykonidin,
Bu yig'ochning shoxini xam aylagan borin ko'rung.

Umr davrining baqosin bilmaganlar har taraf,
Suda yomg'ur nuqtasining davri pargorin ko'rung.

Eyki, ko'rmaysiz bino ahli fano tufrog'ig'a,
Soyasida men bo'lur vayrona devorin ko'rung.

Demangiz hajr asr-u zaxm etmish Navoiy jismini,
Jismida zaxmicha yuz jonida ozorin ko'rung.

359

Xayoling husnig'a ko'nglumda ziynat bersa hijroning,
Erur gulguna qon,
mashshota — ishq-u ko'zgu — paykoning.

Jafo sarlavhida qildi alif mashqi, ko'zung yoxud
Alifdek jong'a nish urmoqqa saflar chekti mujgoning?

Labing xat zohir etti, Xizr umri bersalar o'lgum,
Xususankim, Xizrg'a hamdam o'lg'ay obi hayvoning.

Tushumda vasli erdi, ey ko'ngul, yo Rab, balo ursun
Sangakim, meni uyg'atti ajab holatda afg'oning.

Dimog'e, yo'q mushavvash bo'lmag'an,
go'yoki butratmish,
Jahon bog'ida savdo sunbuli zulfi parishoning.

Necha yog'dursa g'am toshin firoq atfoli, ey Majnun,
Ne g'am bosh uzra Laylo borgohi bo'lsa qolqoning.

Qafas qaydidadur bulbul, bukim vayrona tutmish chug'z,
Vafosi yo'q ekanni bildi go'yo ahli dunyoning.

Bu bazm ahli nifoqidin toriqmish ko‘nglum, ey soqiy,
Ezib behushdor-u tut manga yetkanda davroning.

Navoiy, hajrida ne nav’ seli ashk oqizdingkim
Visoli bo‘ldi chun mumkin, o‘targa yo‘qtur imkoning.

360

Chamanda chehra furug‘i uchun qadah olding,
Ne achig‘ erdiki, gul xirmanig‘a o‘t solding.

Ajab yo‘q ashking agar tinmayin oqar, ey ko‘z
Ki, yor boqmayin o‘tti-yu, sen boqib qolding.

Samandi po‘yasidin sarsar urg‘an o‘t yanglig‘,
Ne holat erdi sanga, ey ko‘ngulki qo‘zg‘olding.

G‘amim yukin ko‘tarib, ey sipehr, hajr tuni
Chu qilmading harakat go‘yi asr-u tavsholding.

Dedim taronayi jonbaxsh, mutribo, sen xud
Firoq sozi tuzub o‘lturur ko‘ki cholding.

Visol gulshanin, ey jon qushi, ko‘p istarsen,
Bu domgah aro go‘yoki asr-u qiynolding.

Fano yo‘lida Navoiyg‘a bo‘lmading hamrah,
Bu dasht po‘yasidin, zohido, magar tolding.

361

G‘am toshin jismimda paykoning bila band aylading,
Ul samarni bu yig‘ochqa bargpayvand aylading.

Chun shakar shirinlik izhor etti la’ling ollida,
Demayin, qilding tabassumkim, shakarxand aylading.

Elga ishrat bodasi tuttung yoyib xoni visol,
Vahki, bizni qon yutub, g‘am yerga xursand aylading.

Istamas bo‘lsang meni, bulbul kibi shaydo, nedin
Yuzni gulgun boda birla gulga monand aylading.

Qilding ul yuz jannatidin ayru bu ko‘z mardumin
Odam-u har sori yoshin anga farzand aylading.

Dahr bog‘ining gulida yo‘qturur bo‘yi vafo,
O‘zni, ey bulbul, agar parkand-parkand aylading.

Ey pari, debsen Navoiy bor emish Majnun kibi,
Bir yo‘li ul telbani qaydin xiradmand aylading?

362

Ey visol ahli, ul oy ko‘nglini xushhol tutung,
Gar halokim xabaridin ovunurkim, ovutung.

Yuz tuman mendek aning ko‘ngli rizosig‘a fido,
Men agar o‘lsam o‘lay, siz oni xushhol tutung.

Gar so‘zum yaxshi-yomon xotirig‘a kelmas xush,
Ul unutqan kibi lutf aylang-u, siz ham unutung.

Mohvashlar bila kunduz beringiz bazmig‘a zeb,
Sham’i may birla shabistoni firog‘in yorutung.

Nozanin xotirig‘a kelmasangiz siz dag‘i xush,
Yovumang men kibi bazmig‘a-vu xunoba yutung.

Ishq aro xor-u zabunluq kerak, ey ahli junun,
Orag‘a g‘ofil-u ra’noni demankim yovutung.

G‘amzasi biymi ko‘p achitti Navoiy og‘zin,
La’li payg‘omi bila bir dag‘i komin chuchutung.

363

Ishq keltursa ishim dayri fano azmida o‘ng,
Xonaqah kunji havas aylamayin andin so‘ng.

Rostlar ma’manidur dayr, tuz ur ul sari gom,
Kimki ul egri qadam urdi, ishi kelmadi o‘ng.

Himmat ahli bila har tiyrag‘a tegmas parvoz
Nasri Toyir bila ne nav havo qilg‘ay qo‘ng.

Borkashlarga fano man’i qachon qilg‘ay joh?
Tevaning ko‘ngli kichikdur gar erur paykari cho‘ng.

Oh-u ashkidin erur o‘t-u su ichra oshiq,
Zohido, ne g‘am anga gar qizig‘ o‘lg‘il, gar to‘ng.

Zo‘rboz-u kishiga dahr chu qo‘ymas jovid,
Sa’y etib qo‘lda birovni, chu yetar emdi qo‘lung.

Karamin ista Navoiyki, kishi toat etib,
Noma ma’lum emas, so‘l qo‘lidindur yo o‘ng.

“LOM” HARFINING LU’BATLARINING LATOYIFI “G‘AROYIB”DIN

364

Ey ko‘ngul, yer-ko‘k asosin asr-u bebunyod bil,
Ul kesakni suda ko‘r, bu safhani barbod bil.

Jism uyi chunkim erur foniy, tafovut yo‘q ani
Gar fano selobidin vayron-u gar obod bil.

To‘rt unsur qaydidin to chiqmag‘aysen, naf’ emas
Osmoniy to‘rt daftarni[1] tutaykim yod bil.

Eyki debsen, Haqni ne ta’rif-u vasf ila bilay,
Vasfdin mustag‘ni-yu ta’rifdin ozod bil.

Tengri zikrikim, maloyikka g‘izoyi ruh erur,
Bu g‘izoni Haq yo‘lig‘a kirgan elga zod bil.

Gar habibim qilsa izhori kalom, ey piri dayr,
Isoyi Maryamni ul dam gungi modarzod bil.

Mantiqi ishq ichra oshiqni tasavvur ayla ruh,
Fard bo‘lg‘anlarni bu yo‘lda anga afrod bil.

El oyog‘ig‘a tushardin boshqa chiqmoq rasmini,
May kuhanpiridin ushbu dayr aro irshod bil.

Ey suluk ahli, qachon maqsud topqumdur desang,
Mosivallohni fano ko‘rgan kunin miy’od bil.

Eyki debsenkim, bilay tavhid sirridin xabar,
Shar’din nekim tajovuz ayladi ilhod bil.

Do‘st vaslin topmag‘an dunyo-vu uqbodin kechib,
Ushbu dardingg‘a Navoiy holin istishhod bil.

365

Og‘zidin chiqqan hadisi nozuk-u ranginni bil,
La’l suftidin chiqarg‘an rishtadur rangi qizil.

[1] **Osmoniy to‘rt daftarni tutaykim, yod bil** — To‘rt ilohiy kitob: Tavrot (o‘zgarmagan asl nusxasi), Injil (o‘zgarmagan asl nusxasi), Zabur (o‘zgarmagan asl nusxasi), Qur’oni Karim nazarda tutilgan.

Bir zabona har yaramda so‘zi ishqingdin erur,
Ko‘nglum o‘ti sharhig‘a ochqan og‘izlar ichra til.

Ey ajal, ko‘yida boshim qil og‘irkim, aylamish
Hajr ashkim selin ildam, za’f jismimni yengil.

Qon yosh ichra g‘arqadur jismim, chiqar, ey mug‘bacha,
Ko‘rsang andoqkim olursen la’lgun may ichra qil.

Xo‘blar har dam o‘tar sensiz qoshimdin, vahki, bor
Har nafas hajring manga bu oylar o‘tgan birla yil.

Sarsaredur har daming maqsud izin gum qilg‘ali,
Gar bu vodiy ichra g‘aflat birla yuz ming yil tiril.

Ey Navoiy, faqr tufrog‘ig‘a ko‘p to‘ktung sirishk,
Gar tilar bo‘lsang fano ham anda-o‘q emdi yiqil.

366

Aningdek mastmen day subhikim, bu mushkil ermas hal
Ki, mayliq shisha quyg‘an shiradur yo shu’laliq manqal.

Quyoshdek titramak daf’in sahargah orzu qilsam,
Quyoshdek jomni titrab sumurmak farz erur avval.

Muningdek faslkim, tun mushkini charx etti kofuriy,
Sabuhiy maydin ulkim, bo‘lsa loya’qil erur a’qal.

Sudo’yim g‘olib-u gulgun mayimni muhtasib to‘kmish,
Topib ollimg‘a ul balchiqdin-o‘q surtay qizil sandal.

Sovug‘ yo tiyra ersa day sabuhi, ista ravshan may,
Netarsen mehr o‘tidin shu’la yo oy nuridin mash’al.

Xush ul maxmurlug‘din tiyra ko‘zkim, ochqach-o‘q bo‘lsa,
O‘shul ko‘zguga soqiyning hiloli qoshidin misqal.

Mahosin subhdin bog‘lab, sochar o‘t og‘zidin gardun,
Sabuh ahli, nishot aylangki, topmishsiz ajab mahzal.

May ichra aks erur soqiy yuzidin anglaman, yoxud
Ko‘zum nazzoradin to‘rt o‘ldi, yoxud o‘lmisham ahval.

Quloq har so‘zga solma istasang ishq ichra rasvolig‘
Ki, voiz ko‘p chekib faryod, nosih ko‘p degay muhmal.

Muyassardur, Navoiy, yor vasli xilvati topsang
Ki, ya’ni bo‘lmasa ul xilvat ichra o‘zlugung ankal.

367

Yuzungni ko‘rdum emdi ko‘zlarimni bog‘la, ey qotil
Ki, nogah bo‘lmag‘aylar o‘zga yuzni ko‘rgali moyil.

Kitob avroqidek bo‘lg‘ay musattah qolmayin davri
G‘amim toshig‘a bo‘lsa bir nafas to‘qquz falak homil.

Meni bedilning ohin o‘gmakim, olamni kuydurdi,
Hanuz ermas ko‘ngulning shu’lasi bu o‘t aro doxil.

Tanimda gul emas, gulxan nishoni telbalikdinkim
Kul o‘ldum o‘rtanib ishqing o‘tidin, lek sen g‘ofil.

Labing shavqi ko‘nguldin xalq ta’n aylab qachon ketsun,
Sabodin g‘unchaning hargiz bo‘lurmu humrati zoyil.

Nedur oy safhasi bo‘lg‘an qoradin dog‘lig‘, go‘yo
Jamoling daftarin yozg‘anda bo‘lmish bir varaq botil.

Mening jurm ichra uzrum shayxning zuhd ichra ujbidin
Batardur do‘st lutfi holima gar bo‘lmasa shomil.

Fig‘oni o‘qidin bulbulning, ey gulbun, hazar qilkim,
Tikan paykonig‘a gul javshani hargiz emas hoyil.

Navoiy qullug‘in faqr ahlining piri qabul etsa,
Erur bir banda ozod aylagan yanglig‘ shahi odil.

368

Hajr o‘tig‘a istasang yoqilmag‘aysen, ey ko‘ngul,
Yordin zinhorkim, ayrilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

Vah, ne toli’durki topmay umre istab yorni,
Chun seni yor istagay topilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

Buki qon bo‘ldung desangkim, oshkoro bo‘lmasun
Mayl etib yoshlar sari qotilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

Desalar: Laylomu ortuq husn aro yo ul pari?
Garchi Majnunsen, kerak yongilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

Qildi chun soqiy labi yetkan qadah hushungni mahv,
To abad zinhorkim, oyilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

G‘unchasen g‘amdin, vale soqiy bahori orazin
Ochsa bilmankim, nedin ochilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

Davlati boqiy Navoiydek erur topmoq mahol,
To tamom o‘zlukni foniy qilmag‘aysen, ey ko‘ngul.

369

Chamanda qonini baskim oqizdi zor ko‘ngul,
Sog‘inma g‘unchaki gulbun keturdi bor ko‘ngul.

Ne gullar ochqay alam gulshanida g‘uncha kibi
Nihoniy zaxmlarin qilsa oshkor ko‘ngul.

To‘nungda tugma emas barcha la’li paykoni,
Labing havosig‘a borur tuzub qator ko‘ngul.

Chamanda qon yog‘ar o‘tsang, magar sanavbar uza
Ochar jarohati og‘zini har figor ko‘ngul.

Tutashqan o‘t durur o‘tun aro, bukim topmas
Firoqing o‘qlari birla dame qaror ko‘ngul.

Fatilalarni yaramdin chekib tutashturdi,
Magar g‘amingda qo‘yar dog‘i intizor ko‘ngul.

Firoq zaxmida ochmish og‘iz ketur, soqiy,
Qadahki, istamas o‘lmog‘ni hushyor ko‘ngul.

Ne mehr isi, ne vafo rangi topqung, ey bulbul,
Bu bog‘ gullariga berma zinhor ko‘ngul.

Navoiy etkay aning tarkin ixtiyor, vale
Qachon berur anga bu ishda ixtiyor ko‘ngul.

370

Men jahondin kechtim-u, kechmas mening jonimdin el,
Men ilik jondin yudum, chekmas ilik qonimdin el.

To‘sh-to‘shumdin baski rasvolig‘ o‘ti lov-lov yonar,
Har taraf yo‘ldin chiqarlar o‘tsalar yonimdin el.

Baxtim uyqusig‘a go‘yokim surudedur hazin,
Ko‘yida bukim uyumas har tun afg‘onimdin el.

Tonimaslar bir-birin yog‘qan mazallat gardidin,
So‘rg‘ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.

Menda tumori junundek pech, vahkim, bexabar,
Har taraf ko‘nglumda qonlig‘ dog‘i pinhonimdin el.

Istaram, ey Xizr, kelgaymen qilib jon birla tavf,
Ka’bayi ko‘yin xabar topquncha borg‘onimdin el.

Ey Navoiy, qilmag‘aylar ayb agar devonamen,
Ul pari vasfin o‘qug‘an soyi devonimdin el.

371

Qaro ko‘zum kel-u mardumlug‘ emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Takovaringg‘a bag‘ir qonidin xino bog‘la,
Itingga g‘amzada jon rishtasin rasan qilg‘il.

Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da Ko‘hkan qilg‘il.

Yuzung visolig‘a yetsun, desang, ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin-ayog‘ chin ila shikan qilg‘il.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone’,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yuzida terni ko‘rub o‘lsam, ey rafiq, meni
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

Navoiy anjumani shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin sham’i anjuman qilg‘il.

372

Nomasi qo‘ynumda baskim, iztirob aylar ko‘ngul,
O‘pgali chiqmoqqa go‘yokim shitob aylar ko‘ngul.

Toza butmish erdi ko‘ksum choki, vahkim, tolpinib
Chiqqali ul raxnani har dam xarob aylar ko‘ngul.

O‘qi zaxmi yo‘lidin solsam ichimga nomasin,
Bir fatila marham o‘rnig‘a hisob aylar ko‘ngul.

Chirmabon jon pardasin manshur uza volo kibi
Ko‘rmasun deb g‘ayr ani, go‘yo niqob aylar ko‘ngul.

G‘unchadek qat-qat bo‘lub qon ul musofir shavqidin,
Nomasi yanglig‘ damo-dam pech-u tob aylar ko‘ngul.

Mubham ermish ruq’asi davronning asru, bodakim,
Jong‘a bu andeshadin har dam azob aylar ko‘ngul.

Ey Navoiy, ochti ko‘ksumning tikilgan chokini,
Nomasi qo‘ynumda, baskim iztirob aylar ko‘ngul.

373

Yordin kelmish manga bir turfa maktub, ey ko‘ngul
Kim, erur har satri, bal har lafzi marg‘ub, ey ko‘ngul.

Lafz yo‘q, har harfi jon hirzi, dag‘i har nuqtasi
Mardumak yanglig‘ biaynih ko‘zga matlub, ey ko‘ngul.

Ayladim tumor, agar tumor etar daf’i junun,
Bu meni qilmish junun ilgida mag‘lub, ey ko‘ngul.

Safhada ermas muhabbat sharhikim, kelmish kiyib,
Hullayi kofurgun bir turfa mahbub, ey ko‘ngul.

Asru ko‘p takror etardin ul parivash nomasin,
Bo‘lmisham el ichra majnunluqqa mansub, ey ko‘ngul.

G‘ayrdin safhangni qilg‘il pok, ya’ni aylama
Xotiring lavhini har xat birla ma’yub, ey ko‘ngul.

G‘amdin ozod o‘ldi xattidin Navoiy, bermasa
Paykiga qulluqqa xat bo‘lg‘aymu mahsub, ey ko‘ngul.

374

Ul parikim, bandi zulfig‘a majonindur uqul,
Men kibi devonalar qaydin qachon qilsun qabul?

Zarra ermaskim, quyosh ajzosi nur aylarga kasb,
Ul pari qasrig‘a ravzandin qilur har dam nuzul.

Olamoro husn ila jonbaxsh nutqungmu ekin?
Yo Masiho ruhi Yusuf jismida qilmish hulul?

Eyki dersen, kelding-u shod o‘lg‘usi vaslingg‘a yor,
Shod bo‘lg‘ay erdi bo‘lg‘an bo‘lsa hajrimdin malul.

Mus’haf avsofingda ermish, Alloh-Alloh, mujmale,
Sura-sura har karashmang sharhida iynak “Fusul”.

Yerga soching sudralur kulbamga kirsang xam bo‘lub,
Mehr past o‘lg‘an zamon andoqki topqay soya tul.

Ikki zulfung to‘lg‘anur har dam sabo tahrikidin,
Ikki hind-u nag‘ma birla zohir etkandek usul.

Rostliqdin dayr toqig‘a mador o‘lmoq ne ayb,
Solikekim bo‘lsa xidmatda sutun yanglig‘ humul.

Bo‘lmasa erdi Navoiy sirri ishqingg‘a amin,
Ne zalum etkay eding aning xitobin, ne jahul.

375

Qon to‘kar ko‘z orazing gulgunaliq ko‘rgan mahal,
Ne uchunkim suyi aning qon ila bo‘lmish badal.

Toqi axzar qotti barcha fitna-vu bedodini,
Qoshinga mashshota go‘yo vusma aylar chog‘da hal.

Nildin gulgun uzoring bog‘ida har sori xol,
Nilufar gulshan aro har yon ochilmish filmasal.

Kechrak ochmoq burqa’ ermas el o‘lar deb rahm uchun,
Balki aylarsen ulus ko‘prak yig‘ilsun deb hayal.

Bog‘ aro har rang to‘n egnida chiqmish o‘ylakim,
Hur jannat sayrig‘a chiqqay kiyib turluk hulal.

To yudung zunnori zulfungni, sochilg‘an suyidin
Kishvari islom aro yuz ming bino topmish xalal.

Dahr sho‘xidin, Navoiy, tut qiroqkim, bog‘lasang
Bir ayoq su birla aqdin, uldurur jomi ajal.

376

Ko‘zumda hajr o‘tining humratin ko‘r, dema qondur ul,
Qaro sog‘inma, paykoning suyi tomg‘on nishondur ul.

Labing xoliki xat yashurdi jonni yashurun o‘rtar,
Hamono ishqdin jonimdag‘i dog‘i nihondur ul.

Ko‘ngul bog‘i aro har yon o‘qung zaxmi emas, go‘yo
Niholi mehring ekmaklik uchun qozg‘an makondur ul.

Ko‘zumning mardumikim, to sahar kavkab sanar har tun
Ul uydin uyqu ayyorin qovarg‘a posbondur ul.

Ko‘nguldin kelgan ohim xaylini man’ etmasam avlo
Ki, mehnat kishvaridin azm qilg‘an korvondur ul.

Qading sarvidadur ko‘nglum qushi, vah, sunbulung ermas
Kim, ul sarv uzra qush qasdig‘a chirmashqan yilondur ul.

Surohiy og‘zida qil shaklidin xushdilmen, ey soqiy,
Magar aysh-u farog‘at toyirig‘a oshyondur ul.

Emas bo‘lsang taayyun xonaqohi shug‘lidin emin,
Fano dayrig‘a kir filholkim dor ul-amondur ul.

Navoiy za’fin anglab o‘zgaga haml etma javrungni,
Ki, yillar ushbu og‘ir yukni chekkan notavondur ul.

377

Qani bir chehraki mayl etkay anga xasta ko‘ngul,
Qani bir zulfki, bo‘lg‘ay anga vobasta ko‘ngul.

Zaxmi og‘zida labing zikri-yu ahvoli qatiq,
Jon yetib og‘zig‘a hol ustidadur xasta ko‘ngul.

G‘ussa tirnog‘i bilakim qilur atrofini resh,
Naqsh etar egma qoshing shaklini payvasta ko‘ngul.

G‘am yeman buzdi esa ko‘nglum uyinkim, qo‘ymas
Maxzani ishqini to bo‘lmasa shoyista ko‘ngul.

Tah-batah qon demakim, ikki yuzung shavqidin
Dard bog‘ida qilur lola-vu guldasta ko‘ngul.

Ko‘nglung ar bo‘lmasa vobasta, tong ermas, ey shayx,
Bormu oxir bori olam aro vorasta ko‘ngul?

Zulmidin desa Navoiyki, qilay ishqin tark,
Man’ etib ichkoridin yolbarur ohista ko‘ngul.

378

Har kishi ko‘rsa qizil xoroda ul mahvash jamol,
Qon yoshim mavji aro qilg‘ay quyosh aksi xayol.

Novakin chekmangki, chirmalmish anga jon rishtasi
Kuch bila chiqmoq ne imkon resha berkitkan nihol.

Ul quyoshning markabi ko‘k tavsanidur ne ajab,
Gar rikob o‘lmoqqa bosh bir-birga yetkurgay hilol.

Nun boshinda shamra yanglig‘dur qoshing uzra girih,
Oraz uzra nuqta mislidur uzoring uzra xol.

Go‘yiyo qilg‘ay shafaq birla quyoshtin rang hal,
Sun’ naqqoshi tasavvur qilsa chehrangdin misol.

Mayda soqiy aksini ko‘rgach egildim o‘pgali,
Bosh ko‘tarman emdi, ya’nikim topibmen infiol.

Ey Navoiy, o‘lgil andin burnakim, yetkay ajal
Kim, ajal yetkach o‘larga bermagay shoyad majol.

379

Qildi ovora meni xastani ovora ko‘ngul,
Xonumonimni qaro qildi yuzi qora ko‘ngul.

Itlaring ollida yuz pora ko‘ngulni soldim,
Muna ko‘r, har birining og‘zida bir pora ko‘ngul.

Yor yuz pora qilib bordi hazin ko‘nglumni,
Hech o‘sanmay yana har lahza borur pora ko‘ngul.

Yosh to‘kar ko‘nglum aning vaslig‘a mayl aylasa ko‘z,
Qon yutar ko‘z, yuzini aylasa nazzora ko‘ngul.

Noz o‘qin jon bila jismimg‘a urub xud o‘ttung,
Boqki, qoldi boqibon yolbora-yolbora ko‘ngul.

Lu’bati dahr firebi bila boziy yemakim,
Bermadi kimsaga bu shohidi makkora ko‘ngul.

Ko‘ngli istarki, sinuq bo‘lsa Navoiy ko‘ngli,
Bo‘lmasun shisha ko‘ngul qasdida, vah, xora ko‘ngul.

380

Ne qosh-u yuzdurur sanga, ey sun'i loyuzol,
Bir oy boshida ko'rmadi hech kim iki hilol.

Og'zi so'zin demakda beli yodima kelur,
Ore daqiq nukta aro yuz berur xayol.

Ko'z-u qoshing biaynih nargis boshinda nun,
Zulfung ayog'ing ostida chun vard ayog'i dol.

Xat lafzi kimki yozsa qo'yar nuqta yuqori,
Mushkin xatingning ustida andoq ko'rundi xol.

Sarsabz erur hamesha bu gulshanda sarvdek,
Ozodayeki bo'lsa mizojida e'tidol.

Vasl istaram ayon qilibon ashk durlarin,
Soyil yetimlar yig'ib etkan kibi savol.

Ul chobuk ollida boshin etti Navoiy go'y,
Chavgon sarguzashtima basdur guvohi hol.

381

Yo Rab, ul oy husnin el fahmig'a nomafhum qil,
Bo'yla mavjud etmasang, avval meni ma'dum qil.

Barcha yuzdin o'ylakim ko'zumni mahrum aylading,
Barcha ko'zni ul parivash yuzidin mahrum qil.

Bo'lsa ishqimda qusure ko'nglini mendin sovut,
Ishqim ar pok o'lsa, toshdek ko'nglin oning mum qil.

Qilsa zulm ul zolim elni qilmag'il, yo Rab, zabun,
Chun tazallumdur ishim doim meni mazlum qil.

To ko‘zum qutlug‘ yuzidin o‘zga sori tushmasun,
Har ne ko‘z ko‘rgay mening baxtimg‘a ani shum qil.

To tirikmen ishqi harfidur ichimda, ey rafiq,
O‘lsam oni-o‘q mazorim toshida marqum qil.

Demakim, bormu ekin mehrim Navoiy ko‘nglida,
Anda sensen, bir taammul aylabon ma’lum qil.

382

Bo‘ynumg‘a qayda qilg‘ay ul oy qo‘lini moyil
Kim, basdurur qaloda it bo‘ynig‘a hamoyil.

Yuz xo‘b jilva qilsa bormas ko‘zumdin ul oy
Kim, zarra xayli bo‘lmas hargiz quyoshqa hoyil.

Ulkim, kulub ko‘ziga surma chekar ne fikri?
Gar ko‘z yoshimdin o‘lg‘ay ko‘zning qorasi zoyil.

Noz etki sarv-u gulda, bal ins-u jinda yo‘qtur
Bu husn-u bu latofat, bu shakl-u bu shamoyil.

Qil sig‘mas og‘zing ichra ko‘p nukta tong emaskim,
Nozukrak o‘ldi qildin har so‘zga bo‘lsa qoyil.

Bu shukr uchun karam qil, soyilg‘a, ey g‘aniykim,
Ermastur ul tavongar, sen xidmatida soyil.

Hijronda bexud istar o‘zni Navoiy, ey shayx,
Oy-u yil ani usruk ko‘rsang, demaki, oyil.

383

Zulfini ochmish sabo yuziga chiqmish tobi mul,
Zulf-u yuzi aksidin to‘nig‘a tushmish dol-u gul.

Qon yutub ko‘nglum tilar har lahza ishqing dog‘ini,
Qursi lim-u istagandek ahli ishrat ichsa mul.

Par emas bulbulda, balkim otashin gul shavqidin
Gulxaniy devonadurkim, yuqmish a’zosig‘a kul.

Yuz-u xoling o‘ti to dog‘ etti, bo‘lmish loladek
Ko‘hi g‘am tiyg‘i jafodin chok-chok o‘lg‘an ko‘ngul.

Borg‘usi garding falakka bodpolar sayridin,
Bodpoyingg‘a ne osig‘ atlasi aflok jul.

Gar binafsha xattinga qulluq qilurdin qochmadi,
El aro nevchun erur boshi quyi, bo‘ynida g‘ul.

Kirpik ermaskim, Navoiy o‘tkay ul chobuk debon,
Ko‘z qora suyig‘a bog‘laptur qamishlar birla pul.

384

Ko‘nglung istar yorlar birla hamesha shod bo‘l,
Mendin-u kimdinki, ko‘nglung istamas, ozod bo‘l.

Garchi sabrim uyi yanglig‘ aylading vayron meni,
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod bo‘l.

Men chekib anduh o‘lay, ey joni bo‘lsun ul Masih
Sovurul, ey charxi nigun, v-ey dahri dun, barbod bo‘l!

Bevafolar zulm-u bedodig‘a ermassen harif,
Ey sinuq ko‘nglum, agar xud shisha, gar po‘lod bo‘l.

Tuttum o‘lmakdin tirilmak hajrida tengdur manga,
Emdi gar bergil ziloli Xizr, agar jallod bo‘l.

Chekma boshkim, emin ermassen xazon yag‘mosidin,
Bu chaman ichra agar savsan, agar shamshod bo‘l.

Ey Navoiy, olam ahlig‘a chu yo‘q ermish vafo,
Kel-u mundin nari bekaslik bila mu’tod bo‘l.

385

Qomatingg‘a har zamon yuz jilva, ey zebo nihol,
Notavon ko‘nglumga har bir jilvasidin o‘zga hol.

Evrulur ko‘nglumda ul chobuk xayoli har kecha,
Shu’laliq ko‘nglumni qildi charx fonusi xayol.

Bosh qo‘yay dedim oyog‘i tufrog‘ig‘a. Dedi: qo‘y.
Bo‘sa istab la’li rangin so‘rdum ersa, dedi: ol.

G‘unchayi xandonki, derlar munfaildur og‘zidin,
Lek kulmak birla istar qilsa daf’i infiol.

Xatt-u xoli hasratidin oncha ashkim oqtikim,
Bir ko‘zum tutti g‘ubor-u bir ko‘zumga tushti xol.

Davr xam qildi qadingni, go‘shaye tut, yo‘q aso,
Negakim, dard-o‘q bo‘lur zohir alif yondashsa dol.

Ey ko‘z, onsiz o‘zga yuz ko‘rmakni qilmishsen havas,
Hajr tiyg‘idin o‘yul yoxud Navoiydin uyol.

386

Bog‘ mendek sarg‘arib, bulbul meningdek bo‘ldi lol,
Go‘yiyo mundoq bo‘lur bir guldin ayrilg‘ang‘a hol.

Yerdagi yofrog‘ g‘arib-u xokisor ar bo‘lmasa,
Men kibi ne vajhdindur yuzi sorig‘, ashki ol?

Sug‘akim tushmish qizarg‘an barglar, ko‘rgan kishi
Ko‘z yoshim ichra bag‘ir pargolasi aylar xayol.

Shox Majnundurki, uryon bo‘lubon afg‘on qilur,
Barg Laylodurki, nil-u igna birla qazdi xol.

Hajr aro ohimg‘a boqmay bordi, lekin shukr erur
Kim, xazonda sarvg‘a osib yetkurmas shamol.

Bu sarig‘ ruxsor uza har sari ashkim o‘xshashur
Bir xazonlig‘ bog‘ ichinda har taraf ravshan zulol.

Vasl angla ishq bog‘ining bahoridin nishon,
Hajr, bilgil gar tilar bo‘lsang, xazonidin misol.

Bu chaman ra’nolari sarkashlik etgandin ne sud
Kim, xazon tarojidin emin emastur bir nihol.

Ey Navoiy, bu xazon o‘lg‘ay bahor ila badal,
Kelsa davlat gulbuni shahzodayi sohibjamol.

387

Sarvnozim, yo‘q ajab, gar ro‘zadin topmish malol
Kim, su ichmasdan topar pajmurdalig‘ nozuk nihol.

Yillar og‘zimkim qurutmishsen zuloli vasl uchun,
Bilding erkin shammayekim, sa’b erkandur bu hol.

Kun tush o‘lmay ro‘za-vu issig‘din ul oy qildi za’f,
Ne haroratdur, quyosh, yo Rabki, topqaysen zavol.

Ro‘za za’fidinki chiqmas uydin o‘lmish mohi nav,
Za’f ko‘rgilkim, to‘lun oyimni aylaptur hilol.

Ro‘za muhri sog‘inib dermenki, olsam tishlabon
Har qachon ko‘rsam aning shirin dudog‘i uzra xol.

Sharbatin dermen ezay jon shirasidin qil madad,
Zulmatingdin tiyralik, ey Xizr-u chashmangdin zulol.

Elga shom o‘lmish, Navoiyg‘a yuzungdin subh erur
Kim, sog‘insun ro‘za shomin, bor egach subhi visol.

388

Uyg‘onib subh uyqusidin mehr sham’in tor qil,
Ko‘z ochib har go‘shadin bir fitnani bedor qil!

Ko‘zni afsunsoz etib jonbaxsh labdin nukta ayt,
Somiriy sehrin, Masiho mo‘jizin izhor qil!

Ko‘z to‘la uyqu og‘irliq solmoq uchun qo‘l ochib,
Ul muhol ummid birla bizni minnatdor qil!

Sep qora yer uzra xobolud ko‘zga su urub,
Ko‘z yetarcha yerni ul su birla nargiszor qil!

Uyqudin ul gulni ko‘rmak gar murodim bo‘lmasa,
Ko‘zuma, yo Rabki, har bir kirpigin bir xor qil!

Do‘st matlub ersa g‘aflat uyqusidin ko‘z ochib
Uchmoq ummidi, tomug‘ biymidin istig‘for qil!

Ey Navoiy, tushta ul oy dedikim, vasl istama!
Aks erur tush, sen talabni ulcha mumkin bor qil!

389

Ul mukahhal ko‘z jafosidin agar bo‘lsam qatil,
Surma toshidin yasab qabrim, qo‘yung boshida mil.

La’li jon olg‘an dalili ulki, yo‘qtur elga jon,
Buki elga jon bag‘ishlaydur, bu dog‘i bir dalil.

Rashkdin har sori ishqing dog‘in aylarmen nihon,
Bog‘labon marham diram har yon yoshurg‘andek baxil.

Yuzda yo‘llar shakli tutmish qon yoshimning xatlari,
Kelki, qilmish ko‘z xayoling xaylig‘a qonin sabil.

Orazingdin xay manga tomg‘aymu deb tufrog‘ men,
Ul kishi yanglig‘ki, bo‘lg‘ay obro‘ istab zalil.

Soqiyo, tut bir qadah maykim, eritgay toshni
Kim, g‘am-u anduh g‘izosidin erur ko‘nglum saqil.

To ani ichkach, Navoiyg‘a ochilg‘ay gulsiton,
Gar sabukruhona kirsa o‘tqa andoqkim Xalil.

390

Qilg‘ali xil’atin ul sarv gulandom qizil,
Qildi qon to‘kmak ila dahrni gulfom qizil.

La’li shavqi bila gar bo‘lsa ko‘ngul qon ne ajab
Kim, qizil may bila to‘lsa ko‘runur jom qizil.

Charx agar holima qon yig‘lamadi hajr tuni,
Nega bas bo‘ldi shafaqdin yuzi ul shom qizil.

Qildi qonlig‘ ko‘ngul ul zulf xayolin rangin,
Raqam etkan kibi shingarf bila lom qizil.

Gul sevarmenki, bu rang etkali xil’at ul sho‘x
Ranglar ichra berur ko‘ngluma orom qizil.

Husn sotma shafaqing rangidin, ey zoli sipehr
Kim, ani qo‘ymag‘usi gardishi ayyom qizil.

Komi dil garchi Navoiyg‘a mayi la’ling erur,
Bo‘lg‘usi chehrasi xunob ila nokom qizil.

391

Yo‘qturur olamda ahli ishqdek bechora el,
Hajr zulmi birla xonumonidin ovora el.

Ishq selobi jafosi birla hijron tiyg‘idin
Xotiri vayron jamoat, ko‘ngli yuz ming pora el.

Chiqsang uydin telba bo‘lmoq olam ahli ne ajab,
Ko‘rmamish hargiz chu sendek bir pari ruxsora el.

Anglakim, ovora bo‘lg‘anlardur ul oy ishqidin
Hajr sahrosida ko‘rsang tog‘-u vodiy ora el.

O‘rtab, ey hijron, meni dudumni qil ko‘yida mig‘,
To ul oy husnig‘a aylay olmag‘ay nazzora el.

Chun qazo tag‘yir topmas, komi ozlig‘din gila —
Mahz nohamvorlig‘dur aylamak hamvora el.

Ey Navoiy, fitna yog‘dursa ul oy ishq ahlig‘a,
Osmondin harnekim kelsa ne qilg‘ay chora el?

392

Kecha bordi yor-u andin qolmadi giryon ko‘ngul,
Ollida mash’al sog‘indim bor emish so‘zon ko‘ngul.

Ul sifatkim, g‘unchaning ta’bida bo‘lg‘ay gul nihon,
Orazing naqshin ichinda aylamish pinhon ko‘ngul.

Topmas erdim ko‘yida istab, agar xud zaxmidin
To‘kmasa erdi qayon azm aylagandin qon ko‘ngul.

G‘unchayi ummid agar la’lingdin uzman, ayb emas
Kim, kishiga jonidin uzmak emas oson ko‘ngul.

Hajr aro jonlar berib chunkim qo‘shuldi yorig‘a,
Ey rafiq, ayrilmoq andin emdi ne imkon ko‘ngul.

Bir nasihat qilg‘um, ey ishq ahli, aylang istimo’,
Solmangiz har sori ko‘z, to bo‘lmasun har yon ko‘ngul.

Ey Navoiy, yordin tushmak yiroq imkon emas,
Ko‘yidin chun ixtiyor etmas dame hijron ko‘ngul.

“MIM” HARFINING MAHBUBLARINING MALOHATI “G‘AROYIB”DIN

393

Bo‘lmish andoq munqati’ ahli zamondin ulfatim
Kim, o‘zum birla chiqishmas ham zamone suhbatim.

Ey xush ulkim, tutmish erdi vahsh ila sahroda uns,
Muhish ahvole mangokim, bor o‘zumdin vahshatim.

Istaram qochmoq adam vodiysidinkim, kirgali
Vomiq-u Farhod-u Majnun bas g‘uludur xilvatim.

To‘lg‘anurmen o‘zlugumdin chiqg‘ali bukim erur,
Dard vodiysida sargardon quyundek hay’atim.

Ey ajal, tan xirqasin kuydurki, bo‘lmish bas og‘ir,
Bu malomat o‘qlari birla tikilgan kisvatim.

Ey falak, anjum ushoq toshin yig‘ib boshingg‘a ur,
Chun fano mayxonasi xishtidin o‘ldi turbatim.

Yetti ko‘kni ko‘k varaqlardek sovurg‘ay har taraf,
Toqi minoyi aro chirmalsa ohi hasratim.

Qo‘y dur-u feruza bahsinkim, nujum-u charxni
Nilufar bargi uza shabnamcha ko‘rmas himmatim.

La’ldek boshim osilsun g‘arqayi xunob o‘lub,
La’l tikkan saltanat tojig‘a bo‘lsa rag‘batim.

Turfa ko‘rkim, xalq komi birla umrum bo‘ldi sarf,
Turfaroq bukim birovga yoqmadi bir xidmatim.

Ey Navoiy, ikki olamdin kechib toptim visol,
Bu iki butxonadin ermish bu yo‘lda ofatim.

394

Ul pari nazzorasig‘a, vahki, yo‘qtur toqatim
Kim, qachon qilsam nazar devona aylar hayratim.

Bas, ne nav’ aylay tamannokim, visoli sham’idin
Hajr shomi gah-gahe bo‘lg‘ay munavvar suhbatim.

Suhbatida bor ham topsam bu toli’ qaydakim,
Bir nafas mahramlari silkida bo‘lg‘ay xidmatim.

Xidmatig‘a mahram o‘lsam ham qachon imkoni bor
Kim, degay bir lahzaye bo‘lg‘il harifi xilvatim.

Bo‘lsa ham xilvat muyassar, vahki, hargiz yo‘qturur
Poybo‘si davlatin zohir qilurg‘a jur’atim.

Gar oyoq sunsa ko‘zumga ham ko‘ngul ne voykim,
Ul zamon ko‘z rashkidin kuydurgusidur g‘ayratim.

Vasl umidin qo‘y, Navoiykim, xayoledur muhol,
Bu muhol umrnid ila har lahza berma zahmatim.

395

Chamanda munisim ne sarv erur, ne gul, ne sunbul ham,
Manga sarve kerakkim, sochi sunbuldur, yuzi gul ham.

Ajab yo‘q to‘lg‘anib jismim, qorarsa subhi ayshimkim,
Tushub ul kokul uzra chin, yuziga tushti kokul ham.

Demang ul sho‘x ila as’hob bazmin qil tafarrujkim,
Talaffuz aylay olman bu hikoyatni, taxayyul ham.

Yuzung birla quyosh ta’rifida gar davr erur hosil,
Kelur zanjiri zulfung vasfida lozim tasalsul ham.

Yuz-u qaddig‘a hur-u to‘bi o‘xshar debsen, ey voiz,
Yiroq ermas so‘z ayturda gahe qilsang taammul ham.

Chekib ko‘hi firoqin sabr qildim, vaslig‘a yetkach
Fig‘on cheksam ajab yo‘q muncha-o‘q bo‘lg‘ay
tahammul ham.

Yuzung shavqida ko‘nglum ohi sham’-u gulga o‘t soldi
Ki, kuydi notavon parvona-vu kul bo‘ldi bulbul ham.

G‘animat anglasun bulbulni gul yetgachki, bo‘stondin
Uchar gul yafrog‘i ham, qolmas uchmay garchi bulbul ham.

Xumor o‘lturmish erdi bo‘lmasang mug‘ dayrig‘a ozim,
Bu ishga, ey Navoiy, ayladi Tengri seni mulham.

396

Ne tong uzorim agar sarg‘arib, qizardi yoshim
Ki, yuz qarolig‘-u isyon bila oqardi boshim.

Quyosh kibi yuz ila tog‘dek g‘amin netayin,
Meningki tog‘ boshig‘a yetibdurur quyoshim.

Magarki jon talashur vaqt uchun ayon bo‘lg‘ay
Muloaba yuzidin xo‘blar bila taloshim.

Zamon eli gar urushsun-u gar yarashsunlar
Ki, ne urushim alar birla bor-u ne yaroshim.

O‘qug‘an elni halok aylagay kitobasida,
Ichimdagini ayon qilsa qabrim uzra toshim.

Yasosalar ne ajab dayr uza mazorimni
Meningki mug‘bachalardur harifi jur’akoshim.

Navoiyo, magar idbor gardini yuzdin
Yug‘ay nadomat-u hasrat bila to‘kulsa yoshim.

397

Hajr toshining ko‘kumtul dog‘idin kuydi tanim,
Ohkim, go‘gurd o‘ti birla tutashti xirmanim.

Tiyra kulbam ichra o‘t soldi firoqing, voykim,
Yorudi kuymak o‘ti birla qorong‘u maskanim.

Nildin xol-u alif yuz uzra to naqsh aylading,
Dog‘ kuydurmak ishim bo‘lmish, alif kesmak — fanim.

Ishq aro bo‘ldum g‘aniy, ko‘nglum aro paykonidin
Kim, to‘luptur ul javohir birla ushbu maxzanim.

Zarvaraq birla bezabdur gul yuzin, vah, turfa ko‘r
Kim, bahor ichra xazon zohir qiliptur gulshanim.

Emin o‘lman xonaqoh-u xilvat ichra ujbdin,
Zohido, mayxona — mulkim, kup ichidur ma’manim.

Ey Navoiy, ul xat etmish ro‘zgorimni qaro,
Tong emas yirtuq yaqo birla qalamdek shevanim.

398

Qilg‘ali yuz til kibi ko‘nglumni chok ul qotilim,
Tiyg‘i ishqi lazzatin aylar hikoyat har tilim.

Har kecha g‘am tog‘i ichra jon yetib og‘zimg‘a, bor
Mushfiqim bosh uzra bum-u, ko‘zi — sham’i mahfilim.

Yig‘lag‘an soyi sarig‘roqdur yuzum, toli’ ko‘rung
Kim, socharmen dona-vu andin somondur hosilim.

Halqa-halqa zulfi domi ichramen, vahkim, kelur,
To‘sh-to‘shumdin nishi hajr-u bu zirihdur hoyilim.

G‘am sipohi ollidin qochmoq ne imkonkim, berur
Oh o‘ti-yu ashk qonidin nishon har manzilim.

Nega dahr oyo vafo ahlining istar o‘lmagin,
Ohkim, o‘lgumdurur hal bo‘lmayin bu mushkilim.

Ey Navoiy, qilma ko‘p Majnun hadisi naqlini
Kim, men etsam naql, Majnun bo‘lg‘usidur noqilim.

399

Bahor bo‘ldi-yu, gul mayli qilmadi ko‘nglum,
Ochildi g‘uncha-vu, lekin ochilmadi ko‘nglum.

Yuzung xayoli ila vola erdim andoqkim,
Bahor bo‘ldi-yu, gul mayli qilmadi ko‘nglum.

Gum o‘ldi bog‘da og‘zing xayolidin, yuz vah
Ki, g‘unchalar ora istab, topilmadi ko‘nglum.

Ko‘zumda jilva qilib, ko‘nglum olmoq istadi gul,
Iting izicha ani ko‘zga ilmadi ko‘nglum.

Yuzung nazorasida mast-u mahv edi, ya'ni
Ki, gul chog'ida zamone oyilmadi ko'nglum.

Zamona gulbunida g'unchadekdur el ko'ngli,
Alarg'a shukrki, bore qotilmadi ko'nglum.

Navoiy g'uncha tilab, ko'nglum og'zin etti havas,
Agarchi topmadi, lekin yongilmadi ko'nglum.

400

Magarki ko'z yo'lidin oqti qon bo'lub yuragim
Ki, tog' etaklaridek lolagundurur etagim.

Ne tushki, hajri balosin ko'rarda seskansam,
Dukuldamak bila qo'shnini uyg'otur yuragim.

G'aming bo'g'un-bo'g'unumni oyirdi, ham xushtur
Itingga tashlamoq uchun birin-birin so'ngagim.

Emas bu xolki, ko'z orazingg'a yetkanda
Qolibdurur yopishib, ayni shavqdin ninagim.

Ne bazm erur mayi hajring sumurmagim, hayhot
Ki, hasrat ilgi ovuch qoqmog'idurur gazagim.

Demangki, qoshlari mehrobida tilak tilagin
Mangaki, qoshlari mehrobi-o'qdurur tilagim.

Chamanda savsan-u ra'no qadig'a moyilmen,
Ki, savsaniy to'n ila jilva ko'p qilur miragim.

401

Ko'ngul jon birla bordi hamrahing, men dard ila turdum,
Sanga jon birla ko'nglumni, seni Tengriga topshurdum.

Nishondur tiyra bo‘lg‘an axtari baxtim savodidin
Tuganlarkim, firoqing o‘tidin g‘am shomi kuydurdum.

Yig‘och birla boshoqkim, tanda qolmish uldurur marham
Junundinkim, firoqing o‘qlarin jismimda sindurdim.

Tutashti sham’dek har barmog‘im hijron sharoridin,
Ilik marham qo‘yay deb chun ko‘ngul chokiga yetkurdum.

Chu ul kofir chiqar ko‘z solmag‘aysiz, ey musulmonlar
Ki, men bechora ko‘nglumni boqib turg‘uncha oldurdum.

Qotibdur ko‘zlarimkim, ne yopilmoq, ne taharruk bor,
Qiyo boqqaymu bir deb azm etarda baski telmurdum.

Yuzin ko‘rgach boshimg‘a tushti mushkin zulfi savdosi,
Fig‘onkim, bir boqishda yuz balo boshimg‘a kelturdum.

Ko‘ngul tinmasqa qolmish erdi, har nav’ orzu birla,
Rizo ko‘yida to qo‘ydum qadam ko‘nglumni tindurdum.

Makon gulxan kulin qildim Navoiy, telbadek ya’ni
Junun tarojidin oxir qaro tufroqqa o‘lturdum.

402

Ayni za’fimdin qo‘lum chun qo‘ldading, ey dilbarim,
Qo‘yma ilgimniki, qo‘rqarmen to‘kulgay paykarim.

To junun bemorimen, gulxanning o‘tluq kullari
Bo‘ldi gulgun rishtadin gullar tikilgan bistarim.

Sovuq ohimdin zarar topqay edim g‘am bazmida
Jism uyinda bo‘lmasa o‘tlug‘ ko‘nguldin mijmarim.

Qatra xaylar ichra ul orazni ko‘rdum, ey rafiq,
O‘lmagim ermas ajabkim, suga tushmish axtarim.

Dema, la'lim shavqidin sipqarmading qon bir qadah,
Men icharmen, ko'z to'kar, netib tugansun sog'arim.

Gulshani faqr ichra to kirdim, erur balkim emas
Gunbadi nilufariy gulshanda bir nilufarim.

Hajr tig'i ko'p uchun jismimda har yon chekti bosh,
Ey Navoiy, men mazallat toyiri, budur parim.

403

Tun oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

Ne g'am ko'rguzsa ko'ksum porasin choki giribonim,
Ko'runmas bo'lsa ko'ksum yorasidin dog'i pinhonim.

G'amidin durri maknundek, sirishkim oqti Jayxundek,
Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g'altonim.

Falak ham to'ldi kavkabdin, quyosh ham tushti ashhabdin,
Kelib tushmas bu markabdin mening xurshidi raxshonim.

Jahonni zulmat etti chah, bu zulmat ichra o'lgum, vah,
Manga bo'lsang ne Xizri rah, yetib, ey obi hayvonim.

Dema ko'ktin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg'onim.

Navoiy kibi hijrondin, bu oqshom o'ldum afg'ondin,
G'amim yo'q bo'yla yuz jondin, yetib gar kelsa jononim.

404

Ishq ila bo'ldum masal, savdo bila afsona ham,
Shukri lillohkim, yana oshiqmen-u devona ham.

To unutdi oshnolig‘ rasmin ul begonavash,
Oshno yig‘lar mening holim ko‘rub, begona ham.

G‘am tuni mendurmen oh-u ashkdin sham’im o‘chub,
Boshima yemrulgali turmish buzug‘ koshona ham.

Elga mehring bor, buzuq ko‘nglumga ham bir zarra boq
Kim, quyoshning tobidin mahrum emas vayrona ham.

Ey malohat sham’i har soat meni kuydurmakim,
Ko‘p yorumas sham’ agarchi o‘rtanur parvona ham.

Yo‘q, bu dayr ichra berur jomi ajal ta’mini may
Kim, erur paymona to‘lmoqdin nishon paymona ham.

Ey Navoiy, gar desang, ul turfa qushni sayd etay,
Rishtayi jismingni dom et, ko‘z yoshingni dona ham.

405

Kecha ul mahvashni yod aylab farovon yig‘ladim,
Mehrim oshti subhdek har nechakim qon yig‘ladim.

Sham’ avval oqshom-o‘q kuydi fig‘onim o‘tidin
Kim, men o‘t sochqon bulutdek tortib afg‘on yig‘ladim.

Tun qorong‘u, kulba xilvat, hajrdin ko‘nglum to‘la,
Tosh urub ko‘ksumga to bor erdi imkon yig‘ladim.

Yor hajridin kishiga ayta olmas g‘ussani,
Ko‘nglum etti sharh-u men mahjur-u pajmon yig‘ladim.

Charx ham to‘kti quyoshning hajridin kavkab, vale
Yig‘lamoq ul erdikim, men zor giryon yig‘ladim.

Subhdek xurshid vaslidin agar kulsam ne tong
Menki, subhi vasl uchun ko‘p shomi hijron yig‘ladim.

Ey Navoiy, tosh eshitsa navha qilg‘ay oshkor,
Yo‘q ajab gar bir tun o‘z holimg‘a pinhon yig‘ladim.

406

Soqiyo, kechagi may nash’asidin jon toptim,
Zulmat ichra masalo chashmayi hayvon toptim.

Og‘zinga olma olibkim manga tishlab berding,
Ham o‘shul og‘iz ila go‘yi zanaxdon toptim.

Boda tobi-yu yuzung partavidin tiyra kecha
To‘lun oy ko‘rdum-u xurshidi duraxshon toptim.

Mehrdin ko‘p nafas urma der edim tongg‘a boqib
Kim, men ushbu kecha xurshidni mehmon toptim.

Men to‘kub ashk falakdek vale bexudlug‘uma
Dam-badam yorumag‘ur subhni xandon toptim.

Telba ko‘nglumki, lab-u zulfung uchun itmish edi,
Kecha mayxona aro mast-u parishon toptim.

Charxdin mehr tama’ tuttum-u ofat ko‘rdum,
Yordin vasl talab qildim-u hijron toptim.

Zulfi fikrida Navoiyni labi tirguzdi,
Soqiyo, kechagi may nash’asidin jon toptim.

407

Bitigingdinki, savodini ko‘rub jon toptim.
Zulmat ichra masalo chashmayi hayvon toptim.

Bahrdin qatrag‘a ta’zim ila tahsin ko‘rdum,
Mehrdin zarrag‘a e’zoz ila ehson toptim.

Har alif sarv edi, he g‘uncha-vu dol sunbul
Demayin nomaki, bir toza guliston toptim.

Anbarin madlarikim mehr edi mazmuni aning,
Har uzun kechada bir mehri duraxshon toptim.

Qatra qonlarki, ko‘zum sochti o‘qur holatida
Har shaba ustida bir la’li Badaxshon toptim.

Ne shaba erdiki, mazmuni bila ashkimdin
Toshida la’l, ichida gavhari Ummon topdim.

Gah-gahe xasta Navoiy tanig‘a jon yetkur
Bitigingdinki, savodini ko‘rub jon toptim.

408

Visol tuxmini ektim, firoq bar toptim,
Vafo niholini tiktim, jafo samar toptim.

Muhabbat o‘tiki, yoqtim visol sham’i uchun
O‘zumni oqibat ul o‘tdin-o‘q sharar toptim.

Men ashk birla yudum g‘ayr naqshini ko‘zdin,
Va lek g‘ayrg‘a-o‘q yordin nazar toptim.

Umid bahrida har necha g‘o‘takim urdum,
Sadaf ko‘zumdin-u ko‘z yoshidin guhar toptim.

Dedim: bu ramzni anglay, vale xirad pirin
Bu nukta kayfiyati ichra bexabar toptim.

Chu dardi ishq biyobonlarini qildim qat’,
Adam viloyatidin nari yuz xatar toptim.

Navoiyo, kecha-kunduz xat-u yuzini tilab,
Shabona navha bila nolayi sahar toptim.

409

Vasl bargin uzki, men hijron gulin bo‘y etmisham,
Mehr tarkin tutki, men mehnat bila xo‘y etmisham.

Naxli qaddingg‘aki, berdim ko‘z yoshidin parvarish,
Emdi bosh tortarki, yoshdin yuz sari jo‘y etmisham.

Har sari javlon qilib yetkach manga chekting inon,
Bu ekin jurmumki, yo‘lungda boshim go‘y etmisham.

Noma ichra chirmashibon sanga yetkaymenmu deb,
Orazim kahbarg-u jismim rishtasin mo‘y etmisham.

May bo‘lub ashkim, g‘izo bag‘rim, surud afg‘onlarim,
Keling, ahli ishqkim, g‘am xaylig‘a to‘y etmisham.

Shayx boqiy bo‘lsun-u zarq ichra tinmaslig‘ki, men
Tinmisham tokim fano dayri sari ro‘y etmisham.

Topmadim gulchehralardin shammaye bo‘yi vafo,
Ey Navoiy, nechakim yeldek tak-u po‘y etmisham.

410

Tirik yururmen-u, bor mendin ayru jononim,
Bu umr birla yurub o‘lmagan mening jonim.

Bag‘irda yuz xala-vu, vah, demakka yo‘q zahram,
Ko‘ngulda qon to‘la-vu yo‘q dam urmoq imkonim.

Ne bir aniski, aritsa lolayi ashkim,
Ne bir rafiqki, anglasa dog‘i pinhonim.

Ko‘rub qoshida muhiblarni jam-u men mardud,
Mungayibon buzulur xotiri parishonim.

Ko‘ngul xud itti-yu, jon hamdami bo‘la olman,
Bir-ikki lahzaki, bor ul zaif mehmonim.

Azimat etkali ul ganji husn andoqdur
Ki, chug‘z or qilur ko‘rsa emdi vayronim.

Navoiyo, bu navolarki kecha tortarmen,
Zuhal eshitur-u, xurshid eshitmas afg‘onim.

411

Ey qading sarvi ravon, ko‘yung bahori gulshanim,
Mehnat-u afg‘on sening hajringda ko‘rgan-bilganim.

Qabr toshidur bezaklik sarbasar gul bargidin,
Toza-toza dog‘ ila ko‘hi balo bo‘lg‘an tanim.

Charx mehnat toshidin to ravzan ochti har taraf,
Men malomat bulbuli, go‘yo qafasdur maskanim.

Mehnat-u g‘am o‘qlarig‘a, vahki, yuz ming zaxmliq,
Ashki siymandud qilg‘an hay’at o‘ldi javshanim.

Tiyg‘ekim, ko‘ksum uyin ochti, eshikdekdur anga
Ochilib yopilsa har dam choklig pirohanim.

Do‘stlar, meni ko‘ngulsiz deb so‘rarsiz, shodmen,
Bo‘lmayinmu shodkim, daf’ o‘lmish andoq dushmanim.

Ishq naqdi dog‘i g‘am kirmish Navoiy, ko‘ngliga,
Vahki, bir dam ajdahodin xoli ermas maxzanim.

412

Mehr ko‘p ko‘rguzdum, ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G‘am bila jonimg‘a yettim, g‘amgusore ko‘rmadim,
Hajr ila dilxasta bo‘ldum, dilsitone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o‘qig‘a bo‘ldum nishon,
Bir kamonabro‘da tuzlukdin nishone topmadim.

Ko‘nglum ichra sarv o‘qdur, g‘uncha paykon, gul tikan,
Dahr bog‘i ichra mundoq gulsitone topmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zumdek notavone topmadim.

Ko‘p o‘qudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,
O‘z ishimdin bulajabroq dostone topmadim.

Ul amon ichinda bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Tab’ ganjidin maoni xurdasin, yuz qatla hayf
Kim, nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

413

Oqizdi limuyi bo‘rkungni ko‘rgach, oncha qon ko‘nglum
Ki, za’f etti sarig‘ gul g‘unchasidek notavon ko‘nglum.

Ko‘ngulda baski g‘unchang fikratidin xurdayi ma’no,
Yig‘ibmen g‘uncha ko‘nglidek, bo‘luptur xurdadon ko‘nglum.

Sanavbar ko‘ngliga ko‘nglumni o‘xshatmangki, o‘rtabdur
Nihon har tuxm ummidig‘a bir dog‘i nihon ko‘nglum.

Badan vayronida ul husn ganji hajridin gohe
Gah o‘z yolg‘uzlug‘idin chug‘zdek tortar fig‘on ko‘nglum.

Duri ishqingni to topmish, agar chok o‘lsa sartosar
Guhar yutqan balig‘ yanglig‘ dam urmas notavon ko‘nglum.

Aningdek topti siymin soiding yodi bila ulfat
Ki, dastomuz qushdek onsiz ermas bir zamon ko‘nglum.

Maqomi gah balo tog‘idurur, gohe fano dashti
Ki, ishq ichra berur Farhod-u Majnundin nishon ko‘nglum.

Falak zoli g‘am-u dardin chekardin o‘ldum, ey soqiy,
Keturgin raz qizin botkim, tilar bir navjuvon ko‘nglum.

Navoiy derki, ko‘nglungni keturgil ishq ko‘yidin,
Bag‘oyat yaxshidur, gar bo‘lsa rozi ul yomon ko‘nglum.

414

Ne ayb, agar mayi sofiy g‘amidadur ko‘nglum
Ki, changi halqayi zulfi xamidadur ko‘nglum.

Falak haqiqati fikrida kuydi ersa ne tong
Ki, ajdahoyi damonning damidadur ko‘nglum.

Mug‘anniyo, kel-u tuzgil xaroshliq unuma
Hazin taronaki, rudung bamidadur ko‘nglum.

Nishotdin dema so‘z, navha birla boshla surud
Ki, dard-u g‘amzadalig‘ olamidadur ko‘nglum.

Firoq o‘tig‘a tushub dam-badam to‘kar qon yosh
Ki, oxir o‘lgusi o‘z motamidadur ko‘nglum.

Ne ayb vaslidin ar marham o‘lsa ko‘nglumda,
Hamesha chunki aning marhamidadur ko‘nglum.

May ich, Navoiy-u, ahli zamondin aylama yod
Ki, ushbu xayldin asr-u ramidadur ko‘nglum.

415

Vayronayedur maskanim, andin manga bisyor g‘am,
Ohim bila eshikta o‘rt, ashkim bila devor nam.

No‘shidin elga guftugo‘, ey hajr icharmen men og‘u,
Kosh o‘lsum-u ko‘nglumni bu anduhdin qutqorsam.

Qil ishq dayrida maqar, sukkonig‘a solg‘il nazar
Kim, bor bu majma’ ichra har durdkashi xammor Jam.

Har yerki anda bir nafas, ishratqa topsam dastras,
Yuz qatla aylarmen havaskim, bo‘lsa erdi yor ham.

Soqiy, bugun mayni unut, mendek dame xunoba yut,
Mutrib navoyi navha tut, sozingg‘a bog‘la tori bam.

Desamki, ey badmehr o‘g‘ul, yuzung ko‘rub oy tutti yo‘l,
Der: yer quyi gar bordi ul, bir shabravi ayyor kam.

Miskin Navoiy bersa jon, ey diyda, har dam to‘kma qon,
Ul har necha qilsa fig‘on, sen asrag‘il zinhor dam.

416

Oncha kavkab to‘kti shomi g‘am xayolingdin ko‘zum
Kim, yorudi oqibat subhi visolingdin ko‘zum.

Xoldin ko‘z tiyra bo‘lmoq rasm erur, bu turfakim,
Yorudi ko‘z mardumidek turfa xolingdin ko‘zum.

Quy aqiqi may Suhayli jom aro, ey mug‘bacha
Kim, yorur ul axtari farxundafolingdin ko‘zum.

Vaslinga yettim bihamdillahki, zoyi’ bo‘lmadi,
Ulki, qon yig‘lar edi har dam xayolingdin ko‘zum.

Bu sababdinkim, nedin sensiz qolib ko‘r o‘lmadi,
Boqa olmaydur yuzungga infiolingdin ko‘zum.

Yangi oy ko‘rgach xaloyiq, ko‘zni tutmoq rasm erur,
Lekin ochildi ko‘rub mushkin hilolingdin ko‘zum.

Shukri lillahkim, Navoiydek munavvardur yana
Xoki poyingdin yuzum, sham’i jamolingdin ko‘zum.

417

Yer yuzini tutti ashkim, ko‘kka yetti nolishim,
Yuqori Tengri-yu quyi sendin o‘zga yo‘q kishim.

Lojaram devona-vu rasvoyi olam bo‘lg‘amen,
Chun tushuptur, ey paripaykar, sening birla ishim.

Tish qadabmen la’linga, uzmasmen andin bu tama’
Anburi hijron bila bir-bir sug‘ursalar tishim.

Har dam issig‘ ashk-u sovug‘ ohdin darmondamen,
Yuz-u zulfung davrida mundoq kechar yoz-u qishim.

Tiyralik dud-u shafaqdur, shu’la-vu anjum sharor,
Go‘yiyokim soldi o‘t hijron tuniga qarg‘ishim.

Mehri yo‘qluqtin erur har tun sinoni oh ila,
Ko‘k hisori xayli birla tongg‘a tegru sanchishim.

Ey Navoiy, gar sening nolangg‘a yig‘lar andalib,
Bir kun ul gul ko‘ngliga ham kor qilg‘ay nolishim.

418

La’ling g‘amidin diydayi giryon bila bordim,
Ko‘rmay seni yuz nola-vu afg‘on bila bordim.

Vaslingg‘a yetay dedim-u hajringg‘a yo‘luqtum,
Ummid ila keldim, vale armon bila bordim.

Vaslingg‘a shitob aylab o‘kush g‘am bila yondim,
O‘qdek kelibon bir necha paykon bila bordim.

Olamg‘a vido’ ettim o‘shul yuz havasidin,
Yuz shukrki, oxir dami imon bila bordim.

Umre tilab ish sirrini ketmak kerak oxir
Kim, shammaye andin meni hayron bila bordim.

Olamg‘a vido’ ettim, och ul yuzni damekim,
Zodi abad eltay chu bu borg‘an bila bordim.

Dedimki Navoiydek o‘lay mehring ilan-o‘q,
Yuz shukrki, ul va’da-vu paymon bila bordim.

419

Vodiyi hajringda bir dam qon yutardin qonmadim,
Ushbu o‘tlug‘ vodiy ichra tinmadim to yonmadim.

O‘lganimdim so‘ngra keldi so‘rg‘ali dardimni yor,
Uyqu ko‘rkim, boshima yetib quyosh uyg‘onmadim.

Orazim sarg‘ardi oltundek soching savdosidin,
Mundin o‘zga naqd ul savdo aro qozg‘onmadim.

Ko‘yiga aylandurung na’shimki, hijron za’fida
O‘lturub hasrat meni bir ul taraf aylonmadim.

Nol yanglig‘ garchi xatting shavqidin bo‘ldum zaif,
Lek javring tiyg‘i boshimg‘a kelib to‘lg‘onmadim.

Saltanat ko‘rkim, niholi mehrdin arz ettilar,
Juz fano mayxonasining kirpichin yostonmadim.

Ishq aro iqror ko‘p chekma meni o‘lturgali,
Ey Navoiy, chunki men hargiz bu ishtin tonmadim.

420

Oncha yig‘latti jafodin do‘stdur deb sevganim
Kim, kular ahvolima har qayda ko‘rsa dushmanim.

Do‘stkim qilg‘ay meni bedodi dushman kulgusi,
Bo‘yla dushmankomlig‘din yaxshiroqdur o‘lganim.

Do‘st dushmandin manga ko‘prak chu tekurdi jafo,
Ne ajab gar emdi dushmando‘stlug‘ bo‘lg‘ay fanim.

Ursa dushman zaxm, erur marham tavaqqu’ do‘stdin,
Ikkisi zaxm ursa tong yo‘q chok-chok o‘lmoq tanim.

Ta’na birla buzma, ey dushman, ko‘ngul uyin dag‘i,
Ushbu baskim, do‘st zulmidin buzulmish maskanim.

Do‘stqa jon berdim-u, dushmandur emdi, vah, ne tong
O‘rtasa ham do‘st, ham dushmanni oh-u shevanim.

Ey Navoiy, do‘st xud yo‘q, vah, ne holatdurki, bor
Boshim uzra dushman ikki diydayi tardomanim.

421

Xazon rangi yuziga bersa tong yo‘q shu’layi dardim
Kim, elga sham’i bazm o‘lmish bahori nozparvardim.

Aning vasli muhol-u hajrida dardim fuzun har dam,
Birovni hamdami gar ko‘rsam, afzunroq bo‘lur dardim.

Sabo birla bulut tufrog‘imen, ko‘yiga gardimni
Biri eltib, biri qo‘ymasa andin chiqqali gardim.

Chu sursang tiyg‘i zahrolud ko‘nglum ochilur, nevchun
Kim, uldur sabzam-u qonkim, bag‘irdin oqizur vardim.

Agar hijron tunida umrum o‘tti, ey ko‘ngul, g‘am yo‘q,
Toparmen jon agar bir tun yo‘luqsa mohi shabgardim.

Xazon birla bahorin dahrning naylay, chu yoshurdi
Birisin lolayi ashkim, birisin chehrayi zardim.

Falakdek, ey Navoiy, bo‘lmasam bir oy firoqinda,
Nedur bas charxdek tun-kun jahon girdida novardim.

422

Aql-u jon qasdida ko‘rdum ul ko‘z-u mujgonni ham,
Chektim ul mujgon-u ko‘z ollida aql-u jonni ham.

Novaking yetkach qiziq ko‘nglum yig‘ochin kuydurub,
Qatrayi su yanglig‘ oshom ayladi paykonni ham.

Ko‘z yoshimni qon qilib, bag‘rim su etting, ey firoq,
Yo‘qki yolg‘uz suni qon qilding, su qilding qonni ham.

Ishq dashtida quyundek xoksoringmen, gahe,
Istasang ushshoqni, yod et bu sargardonni ham.

Go‘ydek boshim necha raxshing ayog‘i zarbidin,
Po‘ya qilg‘ay, gah-gahe yetkur anga chavgonni ham.

Ey tavongar, nechakim qasringni qilding zarnigor,
Asru xoli ko‘rma darvesh o‘lturur vayronni ham.

Ko‘nglum olib bording-u, qolmish manga bir xasta jon,
Har qachon kelsang Navoiy topshurur qolg‘onni ham.

423

Ajoyib tiyradur hajrim tuni, ey mehri yo‘q mohim,
Magar sovurdi ishqing o‘rtaganlarning kulin ohim.

Vujudum ul quyosh hajrida andoq murtafi’ bo‘ldi
Ki, mumkin yo‘q ani istarda bo‘lmoq soya hamrohim.

Yuzumning aksi kohiy qildi ko‘yungning ushoq toshin
Kamoli ishq ko‘rkim, kahrabo ijod etar kohim.

Ko‘ngul har g‘amzasi o‘qinki, bordur, orzu qildi,
Bihamdillahki, yetkurdi nekim, bor erdi dilxohim.

Yasay dard o‘qlaridin bir oq uy jon gulshani ichra
Ki, ko‘nglumda toriqsa, anda kirgay mohi xirgohim.

Ko‘ngul afsonasin gohe desam, elni tutar uyqu,
Va lekin har zamon seskandurur afg‘oni nogohim.

Qilib mayxona tufrog‘in vatan, qon yutmog‘im ko‘rgil
Ki, bu bir bodayi ayshimdurur ul masnadi johim.

Erur bir mug‘bacha ilgidin ichmak orzusidin
Fano dayrida har dam bir eshikdin shay’alillohim.

Umid ulkim qadam sarvaqtima yetkurgay ogohe,
Navoiy gar talab yo‘lida bo‘lsa joni ogohim.

424

Tandin o‘qungni cheksalar, og‘rirdin ermas shevanim,
Andin qilurmen navhakim, ayru tushar jondin tanim.

Gulxan kuli ichra nihon, jismim junundindur nishon,
To telbalik barqi ayon bo‘lg‘ach kuyuptur xirmanim.

To ishq aro afsonamen, o‘t ichraki devonamen,
Ul sham’ uchun parvonamenkim,
bo‘lmish o‘rtanmak fanim.

Ul sho‘x sekritti samand, ermas nasihat sudmand,
Har do‘st bersa emdi pand, uldur ulug‘roq dushmanim.

May ichkali ul no‘shlab zohir qilur har dam tarab,
Bu nav’ ochilmoq ne ajab, andoq su ichkan gulshanim.

Chun odamiyda yo‘q vafo, ko‘r ul pari ishqi aro
Javlongahim — dashti fano,
vayronayi g‘am — maskanim.

G‘am tig‘idin qochmoq havas qilma, Navoiy, har nafas,
Ul tiyg‘ning daf’ig‘a bas, yuz pora xirqa javshanim.

425

Quruq tanimg‘a tugan kuydururda bebokim
Fatila o‘ti yetishkach tutashti xoshokim.

Tan ichra telba ko‘ngul iztirob etar asru,
Tikib ne nav’ o‘ngansun bu sinayi chokim.

Hazin ko‘ngulni magar chok qilg‘asen, ey gul
Ki, g‘uncha yanglig‘ ochilg‘ay dame bu g‘amnokim.

Havoyi ishqing aro o‘zga olamim bordur
Ki, ashkim anjum erur, oh dudi aflokim.

Dedim: boshimni chopib tu’ma elt itlaringga,
Dedi: bu yukdin uzulmish yaqinda fitrokim.

Fig‘onki, ishq hadisi daqiq erur andoq
Ki, qosir o‘lmish ani anglamoqdin idrokim.

Deding: Navoiy emish hushmand, bore degil,
Jahonda kim durur andoq xarob-u rasvo kim?

426

Visol ichra ul oyning furqatin oson gumon qildim,
Chu bordi, voykim, ne nav' dushvor erkanin bildim.

Der erdim, hajrida shoyad o'zumni asray olg'aymen,
Bu so'z hashv erkanin bildim hamul soatki ayrildim.

Fig'onkim, dard-u g'am kirmakka xush-xush raxnalar bo'ldi,
Ko'ngulkim to'sh-to'shidin dard-u g'am chiqsun
debon tildim.

Hamul dam ishq dashtida meni gum qildi bexudlug',
Agar hush-u xirad sa'yi bila bir lahza topildim.

Fano yo'lig'a tushtum yetkali Farhod-u Majnung'a,
Nechuk yo'l bormayinkim, yaxshi hamrahlarg'a qotildim.

Chu ichtim ishq jomin bexud o'ldum tarki hush aylab,
Aningdek may ichib bu nav' usruklukdin oyildim.

Firoqi mushkil ermish, bilmayin men ham Navoiydek
Visol ichra ul oyning furqatin oson gumon qildim.

427

Hajr ila ko'rma ravo jonimg'a bepoyon o'lum,
Tiyg' surkim, xushturur oz og'rig'-u oson o'lum.

Jon berib istarmen o'lmakni, o'lum xo'broqki, jon,
Jonim o'lmakdur chu istaydur manga jonon o'lum.

Xalq dushvor o'lmagim hayronidurlar, turfa ko'r
Kim, erur dushvor hajrim ollida hayron o'lum.

Hajr qolmas yoshurun oh-u fig‘on chek, ey ko‘ngul
Kim, yashurmoq birla hargiz qolmadi pinhon o‘lum.

Dardi hijron sa’b-u, yetmas sharbati vasl, ey tabib,
Go‘yiyokim ushbu dardimg‘a erur darmon o‘lum.

Foniy o‘lmay qilg‘an izhori fano, bilkim, erur
Ul gadokim rizq uchun zohir qilur yolg‘on o‘lum.

Ey Navoiy, jahl ila o‘lmak qatiq ishdur, vale
Chun kamoli ma’rifat kasb o‘ldi, ne nuqson o‘lum.

428

Bo‘lmasun ko‘nglung qushig‘a durr-u gavhar vasli kom
Kim, qazo ul donalarg‘a bahr mavjin qildi dom.

Gar malak tasbihi dona, hur zulfi dom erur
Kim, bu domu donag‘a ziyrak qush ersang, bo‘lma rom.

Dahr bog‘ining havosidur samum-u suyi zahr,
Anda bo‘lmas bu havo-vu su bila qilmoq maqom.

Bog‘kim, nilufariy go‘gurd o‘tidur anglakim,
Ne muattar bo‘lg‘ay andin tarbiyat topqan mashom.

May o‘ti birla dimog‘ingni qizitmakim, bu o‘t
El dimog‘ida pishirmaydur bajuz savdoyi xom.

To o‘zungni xascha ko‘rgungdur emassen odamiy,
Gar havoda sayr qil, gar su uza ko‘rguz xirom.

Kul qil ul xasni fano otashgahig‘a tashlabon,
To ko‘ngul mir’oti ul kuldin jilo topqay tamom.

Istaram, ko‘zguda ko‘rsam yor aksin bir nafas,
Soqiyo, maykim! Erur ishq ahlining ko‘zgusi jom.

429

Menki, davron zulmidur ko‘nglumga, balkim jong‘a ham,
Naylay olg‘aymen angakim, zulm etar davrong‘a ham.

Ko‘r g‘amim afzunlug‘in har damki, ashkim xaylining
Qatrasi bahr o‘ldi, emdi aylaniptur qong‘a ham.

Yopmangiz Farhod ila Majnunnikim, mehnat to‘zi
Satr uchun basdur manga ham, ul iki uryong‘a ham.

To topibmen ishqi o‘ti birla tiyg‘i zahrini,
Iso anfosig‘a boqman, chashmayi hayvong‘a ham.

Goh ko‘nglum g‘unchasin istar, gahe paykonini
Kim, ko‘ngul bordur munosib g‘unchag‘a, paykong‘a ham.

Nilufar naqsh aylab ayvoningg‘a mag‘rur o‘lmag‘il,
Yo‘q, vafo naqshi chu bu nilufariy ayvong‘a ham.

Muddaiylar chun Navoiy ishqin anglab, jonig‘a
Qasd qilg‘anlar emish, bore dengiz jonong‘a ham.

430

Ul quyosh vaslida o‘zni rashkdin gum aylaram,
Soyadin yonimg‘a tebrangach tavahhum aylaram.

Ul pari ko‘nglumdadurkim, so‘zlashurmen demakim,
Telbalikdin o‘z-o‘zum birla takallum aylaram.

Shomi hajrim tongsiz o‘lmish ne ajabkim, ajzdin
Shomdek yig‘lamsinib, tongdek tabassum aylaram.

Qatl hukmi aylasa o‘lturtubon ushshoqni
Ishq aro, chunkim men akmalmen, taqaddum aylaram.

Elga rahm etman, uqubatlar bila qatl aylasang,
O‘z-o‘zumga mahzi hirmondin tarahhum aylaram.

Poklik da’bi gar ermastur suluk ichra, ne sud,
Bahr-u barda gar tahorat, gar tayammum aylaram.

Ey Navoiy, to muqarrar qildim ohangi Hijoz,
Gah Iroq-u gah Ajam sori tarannum aylaram.

431

Sensiz ashkim yomg‘uri selini to‘fon ayladim
Kim, aning tug‘yonidin olamni vayron ayladim.

Bo‘yla to‘fong‘a ko‘zumni abr etib, nolamni ra’d,
Oh o‘ti uchqunlarin barqi duraxshon ayladim.

Yo‘qki, ko‘nglum shu’lasidin dahr aro soldim bir o‘t
Kim, tomug‘ni el ko‘ziga bog‘i rizvon ayladim.

Muncha, bal yuz muncha ham ermas ekin mingdin biri,
Ulcha men ul oydin ayru shomi hijron ayladim.

Sa’b erur hajr o‘lmang, ey ahbob, oshiq zinhor
Kim, bu ish tahqiqini men ulcha imkon ayladim.

Sevganim bu ahd aro maydur, qani paymonaye
Kim, kishi sevmakdin emdi ahd-u paymon ayladim.

Ey Navoiy, ishq tarkinkim, dedim, ma’zur tut
Kim, muhiqdurmen bu ishda garchi tug‘yon ayladim.

432

Husnunga hayratdin o‘ldi barcha besomonlig‘im,
Men kim-u somon, chu ortar har nafas hayronlig‘im.

Ko‘yida tun-kun kezay dermen nihon qolmas, va lek
Oh o‘ti-yu ashk qoni rangidin pinhonlig‘im.

G‘ayr xoshokin agar sovurmas ersam bas nedur,
Ko‘yi davrida quyundek muncha sargardonlig‘im.

Ul etak qonim bila ko‘rguzdi gulgun hoshiya,
Ne ajab, tutsam ani bu dam chu uldur qonlig‘im.

Tifllar toshi terimni eltibon, qoldi so‘ngak,
Ul pari savdosida bordur ajab uryonlig‘im.

Din-u dunyo naqdini sochtim, chu kirdim dayr aro,
Bu edi avval qadah ichkanda dastafshonlig‘im.

Dedi zohid: ul paridin hur umidi birla kech,
Ey Navoiy, bo‘lmag‘ay bu hadqacha nodonlig‘im.

433

Jonima dog‘e qo‘yuptur la’ling uzra xolkim,
Ko‘ngluma o‘t tushmish andin yuzga burqa’ solkim.

Tushmagay el ko‘ngliga o‘t hamki, aning rashkidin
Biym erur, bo‘lg‘aymen andoq ojiz-u beholkim.

Ashk seli aylagay ko‘yungdin ovora meni,
Bu sifat ovoralig‘din ayla forig‘bolkim.

Garchi majnunmen sening ko‘yungni-o‘q aylab vatan,
Anda-o‘q bo‘lsam bo‘lay bozichayi atfolkim.

Yog‘sa uryon jismima o‘t anda aylarmen qabul,
O‘zga yerda gar yog‘ar gul, aylaram ehmolkim.

Anda yog‘qan tosh erur jannat gulidin yaxshiroq,
Bu jihatdin anda bo‘lmoq istaram pomolkim.

Qatl qilg‘aysen meni bir kun vale aytur ko‘ngul:
Ey Navoiy, kech bu so‘zdin, sen kim, ul iqbol kim?

434

Yuzung g‘amidin erur abri navbahor ko‘zum,
Ne ayb, Yer yuzini qilsa lolazor ko‘zum.

Savod-u qoni bila bir g‘arib lola erur
Ki, lolazor base qildi oshkor ko‘zum.

Ne qoni lola erur, ne savodi dog‘i aning
Ki, qo‘ydi hajr o‘tidin dog‘i intizor ko‘zum.

Agarchi qildi meni xor-u zor ko‘nglum-u bas,
Va lek ayladi ko‘nglumni xor-u zor ko‘zum.

Ne kon-u bahr ekinkim, lab-u tishing g‘amidin
Gul-u sumang‘a qilur la’l-u dur nisor ko‘zum.

Bukim qorardi chu tardoman erdi-yu g‘ammoz
Firoq shomidadur tiyraro‘zgor ko‘zum.

Navoiy, ayla nazar tarkini demang, chunkim
Men ixtiyor etibon, qilmas ixtiyor ko‘zum.

435

Sendin ayru to asiri dardi hijron qolmisham,
Buki o‘lmay qolmisham, holimg‘a hayron qolmisham.

Xonumonimni g‘aming taroji barbod ayladi,
Xonumon borib aloxon-u alomon qolmisham.

Ishq dashtining samumi hullasin aylay panoh,
Xayli g‘am yag‘mosidin mundoqki uryon qolmisham.

Dard-u g‘amdin yoshuna olman kamoli za’fdin,
Xurdabinlarning ko‘zidin garchi pinhon qolmisham.

Dashtdin Farhod-u Majnunni yig‘ib mushfiqlari,
Men g‘arib ul nav’kim, g‘uli biyobon qolmisham.

Vasl davri jomidin ahbob sarmast o‘ldilar,
Dayr aro tek bir man-o‘q maxmuri davron qolmisham.

Ey Navoiy, uchti bulbullar xazonda bog‘din,
Men qanotsiz qush masallik aylab afg‘on qolmisham.

436

Ne ul quloqqa yetar, arzi hol ado qilsam,
Ne ul ko‘ngulga yoqar, naqdi jon fido qilsam.

Ko‘ngul shikofig‘a ul ko‘y tufrog‘i qanikim,
Bu xushkdor-u ila zaxmima davo qilsam.

Kerak quyosh dirami tanga bo‘lsa bay’ona,
Chu Yusufumni iki dahrg‘a baho qilsam.

Fig‘onki, ishq chekar bog‘lab ani bo‘ynumg‘a
Nechaki zuhd-u vara’ pardasin rido qilsam.

Ko‘zumga dahrni har lahza tiyraroq aylar,
Savodi xolingga har necha ko‘z qaro qilsam.

Ishim chu savmaa shayxi bila tuzalmadi, kosh
Ki, emdi maykada pirig‘a iltijo qilsam.

Navoiyo, chu sabo hamnafasdur ul gulga
Ne bo‘ldi, sarsari ohimni gar sabo qilsam.

437

Ko‘ngulni bag‘ir qonidin lola qildim,
Qo‘yub dog‘ pargola-pargola qildim.

Sovug‘ ohdin qatra paykonlaringni
Yurak g‘unchasi javfida jola qildim.

Ko‘zumda ul oy mardum o‘rnini tutti,
Savodin aning davrig‘a hola qildim.

Ne qavmog‘ki, uyg‘onmadi garchi tunlar
Tong otquncha itlar kibi nola qildim.

Ko‘rub obi hayvon yuzinda hubobin,
Tasavvur labing uzra tabxola qildim.

Falak zolining makridin bo‘ldum emin,
Nedinkim, taloqi bu muhtola qildim.

Navoiy sarig‘ yuzida dog‘i idbor
Chu ko‘rdum, gumon sarig‘ lola qildim.

“NUN” HARFINING NOZANINLARINING NOZI “G‘AROYIB”DIN

438

Istaram yuz manzil o‘tkaymen adam sahrosidin,
To zamone ting‘amen olam eli g‘avg‘osidin.

Umr naqdin sarf etay dermen fano bozorida,
To qutulg‘ay xotirim sud-u ziyon savdosidin.

Xushturur vayronaye taskin uchun, lekin yiroq
Yuz ming illiq yo‘l falakning gunbadi miynosidin.

Chiqmayin bu dayrdin mumkin emas bo‘lmoq xalos,
Har kecha yuz ming buti siymin badan yag‘mosidin.

Har so‘ngak yonimda qasdi umr etar, vah, xo‘shaye
Bormu imkonkim, qutulg‘ay muncha mehnat dosidin.

Za’faroniy yuzda gulgun ashk to‘kmak ne osig‘,
Ishva ko‘rgan dahr bog‘ining guli ra’nosidin.

G‘arqa el dafni uchun sardobayedur har hubob,
Ishq vodiysinda ashkim selining daryosidin.

Ishvagarlar dog‘idin jon pardasin ko‘r, ohkim,
Bu harir eskirdi zolim shohlar tamg‘osidin.

Ey Navoiy, dahr bog‘idin qutulmoq istakim,
Bulbul uchqan yaxshiroq zog‘-u zag‘an ma’vosidin.

439

Ko‘ngulni ayladim yuz chok ishqingdin, meni mahzun
Ki, husnung vasfi yozg‘aymen kitobe kog‘azi gulgun.

Ko‘ngulning mazraikim novakingdin bo‘ldi yuz xirman,
Boshoq termak uchun kelgay magar Farhod ila Majnun.

Qabab har tun chekib yuz ming sinon anjum shuoidin,
Magar sabrim sipohig‘a shabixun kelturur gardun.

Labing shavqida ko‘nglum har ne borin boshidin qo‘ydi,
May istab rindi muflis ayladi dastorini marhun.

Ko‘ngulda sho‘xlar nozidin ortar har nafas ohim,
Yonar o‘tqa chu atfol evrushurlar, dud o‘lur afzun.

Mayi la’ling uchun bexudlug‘um andoqdur, ey soqiy
Ki, qotsang tong emas, jomimg‘a kasbi hush uchun afyun.

Ilik zulfungg‘a eltur orzudin yova ayturmen,
Birovdekkim yilon tutmoq uchun og‘zidadur afsun.

To‘kub feruzagun ko‘k motamingg‘a gavhari anjum,
Seni feruza-vu gavhar xayoli aylabon maftun.

Navoiy, nazm lofin qo‘yki, ko‘z bir kunlugi ermas,
Agar yuz yil socharsen ta’b bahridin duri maknun.

440

Bulut hayvon zuloli birla tirguzdi havo jonin,
Sevunmak ashkidin shodob qildi sabza mujgonin.

Emastur sabza-vu lolaki, jola toshidin gardun
Ko‘kartib Yer yuzin har sori zohir ayladi qonin.

Irik nevchundurur shox uzra gulbun bargi suhondek,
Ititmas bo‘lsa bulbul joni uchun g‘uncha paykonin.

Chaman Laylosidin ayru degaysen lola Majnundur
Ki, gardun jola toshidin qonatmish dog‘i hijronin.

Chaman bahri latofat bo‘ldi nayson durlari birla,
Qizil toldin muhayyo qildi har yon shoxi marjonin.

Bu fasl ichra malomat toshidin solim birov qolg‘ay
Ki, chekkay may sumurmakda yuziga jomi qalqonin.

Mayekim, otashin, chiqg‘ay sarig‘ gullar, agar dehqon
Tomizsa qatraye andin suvarur chog‘da bo‘stonin.

Birovkim, dahr bog‘ining firebin bildi, nargisdek
Qadahdin bosh ko‘tarmay surdi ishrat birla davronin.

Guli maqsud ul qondur, Navoiykim, ayog‘ingdin
Chiqar chekkanda maqsad Ka’basi xori mug‘ilonin.

441

Muhabbat rishtasin uzdiki, o‘lturgay bu g‘amnokin,
Magar ul rishta birla tikmish erdi ko‘kragim chokin.

Emas giryon ko‘zum kirpiklarikim, sarsari ohim
Solib mavj ul tengizga bir qiroqqa soldi xoshokin.

Munajjim ko‘nglum o‘ti daf’ig‘a, dedi, topay soat,
Damim dudi aro ne anjumin topti, ne aflokin.

Boshim chopqanda ul chobuk yoshingni asrag‘il, ey ko‘z
Kim, ul sudin yug‘aysen, qon yuqardek bo‘lsa, fitrokin.

Nazar yo‘lin sirishkim pok yub, ko‘z pardasin ochti
Ki, chiqqach pardadin ko‘rgaymen oning chehrayi pokin.

Ko‘zin uyquda ko‘rgach o‘ldum, oyo o‘lmayin netkay,
Kishi gulshanda bexud ko‘rsa turki masti bebokin?

Yuzung ko‘p ochma, gohe so‘z degilkim, aql dehqoni
Ne gul isrofini yaxshi demish, ne g‘uncha imsokin.

O‘gub jannat gulin voiz tilarkim, aylasam savdo
Necha eski diramg‘a Yusufum, vah, ko‘rgil idrokin.

Desam, ul oy borib, chiqmas g‘ami ko‘nglumdin, ayturkim:
— Navoiy, ne ajab, bo‘lmoq qamar — soyir, hajar — sokin.

442

Baski qaddi g‘unchadek el ko‘nglin olib qildi qon,
Gulbuni noz o‘lmish el ko‘nglidin ul sarvi ravon.

Ko‘zlaring xunxorlig‘din doyimo bemor erur,
Boda ko‘p ichkandin andoqkim, bo‘lur el notavon.

Yoshurun husnungda bir onedururkim, jon aro
Ham alif, ham na'l uza dog'im erur ondin nishon.

Yuzidin biynomen, archi yuz chiqarmas pardadin,
Nurdin ko'rmakdur, ammo nur erur ko'zdin nihon.

Ishq komil bo'lsa, mehnat o'qlaridin bok emas,
Ne zarar bulbulg'akim, bo'lg'ay tikandin oshyon.

Ishq bog'ining suyi qondur, ne tong gar oh-u ashk
Anda yoxud otashin gul ochsalar yo arg'uvon.

Subhning har tong erur el g'aflatidin kulgusi,
Mehr xonidin gumon qilmaki, yebdur za'faron.

Topmadim bu dayr holidin xabar, ey mug'bacha,
Bexabar qil meni o'z holimdin emdi bir zamon.

Dard agar budur, Navoiy chiqsa olamdin ne tong,
Mast-u uryon ko'kragiga tosh urub, tortib fig'on.

443

Ishqida yaxshi-yomon bedodidin topman amon,
Yaxshi to qilsam nazar yo'qtur kishi mendin yomon.

Lahza-lahza bosh chekar ishqim sharori, ey rafiq,
Al'amon, shavq-u muhabbat shu'lasidin, al'amon.

Yuz adam mulkiga qo'ydum, kelki, istaydur ko'ngul
Bu uzun yo'l zodi ko'z tikmak yuzungga bir zamon.

O'rtabon ushshoq jismin, g'ofil o'lma ohidin
Kim, zararlig' dud zohir aylar o't tushgan somon.

Kuymagimga novaking paykoni bas, hijronni qo'y,
Xasqa o't solmoq uchun uchqun hamon, do'zax hamon.

Sen magar tug‘qanda kun tug‘qandururkim, zarraye
Farq fahm o‘lmas orangizda nechukkim, tav’amon.

Ul quyosh hajrida ohim o‘qidin vahm etmasa,
Ko‘k temur ichra nihon nechun bo‘luptur osmon?

Vaqtdin ol naqdi ayshingniki, mundoqkim erur
Dam-badam ko‘zdin nihon bo‘lmas anga bo‘lmoq zamon.

Ey Navoiy, telba ko‘nglum dardini anglay desam,
Oncha aytur yovakim, bir lafz andin anglamon.

444

Yuz-u zulfungni sog‘inib kelmisham, ey mahjabin,
Kechani kecha demay, kunduzni kunduz demayin.

Oh-u afg‘on chekma deb, og‘zimg‘a, jono, muhr qo‘y,
Chunki la’ling xotam-u yoquti nobingdur nigin.

La’lining har bir hadisi shahddek shirin erur,
Ore-ore, doyimo gul bargidindur angabin.

La’l uza xat ichra xolingdur nihon yo hinduye,
Sabzada yoshundi shakkar qasdig‘a aylab kamin.

Yangi oy xurshid aro bo‘lmoq ayon ma’hud emas,
Vah, nedur aylab g‘azab solmoq jabining uzra chin.

Sham’ni parvona kuydurmakdin, ey gul, qilma ayb,
Bulbul ermasturmu kul, yo sen emassen otashin.

Ey Navoiy, ochmag‘ay qonimdin o‘zga lolaye,
Har giyah bu yo‘ldakim, qatlimg‘a chekmish tiyg‘i kin.

445

Shikeb uyin buzadur benavo ko‘ngul, netayin?
Xaroblig‘ qiladur mubtalo ko‘ngul, netayin?

Dedingki, asra ko‘ngulni o‘zungda-vu sabr et,
Chu menda turmas-u borur sanga ko‘ngul, netayin?

Ko‘ngulni qaydi junundin chiqar deding, ey aql,
Ketursa boshingga yuz ming balo ko‘ngul, netayin?

Ko‘ngulni o‘tqa solib, ko‘zni istaram o‘ysam,
Baloni ko‘z ketirur jong‘a, yo ko‘ngul, netayin?

Men ul ko‘zi qora ishqin qo‘yub edim billah,
Tahammul etmadi, yuzi qaro ko‘ngul, netayin?

Tag‘oful etsam itarsen, o‘larsen etsam qayd,
Sening bila, degil, ey bevafo ko‘ngul, netayin?

Navoiyo deb eding: Zuhd tarhi bunyod et,
Shikeb uyin buzadur benavo ko‘ngul, netayin?

446

Ne tong, sarig‘ yuzumda ashki rangin
Ki, kiymish sabzi talx ul sabzi shirin.

O‘zi gavhar, to‘ni daryoyi ofat,
Bo‘lub mavji balo ul to‘n uza chin.

Sanga hamrang to‘nluq sho‘xlar bor,
Nechukkim sarv oyog‘inda rayohin.

Erur jismingda axzar xil’at ul nav’
Ki, gulbun bargidin to‘n qilsa nasrin.

445

Shikeb uyin buzadur benavo ko‘ngul, netayin?
Xaroblig‘ qiladur mubtalo ko‘ngul, netayin?

Dedingki, asra ko‘ngulni o‘zungda-vu sabr et,
Chu menda turmas-u borur sanga ko‘ngul, netayin?

Ko‘ngulni qaydi jundin chiqar deding, ey aql,
Ketursa boshingga yuz ming balo ko‘ngul, netayin?

Ko‘ngulni o‘tqa solib, ko‘zni istaram o‘ysam,
Baloni ko‘z ketirur jong‘a, yo ko‘ngul, netayin?

Men ul ko‘zi qora ishqin qo‘yub edim billah,
Tahammul etmadi, yuzi qaro ko‘ngul, netayin?

Tag‘oful etsam itarsen, o‘larsen etsam qayd,
Sening bila, degil, ey bevafo ko‘ngul, netayin?

Navoiyo deb eding: Zuhd tarhi bunyod et,
Shikeb uyin buzadur benavo ko‘ngul, netayin?

446

Ne tong, sarig‘ yuzumda ashki rangin
Ki, kiymish sabzi talx ul sabzi shirin.

O‘zi gavhar, to‘ni daryoyi ofat,
Bo‘lub mavji balo ul to‘n uza chin.

Sanga hamrang to‘nluq sho‘xlar bor,
Nechukkim sarv oyog‘inda rayohin.

Erur jismingda axzar xil’at ul nav’
Ki, gulbun bargidin to‘n qilsa nasrin.

Degaylar sarv qadd-u xil'atingni
Va lekin sarv kim ko'rmish gulogin?

Xating shavqida ko'nglum to'tiyodur
Ki, yo'q zikringdin o'zga anga talqin.

Navoiy, charxi axzardur siyahkor,
Tama' sarsabz bo'lmoq qilma andin.

447

Arg'uvoniy to'nmudurkim kiymish ul sarvi ravon,
Yo magar sarvi ravon qilmish libosin arg'uvon.

Sarvning har bargi bag'rim qonidin serob erur,
Yo'qsa bo'lmas arg'uvoniy barglik sarvi ravon.

Sarvdin to topti ziynat arg'uvon yuz shavq ila,
Boshqa sanchar arg'uvon har zod sarvi navjavon.

Arg'uvon-u sarv istarmen chamanda, to meni
Arg'uvoniy to'n bila ul sarv qildi notavon.

Ko'rguzur qadd-u libosing shavqidin qonlig' mija,
Ko'zda har dam arg'uvon-u sarvdin bir korvon.

Arg'uvoniy to'n bila qatl aylamas ul sarvkim,
Qon ila qilmish libosin arg'uvoniy bir avon.

Arg'uvon-u sarvdin to dahr bog'i zebdur,
Bo'lsun ulkim dahr aro ham shoh erur, ham pahlavon.

448

Ishq aro menmen dame bemehnat-u g'am bo'lmag'an,
Jonidin mahrum o'lub, jonong'a mahram bo'lmag'an.

Yuz vafo aylab, jafodin o‘zga naf’e ko‘rmagan,
Ming jafo ko‘rub, vafosi zarraye kam bo‘lmag‘an.

Ming quyoshcha ko‘rgan o‘z yorin, vale yor ollida
Ming ulushidin biricha zarraning ham bo‘lmag‘an.

Olam ahli ishq aro rasvolig‘im ta’n etmangiz,
Kimdurur oshiq bo‘lub, rasvoyi olam bo‘lmag‘an?

Anjum ermas terdur ohim o‘tidin ko‘k saqfida,
Vahki, bu terdin binoye qolmadi nam bo‘lmag‘an?

Dastgire istakim g‘amdin xalos imkon emas,
Ilki bir zarrin kamar beliga muhkam bo‘lmag‘an.

Ey Navoiy, bilki topmas la’lidin quti hayot,
Jonni taslim aylamaklikda musallam bo‘lmag‘an.

449

Xurshid tulu’ etsa, quyoshing sog‘inurmen,
Ko‘rgach yangi oy milini qoshing sog‘inurmen.

Har gulki jahon gulshanidin jismima, ey sho‘x,
Yetkach, meni savdozada toshing sog‘inurmen.

Ey ko‘z, qurudung, lek qayu seli balokim,
Bir uyni xarob ayladi yoshing sog‘inurmen.

Ey jism, ajal chobuki har go‘ykim o‘ynar,
Maydoni fano ichida boshing sog‘inurmen.

Nay sharhin eshitkach qilib, ey nola, seni yod,
Ko‘z sharhalarin ko‘rsa, xaroshing sog‘inurmen.

Ey xasta ko‘ngul, bo‘lg‘ali sen ishqda majnun,
Ko‘rgach seni sargashta, adoshing sog‘inurmen.

O‘lgan itin, ey xasta Navoiy-u raqibin
Chun ko‘rsam iti ollida loshing sog‘inurmen.

450

Har xazon bargi erur zoreki dahr ozoridin
Sarg‘arib mendek tushar ayru sihiqad yoridin.

Har qurug‘an shox majnundurki tufrog‘ uyiga
Topshirur har dam ilik yub nozanin bemoridin.

Bog‘ aro, demang, xazonkim oshiq o‘lmish men kibi,
Bilgurur sovug‘ nafas birla sarig‘ ruxsoridin.

Har oqar suni xazon tiyg‘i qilibdur zarfishon,
Keskali mehr-u vafo naxlin jahon gulzoridin.

Bu sarig‘ yuz birla o‘lsam ko‘yida, tobutima
Shoxlar bog‘lang xazoniy ishqpechon toridin.

Ko‘yida kuymish ko‘ngul bukim, xazondur bog‘ aro
Esti bir yel, go‘yiyo kuygan g‘aribim soridin.

Kohi yuz birla o‘larmen, Isaviydam soqiyo,
Boda tut xurshid jomi kahrabokirdoridin.

Bodayekim jur’asi tomg‘ach, xazon yafrog‘lari
Tok bargidek qizarg‘ay sarbasar ashjoridin.

451

Shavqdin ashk ichra g‘arq o‘lub, dey olmasmen g‘amin
Kim, tengizda gavhar istar, asramoq kerak damin.

Aysh-u suhbat xaylig‘a tushkay nasimidin vabo,
Qayda solsam zaxmi islang‘an yurakning marhamin.

Paykarim gardin sovurg‘udek esar hijron yeli,
Lutf etib, ey gul, sahobi vaslning yetkur namin.

Qolib etti yangi oyni toq uchun me’mori sun’
Qudrat ilgi bog‘lag‘an soat qoshing toqi xamin.

Ko‘nglakidur chok-u kiz bo‘ynida fonus, ey ajab,
Tutti ul ham sham’dek, g‘am shomi ko‘nglum motamin.

Sham’ chobukluk aro lo‘livashimg‘a yetmadi,
Dudidin har nechakim qildi mutarro parchamin.

Motami hijronda sozedur Navoiy jismikim,
Nolasidin zerini toqmish, o‘kurmakdin — bamin.

452

Meni bedil sanga jon o‘ynamoq birla yaraydurmen,
Bale sen tiflni bu tuhfa birla arg‘adaydurmen.

Labing ko‘rgach, iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, bolni tutmayin barmog‘ yalaydurmen.

Dedim: ko‘nglumga har yondin xadanging nedurur, yoro?
Muhabbat o‘tig‘a, dedi, o‘tundurkim, qalaydurmen.

Chu ahli dard uchun payvasta qosh yosini tortibsen,
Manga-o‘q novakingni xush kushod etkim, qulaydurmen.

Anga yetkur so‘zum, ey ohkim, ul husn mir’oti
Chu qildi jilva, ko‘zgu aksi yanglig‘ aldaraydurmen.

Magar eltur parilar, ey fusungar, telba ko‘nglumni
Ki, turmaydur nechakim jismim uyinda qabaydurmen.

Navoiy telbarab to ul pari ko‘yiga yuzlanmish,
Eshiturmen fig‘on, lekin hadisin anglamaydurmen.

453

Tikmisham majruh ko‘nglum zaxmini g‘am neshidin,
Chiqmasun deb xanjaring zavqi ko‘ngulning reshidin.

La’ldin mahrur edi ko‘nglum, chu fassod ochti qon,
Qatra qonlar yo‘qki,
jonlar tomdi ul dam neshidin.

Qoshi milin olmasa qurbon ko‘nguldin bas manga,
Yo‘qsa ne g‘am cheksa yo qatlimg‘a har dam keshidin.

Ko‘nglum andog‘kim,
itib Majnun otadin tutti tog‘,
Dardi ishq istar qochib aqli salohandeshidin.

Soqiyo, chun davr ishi ma’lum emas, bir may bila
Forig‘ et jonimni aqli xurdadon tashvishidin.

Ul mayekim to‘lg‘ucha paymona ozod aylagay
Bu daniy xumxona durd-u sofining taftishidin.

Asradi munglug‘ Navoiy rishtayi jonin chekib,
Asrag‘andek shohlar sarrishtaye darveshidin.

454

Anglaman sudek yuzungmudur ko‘rungan ko‘zgudin,
Yo yuzungdin ko‘zgu su bo‘ldi, yuzung zohir sudin.

Ro‘baro‘ bo‘lg‘ach yuzung g‘am shomi ollimdin ketar,
Soya tushkandek keyin xurshid bo‘lg‘ach o‘trudin.

Yig‘lamoq chun ayladi da’vo ko‘zum birla bulut,
Barq go‘yo muni fahm aylab yiqildi kulgudin.

Tushta ul mahvash yuziga to ko‘z ochtim har kecha,
Istamasmen **“torfat ul-ayn”**e[1] ko‘z ochmoq uyqudin.

Xoli ul yuz vajhi topqan vajhdin bir go‘shada
Zulfi yanglig‘ to‘lg‘anib boshim quyidur qayg‘udin.

Kom soqiy lablaridin toptim, ammo oldi jon,
Eyki davrondin qo‘sh ichting, g‘ofil o‘lma qorudin.

Borg‘an ermushmen o‘zumdin jilva qilg‘an chog‘da yor,
So‘rmay o‘tmish, ey Navoiy, xudnamoyim bexudin.

455

Yona ne qad jilva qildikim, demakdin lolmen,
Yona qaysi zulf ochildikim, parishonholmen.

Za’fdin qaddim alif bo‘ldi, ul ikki lomi — zulf
Har yonimdin fitnagar, vah, ne ajab, gar lolmen.

Itlaringning izidin yuz gul ko‘zum bog‘idadur,
Shukr erur bu hamki, ishqing yo‘lida pomolmen.

Jismim anduh ichra dard ostida qolmish, ne ajab,
Egma qad birla agar zulfung g‘amidin dolmen.

Itti ul ko‘nglumki, vasl uchun tilar erdi hayot,
Shukr emdi o‘lgali ishqingda forig‘bolmen.

---

[1] **“Torfat ul-ayn”** — ko‘z yumib ochguncha (muddat), bir kiprik qoqquncha (muddat). “To”ni zamma bilan (“turfat ul-ayn” deb) o‘qish butkul xatodir (“G‘iyos ul-lug‘ot”, 2-jild, 25-bet). Bu ibora Qur’on va hadisda keladi; hadisi sharifdan: “Fa lo takilniy nafsiy torfata ’aynin”; ma’nosi: “Bir ko‘z ochib yumguncha muddatda ham meni o‘z nafsimga tashlab qo‘yma!”. Qur’oni Karimda “torfuhum” (ko‘zlari, nigohlari), “torfuka” (ko‘zing) shaklida, “nigoh”, “bir ko‘z tashlash” ma’nosida ham keladi; “Soffat” surasi, 48-oyatida **“Va ’indahum qosirot ut-torfi ’iynun”** (**“Yonlarida nigohlarini** (o‘z juftlaridan boshqadan) **saqlovchi shahlo ko‘zli (hur)lar bordir”** degan ma’noda keladi.

Ishq o‘ti bu nav’kim uryon tanimni churkadi,
Ahli dard uchun fano yuziga mushkin xolmen.

Ey Navoiy, ne ajab yuzum uza yugursa yosh,
Chunki Majnun bo‘lg‘ali bozichayi atfolmen.

456

Vahki, mendin ayru yuz jon, yo‘qsa jononmu ekin?
Manga onsiz ming o‘lum yo dardi hijronmu ekin?

So‘rg‘ali za’fimni la’lidinmu erkin bir hadis,
Yo buzug‘ jismimda maml-u yuz tuman jonmu ekin?

Ravzanimni to yoruttung, kulbam ichra har taraf,
Zarralar soyirmu yoxud mehri raxshonmu ekin?

Olam ahlig‘a labing zikrimudur ratb-ul-lison,
Yo bori olam labo-lab obi hayvonmu ekin?

Zulf aro qadding xayolidin ko‘zum yorutqali
Anbarin yuz sham’ yoxud xayli mujgonmu ekin?

Ko‘ngluma ul yuz-u lab yodimu erkin g‘am tuni,
Yo shabistonim to‘la gulbargi xandonmu ekin?

G‘ayrig‘a boqg‘an uchun ko‘z mardumin qatl ayladim,
Ashki gulgun yoxud aning zaxmidin qonmu ekin?

457

Yaramni tikkali boshing uza bichakmu ekin?
Bichakda rishtayi jonimmu yo ipakmu ekin?

Ko‘z asr-u tiktim aning o‘ymog‘ig‘a, bilmankim,
Ko‘zum oqimu ekin anda yo so‘ngakmu ekin?

Tun uzra oydin-u, oydinda subh erkinmu,
Vayo sochingda burunchak uza lachakmu ekin?

Gul uzra har sori tob urdi sunbulung yoxud
Yuzungda ziynat uchun sanchqan kajakmu ekin?

Labingdin istadi jonim hayot, bilmasmen
Ki, bir so‘kunchmu yo qasdi bir muchakmu ekin?

Bir usruk elni chiqib qirg‘an ermish, ey Lutfiy,
Sening begingmu ekin yo bizing mirakmu ekin?

Navoiy, ushbu parishon hadis ila g‘arazing
Avom xotirini sayd aylamakmu ekin?

458

Yuzung o‘tig‘a tutun zulfi muanbarmu ekin?
Otashin la’ling ul o‘t ichida axgarmu ekin?

Mehr sarchashmasidin qatramu tomdi yoxud
Orazing birla qulog‘ingdagi gavharmu ekin?

G‘am tuni har taraf ohim o‘qi ul oy g‘amida
Charxdin o‘tkanining o‘rnimu, axtarmu ekin?

Muztarib ko‘nglum ekinmu kuyadurgan tan aro
Yo bu otashkada kunjida samandarmu ekin?

Qon ekinmu yangi dog‘im aro, yo hajringda
Jomi gulnoriy ichinda mayi ahmarmu ekin?

Zohid uchmog‘ tiladi yordin-u men ham o‘zin,
Yo Rab, ushbu iki matlub barobarmu ekin?

Ey Navoiy, dema Farhod parishonlig‘idin
Ul bu Majnuncha balo tog‘ida abtarmu ekin?

459

Ulki har tun uyg‘anib, yonida ko‘rmas hamdamin,
Yo‘q ajab gar soyani hamdam qilib aytur g‘amin.

Qo‘ynida af’i, ne mumkin ko‘zga uyqu kirmagi
Ulki har tun yod etar bir zulfning pech-u xamin.

Takya ne imkon tushub bistar aro yuz ming tikan,
Ulki bir mujgon xayoli tiyra qilmish olamin.

Kecha afg‘on qilmasam tong yo‘q, birovkim ko‘ngliga
Hajr o‘qi tevruldi, mushkildur qatiq urmoq damin.

Ne yorug‘ bo‘lg‘ay hayoti sham’i ulkim, ishq anga
G‘am shabistoni aro yog‘durdi hijron shabnamin.

Zaxminga sep, ey ko‘ngul, navmidlig‘ tufrog‘ikim,
Topmadi ko‘k huqqasida kimsa vuslat marhamin.

Charx anjum ashkini sochib, nedin kiymish qaro,
Hajr shomi tutmag‘an bo‘lsa Navoiy motamin?

460

Porso yorim sog‘inmas masjid-u sajjodadin,
Ne uchunkim, to may ichmish, bosh ko‘tarmas bodadin.

Boqmasa tasbih-u mus’haf xattig‘a yo‘q aybkim,
Forig‘ ermas dona nuqli-yu harifi sodadin.

Ro‘zasin siro‘za may qilsa ne tongkim, sa’b erur,
Nasya ummidig‘a kechmak ishrati omodadin.

Tokim ul gulsiz bulut yanglig‘ havoyi bo‘lmisham,
Bazmi ayshi yodidin ashkim qolinmas bodadin.

Mayg‘a jonim rahn etay maxmur esamkim, farz erur
Sarvi ozodig‘a qulluq oshiqi ozodadin.

Kim, qizitti ishq o‘ti birla ko‘ngul, maydin dimog‘,
Ne g‘ami bor nosihi beaql-u shayxi lodadin.

Za’fdin maxmurlug‘ yiqti Navoiy jismini,
Yor ayshi bazmida yod aylang ul uftodadin.

461

Chiqarg‘ach ul mahi mahmilnishin oraz niqobidin,
Jarasdek nola aylarmen ko‘ngulning iztirobidin.

Emas ko‘ksumda eski dog‘lar, bal suqbalardurkim,
Suvabmen to xayoling chiqmag‘ay ko‘nglum xarobidin.

Havoyi ishqing asrarg‘a erur har yon kumush gunbad
Ki, qilmishmen imorat bahri ashkimning hubobidin.

Bag‘irda nishi g‘am o‘lturdi-yu ko‘nglumda yuz g‘amkim,
Iting qut etmagay nogah kuyuk bag‘rim kabobidin.

Tan-u jon zavraqin g‘arq etkali girdobi ofatdur
Quyunlarkim, yugurur ishq dashtining sarobidin.

Qoshi mehrobidin yuz qiblag‘a qo‘y dersen, ey nosih,
Muvajjah deb ekinsen, vahki, ojizmen javobidin.

Xirad mulkini sabrim kishvaridek buzdung, ey soqiy,
Bu selikim ravon qilding qadahpolo sahobidin.

Bu bazm ahlini bot yiqmoqdin o‘zga soqiyi davron
Ne qildi qasd bu nilin qadah davri shitobidin.

Navoiy rishtayi fikri chekar ma’no sumanbo‘yin,
Xush ul tojirki, Yusuf chehra ko‘rguzgay tanobidin.

462

Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin,
Yo ko‘ngul topti Masih anfosidin jon mujdasin.

Yo falak berdi yig‘i ko‘r aylagan Ya’qubning
Ko‘zlari ochilmoq uchun Mohi Kan’on mujdasin.

Ne guli xandon, ne Iysodur, ne Yusuf mujdasi,
Topti bir mahjur o‘lar holatda jonon mujdasin.

G‘uncha erdim g‘am yelidin to‘ng‘a sig‘man g‘unchadek,
To sabo yetkurdi ul sarvi xiromon mujdasin.

Hajr aro, ey payk, agar sen noma yetkursang ne tong,
Tong yeli har kun berur xurshidi tobon mujdasin.

Naqdi jon berdim, musulmonlar, uyatlig‘men hanuz
To eshittim paykdin ul nomusulmon mujdasin.

Ey Navoiy, shomi hijron yig‘larim daf’ o‘ldikim,
Subh yetkurdi sabo gulbargi xandon mujdasin.

463

Yonida bo‘lmasam nafase dardnokmen,
Ko‘rsam yonida g‘ayrni ul dam halokmen.

Jonimg‘a yuz g‘am ignasini tikti ul Masih
To bildikim, quyosh kibi ishqida pokmen.

Vasling taxayyuli-yu men, insofdin emas
Kim, ruhi pok sensen-u men — tiyra xokmen.

Vahm ayla, ey sipehr, bukun ohim o‘qidin
Kim, hajr dardidin yana bevahm-u bokmen.

Juz vasl sharbati manga sud etmas, ey tabib
Kim, men firoq mehnatidin dardnokmen.

Zotimda chun mayi azaliy choshniysi bor,
Har sori mast qo'l solib andoqki tokmen.

Ohim, Navoiyo, nechuk asray ko'ngul aro,
Chun men firoq tiyg'i bila siynachokmen.

464

Ko'nglum ochilmas dame bu badani zordin,
O'ylaki, mahkam tugun inichkarak tordin.

Hajr aro dardimg'a rahm qilmasa ul ko'z ne tong,
Kimsa marazg'a iloj topmadi bemordin.

Orazida toblig' zulfni ko'rgilki, bor
Mus'hafi sherozasi rishtayi zunnordin.

Gar yorutur el ko'zin ko'yi aro ul quyosh,
Baski meni so'rmasa soyayi devordin.

Savmaag'a bormasam ayb yo'q, ey shayxkim,
Hech gilam yo'qturur kulbayi xammordin.

Olam aro yorlig' qolmadi, go'yoki bor
Yorg'a yuz nav' alam har nafase yordin.

Bas manga vayron maqar, sen quvon, ey charxi dun,
Toqi muqarnas bila shamsayi zarkordin.

Necha jafo-vu sitam tortqay ahli vafo,
Dahri jafopeshadin, charxi sitamkordin?

Tan yalang-u bosh ochuq, telba Navoiyg'a boq
Kim, ne bo'lubtur xalos jubba-vu dastordin?

465

Ko‘nglum uyin har nechakim, istasang g‘am topqasen,
Dog‘i hajr-u g‘ussayi besabrlig‘ ham topqasen.

Kam emas oshiq sanga, solsang meni ko‘zdin, vale
Oshiqekim, sodiq o‘lg‘ay men kibi kam topqasen.

No‘shi vasl, eykim tilarsen, nishi hijron ko‘rmayin,
Chun emas bag‘ring jarohatlig‘ ne marham topqasen?

Ne g‘aming yuz zarra sargardonlig‘idin, ey quyosh,
Senki rif’atdin Masiho kibi hamdam topqasen.

Kulma xam qaddimg‘akim, yuklansa ishqing Qof aro,
Ishq ostida yozilg‘an “qof”dek xam topqasen.

Muncha furqat ashki birla bo‘lsa do‘zax maskanim,
Kavlasang yuz qarn o‘tub, xirqam tegin nam topqasen.

Ey nasihatgo‘, Navoiy yaxshidur deb istading,
Bilmadingkim, bo‘yla bir rasvoyi olam topqasen.

466

Yuz balo hijron topar har dam bu mahzun jon uchun,
Tengri go‘yokim yaratmishtur meni hijron uchun.

Hajr uyida man’i ashkimga malomat toshlari
Farsh erur, go‘yo yiqilg‘ur kulbayi vayron uchun.

Qomating hajrinda ko‘nglum so‘rg‘uchi nosih tili
Nishtaredurkim, yorar o‘q zaxmini paykon uchun.

Hajr aro holimni yozdim yod tut, ey navhagar
Kim, base loyiqdurur sen soz etar daston uchun.

Ishq g‘am bazmida egri qaddima jon rishtasin
Tor etib, soz ayladi ko‘nglum chekar afg‘on uchun.

Ajdaho og‘zi bil o‘tlug‘kim, ochiptur qasdinga
Munchakim volihsen, ey bulbul, guli xandon uchun.

Chun Navoiy nomayi shavqin yetursang, ey Rasul,
Tengri haqqi ruq’aye bu zori sargardon uchun.

467

Furqatingdin kechalar o‘rtar meni baxti zabun,
Go‘yiyo men bir yonar o‘tmen, qorong‘uluq — tutun.

Ashk etib g‘ammozlig‘ ko‘nglum buzulsa, ne ajab
Kim, topar ozor yoshlardin mudom ahli junun.

Men tilarmen vasl-u oning ko‘ngli har ag‘yor ila,
Manga ikki tosh arosinda kerak, albatta, un.

Qadding-u ernning havosi jondadur, ayb etmagil,
Bo‘lsa afg‘onim biyik, seli sirishkim la’lgun.

Kim, kafanni yod etar, andin o‘luk ogohroq,
Gar libosin bilsakim, erur katon yoxud katun.

Seli ashkimdin falak g‘amxonasi vayron edi,
Qilmasa erdi jafosi dudi ohimdin sutun.

Ko‘rmasam qoshing bo‘lurmen turg‘anim birla fig‘on,
Voyi erur bas, chu bo‘lmasa “Navoiy” birla “nun”.

468

Sensizin, ey umr, bir soat manga jon bo‘lmasun,
Sen bo‘l-u bas, to‘bi-yu firdavs-u rizvon bo‘lmasun.

Deb emishsen: kuyduray bir dog‘ ila ko‘nglin aning,
Har nechuk dog‘ o‘lsa o‘lsun, dog‘i hijron bo‘lmasun.

Qoshig‘a qilg‘ach sujud, o‘lturdi ul kofir meni,
Hech musulmon yori, yo Rab, nomusulmon bo‘lmasun.

Ishqida jonim uqubatlar bila ol, ey ajal,
To aning oshiqlig‘i hech kimga oson bo‘lmasun.

Ul pari ko‘nglumda mehmon o‘lmish, ey jon, voqif o‘l,
Oh o‘ti dud etmasun, zaxm ichra paykon bo‘lmasun.

Ey ko‘ngul, maste chiqib shahr ichra solmish rustaxez,
Vah, xabar tutkim, bizing beboki nodon bo‘lmasun.

Dedikim: “Jon ber, dog‘i o‘pgil ayog‘im tufrog‘in”.
Ey Navoiy, tezrak bo‘lkim, pushaymon bo‘lmasun.

469

Vaslingg‘a yetibon sog‘inurmen xayol ekin,
Holimni anglaman, manga, yo Rab, ne hol ekin.

Ushshoq ashkidin su ichib bar jafo berur,
Yo Rabki, qomating ne ajoyib nihol ekin.

Zulfungda xol “jim” arosindag‘i nuqtadek,
Yuzungda zulf vard yonindag‘i “dol” ekin.

Har nechakim kuyarmen, aning zarra mehri yo‘q,
Oyoki, toliyim kuni koni zavol ekin.

Dersenki: seni qaysi pari telba aylamish?
Ey bag‘ri tosh, bilib yana bu ne savol ekin?

Zanburning evi kibi ko‘nglum teshuk-teshuk,
La’ling xayoli har teshuk ichinda bol ekin.

Miskin Navoiy jonig‘a ko‘yungda qilma qasd,
Sayd aylamak haram qushin oxir vubol ekin.

470

Ishqing etagin jon iligi birla tutubmen,
Sen kirgali yodimg‘a o‘zumni unutubmen.

Ko‘nglumga kelur har sari o‘q otsa nedinkim,
Jon shirasidin og‘zini aning chuchutubmen.

Yoring, dedilar, g‘ayr bila boda ichibdur,
Tahqiqini bilguncha ne qonlarki yutubmen.

Garm o‘lmangiz, ahbob, tilab vasl charog‘in,
Menkim, yuragim kuydi, ne chog‘lig‘ yorutubmen.

Hajring tuni ollimg‘a ne mehnatki yetibdur,
Vasling kuni yodidin o‘zumni ovutubmen.

Xilvat asari ujb ekanin angladim, ey shayx,
Ayb etma, fano dayrida gar kulba tutubmen.

Ashk ila Navoiy su berur, sabr niholin
Bilmaski, ani ohim o‘tidin qurutubmen.

471

O‘lgumdurur chu furqat ila ishtiyoqdin,
Kel qutqar, ey ajal, meni ushbu firoqdin.

Tong yo‘q qizarsa lola kibi ko‘z, chu mardumi
Har dam g‘amingda qon yutadur ul ayoqdin.

Sen may icharsen el bila, ul g‘amza qon qilur,
Men qon yutub nazora qilurmen yiroqdin.

Atfol sang arbadasi vahmidin dame
Devonalar kibi chiqa olman visoqdin.

Ichtim iting safolida may, vah, qachon yug‘ay,
Hayvon zuloli zavqini aning mazoqdin.

Maydin hayot tutki, beganmas Masihni
Har shabpareki, uchsa bu eski ravoqdin.

Mutrib bila ne ko‘ngli ochilsun Navoiyning
Kim, men firoqdin desam, ul der Iroqdin.

472

Eykim, tanimg‘a jon berasen har tariqdin,
O‘lsam ne, ayru tushqucha sendek rafiqdin.

Belingmudurki, anga qizil fo‘ta bog‘lading,
Yo rishtayeki o‘tkarilibdur aqiqdin.

Savdo-vu rishta zaxmatig‘a uchradi ko‘ngul,
Zulf-u beling xayolida fikri daqiqdin.

Har dam demaki, ko‘z yoshidin sarguzashte ayt,
Daryo fasonasin ne so‘rarsen g‘ariqdin.

Ohim ko‘ngulni ko‘yung aro solsa ne ajab,
Gulzor aro Xalil tushar manjaniqdin[1].

---

[1] **“Gulzor aro Xalil tushar manjaniqdin”** — bayoni Qur’oni Karimda kelgan, Hamrud nomli zolim podshoh va tobelarining hazrati Xalilulloh, ya’ni Ibrohim alayhissalomni manjaniqqa solib olovga otganlariga ishora. “Anbiyo” surasi, 68–69–70-oyatlari ma’nosi: “(Shunda Hamrudning odamlari:) **“Agar** (bir ish) **qilguvchi bo‘lsangizlar, uni** (Ibrohimni) **o‘tga yoqinglar va** (shunday qilib) **ilohlaringizga yordam ber**(gan bo‘l)**inglar!” dedilar.** (U zotni manjaniqqa solib, ulkan bir olovga tashladilar. Hazrati Ibrohim alayhissalomga zulm qilishga qaror etgan bu butparastlarga qarshi: “Alloh menga yetarlidir!” — deya taslimiyat ko‘rsatdilar.) **Biz: “Ey olov! Ibrohim uchun salqin va salomatlik bo‘l!” — dedik. Ular unga hiyla qilmoqchi** (tuzoq qurib, halok etmoqchi) **bo‘ldilar. Biz esa o‘zlarini** (dunyo va oxiratda) **battar ziyonga yo‘liqguvchilar**(dan) **qilib qo‘ydik”** *(M. Kenjabek).*

Zuhd ahli ujb tafriqasidin xalos emas,
Sharti fano firoqdurur ul fariqdin.

Tolpinma ashking ichra Navoiyki, chiqmadi
Hech kimsa g‘o‘ta birla bu bahri amiqdin.

473

G‘amingda har kecha, ey gul’uzor, yig‘larmen,
Saharg‘a tegru chekib intizor yig‘larmen.

Men-u qora kecha, yo‘q nisbatim sanga, ey subh
Ki, sen kularsen-u men sham’vor yig‘larmen.

Burung‘i mehr-u vafo, so‘ngg‘i javr-u zulmingni
Birin-birin sog‘inib zor-zor yig‘larmen.

Kularlar el manga beixtiyorkim, har dam
Eshitsam otini beixtiyor yig‘larmen.

Mungaydi ko‘nglum aningdekki, hazl nag‘masidin
Ki, elga kulgu etar oshkor, yig‘larmen.

Kular sipehri daniy iztirobig‘a ko‘nglum,
Vale o‘zumda ko‘rub iztirob yig‘larmen.

Navoiy, ashkim oqizg‘ay g‘amim tunin mundoq
Ki, charxdek kecha tutmay qaror, yig‘larmen.

474

Lolaning g‘unchasidek ko‘nglum o‘luptur to‘la qon,
Vahki, el g‘ofil-u, kuydurdi meni dog‘i nihon.

Zahri hajr ichkali dermenki, qilay ishqin tark,
Aytqandek kishi muhlik maraz ichra hazayon.

Ro‘zgorimki qaro bo‘ldi, erur ishq asari,
Qayda o‘t tushsa, qarolig‘i qolur yerda nishon.

Ishqing o‘tinki, yoshurdum, el aro yoydi raqib
Kim, isitmani nihon tutsa qilur marg ayon.

Xating ichinda labingning iki xoli ne ajab
Ikkidur nuqta, yozilur esa xat ichinda jon.

Hajr chun qonim ichar har sari qonlig‘ tuganim,
Xon erur ollima, to ko‘ngluma bo‘lmish mehmon.

Charxdin mehr isi topqang‘a takabbur ne ajab,
El dimog‘ig‘a chu go‘gurd o‘ti aylar nuqson.

Xalq ta’n etsa, Navoiy egilib nola qilur
Egri yanglig‘ki, qilur yel asari birla fig‘on.

475

Safhayi husnungda jonbaxsh irning, ey siyminbadan,
O‘xshashurkim, aylagay Iso quyosh ichra vatan[1].

Yo‘q ajab, ey gul, ko‘ngul zaxmi aro novaklaring,
Rasm erur: chun raxna bo‘lg‘an yerga qo‘ymog‘lig‘ tikan.

---

[1] Qur’oni Karimning “Niso” surasi, 156–157–158-oyatlariga ishora, oyat ma’nosi: **156–157. “Ularning** (Iysoga) **kufr keltirganlari, Maryamga** (zino qildi deya) **ulug‘ bo‘hton qilganlari va: “Biz Allohning Rasuli Masih — Iso Maryam o‘g‘lini o‘ldirdik” deganlari sababli** (ularni la’natlab, jazoladik). **Holbuki, ular uni o‘ldirganlari yo‘q, dorga osganlari ham yo‘q. Lekin ularga** (o‘sha vaqt o‘zlari osib o‘ldirgan kishi Iysoga) **o‘xshash qilib ko‘rsatildi. U haqda ixtilof qilganlar** (yahudiy va nasroniylar) **bu borada** (batamom) **shak-shubhadadirlar. Ularning, gumonga ergashishdan boshqa, u bilan bog‘liq hech bir** (ishonchli) **ma’lumoti yo‘q. Va, shubhasizki, uni o‘ldirganlari yo‘q”.** (Zotan, o‘zlari uni aniq o‘ldirgan-o‘ldirmaganlarini ham bilmaydilar.) **158. “Balki, aksincha, Alloh uni** (Iysoni) **O‘z huzuriga ko‘tardi** (va asradi). **Alloh** (har ishida) **mutlaq g‘olib, yagona hukm va hikmat sohibidir”.**

Hasratingdin, bilki, o‘lmishmen, agar ko‘yung aro
Bir gado nogah g‘arib uchun tilar bo‘lsa kafan.

Ko‘zung-u zulf-u qoshingdin injudek bo‘ldi yoshim,
Xalq ushbu vajhdin derlar, ani durri Adan.

Voqif o‘l, ey bog‘bonkim, har taraf gul shaklidin,
Sendek elning qabridurkim zohir etmish bu chaman.

Ko‘nglakining atri jonsiz jismima berdi hayot,
Go‘yiyo el jonidin maxluq o‘luptur ul badan.

Chun Navoiy nazmining har harfidur sharhi g‘aming,
Desa bo‘lurkim erur har bayti bir bayt ul-hazan.

476

Falak sitezasidin bo‘lma, soqiyo, mahzun,
Qadah keturki, erur besabot olami dun.

Manga tama’ karam ahlidin o‘ldi may vajhi,
Yo‘q ersa yer quyi ul ganjkim, yig‘ar Qorun.

Muraqqa’ uzra diram kibi vuslalar ne osig‘
Ki, bir diramg‘a chog‘ir uchun o‘lmag‘ay marhun.

Bu shukr uchun gahe, ey sho‘x, ber nazrki, Xudoy
Seni aziz-u sharif etti, bizni xor-u zabun.

Yema bu lujjayi miyno rumuzi hallig‘a g‘am,
May ichki, topmadi hech kim bu safhag‘a mazmun.

Xumor jonima qasd etti, soqiyo, may ber
Ki, jong‘a solsa bir o‘tkim, boshimg‘a chiqsa tutun.

Navoiy nazmidurur yaxshi, gar quloq solsang,
Tarannumeki qilur o‘zi birla ahli junun.

477

G‘am yelidin, yo Rab, ul gulga g‘ubore bo‘lmasun,
Balki onsiz dahr bog‘ida bahore bo‘lmasun.

Qaddining sarvig‘akim, bog‘i latofat naxlidur,
Chashmayi hayvondin o‘zga jo‘ybore bo‘lmasun.

Aysh-u ishrat jomidin bo‘lsun yuzi gulgul, va lek
Ko‘ngliga g‘am gulbunidin xorxore bo‘lmasun.

Jilvasoz o‘lg‘anda maydon ichra chobuk sho‘xlar
Shoh-u sarxayl andin o‘zga shahsuvore bo‘lmasun.

Gar buyursang sadqa boshig‘a evurmak, ey rafiq,
Budur ummidimki, mendin o‘zga bore bo‘lmasun.

Dahr bog‘ining nasimi sovurur gul xirmanin,
Anga ul gul gulshani sori guzore bo‘lmasun.

Ey Navoiy, qil duo jonig‘a-vu jahd aylakim,
Mayling aning qullug‘idin o‘zga sori bo‘lmasun.

478

Eykim, nafase g‘oyib emassen nazarimdin,
Vahkim, g‘ami hajring oqizur qon jigarimdin.

Rasvolig‘ o‘ti birla tutashib keladurmen,
Ey ahli salomat, qo‘punguz rahguzarimdin.

Sen g‘ofil-u men vahm qilurmen kecha-kunduz,
Bu nolayi shabgir ila ohi saharimdin.

G‘am yelidin ul nav’ o‘tum urdi alamkim,
Yuz barq yasar abri balo har shararimdin.

Beling g‘amidin mo‘ya bila yig‘ladim oncha
Kim, ashk dur-u gavhari o‘tti kamarimdin.

Ey zuhd, yo‘lum urmaki, bu marhala ichra
Maqsadg‘acha sensen biri yuz ming xatarimdin.

Ey ishq, fano yo‘li sari boshlaki, tinman
Gar topsa Navoiy xabar ushbu safarimdin.

479

Ne tirikmen, ne o‘luk, ne sog‘, ne bemormen,
Ayta olmankim, firoqingdin ne yanglig‘ zormen.

Nuqtayi og‘zing g‘amidin tortibon jadvaldek oh,
Ashk selin oqizib sargashta chun pargormen.

Do‘stlar, ko‘nglum hadisin demangiz Tengri uchun
Kim, men ul devonayi sargashtadin bezormen.

Ko‘nglagingdinkim topar jon dam-badam Yusuf isi,
Ey azizim, men ham ul ko‘nglak aro bir tormen.

Bir quyosh hajrinda tundek ro‘zgorim tiyradur,
Tong emas gar tun kibi motam tutub yig‘lormen.

Mayda afyun ezgil, ey mug‘kim, bu eski dayr aro,
Telbararmen g‘ussadin gar bir nafas hushyormen.

Nevchun el dashnom-u ta’nidin bo‘lay oshuftahol?
Ey Navoiy, chun nekim derlar yuz oncha bormen.

480

Sarveki nolishim biyik o‘ldi havosidin,
Yuz ming fig‘onki, ogah emas mubtalosidin.

Ko‘nglumni ko‘zlaridin ayirmangki, chiqmag‘ay
Majnun nasihat ila kiyiklar arosidin.

Men tiyra uyda bexud-u yuz nav’ guftugo‘
Har ko‘ boshinda telbaligim mojarosidin.

Ko‘nglumda toza dog‘laring shaklin istasang,
Fahm ayla o‘tlug‘ ikki ko‘zungning qarosidin.

Quvvat tutar labing g‘amini yeb hazin ko‘ngul,
Go‘yoki qon tavallud etar bu g‘izosidin.

Davlat libosi shahg‘aki, yo‘qtur shikoyatim,
Mug‘ dayri tegrasida gadolig‘ palosidin.

G‘am shomidin Navoiyni netkay xalos etib,
Yorutsang uyini sham’i jamoling ziyosidin.

481

Do‘stlar, bir chora men devonayi shaydo uchun
Kim, o‘larmen ul paripaykar malaksiymo uchun.

Otashin gul tegrasida la’lgun yuz barg emas,
Balki yuz na’l o‘tqa solmish bulbuli shaydo uchun.

Xom ko‘nglumkim, dudog‘ingni tilab afg‘on qilur,
Bor durur ul tifldekkim, yig‘lag‘ay halvo uchun.

Ashk ichinda g‘arqamen, zulfungni tutqaymenmu deb,
O‘ylakim tojir tengiz ranjin chekar savdo uchun.

Turki mastedur ko‘zung uyquda, ko‘z kunjida xol
O‘g‘rikim, qilmish kamin yonida qo‘yg‘an yo uchun.

Gulxaniydekdurki istar gulxan-u olotini,
Siflakim mehnat chekar dunyo-vu mofiho uchun.

Bu Navoiy bandani, ey sarvi ozod, asrakim,
Bo‘yla bir bulbul kerak sendek guli ra’no uchun.

482

Ko‘ngul olurda ajab dilrabo emishtuksen,
Ne dilraboki, baloyi Xudo emishtuksen.

Ko‘ngul berurda sanga bilmas erdim, ey badmehr
Ki, xasta ko‘ngluma mundoq balo emishtuksen.

Tabib ojiz o‘lub oqibat, dedi, bildim
Ki, ishq dardi bila mubtalo emishtuksen!

Gadolig‘ ettim esa bo‘saye, achig‘lanibon
Dediki: Asru uyatsiz gado emishtuksen!

Ko‘ngulni kuydurubon jon olursen, ey yangi dog‘,
Fig‘onki, bir yo‘li ko‘ngli qaro emishtuksen.

Cherik vuhush-u, senga taxt — qulla, ey Majnun,
Fano mamolikida podsho emishtuksen.

Dedim: kamina itingmen, kulub manga aytur:
— Navoiyo, ne balo xudnamo emishtuksen?

483

La’l-u g‘amzang birla baskim nuktadon ustodsen,
Bir nafas borsen Masiho, bir zamon jallodsen.

La’li shavqidinki g‘am tog‘in qozarsen, ey ko‘ngul,
Ne balo Shirin havaslik notavon Farhodsen.

Ahli dillar chehrasi oltun, sirishki siym erur,
Toki siymi nob aro qilding nihon po‘lod sen.

Nargisingdin bir nazar qilg‘ilki asr-u bir yo‘li
Qullaring holidin, ey sarvi ravon, ozodsen.

Nayshakardek qaddinga, vah, bargnay to‘n demakim,
Ishqpechon bargida bo‘lg‘an nihon shamshodsen.

Xurram o‘lmassen sumurmay bir qadah, eykim, mudom
Charxdin ko‘nglung bo‘lub yuz laxt qon noshodsen.

Ey Navoiy, jisminga paykonlaridin langar et,
Yo‘qsa bu ohing yelidin nogahon barbodsen.

484

Yoridin hech kim meningdek zor-u mahjur o‘lmasun,
Jumlayi olamda rasvoliqqa mashhur o‘lmasun.

Men bo‘lay ovora to ishqimdin aylab guftugo‘y,
Oti oning har kishi og‘zig‘a mazkur o‘lmasun.

Jonima bedod-u zulmin, yo Rab, ul miqdor qil
Kim, aning oshiqlig‘i har kimga maqdur o‘lmasun.

Men xud o‘ldum, lek har oshiqki, bordur pokboz,
Navha tortib motamim tutmoqda ma’zur o‘lmasun.

Pand ila ko‘nglum uyin qilma imorat, ey rafiq,
Bizni buzdi, hargiz ul, yo Rabki, ma’mur o‘lmasun.

Kechalar ul gul chekar ermish qadah, ey tong yeli,
Voqif o‘l holimni aytur chog‘da maxmur o‘lmasun.

Yor vaslig‘a quvondim, qovdi ko‘yidin meni,
Ey Navoiy, hech kishi davlatqa mag‘rur o‘lmasun.

Kimki ko‘rsa, vahki, maxfiy ishqim o‘tin fahm etar,
Ruq’asin ochib o‘qurda holatim tag‘yiridin.

Nomasin ochqanda yuz devonalig‘ qilding dema
Kim, xabar yo‘qtur manga, billah, alarning biridin.

Ne fusun qilmish edi bilmanki, yo‘qtur aql-u hush,
Notavon ko‘nglum aro alfozining ta’siridin.

Ruq’ayedur charx chirmashliqki, mazmun suratin
Hech kim fahm etmadi unvonining tasviridin.

Har ne yozmish ollinga kilki qazo ko‘rmak kerak,
Ey Navoiy, qochmoq o‘lmas Tengrining taqdiridin.

487

Kelki, vaslingdin hazin jonimni xursand aylayin,
Sen jigar pargolasin bag‘rimg‘a payvand aylayin.

Chok etib ko‘ksumni mahv aylay seni bag‘rim aro,
Necha bu ummid ila ko‘nglumni xursand aylayin?

Ko‘zda mardum bo‘l, ko‘ngulda jon yerin tut, vah necha,
Ko‘zni mushtoq-u ko‘ngulni orzumand aylayin?

Yuz balo soldi ko‘ngul boshimg‘a, oni, ey rafiq,
Qo‘yki, tishlab-tishlabon parkand-parkand aylayin.

Ne achig‘lanmoqdur andin, ne chuchuk so‘z, ey ko‘ngul,
Xoh achchig‘ yig‘layin, xohi shakarxand aylayin.

Gulshani vaslin tilar jon, yer quyi, jismi zaif,
Necha qudsiy qushqa mundoq torni band aylayin.

Der Navoiy, Vomiq-u Majnundek o‘lg‘il, vah, ne nav’
Kuch bila hush ahlig‘a o‘zumni monand aylayin.

488

Masihodin labing afsah, quyoshtin orazing ahsan,
Quyoshingg‘a falak hayron, Masihingg‘a quyosh maskan.

Ko‘zumda gardi maydoning, tanimda naqdi paykoning,
Anga ko‘z mardumi xozin, munga jon kulbasi maxzan.

Yasarmen yuz maqolat, vah, bo‘lur ko‘rgach ani nogah,
Ko‘zum hayron, tanim larzon, esim volih, tilim alkan.

Shikeb-u sabr uyin buzdiki, ruxsorinda ko‘rguzdi
Xatidin nur uza zulmat, yuzidin o‘t aro gulshan.

To‘karsen qon ko‘zung birla, berursen jon so‘zung birla,
Ajoyib zufununesenki, har fan ichra sen yakfan.

Malomat toshi dog‘idin yorudi ishratim sham’i,
Ajab go‘gurd o‘tidin ayladim bu sham’ni ravshan.

Yasarda sun’ me’mori falak g‘amxonasin go‘yo
Ki, qildi dard-u g‘am kirmakka har kavkabni bir ravzan.

Sen istab Xizr umri, turfa bukim, gunbadi xazro
Yuziga tun qarosin surtubon aylar sanga shevan.

Navoiy, asrabon tamkin, kishidin istama tahsin,
Chu shah ko‘rguzdi istihson, ko‘rub nazmingni mustahsan.

489

Azal naqqoshi tarh aylarda gul bargi namudorin,
Magar pargor qildi bulbuli sargashta minqorin.

Qazo mashshotasi parvonalar jismi kuli birla
Hamonokim, yorutdi sham’ning mir’oti ruxsorin.

Degin, Majnun qaro jonidin uzgan rishtasidindur
Ki, sun' ilgi mutarro qildi Laylo zulfi zunnorin.

Magar Farhod jonidin sizib qonidin etti rang
Qadar suratgari Shirin labi la'li shakarborin.

Tarozu bargi gul, ip rishtayi jon, tosh la'l etti
Chekarda xozini hikmat labing yoquti miqdorin.

Qarog'larim emastur, balki topqach ko'zga qoqmishmen,
Itardin vahm etib, raxshing sitomin, balki mismorin.

Ayog'ing kirpigimdin og'rig'an bo'lsa, yorib ko'ksum
Isiq qonimg'a qo'ykim, ul xino-o'q cheksun ozorin.

Xarobot ahli ur-u dog', derkim, kuydurung, soqiy,
Davo yo'q sirmabon qochmoqdin o'zga shayx dastorin.

Magar bo'ldi quyun tufrog' ila yel, may, su birla o't,
Yasarda masti sargardon Navoiy xilqati zorin.

490

Rashkdin dermenki mehr itsun sipehr ayvonidin,
Bori itqay soya ayvon ichra oning yonidin.

Ko'ksuma urmoqqa olg'an toshqa o'qi tegdi, lek
Qildi kul jismimni o'tkim, sekridi paykonidin.

Otashin ochildi ichkach bog'ning oq gullari
Ashk ila har qatrayekim, bordi bag'rim qonidin.

Anjum ermaskim, falak mir'oti ichra tushti aks,
Baski, dur sochildi yer uzra ko'zum Ummonidin.

Dema nolangdin yumulmas ko'zlarimkim, tong emas,
Kelmasa bemorlarg'a uyqu it afg'onidin.

Mehrning ermas shafaq ichra shuoiy xatlari,
Hajr zulmi qon to‘kar har shom aning mujgonidin.

Jon olur la’lim hadisi, deb meni qo‘rqutmag‘il
Kim, bu bir so‘zdurki, aytursen Navoiy jonidin.

491

Ko‘rubmen kirpiging boshtin ayog‘ teshkan ko‘ngul holin,
Qushedurkim, tiriklay yulmish o‘lg‘aylar par-u bolin.

Ekib tuxmini andoqkim ochilg‘ay bo‘stonafro‘z,
Ochar xunoba ko‘z bog‘ida eksam donayi xolin.

Jamolin va’d agar debmen, ko‘p etma, ey arab, hayrat
Yuzi aynin ko‘rub har yon nazar qil zulfdin dolin.

Tanimnikim, quruptur xomadek nol o‘qlaringdindur,
Qalam qilsang qil, ammo tashlama har yon chekib nolin.

Bu majnun qatlin ul tifli parivash istamas bo‘lsa,
Nedin toshlar bila qasdimg‘a soldi shahr atfolin?

G‘amin ko‘rmang balo tog‘ida la’li shavqidin jonni
Ki, har bir toshidin sotmas abad umrig‘a misqolin.

Chu bo‘lmas sham’siz parvona-vu gul birladur bulbul,
Firoq o‘rtar ko‘ngulni chun ko‘rar vasl ichra amsolin.

Sabuhiy jom ila xushmen, nechuk xush bo‘lmag‘ay ulkim,
Munungdek axtari farxunda qilg‘ay subh aning folin.

Javod ilgida piri dayrning may zavraqin ko‘rsun,
Birovkim, ko‘rmamish daryo ichinda jung timsolin.

Shah egnida murassa’ tugmalig xil’atqa bermasmen,
Yig‘ochlar birla ollin tevrabon kiygan fano sholin.

Navoiy, istasang ko‘yin, itiga oshno bo‘lg‘il,
Yaling‘an yanglig‘ ul it oshnog‘a, sen anga yolin.

492

Shahid o‘lsam libosi lolagun sarvi ravonimdin,
Yasang qabrim uza mile, bo‘yang gulrang qonimdin.

Ko‘rub tumordek chirmanmog‘im hajrida rahm etmas
Ki, g‘ofildur ichimda har taraf dog‘i nihonimdin.

Quruq tandinki, qilding sharha-sharha, nola tortormen,
Ne tong vajd o‘lsa elga dam-badam naydek fig‘onimdin.

Alifsiz jon kibi yo‘q ul paridin o‘zga mavjude,
Hazin jonimda to hijron xadangi chiqti jonimdin.

Ko‘runub zulfining tori, ko‘runmas za’fdin jismim
Nedinkim ul tavonoroqdurur bu notavonimdin.

Ko‘ngul, ko‘z o‘t-u selidin kelib holim ko‘ra olmas,
Maloyik ravzanimdin, bal xaloyiq ostonimdin.

Erur qotildin etmak orzu jonbaxshliq rasmi,
Umidi mehribonlig‘ bog‘lamoq nomehribonimdin.

Meni uyqug‘a solmish dahr bog‘ining nasimi, vah,
Ne gul tergaymen ushbu tushta ko‘rgan bo‘stonimdin.

Navoiy, bilki topmishmen nishon maqsuddin beshak,
O‘shal kunkim, nishone topmasang istab nishonimdin.

493

Sog‘inmang soya g‘am shomi malul ermas fig‘onimdin,
Bosib o‘lturmasam, yuz qatla qochqay erdi yonimdin.

Uchuq zaxmi labingda bilgurur-bilgurmasun ko‘rduk,
Nishona kimki istar jon aro dog‘i nihonimdin.

Baliyyat shohidi gulguna qilsa bas munosibdur
Momug‘larkim, yara og‘zida gulgun bo‘ldi qonimdin.

Ichimda baski, to‘ldi novaking har yon alif ermas
Ki, raglardek o‘qung bilgurdi jismi notavonimdin.

Ko‘z ichra uyqu xayli gar kira olmas, ajab ermas
Ki, xoli **“torfat ul-ayn”**e[1] emas ashki ravonimdin.

Dema roviy: “Erur Farhod-u Majnun qissasi muhlik”.
Ani alqissa bir dol-u alif bil dostonimdin.

Yuzumni, ey bahori husn, qon yosh ichra ko‘rgulkim,
Yuzung shavqida ne gullar zuhur etti xazonimdin.

Ulus taklifidin ko‘p xasta qildim jonni, vah emdi,
Yaqindur o‘lgamen, baskim, xijilmen xasta jonimdin.

Navoiy, vaqtni toatqa yo ishratqa sarf etkim,
Sog‘insam o‘rtanurmen tiyra o‘tkargan zamonimdin.

494

Mehr ko‘rsa har kishi o‘z dilbari zebosidin,
O‘rtanur munglug‘ ko‘ngul bemehrim istig‘nosidin.

---

[1] **“Torfat ul-ayn”** — ko‘z yumib ochguncha (muddat), bir kiprik qoqquncha (muddat). “To”ni zamma bilan (“turfat ul-ayn” deb) o‘qish butkul xatodir (“G‘iyos ul-lug‘ot”, 2-jild, 25-bet). Bu ibora Qur’on va hadisda keladi; hadisi sharifdan: “Fa lo takilniy nafsiy torfata ’aynin”; ma’nosi: “Bir ko‘z ochib yumguncha muddatda ham meni o‘z nafsimga tashlab qo‘yma!”. Qur’oni Karimda “torfuhum” (ko‘zlari, nigohlari), “torfuka” (ko‘zing) shaklida, “nigoh”, “bir ko‘z tashlash” ma’nosida ham keladi; “Soffat” surasi, 48-oyatida **“Va ’indahum qosirot ut-torfi ’iynun”** (**“Yonlarida nigohlarini** (o‘z juftlaridan boshqadan) **saqlovchi shahlo ko‘zli (hur)lar bordir”** degan ma’noda keladi.

Ey musulmonlar, netib so‘rmoq tamannosin qilay,
Menki bir so‘kmak tilab topman labi go‘yosidin.

Qaddi ra’nosidin elga jilvayi vaslin netay,
Chun menga yo‘q juz dur bo‘lmoq guli ra’nosidin?

Yetkurub elga labi jonbaxshidin quti hayot,
Juz o‘lum hukmi manga yo‘q la’li ruhafzosidin.

Tong yeli, tund esma ul yonkim, uyumaydur kecha
Itlari faryodi-yu ushshoqining g‘avg‘osidin.

Qon yutarmen durdi sog‘ar shavqidin, ey piri dayr,
Sog‘are ber, mug‘bacha la’li qadahpaymosidin.

Ey Navoiy, shukr qil zulm etsa ul sultoni husn
Kim, qayu qul sencha topti tarbiyat mirzosidin.

495

To‘la qondur ko‘zumning halqasi to qoldi yorimdin,
Magar tushmish qorasi toza dog‘i intizorimdin.

Kavokib demagil, gardun ko‘zi go‘yo yosharmishdur,
Tutundinkim, chiqar gardun sari sham’i mazorimdin.

Yaramg‘a hech marhamdin yetishmas oncha rohatkim,
Chiqarib til iting qonin yalar jismi figorimdin.

Men ul oy rashkidinkim, el ko‘rar, tufrog‘ agar bo‘lsam,
Ko‘rar el ko‘zlarin ko‘r ayla, ey gardun, g‘uborimdin.

Egarmas ko‘k hisori davrig‘a turki falak ko‘rgach,
Evurmak ashhabin bir xisht uza chobuksuvorimdin.

Erur qonlig‘ ko‘ngulda ko‘zlaring, vah, turfadur asru
Ki, chiqmaslar dame ul ikki jayran lolazorimdin.

Ichib gar tutmasang erdi qadah, ey no‘shlab soqiy,
Ne imkon erdi qutqarmoq meni muhlik xumorimdin.

Meni yozg‘urmangiz qilsam sabuhiykim, azal subhi
Chiqiptur ixtiyor ilgimdin-u ish ixtiyorimdin.

Inoyat yomg‘uri ollida daf’i sahl erur, garchi
Yog‘ar idbor gardi, ey Navoiy, ro‘zgorimdin.

496

Meni zaifni sargashta ayladi gardun,
Shitob-u davr ila xoshokni nechukki quyun.

Tutashti telba ko‘ngul ul pari uzoridin,
Bu o‘tni gul sog‘inib, vahki, kuydi ul majnun.

Hubob onchaki Jayxun uza erur mumkin,
Tasavvur ayla ko‘zumning hubobidin gardun.

Yuzung shahidlari tufrog‘in sovurmish yel,
Bukim bulut ko‘runur ko‘kta har taraf gulgun.

Ne ayb, shodlig‘ ashkim ko‘p oqsa vaslingda,
Bahor fasli bo‘lur chashmalar suyi afzun.

Qadingg‘a sarv bosh indurmamish emas aksi
Ki, dahr adab qilur ani solib su ichra nigun.

Ushotib o‘qini mahzun ko‘ngulni sindurmang
Ki, ev shikast topar har qachonki, sindi sutun.

Yer ostidin kup ila la’lni chiqar, ey mug‘
Ki, bordi yer quyi chun so‘z eshitmadi Qorun.

G‘am o‘lturur meni, qo‘y pand-u bir qadah berkim,
Qilur bu zahrni taryok daf’, yo‘q afyun.

Navoiy, istar esang saltanat, fano bo‘lkim,
Jahon zabunung erur, bo‘lmasang jahong‘a zabun.

497

Yelga berdi kuydurub ul gul tanim xokistarin,
Otashin gul hajri sovurg‘an kibi bulbul parin.

Anglaman bulbul qiziq ko‘nglimudur, yo atr uchun
G‘unchasidin gul murattab qildi o‘tlug‘ mijmarin.

Bargi guldur, yo‘qsa bulbulning tutashmish har pari,
Baski, yorutdi sabo gul mijmarining axgarin.

Gul emastur, balki bulbul oshyonin o‘rtagan
Ishq o‘ti bil, ko‘rsang oning davr-u lavni ahmarin.

Qo‘y gul-u bulbulni, gulgun may to‘la tut bulbula,
To o‘quy bulbul maqolotin ochib gul daftarin.

Dahr bog‘ida gul-u bulbulg‘a yo‘q barg-u navo,
Solmadi bu g‘ussadin nargis ilikdin sog‘arin.

Soqiyo, hayvon suyin mamzuj qilsang ichmagay,
Gar Navoiy topmasa may ichra la’ling javharin.

498

Nihon ishqingki ko‘nglum ichra tushti yuz sharor andin,
Nihoniy dog‘lar qolmish ichimda yodgor andin.

Muqavvas qoshlaringning naqshidin giryon ko‘zum bo‘lmish
Bulutdekkim, bo‘lur qavsi quzahlar oshkor andin.

Bo‘luptur sarvinozim husn sham’i, boshida aning
Bo‘rk zar rishtasi ulkim, yonar bir necha tor andin.

Buzug‘ ko‘nglumki atrofida ul yuz shavqidin qondur,
Erur vayronayekim, lolalar butgay bahor andin.

Ne kirpiklar ekin ulkim, taxayyul aylamak birla
Bo‘lur jism ichra har dam jonim andomi figor andin.

Qadi naxlidin o‘lsam, do‘stlar, budur vasiyatkim,
Boshim uzra ekib sarve, qiling mili mazor andin.

Jafodin yumsa ko‘z taskin topar ko‘nglum o‘ti, go‘yo
Qarori yo‘q ko‘zi har dam olur sabr-u qaror andin.

Jahon bahri emish muhlik, tuman ming shukrkim, garchi
Ko‘p urdum dastupo, tuttum va lek oxir kanor andin.

Navoiy yanglig‘ o‘lmish xonaqah ahli suruk majnun,
Magarkim sarxush o‘tmish ul pari devonavor andin.

499

Dema mehnat tog‘ining Farhodi sargardonimen,
Toza yuz ming dog‘ ila ul qullaning qaplonimen.

Lam’ayi ruxsoridin parvonadek kuysam ne tong
Menki, yillar ul malohat sham’i sargardonimen.

Husnunga hayron esam, kelmas ulus hayronlig‘i
Kimki, hayroning emastur, men aning hayronimen.

Men o‘lar holatda-vu jon qasdi aylar ul pari,
Odamiylig‘ ko‘rg‘uzurkim, bir nafas mehmonimen.

Gar ko‘ngul buzdi meni, yor erdi bois shukrkim,
Chug‘zning yo‘q, bir malohat ganjining vayronimen.

Dayr piri tutsa may, no‘sh etsam ermas aybkim,
Zahr agar ich derkim, oning bandayi farmonimen.

Telbalikdin aql sori istamish zohid meni,
Ey Navoiy, muncha nodon bilmas erdim oni men.

500

Subhi vaslin elga ko‘rgandin parishonmen bugun,
Shomi hajrin ulki nafy ettim, pushaymonmen bugun.

Subhi vasl ul, shomi hijron bu, meni sargashta, vah,
Naylagaymen deb, o‘z ahvolimg‘a hayronmen bugun.

Qayda bilgaymen visol ahli nishot-u ayshini
Menki, zor-u mubtaloyi dardi hijronmen bugun.

Doimo mehmonim erdi yor ko‘yi itlari,
Jam’ o‘lupturlarki, men borig‘a mehmonmen bugun.

Parlar o‘rnig‘a baliyyat o‘qlarining zaxmidur,
Menki parsiz qush kibi hajringda uryonmen bugun.

Soqiyo, bir may bila vahmimni kamroq aylakim,
Shomi hajr osibidin behad harosonmen bugun.

Chun xayoli mehmonimdur Navoiy, ne ajab,
Gar taxayyul shaxsidek ko‘zlarga pinhonmen bugun.

501

Firoqinda ko‘zumdin yig‘lamoq bo‘lg‘aymu kam bir kun,
Kulub kirgaymu vayron kulbam ichra ul sanam bir kun?

Maloyik, tarqashingkim, ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen,
Teshib o‘tgay falakni ohim o‘tidin alam bir kun.

Harimi vaslig‘a mahramlar, oxir shukr eting, kulmang,
Meni mahrum debkim, men ham erdim muhtaram bir kun.

Fasonam yozg‘uchi, bilkim, bitik uzra sochar kuldek,
Kuyub sochilg‘usi kog‘azga ilgingdin qalam bir kun.

Emas g‘am shomi anjum, qatralar ohim tafidin bil,
Ne tong kun ko‘zgusin gar tiyra qilsa ushbu nam bir kun.

Eshittim, telba it ko‘yida qatl aylar emish, ayting
Kim, ul ko‘y itlaridin erdi bu devona ham bir kun.

Talab dashtida yillar po‘ya aylab, vahki, to yettim
Harimi vaslig‘a derkim, bo‘lur tavfi haram bir kun.

Ko‘nguldin tavba qaydin raf’ qilmas xonaqah shayxi,
Magarkim, dayr piri zohir etkay bu karam bir kun.

Navoiy, ruhparvar nukta-vu muhlik tajarruddin
Ajab,
gar qo‘ymag‘ay ko‘kka Masihodek qadam bir kun.

502

Jamoling shavqidin g‘am shomi kuymak ibtilosidin,
Ko‘zum sham’i kul aylaptur ayon qonlig‘ qarosidin.

Firoqingda tugan uzra tugan qo‘ydum, ne hosilkim,
Manga un bo‘lmadi hosil, bu ikki tosh arosidin.

Quyoshni Yusufum bay’ig‘a bermak bor esa mumkin,
Degaymen tangayi bay’onadur, ermas bahosidin.

Chekay ishqing yukin deb,
xasta ko‘nglum qon yutub g‘am yer,
Ne quvvat kasb eta olg‘ay bu sharbat, ul g‘izosidin.

Jafosi tirguzur elni-yu men bu ayshdin mahrum,
Musulmonlar, bilingkim, o‘lgum ul kofir jafosidin.

Erur majnun ko‘ngulda yuz girihkim, ne sababdindur
Musalsal qissalar el ichra zulfung mojarosidin.

Xumori hajrdindur tiyra ko‘z-u ko‘nglum, ey soqiy,
Yorutqil ham jamoling sham’idin, ham may safosidin.

Gar o‘lsam, dayr piri bog‘la belim zunnor ila mahkam!
Manga tobutpo‘sh aylab fano dayri palosidin.

Adam farshida to qo‘ydi fano toshi uza boshin,
Navoiy or etar yer nat’i-yu ko‘k muttakosidin.

503

Man’ qilmas ashk la’lingdin tutashqon jon o‘tin,
Past ne nav’ aylagay daryo suyi marjon o‘tin.

Ulki aytur hajr taskini uchun dog‘ o‘rtagil,
Ko‘rmamish boshtin oyog‘im o‘rtagan hijron o‘tin.

Ishq dashtining samumidin gumon etkay quyun,
Vodiyi hijron aro ko‘rgan bu sargardon o‘tin.

Bul ajablig‘ ishq aro ko‘rgilki, ko‘nglum cheksa oh
Zaxmi og‘zidin musha’biddek sochar har yon o‘tin.

Otashin guldin qizarmish bog‘ yoxud andalib,
Urdi gulbunlarg‘a gul hijronidin afg‘on o‘tin.

Charx uza ermas shafaqkim, o‘rtanurga ahli dard
Tez etar har tun qazo otashgahi davron o‘tin.

Ey Navoiy, har nasim ul gul harimi tavfidin
Kim, yetar ravshan qilur ko‘nglumdagi hirmon o‘tin.

504

Sirishk qonin ayog‘ing uchun xino qilayin,
Qabul tushsa qarog‘im ezib qaro qilayin.

Aqiqi la’linga jon javharin nisor aylay,
Savodi xolingg‘a ko‘z mardumin fido qilayin.

Qaro menging bila qadding xayoli kelsa, vatan
Munga ko‘z ichra yasay, anga jon aro qilayin.

Qadingki soya soliptur, ulay anga, ya’ni
Ki, ishq ilmin alifbedin ibtido qilayin.

Labini qasdima tishlar, yuziga telmursam,
Boqib turub necha o‘z jonima jafo qilayin.

Ko‘ngul qushikim erur jilvagahi gulshani quds,
Bu domgohda nedin ani mubtalo qilayin.

Navoiyo, g‘amim ahli vara’din o‘lmadi kam,
Qo‘y emdi maykada piriga iltijo qilayin.

505

Chekkanda naqqoshi qazo ul sarvi gulrux suratin,
Go‘yo beganmay tashlamish tarh aylab oy, kun hay’atin.

To jilva qildi ul sanam, Laylo so‘zi bo‘ldi adam,
Savdom o‘ti chekkach alam, past etti Majnun shuhratin.

Ruxsor ochib ul siymbar, qomatni aylab jilvagar,
Uzdi-yu kesdi sarbasar gul rag‘batin, sarv ulfatin.

Ko‘nglum yuzung bechorasi, jonim labing xunxorasi,
So‘r, ey jahon ayyorasi, gohe alarning holatin.

Taqvo evi hamvor erur, subham ipi zunnor erur,
Uy kulbayi xammor erur, to ko‘rdum ul Chin lu’batin.

Jannatqa qilmasmen nuzul, ul ko‘y aro topsam vusul,
Do‘zaxni aylarmen qabul, ammo yo‘q oning furqatin.

Aylab salosil orzu, ortar jununum mo‘-bamo‘,
Nogah nasimi mushkbo‘ yetkursa zulfung nakhatin.

Ish sirrin oyo kim bilur, kimdin bu mushkil ochilur,
Vahkim, bu g‘am muhlik qilur, har lahza ko‘nglum holatin.

Bo‘lg‘il, Navoiy, ro‘ ba rah, qilg‘il fano ko‘yin panah,
Tark ayla zuhd-u xonaqah, qil dayr piri xidmatin.

“VOV” HARFINING VALOHIYAT AFZOLARINING VAQOYII “G‘AROYIB”DIN

506

Vafo ahlig‘a davrondin yetar javr-u jafo asru,
Jafosidin aning ozurdadur ahli vafo asru.

Bukim, ahli vafo noyob erurlar andin erkinkim,
Bu eski toq alarg‘a yog‘durur gardi balo asru.

Falak dardi iloji chiqmay andin kimsa topmaydur,
Magar noyob erur ul huqqa ichra bu davo asru.

Garonjonlig‘ni qo‘y, jon ber, tilar bo‘lsang duri maqsud
Ki, olamda og‘irdur ushbu javharg‘a baho asru.

Fido jonimni aylab, olam ahlidin tama’ qildim
Vafo, astag‘firulloh, qilg‘an ermishmen xato asru.

Rizo ahlin siyosat tig‘idin qo‘rqutmag‘il, ey shah
Ki, qatlingdin sening qo‘rqarg‘a o‘lmaydur gado asru.

Tabiat chohidin ruhungni qutqarkim, xush ermastur
Qafas qaydi aro bulbulg‘a bo‘lmoq mubtalo asru.

Chu kavsar jomi zikri qilmadi raf’ o‘zlugum qaydin,
Bu ranjimg‘a hamono naf’ etar jomi fano asru.

Havoyi gulshani quds et, Navoiykim, xush ermastur
Zag‘anlar birla bu gulshanda bo‘lmoq benavo asru.

507

Yor mustag‘ni-yu muhlik g‘ami hijron asru,
Ohkim, qolmisham o‘z holima hayron asru.

Raxnalar soldi o‘qung kasrati ko‘nglum uyiga,
Ul yog‘in ayladi bu kulbani vayron asru.

Ey rafiq, o‘qini zaxmimdin agar chekting, lek
Yetadur jonima ko‘nglumdagi paykon asru.

Shayx taklifi namoz etti, vale bilmaskim
Ishq tiyg‘i yarasidin boradur qon asru.

Noz etib g‘amza o‘qin gar otar, ey jon, asra
Kim, otar g‘amza o‘qin noz ila jonon asru.

G‘ussa jomiki bu davr ichra labo-labdur, ani
Vahki, bot-bot tutadur soqiyi davron asru.

Ey Navoiy, dema iqboli baqo mushkil erur,
Foniy o‘lg‘ang‘a erur ushbu ish oson asru.

508

Yuzungda may guli yo gul ochilg‘an bo‘stondur bu,
Gulungda qatra xay bo‘stondag‘i sudin nishondur bu.

Ko‘zumda qatra qonlar bog‘lag‘an ermas hamonokim,
Nazar bog‘ida shavqingdin ochilg‘an arg‘uvondur bu.

Emas vasling tilab uchqan ko‘zum atrofida kirpik
Kim, ul daryoyi qushlarg‘a qamishdin oshyondur bu.

Ko‘nguldin chiqqon ohim aylar afzun xalq savdosin
Ki, shaydolig‘ diyoridin yetishgan korvondur bu.

Qizil ranglar ko‘zumda ko‘rgan anglar ashk selinkim,
Oqarg‘a kelgan ul yo‘llar bila har sori qondur bu.

Labindin xastadur ko‘nglum dam ochma, ey Masih, o‘tkim,
Ilojin yuz seningdekning beganmas notavondur bu.

Quyundek dasht aro ko‘rsang meni,
ko‘p qochmakim, har dam
Boshingg‘a evrulur sargashtayi bexonumondur bu.

Ko‘ngul mayxona romi, xotirim xush may batidinkim,
Munga Ruh ul-amindur[1] ul, anga dor ul-amondur bu.

Dema, hijron tuni har dam yetar ul oyg‘a faryodim,
Ul oy faryodinga yetmas, Navoiy, ne fig‘ondur bu.

509

Hajrida ko‘nglumga bor ul la’li serob orzu,
Ne ajab maxmur qilsa bodayi nob orzu.

[1] **Ruh ul-amin** — omonatdor, ishonchli Ruh, farishta Jabroil alayhissalom.

Ul pari majnuni o‘ldum bu sababdinkim, erur
Zulfining zanjiridin bo‘ynumg‘a qullob orzu.

La’lidin behush bo‘lmog‘liq havasdur jonima,
Kimga, vahkim,
bo‘lmag‘ay mundoq shakarxob orzu?!

Ittim og‘zin istabon men, yo‘q tamannolig‘ni, voy
Kim, adam yo‘lida gum qildi bu noyob orzu.

Ko‘rdum ul but qoshlari, kofirmen ar islomi bor —
Ka’ba ahli qilmasa bu nav’ mehrob orzu.

Faqr ko‘yining qora sholi bila gulxan kulin
Topqali, billahki, qilman kish-u sinjob orzu.

Gar Navoiy tarki ishq etti havas, o‘lturmakim,
Chin emastur, aylamish bu ishni o‘ynab orzu.

510

Har yon ul yuzda ter oqizdingmu,
Yo oqar mehr chashmasidin su?

Qoldi xoling ter ostida, yoxud
Damin asrar sug‘a cho‘mub hindu?

Terdin ul yuzga bo‘lmish o‘zga safo,
Qatradin garchi tiyradur ko‘zgu.

Gulda shabnam ajab xud ermas, lek
Oyda anjum g‘arib erur asru.

Senda ter, menda ashkdur yuz uza,
Yig‘lasam men, sanga kelur kulgu.

Uyolib ter oqizdi anjum emas,
Shomi hajrida torami miynu.

Der Navoiyki: g‘ayr emas mavjud,
Turfa so‘z: **“Lo iloha illo hu”**[1].

511

Seli ashkim birla tutmish jumlayi olamni su,
Jumlayi olam nekim, bu nilgun toramni su.

Aylagandek mardumi obiy burun ko‘z mardumin,
Emdi ul nav’ aylamish xayli bani Odamni su.

Bahri ashkim yetkurur har dam quyoshqa bir hubob,
O‘ylakim, yetkurdi Kayxusravg‘a jomi Jamni su.

Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig‘ butkay ul,
Chunki qo‘ymas yorag‘a yopushqali marhamni su.

Istangiz ko‘nglumnikim, sahroda ashkim selidin
Qayda soldi erkin ul bemori devonamni su.

Davrdin g‘amginmen, ey soqiy, qadah selini quy,
Bo‘g‘zuma to eltkay ko‘nglum uyidin g‘amni su.

Ey Navoiy, o‘yla nazm etting bu durri obdor
Kim, ajab yo‘q rashhasidin gar tutar olamni su.

512

Beling-u zulfung xayolin sharh etarmen mo‘-bamo‘,
Tashnadurmen la’linga to bordurur jonimda su.

---

[1] Qur’oni Karim “Hashr” surasi, 22-oyat ifodasi: “Undan boshqa iloh yo‘q”. Oyat ma’nosi: **“U** (shunday) **Allohdirki, Undan boshqa hech bir iloh yo‘q. U yashirin narsani ham, oshkor narsani ham bilguvchidir. U Rahmondir, Rahiymdir — behad mehribon, benihoyat rahmlidir”.**

Orzu aylar labing ollinda jon bermakni Xizr,
Xizr suyidin o‘luk umr aylagandek orzu.

Sharbati la’ling qo‘yub no‘sh aylagan hayvon suyi
Bo‘lg‘ay andoqkim, qo‘yub hayvon suyin ichkay og‘u.

Sunbulungni qilg‘ali oshufta yo‘l topmas nasim,
Baski atrofidadur shaydo ko‘ngullardin g‘ulu.

Terlagan yuz qatrasidinkim, yuzum qonin yudung,
Vah, ne deykim, ishq aro toptim ne yanglig‘ obro‘.

Ko‘nglaking lavnidin o‘ldum, atridin toptim hayot,
Qaysi gul barginda bor erkin bu yanglig‘ rang-u bo‘.

Ey Navoiy, yor sarvaqtingg‘a yetmak istasang,
Oh-u ashkingdin supur vaqting harimin, balki yu.

513

Ul oyg‘a ne g‘am, tushsa bu devonadin ayru,
Bo‘lmas zarare sham’g‘a parvonadin ayru.

Xolingni tilab ruhum agar uchsa emas ayb,
Bu qushqa tahammul qani ul donadin ayru?

Mehnat qushi ko‘nglum uyidin chiqmasa tong yo‘q
Kim, ko‘rgani bor chug‘zni vayronadin ayru?

Anduh-u xirad qasdim etar, voyki, mehnat
O‘zdin manga ayrudur-u begonadin ayru.

Qissamni eshitkan o‘ladur, ishq aro, vahkim,
Ermas ul og‘ir uyqu bu afsonadin ayru.

Tufrog‘ agar bo‘lsa tanim dayrda qilma,
Ey charx, ani sog‘ar-u paymonadin ayru.

Masjidda Navoiy gar emas, nukta budurkim,
Nuqson qilur o‘lmoq anga mayxonadin ayru.

514

Tutqali lam’ayi ruxsorig‘a jonon ko‘zgu,
Sudurur baski qoliptur anga hayron ko‘zgu.

Charx zoli sanga mashshotadururkim, bo‘lmish
Anga gulguna shafaq, mehri duraxshon ko‘zgu.

Ne qatiq ko‘ngli bor oyoki o‘shul mahvashning,
Ro‘baro‘yig‘a kelur har nafas oson ko‘zgu.

Jon evi ichra xayolingni bezar bo‘lsa ko‘ngul,
Pari o‘lur tarog‘ o‘qungnung-u paykon — ko‘zgu.

Ul pari yuziga devona gar ermas, ne uchun
Bo‘ldi bozorda sargashta-vu uryon ko‘zgu.

Sof qil safhayi xotirni tilar bo‘lsang fayz,
Aks topmoq, gar erur tiyra ne imkon ko‘zgu.

Ko‘zgudek borsa Navoiy o‘zidin ne tongkim,
Ayladi may quyoshin soqiyi davron ko‘zgu.

515

Sochti terdin gul uza ul sarvi gulruxsor su,
Kuymagim daf’ig‘a qildi o‘t uza izhor su.

Yuzda xay tug‘yonidin gar kulsa og‘zi yo‘q ajab,
G‘unchag‘a bo‘lmas ochilmoq, ichmayin gulzor su.

Tiyg‘i bot-bot zaxm urardin zor jismim qildi za’f,
Zamzam o‘lsunkim, ko‘p ichsa yetkurur ozor su.

Yor ayog‘i tufrog‘idin o‘zga ko‘rman doruye,
Ey muolij, ko‘zlarimdinkim kelur bisyor su.

Mehrkim, ul chehra aksidur nedur, gar bo‘lmamish
O‘tlug‘ ohim shu’lasidin gunbadi davvor su.

G‘am o‘tidin, ey hakim, o‘lmak tilarmen, jomima
Zahr qo‘shsang qo‘sh, va lekin qotmag‘il zinhor su.

Xasta ko‘nglum og‘zi zaxmi paxtalig‘ paykonidin,
Bor aningdekkim, momuq birla ichar bemor su.

Shar’din ayru riyozatdin safo kasb aylagan,
O‘yladurkim sof o‘lur taskin bila murdor su.

To‘rt yondin o‘qi yo‘l qilmish Navoiy ko‘nglini,
Ishq savdosi uchun go‘yo yasaptur chorsu.

516

Solsa zuhdung tuniga jomi hiloli partav,
Subha anjumlarin et boda quyoshig‘a garav.

Tiyra xilvatni netay, xilvat ani bilki solur,
Anda soqiy yuzi-yu boda quyoshi partav.

Ul pari ishqida qochmoqdur o‘zumdin g‘arazim
Buki, g‘am dashtida Majnundek etarmen tak-u dav.

Zulfi hajrida damim dudi jahonni tutti,
Meni savdoyi o‘shul zulmat aromen shabrav.

Dahr xusravlig‘in ulkim tiladi, charx aning
Boshig‘a qo‘ydi tugankim, der ulus Kayxusrav.

Fayz ko‘z tutma riyozatda teshilmay yuraging,
Ochmayin ravzana uy ichra quyosh solmadi zav.

Ey Navoiy, xush erur xilvat, agar bo‘lsa kishi
Dilbari birla ikov, bo‘lmasa lek anda birav.

517

Jonda jonparvar so‘zidurmu, labi xandonimu,
Ruhum oromi deyinmu ani, jonim jonimu?

Ko‘nglum ichra nishlarkim, sanchilibdur anglaman,
Nishtari mujgonidurmu, novaki paykonimu?

Ey ko‘ngul, olam buzarda qay biri ortug‘ ekin,
Nuh to‘fonimu ashkim, selining tug‘yonimu?

Jon olurda qaysining sa’b erkanin sharh aylayin,
Ishqining bedodimu yo shiddati hijronimu?

Nesi ul gulning Eram gulzoridin ortug‘ emish,
Jilva aylar sarvimu yo g‘unchayi xandonimu?

Eyki, berding dahr sho‘xig‘a ko‘ngul, qatling uchun
Ishvayi paydosimu yo‘q, ofati pinhonimu?

Qatl qildilar Navoiyni, va lekin bilmadim,
Ko‘nglin oldurmoqmu erdi yo ko‘ngul olg‘onimu?

518

Shomi hajr o‘lturdi bu noshodni, sen shod uyu,
Qayg‘um etti qasdi jon, sen qayg‘udin ozod uyu!

Kecha gar to subh mone’ erdi nolam uyqunga,
Chunki bo‘ldi daf’ ul afg‘on bila faryod, uyu.

Bizni hijroningda so‘ngg‘i uyqu bosti, bori sen
Ko‘z ochib noz uyqusidin bizni qilsang yod, uyu.

Sen bag‘oyat mast-u usruk, nargising uyqu to‘la,
Chunki g‘unchang dog‘i qildi esnamak bunyod, uyu.

Tun erur kech, tongla topqung uyqusizlig‘din xumor,
Bir zamon boshing qo‘yub, ey sarvi hurizod, uyu.

O‘tti yarim kecha-yu, yaxshi emas masti xarob,
Ko‘z yumub ochquncha suhbatni qilib barbod uyu.

Ey Navoiy, mast bir tun ko‘z oyog‘ig‘a qo‘yub,
Uyg‘anurg‘a hashr subhin aylabon miod, uyu.

519

G‘amimnimu deyin yo beg‘am elning mojarosinmu?
Ko‘ngul holinmu yoxud ko‘nglum olg‘anning jafosinmu?

Qatiq ishqim balo-vu shiddatinmu aylayin taqrir,
Yo‘q ersa benihoyat ishtiyoqim ibtilosinmu?

Adadsiz dard-u ranjim sa’b ekannimu qilayin sharh,
Sifatqa rost kelmas shavqum oshubi balosinmu?

Ko‘ngulda vasl bog‘i orzusinmu bayon aylay,
Bag‘irda xori hijron no‘gining muhlik yarosinmu?

Vafosiz yor beparvolig‘iningmu so‘zin aytay,
Manga javr-u jafo tiyg‘in urub, elga vafosinmu?

Falak zulmi, ulus bedodi yo bir sarvi ra’noning
Mening holimni aylab behavo, har yon havosinmu?

Navoiy, iltifot og‘oz qildi yor, bilmankim,
Firoqidin shikoyatmu qilay, vasl iltimosinmu?

520

Nazarg‘a kelgali ul ikki nargisi jodu,
Ko‘ngulda yo‘qturur orom-u ko‘zda ham uyqu.

Ko‘ngulki qayg‘-u sipohi bila nizo’ etti,
Ne shod o‘layki, ko‘ngulni bosipturur qayg‘u.

Ko‘zung Xo‘tan kiyigidur, yuz uzra xollaring
Magarki nofasidin mushk sochti ul ohu.

Ko‘ngulni tuz, tilasang foyiz o‘lsa tuz ma’no,
Nedinki, egri esa egri ko‘rguzur ko‘zgu.

Xush ulki, dayrg‘a borg‘ach, qadahni mug‘bacha mast
Yukunub ilgima berdi chiqib kelib o‘tru.

Chu kofir urdi bu yanglig‘ yo‘lumni, din lafzin
Yana tilimga kechursam uyat erur asru.

Navoiy, o‘ynadi jon xalqdin burun, rahm et,
Chu qildi jaldliq, emdi kerak anga jo‘ldu.

“HE” HARFINING HUMOYUNVASHLARINING HALOKANGIZLIG‘LARI “G‘AROYIB”DIN

521

Yuz-u ko‘zungda muayyan kamoli sun’i Iloh,
Ne yuzdurur bu, ne ko‘z: **“Lo iloha illalloh”.**

Jamoling oyina **“Vash-shams”**[1] ko‘zgusi nozil,
Ko‘zung qarosig‘a **“Mo zog‘a”**[2] surmasi hamroh.

---

[1] Qur’oni Karimning “Shams” surasi, 1-oyatiga ishora (Bash-shamsu vad-duhaho”), ma’nosi: “**Quyoshga va uning ziyosiga qasam...”.**

[2] **“Mo zog‘a”** — og‘madi; Qur’oni Karim, “Hajm” surasining 17-oyatidan; 16–17-oyatlar ma’nosi: **“U** (ko‘rgan) **vaqt Sidrani o‘raguvchi** (Allohning nuri va tajalliysi) **o‘rab olur edi.** (Payg‘ambarning) **ko‘zi** (ko‘rgan narsasidan) **og‘madi va haddan ham oshmadi”.**

Tiling hamesha laduniy ulumig‘a notiq,
Mudom ko‘nglung ilohiy rumuzidin ogoh.

Qamar har oy boshi mu’jiznamoy ilgingdin,
Qochib boshini o‘g‘urlarki, bo‘lur o‘yla dutoh.

Chu sen sipehrdin o‘ttung shihob-u halqayi badr
Emaski, charx chekar kecha hasratingdin oh.

Sening shafoating ummidi chun erur mumkin,
Gunohkor birovdurki, yo‘qtur anga gunoh.

Navoiy gulshanining nargisi nujum o‘lg‘ay,
Ko‘z uchidin anga qilsang hisob vaqti nigoh.

522

Otashin gul garchi ziynatdur jahon bo‘stonig‘a,
Barq erur har yel uchurg‘an bargi bulbul jonig‘a.

Garchi sham’ o‘ldi shabiston zebi, ko‘rkim, shu’ladin
Til chiqarmishtur susab parvonalarning qonig‘a.

Mayki quyg‘ay soqiyi gulrux, erur hayvon suyi,
Vahki, ofat selidur ishq ahli xonumonig‘a.

Nay yelin Iso dami tutqilki, ul bordur samum
Har nafas ahli muhabbat xotiri vayronig‘a.

Bir qadah may ichmadi bu dayr ahli bexumor,
To taharruk bo‘ldi bu tosi nigun davronig‘a.

Boda beranji xumor ermish fano jomida, lek
Ichmak oni kelmamish har bulhavasning shonig‘a.

Hasrat o‘lturdi meni, ey mug‘, ketur jomi fano
Kim, chiday olman bugundin so‘ng aning hijronig‘a.

Bo‘lmayin foniy, muhabbat jomin ichmakdur mahol,
Sabt eting bu nuktani dayri fano ayvonig‘a.

Kom topmay kimki hirmon dardig‘a bo‘lmish asir,
Istasa hamdard o‘lturtung Navoiy yonig‘a.

523

Ko‘ngulkim, vaslin istar har taraf dog‘i sitam birla,
Erur Yusuf xaridori necha eski diram birla.

Fig‘onlig‘ ko‘nglum-u o‘tlug‘ damimni sahl tutmangkim,
Olibmen ishq iqlimini bu tablu alam birla.

Iturdum oh ila ag‘yorni ul yuz havosidin
Aningdekkim, kishi sudin ketargay xasni dam birla.

Qurug‘ jismimda qonlig‘ zaxm emastur qat’ uchun har yon
Ki, payvand aylamishsen ul so‘ngaklarni baqam birla.

Tugan birla alifdin, ey munajjim, holatim ko‘rgil
Ki, ko‘ksum taxtayi raml o‘ldi har yon bu raqam birla.

Ko‘ngul mashhudig‘a chun bo‘ldi vosil bo‘lsa bo‘lsun til
Agar qoyil samad birla vagar zokir sanam birla.

Taayyun xirmanin kuydurgay ammo barqraftore
Ki, ko‘kdin yercha manzil qat’ qilg‘ay bir qadam birla.

Dema ko‘ksumda eskirgay tuganlarkim, ko‘zum har yon
Chu to‘kti qatra dog‘ o‘ldi bu sarig‘ safha nam birla.

Qad-u zulfung bila og‘zing tilab ko‘z yumdi olamdin,
Navoiyg‘a tarahhum aylakim, bordi alam birla.

524

Kuydi ko‘nglumkim, nedin manzil emas jononag‘a
Tushti o‘t ganj orzusidin bizing vayronag‘a.

Ul pari usruk ko‘zin istab biyobon tutmisham
Kim, kiyik birla mudom ulfat bo‘lur devonag‘a.

Keldim-u ko‘rdum yuzin qayturmen emdi o‘rtanib,
Sham’ni ko‘rgan nafas yonmoq kerak parvonag‘a.

To manga begona bo‘ldung ko‘nglum o‘ldi shodkim,
Oshnodin ulfating ko‘prakdurur begonag‘a.

Charxdin yig‘larsen, ey ko‘z, bilki bo‘lmish yetkudek
Seli ashkingdin xalal bu ertagi g‘amxonag‘a.

Eyki, istarsen berib jon, vasl topqanlar so‘zin,
Safhag‘a o‘t sol qachon yetsang bizing afsonag‘a.

Ey Navoiy, necha bag‘ring su bo‘lub to‘kkung sirishk,
Toyiri davlat chu boqmas bo‘yla ob-u donag‘a.

525

Yonida el ko‘rsam o‘q sanchilmasunmu jonima,
Menki g‘ayratdin ravo ko‘rman ani o‘z yonima.

Zaxmliq jonimki, ishqi o‘tidin xursand erur,
O‘t emas ul marhamedurkim, yoqibdur jonima.

Vaslig‘a ko‘z mahram ermastur, netib mahram bo‘lur,
Ikki tardomanki, tanug‘lug‘ berurlar qonima.

Chun yetar ul oyg‘a afg‘onim, erur bu dam-badam
Kim, chiqib jon dog‘i hamrah bo‘lg‘usi afg‘onima.

Aql-u jondin ishqida begona bo‘ldung, ey ko‘ngul,
Ket Xudoy uchun, bugundin so‘ng meni ham tonima.

Tan uyin dard o‘qi ko‘p zaxm etti, ammo shukrkim,
Kirmadi noshukrlug‘ selobi bu vayronima.

Ey Navoiy, kuldi ul gul ashkima, bo‘lmay xalos
Yig‘lamoqdin, kom agar budur guli xandonima.

526

Anbari tar istaman yuz uzra xoling borida,
Kam ko‘runur yangi oy mushkin hiloling borida.

Siymi ashkim itlaringning yo‘lida sarf aylaram,
Chun demishturlarki, qozg‘on do‘st moling borida!

Chashmayi hayvondin, ey jonim, su ichmaydur ko‘ngul,
Xizrvash xatting aro shirin zuloling borida.

Chun vafo qilmas kishiga oqibat davroni husn,
Bas g‘animat bil vafo qilmoq jamoling borida.

Degasen, miskin Navoiy nolasin bulbul kibi
Ey sabo, ul gul harimig‘a majoling borida.

527

G‘amidin garchi jon yo‘q erdi tanda,
Tirildim la’lidin o‘ldum deganda.

Necha bog‘ ichra borsam bo‘y topman,
Qadingdin sarv birla norvanda.

Yashurun necha ko‘z solsam adamning
Vujudi yo‘qtur og‘zing bor ekanda.

Tilar kirpiklaringni zor ko‘nglum,
Bo‘lur bulbul yeri doim tikanda.

Dema gul umrin oz, ey bog‘bonkim,
Seningdek ko‘pni ko‘rmish bu chamanda.

Navoiy garchi o‘ldi lola yanglig‘
Erur dog‘ing bila qonlig‘ kafanda.

Nechakim shoh beparvolig‘ etsa,
Kerak o‘ksutmasa qullug‘ni banda.

528

Ko‘nglumning ohi qatrayi xuni jigar bila
Dudedururki, ayrilur o‘tdin sharar bila.

La’l uzra xol-u xatki, yuzung ko‘zgusidadur,
To‘tig‘a hind-u o‘rgatadur so‘z shakar bila.

Ul sho‘x ko‘nglum oldi solib jismima shikast
Bir tifldekki, shoxin ushatqay samar bila.

Nozuklugidin erkin, yo men hasudmen,
Bukim aning belin ko‘ra olmon kamar bila.

Dardoki, olam ahlida bir yor topmadim,
Tun-kun niyozi shom-u duoyi sahar bila.

Bu g‘ussadin dedimki, bo‘lay umrum oxiri
Shohi sipehrqadr Muhammad Umar bila.

El moni’ o‘lsa, tushti Navoiy kibi ishim
Majnun bo‘lub adam yo‘li sari safar bila.

529

Zihi hayvon suyidek lablaringning hasrati jonda,
Xating Xizriki, pinhondur va lekin obi hayvonda.

Yuzung Haq nuri, jisming ruhi pok, ey ruhdek g‘oyib,
Seningdek bir malaksiymo parivash yo‘qtur insonda.

Iki ko‘zkim, arosindin chiqib yosh o‘tti boshimdin,
Biaynih g‘arq bo‘lg‘an kemalardur bahri Ummonda.

Degaysen bahr davrida qamishlig‘ ichra o‘t tushmish,
Ko‘zum girdida qon yoshkim, yugurur xori mujgonda.

Emas paykonining ravshanlig‘idin bu ko‘ngul aksi
Har o‘qkim, ul otar, ko‘nglum erur, albatta, paykonda.

O‘tub yillar, ul oy bir kunki kulbam sori yo‘l ozg‘ay,
Yomon toli’din ul kun bo‘lmag‘aymen bayt ul-ahzonda.

Navoiy qon yosh ichra g‘arq-u, yori may ichib doim,
Der ermish: zarq aylaydur, ko‘rung men qonda,ul qonda?

530

Pardag‘a kirgan kibi xurshidi raxshon har kecha,
Azmi xilvat aylar ul sham’i shabiston har kecha.

Ul kulub ahbob birla subhdek, men sham’vor
O‘rtanib ko‘nglum, to‘karmen durri g‘alton har kecha.

Bir quyosh hijronida uryon tanim gardun kibi
Mehr o‘tidin ko‘rguzur ming dog‘i pinhon har kecha.

Gah-gah, ey maxmuri xobolud, so‘r ul xastani
Kim, yetar og‘zig‘a la’ling yodidin jon har kecha.

Nosiho, ne nav' pinhon toat aylaykim, olur
Din-u donish naqdini bir nomusulmon har kecha.

Bir kecha so'rg'il meni andin burunkim, so'rg'asen,
Qani ul bedilki, aylar erdi afg'on har kecha.

Chek, Navoiy, nola, ko'z may bersun-u bag'rim kabob,
Chun bo'lur ul oy xayoli bizga mehmon har kecha.

531

Ul musofirkim, erur barcha sipoh ahlig'a shoh,
Jism-u ruhi xoksorimdur anga gardi sipoh.

Dedilar, ul shah qilur yo'l azmi, bu ummid ila
Ko'ksuma tirnog'lar birla chekibmen shohroh.

Raxshining javlonini ko'rgach yer o'psam men zaif
Yo'q ajab, chun xam bo'lur ermish itik yeldin giyoh.

Novaki birla to'shuk bo'lg'an ko'ngul ahvolini
Necha sharh aylay desam, og'zimg'a kelmas g'ayri oh.

Ko'zda ashkimdin qochib, kirdi xayoli ko'ngluma,
Ko'p yog'indin yo'lda el vayrona qilg'andek panoh.

Buki hajringdin o'lubmen, bo'lmasa bovar sanga,
Jon-u ko'nglumkim sening birladurur, basdur guvoh.

Kelsa yorutqay sipah gardi Navoiy ko'zlarin,
Ul musofirkim, erur barcha sipoh ahlig'a shoh.

532

Jon olsa naylay ul buti paymongusil bila,
Chun bermisham ko'ngulni anga ishqi dil bila.

Keldi manga chu belini chektim, masaldurur
Kim, tortsa bo‘lur, keluri bo‘lsa qil bila.

Ashkimki, qon bo‘lub yuzum uzra tushar erur
Yosheki, mayl bor anga sarig‘-qizil bila.

Qaddi havosida labidin rohat istaram,
Ichsam kerak mudom chog‘ir mu’tadil bila.

Zulm ahli xalq qoni uchun til uzatmog‘i
Bor o‘ylakim, sibo’ ichar suni til bila.

Kavsar mayini shahd uza sun’ ilgi tomizib,
La’ling muxammar ayladi ul ob-u gil bila.

Doim qoshingda bo‘lsa Navoiy ajab emas,
Gul birla bulbul o‘lsa ne tong muttasil bila.

533

Ohkim, jon bo‘ynig‘a zulfung tanob o‘ldi yana,
Kecha tong otquncha ishim pech-u tob o‘ldi yana.

Ishq asir etkan junun lug‘ ko‘nglum ishi har zamon,
O‘tqa tushkan telba yanglig‘ iztirob o‘ldi yana.

Ganji ilm ettim ko‘ngul kunjin, yetishkach seli ishq,
Har imoratkim, qilib erdim, xarob o‘ldi yana.

Bir o‘q urdi g‘amzang-u itti ko‘ngul majnun bo‘lub,
Ul balo urg‘ang‘a bilman, ne balo bo‘ldi yana?

Gul shabiston bazmida o‘t yoqti, vahkim, g‘unchadin
Barcha bulbul ko‘ngli ul o‘tqa kabob o‘ldi yana.

Dedilar, ul sho‘x har dam oshuqub uydin chiqar,
Jon ishi chiqmoq uchun, vahkim, shitob o‘ldi yana.

Ey Navoiy, bir sari bo‘ldi bu g‘amlar chun sanga,
Azmi dargohi shahi oliyjanob o‘ldi yana.

534

Orazi yonig‘a gul sanchar jamol izhorig‘a,
Anglatur husnin ani yondoshturub ruxsorig‘a.

Evrulur boshig‘a jonlar, vahki, har jon rishtasi
Chirmashiptur gardi yazdiy me’jari har torig‘a.

Sochbog‘ ermasturki, ul kofir g‘ilof aylabdurur
Olam ichra kufr ta’zimi uchun zunnorig‘a.

Ko‘z duosi chun bitirsiz sadqasi aylab meni,
Tori jonim rishtasidin tortingiz tumorig‘a.

Yeng bila nevchun yopar og‘zin takallum holida,
Lablaridin shahd olib yo‘l ochmasa guftorig‘a?

Barg evurmay lavn, gul so‘lmay, to‘kar ermish xazon,
Bog‘lama ko‘nglungni, ey bulbul, jahon gulzorig‘a.

Ka’bayi ko‘yin Navoiy evrulurga za’fi bor,
Bas, madaddur yetsa ilgi qasrining devorig‘a.

535

Nasihat ahli manga derki, mayni tark et, vah,
Ilik olib kelur, og‘iz ichar, manga ne gunah?

Manga may ichmak emas o‘zlugumdin, ey nosih,
Bu ishga chang qadi dol-u shohid o‘ldi guvah.

Qilur junun-u qadah man’ini manga zohid,
Degaymu telbaga bu so‘zni bo‘lmasa ablah?

Qadah charog‘ini ollimg‘a tutqil, ey soqiy
Ki, zuhd zulmatida asr-u bo‘lmisham gumrah.

Bu sham’ birla xarobot sari boshla meni
Ki, tiyra zuhd tuni ichra o‘lmayin nogah.

Boshimni piri xarobot dargahida qo‘yay
Ki, bor eshigida shoh-u gado, gado bila shah.

Navoiy aytur emish dayr aro sanam zikrin,
Bu ism zikriga kim qilsa mayl bismillah.

536

Qil uchi ko‘rmay og‘zingdin nishona,
Anga oshiq bo‘lubmen g‘oyibona.

Xating bosh chekkali xoling ko‘runmas,
Ko‘kardi chun ekin, gum bo‘ldi dona.

Bahona qilmay el qonin to‘karsen,
Manga yetkach qilursen bir bahona.

Bulut ermaski, gardun yuz yashurmish
Ki, tortar shu’layi ohim zabona.

Bu javlonkim qilursen, vah, zamone,
Inon chekkilki, qo‘zg‘aldi zamona.

Fano ahli so‘zin ko‘p ayla mazkur
Ki, uyqu daf’ etar ushbu fasona.

O‘tar yoring, Navoiy, arz qilkim:
— Qadam qo‘ysang yaqindur bandaxona.

537

To ko‘rubon yuzin quyosh qolg‘ali ishtiyoqig‘a
Goh boshig‘a evrulur, goh tushar ayoqig‘a.

Qoshida xoli hinduyi kofir erurki ahli din
Qatli uchun chiqibdurur ko‘z sola dayr toqig‘a.

Dard-u balo-vu g‘ussani ko‘nglum aro keturdi ishq,
Do‘stlarin birav kibi kim tilagay visoqig‘a.

Vasl meni chu o‘lturur, bor sanga o‘lmagim g‘araz,
Rahm etib, ey ajal, meni solma aning firoqig‘a.

Po‘ya qilurda chobukum uchti rikobida pari,
Naqsh sog‘inma zeb uchun sizg‘an aning junoqig‘a.

Tolibi faqr bor esang barcha bila muvofiq o‘l,
Sen kim-u e’tiroz kim, ahli zamon nifoqig‘a?!

No‘shi labing zulolidin xasta Navoiy ichkali
Cheksa hayot sharbatin, zahr kelur mazoqig‘a.

538

Tushti o‘t ko‘nglum uyiga ohi dardolud ila,
Ko‘zda kirpik dema bu ravzan, qarormish dud ila.

Telba it deb har taraf yo‘ldin qocharlar ahli hush,
O‘t sochib og‘zim, yugursam jismi gardolud ila.

Charx sayr etmas, nechuk subh istagaymen g‘am tuni,
Javfi chun madrus erur bu shomi qiyrandud ila.

Yusufum hajrida Ya’qub g‘am ichra, mutribo,
O‘ylamenkim, xushlug‘um yo‘q nag‘mayi Dovud ila.

Dema har dardingg‘a aylay bir davo, qo‘ykim o‘lay
Kim, malul o‘lg‘ungdurur bu dardi noma’dud ila.

Shah tilar davlat baqosin, men gado yor og‘zini,
Ranjadur shoh-u gado bir komi nomavjud ila.

Ey Navoiy, qildilar dunyoni rad ahli qabul,
Gar desang maqbul o‘lay, yor o‘lma bu mardud ila.

539

Lablaringkim, hayf erur teng tutmoq ani qand ila,
Sindurur yuz qand bozorini shakkarxand ila.

Toki hayronmen sanga nomus ila itmish ko‘ngul,
Telba yanglig‘kim, qochar el g‘ofil o‘lg‘ach band ila.

Odam ul soatki jannat ichra avlodin ko‘rar,
Ne quvang‘ay dam-badam sen nozanin farzand ila.

Qo‘y nasihat, zohid-u o‘tlug‘ damimdin vahm qil,
Telba it imkoni yo‘qturkim sog‘alg‘ay, pand ila.

Hojatingni elga arz etmakka hojat bo‘lmasun,
Xush chiqishsang lahzaye bu zori hojatmand ila.

Lablaring hajrinda yuz parkandkim bo‘lmish ko‘ngul,
La’l erur mahlul qon o‘rnig‘a har parkand ila.

Chun Navoiy ko‘ngli sindi emdi lutfung ne osig‘
Kim, ushatsa shishani butmas yana payvand ila.

540

Mehrdin dermenki, bo‘lsam doim ul oyim bila,
Naylayinkim, charx evrulmas mening royim bila.

Hajr aro mendurmenu puroh-u purxam qomatim,
G‘am cherigi xasm-u men bu nav’ o‘q-u yoyim bila.

Ahli majlis kuydurur tilin kesib, boshin uzub,
Sham’ da’vo qilsa mohi majlisoroyim bila.

Ko‘hi dard-u teshayi hijronni so‘r Farhoddin,
Anglamas Xusravki, Shirin birladur doyim bila.

Husnig‘a har lahza hayronroqmen oxir yaxshidur,
O‘lmasam nogah bu ishqi hayratafzoyim bila.

Bo‘lmayin dayri fano xammori gar qilsam badal,
Zohidi xudbin ridosin bodapoloyim bila.

Dam-badam miskin Navoiyning degil qon yutmog‘in,
Ey qadah, gar hamdam o‘lsang bodapaymoyim bila.

541

Gar sabodek hamdam erman sarvi ozoding bila,
Bormen, ey gul, qaydakim bo‘lsam, sening yoding bila.

Rang yo‘qtur chun qizil guldin sanga, ey andalib,
El qulog‘in asr-u ko‘p yolqitma faryoding bila.

Eyki dersen, ko‘zlarim ko‘nglungni ne nav’ etti sayd,
Bir kabutar netsun oxir ikki sayyoding bila.

Masjid ichra butparast o‘lmoq necha, ey piri ishq,
Din uchun kirdim fano dayrig‘a irshoding bila.

Sehr erur, ey ishqkim, ko‘nglum bila paykonidin
Xirqayi jism ichra o‘t-u suni asroding bila.

Gar itobe zohir etsang o‘zgalarning ko‘nglin ol,
Negakim men xo‘y etibmen zulm-u bedoding bila.

Ey Navoiy, telbalik tark etkasen ko‘rgach visol
Hur siyratlik, malak xo‘luq parizoding bila.

542

Vahki, ul sho‘x borib, jonima o‘t soldi yana,
Telmurub ikki ko‘zum yo‘lg‘a boqib qoldi yana.

Nechuk o‘lmay meni bemorki, Iso nafasim
Ko‘rdi holimni-yu ko‘rmasga o‘zin soldi yana.

Yig‘lang, ey sham’-u surohiyki, o‘larimni bilib,
Mutribi nag‘masaro navha ko‘kin choldi yana.

Zaxm istar edi ko‘nglum qilichidin, go‘yo
Ilgiga tiyg‘ mening ko‘nglum uchun oldi yana.

Aql-u din naqdi fano dayri aro kirmas egach,
May bila mug‘bachalar yo‘lida siyfoldi yana.

Sabr elin yig‘mish edim chiqmas egach ul xurshid
Voykim, zarra kibi har sari qo‘zg‘oldi yana.

Qo‘lda, ey Xizri rahim, xasta Navoiy qo‘lini
Kim, bu yo‘l po‘yasidin bag‘ri aning toldi yana.

543

Ko‘nglum og‘zingning xayolidinki to‘lmish g‘am bila,
Naqd uza mumedururkim, naqsh erur xotam bila.

G‘am tuni anjumni ohim o‘qlari zaxmig‘a charx
Ul momuqlar bilki, qo‘ymishdur yasab marham bila.

Yig‘lama, ey ko‘zki, bormas zulm naqshi ko‘nglidin,
Toshda qozg‘on xat ne imkonkim buzulg‘ay nam bila.

Ul alifdurkim ayondur bir tarafdin shamrasi,
Qaddi bir yondin osilg'on mushkbo' parcham bila.

Shayxi g'ofil ko'nglin etti zarq ohidin qaro
Tifldekkim, ko'zguni qilg'ay mukaddar dam bila.

Ohkim, ovora bo'ldum ayta olmay shammaye,
Yoshurun ko'nglumdagi dardimni bir hamdam bila.

Ey Navoiy, gar desangkim benavolig' ko'rmayin,
Oshnolig' qilmag'il jinsi bani odam bila.

544

Yana ne o't edikim tushti xonumonimg'a,
Yana ne shu'la edikim, tutashti jonimg'a?

Yana ne barq edikim, tushkach o'rtadi xasdek,
Bir o't sharorasidin jismi notavonimg'a?

Yana ne novaki mujgon ediki, qatlim uchun
Tikildi ko'ngluma, ya'niki kirdi qonimg'a.

Yana ichimga magar ishq soldi o'tki, chiqar
Shararlari qotilib oh ila fig'onimg'a.

Balo o'ti yonadur to'sh-to'shimdin, ey nosih,
Eshit nasihat-u zinhor kelma yonimg'a.

Sarig' yuzumni qizil qilmadi visol mayi,
Bu gulshan ichra bahor o'lmadi xazonimg'a.

Navoiy itti qo'yub yodgor xasta ko'ngul.
Dediki, yetkurung, albatta, dilsitonimg'a.

545

Meni gadoy qachon yettim ersa shohimg‘a,
Yuzumni yerga qo‘yub shukr dey Ilohimg‘a.

Ko‘rushmagimga agar bo‘lsa multafit, bo‘lg‘ay
Visol tubiyi jannat bila giyohimg‘a.

Gunah yiroqlig‘im erdi, chu lutf mazharisen,
Inoyat aylagil-u, boqmag‘il gunohimg‘a.

Dedi, safarda sutun birla borgohimdur
Kishiki, boqti falak birla dudi ohimg‘a.

Baho tuganlarim o‘lmish visol uchun, hayhot,
Kishi bu tuhfani sotqaymu ul darohimg‘a.

Buzuldi ko‘z-u ko‘nguldin ishim, magar tushqay
Bir ahli dil ko‘zi bu holati tabohimg‘a.

Navoiyo, yana gar yor yuzini ko‘rsam,
Muti-yu qul bo‘layin baxti nekxohimg‘a.

546

Ko‘ngluma anduh yelidin g‘uboredur yana,
Go‘yi oni qo‘zg‘ag‘an chobuksuvoredur yana.

To ne gullar ochqay oxir ishq aylab chok-chok,
G‘unchadek ko‘nglumda bukim xorxoredur yana.

Oh dudin sahl tuttum, ohkim, ul dud aro
Sabr uyin kuydurgali har yon sharoredur yana.

To labing ushshoqdin jon olmoq etti ixtiyor,
Jon berurga har taraf beixtiyoredur yana.

Tong yelidin bo‘ldi go‘yo sunbulung oshuftakim,
Har qayon boqsam parishonro‘zgoredur yana.

Yerga sochqan ter fano dashtida solik jabhasi,
Gavhari maqsudidin har dam nisoredur yana.

Raf’ o‘lub erdi Navoyining jununi, ey pari,
To sanga tushmish ko‘zi majnunshioredur yana.

547

Ko‘radurmenki borur yor-u qolurmen meni gumrah,
Bora olman, tura olman, ne qatiq holat erur, vah.

Hajridin jonima yuz biym qolayin desa andin,
Xo‘yidin ko‘ngluma ming vahm bo‘layin desa hamrah.

Ko‘yung ummidi, yuzung hasrati birla, agar o‘lsam
Yovumay ravzag‘a valloh, tilamay hurni billah.

Mayg‘a mashg‘ul o‘lubon hajrni umdan unuturmen,
Buzulur zor ko‘ngul, kirdi esa yodima nogah.

Aql taklif qilur ko‘nglumakim, tarki junun qil,
Telbadin kim bu tama’ tutqay, agar bo‘lmasa ablah.

Shoh-u soyilg‘a nasib ar ko‘p-u ozdur, ne tafovut,
Teng nasib o‘ldi, chu tufroqqa agar soyil, agar shah.

Yor g‘ofillig‘idin zulfida jon berdi Navoiy,
Sayd o‘lar domda, sayyod agar bo‘lmasa ogah.

548

Vahki, bir badmehr o‘qi jonimg‘a parrondur yana,
Tiyra ko‘nglum kulbasining sham’i paykondur yana.

Bir pari ishqida jonning nuqta birla “nun”idek,
Notavon jonimda na’l-u dog‘i pinhondur yana.

Baski paykoning yig‘ildi, yiqti tan koshonasin,
Bu bino su kasratidin, vahki, vayrondur yana.

Tang‘a juzv o‘ldi o‘qung ul nav’kim, andin ani
Olmoq anburlar bila tortib ne imkondur yana.

Eyki, ko‘nglumni deding majruh emastur ishqdin,
Ko‘rmading oyoki mujgonim aro qondur yana.

Chiqmisham mug‘ ko‘yidin sarxush yashun, ey charxkim,
Yer bila teng qilmog‘ing ollimda osondur yana.

Dasht aro Majnunni ko‘rganlar Navoiyni ko‘rub,
Qildilar hayratki, ne g‘uli biyobondur yana.

549

Tanimda za’fdurur to isitmish ul dilxoh,
Quyosh haroratidin ne ajab qurusa giyoh.

Aning nihol qadi titrabon terak yanglig‘,
Men evrulub boshig‘a tortibon sabodek oh.

Tanini g‘uncha kibi to‘ng‘a chirmabon qat-qat,
Va lek talfasadin guldek ochilib gah-goh.

Gulobxonadag‘i gul kibi so‘lub jismi,
Qilib gulob kibi terning o‘rtasida shinoh.

Yotib ko‘zi kibi gulgun harir uza bemor,
Va lek mendek etib sihhat ahlini gumroh.

Demanki, sharbat uchun yaxshidur chuchuk jonim,
Yarasa sadqa uchun qilg‘asiz meni ogoh.

Navoiyo, dema nevchun taning zaif o‘lmish,
Tanimda za’fdurur to isitmish ul dilxoh.

550

Hayhotkim, birav g‘amidin zormen yana,
Faryodkim, balog‘a giriftormen yana.

Ey muddaiyki, orim edi ta’n-u so‘kmaging,
Forig‘ degilki, har ne desang bormen yana.

Daf’ o‘lmish erdi no‘shi labingdin malolatim,
Lutf ayla, ey tabibki, bemormen yana.

Har kecha bir quyosh g‘amida g‘ussa toshidin,
Boshdin ayog‘ sipehrdek afgormen yana.

Sufiyi aql savmasin shukrkim buzub,
Dorulfanoyi ishqda xammormen yana.

Og‘zim qurub, damim tutulib, sekridim, ne tong,
Kim, telba chobukumga jilavdormen yana.

Aql itti, hush ketti, ko‘ngil kuydi, chiqti jon,
Shukr et, Navoiyoki, sabukbormen yana.

551

Yana har dam ishim sochmoqdurur ko‘z bog‘idin lola
Ki, bo‘lmish loladek qonlig‘ ko‘ngul pargola-pargola.

Ko‘zungdur fitna-vu afsun savodidin qaro nargis,
Yuzumdur mehnat-u idbor dog‘idin sarig‘ lola.

Umidim mazrain, dedim ko‘kartay ashkdin, lekin
Sovug‘ ohimdin o‘ldi ul ekinga bu yog‘in jola.

Shafaq ichra emas anjumki, gardun javfida ohim
Harorat oncha ko‘rguzdiki, erni bo‘ldi tabxola.

Marazliq zaxmi ko‘p tandin bayone ko‘nglum afg‘oni,
Buzug‘din o‘yladurkim, chug‘z qilg‘ay dam-badam nola.

Deb erding, jon beray o‘lsang, yetishti ul mahal, vahkim,
Gado sultong‘a netkay juz gadolig‘ o‘tsa ham hola?

Navoiy, dahrning kun yuzi, tun sochig‘a mayl etma
Ki, oxir umr naqdin muxtal aylar ushbu muhtola.

552

Nildin har bir alif ul mahjabin ruxsorida,
Bir niholi sarv erur go‘yo Eram gulzorida.

Ishq sultoni siyosat ayladi ushshoqni,
Xalq jismidur, somon ermas balo devorida.

Toza dog‘edur fig‘onim o‘tidin bo‘ynumdag‘i
Har mudavvar shakl shingarfiy junun tumorida.

Tavqlar bo‘lmish jeli tortarg‘a imon ahlini,
Halqalar zanjiri zulfung rishtasi zunnorida.

Telbalik tog‘i tanimdur, bosh uza jo‘lida soch,
Har biri bir notavon Majnun junun ko‘hsorida.

Tushsa yuz dastor boshdin, bosh egindin, vah, ne tong
Kim, erur gulrang may boshida, gul dastorida.

Ey Navoiy, zor jisming nola qilmas za’fdin
O‘ylakim, sust o‘lsa, un bo‘lmas mug‘anniy torida.

Shafaq ichra emas anjumki, gardun javfida ohim
Harorat oncha ko‘rguzdiki, erni bo‘ldi tabxola.

Marazliq zaxmi ko‘p tandin bayone ko‘nglum afg‘oni,
Buzug‘din o‘yladurkim, chug‘z qilg‘ay dam-badam nola.

Deb erding, jon beray o‘lsang, yetishti ul mahal, vahkim,
Gado sultong‘a netkay juz gadolig‘ o‘tsa ham hola?

Navoiy, dahrning kun yuzi, tun sochig‘a mayl etma
Ki, oxir umr naqdin muxtal aylar ushbu muhtola.

552

Nildin har bir alif ul mahjabin ruxsorida,
Bir niholi sarv erur go‘yo Eram gulzorida.

Ishq sultoni siyosat ayladi ushshoqni,
Xalq jismidur, somon ermas balo devorida.

Toza dog‘edur fig‘onim o‘tidin bo‘ynumdag‘i
Har mudavvar shakl shingarfiy junun tumorida.

Tavqlar bo‘lmish jeli tortarg‘a imon ahlini,
Halqalar zanjiri zulfung rishtasi zunnorida.

Telbalik tog‘i tanimdur, bosh uza jo‘lida soch,
Har biri bir notavon Majnun junun ko‘hsorida.

Tushsa yuz dastor boshdin, bosh egindin, vah, ne tong
Kim, erur gulrang may boshida, gul dastorida.

Ey Navoiy, zor jisming nola qilmas za’fdin
O‘ylakim, sust o‘lsa, un bo‘lmas mug‘anniy torida.

553

Ko‘ngul qushidur aning zulfi tobdori bila,
Chibinki, bog‘lig‘ erur ankabut tori bila.

Sipand ofat emas, lolazor ofat erur,
Yuzinda har sari xol otashin uzori bila.

Magarki zulfida ishq ahlining ko‘ngullaridur,
Ne dudkim, nafasimdin chiqar sharori bila.

Niholi vasl aningdek quruptururki ani
Ko‘karta olmadi ko‘z ikki jo‘ybori bila.

Sipehr emin emas manjaniqi ohimdin,
O‘n ikki burjlug‘ ushbu biyik hisori bila.

Muvaffaq o‘lmasa tavfiq ila, emas mumkin
O‘z ixtiyorini qo‘ymoq o‘z ixtiyori bila.

Churuk so‘ngaklarim o‘lmish quyun aro xoshok,
Boshingg‘a evurladurgan tanim g‘ubori bila.

554

Dardini jismim aro asray debon tadbir ila,
Toza dog‘ ermas o‘qi zaxmin tutubmen qiyr ila.

Toki sham’i anjumandur mohi shabgardim mening,
Ko‘k shabistonidin oy har tun qochar shabgir ila.

Zulfi ichra zor jismim holatin qilsang raqam,
Ey muharrir, zarhal etqaysen qaro tahrir ila.

Hadding ermastur debon, ishqim, meni yozg‘urmakim,
Men ham anglarmen, vale ne choradur taqdir ila.

Ul pari zulfi savodin yozg‘ali bo‘lmish davot
O‘yla savdoyiki, asrarlar ani zanjir ila.

Qiyr ila aylang yuzumni chum qorakim, umr o‘tub,
Do‘st ko‘yi azmi qildim yuz tuman taqsir ila.

Ishq shar’ida Navoiy qatl ila topsang xalos,
Bilki, o‘lmakdin qutulg‘andekdurur ta’zir ila.

555

Ilgin ul gul rang etibdur lola yafrog‘i bila,
Kaflarin bargi bila, tirnog‘larin dog‘i bila.

Rishtayi zulfi xayolidin havo qilg‘an ko‘ngul
Bir qushedurkim, qochibdur go‘yiyo bog‘i bila.

Reshlar ko‘ksumda ko‘r, Farhod bahsin qo‘ykim, ul
Qazmadi mendek balo tog‘ini tirnog‘i bila.

Sham’ hamdardimdurur hijron tunikim men kibi
Hajr o‘tida qovrulur ul dog‘i o‘z yog‘i bila.

Otashin la’ling shahidi qabridin gulgun g‘ubor
Kim, qo‘por, o‘tdur, emas qon rangi tufrog‘i bila.

Bemahal gulbong ila yolqitma, bulbul, elnikim,
Dahr bog‘i gullari xushtur, vale chog‘i bila.

Lola ermas, urdi o‘t gulshang‘a bir gul hajridin,
O‘rtanib har dam Navoiy nola qilmog‘i bila.

556

Erur ko‘ngulda safo ishq toza dog‘i bila
Nechukki, ko‘zda yorug‘lug‘ erur qarog‘i bila.

Firoq shomi yangilmas o‘qung ko‘ngul yo‘lini
Ki, borur ul sari paykonidin charog‘i bila.

Erur sukut-u fano ishq lozimi, bulbul
Ne voqif ancha fig‘on-u ulug‘ dimog‘i bila.

Ul o‘tki o‘rtadi parvonani, hamul o‘tdin
Ko‘rungki, qovruladur sham’ dog‘i yog‘i bila.

Shah-u ulus g‘ami-yu jomi Jam, xusho ulkim,
Sinuq safol ila durd ichkay o‘z farog‘i bila.

Xumor aro tiladim soqi-yu qadah, yuz shukr
Ki, ulki men tiladim, keldi o‘z oyog‘i bila.

Qucharg‘a sarv niholi biri qadingdek emas,
Agar ketursa ani bog‘bon quchog‘i bila.

557

Men masti g‘arqi bodamen, aksim emas may ichra, vah,
Soqiyg‘a bovar bo‘lmasa bexudlug‘um bastur guvah.

Taqvo ridosi birlakim masjidg‘a bordim dayrdin,
Ey mug‘bacha, inak rido bo‘ynumda, gar qildim gunah.

Keldim qochib g‘am xaylidin mayxonag‘a, ey piri dayr,
Tengri panohing, gar manga xum keynida bersang panah.

Dayr ichra sarxush mug‘bacha dinimni taroj ayladi,
Ayb etmangiz, gar kelmasa yodimga shayx-u xonaqah.

Nazzoradin hush ahlining dastori tushmak ne ajab,
Mundog‘ki sarxush sekritur har yon samand ul kajkulah.

Tasbihni may rahni qil, har donag‘a mayl etmagil,
Gar istasang ko‘nglung qushin sayd etmagay bu domgah.

May tulg‘ining har pashshasi piledurur xartumluq,
Daf’ etkali dayr ahlig‘a gar cheksa dard-u g‘am sipah.

Yuz birla gar dayri fano yo‘lin supursam vajhi bor
Kim, dayr piri ollida bu nav’ o‘lubmen ro‘barah.

Gulxan aro ostingda kul, uryon boshingda ishq o‘ti,
Bu nav’ taxt-u toj ila sensen Navoiy podshah.

558

Xush ulkim, bor edi ilgimda pechon sunbulung gah-gah,
Tutunlar chirmashur boshimg‘a oni chun sog‘insam, vah.

Yuzungdur poklik mehri, ko‘zumdur rostliq ayni,
Aningdek yuzga mundoq ko‘zdin o‘zga ko‘z, maozallah.

Ko‘ngul pargolasidur har taraf ishqingdin o‘rtangan
Shararlarkim, chiqar ohim o‘ti dudi bila hamrah.

Tushumda la’li-yu ruxsoridur, uyg‘atmang meni gar xud
Masiho birla Yusuf boshim uzra yetsalar nogah.

Uchub ruhum qushi har dam havo aylar zanaxdonin,
Aningdek qush masallikkim nishiman qilmish o‘lg‘ay chah.

Muhabbat ko‘yida bukim, gado shahni qilur oshiq,
Biaynih bor aningdekkim, gadoni oshiq etkay shah.

Qazoyi mo mazo chun favti hol aylar, zihi hasrat,
Muvaffaq ulki avvaldin bo‘lur o‘z vaqtidin ogah.

Qalam yozg‘an balodin muhtariz bo‘lg‘on, zihi nodon,
Muqarrar bo‘lmag‘an ro‘zi talab qilg‘on, zihi ablah.

Navoiy daftari hajring yozib ko‘z to‘kti xunobin,
Chu ochsang safha-safha ko‘rgasen qon o‘tkanin tah-tah.

559

Soqiyo, talx o‘ldi ayshim hajr bedodi bila,
Tut achig‘ maykim, ichay Mirzo Chuchuk yodi bila.

Sipqarib jomi sipehr aqdohin aylay rez-rez,
Necha chekkaymen zabunlug‘ charx bedodi bila.

Zuhd ko‘nglum ko‘zgusin qilmish mukaddar, ey harif,
Sindururmen tavba piri ishq irshodi bila.

Bevafolig‘ gar budurkim, qildi ul sho‘x, ey ko‘ngul,
Sirfa qilmas oshnolig‘ Odam avlodi bila.

Vahki, sindi naxli ummidim, xusho, ul bog‘bon
Kim, erur xushhol bir navrasta shamshodi bila.

Chun hudiy Laylo qulog‘in yolqitur, Majnun, ne sud,
Tog‘ni gar kelturur afg‘ong‘a faryodi bila.

Ey Navoiy, ishq sahrosida xud qo‘ydung qadam,
To nechuklashkaysen ul poyoni yo‘q vodiy bila.

560

Sochib sirishk yugursam qoshing xayoli bila,
Sipehr mencha emas kavkab-u hiloli bila.

Ko‘zungki, mardum ila jon olur, erur sho‘xe
Ki, sayd aylagay eldin ko‘ngulni xoli bila.

Ko‘ngulda qadd-u uzoring xayolin ettim naqsh,
Bu bog‘ni bezadim sarv-u gul niholi bila.

Ulusni javr ila husn ahli o‘lturur, lekin
Halok etar meni ul sarv e’tidoli bila.

Emas yasang‘ali gar solmas ilgidin ko‘zgu
Ki, bo‘ldi ko‘rgali darmonda o‘z jamoli bila.

Xirad ko‘ngul sipahin to‘qtatay dedi, vahkim,
Buzuldi kirpigi xaylin ko‘rub yasoli bila.

Quyosh seni ko‘rub andoq uyaldi o‘z yuzidin
Ki, yerga kirdi tura olmay infioli bila.

Xazon kamindadur, ey bulbul, o‘lmag‘il g‘ofil,
Dameki dast berur aysh gul visoli bila.

Mukaddar etsa ko‘ngul shishasini zuhd, ne g‘am,
Navoiyo, kel-u yug‘il qadah zuloli bila.

561

Ishq aro dushvordur bo‘lmoq kishi hamdardi shoh,
Chun dey olmas dardini bir yil yugursa dodxoh.

Shoh dodimg‘a netib yetsunki, mulki ishq aro,
Qadri oliy shoh ila tengdur gadoyi xoki roh.

Shoh mendin ishq aro ojizroq o‘lsa tong emas
Kim, balokashlik mening xo‘yimdur, oning — izz-u joh.

Shohliqning daxli yo‘q ishq-u muhabbat ko‘yida
Kim, kerak anda sarig‘ yuz, la’lgun ashk, o‘tlug‘ oh.

Shohkim, matlubig‘a qulluq buyurg‘ay ishq emas,
Kimki oshiqdur, anga zor-u zabunlug‘dur guvoh.

Sarv ila xoshok agar gul oshiqidur farqi bor,
Sarvg‘a to o‘t tutashqay, kul bo‘lur yuz ming giyoh.

Ey Navoiy, sidq ila bo‘lg‘il gado ishq ichrakim,
Taxt-u tojin bersa, bu davlatni topmas podshoh.

562

Qayu yoreki bir yori bila jomi vafo cheksa,
Vafosinda aning yillar bo‘lur, dard-u balo cheksa.

Musallam yorlig‘ ul yorg‘akim, qo‘ymag‘ay minnat,
Gar o‘z yori uchun ag‘yordin ming mojaro cheksa.

Vafo ahli tong ermas ko‘zlariga to‘tiyo qilmoq,
Vujudum tufrog‘in gard aylabon bodi fano cheksa.

Qayonkim, ul sarig‘ to‘nluq borur men zor erishkanni
Sog‘ing‘aylar qachon kahbargni bir kahrabo cheksa.

Musavvirkim, qoshing chekti, ushatti xoma naqsh ahli,
Kishi da’vo ne nav’ etgay birav bu nav’ yo cheksa.

Yetishkay begumon ayn-ul-yaqin asrorig‘a har kim
Ayog‘ing tufrog‘idin ko‘zlariga to‘tiyo cheksa.

Borur ko‘yungga g‘am yeb o‘lgali ko‘nglum,
ne imkon man’,
Kishini bir taraf ham rizq cheksa, ham qazo cheksa.

Zamona ahlidin ko‘z tutmasun mehr-u vafo podosh,
Kishi yuz yil alarg‘a gar vafo aylab, jafo cheksa.

Bu gulshan qushlarig‘a benavolig‘ kelturur lahni,
Navoiy har qachon o‘z gulruxin istab navo cheksa.

563

Ne edi, ey ishq, yuz tiyg‘i balo bir zorg‘a,
Hajrdin ming zahri qotil bir hazin bemorg‘a.

Yorlig‘din ermas erdi qatl qilmoq yorni,
Ul g‘azabni xossakim qilmoq ruju’ ag‘yorg‘a.

Ko‘nglum oldi gar ko‘ngulsizlikdin o‘lsa yuz g‘amim,
O‘yla bedilmenki, dey olman ani dildorg‘a.

Oncha paykoning tanimdin chekti haryon boshkim,
Sa’bdur marham dag‘i yoqmoq tani afgorg‘a.

Ko‘zlari qonim to‘karlar, ey musulmonlar, ne tong,
Kechsa jonidin asir o‘lg‘an kishi kufforg‘a.

Nosiho, gar pand eshitmon bilasen ma’zurmen,
Men kibi devona bo‘lsang bir pari ruxsorg‘a.

Ujb ila taqvodin ortuq uzr ila qilmoq gunah,
May qanikim, o‘t solay bu pardayi pindorg‘a.

Rahm qil, yo Rabki, isyon kasratidin yo‘qturur,
Oncha fursatkim tilim evrulgay istig‘forg‘a.

Ey Navoiy, ham zamondin, ham zamona ahlidin
Har zamon g‘am yetsa yuzlan kulbayi xammorg‘a.

564

Ko‘yida yig‘lar edim men zor har bemorg‘a,
Emdi yig‘larlar bari bemorlar men zorg‘a.

Hajri bepoyon yo‘lin qat’ aylamak dushvor erur,
Za’fdin menkim yururmen qo‘l tayab devorg‘a.

Telba ko‘nglumning qushidin qon-u yuzdin za’faron,
Qilsalar daf’i jununum basdurur tumorg‘a.

Ishq paydo-vu nihon o‘lturdi, lekin yo‘qturur
Zahra bu holimni ham ixfog‘a, ham izhorg‘a.

Zulfida men foni-yu tasbih ila mag‘rur shayx,
Subha torin bas, ne yanglig‘ o‘xshatay zunnorg‘a.

Yo‘q ajab o‘lsam dag‘i kavsar suyi bo‘lg‘ay nasib,
Naz’ vaqti solsam o‘zni kulbayi xammorg‘a.

Zor o‘lub miskin Navoiy nechakim chekti fig‘on,
Qilmadi ul oy tarahhum bu fig‘on-u zorg‘a.

565

Chun kuyar parvona ul sham’i shabiston o‘tig‘a,
Anglag‘ay kuymakni bir tun kuysa hijron o‘tig‘a.

Har dam o‘rtarlar meni o‘tlug‘ iki kofir ko‘zung,
Necha kuygaymen ul ikki nomusulmon o‘tig‘a.

Ko‘nglum o‘tidin ne tong gar topsa ruxsoring furug‘,
Sho‘xi tarso mushaf o‘rtar shayx San’on o‘tig‘a.

Otashin la’ling gar ashkimdin kular ermas ajab
Kim, kudurat bahrdin fahm etti marjon o‘tig‘a?!

Gar ko‘ngulning oshkor o‘tig‘a taskin bersa ashk
Kim, qila olg‘ay iloj oning bu pinhon o‘tig‘a?!

Shu’la ul yanglig‘ki o‘rtar shoxni aylab nihon,
Satr keldi ish bu jismi zori uryon o‘tig‘a.

G‘am tuni ermas shafaqdin shu’lakim mahrumlar,
Kuydururlar ohdin gardunni hirmon o‘tig‘a.

La’li ko‘nglum ichradur qilma tutun, ey tiyra oh,
Rasm emas chun uyda dud etmak ayon kon o‘tig‘a.

Ey Navoiy, davr ayog‘in solma qo‘ldin lahzaye,
Gar desang taskin beray har lahza davron o‘tig‘a.

566

Bo‘lmag‘ay erdi falakning kinasi davronida,
Bo‘lmasa yaldo tuni oshiqlig‘im tug‘yonida.

Tun balosidin qatiqroq yo‘qturur oshiqqa hol,
Xossakim, bemor ham bo‘lg‘ay muhabbat onida.

Tiyra shomi hajr yo‘qkim, do‘zax o‘ti dudidur,
Ne qiyomat zormen ul hurvash hijronida.

Biym erurkim shu’lasi jannatni dog‘i o‘rtagay,
Bo‘lsa bir axgar o‘tumdin do‘zax otashdonida.

Garchi ul oy ko‘yi ichra itlarining soni yo‘q,
Mendururmenkim, eman ko‘yida itlar sonida.

Soyil andoqkim diram uzra diram qo‘yg‘ay, erur
Dog‘ uza dog‘i gadoyingning tani uryonida.

May bila ma’shuqdin o‘zga jahonda har ne bor,
Topmasang xushroq nechakim, zor esang armonida.

Bo‘lma bo‘ston-u saro qaydida olam ichrakim,
Yo‘q vafo qilsang nazar olam saro bo‘stonida.

Sham’siz tun bo‘lsa, ya’ni soya dog‘i bo‘lmasa,
Gar Navoiy bo‘lsa bir dam dilsitoni yonida.

567

Ishq aro ishlar tushar ermish kishining boshig‘a
Kim, qo‘shar ermish bag‘ir pargolasin qon yoshig‘a.

Qon labi hajrindakim, yuqti saro-sar, qildi la’l
Ishq boshim uzra yog‘durg‘an malomat toshig‘a.

Qoshidin naqdin o‘g‘urlarg‘a hamono bo‘ldi xam,
Ul yoshunsun deb, teri bo‘rkin chekiptur qoshig‘a.

Bo‘ldi rangomizliq oq-u qizil guldin magar
Orazing rangin ezarda surating naqqoshig‘a.

Asra siyming, ey g‘aniy, may berki, yo‘q tufroqcha,
Bersa olam naqdini dayri fano qalloshig‘a.

Ostoni zebig‘a tong yo‘q yetursam ashk-u oh,
Gah bulut saqqosig‘a, gohe sabo farroshig‘a.

Ey Navoiy, ta’n agar qilmish sening ishqingni shayx,
O‘z ishing mashg‘uli bo‘l, boqma aning qolmoshig‘a.

568

Yo‘q ilojim gar meni bir javr ila yod etmasa,
Vah, ne bo‘lg‘ay elni ham yuz lutf ila shod etmasa.

Ishq aro, eykim, deding, har lahza faryod etma, voy,
O‘t tutashqan chog‘ bo‘lurmu kimsa faryod etmasa?!

Nosiho, yozg‘urmakim zor o‘lmag‘ay ko‘nglum qushi,
Tengri ul orazni gul, ul qadni shamshod etmasa.

Xo‘blarg‘a chun vafo yo‘q, avlo uldurkim, ko‘ngul
O‘zni ul qattig‘ ko‘ngulluklarga mu’tod etmasa.

Yaxshi ochilmish bahoring gullari, ey bog‘bon,
G‘am xazoni xushtur avroqini barbod etmasa.

Va’da vasl etti, olib jon, xo‘yig‘a yo‘q e’timod,
Yaxshiroqdur gar bu savdo ichra mi’od etmasa.

Men vafoda o‘ldum, ammo ul jafoda xo‘b erur,
Bevafolig‘ shevasin bu jonib isnod etmasa.

Boshni qutqarg‘ay parilar toshidin har telbakim,
Yorlig‘ rasmida mayli odamizod etmasa.

Dilbari bedodidin aylar Navoiy shikva, lek
Jong‘a bedod aylar ul bir lahza bedod etmasa.

569

Ishq jurmidin netib inkor etay xalq ichra, vah
Kim, erurmen bu gunah ichra bag‘oyat begunah.

Bo‘lsa rahbarlarning irshodi gunahdin ijtinob,
Piri ishq etmish gunah aylarga bizni ro‘barah.

Ishq agar bo‘lsa gunah menmen gunahkor, ey ko‘ngul,
Tonmog‘im nohaqdurur bu ishda chun Haqdur guvah.

Gar gunahdur ishq, kosh o‘lsa xaloyiq begunah,
Men gunahga qoyil o‘lsam kosh-u ko‘yi — qatlgah.

Men gadoliqqa ne loyiq ollida, nevchunki bor
Nozi husn aylarda ul oy husn-u noz ahlig‘a shah.

Vahki, bag‘rimni labi hajrida tiyg‘i furqati
Yupqa-yupqa kesti-yu, tuz septi anda tah-batah.

Gar Navoiy yanglig‘ o‘rtansa ne tong parvona ham
Kim, aning yoridurur bir sarvqaddi kajkulah.

570

La’lidin bir so‘z sinuq ko‘nglumni aylar tog‘cha,
Naqdi jon bersam, yo‘q oning ollida tufrog‘cha.

Ravzadin do‘zaxqa tushkanning o‘tining shiddati,
Yo‘qturur kuymakta hijroningda qo‘yg‘an dog‘cha.

Bargi guldek orazingning shavqidin tirnog‘ ila
Yuz taraf ko‘ksumni so‘ydum, har biri tirnog‘cha.

Jismim o‘ldi gulbun ul gulsiz va lekin toza dog‘
Anda gulcha kasrati gulbun aro yafrog‘cha.

Nay ko‘rundi qomatingcha nayshakar shirin-u tuz,
Nay aning bandi belingga bog‘lag‘an belbog‘cha.

Soqiyo, ko‘nglumni ravshan istasang tut bodakim,
Yoruta olmas nima ul shu’lani bu yog‘cha.

Ey Navoiy, sen ko‘ngul bog‘in imorat qilki, bor
Sekkiz uchmog‘ janbida oning muhaqqar bog‘cha.

571

Yor har bazm ichra, men xorij mushavvashlig‘ bila,
Vahki, doxil ham bo‘la olman sabukashlig‘ bila.

Kirmayin bazmida topsam itlari xaylig‘a yo‘l,
Shod o‘lay naylay ish ochilmas mushavvashlig‘ bila.

Jonni xushlug‘ birla ul kofirg‘a berdim, negakim,
Ul xud olur,
qolsa ish olmaqqa noxushlig‘ bila.

Ey fusungar, qo‘p, magar ul vasldin qilg‘ay iloj
Kim, meni devona aylaptur parivashlig‘ bila.

Kim, falakning shashdaridin emin o‘lg‘ay bo‘ylakim,
Eltadur jon naqdini, lekin bori g‘ashlig‘ bila.

Der esangkim soya yanglig‘ bo‘lmayin tufroqqa past,
Ul quyoshqa boqmag‘il, ey sarv, sarkashlig‘ bila.

Ey Navoiy, shayxqa shayton gar afsor urmadi,
Bas nega doim qilur hazl ul uzun fashlig‘ bila.

572

Bahorni netayin, o‘t mening bahorimg‘a
Ki, tushmagay nazarim sarvi gul’uzorimg‘a.

Yuzi o‘tig‘aki ter shabnami qo‘yar yuz xol,
Xazondin o‘lmasun ofat bu lolazorimg‘a.

Dedingki, dayrg‘a kirsang may ixtiyor etma,
Qo‘yarmu mug‘bachayi mast o‘z ixtiyorimg‘a.

Ul oy jafo toshi yog‘durmog‘i bila o‘lsam,
Borin yig‘ib to‘kunguz, do‘stlar, mazorimg‘a.

Yopishti ko‘nglakima yara qonidin xirqam,
Nechukki ul yopishibdur tani figorimg‘a.

May o‘ti chun guli ruxsorin otashin qildi,
Aning sharoridin o‘t tushti ro‘zgorimg‘a.

May intizorida qo‘ydum tuganlar, ey soqiy,
Kelib qadah suyin ur dog‘i intizorimg‘a.

Qo‘yub behishtni mayxona sari bordimkim,
Iloj emas edi kavsar mayi xumorimg‘a.

Navoiy aylasa bulbul kibi fig‘on ne osig‘,
Chu rahm qilmadi ul gul fig‘on-u zorimg‘a.

"LOMALIF"NING LOLARUXLARINING LOBASI "G'AROYIB"DIN

573

Ul jigar pargolasi ashkimni gulgun qildilo,
Shod etay deb notavon ko'nglumni mahzun qildilo.

Va'da aylab jilvasin bog' ichra andoqkim pari,
Dasht uza ovora qilmog'likqa Majnun qildilo.

Dedi, vaslim birla ko'ptin ko'p g'amingni kam qilay,
Oni kundin kunga o'ksutmaktin afzun qildilo.

Qutqaray deb charx javridin meni sargashtani,
Anjumi paykon bila jismimni gardun qildilo.

Zulfig'a vahshiy ko'ngul saydin giriftor etkali,
Yo'q og'izdin bor ekancha hadde afsun qildilo.

Muflis erdim may qilib sing'on safolim jomi Jam,
Xotirim vayronasin xud ganji Qorun qildilo.

Kim, Navoiydin saloh istar, erur g'ofil base,
Xirqa-u sajjodasin ul mayg'a marhun qildilo.

574

Vafo va'da aylab jafo ayladinglo,
Jafo va'dasig'a vafo ayladinglo.

Mening birla yuz tiyralik zohir aylab,
O'kush tiyralarga safo ayladinglo.

Dedingkim, xatosiz otay ko'nglungga o'q,
Deb o'q otmag'an ne xato ayladinglo.

Visolingg‘a begona aylab ko‘ngulni,
Firoqing bila oshno ayladinglo.

Deding, ey ko‘ngul, ishqdin urmayin dam,
Bu ma’noda ko‘p mojaro ayladinglo.

Burun, ey falak, ko‘rguzub mehr, so‘ngra
Manga qism dard-u balo ayladinglo.

Navoiy, ko‘ngulga siyosatlar aylay,
Debon borin oxir mango ayladinglo.

“YO” HARFINING YAG‘MOYILARINING YUZ KO‘RGUZMAKLARI “G‘AROYIB”DIN

575

Zihi har lahni bulbul savtining zotingg‘a isbote,
Jahon bog‘ida har gul yafrog‘i husnungg‘a mir’ote.

Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o‘lmas mehr,
Ne hojat zarra xaylidin quyosh zotig‘a isbote.

Bo‘lub zotingda ojiz har sifat ichinda mavsufe,
Aningdekkim, qila olmay sifoting sharhini zote.

Xirad zotingda tashbih etkali har fikrkim aylab,
Takallum anda yo‘l topmay magar hayhot-hayhote.

Ne qahring zahridin emin bo‘lub har sokini masjid,
Ne lutfung bodasidin noumid ahli xarobote.

Ne zarra bo‘lsa maqbulung quyoshdin zarra qilg‘andek,
Quyosh ul zarradin aylab sharaf birla mubohote.

Navoiy zikri otingdur, umidi ulki qutqarsang,
Ani ot istamakdin, balki andinkim, bo‘lur oti.

576

Jilvamu aylar qizil to‘n birla har yon ul pari,
Yo magarkim lolazor ichra kezar kabki dari.

Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,
Bir yo‘li devonalar qonig‘a kirmish ul pari.

Hullasin xunoblig‘ jon rishtasidin qildi charx,
Bo‘ldi jonlar joni, vah-vah, ul parivash paykari.

Orazing naqshimudur qonlig‘ ko‘ngulda jilvagar,
Yo shafaqdin bo‘ldi toli’ oftobi xovari.

Ich shafaqgun mayki, gardun qotiledurkim, erur
Yangi oy birla shafaq tiyg‘-u libosi ahmari.

Qon aro ko‘nglum yuzung shavqidin andoq xastadur
Kim, erur gulgun harir oltida oning bistari.

Ul pari la’lida joning, ey Navoiy, bo‘ldi mahv,
La’lgun kisvatda mahv etgandek o‘zni ul pari.

577

So‘zi hajring ichra yo‘q biryon ko‘ngulning toqati,
Bo‘lmas ermish kuygan elning o‘t bila ko‘p ulfati.

Ashki tim-tim qonidin kulbam bezansa ne ajab
Kim, erur gul bargidin bulbul evining ziynati.

Tolpinur kul ichra mendek shu’la tortib go‘yiyo
Kim, quyoshning jismig‘a o‘t yoqti ul yuz hasrati.

La'li serobidin ar xat zohir o'lmas, ayb emas,
Xizrning hayvon suyi ichkandin o'lmish g'aybati.

Har sari maxfiy tuganlik jism ila munglug' ko'ngul,
Soyiledurkim, erur maml-u diramdin kisvati.

Ey musavvir, chekma nozir mendin o'zga zinhor,
Daftari ishqim aro yozilsa ul oy surati.

Mudbire toptuq Navoiyni salomatdin yiroq,
Ko'rkim, ul ne nav'-u ne yanglig' jahonda shuhrati.

578

Tavsaning na'lidin istarmen boshimg'a afsare,
Hindudekkim boshig'a tovusdin sanchar pare.

Orazingda may, may ichra orazing zohir qilur,
Gohe axtardin shafaq, gohe shafaqdin axtare.

Bazmi ayshin ko'kka nevchun chekmagay ulkim, anga
Tutsa Ruhullah dami har dam quyoshdek sog'are.

Masnadim ko'rgilki, har tun qasri tosh-u farshidin,
Boshqa xoro muttakodur, tang'a koshi bistare.

Vah, ne lo'livashdur ul qotilki umdan xalqning
Qonini to'kmakka har bir kirpigidur nishtare.

Orazing vasfi tuganmas kotibi sun' aylasa,
Dahr bo'stonida gul yafrog'laridin daftare.

Ey Navoiy, sarvdek ozod bo'l gar istasang,
Gul masallik shohide, bulbul kibi xunyogare.

579

Davlat tongi yuzi-yu sochi tong qarong‘usi,
Masti sabuh ko‘zlarin eltib tong uyqusi.

Bulbul pari emas, gul erur bergali jilo,
Har bargi gulki, yeldin erur tiyra ko‘zgusi.

Gulzor dahr shu’badasin go‘yi anglamish,
Ichinda za’farondin emas g‘uncha kulgusi.

Boshimni yuqori qila olman binafshadek,
Ko‘nglumga chunki chirmashur ul turra qayg‘usi.

Ko‘z bahri ichra shisha kiyib mardum etti g‘avs,
Yoyildi ushbu vajh ila yuz sari injusi.

Holimg‘a hajr bazmi aro tortsam surud,
Bor navha maddi telba ko‘ngulning ayolg‘usi.

Qatlimg‘a mujda berdi-yu o‘lturdi intizor,
Bir umrdin so‘ng elga yigit va’da bergusi.

580

Zohir aylar ashk ila ohimni hajring og‘usi,
Go‘yi mundoq esnatur oxir nafasning uyqusi.

Hajri bepoyon, tuni muhlik, jununum bul-ajab,
Subh go‘yo motamim tutmishki, kelmas kulgusi.

Kuydurub jismimni, bergaysen kulum birla jilo,
Tiyra bo‘lsa qon ila qatlimda tiyg‘ing ko‘zgusi.

Meni Majnundek tutuptur dasht demangkim, bu dasht
Tog‘lar erdiki, homun qildi ko‘nglum qayg‘usi.

Ey ko‘ngul, oh o‘qlarin ul g‘amzaning ollig‘a chek
Kim, o‘q otmog‘lig‘da sendin tuzdur aning qobusi.

Demangiz, oshiq ko‘ziga ne yorug‘lug‘dur mufid?
G‘am kuni dilbar yuzi, hijron tuni tong yog‘dusi.

Hajr aro tuzdi Navoiy vasl mulkin berdi yor,
Andoq ish qilg‘ang‘a mundin kam kerakmas jo‘ldusi.

581

O‘t solur el jonig‘a har dam sovug‘lug‘ birla day,
Soqiyo, sinmas havo zahri, ketur taryoki may.

Tuz shabiston ichra suhbatkim, ishorat mayg‘adur
Sham’i kofuriki, osti shusha muzlar birla day.

Otashin may birla, ey soqiy, qizitqil bazmni,
Mutribo, ul o‘tni tez etmakka ol og‘zingg‘a nay.

Dahr mushkin chun havo kofuri pinhon ayladi,
Bodayi mushkini kofuriy mizoj ichmay netay?

Ichkali ixfo uchun tun mushkini istar hakim,
Shukr bu kofur aro ham zohir ermas hech shay.

Ul quyosh qor uzra chiqqach yuzum uzra anglaman,
Ashk yo ko‘z oqi su bo‘lub oqarmu, yo‘qsa xay.

Ilgida maylik safol, usruk Navoiy qor uza,
Ey falak, qil jomi Jam birla tamosho taxti Kay.

582

Shukri lilloh, ey ko‘ngulkim, raf’ o‘lub hijron tuni,
Ul quyosh yuzin ko‘rarmen Tengrining qutluq kuni.

Otashin la'ling aningdek o'rtadi olamnikim,
Har taraf bir o't tutashqan jondur aning uchquni.

Mehrdin ruxsora sarg'arg'an sayi sargashtamen,
Zarra sargardonlig'in afzun qilur mehr oltuni.

Bodadin tim-tim qizarmish orazi, vah-vah, ko'rung
Kim, ajab gullar ochiptur ul malohat gulbuni.

Shomi hijron mehnatin sharh aylay olman za'fdin,
Ul qaro bosqan kishidekkim, aning chiqmas uni.

Axtaredur nahs ushshoqi badaxtar jonig'a,
Ulki har yon iltirar hijron tunining shudruni.

Ey Navoiy, demakim uyquni tush ko'rgay ko'zung,
Yig'lamoq bu ersa tush ko'rgay magar ko'z uyquni.

583

G'amingdin chun ajal go'r og'zida jismim nihon etkay,
Mazorim lavhi darding sharhini tildek bayon etkay.

Qanotlig' mo'rdek jismimni uy qilmish ajal xayli,
Magar ul nav' qushlar bu buzug'ni oshyon etkay.

Yuz ochqoch egma qaddim za'f qildi, vah, ne bildimkim
Quyosh vasli yangi oyimni mundoq notavon etkay.

Og'iz bo'ldi ko'ngulga choki-yu til anda paykoning,
Ne tong bu til og'iz birla agar muhlik fig'on etkay.

Qiliching suyini istar qurug'an naxldek qaddim,
Ajab ermas qazo oning gulin gar arg'uvon etkay.

Der erdim ko'yini yuy ashk ila el zaxmi qonidin,
Ne bildimkim, hamul el rashki-o'q ashkimni qon etkay.

Natija kuymag-u ashkimdin o‘zga topmag‘ay, ulkim,
Bu gulshan shu’la-vu dudin gul-u sunbul gumon etkay.

Tilar yuz laxt qon etkay nasibin dahr dehqoni
Qayu bulbulnikim, gul xoni uzra mehmon etkay.

Jigargundur Navoiy jismi qon yoshdin mahaldurkim,
Qazo bu nav’ la’l uchun fano tog‘ini kon etkay.

584

Sihhatim ozurda jononimda bo‘lg‘ay koshki,
Dardi oning tinmag‘ur jonimda bo‘lg‘ay koshki.

Notavon ko‘rguncha bistarda sinondek qomatin,
Yuz sinon bu chashmi giryonimda bo‘lg‘ay koshki.

Bo‘lg‘ucha ashki ravonim seli har yon jilvagar,
Jilva ul sarvi xiromonimda bo‘lg‘ay koshki.

Ko‘zuma gar kirpigim osibidin sunmas oyoq,
Barqi ofat bu nayistonimda bo‘lg‘ay koshki.

Ul ayoq ozurda bo‘lg‘uncha bo‘lub boshim fido,
Zahmati boshtin ayoq jonimda bo‘lg‘ay koshki.

Nolam ul oyg‘a yetib jon vaslidin mahrum erur,
Jon dag‘i payvasta afg‘onimda bo‘lg‘ay koshki.

Ey Navoiy, dema rozisenmu umrung istasa,
Yuz mening umrumcha sultonimda bo‘lg‘ay koshki.

585

Nechakim, ul oyg‘a mendin mehribonroq yo‘q kishi,
Yaxshi to qilsam nazar mendin yomonroq yo‘q kishi.

Xastalar jonig‘a ul bemor ko‘zdin novake
Gar otarsen bilki, mendin notavonroq yo‘q kishi.

Oh-u xunobimni lahn-u boda qilmishsen gumon,
Dilrabolar ichra sendin badgumonroq yo‘q kishi.

Ahli ishq ozori jonin istabon tishlar labin,
Mendin ushbu qissada, ozurdajonroq yo‘q kishi.

Yor etar ermish vatan bexonumonlar ko‘nglini,
Shukr mendin ko‘yida bexonumonroq yo‘q kishi.

Xoslar vasl istagaylar, vahki, men devonadin
Ul pari ko‘yida benom-u nishonroq yo‘q kishi.

Ey Navoiy, xurdayi nazmingg‘a isloh istasang,
Shohi G‘oziydin jahonda xurdadonroq yo‘q kishi.

586

Sensizin bazm ichra qat-qat qon ko‘ngul betob edi,
Dam-badam jomi labo-lab chekkanim xunob edi.

Har muqannad pistakim, bazm ichra erdi jilvagar,
La’ling-u og‘zing xayolidin ko‘ngul betob edi.

Bazm edi jonbaxsh may birla yorug‘, vahkim, manga
Zulmat erdikim, hayotim chashmasi noyob edi.

Halqayi bazm elga qayd-u bir musalsal turradin
Chekkali ul bazmdin jonimda yuz qullob edi.

Yetti ko‘k javfi to‘la g‘amni azaldin go‘yiyo
Ishq jam’ aylab mening jonim uchun asrab edi.

Siymgun g‘alton sirishkimdurki, holo bo‘ldi qon,
Buki el shingarf deydurlar, burun siymob edi.

No‘shi vasl ar yetmasa g‘am yo‘q Navoiykim, mudom
Hajrdin ahli vafo jomida zahri nob edi.

587

Tilarmen muztar etsa ofati ozurda jonimni,
Sovursa ofiyat birla tuzulgan xonumonimni.

Chiqib sarxush, chopib abrash, qilib javlon, olib maydon,
Vujud iqlimidin mahv aylasa nom-u nishonimni.

Urub jonimg‘a nishi g‘am, tuzub qatlim uchun marham
Xino qilsa balo shohidlari ilgiga qonimni.

Firoq ichra alifdek qaddima g‘am tog‘ini yuklab,
Uhud ostidag‘i dol etsa jismi notavonimni.

Junun ko‘yida usruk sudratib ratb ul-lison[1] qilsa,
Fano avboshig‘a dayr ichra bu rozi nihonimni.

Yuzin aylab qaro keynicha solib ishq atfolin,
Bori mast-u malang o‘ynatsa aqli xurdadonimni.

Navoiy, ne may erdikim, ichib olamg‘a fosh ettim,
Ulustin yoshurun yillar ko‘ngulda asrag‘onimni.

588

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o‘zumdin boray,
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqoray.

Bo‘g‘zuma jome quyub, qutqar gadolig‘din meni,
Vah, necha bo‘g‘zum chekib bir jur’a uchun yolboray?

Bir qadah may bersalar, vah, g‘oyati iflosdin,
Necha la’li qiymati topqan gadodek oldoray.

[1] **Ratb ul-lison** — tilni ho‘l qilish, tilni namlash.

Tortay o‘zumni evaz, kim qilsa ehson bir qadah.
Bu bahona birla o‘zlukdin o‘zumni qutqoray.

Vajhi may jon naqdi-yu tan dog‘idur, ey mug‘bacha,
Xilqatim ganjinasin yuz qatla gar xud axtoray.

Jong‘a yettim aql vasvosi bila, Tengri uchun,
Soqiyo, jomimda afyun ezki, botroq telboray.

Eyki, debsen g‘ayrdin ayru kel-u chek jomi vasl,
Gar bu xilvatda Navoiy mahram ermas qaytoray.

589

Bo‘lg‘ay erdi yuz tuman ming ranj-u mehnat koshki,
Bo‘lmag‘ay erdi balo-vu dardi furqat koshki.

Yeldek aylarda havo sayr etkali jismim xasin
O‘rtagay erdi urub bir barqi ofat koshki.

Xosiyat chun telbarab sahrog‘a yuzlanmak emish,
Tutmag‘ay erdim parilar birla ulfat koshki.

Ofiyat kunjin, dedim, istay buzuldum bir yo‘li,
Ko‘nglum ichra kechmagay erdi bu niyat koshki.

Yuz g‘arib ahvol bekaslikda har dam bor emish,
O‘tmagay erdi tilimga lafzi g‘urbat koshki.

Jilva qilg‘uncha tilab tovus yanglig‘ ganji zeb,
Chug‘z yanglig‘ tutqay erdim kunji uzlat koshki.

Yordin el rashkidin bo‘ldum judo, bo‘lg‘ay edi
Iltifotin g‘ayr ila ko‘rmakka toqat koshki.

Demakim, jon et fido ahbob ila topqach visol,
Ey Navoiy, umr bergay oncha muhlat koshki.

590

Xushturur gulgun qadah davrinda gulbargi tari,
Xossa bayram avvali bo‘lg‘ay, dag‘i gul oxiri.

Har varaq bir nomayi ishratdurur fahm aylagil,
Tong yelidin abtar o‘lmastin burun gul daftari.

G‘uncha xudi birla gul qolqonig‘a yetti shikast,
Bo‘lg‘ali paydo sarig‘ savsanning oltun shashpari.

Gul adam shomig‘a yuzlangan uchun zanbaq guli
Bor kumush mash’al dog‘i-yu xurdalardur axgari.

Lola qon uzra bo‘yalib, o‘t uza anbar qo‘yub
Bor parixon, chiqmag‘an g‘oyib chechaklardur pari.

Nilufar tutmish sipehri lojuvardiy hay’atin,
Jolalar yuzinda andoqkim nujum-u axtari.

O‘gsa la’lingni Navoiy sanga xush kelmas, vale
Xushturur gulgan qadah davrinda gul bargi tari.

591

Sevungil, ey ko‘ngul, oxirki jisming ichra jon keldi,
Quvon, ey joni mahzunkim, hayoti jovidon keldi.

Safardin ul pari yetti, meni mahzunni shod etti,
Ko‘nguldin eski g‘am ketti, tan ichra yangi jon keldi.

Xirad, yig‘ bu masofingni, tahammul, qo‘y gazofingni,
Vara’, tark ayla lofingniki, oshubi jahon keldi.

Damekim andin ayrildim, ko‘ngulni hamrahi qildim,
Butun keldi ko‘ngul, bildimkim, ul nomehribon keldi.

Keliptur yoshurun ul shah, meni majnun eman ogah,
Pari ermas esa bas, vah, nechuk ko‘zdin nihon keldi.

Falak boqti fig‘onimg‘a, ajal rahm etti jonimg‘a,
Xazonlig‘ bo‘stonimg‘a guli bog‘i jinon keldi.

Mug‘anniy bir navoye tuz, Navoiy nag‘maye ko‘rguz,
Ayoqchi, tomsa tut to‘qquzki, Doroyi jahon keldi.

592

Ikki hamdamkim, erur may bazm aro hamdamlari,
Topmasun bizdin malolat xotiri xurramlari.

Oy-u kunkim bazm tuzgaylar falak xirgohida,
Zarrayi sargashtadin ne bo‘lg‘usidur g‘amlari.

Gul bila nasrinki, chekkay boda nargis jomidin,
Zulm erur voqi’ki, bulbul bo‘lmag‘ay mahramlari.

Chug‘zdin ram aylasa ne ayb durroj-u tazarv,
Xossa bo‘lsa mastlig‘din o‘zgacha olamlari.

Ey tabib, o‘lgumdurur go‘yoki ushbu kechadin,
Zaxmliq ko‘nglumga o‘qdek sanchilur marhamlari.

Ey mug‘anniy, bo‘lma g‘ofilkim, zaboni hol ila,
Navha aylaydur mening holimg‘a sozing bamlari.

Kechalar aflok nevchun yosh to‘kar kiyib qaro,
Bo‘lmasa miskin Navoiy holig‘a motamlari.

593

Yuz urma har taraf, ey sho‘x-u zor qilma meni,
Qaror tut nafase, beqaror qilma meni.

Ko‘zumni sham’i jamoling furug‘i birla yorut,
Tong otkucha kechalar ashkbor qilma meni.

Xudoy uchun yana har sari bexabar borma,
Fig‘on-u nolada beixtiyor qilma meni.

Tarahhum aylagil, ey ixtiyorsiz nola,
Damo-dam el ichida sharmsor qilma meni.

Hayot ranji, o‘lum yodi sa’b emish, soqiy,
Bu dayr ichinda dame hushyor qilma meni.

Men o‘zga, Vomiq-u Farhod o‘zgadur, ey ishq,
Tana’um ahli aro e’tibor qilma meni.

Qayonki borsang o‘larmen Navoiy yanglig‘ zor,
Yuz urma har taraf, ey sho‘x-u zor qilma meni.

594

Ey dudog‘ing sharbatida obi hayvon lazzati,
Lazzate bo‘lg‘ay, nasibim bo‘lsa la’ling sharbati.

Kechalar hajringda bexudmen, mening holimg‘adur
Sham’ning gah kuymagi, gah nolasi, gah riqqati.

Mehnati hajringda ishim oh ila faryod erur,
Oh agar faryodima yetmas visoling davlati.

Lablaringning hasrati ko‘nglumda bo‘lsa ne ajab,
Shisha birla bodaning bir-birga ko‘ptur nisbati.

Orazingg‘a, ey pari, majnun ko‘ngulning mayli bor
Telba yanglig‘kim, aning o‘t birla bo‘lg‘ay ulfati.

Umr erur ishq ahlig‘a payki nasim, ey bog‘bon,
Basdurur bu muddaog‘a shohid aning sur’ati.

Yuz-u xolingdin Navoiyning ko‘zidur qon aro
Loladekkim, dog‘i bo‘lmish ko‘z qarosi hay’ati.

595

Nargisin gul uzrakim, bemor etar noz uyqusi,
Misli sho‘xedurki, sust etkay ani yoz uyqusi.

Ko‘z ochib bexudlug‘umni ko‘rmasa yo‘qtur ajab
Kim, manga baxt uyqusi bo‘lmish, anga noz uyqusi.

Charxi soyir go‘yiyo oshiqdururkim, kechalar
Bor aning ham men kibi ko‘p ashki-yu oz uyqusi.

Bizni daf’ o‘lsun debon solmish o‘zini uyqug‘a,
Zarqdin xoli emastur ul fusunsoz uyqusi.

Har tun aylar istimo’ el qissasin, vahkim, kelur,
Menki o‘z holim desam, ul qissapardoz uyqusi.

Ista komil xidmatin g‘aflatni raf’ aylay desang,
Bordur o‘zdin g‘oyib o‘lmoq zumrayi roz uyqusi.

Ey Navoiy, ochma g‘amdin ko‘zki, sirrim qildi fosh,
Yaxshiroq bedorlig‘idin bo‘yla g‘ammoz uyqusi.

596

Tanuredur ichim, go‘yo qizitqan ishq o‘ti oni,
Yopishturg‘an kabob o‘rni anga har dog‘i pinhoni.

Qizil raglar emas ko‘z ichrakim,
ko‘z mardumin g‘amzang
Aningdek nishlar urdiki, oqmish har taraf qoni.

Erur qadding xayoli gah ko‘ngul, gah ko‘zda go‘yokim,
Budur ul jo‘ybor, u — bog‘ning sarvi xiromoni.

Tariqi ishq aro ko‘nglumdadur har dam g‘ami, ul uy
Ajab yo‘l uzradurkim, o‘ksumas bir lahza mehmoni.

G‘amim shomin yorutti qadding ul yuz shu’lasi birla,
Netar kunduzni ulkim, bo‘yladur sham’i shabistoni.

Yonar o‘tlug‘ ko‘ngulda otashin la’ling firoqidin,
Qiziq har la’lgun paykon erur bir la’li paykoni.

Xati rayhoni ichra bodayi la’lin xayol aylab,
Uchar har lahza ruhum, soqiyo, tut rohi rayhoniy.

Munungdekkim, yiroqdur ka’bayi maqsad hamonokim,
Erur manzilg‘a yetmasdin jarasning tinmay afg‘oni.

Navoiy davlati boqiy tilar bo‘lsang yaqin bilkim,
Erur solikka mushkil topmoq oni bo‘lmayin foniy.

597

Ey ko‘ngul, berding ilikdin vaslining davronini,
Bilmading bu nav’ talx ermish g‘ami hijronini.

Go‘yiyo Farhod erur tog‘ ichrakim, cheksam fig‘on,
Ul dag‘i hamdardlig‘din teng chekar afg‘onini.

To‘tiyoye ko‘z tutarmenkim, ketursang, ey nasim,
Ko‘rsang ul badmehr chobuk turkning javlonini.

Qoldi ko‘nglum senda, lekin asradim, ey qoshi yo,
Xasta ko‘nglum o‘rnida xokiylaring paykonini.

Ne uchun kiymish qizil to‘n dahr bo‘stonida gul,
Gar oqizmoq istamas oshufta bulbul qonini?

Tiyrboroni g‘aming jismimni qildi yerga past,
Vahki, yomg‘ur kasrati yiqti g‘aming vayronini.

Ey ajal, Tengri uchun ketkim, bihil qilman sanga
Qo‘ymasangkim, dardi-o‘q olg‘ay Navoiy jonini.

598

Ul oyki, mehri ila olamni muhtaram qildi,
Bu telbaga nedin oyo nazarni kam qildi?

Ko‘zum iziga yaqindur munga dag‘i yuz shukr,
Agarchi yo‘lida gardun qadimni xam qildi.

Nasihat etsa ulus tezrak bo‘lur ishqim,
Bale, itikrak etar o‘tni ulki dam qildi.

Firoq sharhini har kirpigim yozar, go‘yo
Falak mijamni tengiz ichragi qalam qildi.

Ul oy azimat etib yuz g‘am-u balo naqdin
Nasibim etti, yomon bormadi, karam qildi.

Sipehr ishqda Majnung‘a yozdi ko‘p ta’rif,
Muqobilida zamona meni raqam qildi.

Ko‘zumki qon aro bo‘ldi nihon ajab ermas
Ki, “ayn”g‘a chu dam o‘ldi qarin, adam qildi.

Shukufa siym chiqarg‘ach bu gulshan ichra xazon,
Havog‘a bargini sochmoq bila sitam qildi.

Navoiy jismin o‘qung zaxmi etti domi balo,
Visol qushlari andin magarki ram qildi.

599

Mahvashekim mehridin bo‘ldum jahon ovorasi,
Rahm etib bir chora qilmas o‘lsa ham bechorasi.

Zaxmlar qilding yana g‘am nishidin, ey bevafo,
Butmish erdi vasl no‘shi birla bag‘rim yorasi.

Bevafolar ko‘ngli tong yo‘q lablaringga bo‘lsa sayd,
Qaydakim la’l o‘lsa, atrofida bo‘lur xorasi.

Yuziga boqqach, ajab yo‘q ko‘zlarimga to‘lsa ashk,
El ko‘ziga yosh to‘lar qilsa quyosh nazzorasi.

Dardi hajringdin Navoiy ko‘ngli, ko‘ksi, bag‘ridur,
Har biri yuz pora-vu ming yora har bir porasi.

600

Qildim ul oy ollida oshiqlig‘im izhorini,
Men anga sirrim dedim bilman aning asrorini.

Ko‘z qarosin hal qilib ul oyg‘a yozg‘um nomaye,
Bore bu tazvir ila ko‘rgay ko‘zum ruxsorini.

Ko‘zidin to jong‘a yetman la’lidin bermas hayot,
Ul Masih o‘ldum deganda tirgizur bemorini.

Hayfdurkim, rishtayi tasbih qilg‘ay ahli zuhd,
Kufri zulfi ichra o‘lgan xalqning zunnorini.

Orazing davrin chekarda go‘yiyo naqqoshi sun’,
Mehr davri birla teng ochmish edi pargorini.

To‘kma jominkim, balo seli jahonni buzmasun,
Mast ko‘rsang, zohido, dayri fano xammorini.

Ey Navoiy, shavqidin o‘lsam imorat qilg‘asen,
Tufrog‘im birla muhabbat ko‘yining devorini.

601

Ohkim, ul ganj yod etmas bizing vayronani,
Ul quyosh bir zarra yorutmas buzug‘ koshonani.

Egma qoshin ko‘rguzub aylar manga man’i junun,
Yangi oy birla kerak sog‘ etsa bu devonani?

Ko‘zuma ul vajhdin dermen yuzung afsonasin
Kim, sevarlar uyqusizlar doyimo afsonani.

O‘zgalar husnidin o‘rtanmanki, gardun har kecha
Yorutur ming sham’-u kuydurmas biri parvonani.

Chiqti jonim bodayi la’lin ko‘rub, ey mug‘bacha,
Vah, to‘la aylab netarsen qasdima paymonani.

Bilmadikim, avval aylar nafy ranjidin xalos,
Nafyi qilg‘an shayx mug‘ ko‘yidagi mayxonani.

Ashk yo‘lin tut, Navoiy, xoki poyi birlakim,
G‘ussa bar berur qayonkim, sochsam ushbu donani.

602

Har tikan bu g‘unchadek ko‘nglumda paykon bog‘ladi,
Ey jigar pargolasi, sensiz ichim qon bog‘ladi.

Sendin ayrilmoq ko‘ngulga mumkin ermas to abad,
Chun sening birla azaldin ahd-u paymon bog‘ladi.

Lablaringning shavqidin har qatra qonkim, to‘kti ko‘z,
Sovug‘ ohimdin hamul dam la’l-u marjon bog‘ladi.

Dedi aql-u fahm ani ko‘rgach, shikebe ko‘zlali,
Vahki, tun bog‘in yana ul sho‘x chaspon bog‘ladi.

Qondin o‘ldi dard bog‘ining guli har paxtakim,
Dog‘ima sabr ilgi marham birla har yon bog‘ladi.

Sovurub tifli xazon tufrog‘ ila teng qilmag‘an
Qaysi bir guldasta bu bog‘ ichra dehqon bog‘ladi?

Ishtiyoqingdin Navoiy o‘ldi-yu yetmas sanga,
Go‘yiyo bu nav’ oyog‘in bandi hijron bog‘ladi.

603

Ey ko‘ngul, kelkim, ikov bo‘lub nigore ko‘zlali,
Sarv qadde istabon siyminuzore ko‘zlali.

Yorlig‘ ko‘z tutqonimiz ko‘zladi chun o‘zga yor,
Bizda ham ko‘z bor, borib bir yerda yore ko‘zlali.

Chun g‘ubori markabidin ravshan aylar el ko‘zin,
Termurub turg‘uncha borib, shahsuvore ko‘zlali.

Sayri bog‘-u dasht etarbiz ham yana bir yor uchun,
Bog‘ sari ko‘z solali, dashtsore ko‘zlali.

Gar aningdek sho‘xi shahroshubi ofat topmasaq,
Bir faqiri mehriboni g‘amgusore ko‘zlali.

Garchi nopaydo erur maqsud, armon qolmasun
Xos-u om ichra qila olg‘uncha bore ko‘zlali.

Ey Navoiy, bo‘lmag‘ung andin bular birla xalos,
Kelki, ham vaslin tilab sabr-u qarore ko‘zlali.

604

G‘unchadek qon bog‘lanibdur ko‘nglum, ey gul xirmani,
Borg‘ali ko‘z jo‘yboridin jamoling gulshani.

Ko‘z qarosidin yozay dermen bitik, hayhotkim,
Kuydurur g‘ayratki, men mahrum-u ul ko‘rgay sani.

Aql qochti ko‘nglum ichra sokin o‘lg‘ach dardi ishq,
Mo‘r manzilgohi ermas ajdaholar maskani.

Ko‘nglum uyida g‘ami toriqmasun har zaxmidin,
Marhamin tashlangki, har yondin ochilsun ravzani.

Arg‘uvoniy ashk aro savsan masallik lolmen,
To to‘ningdur arg‘uvoniy, ko‘nglakingdur savsaniy.

Har gul ushbu bog‘ aro ko‘rsang tikan osibidin,
G‘arqayi xunob o‘lub yuz chok erur pirohani.

Ashk qonida Navoiydur so‘ngak jismi bila
Ul muborizkim, qizil jins ichra bo‘lg‘ay javshani.

605

G‘ariblig‘ yana ko‘nglumni dardnok etti,
Shikastalig‘ yana ko‘ksumni chok-chok etti.

Bu barcha bir sari-yu yor holatimni bilib,
Tag‘oful etmagi men xastani halok etti.

Damingni asra, Masihoki, chiqmag‘ay gardim,
Bu damki, ko‘yida jismimni dahr xok etti.

Yuzungga ulki quyosh tobi berdi yuz ming shukr,
Quyosh kibi meni ham ishqing ichra pok etti.

Xush ul dameki, degaylar fano o‘tig‘a falon
Qadam qo‘yarda ne vahm ayladi, ne bok etti.

Ne may, ne jom, men usruk hamesha, go‘yo ishq
Tanim hadiqasida raglarimni tok etti.

Navoiyni tila andin burunki, degaylar
Adam yo‘lin tutub ul zori benavo itti.

606

La’lingga bog‘landi jonim hajr elindin ol ani,
Zulfungga chirmashti ko‘nglum qilmag‘il pomol ani.

Bog‘ladi ko‘nglum manga oshiqlig‘ining tuhmatin,
Shart qildim ko‘rgach-o‘q rasvo qilay filhol ani.

Sendin ayru xo‘blardin ochilur ko‘nglum, vale
G‘uncha yanglig‘kim, ocharlar kuch bila atfol ani.

Ey sabo, bag‘rimg‘a sanchilg‘an tikankim, anglading,
Bo‘lsang ul gul birla hamdam qilg‘asen irsol ani.

Ul alifkim, nil ila chekting uzoring yonida,
Husn ichinda birga o‘n qilmish yonida xol ani.

Bu chaman kayfiyatin ozodayekim qildi fahm,
O‘n tili savsandek o‘lsa hayrat aylar lol ani.

Ey Navoiy, deb eding ko‘rgach ani jon topshuray,
Bo‘lsa bu davlat muyassar qilmag‘il ehmol ani.

607

Qani visolingga bir mendek orzumande,
Visol umidi bila mehnatingg‘a xursande?

Fano mayin ichib ovoralig‘ yo‘lin tuttum,
Nasihat ahli manga emdi bermangiz pande.

Erur tanimdag‘i yuz dog‘ birla munglug‘ jon,
Gadoki, to‘nig‘a har sari solsa payvande.

Sabab bu erdi ekin xilqatidin Odamning
Ki, bo‘lg‘ay anga seningdek xujasta farzande.

Ko‘ngulni sho‘xlar andoq talashtilar kesishib
Ki, qolmadi meni bedil nasibi parkande.

Chog‘irni oqil esang la’l deb qizitma dimog‘
Ki, o‘tni islamadi gul debon xiradmande.

Ajal, Navoiyni qutqaz baloyi hirmondin
Ki, ul zaif bu dard ichra asr-u emgandi.

608

O‘tum xud etmadi ul toshbag‘irg‘a ta’sire,
Bu yona o‘tki, topilmas bu ishga tadbire.

Ne turfa surati bordurki, hech surat ila,
Qazo musavviri qilmadi bo‘yla tasvire.

Shikoyatim ko‘p-u qolmas seni qachon ko‘rsam,
Tanimga tob-u tilimga majoli taqrire.

Tushumda obi hayot ichtim, ohkim, kelmas
Ko‘ngulga la’lini o‘pmakdin o‘zga ta’bire.

Meni muqayyad etar bo‘lsang, ochma halqayi zulf
Ki, pashsha qaydig‘a yo‘q ehtiyoji zanjire.

Gul ichra shabnam ila xurdadur su-yu dona,
Magarki, qaydig‘a bulbulnung etti tazvire.

Navoiy yordin ar zulm erurki, lutficha bor,
Sen etmasang kerak o‘z qullug‘ungda taqsire.

609

Jonim chiqadur, hajr ila jonon kerak erdi,
Ko‘nglum kuyadur, dard ila darmon kerak erdi.

G‘am shomida parvona sifatkim, kuyadurmen,
Boshim uza ul sham’i shabiston kerak erdi.

Ko‘z bog‘ida yuz gul ochadur ishq, va lekin
Yuz-u xatidin lola-vu rayhon kerak erdi.

Xush keldi hazin ko‘nglum aro g‘amzalaringkim,
Oh o‘qlarig‘a bir necha paykon kerak erdi.

Qabrimg‘a xirom etting-u, yo‘q tuhfaye, vahkim,
Bu xas kibi jon ichra bugun jon kerak erdi.

Xush ziynati ko‘p nomadurur umr, va lekin
Tavqi’i vafodin anga unvon kerak erdi.

Bilmay seni ul gul qovar, ey zor Navoiy,
Sendek anga bir bulbuli nolon kerak erdi.

610

Bo‘ldi iyd, ul turki chobuk azmi maydon qilg‘usi,
Vahki, el bexudlug‘i jonimni qurbon qilg‘usi.

Barqi ofat bo‘lg‘usi har shu’layekim ayrilur,
Markabi tuynog‘idin ul damki javlon qilg‘usi.

O‘q hunilab o‘t yolindek har tarafkim qo‘ysa yuz,
Yuz ko‘ngulni kuydurub, yuz jonni vayron qilg‘usi.

Oshkoro jon olib har yon qilur mashg‘ul o‘zin,
Elni bilmas deb yigit o‘zini nodon qilg‘usi.

Sham' emas ko'z ochtilar nazzorag'a ahli qubur
Kim, ul oy iyd oqshomi sayri xiyobon qilg'usi.

Subh maydon azmi qilg'ach, vahki, yo'q yolg'uz meni
Olam ahlin iydi ruxsorig'a hayron qilg'usi.

Iydgoh ahli hujumi birla, ey shah, qilma kibr
Kim, falak bu jam'ni holi parishon qilg'usi.

Ey Navoiy, rashkdin o'ldumki, ul qotil bugun
Har taraf bu shakl ila yuzlansa yuz qon qilg'usi.

611

Yor ila bir xilvat istarmenki, ag'yor o'lmag'ay,
Balki ul xilvatning atrofida dayyor o'lmag'ay.

Ko'zga ko'nglum dardidin yig'larg'a imkon qolmag'ay,
Tilga dardim sharhini aylarga guftor o'lmag'ay.

Eldin andoq yoshurun istarmen ul xilvatnikim,
Ko'nglum andin voqif-u jonim xabardor o'lmag'ay.

Yor budi ichra nobud o'lg'amenkim, o'rtada
O'zgalikdin demakim, o'zlukdin osor o'lmag'ay.

Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,
Ul fazo davrida ko'z yetguncha devor o'lmag'ay.

Maxfiy asrorimg'a bo'lg'ay yor lafzidin ado,
Yordin ayru va lekin sohibasror o'lmag'ay.

Ey Navoiy, qilma har yor ollida sirringni fosh,
Bormudur imkonikim, ul yorg'a yor o'lmag'ay.

612

Yana balo choqinin ishq telba jonima urdi,
Fano quyuni yetibon kulumni ko‘kka sovurdi.

Magarki, men kibi eldin qocharni ayladi varzish,
Kiyiklar ichraki, Majnun tamomi umr yugurdi.

Men archi ko‘yida o‘ldum qovungki, telbarar oxir,
Churuk so‘ngakni tanimdin uzub, ne itki, ko‘murdi.

G‘aming qo‘yub tugan uzra tugan bu makr ila ko‘rkim,
Tanimda har tugan ichra necha tuganni yoshurdi.

Ko‘ngulda gar o‘qung itmish, yana bir o‘q dag‘i otkim,
Bu nav’ topsa bo‘lur har kishiki, bir o‘q iturdi.

Dam urma-yu qadah ichkilki, telba bo‘lmasa voiz,
Nedin edi urunub, qichqiribki, og‘zi ko‘purdi.

Firoq dog‘ig‘a mash’al fatilasi keturungkim,
Navoiy og‘zini chun kupka qo‘ydi, pok sumurdi.

613

Labing takallum etib, so‘zda lol qildi meni,
Ochildi zulfung-u oshuftahol qildi meni.

Yuzi ko‘rundi, oching emdi zulfi silsilasin
Ki, ul pari yana majnunmisol qildi meni.

Ayog‘in o‘pkali boshim yo‘lig‘a yetkurdum,
Fig‘onki, zulfi kibi poymol qildi meni.

Qoshi xayolida payvasta baski, chektim ranj,
Falak bu g‘amda nechukkim, hilol qildi meni.

Beli g‘amida xayol o‘ldum oh-u afg‘ondin,
Bu mo‘ya mo‘y etib, ul nola nol qildi meni.

Kup og‘zima quy-u qo‘y adl jomin, ey mug‘kim,
Qazo bu shevada bee’tidol qildi meni.

Navoiy, anglaki, jurmumcha yuz umidim bor,
Faqihi zohid o‘zidek xayol qildi meni.

614

Xarob aylading, ey ishq, xonumonimni,
Tasavvur aylaki, o‘ldum, bag‘ishla jonimni.

Magarki, ishq malomat o‘tin yorutmoq uchun
Qurutti o‘ylaki xas jismi notavonimni.

Bu turfa ko‘rki, fuzun bo‘ldi la’lgun ashkim,
Agarchi shu’layi ishqing qurutti qonimni.

Fig‘onki, o‘ldum-u ko‘yida xalq g‘avg‘osi
Aning qulog‘ig‘a yetkurmadi fig‘onimni.

Bugun tanimg‘a nishon ul hayotdin kelibon
Ki, tongla topmag‘asen istabon nishonimni.

Chu ishq oyatida savt-u harf yo‘l topmas,
Kamoli ishq iturmish magar bayonimni.

615

Dedimki, ko‘zga chekay gardi rahnavardingni,
Fig‘onki, topmadi ko‘z to‘tiyog‘a gardingni.

Magar zamona ko‘zi surma istar erkandur
Ki, gard qolmadi surganda rahnavardingni.

Firoq-u orzu-vu shavq har biri bir dard,
Desamki, darding etay sharh qaysi dardingni.

Safarda yomg‘ur-u yel bo‘lmasun muzohim anga,
Ko‘z, asra ashk-u ko‘ngul, chekma ohi sardingni.

To‘shab samandig‘a farsh, ey zamona, o‘tkarding
Sipehr-u axtaridin sabza birla vardingni.

Ko‘k ablaqin egarib, ey quyosh, sinon tortib,
Magar bu zarrag‘a qilding ayon nabardingni.

Navoiy, emdi nishot avji tutki, gardishi charx
Keturdi mohi falaksayri tezgardingni.

616

Qo‘zg‘adi ohim so‘ngak birla tani g‘amnokni,
Yel sovurdi bir ovuch tufrog‘ ila xoshokni.

Demagil sihhat so‘zinkim, ko‘ksum uzra tiyg‘i ishq
Aylar ikki chok, tikmasdin burun bir chokni.

Buki olamg‘a havodis tushti, go‘yo qo‘zg‘amish
Ul quyosh hajrida ohim anjum-u aflokni.

Men xud ettim azmi masjid, ey musulmonlar, va lek
Bok emas gar ko‘rmasam ul kofiri bebokni.

Qildi chun hijron meni nobud, tutma jomi vasl,
Zahr chun o‘lturdi zoyi’ qilmag‘il taryokni.

Qaddidin og‘zimda hayrat barmog‘idur, zohido,
O‘tqa sol emdi aso, boshingga ur misvokni.

G‘ayri lof ermas Navoiy pokravliqdin hadis,
Topmayin bir g‘ayr naqshidin zamiri pokni.

617

Ishqing ichra ko‘ksuma oncha junun toshin uray
Kim, xiradning shavkatin, taqvo shukuhin sinduray.

Qilsa tavsanlig‘ ko‘ngul tortib junun zanjirig‘a,
Hajr zindonida ishqing shahnasig‘a topshuray.

Ul pari ko‘zdin chu maxfiydur hamesha, vah, necha
Istab oni topmasa, majnun ko‘ngulni yozg‘uray.

G‘am tuni anjum ko‘zi yanglig‘ yumulmas ko‘z bila,
Vah, necha gohe yuray, gohe turay, goh o‘lturay.

Chun ne taqdir o‘lsa tag‘yir o‘lmas ermish sa’y ila,
Qayg‘u qismim bo‘ldi deb ortuqsi nevchun qayg‘uray.

Ul quyoshqa zarraye ta’siri chun yo‘qtur, ne sud
Gar to‘quz aflokni ohim o‘tidin kuyduray.

Ey Navoiy, istasam o‘lmak ne g‘am el ta’nidin,
Bore men har nav’ etib, jonong‘a jonni yetkuray.

618

Ey ko‘ngul, kelkim, balo bazmida jomi g‘am tutay,
O‘z qatiq holimg‘a o‘lmastin burun motam tutay.

Yig‘labon boshimg‘a ohim dudidin chirmab qaro,
Motamim el so‘ngra tutquncha, o‘zum bu dam tutay.

Olam ahlig‘a necha qildim vafo, ko‘rdum jafo,
Ey ko‘ngul, kelgilki, tarki jumlayi olam tutay.

Emdikim, ishrat surudidin ochilmang, ey ko‘ngul,
Navha ohangin tuzub, bir dam seni xurram tutay.

Mastlig‘din o‘zga yo‘q dardim iloji, soqiyo,
May keturkim, ham ichay, bir lahza oni ham tutay.

Qo‘yg‘il, ey nosihki, mug‘ dayrida o‘z ahvolima,
Masti loya’qil yoqam yirtib, surudi g‘am tutay.

Chun jahon birla jahon ahlig‘a yo‘q ermish vafo,
Ey Navoiy, men fano sarrishtasin mahkam tutay.

619

Olsa jonimni labing davron to‘kub qon yoshini,
Tong emas ul yosh ila la’l etsa qabrim toshini.

Fitna ta’lim etmasa qoshing sanga bedod uchun,
Xam bo‘lub nevchun qulog‘ingg‘a keturmish boshini.

Ko‘z tutar erdim qalam kirpiklarimdin bog‘la deb,
Gar azalda ko‘rsam erdi surating naqqoshini.

Mayl etar ko‘nglum qushi jon pardasin qilg‘ay qanot,
Ko‘rgali har kecha mahram ko‘yining xuffoshini.

Oshiq o‘ldum, chunki may berding, magar, ey mug‘bacha
Ishq o‘ti birla pishurmishlar piyolang doshini.

Shayxu — ahli xonaqah, Tengri tuta bersun manga,
Haq yo‘lin ko‘rguzgali dayri fano avboshini.

Jon qushi qasdig‘a sog‘ing‘ay guruha birla yoy,
Ey Navoiy, kimki ko‘rsa xoli birla qoshini.

620

Ey ko‘ngul, qo‘yg‘ilki, mundin so‘ng gadolig‘ fan qilay,
Ko‘yida bu fan bila bir yo‘l boshin maskan qilay.

Gah bu ishratdinki, ul ko‘y ichradurmen shod o‘lay,
Gah bu mehnatdinki, andin ayru men shevan qilay.

Aylamakdin tang‘a anduh-u balo toshin hisor,
Jonima xayr-u salomat xaylini dushman qilay.

Ul yuz-u qomat kerak, vah, o‘zni kuch birla necha,
Moyili gul aylayin yo volihi savsan qilay?

Yoshurun g‘am soldi ravzanlar ko‘ngulga, ey rafiq,
Qo‘yki, men ham oh ila gardunni yuz ravzan qilay.

Soqiyo, ko‘z birla ko‘nglumni qora qilmish xumor,
Kelki, bu uylarni may xurshididin ravshan qilay.

Gar Navoiy mast agar maxmur o‘tar bu dayrdin,
Bodapolodin kafan, mug‘ dayridin madfan qilay.

621

Ko‘nglumga sho‘r soldi biravning malohati,
Vahkim, ajab tuz o‘ldi yana zaxmim ofati.

Ter qatrasin yuzida ko‘rub ishqim o‘ldi tez,
Afzun bu sudin o‘ldi o‘tumning harorati.

O‘ynatti qosh-u, ohkim, ul dos no‘gidin
Bag‘rimning o‘ldi toza o‘ngalg‘an jarohati.

Sekritti raxsh-u kuydi ko‘ngulning ul o‘t bila
Jon mazraida xirmani orom-u toqati.

Ko‘nglum so‘rarg‘a keldi, vale oldi jonni ham,
Mundoq bo‘lurmu dilshudalarning iyodati.

Sharbati visol yo may emish qaysi xastaning
Kim, ishq anduhidin o‘luptur malolati.

Mayg‘a Navoiy etti ko‘ngul shishasini zarf,
Bu bo‘ldi rindliq aro aning zarofati.

622

Qilsa kul jismimni o‘rtab otashin oraz guli,
Har ovuch kul dahr bo‘stonida bo‘lg‘ay bulbule.

Xatt-u ruxsorin tilab g‘am shomi cheksam o‘tluq oh,
Har sharardin ko‘k shabistonida ochilg‘ay gule.

Zulfi savdosida o‘lsam tortqay qabrimda bosh
Har giyahdin xo‘shaye, har xo‘sha bo‘lg‘ay sunbule.

Tushta ayshim subhig‘a kirdi balo shomi magar,
Qasdima sho‘xe uzori uzra ochmish kokule.

La’li ruhafzosini ko‘rsun biravkim, ko‘rmamish,
Ruh oshom aylabon sarmast bo‘lg‘udek mule.

May nihon ichsam kerak og‘zim qo‘yub ko‘p og‘ziga
Kim, tugatsam chiqmag‘ay andin sadoyi qulquli.

Ey Navoiy, istasang bo‘lmoq zamiring lavhi pok,
May suyin kelturkim, oni g‘ayr naqshidin yuli.

623

Orazing zar huqqalardin, ey malohat mash’ali,
Mushafedur lojuvard-u oltun oning jadvali.

Turfa oyedur uzoring, ko‘k anga moviy libos,
Anjum oning tanga-tanga basma qilg‘an zarhali.

Har nafas ortar jamolingning safosi ko‘zgudin,
Ko‘zguning andoqki kuldin bo‘lg‘ay afzun sayqali.

Bir paridur lolazor ichra sarig‘ gullar aro
Yo ul oy egnidadur zarbaft gulgun maxmali.

Husni atrofida, ey mashshota, har yon qo‘yma xol
Kim, Xo‘tan mulkida hindularning o‘lmas madxali.

Nav arusi dahr aqdin istama, ko‘pkim arus
Oxiri ifrit o‘lur, garchi paridur avvali.

Ey Navoiy, vusma birla kesmadin topqan fireb,
Gar malakdurkim, bo‘lur shaytonsifatlar mahzali.

624

Kamand avjig‘a yetkurmas g‘am-u andesha ayyori,
Biyik chekmish magar mayxona tomin sun’ me’mori.

Xumorim za’fida kahgil isi to yetti mast o‘ldum,
Suvalmishdur magar may loyidin mayxona devori.

To‘la kup og‘zi may xurshididur, go‘yo teng ochilmish
Chekarda bu iki xurshid davrin sun’ pargori.

May ichmish xonaqah shayxi, xarobot ahli, aysh aylang
Ki, chiqmish baxya urg‘an xirqasidin mablag‘i kori.

Ko‘rungan mosivo budi emas balkim namudedur
May ustida hubob-u mavj shaklining namudori.

Hubob-u mavj may tahrikidin zohir bo‘lur, lekin
Sukun topqach vujudi maydin o‘zga qaydadur bori.

Quyosh aksimudur hayvon suyida yo ko‘runmishdur
Ravonoso may ichra soqiyi gulchehra ruxsori.

Fano dayrin ko‘ngul istarki, bir-bir piri dayr elga
Tutarda boda shoyad jur’aye sung‘ay bizing sori.

Navosidin fano chun hosil o‘ldi qilg‘asen, ey ishq,
Navoiy rishtayi jonin mug‘anniy udining tori.

625

Emas bog‘ ichra sarig‘ lola zanbaq bilki, har sori
Yangi dog‘ o‘rtab ul gul ishqidin sarg‘ardi ruxsori.

Bu humrat birla ermas otashin gul, oq gul erdikim,
Yuzung barqidin o‘t tushti angakim, bo‘ldi gulnoriy.

Qading ollida bo‘lg‘an jilvagar oq savsan anglakim,
Ko‘k etti barcha a’zosin sabo kojining ozori.

Shajar yafrog‘lari o‘qdek qadingning hajrida bordur
Boshog‘larkim, chaman ashki namidin bo‘ldi zangori.

Dema kunduz, qarong‘u tun edi, chun pardadin chiqting,
Jahonni qildi kunduzdek yuzung mehrining anvori.

Desamkim, Haqdurur mavjud-u ashyo har nedur nobud,
Hubob-u mavji bahr uzra erur aning namudori.

Navoiyning aqiq ashki ol erdiki, tutmish rang,
Suhayli orazing go‘yoki qilmish lam’a izhori.

626

Donayi xoli uzra ko‘r sabzayi xat nishonasi,
Donayi xol emas, erur mehrgiyoh donasi.

O‘rtanurumni ishqida bilmagan, et nazzorakim,
Tildur aning bayonig‘a ko‘nglum o‘ti zabonasi.

Qatlima bas bahonakim, qildi bahona qolmamish,
Emdi bahona uzrini qo‘lmoq erur bahonasi.

Tiyra firoq tunlari sharhini ayt demakim,
Ming kecha deb tuganmagay bir kechaning fasonasi.

Istama ishq bahrining sohilin, eyki g‘arqasen,
Bir-biriga yetishti chun to‘sh-to‘shidin karonasi.

Tavsan edi ko‘ngul mayi ishqini tortqan zamon,
Ko‘rki, ne rom etibdurur emdi ani zamonasi.

Boshimu dayr pirining dargahi chun tushupturur
Vahm, taaqqul aylamas vaz’ ila korxonasi.

Fikri bu korxonani qilg‘ay edi halok, agar
Bo‘lmasa aql zoyili jomi mayi mug‘onasi.

Baski, Navoiy ayladi dard surudida navo,
Ahli tarabni yig‘latur majlisining taronasi.

627

Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi,
Farhod aning toshin yo‘nub, Majnun mujovir bo‘lg‘usi.

Dersen, yuzum sori ko‘zung ko‘p boqmasun, gar yuz budur,
Ul mehr tobidin erib, oqquncha nozir bo‘lg‘usi.

G‘amzangdin o‘lturmak ishin ta’lim ola kelmish ajal,
Bu nav’ ustod o‘lsa, ul oz chog‘da mohir bo‘lg‘usi.

Xatti g‘uborin demakim, bo‘lg‘usi ul yuz monii,
Tun pardasi oy nurig‘a ne nav’ sotir bo‘lg‘usi?

Ul g‘amza kufridin ko‘ngul nav’e kelur islomg‘a
Kim, tarki islom aylabon go‘yoki kofir bo‘lg‘usi.

Bo‘lg‘usi mutlaq shu’lalar ichra samandar sayridek,
Sensiz ko‘ngul gulzor aro ul damki, soyir bo‘lg‘usi.

Ko‘nglumdagi har nishdin gar bo‘lsa bir til, har biri
Yuz til bila o‘z holining sharhida qosir bo‘lg‘usi.

Xotirni jam’ istar esang avval xavotir daf’in et,
Kimda xavotir bo‘lmasa osudaxotir bo‘lg‘usi.

Qildi Navoiy qaddingga sarvi sihiy tashbihini,
Bu ta’bi nomavzun bila bechora shoir bo‘lg‘usi.

628

Butmadi gulshan tavofi birla bag‘rim yorasi,
Bermadi o‘tumg‘a taskin sarv-u gul nazzorasi.

Bir zamone sarv-u bir dam gulga ko‘p qildim nazar,
Bo‘lmadi ul sarvi gulrux furqatining chorasi.

Gul bila sarv istabon gulshan sari mayl aylamas,
Dashtdin ul sarvi gulruxsoraning ovorasi.

Qaddi hajrida har ohim dudi sarvedur baland,
Yuzidin ayru guledur ko‘kragim har porasi.

Sarv-u gul maftuni bo‘lmokim, nigor-u zeb uchun,
Sindurub har dam uzar oni falak makkorasi.

Sarv o‘qdur, gul tikan, bog‘ ichra to ko‘z ollidin
Borg‘ali ul sarvi gulruxning qad-u ruxsorasi.

Ey Navoiy, sarv-u guldin kechki, qadd-u yuzidin
Bor emish yuz yilchilig‘ yo‘l sarv ila gul orasi.

629

G‘am chekar jism-u ko‘ngulni kulbayi ahzon sari,
Xasqa o‘t solib gado eltur kibi vayron sari.

Hirz qolqoni, duo dir'i nedur, ey porso,
Chun balo toshi yog'ar men telbayi uryon sari.

Yor istar hajr-u ayni vasl erurkim, ko'ngluma
Bo'ldi mayl oning rizosin istabon hijron sari.

Sabza nishtar, barg paykon, gul o't erdi jonima
Har qachonkim, sensizin azm ayladim bo'ston sari.

Ne futur islom aro tushkayki, ul kofir yana
Mast o'lub, ko'nglakcha chiqti sekritib maydon sari.

Gar xarobot ichra mumkindur sumurmak bir qadah,
Xizr agar o'ltursa borman chashmayi hayvon sari.

Soqiyo, tezgindurur har lahza boshimni xumor,
Davr evursang, jur'aye sung'il bu sargardon sari.

Yuz Xizr umridin ortug'roqdurur ming jon berib
Bir qadam qo'ymoq, muyassar gar bo'lur, jonon sari.

Ey Navoiy, gar desangkim fitna ko'rmay, solmag'il,
Bir nazar har **"torfat ul-ayn"**[1] ul ko'zi fatton sari.

630

Gardi Yazdiy me'jar ostida qoshing, ey ko'rkaboy,
Bor aningdekkim ko'rungay gard ichinda yangi oy.

---

[1] **"Torfat ul-ayn"** — ko'z yumib ochguncha (muddat), bir kiprik qoqquncha (muddat). "To"ni zamma bilan ("turfat ul-ayn" deb) o'qish butkul xatodir ("G'iyos ul-lug'ot", 2-jild, 25-bet). Bu ibora Qur'on va hadisda keladi; hadisi sharifdan: "Fa lo takilniy nafsiy torfata 'aynin"; ma'nosi: "Bir ko'z ochib yumguncha muddatda ham meni o'z nafsimga tashlab qo'yma!". Qur'oni Karimda "torfuhum" (ko'zlari, nigohlari), "torfuka" (ko'zing) shaklida, "nigoh", "bir ko'z tashlash" ma'nosida ham keladi; "Soffat" surasi, 48-oyatida **"Va 'indahum qosirot ut-torfi 'iynun"** (**"Yonlarida nigohlarini** (o'z juftlaridan boshqadan) **saqlovchi shahlo ko'zli (hur)lar bordir"** degan ma'noda keladi.

Vusmadur ul qosh uza yoxud zarofatdin ko‘zung,
Oldi bu qurbon ko‘ngul qasdig‘a miynorang yoy.

Gar nihon soching tarar mashshota kelsunkim, erur
Kirpigimdin shona, ashkimdin su, ko‘z — xilvat saroy.

Dilrabolar ichra har dam ko‘zguga boqmoq nedur,
Vahki, bilman, ey pari, xudbinmusen yo xudnamoy?

Otashin gul bargidin ko‘nglak kiyibdursen, va lek,
Desang o‘t solmay jahong‘a chiqmag‘il ko‘nglakcha, voy.

Gah tutulsa, gah ochilsa ko‘nglum ermas aybkim,
Sunbulung dilband, xandon g‘unchang o‘lmish dilkushoy.

Ey Navoiy, dahr sho‘xi oshiqi bo‘ldung, va lek
Bilki, kobin naqdi jondur gar bo‘lursen kadxudoy.

631

Boda bu maqbulluq zotimda mavjud ayladi
Kim, meni zuhd-u riyo ahlig‘a mardud ayladi.

May o‘tining lam’asi o‘rtab vujudim xirmanin,
Kullarin nay nag‘masi bir damda nobud ayladi.

Bodadin xushnud o‘lubmen to meni jomi fano
Davr elining sofi-yu durdig‘a xushnud ayladi.

Mayg‘a rahn etgil riyo sajjodasin, ey shayxkim,
Har kishi bu nav’ savdo ayladi, sud ayladi.

Mayg‘a ashkim la’lidin oludalig‘ gar istamas,
Ne uchun soqiy labi la’lin mayolud ayladi.

Odamiylig‘ ko‘rguzub qilding parivashlarni qul,
Odam uldurkim, maloyik oni masjud ayladi.

El tilar mug‘ ko‘yin-u, istar Navoiy mug‘bacha,
Azmi maqsad aylab el, ul qasdi maqsud ayladi.

632

Ohima yor og‘zi bir dam kulmagin kam qilmadi,
Chun sabodin g‘uncha ochildi yana yopilmadi.

Nishtari ohim ajab yo‘q ko‘nglunga kor etmasa,
Tezlikdin igna hargiz xorag‘a sanchilmadi.

Qatraye tomizma bizga tutqan asfar bodadin,
Sham’ o‘tidin, soqiyo, hargiz sharor ayrilmadi.

Ishqkim, har bir ishida yozdi yuz ming turfa xalq,
Turfaroq budurki, yuz mingdin biri yozilmadi.

Ko‘yida ohim yeli raf’ etti ul yuz burqain,
Hech gulshanda sabodin bo‘yla gul ochilmadi.

Qaysi johilg‘a nadomat bo‘lg‘ay ul olimchakim,
Har ne bildi, qilmadi, har neki qildi, bilmadi.

Ey Navoiy, yor vaslin istabon ul toptikim,
Ahli hijron zumrasida istabon topilmadi.

633

Ko‘nglum ohidin tabassum la’linga fan bo‘lmadi,
O‘ylakim, la’l axgari yel birla ravshan bo‘lmadi.

Istadi jism uyi bir ravzan o‘qungdin, voykim,
Qolmadi ravzan yerikim, necha ravzan bo‘lmadi.

Dedi, bir dashnom uchun joningni olg‘umdur baho,
O‘lturur savdoki, miodi muayyan bo‘lmadi.

El chamanda ul pari birla kezib, men telbaga
Vahki, ishrat jilvagohi g‘ayri gulxan bo‘lmadi.

Oh o‘tidin xirqani pok o‘rtakim, har bulhavas
Zarq ashkidin etak yub pokdoman bo‘lmadi.

Lofi ishq urg‘an ko‘ngul g‘am do‘zaxidin qochmasun
Kim, samandarg‘a yolindin o‘zga maskan bo‘lmadi.

Ey Navoiy, kimni sevsang qilma zohirkim, sanga,
Kimdururkim do‘stlug‘ fahm etti, dushman bo‘lmadi.

634

May xalos etti riyoyi porsolig‘din meni,
Shukrkim, qutqardi zuhd-u xudnamolig‘din meni.

Bo‘ldi nobud o‘zlugum, yuz shukrkim, qildi xalos
Har zamon bu korgahda behayolig‘din meni.

Dahr zolin to‘rt mazhab birla qildim uch taloq,
Fard qildi bori mundoq kadxudoliqdin meni.

Bo‘ldilar begona ahli zuhd xush davlat bukim,
Qildi man’ ul qavm birla oshnolig‘din meni.

Orazimdin g‘ussa kojining savodin qildi ol,
Shukrkim, qutqardi mundoq yuzqarolig‘din meni.

Bandamen soqiyg‘akim, bir jomi molomol ila
Ayladi ozod yuz ming mubtalolig‘din meni.

Tavba ahli yorumang mundoqki, mahrum ettingiz
Dayr ichinda mast-u loya’qil gadolig‘din meni.

Dushmanimsiz do‘stlarkim, qovdingiz aylab hujum,
Benavolig‘ kishvarida podsholig‘din meni.

Ey Navoiy, ham magar, yo mug‘bacha, yo piri dayr
Sindurub tavbam chiqarg‘ay benavolig‘din meni.

635

Yuzidin o‘lmasa, yo Rab, ravo ko‘zum tilagi,
Tazallumum iligidur — adolating etagi.

Ko‘ngulda furqat o‘qi birkishibdur andoqkim,
Kishi chekarda gumon aylagay aning so‘ngagi.

Chamanda g‘uncha emaskim, bo‘luptur ul gul uchun
Fig‘onim onchaki, qon bog‘lanipturur yuragi.

Chechak nechukki, yopar ko‘zni tiyra aylaptur,
Ko‘zum bahorini gulgun sirishkning chechagi.

Labi xayolida bag‘rim shikofini tiksam,
Alifdin igna qilur, jon-u rishtadin ipagi.

Xazon chamang‘a shabixun kelurga bo‘ldi dalil
Sanavbar ushbu chamandin kanora aylamagi.

Ne ko‘nglini buzadur dard-u g‘am Navoiyning,
Chu ul paridur-u bas ushbu telba ko‘nglidagi.

636

Kecha hajringda tiriklikdin malolim bor edi,
Tongg‘a tegru ayta olmankim, ne holim bor edi.

Furqating bedodidin yo‘q erdi bir soat majol,
Bo‘lsa dog‘i yig‘lar erdim to majolim bor edi.

Tosh urub ko‘ksumga, tufrog‘lar boshimg‘a sovurub,
Lek bu vaqte edikim, e’tidolim bor edi.

Kelsam o‘z holimg‘a nogah bu malomatlar aro,
Goh o‘zumdin, gah ulusdin infiolim bor edi.

Vasl umidi kirmasa jonim arosig‘a gahe,
Qayda jon elturga bore ehtimolim bor edi.

Vasl tarkidin agarchi mujrim o‘ldum, vah, qachon,
Hajrni bu nav’ sa’b erkon xayolim bor edi.

Ey Navoiy, furqatim ayyomi mundoq qolmag‘ay,
Qolmadi chun ulki, davroni visolim bor edi.

637

Ey sabo, ko‘zdin uchur Mozandaronning vardini
Kim, qilibmen surma Marvi shohjahonning gardini.

Ulki ahbobin qilur parvarda aysh-u noz ila,
G‘am emas yod aylasa gohi bu g‘amparvardini.

Chekma zahmat, ey tabib, ermas chu mumkin aylamak,
Sharbati vasl o‘lmag‘uncha daf’ furqat dardini.

Anglag‘ay do‘zaxda bor issig‘-sovug‘ birla azob,
Hajr aro kim ko‘rsa o‘tlug‘ ko‘nglum ohi sardini.

Anjumi ashkin to‘kar tong otqucha mendek sipehr,
Yo‘qlamish ul ham magar bir mehri olamgardini.

Ey ko‘ngul, vasl istasang bexud bo‘lub g‘am yemakim,
Kom topmas kimsa qilmay tark xob-u xo‘rdini.

Yor agar hijron aro soldi Navoiyni yiroq,
Bok emastur vasl ila gar qilsa bozovardini.

638

Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarmen joni zorimni,
Tilarmen bir yo‘li buzmoq buzulg‘an ro‘zgorimni.

Falak bedodidin garchi meni xokiy g‘ubor o‘ldum,
Tilarmen topmag‘aylar to‘tiyolig‘qa g‘uborimni.

Shak ermas partave tushkach uyi ham, raxti ham kuymak,
Chu go‘riston gadoyi sirmagay sham’i mazorimni.

Demang qay sori azm etkung, manga yo‘q ixtiyor, oxir
Qazo ilgiga bermishmen inoni ixtiyorimni.

Tugandi ashki gulgun, emdi qolmish za’faroniy yuz,
Falak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.

Diyorim ahli birla yordin boshimg‘a yuz mehnat,
Ne tong boshim olib ketsam qo‘yub yor-u diyorimni.

Yomon holimg‘a bag‘ri og‘rig‘ay har kimsakim, ko‘rgay
Bag‘ir pargolasidin qong‘a bulg‘ang‘an uzorimni.

Hayotim bodasidin sargaronmen asru, ey soqiy,
Qadahqa zahri qotil quy, dag‘i daf’ et xumorimni.

Jahon tarkini qilmay, chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o‘rtab yo‘q-u borimni.

639

Ko‘zi hajri meni bemor etti,
Qora og‘riqqa giriftor etti.

Juzv-juzvimg‘a tikib mujgoning
Ruhum ajzosini afgor etti.

Subh gul safhalaridin bulbul
Orazing vasfini takror etti.

Labing anfosidin erdiki, Masih
O‘luk ihyosida izhor etti.

Zarrayi mehri jamoling Yusuf
Topibon olam elin zor etti.

Ayladi zuhd-u riyog‘a iqror
Kishikim, ishqdin inkor etti.

Dahrdin topti Navoiy chu malol,
Maskanin kulbayi xammor etti.

640

Ey uzoring ollida sharmanda mehri xovariy,
Yo‘qsa nevchun yoshunur har kecha andoqkim pari.

Qomatingdin azmi sahro qildi gulshandin tazarv,
Tog‘ sori o‘ylakim faryod etib kabki dari.

Gulshani husnungg‘a ziynat berdi terdin qatralar
Kim, ko‘rubtur bo‘yla gulbarg uzra shabnam gavhari.

Hajr so‘zi za’flig‘ jismim aro bo‘lmish nihon,
Bas ajabdur bir ovuch xas ichra do‘zax axgari.

Safhayi husnungda Haq sirrin ko‘rar ko‘nglum ayon,
Tong emas bulbulg‘a mushaf o‘rnida gul daftari.

Yor bazmida visol ahli chekar jomi murod,
Davr chun hajr ahlig‘a qism etti mehnat sog‘ari.

Ey Navoiy, yor zulmig‘a ne chora, g‘ayri sabr,
Kimsa netkay sabr qilmay zolim o‘lsa dilbari.

641

Chu ishq ilgi zabun aylar dilovar podsholarni,
Taaqqul aylagilkim, naylagay bedil gadolarni.

Dalil aytay erurlar deb parizod-u malaksiymo,
Desamkim, odamiy sonida ermas bevafolarni.

Vafoni, ey vafosiz, elga ko‘rguzsang karam aylab,
Jafokash jonima bore musallam tut jafolarni.

Aningdek hushdin begonamenkim, toniy olmaslar
Meni ham oshnolar, o‘ylakim men oshnolarni.

Qilurg‘a zulm ishq ahlini aylar jam’ ul zolim,
Nechukkim, shoh ehson qilg‘ali yig‘qay gadolarni.

Agar yuz chok qildim ko‘nglakimni ham yomon ermas,
Firoqing tiyg‘idin jismimda bog‘larg‘a yarolarni.

Erur muhlik jahon shug‘li may ichkim, qutqarur har dam
O‘kush vobastalig‘lardin bizingdek mubtalolarni.

Qiyomat dashti bo‘lg‘ay tiyra do‘zax sori yuzlansam,
Xito xoni sipah chekkan kibi boshlab xitolarni.

Agar ushshoqinga bazm ichra yo‘l bersang Navoiydek,
Birar sog‘ar bila ham yod qil biz benavolarni.

642

Navbahor o‘ldi-yu ayshim gulbuni ochilmadi,
Kom ila bir g‘unchasi balkim tabassum qilmadi.

Vasl jomidin ulus mast o‘ldilar, yuz voykim,
Bir qadah birla xumori furqatim yozilmadi.

El ko‘zin yorutti barqi vasl, hijron kojidin
Qaysi o‘tlarkim, ko‘zumga barqdek choqilmadi.

Vasl gulzori aro el mast-u hijron dashtida,
Qolmadi erkin tikankim, bag‘rima sanchilmadi.

Lolalar ko‘nglumga qonlig‘ dog‘lardur navbahor
Kim, vatang‘a lolaruxsorim azimat qilmadi.

Furqatim sa’b erkanin ishq ahli ichra bilmagay,
Yorig‘a ulkim, qo‘shulmoqdin burun ayrilmadi.

Qayda bag‘rim choki muhlik erkanin fahm aylagay,
Ulki, hijron tiyg‘i zahroludi bag‘rin tilmadi.

Chun o‘larmen sirri ishqim maxfi o‘lg‘an yaxshiroq,
Bilmasun el ham, chu hajri jonim olg‘an bilmadi.

Bir junun o‘ti aro tushmish Navoiy telbakim,
Bo‘ldi kuymakdin xalos ulkim, anga qotilmadi.

643

Ko‘zum tortar hamono yor kelgay,
Solur ko‘nglum magar dildor kelgay.

Quchushtum sarv birla tushta, go‘yo
Buyon ul qaddi xushraftor kelgay.

Chu sen bording, ko‘ngul ham ketmish erdi,
Chu kelding, ul dag‘i nochor kelgay.

Qachonkim ul paripaykarni ko‘rsa,
Ko‘ngul ul sori majnunvor kelgay.

Meni ul ko‘ydin qovmangki, bulbul
Guliston jonibi bisyor kelgay.

Ko‘ngul bu qatla borsa xonaqahdin,
Muqimi kulbayi xammor kelgay.

Ko‘ngulni bir ko‘z oldi, vah, ne bildim
Kim, ul sog‘ borg‘a-yu bemor kelgay.

Ko‘ngul jon oldurub keldi qoshingdin,
Ne bildim bo‘yla minnatdor kelgay.

Navoiy borsa ul yon shod borg‘ay,
Vale kelsa, topib ozor kelgay.

644

Evrulay boshingg‘a-u behush-u hayroning bo‘lay,
Bir zamon sadqang bo‘lay, bir lahza qurboning bo‘lay.

Xoni vaslingdin agar qovsa raqibing, rag‘mig‘a
Ko‘nglum istardek taxayyul birla mehmoning bo‘lay.

Netti jon topsam visolingdin labingning xolidek,
Ko‘z-u zulfungdin necha mast-u parishoning bo‘lay.

Xushturur vasling mayidin har taraf xirqamda dog‘,
Necha, jono, mubtaloyi dog‘i hijroning bo‘lay?

Garchi bandangmen, meni ozod qilma lutfdin
Kim, quyundek sadqayi sarvi xiromoning bo‘lay.

Tanni jilvang vaqti tufrog‘ aylay, ey chobuksuvor,
To boshingg‘a evrulurga gardi maydoning bo‘lay.

Ey Navoiy, gung-u lol istar esam tong yo‘q seni,
Tobakay ozurdayi faryod-u afg‘oning bo‘lay?

645

Surganda jafo tiyg‘in qo‘l asramading bore,
Qonimni to‘kar chog‘da rahm aylamading bore.

Yuz lofi vafo urdung, ming tiyg‘i jafo surdung,
Har nechaki yolbardim, hech eslamading bore.

Ahbobni xos etting jon bergali lutfungdin,
Qatl etkali ham bizni bir istamading bore.

Qatlimni burun va’da qilding, chu g‘azab surdung
Ba’zini burun, so‘ngra deb tolg‘amading bore.

Dardingg‘a quloq solg‘um deb, mast chiqib kelding,
Holim necha sharh ettim so‘z tinglamading bore.

Ey zohidi dinoyin, dayr ichra tutub taskin,
Zunnor ipini tortib, xirqang yamading bore.

Davrong‘a vafo chun yo‘q, shukr aylaki, ko‘nglungni
Ul sori Navoiydek ko‘p bog‘lamading bore.

646

Ey falak, bir oy g‘amidin asr-u zor etting meni,
Po‘yadin tun-kun o‘zungdek beqaror etting meni.

Toki qildim bir parivash dardi ishqin ixtiyor,
Telbalik afg‘onida beixtiyor etting meni.

Go‘yiyo har kavkabingning lam’asin bir nish etib,
Dardi hijron shomi sartosar figor etting meni.

Gar ulus oni ko‘rardin man’ etar ham xushdurur,
Garchi mehnat xayli yo‘linda g‘ubor etting meni.

Yor zulfidin meni aylab parishonro‘zgor,
Tori zulfidek parishonro‘zgor etting meni.

Naylay onikim, yoshim dur bo‘ldi bori holima
Yig‘lamoqqa o‘ylakim abri bahor etting meni.

Ey Navoiy, ishq torojig‘a to bo‘ldung asir,
Darbadarlardek jahonda xor-u zor etting meni.

647

Mangoki ko‘rmaki ul sho‘xning muhol o‘lg‘ay,
Bo‘la olurki, bu ko‘rmak dag‘i xayol o‘lg‘ay.

Quyosh yuzidin emastur misol husn ichra,
Magarki, og‘zi aning zarradin misol o‘lg‘ay.

Qadim niholi, deding, haddi e’tidoldadur,
Xiromi o‘lturur elni, ne e’tidol o‘lg‘ay.

Falakning oyi yuzungga mushobih o‘lg‘ay agar,
Og‘iz Suho-vu Zuhaldin yuzinda xol o‘lg‘ay.

O‘lukka ruh visolingda muhtamaldur, lek
Hayot kimsaga sensiz ne ehtimol o‘lg‘ay.

Malolatimni firoq ichra anglag‘ay ulkim,
Meningdek anga birav hajridin malol o‘lg‘ay.

Chu moziy o‘tti-yu mustaqbal o‘rtada ermas,
Sengaki hol emas mug‘tanam ne hol o‘lg‘ay?

Bu damni orif esang yaxshi tutki, johil ishi
Yetishmaganga-vu o‘tganga qiyl-u qol o‘lg‘ay.

Navoiy aylasa ishqingda kufr-u din tarki,
Qachon bu voqia shavq ahlidin muhol o‘lg‘ay.

648

Vafo ko‘z tutqan ondin hushdin begonaye bo‘lg‘ay,
Paridin odamiylig‘ istabon devonaye bo‘lg‘ay.

Aningdek bazm aro ruhum qushi kirmakka yo‘l topti,
Magar ul husn sham’i girdiga parvonaye bo‘lg‘ay.

Farog‘at qasridin ko‘nglum agar urkub buzug‘ istar,
Ajab yo‘q chug‘zning manzilgahi vayronaye bo‘lg‘ay.

Yonimni so‘kti chun tiyg‘ing so‘ngaklar shaklidin ko‘rdum,
Buzug‘ ko‘nglum uyining farshig‘a dandonaye bo‘lg‘ay.

Dema, mendin uzub ko‘ngul yana bir yor tutmishsen.
Gumon qilmaki, olam ichra sendek yonaye bo‘lg‘ay.

Deding, bo‘lsam sanga mehmon ne yerni bazmgah qilg‘ung?
Gadoyi xastag‘a manzil buzug‘ koshonaye bo‘lg‘ay.

Fano dayrin tilarmen bo‘lmag‘ay hech kimsa o‘zluk ham,
Ulug‘ birla kichikdin bir kup-u paymonaye bo‘lg‘ay.

Jahon makkorasi sho‘xedurur bas dilfirib oxir,
Ne erkim, boshidin kechgay aning mardonaye bo‘lg‘ay.

Navoiy g‘amg‘a xo‘y aylabdururkim, ofarinishda
Falakning javfidek mushkil agar g‘amxonaye bo‘lg‘ay.

649

Vah, necha ul sho‘x bedodin meni shaydo ko‘ray,
Ishqidin yag‘mo chekay, husnidin istig‘no ko‘ray.

Necha ul durri kiromiy shavqida hijron tuni,
Ko‘z yetishguncha sirishkim selini daryo ko‘ray.

Necha ul rashki g‘azoli Chinni istab dasht aro,
It kibi devona ko‘nglumni jahonpaymo ko‘ray.

Necha bir kofir xayolining sipohi zulmidin
Kishvari jon ichra dinim naqdig‘a yag‘mo ko‘ray.

Necha zuhd-u ofiyat ichra ko‘rub taqvo elin,
O‘zni ishq oshubidin olam aro rasvo ko‘ray.

Necha ko‘z qoni hubobidin baliyat dashtida
Bir yuzi gulgun g‘amidin lolayi hamro ko‘ray.

Soqiyo, ul nav’ g‘arq etkil meni may ichrakim,
Gar dam ursam may yutay,
gar ko‘z ochay sahbo ko‘ray.

Elda chun yo‘qtur vafo, sahrog‘a qildim azmkim,
Xalq ila ko‘rguncha kishvar, vahsh ila sahro ko‘ray.

Jon bila azm ettim ul qotil sarikim, sa’y etib,
Yo Navoiydek qilay jonni fidosi, yo ko‘ray.

650

Ey quyoshqa ko‘z qamashturg‘on jamoling partavi,
Sarv ra’nolikda xushraftor qadding payravi.

Qof tog‘in gar parilar maskan etmishlar ne tong,
Qarilardur navjuvonim xijlatidin munzavi.

O‘ylakim Moniy ishidin zoyi’ o‘ldi naqshi Chin,
Ul buti Chin suratidin bo‘ldi naqshi monaviy.

Ishq ilgi quvvati men xastani qilmish zabun,
Ey ko‘ngul, ne chora aylay, men zaif-u, ul qaviy.

Bulbul ar gulbong urar gul suratidin men xamush
Kim, takallum taxtig‘a kirmas adoyi ma’naviy.

Ishq sirrin rindi durdikash bilur, yo‘q ahli dars,
Ulcha avroq uzra sabt o‘lmas, ne bilgay Mavlaviy?

Demangiz bulbul Navoiyni, samandardekki, bor
Nazmi ichra shu’layi Jomi-yu so‘zi Xusraviy.

MUSTAZOD

Ey husnunga zarroti jahon ichra tajallo,
mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kavn-u makon ichra muvalli,
olam sanga mavlo.

Har yon kezaram telbasifat toki yashundung
ko‘zdin pari yanglig‘,
Majnundin o‘zin toki nihon qilmadi Laylo,
ul bo‘lmadi shaydo.

Uryon badanim zaxmlari ichra emas qon,
yuz pora ko‘nguldur.
Bu ravzanalardin qiladur har biri ya’ni
husnungg‘a tamosho.

Har yon nazarim tushsa sen ollimda turarsen,
ko‘rmas vale ag‘yor.
Ravshandurur ushbuki,
emas qobili a’mo,
nazzorayi bayzo.

Ul nodiradinkim, laqabin hur demishlar,
husnung erur ahsan.
Ul manzaradinkim,
otidur jannati a’lo,
ko‘yung erur a’lo.

Zuhd ichida topmadi Navoiy chu maqome,
emdi qilur ohang
Kim, bo‘lg‘ay ul-u boda-u bir turfa mug‘anniy,
mug‘ kulbasi ma’vo.

Har gavhari tufrog‘ uza bir qatra su yanglig‘
tushkach adam o‘lg‘ay.
Gar qilmasa ishfoq etibon Xusravi G‘oziy
nazmi sari parvo.

MUXAMMASLAR

1

Halqayi zulfungda ko‘nglum bo‘lg‘ali g‘am mahrami
Ul qaro qayg‘-u bilan savdoda chun ortar g‘ami.
Der sanga devona-vu shaydolig‘idin har dame,
Ey soching shaydo ko‘ngullarning savodi a’zami,
Halqa-halqa ruhning sarmanzilidur har xami.

Ey guli suri jamoling daftaridin bir varaq,
Sabza-vu rayhon sening xattingdin elturlar sabaq.
Chini zulfungni ochibon ilginga olsang taraq,
Sunbulungni tarag‘anda gul uza tongdur araq
Kim, bulutlug‘ kechaning, albatta, bo‘lmas shabnami.

Rashkdin har dam yaqindur bag‘rim erib oqqali,
Yuzunga mashshota-vu ko‘zgusi mundoq yoqqali,
Zulfunga mashg‘ul erur mashshota zevar toqqali,
Men yiroqdin jon berurmen toqatim yo‘q boqqali,
Yuzi qattiq ko‘zgukim, bo‘lmish jamoling hamdami.

Og‘zining ramzini mushkildur farovon saqlamoq
Kim, adam bo‘lsa bilur ul rozi pinhon saqlamoq,
Barcha dilbarlardin o‘lur jonni oson saqlamoq,
Sen parivash hurdin mushkildurur jon saqlamoq
Kim, malak hayrondur ul suratqa, netsun odamiy?

Zulfi vaslin istasam ruxsori mehrafro‘zidin,
Yo‘q ajab chun yil kelishi bilgurur navro‘zidin.
Ko‘zlarim uyi buzuldi ashki selando‘zidin,
Men bu ko‘z birla uyotlig‘men jamoling yuzidin
Kim, kelur har lahza-vu ul go‘shaning bordur nami.

Atlasi gardung‘a yetti rostiy ushshoq uni
Kim, qabo nevchun quchar nozuk tanin vuslat tuni.
Bu ajab sarrishtadur ko‘rgil aro yerda muni,
Ul badanning davlatidin tug‘di ko‘nglakning kuni,
Husni toli’ ko‘rkim, uldur holi ichki mahrami.

Ey labing Iso damidek xasta jong‘a choraras,
Vah, necha g‘amzang Navoiy qatlin etgay multamas.
Ul muborak ko‘nglunga bo‘lg‘ay muyassar bu havas,
Lutfini boshtin yana tirguzsang, ey Iysonafas
Kim, yetibdur, vah, ani o‘lturgali hijron g‘ami.

2

Ohkim, tarki muhabbat qildi jonon oqibat,
Bo‘ldum ushbu g‘ussadin rasvoyi davron oqibat.
Qolmadi maxfiy g‘amim el ichra pinhon oqibat,
Yoshurun dardimni zohir qildi afg‘on oqibat,
Asrag‘an sirrimni yoydi seli mujgon oqibat.

Toki chekti o‘q-u yo qasdimg‘a ul mujgon-u qosh,
Ayladi paykonlari har sori bag‘rimni xarosh,
Pardayi sabr-u salomat yoyibon, ey bag‘ritosh,
Yoshurub erdim bag‘ir chokini, vahkim, qildi fosh,
Har taraf ko‘zdin tarashshuh aylagan qon oqibat.

Ko‘p yugurdum ishq yo‘lida meni gumrohkim,
Bilgasen holimni, lekin bo‘lmading ogohkim,
Ishq aro o‘lgumdurur bil emdi, ey dilxohkim,
Tiyg‘i hajringdin nihon ko‘ksum shikofin, ohkim,
Elga ravshan ayladi choki giribon oqibat.

Tiyrboroni g‘aming yog‘durg‘ali ko‘nglumga sahm,
Yuz tuman dog‘i nihon qo‘ymish edi ul xavf-u sahm,

Xalq ani fahm etmasun deb,
bor edi ko‘nglumda vahm,
Voykim, ko‘ksum shikofidin ulusqa bo‘ldi fahm,
Ishq o‘ti bag‘rimda qo‘yg‘an dog‘i pinhon oqibat.

Ul parikim, telbalarga ishqidin monand edim,
Zulfi zanjirida Majnundek asiri band edim.
Javrig‘a qone’ bo‘lub, vaslig‘a hojatmand edim.
Shavqidin dam urmayin bedodig‘a xursand edim,
Vahki, bo‘ldum hajridin rasvoyi davron oqibat.

Orazi qoshida gul yuz vajh ila bordur karih,
Ming jihatdin nutqi ollinda erur bulbul safih.
Ko‘zi-yu zulfig‘a ermas nargis-u sunbul shabih,
Gar budur kofir ko‘z-u zunnori zulfi, ey faqih,
Bo‘lg‘udekmen dayr aro mast-u parishon oqibat.

Jonni Majnun ul pari ruxsora yodi ayladi,
Ko‘zni giryon ishq zulmi, may fasodi ayladi,
Tanni uryon, aql-u donish xayrbodi ayladi,
Ishq ko‘yida jununumni munodi ayladi,
Hajr toshidin munaqqash jismi uryon oqibat.

Boda ichkim, davr ishida e’tidole ko‘rmaduk,
Navbahori husn aro sohib jamole ko‘rmaduk
Kim, xazoni umrdin anda zavole ko‘rmaduk,
Dahr bo‘stoni aro sarkash nihole ko‘rmaduk,
Soya yanglig‘ bo‘lmag‘an yer birla yakson oqibat.

Shahlig‘ etkandin ne hosil faqr sirrin bilmayin,
Hech kim mulki baqo sultoni bo‘lg‘onmu ekin,
Foniyi mahz o‘lmayin Sulton Abulg‘oziy bikin,
Ey Navoiy, davlati boqi tilarsen vaslidin,
Oni kasb etmak fano bo‘lmay ne imkon oqibat.

3

Ishq o‘tidin jismi zori notavonim o‘rtading,
Qaysi jismi zorkim, ruh-u ravonim o‘rtading,
Parda orazdin olib, jon-u jahonim o‘rtading,
Vahki, o‘tlug‘ chehra ochib, xonumonim o‘rtading,
Otashin la’lingdin aytib nukta jonim o‘rtading.

Sen chu tiyg‘i kin chekib sabrim sipohi qo‘zg‘olib,
Ko‘nglum olib, azm etib, zor-u hazin jismim qolib,
Emdikim, ko‘nglum olib, hijron o‘ti ichra solib,
Dema, ne qildim, ne qildim notavon ko‘nglung olib?!
O‘rtading, ey qotili nomehribonim, o‘rtading.

Furqat ichra yo‘qki jonim kuydi yolg‘uz shavqidin
Kim, kuyar mahzun ko‘ngul ham kecha-kunduz shavqidin,
Necha, ey gardun, dedimkim, rahm ko‘rguz shavqidin,
O‘tda qildek to‘lg‘anib, kuyganda ul yuz shavqidin,
Nechakim tob urdi jismi notavonim o‘rtading.

O‘t tutashmish dahr aro har yon emastur lolazor,
Dud erur bo‘ston ichinda sunbul ermas mushkbor,
Tog‘ aro yoqutdin axgarlar o‘lmish oshkor,
Ko‘kta zohirdur shafaqdin shu’la, kavkabdin sharor
Kim, ani, ey shu’laliq, oh-u fig‘onim, o‘rtading.

Otlanib chiqqandakim olamni qilg‘aysen xarob,
Orazing xurshididin solding bari olamg‘a tob,
Tiyg‘ tortib chun ko‘ngul sayd etkali qilding shitob,
Bismil etkach saydni andoqki, qilg‘aylar kabob,
Zaxm etib ko‘nglumni chunkim oqti qonim, o‘rtading.

Ul quyosh tokim ko‘rundi didayi giryonima,
Qolmadi o‘zluk xayoli xotiri vayronima,
Har tarafdin tushti ofat barqi xonumonima,

Urg‘ali, ey ishqi zolim, barqi ofat jonima,
Har ne o‘zluktinki bor erdi gumonim, o‘rtading.

To belining, ey ko‘ngul, azmi visoli aylading,
Toki og‘zi nuktasining qiyl-u qoli aylading,
Ishq o‘tida bizni bir axgar misoli aylading,
Ey Navoiy, to bel-u og‘zi xayoli aylading,
Bor-u yo‘q, ya’niki paydo-vu nihonim o‘rtading.

MUSADDAS

Subhidam maxmurluqtin tortibon dardi sare,
Azmi dayr ettimki, ichgaymen sabuhiy sog‘are,
Chiqti sog‘ar to‘ldurub kofirvashi mahpaykare,
Naqdi din olib ichimga soldi maydin ozare,
Vahki, dinim kishvarin taroj qildi kofare,
Kufr eliga homiy-u din ahlig‘a yag‘mogare.

Demakim, nevchun hayotingdin sanga yo‘q hosile,
Ishqdin ollingda har dam mushkil uzra mushkile,
Chun bilursen nevchun aylabsen o‘zungni g‘ofile,
Bo‘yla bo‘lg‘ay kimga yori bo‘lsa sendek qotile,
Chobuke, ra’noqade, no‘shinlabe, xorodile,
Mahvashe, nasrinuzore, gulruxe, siyminbare.

Do‘stlar, gar xalq aro yo‘q men kibi devonaye,
Aylamang ko‘p aybkim, yonimdadur mayxonaye,
Anda sho‘xkim tutar har dam to‘la paymonaye,
Qaysi sho‘xe, bodano‘she, ko‘zlari mastonaye,
Jon berurda la’lidin Iysosifat jononaye,
Ko‘ngul olurda yuzidin Yusufoyin dilbare.

Ul quyosh ishqidakim ko‘nglumga yo‘qtur toqate,
Shomi zulfidin agar jonimg‘a yetsa mehnate,
Orazi mehrig‘a qilsam mayl ermas hayrate
Kim, erur har kimsakim, nazzora qilsa soate,
Zulfi ko‘zlarni qaro qilmoqqa shomi furqate,
Shomi furqat daf’ig‘a ruxsori mehri anvare.

Mayl qilman bog‘ aro gar bo‘lsa gul yo sunbule,
Yoki guldek yuzda sunbuldek sochilg‘an kokule,

Ulki, andin har dam aylarmen fig‘on-u g‘ulg‘ule,
Gul’uzoredur, vale savti nechukkim bulbule,
Ham guliston bazmi ichra sarv qomatlig‘ gule,
Ham shabiston bazmi ihyosida sham’i anvare.

Rahm qilmas notavon ko‘nglum aning zori bo‘lub,
Chehra ochmas ko‘zlarimning ashki gulnoriy bo‘lub,
Iltifot etmas tanim hajr ichra bemori bo‘lub,
Vaslidin marham yeturmas bag‘rim afgori bo‘lub,
Alloh-Alloh, bo‘yla ofatning giriftori bo‘lub,
Naylagay bir men kibi zori zaifi abtare.

Ko‘hi darding za’fliq tan birla chektim muddate
Kim, visol ummididin ko‘nglumda erdi quvvate,
Emdi rahm etkilki, yuzlanmish ajoyib holate,
Ne ko‘ngulda quvvate qolmish, ne tanda sihhate,
Ne qaror-u sabr-u ne tob-u tavon, ne toqate,
Ne ko‘ngul, ne jon-u ne ruh-u ravon, ne paykare.

Ul zamonkim, bo‘ldum ul oy mehrig‘a moyil bu nav’,
Bilmadimkim, bo‘lg‘usidur jonima qotil bu nav’,
Kelgusidur ishqida ollimg‘a yuz mushkil bu nav’,
Aylagumdur hajridin mayxonani manzil bu nav’,
Soqiyo, dildorim ul yanglig‘, meni bedil bu nav’,
Rahm etib, aylab manga tutqil labo-lab sog‘are.

Oshnolig‘ tark etib, chun yor etar begonalig‘,
Men qila olman salomat ko‘yida farzonalig‘,
Aylayin dayri fano ahli bila hamxonalig‘
Kim, malomat jomidin hosil etay mastonalig‘,
To bo‘lub bexud Navoiydek qilay devonalig‘
Kim, tarahhum qilmasa, qilg‘ay tamosho ul pari.

TARJIBAND

1

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast
Aning nash'asidin ko'ngul erdi mast.

Mayekim qilur, quysalar jom aro
O'zi mast-u kayfiyati mayparast.

Eshit sarguzashteki, bir kun manga
Necha mayparast o'ldilar hamnishast.

May olmoqqa piri mug'on jazbasi
Meni chekti andoqki, mohiyni shast.

Qilib xirqa may rahni-yu zarfining
Etib og'zini mum ila sangbast.

Kelur erdim egnimda mayliq sabu,
Bo'lub to'qquz aflok ollimda past

Ki, ogoh o'lub to'sh-to'shumdin qabab,
Manga toptilar ihtisob ahli dast.

Shikastim mening oncha ermas edi
Ki, may zarfi topti aroda shikast.

Chu sindi sabu, choraye topmadim,
Meni muflisi ur[u], giryoni mast.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

II

Ketur, soqiyo, mujdaye jomdin
Ki, pajmurda bo‘lmishmen ayyomdin.

Bu gulshan guliga chu yo‘qtur vafo,
Ne parhez etay jomi gulfomdin?

Chu yo‘q shomi hijron xumorig‘a subh,
Ichib anglamay subhni shomdin.

Xalos aylay o‘zni may-u nuqlning
Su-yu donasi birla bu domdin.

Bo‘lay dayr pirig‘a andoq murid
Ki, yod etmayin shayx ul-islomdin.

Kiray dayr aro o‘yla majnun-u mast
Ki, ketsun xirad xos ila omdin.

Solay bir alolo xarobot aro
Ki, chiqsun fig‘on ahli ayyomdin.

Xarobotiy o‘lmog‘lig‘im, zohido,
Suol etma men zori badnomdin.

Garav qilg‘ali mayg‘a chun qolmadi
Ne tasbih-u ne xirqa, nokomdin.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

III

Safol ichra bir jur’a loye manga,
Erur jomi getinamoye manga.

Ketarmakka xudbinlig‘im ranjini,
Qani boda yanglig‘ davoye manga.

Chu men dayr piri vafosidamen,
Falakdin yetishmas jafoye manga.

Falakdin jafo yetsa, ey mug‘bacha,
Ne g‘am sendin o‘lsa vafoye manga.

Tariqat sulukini kasb etkali,
Hamul kunki, bo‘ldi havoye manga.

Burun zuhd-u taqvoni aylab shior,
Dedimkim, yetishgay safoye manga.

Borib xonaqah ichra qildim maqom,
Bu ma’no xud o‘ldi baloye manga.

Boqib xilvat-u zikr-u sajjodani,
Zuhur etti har dam riyoye manga.

Bulardin o‘zumni xalos ayladim
Ki, to hosil o‘lg‘ay fanoye manga.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

IV

Tilarmen bu dayr ichra koshonaye
Ki, bo‘lg‘ay jivorida xumxonaye.

Bu xumxona sahnidag‘i mayfurush
Saxo shevalig piri farzonaye.

Aning qurrat-ul-ayni kup ollida
Iliginda paymona jononaye.

Sumanbarlar ichra parichehraye,
Parichehralar ichra devonaye.

Menga gohi ul bersa may birla jon,
Bu qilsa gahe qatli mastonaye.

Erur telbalikdin ishim tun-u kun
Xayol aylamak o‘yla afsonaye.

Necha muflis istab dedim may uchun
Qilali ichin oro dangonaye.

Eshittimki, qilmish yana piri dayr
Xarobot ahlig‘a mayxonaye.

Bugun ochib ul maykada eshigin,
Berur har gado yetsa paymonaye.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

V

Yana bo‘lmisham oshiq-u zor ham,
Xaroboti-yu rind-u xammor ham.

Mubohot etib durdkashlik bila,
Qilib taqvo-vu zuhddin or ham.

Surohiyni but aylabon og‘zida,
Qilidin eshib belga zunnor ham.

Bo‘lub mayg‘a sajjoda-vu xirqa rahn,
Borib nuql uchun kafsh-u dastor ham.

Fano dayri ichra qalandarsifat
Kezib, balki, devonakirdor ham.

Parichehra atfolning toshidin
Bo‘lub sarbasar jismim afgor ham.

Meni ishqdin o‘rtagan mug‘bacha
Ki, devonavashdur, parivor ham.

Chu bildimki, bu nav’ birla erur
Xarobot ko‘yida mayxor ham.

Erur chunki yakranglik sharti ishq,
Bu taqrib birla meni zor ham.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

VII

Qani soqiyi gul’uzorim mening
Ki, jon qasdi etmish xumorim mening?

Firoq ichra ko‘p mehnat-u dard-u ranj,
Chekiptur tani xoksorim mening.

Xumor emgagidek vale ko‘rmamish
Tani g‘amkash-u joni zorim mening.

Bu xayli balo daf’ig‘a avlo ul
Ki, mayxona bo‘lg‘ay hisorim mening.

Ko‘p-u ozdin tutsa may piri dayr,
Fidosi aning yo‘q-u borim mening.

Yetursa qadam boshima mug‘bacha,
Erur javhari jon nisorim mening.

Xarobot aro kirganim, ey faqih,
Deyin, bo‘l dame rozdorim mening.

Kecha xonaqah ichra sarmast edim,
Bugun maysiz itti qarorim mening.

Xumor aylab ul nav' oshuftakim,
Iligdin borib ixtiyorim mening.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

VII

Meni may bas oshuftahol ayladi,
Bu vodiyda Majnunmisol ayladi.

Boshimni kup atrofida mayfurush
Uzum jismidek poymol ayladi.

Chog'ir kasrati may batidek manga
Xirad bulbulin gung-u lol ayladi.

Sabukashligim ayni idbordin
Qadimni yuk ostida "dol" ayladi.

Mayi la'l oltun qadah shaklidek,
Yuzum sorig', ashkimni ol ayladi.

Qadimdin falak ofiyat xirqasin
Chekib rahni jomi zulol ayladi.

Sipehr atlasi dayr ko'yi aro
Mening kisvatim eski shol ayladi.

May istarda idbor-u oshuftalig'
Manga jom sing'an safol ayladi.

Xarobot piri chu bir jom uchun
Meni mundoq oshuftahol ayladi.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

VIII

Yana durdkashmen mubohot uchun,
Berib jon havoyi xarobot uchun.

Ketur, soqiyo, boda og‘zimg‘a quy
Damekim, o‘lubmen bu mir’ot uchun.

Ne mir’ot, balkim quyosheki, fayz
Anga om erur barcha zarrot uchun.

Manga zohid etti base sarzanish
May ichmakka sarf o‘lg‘an avqot uchun.

Dedim: yaxshiroq boda ul zuhddin
Ki, qilg‘ay kishi shuhrat-u ot uchun.

Manga bodadin bo‘ldi nafyi vujud,
Sanga zuhd ani qilmoq isbot uchun.

Bo‘lub tund masjid sari qildi azm,
Meni qarg‘ayin deb munojot uchun.

Munojot etib kirdi xilvat aro
Yasalg‘on riyoyiy karomot uchun.

Karomot men qildim ul lahzakim,
Riyo biymidin daf’i ofot uchun.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

IX

Yana boshlamish boda ichmak habib,
Manga ichmay o‘lg‘aymu sabr-u shikeb.

Icharmen vale qon, nedinkim ichar
Habibim bila boda har dam raqib.

Nasibi raqibening ar may bo‘lub,
Nasibim mening bo‘lsa qon, yo nasib!

Ne zulmeki, gulshanda gul mahrami
Bo‘lub zog‘-u mahrum erur andalib.

Ne tong bog‘lamoq, kofiri ishq o‘lub,
Kishi belga zunnor-u osmoq salib.

Yoqam chok etib ko‘ksuma tosh urub
Solib rustaxez el aro men g‘arib.

Bular naf’ chun qilmadi ko‘ngluma,
Labo-lab qadah birla berdim fireb.

Chu bildimki, bexudlug‘umdur iloj,
Xarobot yo‘lida bo‘ldum nisheb.

Nechukkim, yetib Rustame ko‘yig‘a
Kirar erdi sarmast Mahmudi Habib.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘an safol.

X

Nechuk may bila bo‘lmasun ulfatim
Ki, jon qasdi aylar g‘am-u mehnatim.

Nazar ayla bu korgah vaz'ig'a
Ki, ortar tamoshosida hayratim.

Quyosh yo'qki, bir zarra mohiyatin
Topa olmadi sa'y ila fikratim.

Ne kelmak ayon bo'ldi, ne ketmagim,
Ne mabda' yaqin bo'ldi, ne raj'atim.

Ne kasbi ulum etti hal mushkilim,
Ne tutti ilik taqvo-vu toatim.

Topay deb xabar ushbu maqsuddin,
Tutashti base qavm ila suhbatim.

Ne qildi bu dardim ilojin hakim,
Ne shayx ayladi daf' bu illatim.

Ne qilmoqqa bir amrdin hosilim,
Ne kechmakka bu fikrdin jur'atim.

Mening boshima bas qotiq tushti ish,
Chu toq o'ldi bu dard ila toqatim.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'an safol.

MASNAVIY

Sano Haqqakim, koshifi hol erur,
Xirad mushkilotig‘a hallol erur,

Alimeki, yo‘qtur bidoyat anga,
Azimeki, yo‘qtur nihoyat anga;

Hazar ichra bechoralar yovari,
Safar ichra ovoralar rahbari;

Ne solikkakim, dasht etib jilvagoh,
Tavakkulni aylab anga zodi roh;

Musofirni yo‘ldin kecha gum qilib,
Yonig‘a aning qumni qoqum qilib;

Anikim, qilib ishqdin yoralig‘,
Nasib aylabon anga ovoralig‘;

Birovga necha g‘urbat izhor etib,
Chu bir yerda ko‘p turg‘uzub, xor etib;

Biravnikim aylab bir el ichra xor,
Anga chora aylab ul eldin firor;

Safarni tamug‘din nishon aylabon,
Tamug‘ ranjin andin ayon aylabon;

Ko‘ngulsizga mushfiq, kishisizga yor,
Umidi yo‘q el andin ummidvor.

Aning hamdidin so‘ngra yuz ming durud,
Bari farruxoyin humoyunvurud.

Nabiy ravzasig‘a alayhissalom,
Ham ol-u ham as’hobig‘a bardavom.

Ado bo‘ldi chun hamd-u na’t-u sano,
Bu ovoradin yuz tuman ming duo.

Angakim erur fazl avjida mehr,
Ne mehreki, bir zarra anga sipehr.

Safo subhining mehri farxundasi,
Fano shomining sham’i raxshandasi.

Karam borgohida masnadnishin,
Adam xonaqohida xilvatguzin.

Tikib xirqalar egniga ahli roz,
Aning qoptani vuslasidin tiroz.

To‘ni charx-u anda o‘zi bir jahon,
Jahonni qilib bir to‘n ichra nihon.

O‘tuk ultongi taxta na’layn anga,
Bo‘lub har qadam o‘rni kavnayn anga.

Falakdin sipohi fano oshurub,
Sipohiyliq ichra o‘zin yoshurub.

Jamol ichra tong boshi Nohiddek,
Kamol ichra tush vaqti xurshiddek.

Vafo anga — pesha, saxo anga — fan,
Vafo-vu saxo koni Sayyid Hasan.

Zihi ravzadin xulqung ortuq base,
Kelib bog‘i qadringda tubo xase.

Chu sensen bugun olam ahlida fard
Ki, holin deyolg‘ay sanga ahli dard.

Mangakim, vidodingg‘a xursandmen,
Janobingg‘a shogird-u farzandmen.

G‘ame yetti charxi jafopeshadin,
Hamul anjumi xorij andeshadin

Ki, bo‘lmoq vatan ichra dushvor edi,
Ko‘ngulga jalo daf’i ozor edi.

Safar tushti ollimg‘a beixtiyor,
Qazo amrida elga ne ixtiyor?!

Bilurmen seni ham safardin qazo,
Agar qaytarurg‘a qilib iqtizo.

Qilib avd, mayli vatan aylasang,
Ichib boda azmi chaman aylasang.

O‘z ilgingga jomi mayi nobni
Olib istasang bir-bir ahbobni.

Alarni chu may birla shod aylagung,
Meni dog‘i, albatta, yod aylagung.

Bu azmimni shoyadki taftish etib,
Firoqim zamiringg‘a tashvish etib,

Meni yo‘qlabon barcha ahbob aro,
Tilab topmayin xayli as’hob aro,

Degaysenkim, ul zori ovoravash
Ki, hijron mayidin bo‘lub jur’akash,

Ne qildi ekin charxi nobaxtiyor
Ki, sargashtalik ayladi ixtiyor?

Xayolig‘a hodis ne bo‘ldi ekin?
Bu azmig‘a bois ne bo‘ldi ekin?

Chu holimdin ahbob ogoh emas,
Degaylar hadiseki, dilxoh emas.

Ayon bo‘lg‘ay ollingda hangomaye,
Bitimak manga farz edi nomaye.

Sanga holatimni ayon aylamak,
Bu azmim vujuhin bayon aylamak.

Manga necha nav’ o‘ldi bechoralig‘
Ki, ollimg‘a tushti bu ovoralig‘.

Bir ulkim, chu so‘zdindur inson sharif
Chu hayvong‘a so‘z yo‘qtur uldur kasif,

Ko‘ngul durji ichra guhar so‘zdurur,
Bashar gulshanida samar so‘zdurur.

Erur so‘z falak jismining joni ham,
Bu zulumotning obi hayvoni ham.

Agar jon emas, bas nedurkim, Masih
O‘luk tirguzur, deb kalomi fasih?

Agar obi hayvon emas bas nechuk,
Topar jon zulolidin aning o‘luk?

Ne bo‘lg‘ay aning vasfida el so‘zi
Ki, harneki derlar erur chun o‘zi.

Bu so‘z k-ofarinishdin ashrafdurur,
Aning dag‘i mavzuni altafdurur,

Javohir necha xo‘b-u dilkashdurur,
Vale nazm silki aro xushdurur.

So‘z ichraki, yolg‘on erur nopisand,
Chu nazm ettilar, qildi dono pisand.

Men ul menki, to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur.

Falak ko‘rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.

Ne nazme der ersam meni dardnok
Ki, har harfi bo‘lg‘ay aning durri pok.

Yetar Tengridin oncha quvvat manga
Ki, bo‘lmas bitiriga fursat manga.

Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur
Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.

Raqam qildi farxunda “Shahnoma”ye
Ki, sindi javobida har xomaye.

Musallamdurur zohiran bu ishi
Ki, ma’razg‘a kelmaydurur har kishi.

Dedi o‘z tili birla ul koni ganj:
Ki, si sol burdam ba “Shahnoma” ranj.

Ani derga bo‘lsa qachon rag‘batim,
Erur oncha Haq lutfidin quvvatim

Ki, har necha nutq o‘lsa kohilsaroy,
Bitigaymen o‘ttuz yilin o‘ttuz oy.

Agar xossa ma’no gar iyhom erur,
Aning kunda yuz bayti halvom erur.

Vale ayt deb, kim manga tutti yuz
Ki, men yuz uchun demadim ikki yuz.

Ne yuz, ne iki yuzki, bu kilki tez,
Atorud bila qilsa zohir sitez,

Aning sayri bir davr oxir bo‘la,
Falakni latoyifdin etgay to‘la.

Birav bo‘lsa bir ishda bu nav’ fard,
Vale ko‘rmasa bahra juz ranj-u dard.

Bo‘lub Qof vajhi maoshig‘a kon,
Murabbiysi anqog‘a hamoshyon,

Uyi notavon ko‘ngli yanglig‘ buzuq,
Bu uy ichra anduh-u g‘am yer ozuq.

Mayi bazmi barcha yurak qonidin,
Surudi hazin ko‘ngli afg‘onidin.

Desakim, topay eski puldin farog‘,
Topilmay juz a’zosida yangi dog‘.

Maishat uchun orzu qilsa siym,
Ani topqay, ammo esarda nasim.

Kishi jinsi mulkida mardumgiyo
Diram sinfi avzoyida kimiyo.

Kishi bo‘lsa andog‘ki, o‘tti maqol,
Bu yanglig‘ kishiga bu nav’ o‘lsa hol,

Nechuk mayli ovoralig‘ etmagay,
Boshin olibon bir taraf ketmagay?!

Yana bir bukim, zohir o‘lmish mango
Ki, chiqmish Xuroson elidin vafo.

Vafo azm aylarda bo‘lmish magar
Saxo-vu muruvvat anga hamsafar.

Bu uch fe’l chiqqach arodin tamom,
Yana bo‘lmish uch fe’l qoyimmaqom.

Vafo yerida zohir o‘lmish nifoq,
Saxo o‘rnida buxl tutmish visoq.

Muruvvatqa bo‘lmish hasad joygir,
Zihi xush el-u mulkati dilpazir.

Ne mulk-u ne el emdi tahrir etay,
Alar holatin vasf bir-bir etay.

Dema mulkkim, vahshatobodi zisht,
Tamug‘ bilgurub g‘oyib o‘lg‘ach bihisht.

Tamoshosini kimki, bunyod etib,
Sipohon-u Ray mulkidin yod etib.

Hisori ano-u taab mahbasi,
Siyahcholdin tiyraro‘roq base.

Imorotida ganjdin yo‘q asar,
Xizona xaroba bo‘lub sarbasar.

Masojidda toat bila nur yo‘q,
Xavoniqda non rasmi dastur yo‘q.

Hama avqofni sadr amlok etib,
Vale ko‘pragin may uchun tok etib.

Ham el manzilin shah katakdek buzub,
Tovug‘ o‘rnig‘a chug‘z o‘lturg‘uzub.

Madorisda ilm-u saloh-u yaqin
Aningdekki, dayr ichra islom-u din.

Ko‘ngul jam’i ahli munojot aro,
Aningdekki, taqvo xarobot aro.

Elida kishilikdin osor yo‘q,
Sharoratdin o‘zga padidor yo‘q.

Ne el, ne kishi, balki shayton-u dev,
Kelib barchag‘a da’b bedod-u rev.

Bo‘lub lomakon sathidin xonlari,
Adam mulki bug‘doyidin nonlari.

Qaro pul uchun aylabon qatl fan,
O‘luktin tama’ aylab, ammo kafan.

Ne vayronda eski tanobe bilib,
Yilon sog‘inib, ganj da’vo qilib.

Qizil oltun istab qaro toshtin,
Falak go‘yi bir dona xashxoshtin.

Tutulsa birav o‘g‘ridur deb kuchun
Tutubon ilik, lek kesmak uchun.

O‘lum kelsa bir zori bedil sari,
Madad aylabon, lek qotil sari.

Hirot ahlin eltib havodis yeli,
Esib day yelidek Samarqand eli.

Bu mulk ahli ul elga zor-u asir,
Bo‘lub nahb-u yag‘mo qalil-u kasir.

Manga bu el ichra ne bir hamdame
Ki, bir dam ikovlan deyishsak g‘ame.

Ne shoheki topsa ishim ixtilol,
Madihiga ko‘rguzgamen ishtig‘ol.

Ne bir ahli davlatdin oncha umid
Ki, andin navo topsa bir noumid.

Ne vajhi maoshe muqarrar manga
Ki, bo‘lg‘ay farog‘e muyassar manga.

Ne bir hujrakim, kom topqay ko‘ngul,
Dame anda orom topqay ko‘ngul.

Ne bir sho‘x vaslig‘a ul moyadast
Ki, azmim ayog‘ig‘a bergay shikast.

Ne yoreki, ranjimni qilg‘ay qabul,
Ne zoreki, hajrimdin o‘lg‘ay malul.

Yetishsa o‘lum ranji bemorlig‘,
Su berguncha qilmay birav yorlig‘.

Su bermak nekim, zohir aylab g‘ulu,
Olurg‘a agar bo‘lsa jonimda su.

Sen erdingki, har ishda yorim eding,
Ne g‘amkim yetar, g‘amgusorim eding.

Seni ham sipehri muxolifmazoq,
O‘kush rev ila soldi mendin yiroq.

Biravgaki yuz qo‘ysa muncha balo,
Ne bo‘lg‘ay aning chorasi juz jalo?!

Zaruratki, yasab safar bargini,
Tushub yo‘lg‘a qilg‘ay vatan tarkini.

Uchunch ulki, chun Xoliqi Zuljalol
Ki, ham lamyazal keldi, ham loyazol.

Chu lavhi vujud uzra tortib qalam,
Iki kavn tarhig‘a urdi raqam.

Burun chekti mundog‘ sipehri rafi’,
Yana yoydi bu nav’ arzi vasi’.

Nekim jilvagar qildi aflok aro,
Ne qildi ayon arsayi xok aro.

Demay yetti obo-u to‘rt ummahot
Ki, xilqat to‘ni kiydi chun koinot.

Emas erdi maqsud juz odamiy
Ki, Haq sirrining bo‘lg‘ay ul mahrami.

Baridin g‘araz garchi inson edi,
Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Bu so‘z sidqig‘a dag‘i beta’n-u tanz,
Dalolat qilur oyati **“Kuntu kanz”**[1].

Xayolimda andog‘ musavvar bo‘lur
Ki, ul iki ishdin muyassar bo‘lur.

Biri buki, bir jazba Haqdin yetib,
Ko‘ngulni yaqiyn jomidin mast etib,

Haqiqat sari turktoz aylagay,
Jahon shug‘lidin beniyoz aylagay.

Anga qolmag‘ay ham o‘zidin xabar,
O‘zidin nekim, o‘zlugidin asar.

Bo‘lub raf’ imkoni mavjudlug‘,
Topib Haq vujudida nobudlug‘.

Chu Haq topti bu nisbatidin aning
Ki, maqsud edi xilqatidin aning.

Musharraf qilib ani o‘z rozidin,
Yana ham o‘z anjom-u og‘ozidin.

Buyurdiki, el bo‘lg‘ali bahravar,
Suluk-u marotibg‘a qilg‘ay guzar.

Yana bir budurkim, gado gar muluk
Talab yo‘lida qilg‘ay oncha suluk.

Burun murshidi komil istay yurub,
Ani topqach o‘zin anga topshurub.

---

[1] **“Kuntu kanz”** — “Kuntu kanzan maxfiyyan” hadisiga ishora; ma’nosi: “Men bir yashirin xazina edim, O‘zimni oshkor qilishni sevdim (xohladim)”. Ismoil Haqqiy Bursaviy qavllariga ko‘ra, hadisi qudsiyyayi Dovudiyyadir.

Suluk amrida urmayin besh-u kam,
Aning amridin ayru dam yo qadam.

Fano dashtida sayri bo‘lg‘ach tamom,
Haq andin so‘ng etkay ato ul maqom

Ki, bir jazb ila oshno bo‘lg‘ay ul,
Muqimi harimi safo bo‘lg‘ay ul.

Alarkim nishoni masolik debon,
Burung‘ini majzubi solik debon.

Bu birningki, har amri marg‘ubdur,
Otin solike debki, majzubdur.

Chu avvalg‘i ish bo‘lmadi dastgir,
Ikinchisidin xo‘b emastur guzir.

Menikim, bu savdo nizor ayladi,
Havas ilgida beqaror ayladi.

Ne imkonki, topqay qaror-u sukun,
Biravkim bu fikr etti ani zabun.

Urarmen qadam toki borg‘uncha gom
Ki, bo‘lg‘ay muyassar menga ushbu kom.

Agar bo‘lsa bu yo‘lda umrum talaf,
Chu bu yo‘ldadur ul ham erur sharaf.

Va gar bo‘lsam o‘z komima bahramand,
Zihi mulki jovid-u baxti baland.

Xusho ulki, olamda gar chekti ranj,
Yana olam asbobig‘a topti ganj.

Xush ulkim, agar cheksa ming xori dard,
So‘ngi tushsa ilgiga bir toza vard.

Ne farruxdur ul hajr ovorasi
Ki, vasl etkay oxir oning chorasi.

Emas bo‘lsa davron murodi bila,
Fano bo‘lsa matlubi yodi bila.

Janobingda uldur manga multamas
Ki, men benavoni sog‘ingan nafas.

So‘zum ayt foniylig‘ ohi bila,
Madad ayla himmat sipohi bila.

Bu erdi so‘zumkim dedim men g‘arib,
Yana Tengri diydor qilg‘ay nasib!

QIT'ALAR

"G'AROYIB US-SIG'AR" MUQATTAOTINING SARSUXANLARI

1

TENGRI ZOTI HAQIQATIDAKIM,
XIRAD MABHUT-U NODONDUR VA
AHLI XIRAD
FARTUT-U HAYRON

Haq zotig'a biravki, xirad birla fikr etar,
Otin el ichra oqil-u farzona aylabon.

Miqdorini tengiz suyining istar anglamoq,
Lekin hubob jomini paymona aylabon.

2

RASULI A'ZAM SHA'NIDAKIM,
QUYOSHDIN
OLAMOROYROQDUR-U NAFY
QILG'ON
XUFFOSHDIN TIYRAROYROQ

Muhammadi arabiy sha'ni andin a'zam erur
Ki, nuqs bo'lg'ay ulus bo'lsa nafyig'a qoyil.

Quyosh ashi'asig'a lam'a andin ortuq erur
Ki, zarra kasrati bo'lg'ay ziyosig'a hoyil.

3

FANO SHARBATI BOBIDAKIM,
TA'MI ZAHRI QOTILDUR-U
BAQOYI ABAD NO'SHI UL ZAHRDIN HOSIL

Foniyi mutlaq o'lmayin solik,
Anga yo'qtur umidi maqsadi kull.

Qaro tufroqg'a singmagan qatra,
Andin imkoni yo'q ochilmoq gul.

4

FANO MAQOMIG'A YETKAN
SOLIK VASFIDAKIM,
MOLDIN ANGA ZIYON YO'QTUR-U
JOHDIN NUQSON

Soliki ozodani ko'rsang g'aniy, qilg'ay debon
Mol aning man'i suluki qilmag'il inkor anga.

Kema tiyri mol aro bo'lmish muqayyad demagil,
Ko'rki, oncha mol o'lurmu moni'i raftor anga.

5

O'ZLUKDIN QUTULMOQ SUUBATIDA VA
ANONIYAT
TARKI SHIDDATIDA

Ey ko'ngul, tan taxtasin bu qa'ri yo'q girdobdin
Istasang sohilg'a chekmak, bilki, bu oson emas.

Pir-u iste'dod-u tavfiq o'lmasa bo'lmas bu ish,
Kimdururkim bag'ri bu hasratdin oning qon emas?

6

AQLNING BARCHA TARIQIDA MAOSHNI DUSHVOR BILMAG-U JUNUNG‘A QAROR BERMAK

Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,
Qismat rizosidin anga begonaliq kerak.

Kunji qanoat archi erur saltanat va lek,
Eldin tama’ni uzgali mardonaliq kerak.

Kim, ishq asiri o‘lsaki, mumkin emas visol,
Dard-u balog‘a hamdam-u hamxonaliq kerak.

Lazzoti nafs tarki samari ofiyat berur,
Lek ul shajarni ekkali farzonaliq kerak.

Tajrid nuridin kishi ko‘z yorutay desa,
Ahbob hajri sham’ig‘a parvonaliq kerak.

Gar anjumanni desa murid-u muti’ etay,
Ko‘p nukta-vu fasonada afsonaliq kerak.

Botin harimida tilasa maxzani huzur,
Zohir uyi asosig‘a vayronaliq kerak.

Zohir yuzidin ar tilasa toj-u izz-u joh,
Dard-u balo muhitig‘a durdonaliq kerak.

Desang xalos o‘lay borisidin Navoiydek,
Bexudlug‘-u may ichmag-u devonaliq kerak.

7

QANOAT NAQSHINING IFSHOSI-YU NAQSHBANDIYA TARIQINING ADOSI

Qanoat tariqig‘a kir, ey ko‘ngul
Ki, xatm o‘lg‘ay oyini izzat sanga.

Desang shoh o‘lay yer-u ko‘k basdurur,
Bu bir taxt-u ul chatri rif’at sanga.

Fano shu’lasida yoshur jismni,
Kerak bo‘lsa zarbaft xil’at sanga.

Yetar lola butkan qoya qullasi,
Murod o‘lsa gulgun hashmat sanga.

Erur bas arig‘ nukta-vu qon yoshing,
Dur-u la’ldin zeb-u ziynat sanga.

Desang xilvatim anjuman bo‘lmasun,
Kerak anjuman ichra xilvat sanga.

Vatan ichra sokin bo‘lub soyir o‘l,
Safardin agar bo‘lsa mehnat sanga.

Nazarni qadamdin yiroq solmag‘il,
Bu yo‘l azmi gar bo‘lsa rag‘bat sanga.

Damingdin yiroq tutmag‘il hushni
Ki, yuzlanmagay har dam ofat sanga.

Bu to‘rt ish bila rub’i maskun aro,
Chalinmoq ne tong ko‘si davlat sanga.

Bu ohang ila bo‘lg‘asen naqshband,
Navoiy, agar yetsa navbat sanga.

8

TAVAKKUL SIFATI-YU BETAVAKKULLAR MAZAMMATI

Tavakkulni ulkim qo‘yub, xotirig‘a
Tushar shoh ollinda qulluq havosi.

Nasibi aning bir ayoq osh erur bas,
Agar ganji Qorun erur muddaosi.

Biravkim, bo‘lur bir ayoq osh uchun qul,
Yuziga keraktur qazonning qarosi.

9

MAXLUQ MULOZAMATIDIN TANFIR-U G‘AYRI HAQ MULOZAMATIDIN TAHZIR

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar, yaxshiroq ushalsa beli.

Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur
Ki, aning chiqsa egni, sinsa eli.

Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim, tutulsa dami, kesilsa tili.

10

KAMOL KASBIGA DALOLAT-U NUQSONIDIN IZHORI MALOLAT

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

11

JABHA CHININING MAN'IKI, ORAZ GULINING XORIDUR-U MUROD YUZINING G'UBORI

Biravkim, jabhasida chin erur, tuta olmas
Murod shohidining soidini komi bila.

Agarchi fannida sohib kamol erur sayyod,
Qachon balig' tuta olg'ay su mavji domi bila.

12

SO'ZGA QULOQ SOLMOQ-U OG'IZ OCHMAMOQ, GAVHARNI TERIB, O'Z GAVHARIN SOCHMAMOQ

Quloqda asra garonmoya so'zni-yu fikr et
Ki, dursiz o'lsa, ne bo'lg'usidur sadaf holi.

So'zungni dag'i ko'ngul ichra asrag'ilkim, hayf
Kim, o'yla durjni guhardin etkasen xoliy.

Bu durj-u ikki sadafni to'la dur etkanga,
Zihi uluvvi guhar, balki gavhari oliy.

13

HIDOYAT AHLIG'A HAVODIS OSIB YETKURA OLMASIDA-VU NAVOYIB ZARAR YETKURA OLMASIDA

Ne rahraveki, toji hidoyat boshidadur,
Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin.

Hudhudki, qo'ydilar azaliy toj boshig'a,
Tushkaymu jola yog'qan ila toji boshidin?

14

ZOHIDI RIYOYI KO‘NGLIDIN MALOMAT AHLI KINI RISHTASIN UZMAG-U SALOMAT YO‘LIN KO‘RGUZMAK

Ko‘rsang, ey zohid, muqomirvash qalandarpeshaye,
Bo‘lma ko‘p mashg‘ul-u dunyo shug‘lidin qil ijtinob.

Dona o‘ynab vajhin isor etsang andin yaxshikim,
Evurub tasbih-u yormoq sudin etkaysen hisob.

15

BADASL ELGA MULOYAMATDIN EHTIROZ KO‘SIN URMOQ-U IDBOR AHLI SUHBATIDIN IJTINOB QILMOQ

Yuziga asli yomonning ko‘p ochma gulshani xulq,
Siyahgilemga, albatta, mehr aylama fosh

Ki, qilmadi gul isi birla toza ruh jual,
Quyosh charog‘ig‘a parvona bo‘lmadi xuffosh.

16

DUSHMANDIN TAHZIR QILMOQKIM, BIYMI BO‘LG‘AY, XUSUSANKIM, UL DUSHMANI QADIMIY BO‘LG‘AY

Chu dushman o‘ldi qadimiy ziyonidin hazar et,
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong‘a rohat erur.

Su birla o‘t aro ziddiyat o‘ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o‘tqa ofat erur.

17

VIQOR TARG‘IBIDAKIM, QOFI QURB QOFIDIN NISHONADUR-U UL QOF DAVLAT ANQOSIG‘A OSHYONA

Viqor gavhari-yu hilm ma’dani bo‘lako‘r,
Desangki, qilg‘ay itoat sanga gado bila shoh.

Bu sheva tog‘da zohirdururki, davrondin
Qachonki tafriqa yetti, ulusqa bo‘ldi panoh.

18

TUZLUK IRTIKOBIDA-VU EGRILIK IJTINOBIDA

Biyik maqomig‘a ulkim tilar sabot, kerak
Ki, egrilikni qo‘yub, tuzluk aylasa qonun.

Tuz o‘lsa soyasida el tinib manor kibi,
Sipehr uyida turar qarnlar nechukki sutun.

Gar egridur yog‘ibon o‘q-u bog‘lanib bo‘yni,
Bo‘lur qabaq yig‘ochidek besh-o‘ncha kunda nigun.

19

ROSTLIQ SIFATI-YU ROSTRAVLAR KAROMATI

Xiromon suda soyir bo‘lmoq-u uchmoq havo uzra
Ajab ermas, qachonkim rostravliq qilsa ozoda.

Shior aylab bu ishni kema tiyri, ko‘rki, su uzra
Xirom aylab havog‘a bodbondin soldi sajjoda.

20

TAZVIR ASHKI SHAQOVAT DONASI-YU NODON YOVASI IDBOR NISHONASIDUR

Poklar joni bo‘lur ozurda tazvir ashkidin,
Ko‘zgu ruxsori nechukkim, zang tutqay nam bila.

Rostlar ko‘nglini aylar tiyra nodon yovadin,
Sham’ni ul nav’kim, johil o‘churgay dam bila.

21

NIHONIY SAXOVATDA KO‘SHISH OSORI-YU ANING JILVASIDA NAKUHISH IZHORI

Saxiy uldurki, nav’e bazl qilg‘ay,
Agar xud sufra ichra bo‘lsa noni

Kim, ul chodir ko‘mochidek yetishkay
Gado uyiga ko‘zlardin nihoniy.

Falakdek yo‘qki, avval jilva bergay
Quyoshning qursidek olamg‘a oni.

22

TAKALLUF AHLINING DUNYOG‘A SHEFTALIG‘IDA-VU DUNYOLIKKA FIREFTALIGIDA

To‘nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqan har taraf,
Yo‘q ajab gar bor esa dunyo matoyi kom anga.

Ul chibinkim, ko‘zga oltun yanglig‘ ishnar xil’ati,
Ko‘pragi, bilkim, najosat uzradur orom anga.

23

OZ SO‘Z DEMAKNING MANFAATIDA-VU KO‘P SO‘ZNING MAZARRATIDA

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.

Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun,
Qilur tojvarlar bila dastbo‘s.

Necha tojvardur kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus.

24

HINDU TARBIYATIDAKIM HADIS MAZMUNI BILA BETAXALLUFDUR-U XILOF QILG‘ONG‘A BAHRAYE TAASSUF

Issig‘ nafas bilan hindug‘a tarbiyat qilsang,
Xisoli haryon o‘lur jahl tavsanin surmak.

Ko‘mirni o‘tqa solib la’li otashin etsang,
Natija bo‘lg‘ay anga qayda tushsa kuydurmak.

25

LAIMG‘A TA’ZIM O‘Z-O‘ZIGA RANJI AZIMDUR, BALKI AZOBI ALIM

Laim farqig‘a iqbol tojini qo‘ymoq
Yaqinki, bo‘lg‘usidur mujibi azobi aning.

Nutuqchi boshig‘a shunqor tumog‘asi tong emas
Ki, bo‘lg‘usi sababi ranj-u iztirobi aning.

26

OLIY SHA'N EL KICHIK YOSHLIG' EKANDA HAM OLAMOROYDUR-U OY BIR KECHALIKDA ANGUSHTNAMOY

Biyik maqomlig' el tifl ekanda ham bo'lmas
Ki, tiyra qilg'ay ani jahl-u zulmat ahli tili.

Qamar charog'i agar bo'lsa barcha bir kechalik,
Ne nav' o'churgay ani shabparak qanoti yeli.

27

SAXO-VU BUXL BOBIDA NUKTA SURMAK VA AROLARIDA IKKI VOSITA KELTURMAK

Debon bergan kishi erdur va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Debon bermasni xotundin dag'i kam.

28

AVOM RO'ZASIN BAYON QILMOQ VA DAHANBASTLAR OCHLIG'IN AYON QILMOQ

Ne ro'za bo'lg'ay angakim, ochuq bo'lub og'zi,
Dame kam o'lmag'ay andin kalom-u harza kalom.
G'aribroq buki, qilg'ay bahonayi sunnat,
Ki, sharbat aylagay oshom zohir o'lmay shom.
Namoz qilmag'a-yu qilsa ham namoz ichra
Taxayyul aylamagay g'ayri lavn-lavn taom.
Chiqib namozdin o'lg'ay taom ila maml-u
Bu shart birlaki, bo'lg'ay taomi barcha harom.

Dimog‘ topsa rutubat bu nav’ at’imadin
Gunas bosh urg‘ucha uyg‘anmag‘ay kishi nokom.
Ko‘zin chu ochti yana ro‘za aylagay niyat,
Agarchi fosid erur me’da-vu saql andom.
Bu turfakim, tilagay bu qadar qabohat ila
Ki, ro‘za tutmag‘ini anglag‘ay xos-u avom.
Bu savm ilaki malak ani yozmag‘ay juz fisq,
Zihi malakvash soyim, zihi xujasta maqom.
Navoiyo erur ortuq bu yemak-ichmakdin
Yilon etini yebon, zahrin aylamak oshom.

29

ACHCHIG‘ SU KASRATIDIN TANBIH-U DARYODA CHUCHUK SUNI ANGA TASHBIH QILMOQ

O‘yla g‘arqi maydururlar xalq bu davr ichrakim,
Shar’ning ayn-ul-hayotidin asar mafhum emas.

Ul sifatkim, bahrning achchig‘ suyida ba’zi el
Topilur derlar chuchuk su ham vale ma’lum emas.

30

PODSHOH MUQARRABI KISHIGA EL HASAD YEMAK VA BU ISHNING DILPAZIR JIHATIN DEMAK

Shahg‘a muqarrab o‘lsa birav barcha xayldin,
El barcha dushman o‘lsa aning birla vajhi bor

Kim, xayl-u shoh oshiq-u ma’shuq erur yaqin,
Gulchehrayeki, oshiq anga bo‘lsa beshumor.

Ul barchasidin o‘lsa birisiga multafit,
Dushman bo‘lurda o‘zgalariga ne ixtiyor.

31

ABLAHNING HARZASI INTIBOHIDA-VU ESHAKNING FARYODI IKROHIDA

Umrin ablah kechurub g‘aflat ila,
Nukta o‘rnig‘aki tortar xarros.

Bir eshakdurki, tag‘oful yuzidin
Qilg‘ay izhor payo-pay arros.

32

XO‘BLAR VASLIG‘A MAG‘RUR BO‘LMAMOQ-U ALARNING ILTIFOTIG‘A MASRUR

Zamona xo‘blarining visoli sharbatidin,
Navoiyo, tilabon kom ko‘p chuchutma mazoq

Ki, har piyolasi zimnida koming etkay talx,
Sipehr tutqusidur yuz tag‘ora zahri firoq.

33

“ANNOSU ALO DINI MULUK” HADISINING TAFSIRI

Shahning af’oli etar xayl-u sipohig‘a asar,
Chu nabi dediki, “annosu alo dini muluk”.

Hukamo ham dedilar shahni tengiz, xayli — ariq,
Ul achig‘dur, bu achig‘,
ul chuchuk o‘lsa, bu chuchuk.

34

JAVOHIRSEVAR SALOTIN INKORIDA-VU ANING TOSHQA MUSHOBAHATI IZHORIDA

Shaho, el javhari jonin chiqarding,
Javohir hirsidin bedod etib fosh.

Chu o‘lgungdur ne osig‘ to‘kmak oni
Mazoring uzra andoqkim, ushoq tosh.

35

ATFOLNI QARILAR XIZMATIG‘A YO‘LDAMOQ-U CHUCHUK SO‘Z BILA ALDAMOQ

Qarilar xotiri nozukdur, ey tifl,
Shikastidin qilib vahm, o‘lma gustox:

Unuttungmuki, atfol o‘ynag‘anda,
Sinar oz mayl ko‘rgandin quruq shox.

36

O‘Z TOIFADIN SHIKOYATI-YU ELGA YAXSHILIQ QILIB, YOMONLIQ KO‘RGANI HIKOYATI

Ne toli’durki, har kimni desam yor,
Manga ul oqibat bo‘lur badandesh.

Biravdur gar ani desam ko‘zumsen,
Chekar mujgon kibi qasdimg‘a yuz nesh.

37

UL BOBDAKIM, HUSN QUSHI ASHK DONASI BILA SAYD BO‘LMAS-U JON RISHTASI BILA GIRIFTORI QAYD

Ul turfa qush havosida ko‘z to‘kti durri ashk,
Jon yoydi rishtasin anga aylab havoyi qayd.

Lekin gar inju sochsa kishi dona o‘rnig‘a,
Tovusni qachon qilur o‘rgamchi domi sayd?

38

UL MAZMUNDAKIM TAKALLUFLUQ TO‘N MUJIBI KULFATDUR-U BETAKALLUFLUQ ADAMI ULFAT

Kiyib samur ila kish qilma asr-u ra’noliq,
Ipak libos ila tutma g‘urur jomi to‘la.

Tiynning o‘z tuki-o‘q bo‘ldi jonig‘a ofat,
Farisaning paridin keldi o‘z boshig‘a balo.

39

LOJUVARDDIN RANGE KO‘RMAGAN KO‘KIN TUZMAG-U UL KO‘KTA RANGE KO‘RGUZMAK

Shohi sipehrqadr Abobakr ul shahe
Kim, ko‘k ravoqi dargahi qadrig‘a toq erur.

Bu charxi lojuvard uza xurshid, go‘yiyo
Ko‘kbo‘z takovarig‘a muzahhab janoq erur.

Bir pora lojuvard sari go‘yi angladi
Kim, bu zaifi xastag‘a ko‘p ishtiyoq erur.

Hukm etti bir qulig‘aki, taslim aylasun,
Go‘yo vusuli ul kishi ollinda shoq erur.

Yerdin desa qazib chiqaray, yer erur qatiq,
Ko‘k konidin desaki, olay, ko‘k yiroq erur.

40

KUCH BILA KULGUDIN YIROQ SOVUQLUQQA YOVUG‘ROQ, VALE KUCH BILA YIG‘LAMOQ ERUR ANDIN SOVUG‘ROQ

Hikmat ahli ollida sovuq sifat yo‘q kimsada
Subhi kozibdek mahalsiz aylagon kulgu kibi.

Lek mundin ko‘p sovuqdur ashk to‘kmak zo‘r ila
Day yelida qatra-qatra muz tomizg‘an su kibi.

41

ANONIYAT UYIN BUZMOQ BOBIDAKIM, FANO ZOVIYASIN TUZMAKDUR VA O‘ZIN KAM QILMOQDA O‘ZIN KO‘RGUZMAK

Kimki o‘zluk imoratin buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmayin solik
Bo‘la olmas bu naqdg‘a molik.

42

QONI' VASFIDAKIM, "ALQANO'ATU KANZUN LO YUFHO" MAZMUNI BILA AMAL QILUR VA HAR NECHA NAF` TOPSA QANOAT QILMAS

Qanoat go'shasin tutqilki, chun anqo bu da'b etti,
Anga qushlar ichinda qurb Qofida nishimandur.

Chu parvoriy tovug'ning og'zi tinmas tu'madin garchi,
O'lar oxir, anga avval katak zindoni maskandur.

43

YURUSHDA OTLARI ZA'FI TA'RIFIDAKIM, MUAMMO ICHIDAGI OTDEK PAYDO EMAS ERDILAR

Bu yurushda iki ulog'im bor,
Lek bormen sipohiyliqda yayoq.

Iki shatranj otidek birisi
Ko'tara olmay o'z yeridin oyoq.

Chopsa shatranj xonasi xatidin.
Sekrimaklik alarg'a behad shoq.

Biri rangi qoradurur, biri bo'z,
Qora yerdur dag'i-yu bo'z tufroq.

44

UL IMOM BOBIDAKIM, NAMOZ QILMOQDIN MAQSUDI JAMOATDIN O‘ZNI MUMTOZ QILMOQ ERDI

Turfa ish ko‘rkim, falon har vaqtkim, qilg‘ay namoz,
Anda bir ish, g‘ayri nomashru’, zohir bo‘lmag‘ay.

Gar qiyom-u gar qiroat, gar ruku’-u gar sujud,
Har ne qilg‘ay biri o‘z yerinda sodir bo‘lmag‘ay.

Bo‘lmag‘ay hozir jamoatqa vale yolg‘uz dag‘i,
Qilmag‘ay to bir jamoat anda hozir bo‘lmag‘ay.

Bovujudikim, jamoat aylagaylar barcha hazl,
To imomat qilmag‘ay osudaxotir bo‘lmag‘ay.

45

TUS MAZORLARI BOBIDAKIM VAYRONADA GANJI MADFUNG‘A, BALKI SADAF ICHRA DURRI MAKNUNG‘A MUSHOBIHDURLAR

Avliyoullah mazori Tus vayroni aro
Ko‘pturur, yo‘q bok agar tavfida ko‘rsa kimsa ranj.

Munchakim vayrona kezdim ganj bir ham yo‘q edi,
Bo‘yla vayron kim ko‘ruptur anda madfun muncha ganj.

46

G‘ALAT BITIR KOTIB BOBIDA QALAM SURMAG-U QORASINING G‘ALATIN YUZIGA KELTURMAK

Falon kotib ar xatni mundoq yozar,
Bu mansabdin ani qo‘parmoq kerak.

Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dag‘i yormoq kerak.

Qarodin qarog‘a beribon uloq,
Qalamravdin ani chiqarmoq kerak.

47

KOMIL QALAMZAN SO‘ZIDAKIM, TA’RIFI LOZIM KELGAYKI, QALAM TILIN BILUR KISHI ANI BILGAY

Qiblat-ul-kuttobkim, derlar ani Sulton Ali
Kim, qazo kilki masallik xomasi yozmas g‘alat.

Qaysi qit’amniki yozdi bordi andin she’rlik,
El solurlar juzvdong‘akim, erur bir qit’a xat.

48

HIMMAT BOBIDAKIM SARVNING SARAFROZLIG‘IG‘A SABABDUR-U ARIG‘NING XOKSORLIG‘IG‘A BOIS

Himmat ahliki erur tuzluk aro sarv kibi,
Dahr bo‘stonida sarsabzdur-u ozoda.

Ulki, su yanglig‘ erur pastnihod-u kajrav,
Chekib afg‘on anga tinmaslig‘ erur omoda.

49

DILBASTALIG‘ MAN’IDAKIM VASL NAF’I JON TORTMOQDUR-U HAJR SARSARI JON BERMAK

Ey Navoiy, kishiga berma ko‘ngul,
Agar ul hurdurur, yo‘qsa pari.

Vasli naf’i buki, chekkaysen jon,
O‘lturur, lek firoqi zarari.

50

QALAMINING SIYAHKORLIG‘INING BEROHLIG‘I VA O‘ZINING SIYOHRO‘LIG‘INING UZRXOHLIG‘I

Ilohiy, ul raqamekim, chekibdurur qalamim,
Min-ash-sharorati av g‘ayriho farartu ladayk.

Agar xud o‘lsa malih ajri rahmatingdur aning,
Va lav yakunu qabihan, fa-minhu, tubtu ilayk.

RUBOIYLAR

1

Subhonallohi xoliqi z-ul-majdu alo
Kim, andin erur to‘la xalo birla malo.
Gar mehr aning misli degaylar uqalo,
Mehr ollida zarra yanglig‘ o‘lg‘ay masalo.

2

Ko‘k po‘ya-vu sayr ila talabgor sanga,
Kun sorg‘oribon ishqda bemor sanga.
Oy dog‘ ila qulluq aylab izhor sanga,
Tun anjumi naqdidin xaridor sanga.

3

Yo Rabki, inoyatingni yor ayla manga,
Yo‘qluqqa hidoyatingni bor ayla manga,
Ham kahfi kifoyatingni dor ayla manga,
Ham durri inoyating nisor ayla manga.

4

Shoheki falak sori chu mayl o‘ldi anga,
Ko‘k zarfi socharg‘a nur kayl o‘ldi anga,
Aflok shahi tobe-u xayl o‘ldi anga,
Balkim, yer-u ko‘k xayli tufayl o‘ldi anga.

5

Jonimdag‘i “jim” ikki dolingg‘a fido,
Andin so‘ng “alif” toza niholingg‘a fido,
“Nun”i dag‘i anbarin hilolingg‘a fido,
Qolg‘an iki nuqta ikki xolingg‘a fido.

6

Bu qosid ishim oh-u fig‘on ayladilo,
Bu ruq’a tanimni notavon ayladilo.
Bu sa’b xabar ichimni qon ayladilo,
Bu qonlig‘ ichim haloki jon ayladilo.

7

Uylansa birav toriy o‘lub nakbat anga,
Makkoraki, qaltabon surar shahvat anga.
Zisht ersa gar eldin yoshurur, rahmat anga,
Xo‘b ersa gar elga ko‘rguzur, la’nat anga.

8

Kim, bo‘lsa bu motamkadadek olam aro,
Sayr aylasa g‘amsirishtlik odam aro,
Gar odam erur, bo‘lsa keraktur g‘am aro,
Olamda esa, bo‘lsa kerak motam aro.

9

Ishqingda necha zor bo‘lay furqat aro,
Yetsam xush erur bazminga bir ishrat aro.
Ko‘z ikki yuzungdin olmasam suhbat aro,
Ikki taboningdin o‘ylakim xilvat aro.

10

No‘sh aylar emish qadahni jonona to‘la,
Soqiy, manga tut jomi harifona to‘la.
Quy, gar xud erur sipehr paymona to‘la,
Har nechaki, xoli etsam, et yona to‘la.

11

Nomangki, tirikligimdin uldur matlub,
Ochib o‘qug‘ach bir necha lafzi marg‘ub,
Ko‘p to‘lg‘anib ashk ichra o‘zumdin bordim,
Ul nav’ki, su ichiga tushkay maktub.

12

Nomangki, erur boisi iqbol-u tarab,
Yetkursa tarab meni hazing‘a ne ajab?
Yolg‘uz mendin ketarmadi ranj-u taab
Kim, bo‘ldi base xalq hayotig‘a sabab.

13

Bir aybg‘a garchi xalq qilg‘ay mansub,
Faqr ahlidin iztirob emastur mahsub.
Sidq ersa xud etmak kerak o‘z fe’lini xo‘b,
Kizb ersa, malomat dag‘i bordur matlub.

14

Su ko‘zgusini bog‘ aro aylarda shitob,
Siymob qilur erdi taharruk bila tob.
Day qildi bu simobni andoq ko‘zgu,
Kim, ko‘zgu aning qoshida bo‘lg‘ay siymob.

15

Vasling bo‘lubon jong‘a muyassar, yo Rab
Chehrang qilibon ko‘zni munavvar, yo Rab,
Nutqung sochibon bazmda gavhar, yo Rab,
Yo Rabki, ijobat aylagil har “yo Rab”.

16

Mahbubdurur gul-u visoli matlub,
Ko‘rmak ani gulbun uzra bilgil mahsub.
Bazm ichra uzub keturmak ermas marg‘ub,
Ul nav’ki majlis ichra o‘lgan mahbub.

17

Ey ulki, so‘zung tushti habib ollida xo‘p,
Mendin yo‘lig‘a boshing qo‘yub, tufrog‘in o‘p.
Ahbobg‘a ham birin-birin xidmat etib,
Arz ayla, niyoz ila duo ko‘ptin ko‘p.

18

Gardun uza bazm uchun maqom ayladi tut,
Ul bazmda xurshidni jom ayladi tut.
Ul jom ila ishratni mudom ayladi tut,
Oxir dami yer quyi xirom ayladi tut.

19

Gar oshiq esang zeb-u takallufni unut,
Yaxshi-yu yomon ishda taxallufni unut.
O‘tkan gar erur yomon taassufni unut,
Kelgan gar erur yaxshi tasarrufni unut.

20

Ey ishq, aning ko‘yida tavfi haram et,
Bizni dag‘i ul tavfg‘a boshla, karam et.
Bir doyira ko‘yi tegrasida raqam et,
Gar chiqsa oyog‘im raqamingdin, qalam et.

21

Chun xanjari hajring manga qat’ etti hayot,
Bori g‘am-u darding o‘qini tinmayin ot
Kim, oncha qovursun par urub butsa qanot,
Toyir bo‘lubon yetkamen oxir sanga bot.

22

Bo‘ldi mening o‘lmagimga savdo bois,
Savdog‘a havoyi jomi sahbo bois.
Sahbog‘a dag‘i dayr-u chalipo bois,
Bu barchag‘a ul dilbari tarso bois.

23

Ko‘nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj
Kim, g‘amza bila olur mamolikdin boj.
Boshi uza mamlakat xiroji bir toj,
Toji uza gavhari mamolikka xiroj.

24

Kunduz ko‘rsang o‘zungni mahzun, qadah ich,
Andoqki, quyosh ravshan-u mavzun qadah ich.
Ul damki, quyosh botti, shafaqgun qadah ich,
Jomingni qilib nechukki gardun, qadah ich.

25

Gul vaqti muyassar o‘lsa gulfom qadah,
Andin so‘ng tutsa bir gulandom qadah.
Man’ aylasa barcha ahli islom qadah,
Kofirmen agar qilmasam oshom qadah.

26

Ruhumg‘aki maydin erdi har lahza futuh,
Nosih tili nishi qildi ani majruh.
May loyini marham qilayin shom-u sabuh,
Ul vaqtqachaki, toza bo‘lg‘ay manga ruh.

27

Qo‘rqutma meni tamug‘din, ey zohidi yax,
Jannat manga bo‘lg‘usi debon urma zanax
Kim, do‘zax aning yodi bila jannat erur,
Jannat bori sening biladur do‘zax.

28

Ruxsori uza xollarin ul dilband,
Ochti chu meni ko‘rdi base hojatmand.
Ayshimg‘a yomon ko‘z etmagay emdi gazand,
Xossaki, ul-o‘q bo‘lubtur o‘t uzra sipand.

29

Yoshimg‘a bag‘ir qoni chu erdi monand,
Ko‘z asradi yoshdek bo‘lub andin xursand.
Turmadi ko‘zumga yetkach ul sarvi baland,
Bo‘lmas kishi farzandi kishiga farzand.

30

Ko‘nglum saydi uzub ulustin payvand,
Sargashtasifatlig‘ bila erdi xursand.
Qullobi muhabbating yana soldi kamand
Saydeki, uzub edi rasan, ayladi band.

31

Ey sharbati la’ling obi hayvondin alaz,
Hayvon suyini qo‘yki, chuchuk jondin alaz.
Ne jondin alaz, ne obi hayvondin alaz
Kim, har neki yo‘q, ondin alaz, ondin alaz.

32

Budur tilagimki ulki, ma’budung erur,
Tutqay seni ul yonki, sening sudung erur.
Ko‘nglungga yeturgay ulcha behbudung erur,
Ilgingga keturgay ulcha maqsudung erur.

33

Gul zikrin eshiturmen-u yo‘q guldin asar,
Bu bog‘ eshigidin istaram oncha guzar
Kim, topmasa gul jamolidin bahra nazar,
Bore isidin yetsa dimog‘img‘a xabar.

34

Soqiy, badanimni notavon etti xumor,
Ko‘nglumni qadahdek to‘la qon etti xumor.
Har uzvuma yuz ranj ayon etti xumor,
Tutqil qadaheki, qasdi jon etti xumor.

35

Mulk ochqali har xisravi oliymiqdor,
Insof-u adolat-u saloh etsa shior.
Fath o‘lg‘ay aning nihoyati oxiri kor,
Alminnatu lillahki, sanga barchasi bor.

36

Ko‘zum uchadur, magarki yorim keladur,
Es har dam ozar, magar nigorim keladur.
Yo bodiyayi firoq sayrida, qilib —
Yuz marhala qat’, shahsuvorim keladur.

37

Oshubki ul ko‘z tarfi aylanadur,
Bog‘labsen-u jon bu darddin o‘rtanadur.
Yo g‘oyati usruklug‘idin bulg‘anadur,
Ul mast kibiki, bulg‘anur bog‘lanadur.

38

Ag‘yor ila juft berma fardim bor
Kim, furqati za’fida ruxi zardim bor.
Gar dardidin ohi g‘ussaparvardim bor,
Man’ aylama, ey rafiqkim, dardim bor.

39

Har lahza ko‘ngul g‘amingda mahzun bo‘ladur,
Mahzunlug‘i lahza-lahza afzun bo‘ladur.
Savdo anga yuz onchaki, Majnun bo‘ladur,
Yuz muncha desam ham ne ajab chun bo‘ladur.

40

Ey bodi sabo, aylasang ul sori guzor,
Jon birla ko‘ngulni topshuray olg‘ach bor.
Ko‘nglumni itiga tu’ma qilg‘il zinhor,
Jonimni dag‘i oyog‘ig‘a ayla nisor.

41

Ey jism, aning ko‘yini paydo qilako‘r,
Ey ko‘ngul, o‘shul ko‘yni ma’vo qilako‘r.
Ey ko‘z, sen aning yuzin tamosho qilako‘r,
Ey ashk, aning ko‘yi sari oqilako‘r.

42

Eldin qochib ulki, tutsa tog‘ ichra qaror,
Sovug‘da yeri bu tog‘ning javfida g‘or.
Issig‘da makoni andakim, yotmish qor,
Olam elining shahlig‘idin bor anga or.

43

Andin berikim, qoshimda yorim yo‘qtur,
Hijronida juz nolayi zorim yo‘qtur.
Dasht uzra quyun kibi qarorim yo‘qtur,
Sargashtaligimda ixtiyorim yo‘qtur.

44

Har garmraveki, bo‘lg‘ay ul koshifi roz,
Maqsud harimi sari qilg‘ach parvoz.
Tong yo‘q falak uzra aylabon jilvayi noz,
Na’layni malakka bo‘lsa mehrobi namoz.

45

Olam bor emish, Navoiyo, sho‘rangiz,
Olamdag‘i el boshtin ayog‘ rangomiz.
Ishq istar emish seni adam misri sari,
Borg‘ilki, erur el tilagan yerda aziz.

46

Ahbob dengizki, xonumondin tama’ uz,
Ne xon-u ne mon, kavn-u makondin tama’ uz.
Ne kavn-u makon, jon-u jahondin tama’ uz,
Lekin demangiz muniki, ondin tama’ uz.

47

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki, sevmak andin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

48

La’lingni qilib nuktasaro, ey qorako‘z,
Ishq ahli hayotig‘a yaro, ey qorako‘z.
Chekma yana surma ko‘z aro, ey qorako‘z,
El qonig‘a qilma ko‘z qaro, ey qorako‘z.

49

Ul ko‘zki, dame bo‘lmadi sog‘, ey qorako‘z,
Qonimdin ichar mudom ayog‘, ey qorako‘z.
Bilmonki erur anga qarog‘, ey qorako‘z,
Yo mast edi qo‘ydi toza dog‘, ey qorako‘z.

50

Jonbaxsh labing chashmayi hayvonmu emas?!
Hajridin aning ichim to‘la qonmu emas?!
Har qatrayi qon la’li Badaxshonmu emas?!
Har porayi la’li javhari jonmu emas?!

51

Gar oshiq esang, mehr-u vafo qilma havas,
Dard ista-vu daf’ig‘a davo qilma havas.
Hijron-u visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdin g‘ayri rizo qilma havas.

52

Mahbubqa e’timod qilmoq bo‘lmas,
Andin talabi murod qilmoq bo‘lmas.
Ko‘zning qarosin midod qilmoq bo‘lmas,
Gar bo‘lsa bitig savod qilmoq bo‘lmas.

53

Ham savmaa kunji shayxi tarrorg‘a bas,
Ham shayx yuzi zohidi hushyorg‘a bas.
Ham dayrda mastlig‘ meni zorg‘a bas,
Ham mug‘bacha vasli joni bemorg‘a bas.

54

To subh xuruse uyg‘anib urdi nafas,
Xuffosh qanot ochqucha may qilma havas.
Chun valvala chekti ko‘y aro tabli asas,
May ich anga tegrukim, yetar savti jaras.

55

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

56

Ul durri saminki, bor edi ko‘zuma yosh,
Aylarda ajal anga jafo rasmini fosh.
G‘am tirnog‘idin qilib qarog‘imni xarosh,
Yashurg‘ay edim ani ko‘zum uyida kosh.

57

Yo‘q bodayi vasl, obi hayvon ul emish,
Ahbob muloqoti dema, jon ul emish.
Gardun g‘am-u ranj suratin naqsh etsa,
Jon chehrasi atrofig‘a hijron ul emish.

58

Yillar tutubon shayx maqolotig‘a go‘sh,
Ne ko‘ngluma zavq yetti, ne jonima jo‘sh.
Jonimg‘a navo soldi-yu ko‘nglumga xurush,
Bir jur’a bila mug‘bachayi bodafurush.

59

Sharbat manga xunob-u g‘izo g‘am bo‘lmish,
Bistar tufrog‘-u oh hamdam bo‘lmish.
Holimg‘a xaloyiq ishi motam bo‘lmish,
Sensiz o‘larim sa’b edi, ul ham bo‘lmish.

60

Soqiy, meni xorxordin ayla xalos,
Gulgul yuzung och, bahordin ayla xalos.
Yo may ber-u intizordin ayla xalos,
Yo o‘lturubon xumordin ayla xalos.

61

Ber jom-u ol, ey mug‘bacha, jonimni evaz,
Qo‘sh tutqil-u, ol ikki jahonimni evaz.
Ani sumururda qatraye tomsa agar,
Sen ham to‘k aning o‘rnida qonimni evaz.

62

Kim, istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va’daki aylasa vafodur anga shart.
Kim, faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

63

Bu davrda yo‘q sen kibi xushxon hofiz,
Huffoz aro sarhalqayi davron hofiz.
Qur’ong‘a sen o‘lg‘an kibi yakson hofiz,
Bo‘lsun sanga barcha ishda Qur’on hofiz.

64

Kim, aylasa soqiyi gulandom tama’,
Ilgidin oning sog‘ari gulfom tama’.
Andin so‘ng agar taqvo-yu islom tama’
Aylar esa, go‘l mardak erur xomtama’.

65

Ul damki, quyosh ayladi mag‘ribqa ruju’,
Gar suhbat o‘shul quyosh bila topsa vuqu’.
Xushtur qilmoq jom quyoshig‘a shuru’,
Ul damg‘achakim, qilur quyosh jomi tulu’.

66

Mug‘ dayrida dast bersa bir lahza farog‘
Kim, mug‘bacha ishqidin qizig‘ bo‘lsa dimog‘.
Ul tutsa mug‘ona lahn ila har dam ayog‘,
Bosh olsam oyog‘idin kerak boshima dog‘.

67

Bir gul g‘amidin dedim, qo‘yay bag‘rima dog‘,
Bergaymu debon, atri dimog‘img‘a farog‘,
Bargin chu mulavvas ayladi bum ila zog‘,
Emdi ani islamakka yuz hayf dimog‘.

68

Berding manga dayr aro iqomat, ey mug‘,
Tuttung qadahi mayi malomat, ey mug‘.
Bu ishni xud aylading karomat, ey mug‘,
Yo Rabki, hamisha bo‘l salomat, ey mug‘.

69

Nomang yetibon topti ko‘ngul izz-u sharaf,
Har lafzi bo‘lub murod durrig‘a sadaf.
Har satri alam cherigining daf’i uchun,
Iqbol sipahidin chekibon bir saf.

70

Soqiy, badanimni qildi g‘am tiyg‘i shikof,
Qonim bori oqti, tutma o‘zungni maof.
Tutqil badali moyatahallal mayi sof,
To mast qilay g‘am cherigi birla masof.

71

Yuz mehnat-u g‘am ko‘ngluma yetkurdi firoq,
Jonimg‘a balo-vu dard o‘qin urdi firoq.
Jismimni fano o‘tig‘a kuydurdi firoq,
Chun kuydi, kulini ko‘kka sovurdi firoq.

72

Ko‘nglumni g‘am-u dard ila qon ayladi ishq,
Ko‘z yo‘lidin ul qonni ravon ayladi ishq.
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,
Bedil ekanim bo‘yla ayon ayladi ishq.

73

Ul damki quyosh botti-yu sarg‘ardi shafaq,
Bazmingg‘a shafaqgun may ila ber ravnaq.
Ne Haqni unut, ne mayni qo‘yg‘il mutlaq
Kim, tongla erur Tengri karim-u barhaq.

74

Ollimda tabibi chorasozim ham yo‘q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo‘q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo‘q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo‘q.

75

Kim, ko‘rdi ekin jahonda oyo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda agar bir o‘lsa paydo xushluq,
Omodadurur yonida yuz noxushluq.

76

Hajringda mening sabrima juz nuqson yo‘q,
Ko‘nglum aro g‘ayri nola-vu afg‘on yo‘q.
Jonimg‘a hayot umidi xud imkon yo‘q,
Yo‘q-yo‘q, yo‘q, sabr yo‘q, ko‘ngul yo‘q, jon yo‘q.

77

Yo‘q dahrda bir besar-u somon mendek,
O‘z holig‘a sargashta-vu hayron mendek.
G‘am ko‘yida xonumoni vayron mendek,
Ya’niki, aloxon-u alomon mendek.

78

Berahmdurur olam-u zolim aflok,
Bemehrdurur anjum-u davron bebok.
Qay sarvi chamanki, jilva qildi cholok
Kim, yerga to‘kulmadi nechukkim xoshok.

79

Zohid, senga hur, manga jonona kerak,
Jannat sanga bo‘lsun, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo‘lsa to‘la, yona kerak.

80

Ey jon-u ko‘ngul, bir-biringizga qorishing,
Ul ko‘y sari raxshi tamanno yorishing.
Hol ustida erkanim so‘zin o‘tkarishing,
Holimni so‘rarg‘a kelmasa yolborishing.

81

O‘lsam yasamang munda mazorimni mening,
Yuklab eliting jismi figorimni mening.
O‘tru chiqarib ahli diyorimni mening,
Ko‘yida qo‘yung tani nizorimni mening.

82

Ey ulki, zamona ahlidin ayrilding,
Ishq ahli tariqi xo‘b ekanni bilding.
Xush qilding alar tavrini-yu qotilding,
Rahmat sanga, yaxshi aylading, xush qilding.

83

Ko‘ksumni jafo tiyg‘i bila yora qiling,
Ko‘nglumni chiqaring dag‘i yuz pora qiling.
Har porasini bir sari ovora qiling,
Ishqim o‘tig‘a bu nav’ ila chora qiling.

84

Gar dilbar emas malakvash-u hurxisol,
Andin so‘ng ulusning ko‘zi ko‘r-u tili lol.
Ne husnig‘a ru’yat-u ne ishqimg‘a maqol,
Billah men-u oshiqliq erur amri mahol.

85

Bir sari sarig‘ po‘lo-u men tutsoq yo‘l,
Ne tog‘-u, ne tuz desak, ne obod-u, ne cho‘l.
Yirtuq kapanakdin chiqarib yalang qo‘l,
Ul qochsa-yu men qovsam-u, men qochsam-u ul.

86

Turmay meni zor-u notavon birla ko‘ngul,
Ulfat tutmish ul oston birla ko‘ngul.
Yoreki manga jon edi ham azm etti,
Men munda-vu xizmatida jon birla ko‘ngul.

87

Umring quyoshig‘a bermasun charx zavol,
Joning qamarini qilmasun davr hilol.
Tun-kun bo‘lg‘il mahravish-u mehrxisol,
Dahr ahlig‘a nurbaxsh-u farxundajamol.

88

Ey joni habib-u ko‘ngli ahbobqa lol,
Men ham qildim jon-u ko‘ngulni irsol.
Ko‘nglumga ber ahbob bila jomi visol,
Jonimni habib oyog‘i tufrog‘ig‘a sol.

89

Sadbarg, binafsha, yo‘qsa nargis, yo gul,
Ichmak bo‘lmas bular havosi bila mul.
To hajr yelidin o‘ldi oshufta dimog‘,
Yuz noxuna ko‘z ichra-vu yuz pora ko‘ngul.

90

Tog‘ ichra ajab shohdur ul sheftahol
Kim, topsa bulog‘e suyi andoqki zulol.
Boshi uza chatri saltanat har yangi tol,
Su ichkali jomi ayshi bir eski safol.

91

To dahrdurur, dahr uza sulton bo‘lg‘il,
To olam erur, olam uza xon bo‘lg‘il.
Davron elining jismida ham jon bo‘lg‘il,
Ham jonlarig‘a moyayi darmon bo‘lg‘il.

92

Mug‘ dayri sari bugun tamanno qildim,
Ul mug‘bacha husnini tamosho qildim.
Din naqdini kufri birla savdo qildim
Kim, qildi bu ishkim, meni rasvo qildim?!

93

Yoshung‘an emish qaro bulutqa mohim,
Gardunni sovurmog‘liq erur dilxohim.
Kirmish qora tufroqqa quyoshdek shohim,
Nevchun qora qilmasun quyoshni ohim.

94

Johilki, hasad bo‘lg‘ay aning jahlig‘a zam,
Nur el ko‘zidin anglasa o‘z ko‘zida kam.
Ko‘zlarni olishmoqqa chekib tiyg‘i sitam,
El ko‘zini ham o‘yg‘ay-u o‘z ko‘zini ham.

95

Bahr-u kemadin ko‘ngulda ko‘ptur alamim
Kim, sekrimayin qadam, yugurmay qalamim.
Maqsuddin oncha soldi bir damda yiroq
Kim, yuz yil ani tay qila olmas qadamim.

96

G‘urbatqa tushub zaif-u bemor o‘ldum,
Dard-u g‘am-u mehnat ilgida zor o‘ldum.
Sartosar ajal toshidin afgor o‘ldum,
Sensiz ne balolarg‘a giriftor o‘ldum.

97

Ishq ahliki, manzurdin istarlar kom,
Ul kom kerakki, bir nazar bo‘lsa tamom.
Gar bo‘lsa nazzorasida andishayi xom,
Ko‘zlarga nazar dog‘i harom o‘ldi harom.

98

Masjidqa necha ahli riyodek yetayin,
Yo rind kibi azimati dayr etayin.
Maqsud topilsa yaxshi, yo‘qsa netayin,
Boshimni olib qay sari emdi ketayin?

99

Jonim aro o‘t la’li suxandoning uchun,
Yuzum uza kavkab mahi toboning uchun.
Ko‘ksumda alif sarvi xiromoning uchun,
So‘zlab, yuz ochib kel bu taraf joning uchun.

100

Zulfung girihig‘a poybast o‘lmishmen,
La’ling mayidin bodaparast o‘lmishmen.
Ul mayni ichib yo‘lungda past o‘lmishmen,
Hay-hay, ne dedim, magarki mast o‘lmishmen.

101

Zog‘eki cho‘qub oqizdi qon ko‘nglumdin,
Tirnog‘ ila uzdi notavon ko‘nglumdin.
A’zosida ko‘r asar damim dudidin,
Minqor ila changida nishon ko‘nglumdin.

102

Xushtur bo‘lsak, ikovla hamdam sen-u men,
Bir-birga desak, yetushsa har g‘am sen-u men.
Bo‘lsaq bor esak haramg‘a mahram sen-u men,
Mug‘ dayri aro bo‘lsa vatan ham sen-u men.

103

Ey bodi sabo, agar havo aylagasen,
Gulshang‘a yetarni muddao aylagasen.
Sarv ollida yer o‘pub duo aylagasen,
Gul qoshida qullug‘um ado aylagasen.

104

Menmenmu visol umididin shod o‘lg‘an,
Bir-bir g‘am-u anduhdin ozod o‘lg‘an.
Oz-ozg‘ina bergan soyi gul atri nasim,
Bulbuldek ishim nola-vu faryod o‘lg‘an.

105

Isyon tutuni berma-yu chehramga amon,
Ul nav' qaro qildiki, mo'rida samon.
Oq aylamagini men siyahro'yi yomon,
Aylayolmon afv suyi birla gumon.

106

Isyon aro qolg'an ibtilonimu deyin?
Ma'mur etkan nafsi vag'onimu deyin?
Yo'q toat ila kibr-u riyonimu deyin?
Yaxshi demak o'zni, bu balonimu deyin?

107

Dayr ichra tilab jomi hiloliy partav,
Sajjoda garav bo'lsa ne tong, ey rahrav!
Chun mug'bacha ollida qilur sajda birav,
Yo'q ayb musallosi aning mayg'a garav.

108

Jonimg'a qilur javr-u jafo yor asru
Kim, yor ichida javr-u jafo bor asru.
Bo'ldum chekibon javr-u jafo zor asru,
Men javrkash-u yor jafokor asru.

109

Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba,
Ul jurmg'a bo'lsa uzrxohi tavba.
Qilmoq necha goh jurm-u gohi tavba,
Bu jurm ila tavbadin, Ilohi, tavba.

110

Ne yuzini g‘oza aylamish farsuda,
Ne ko‘ziga surma tortmish behuda.
Ne qoshini vusma aylamish oluda,
Bu yuz-u ko‘z-u qoshdin eman osuda.

111

Nomang manga ruhdin nishon bo‘ldi yana,
Osoyishi joni notavon bo‘ldi yana.
Har harfi aning tanimda jon bo‘ldi yana,
Har lafzi hayoti jovidon bo‘ldi yana.

112

Chun lola to‘kuldi, lolagun jom ichma,
Gul fasli tugandi mayi gulfom ichma.
Javzoda chu tutti mehr orom ichma,
Ko‘p bo‘lsa zarurat, o‘lmayin, shom, ichma.

113

Mug‘ dayrida bo‘lsa manga bir koshona,
Malja’ dag‘i piri dayrdek farzona.
May mug‘bacha tutsa har zamon mastona,
Kofir bo‘layin bo‘lsa murodim yona.

114

Ham jisminga za’f bo‘lsa jonim sadqa,
Ham joninga jismi notavonim sadqa.
Sarvingg‘a shikast o‘lsa ravonim sadqa,
Yo‘q-yo‘qki, sanga jon-u jahonim sadqa.

115

Yo koshifi asrori nihon bo‘lsa kishi,
Halloli rumuzi osmon bo‘lsa kishi.
Yo oshiqi zori notavon bo‘lsa kishi,
Devona-vu rasvoyi jahon bo‘lsa kishi.

116

Sen xud borasen ko‘ngulni qaytarg‘il, axi,
Bedilliq o‘tidin meni qutqarg‘il, axi.
Yo tiyg‘ chekib to‘sh-to‘shidin yorg‘il, axi,
Bir porasini bizga berib borg‘il, axi!

117

Sen borg‘ali ortmish ko‘ngul zorlig‘i,
Oh o‘qlaridin har nafas afgorlig‘i.
Bilman unutulg‘anmu ekandur manga hajr,
Yo ko‘prak erur bu qatla dushvorlig‘i.

118

Jonimg‘a yetipturur xumor, ey soqiy,
May tutqil-u, berma intizor, ey soqiy.
Avval o‘zing ayla ixtiyor, ey soqiy,
Tutqil menga so‘ngra zinhor, ey soqiy.

119

Oxir dami umr etsa shitob, ey soqiy,
Tutqil manga oncha mayi nob, ey soqiy
Kim, hashrda mast o‘lay xarob, ey soqiy,
To anglamay etsalar azob, ey soqiy.

120

Dedim zaqaning tutub, saqog‘ingni o‘pay,
Ko‘z qoshingga surtubon qabog‘ingni o‘pay.
Guldek yuzung islabon dudog‘ingni o‘pay,
Yo‘q, yo‘q-yo‘q, agar desang, ayog‘ingni o‘pay.

121

Har zulf xamig‘a qilma vobasta meni,
Har ko‘z havasidin etmagil xasta meni.
Har qosh tamayig‘a solma payvasta meni,
Yo Rab, barisidin ayla vorasta meni.

122

Jonimda xumordin azob, ey soqiy,
Ko‘nglumda ham andin iztirob, ey soqiy.
Yetkur manga jomi mayi nob, ey soqiy
Kim, holim erur asru xarob, ey soqiy.

123

Furqat sahari g‘amg‘a yo‘liqturdi meni,
Hijron kuni yuz balog‘a topshurdi meni.
G‘am shomi o‘lum holig‘a yetkurdi meni,
Tong otqucha uyqusizlig‘ o‘lturdi meni.

124

Munglug‘ boshim ostidag‘i toshimnimu dey?
Tosh ustidagi g‘arib boshimnimu dey?
Hasrat suyidin ko‘zimda yoshimnimu dey?
O‘lmakdin sa’broq maoshimnimu dey?

125

Ne dashti maxuf emish fano sahrosi
Kim, anda kirarga yo‘q balo yorosi.
Hargiz chu yonib kelmadi nopaydosi,
Kimdin kishi aylagay nishon ilqosi.

126

Avval menga vasli ruhparvar ne edi,
So‘ngra qilmoq hajr ila muztar ne edi.
Desam bular, ey sho‘xi sitamgar, ne edi,
Derkim, senga ne? Men bilayin har ne edi!

127

Ko‘z birla qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz birla so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.
Eng birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog‘ing yaxshi.

128

Yo Rabki, fano bazmida xos ayla meni,
Faqr ahlig‘a sohibixtisos ayla meni,
Yo doxili zumrayi xavos ayla meni,
Yo ranji avomdin xalos ayla meni.

129

To dasht bahor birla rangin bo‘lg‘ay,
Gulzor nigorxonayi Chin bo‘lg‘ay.
Dasht uzra senga saltanat oyin bo‘lg‘ay,
Gulzor aro taxt ustida taskin bo‘lg‘ay.

130

To charx visoli ko‘yidin surdi meni,
Qatl aylagali hajrg‘a topshurdi meni.
Gar hajr o‘lum holig‘a yetkurdi meni,
Yor etkani ta’na, lek o‘lturdi meni.

131

Hajring sipahi zer-u zabar qildi meni,
G‘am kishvari ichra darbadar qildi meni.
Ondinki batar emas, batar qildi meni,
Jon olg‘ucha ne deyki, nelar qildi meni.

132

Nomangki, menga mujdayi joni erdi,
Hijron g‘amidin xatti amoni erdi.
Zulmatqa savodi gar nishone erdi,
Mazmun anga obi zindagoni erdi.

133

Til so‘z bila to qizitti hangomamni,
Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.
Har necha itikrak ayladim xomamni,
Ul xoma qaroroq ayladi nomamni.

KO‘RSATKICHLAR

TARIXIY, ADABIY VA AFSONAVIY SHAXSLAR NOMI KO‘RSATKICHI

Abu Bakr — qit’a 39, 1.
Abulg‘oziy Sulton Husayn Bahodirxon— debocha, 10.
Ayoz —g‘azal 213, 6; 276, 3.
Aliy — g‘azal 276, 5; qit’a— 47, 1.
Amir Xusrav Dehlaviy — debocha, 11.
Afridun — g‘azal 97, 7; 105, 9; 22, 7.
Ahraman — g‘azal 266, 2.
Bahrom — g‘azal 172, 6.
Bilol — g‘azal 51, 4.
Bilqis —g‘azal 223, 9; 253, 7.
Bulahab— g‘azal 45, 8.
Bul’alo — g‘azal 45, 8.
Vomiq —g‘azal 2, 6; 111, 3; 149, 5; 337, 8; 393, 3; 412, 6; 487, T; 593, 6.
Dovud — g‘azal 225, 6; 287, 5; 538, 4.
Doro — g‘azal 5, 3; 591, 7, debocha, 9.
Jamshid (Jam)— g‘azal 1,3; 16,6; 41,9; 97,7; 105,8,9; 120, 7; 178, 6; 222, 7; 257, 7; 315, 7; 347, 7; 353, 6; 415, 3; 511, 3; 556, 5; 573, 6; 581, 7; 650, 7.
Imron —328, 4.
Iskandar (Skandar) —5, 3; 257, 7; 591, 7.
Iyso —g‘azal 90, 1; 114, 3; 133, 2; 207, 5; 225, 2; 257, 3; 264, 9; 293, 5; 347, 2; 364, 6; 429, 4; 450, 7; 462, 3; 475, 1; 486, 2; 522,4; 542,2; muxammas—1,7-bandi musaddas — 3-band.
Kay — g‘azal 581, 7.
Kayoniy — debocha 19.
Kalim — g‘azal 51, 6.
Kayxusrav — g‘azal 511, 3; 516, 5.
Laylo —g‘azal 2,4; 20,4; 45,6; 72,6; 184,5; 198,5; 221,7; 228, 1; 359, 6; 368, 4; 386, 4; 440, 4; 489, 2; 505, 2; 559, 6; mustazod 1, 4.
Lutfiy — g‘azal 457, 6.
Mavlaviy — g‘azal 650, 6.
Majnun —g‘azal 2, 4; 20, 4; 35, 4; 45, 6; 60, 3; 68, 5; 72, 6; 105,6; 113,3; 114,6; 126,5; 135,4; 138,5; 149,5; 184,5; 187, 5; 221, 7; 222, 1, 2, 3; 227, 6; 228, 1; 257, 5; 289, 4; 305, 5; 320, 2; 335, 4; 336, 1, 7; 337, 8; 345, 3; 359, 6; 361, 7; 368, 4; 386, 4; 393, 3; 398, 7; 412, 6; 413, 7; 426, 5; 429, 3; 435, 5; 439, 2; 440, 4; 449, 6; 453, 4; 455, 7; 458, 7; 480, 2; 482, 6; 487,

7; 489, 2; 493, 6; 505, 2; 528, 7; 548, 7; 552, 5; 559, 6; 590, 573, 2; 598, 6; 612, 2; 627, 1; muxammas —2, 5-band, 7-band; tarji'band —7-band, 1-misra; ruboiy — 39, 3.
Malik shox Alp Arslon — debocha, 11.
Maryam —g'azal 146, 5; 364, 6.
Mirak — g'azal 331, 6.
Mirzo Chuchuk —g'azal 559, 1.
Moniy — g'azal 650, 3.
Muhammad — debocha 1.
Muhammad Umar — g'azal 528, 6.
Namrud — g'azal 5, 2.
Nizomiy — masnaviy VII, 5.
Nuh —g'azal 102, 5; 196, 7; 334, 7.
Odam—g'azal 6, 1; debocha 5.
Rustam — tarjiband IX, band 9; masnaviy VII, 8.
Rasul — g'azal 5, 7; 89, 7.
Ruhulloh (Masih, Muso) — g'azal 18, 3; 23, 6; 49, 5; 57, 5; 59, 1; 65, 2; 73, 4; 89, 2; 101, 3; 120, 6; 139, 4; 146, 6; 150, 5; 156, 5; 164, 4; 165, 3; 219, 5; 226, 3; 231, 5; 285, 2; 287, 5; 289, 2; 293, 5; 311, 4; 328, 4; 351, 4; 353, 4, 7; 374, 3; 384, 3; 388, 2; 462, 1; 463, 2; 465, 4; 471, 6; 483, 1; 486, 1; 488, 1; 501, 9; 508, 6; 558, 4; 600, 3; 605, 3; 639, 4; masnaviy VI, 6.
Saynid Hasan — masnaviy III, 6.
San'on — g'azal 565, 3.
Somiriy — g'azal 388, 2.
Sulaymon —g'azal 7, 7; 157, 8; 196, 7; 253, 7; 266, 2.
Suhayb — g'azal 51, 4.
Suhayl —g'azal 21, 4; 291, 1.
Uzro (Azro) — g'azal 2, 6.
Farhod —g'azal 2, 7; 35, 4; 111, 3; 118, 5, 126, 5; 149, 5; 187, 5; 205, 6; 222, 1, 2, 3; 320, 2; 335, 4; 336, 7; 335, 3; 393, 3; 412, 6; 413, 7; 426, 5; 429, 3; 435, 5; 439, 2; 458, 7; 483, 2; 489, 4; 493, 6; 499, 1; 540, 4; 555, 3; 593, 6; 597, 2; 627, 1.
Firdavsiy — masnaviy VII, 8.
Fuzayl Bormoqiy— g'azal 376, 3.
Xalil — g'azal — 2, 8; 389, 7; 472, 5.
Xizr —g'azal 16,6; 24,6; 57,5; 74,1; 101,3; 225,3; 249,6; 278, 1; 334, 5; 359, 3; 370, 6; 384, 5; 387, 6; 403, 5; 488, 8; 512, 2; 529, 1; 542, 7; 577, 4; 629, 6, 8.
Xotam — debocha 5.
Xusrav —g'azal 156, 9; 282, 7; 355, 3; 540, 4; 650, 7.
Shirin —g'azal 2, 7; 483, 2; 489, 4; 540, 4.
Shuayb — g'azal 51, 6.
Yusuf —g'azal 272, 1; 358, 1; 374, 3; 436, 3; 441, 8; 461, 9; 462, 3; 479,

4; 502, 2; 523, 1; 538, 4; 558, 4; 639, 5; musaddas 3-band.
Ya'juj — g'azal 209, 7.
Ya'qub — g'azal 462, 2; 538, 4.
Qorun — g'azal 56,6; 97, 7; 336, 8; 476, 2; 496, 8; 573, 6.
Qubod — g'azal 120, 7; 353, 6.
Xomun — g'azal 336, 4.
Hofiz Sheroziy — g'azal 287, 7.

GEOGRAFIK NOMLAR KO'RSATKICHI

Adan — g'azal 475, 4.
Ajam — g'azal 199, 9; 309, 7; 317, 7; 430, 7.
Afranj — g'azal 92, 9.
Badaxshon — g'azal 407, 5; ruboiy 50, 3.
Batxo — g'azal 6, 7.
Bog'i Safid — g'azal 127, 7.
Boki Zog'on — g'azal 127, 7.
Zamzam — g'azal 6, 5.
Zuhal — g'azal 223, 9.
Jayxun — g'azal 20, 1; 2; 403, 3; 496, 3.
Imron — g'azal 328, 4.
Iroq — g'azal 91, 9; 199, 9; 309, 7; 317, 7; 430, 7; 471, 7.
Kan'on — g'azal 144, 2; 462, 2.
Ka'ba — g'azal 6,4; 117, 9; 196, 5; 294, 8; 370, 6; 440, 9; 509, 5.
Kashmir — debocha 12.
Madina — g'azal 92, 9.
Marv — g'azal 637, 1.
Mozandaron — g'azal 86, 7; 637, 1.
Nerez — g'azal 309, 7.
Ray — musaddas XI, 2.
Samarqand — muxammas XIII, 2.
Sipohon — musaddas XI, 2.
Tus — qit'a 45, 1.
Ummon — g'azal 95, 4; 407, 6; 529, 3.
Xuroson — masnaviy X, 3.
Xutan — debocha 12; g'azal 264, 1; 520, 3; 623, 5.
Qof — g'azal 133, 6; 194, 6; 465, 5; masnaviy IX, 3.
Qulzum — g'azal 95, 4.
Chin — g'azal 231, 2; 505, 5; 650, 3; ruboiy 129, 2.
Yaman — g'azal 21, 4.
Yasrib — g'azal 6, 8.
Hinduston — g'azal 167, 5.

Hijoz —g‘azal 91,9; 199,9; 213,7; 309,7; 317,7; 430,7.
Hiriy (Hirot) — g‘azal 91,9; masnaviy XIII, 2.

ETNIK NOMLAR KO‘RSATKICHI

Arab — g‘azal 45, 6; 89, 6.
Barlos — g‘azal 262, 7.
Gabr — g‘azal 282, 10.
Juhud — g‘azal 116, 4; 282, 10.
Lo‘li —g‘azal 140, 8; 451, 6; 578, 5.
Tarxon — g‘azal 262, 7.
Turk —g‘azal 213,5; 441,6; 481,5; 499,5; masnaviy VII, 4.
Tarso — g‘azal 282, 10.
Xito — debocha 12-bet; g‘azal 641, 8.
O‘zbak — g‘azal 240, 4.
Hindu —g‘azal 24, 1; 58, 7; 116, 3; 197, 5; 312, 3; 374, 7; 444, 4; 510, 2; 528, 2; 578, 1; 623, 5.

MUNDARIJA

Turkiy adabiyot sultoni 3
Debocha 36

G‘azallar

“Alif” harfining ofatlarining ibtidosi“G‘aroyib”din 53
“Be” harfining balolarining bidoyati “G‘aroyib”din..... 83
“Pe” harfining parivashlarining parvozi “G‘aroyib”din 102
“Te” harfining tarojgarlarining tamoshosi “G‘aroyib”din 104
“Se” harfining samin gavharlarining samarasi “G‘aroyib”din.....118
“Jim” harfining jamilalarining jilvasi “G‘aroyib”din 120
“Chim” harfining chobuklarining chehrakushoylig‘i
“G‘aroyib”din 123
“He” harfining haromiylari husnoroylig‘i “G‘aroyib”din..... 126
“Xe” harfining xo‘blarining xiromi “G‘aroyib”din 130
“Dol” harfining diloromlarining davroni “G‘aroyib”din 135
“Zol” harfining zaviy ul-hayotlarining zufununlug‘i
“G‘aroyib”din 146
“Re” harfining ra’nolarining rustoxezi “G‘aroyib”din 148
“Ze” harfining zebolarining ziynati “G‘aroyib”din 193
“Sin” harfining siyminbarlarining savdosi “G‘aroyib”din..... 209
“Shin” harfining sho‘xlarining shamoyili “G‘aroyib”din 223
“Sod” harfining sanamlarining siyti “G‘aroyib”din..... 243
“Zod” harfining zamironbo‘ylarining ziyosi “G‘aroyib”din..... 246
“Te” harfining tannozlarining tarovati “G‘aroyib”din 249
“Ze” harfining zariflarining zuhuri “G‘aroyib”din 252
“Ayn” harfining iyorlarining alomati “G‘aroyib”din 255

"G'ayn" harfining g'izolalarining g'avg'osi "G'aroyib"din 260
"Fe" harfining fitnalarining fusuni "G'aroyib"din 265
"Qof" harfining qiyomatlarining qironi "G'aroyib"din 269
"Kof" harfining kofirlarining kamoli "G'aroyib"din 278
"Lom" harfining lu'batlarining latoyifi "G'aroyib"din 306
"Mim" harfining mahbublarining malohati "G'aroyib"din 326
"Nun" harfining nozaninlarining nozi "G'aroyib"din 355
"Vov" harfining valohiyatafzolarining vaqoyii "G'aroyib"din 402
"He" harfining humoyunvashlarining halokangizlig'lari
"G'aroyib"din 412
"Lomalif"ning lolaruxlarining lobasi "G'aroyib"din 447
"Yo" harfining yag'moyilarining yuz ko'rguzmaklari
"G'aroyib"din 448
Mustazod 499
Muxammaslar 501
Musaddas 506
Tarjiband 508
Masnaviy 517

Qit'alar

"G'aroyib us-sig'ar" muqattaotining sarsuxanlari 530

Ruboiylar 550

Ko'rsatkichlar

Tarixiy, adabiy va afsonaviy shaxslar nomi ko'rsatkichi 577
Geografik nomlar ko'rsatkichi 579
Etnik nomlar ko'rsatkichi 580



ALISHER NAVOIY

6-jild

Adabiy-badiiy nashr

Arab yozuvidan ko‘chiruvchilar: *Hamid Sulaymonov, Vahob Rahmonov*
Mas’ul muharrir *Vahob Rahmonov*

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 36,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 36,5.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 36-1/22. Buyurtma raqami № 22-285

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

A 51 Alisher Navoiy [Matn]: nasr/to‘plovchi Mirzo Kenjabek. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 584 b.
ISBN 978-9943-8722-3-3

UO‘K 821.512.133-1
KBK 84(5O‘)-5



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ALISHER NAVOIY